

Haqiqiy badiiy asar shunchaki stol oldiga o'tirib yozilavermaydi, xuddi inson kabi tug'iladi! Uning o'z ichki musiqasi, o'z ruhiyati, xatto o'z qismati bo'ladi... Shunaqa kitobgina o'quvchini xayajonga solishi mumkin.

Qo'lingizdagi kitobga kirgan ikki qissaning birida ma'yusroq, birida xushchaqchaq sahifalar ko'proq bo'lishi mumkin. Ammo ikkalasi ham qalb ehtiyoji bilan tug'ilgan. Ular sizga oshno bo'lib qolsa, o'zimni baxtiyor sanagan bo'lur edim.

O'tkir HOSHIMOV,
25 dekabr 2007 yil

O'TKIR HOSHIMOV

IKKI KARRA
IKKI BESH

*Cho'lon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent -2007*

Qo'lingizdagi kitobga O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning

«Dunyoning ishlari» va «Ikki kara ikki besh» qissalari kiritildi. Bu ikki mashhur asar adib iqtidorining turli qirralarini namoyon etishi bilan ham ahamiyatlidir: ulardan biri Sizni hayot haqida o'ylashga undasa, ikkinchisi qalbingizga quvonch va surur bag'ishlaydi.

X $\frac{0301080000}{360/04/2007}$ □ 2007

ISBN 978-9943-05-

© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007- y.

Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz odam — onam siymosi bor. Bunday odamlarning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqat ba'zilarining ismi o'zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan onamga bog'langan.

Dunyodagi hamma onalar farzandiga munosabat bobida bir-biriga juda o'xshaydi. Bas, shunday ekan, bu asar sizlarga bag'ishlanadi aziz Onajonlar!

Muallif

Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir: tun yarmidan oqqanda birdan uyg'onib ketasiz. Shiftga tikilib yotaverasiz, yotaverasiz... Avvaliga chiqillab turgan soat ham bora-bora tinib qolgandek bo'ladi. Uy jimjit, deraza jimjit, qorong'i osmon jimjit. Hatto shamol ham qilt etmaydi. Shu qadar og'ir sukunat cho'kadiki, quloqlaringiz shang'illab ketadi. Zildek yuk ustingizga yopirilib, vujudingizni yerga mixlab tashlaydi; tanho, ojiz bir narsaga aylanib qolasiz. Go'yo butun dunyo bir tarafu siz o'zingiz bir taraf... Shunday paytda mening ko'z o'ngimda to'satdan onam paydo bo'ladi. Qorong'i xonaning bir burchidan chiqib keladi-da, ma'yus jilmaygan ko'yi boshim ustiga egiladi. Yillar zahmatidan dag'al tortgan barmoqlari bilan peshonamni silagandek bo'ladi... O'pkam to'lib, o'zimni tutolmayman. Birdan tush kabi uzuq-yuluq xotiralar yopiriladi, yuragim gursillagancha o'rnimdan turib ketaman.

OQ, OYDIN KECHALAR

Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko'z oldimga keladi. Hovlimizda bir tup bodom bo'lardi. Erta bahorda qiyg'os gullardi-yu, hech meva tugmasdi. Onam: «Bodom yolg'iz bo'lgani uchun meva qilmaydi», deb tushuntirardi. Shu bodom tagida supa bor edi. Kun botishi bilan onam hovliga ko'loblatib suv separ, kunbo'yi oftobda qizigan yer hidi supa oldidagi rayhonlar isiga qo'shilib ajib bir tarovat taratar, atrof jimjit bo'lib qolar edi.

Keyin yirik-yirik yulduzlar bilan to'lgan osmonga tillaqosh-

dek ingichka oy suzib chiqardi. Oyim oyga tikilib turib ohista pichirlar edi:

*Oymomaxon xulla,
Qanotlari tilla.
Subxon allo sizga,
Umr bersin bizga...*

Shunday deb boshimni silardi. Oymoma esa bu sehrli qo'shiqni yana bir eshitgisi kelgandek, muallaq to'xtab qolar, yulduzlar o'ychan ko'zlarini tikib muloyim boqib turishar, onam ertak aytar edi.

Toshlar orasiga kirib g'oyib bo'lgan baxtsiz qizcha yig'lab-yig'lab qo'shiq aytardi:

*Ochil-ochil, oq toshlar-a,
Men onamni ko'rayin-a,
Diydoriga to'yayin-a.*

– Men osmondan yulduzimni tanladim. Qarang, oyi, Yetti og'ayni orasidagi eng yorug' yulduz – meniki...

– Mayli, o'g'lim. o'sha yulduz seniki. Anovi to'rtinchisi – meniki.

– Nega, oyi, to'rtinchisi eng kichkina yulduz-ku!

– Shuning uchun ham meniki... To'rtinchi yulduz– yetimcha yulduz. Ko'rdingmi, yaxshi o'smay qolgan. Yetimlarga rahm qilish kerak.

Yulduzlar sirli ko'z qisishar, tillaqoshdek ingichka oy sirli mo'ralar, shabada sirli shivirlar, sadarayhon bilan tuproq sirli hid taratar, osmon ham, yer ham sirlarga to'la edi.

Goho-goho osmonda birdan yulduz uchib qolardi. Hozirgina yonib turgan yulduz to'satdan lop etardi-yu, ingichka, nurli iz qoldirib g'oyib bo'lardi. Onam cho'chib tushardi:

– Esiz... Bir bechoraning joni uzildi-ya...

Yuragim shuv etib, onamning pinjiga kirardim. Ishqilib, boshqa yulduz uchmasin!

...Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko'z oldimga keladi. Bilmadim, ehtimol o'sha oq, oydin kechaiarda onam ilk bor qo'limga qalam tutqazgandir.

Yulduz to'la osmonga tikilaman. Ehtimol, osmondagi eng yorqin yulduzlar onalarning jonidir. Ehtimol, onalarning so'ngan

yulduzlari birlashib quyoshga aylangandir. Oftobni ona deyishlari, ehtimol, shundandir.

TASALLI

Qabriston jimjit. Faqat yo‘lakning ikki chetida saf tortgan mirzateraklar qabr ustiga bosh eggan farzandlardek onaga orom tilab alla aytadi. Ularning mungli shivirlashi tilovat sadolariga qo‘shilib, yurakni ezuvchi ohangga aylanadi... Oq surp yaktak kiygan, mosh-guruch soqoli o‘ziga yarashgan go‘rkov yuziga fotiha tortib o‘rnidan turadi:

– Bo‘ldi endi, bolam! Bunaqada o‘zingizni oldirib qo‘yasiz. Dunyoning ishlari shu ekan, iloj qancha? – U bir zum indamay qoladi-da, qo‘shib qo‘yadi: – Volidai mehriboningiz xo‘p yarlaqagan odaffil ekanlar. To‘shakda yotmabdilar, birovga zoriqmabdilar... Bunaqa beozor o‘lim har kimga ham nasib etavermaydi.

Nami qurib ulgurmagan tuproq uyumiga tikilganча o‘ylayman.

Ehtimol shundaydir. Onam bu dunyoda kamsuqumgina yashardi. Hech kimga ozor bermasdi. Hech kim bilan hech nimani talashmasdi. Ehtimol, tabiatning eng shafqatsiz elchisi bilan ham olishib o‘tirishni xohlamagandir. Ehtimol...

– Ko‘rdingizmi, – deydi qariya o‘ychan ohangda, – o‘sha kuni kechasi bilan jala quyib chiqdi. To qabrga qo‘ygunimizcha tinmadi. Qo‘yishimiz bilan charaqlab oftob chiqdi. Bunaqa ruhi pok odamlar kam bo‘ladi, bolam, men bilaman-ku.

Ehtimol shunday hamdir. Balki, odamlarning dardiga sherik bo‘laverib ko‘nikib ketgan bu nuroniy qariya kerakli paytda har kimga ana shunday tasalli so‘zini aytar. Rahmat senga, otaxon. Ertami-kechmi har kimning ishi tushadigan mana shu qollaring uchun rahmat. O‘rtanib turgan yurakka suv sepa biladigan mana shu hamdard qalbing uchun rahmat. Faqat... Hamma gap yomg‘irda bo‘lsa, yana aqalli uch kungina onamning umri cho‘zilsa-yu, keyin yomg‘ir emas, muttasil tosh yog‘sa ham rozi edim...

Bir hafta bo‘ldiki, do‘stlarim, tanish-notanishlar eshikdan ma‘yus kirib kelishadi. Do‘stlarim jimgina o‘tirib, jimgina chiqib ketishadi. Boshqalar ohista so‘raydilar:

– Necha yoshda edilar?

Men aytaman... Aytamanu o‘ylayman: onaning yosh-qarisi

bo'ladimi? Mehrning yosh-qarisi bo'ladi-mi? Shafqatning-chi? Sadoqatning-chi?

Ilgarilari bir haqiqatni bilardim. Ona uchun bolaning katta-kichigi bo'lmaydi. Endi yana bir haqiqatni angladim. Bola uchun ham onaning katta-kichigi bo'lmas ekan. Ona – ona ekan. Unga boshqa sifat kerakmas.

TUSH

Tush ko'rsam, onam chiroq ko'tarib yurganmish. Yuzini aniq ko'rmasmishmanu, ammo qo'lidagi chiroq xira nur sohib turganmish. «Ko'zingga qara, bolam, chuqur bor», dermish nuqul. Qarasam, chuqur yo'q. Uyg'onsam, onam ham yo'q...

Ba'zan ish bilan, ba'zan majlislar bilan, gohida ulfatchilik bilan uyga kech qaytardim. Bir kuni Namangandan mehmonlar kelib qolishdi. Uyga borishga ko'nmay, o'zimni restoranga sudrashdi. Yarim kechagacha qolib ketdim. Uyga qaytganimda kayfim bor edi. Darvozani onam ochdi. Sovuqda mushtdek-kina bo'lib dildirab turibdi.

– Shu vaqtgacha uxlamadingizmi! – dedim zarda qilib. – Eshik ochishga sizdan boshqa odam yo'qmi?

Onam ma'yus jilmaydi:

– Uyqu qatta, bolam? O'-o'tiribman.

Ertasiga redaksiyada navbatchilik cho'zilib ketdi. Qarasam, yana onamning chirog'i yoniq.

– Nega uxlamadingiz?

Onam yana ma'yus jilmaydi:

– Bilasan-ku, jon bolam, kamuyqu bo'lib qolganman.

Men nodon, onamning kamuyqu bo'lib qolganiga, yarim kechagacha yuramanmi, tongotar qaytamanmi, onamning chirog'i muttasil lipillab turishiga xo'p ko'nikkan ekanman.

Qaysi kuni ishdan keyin moskvalik mehmonlarni aeroportga kuzatib qo'yadigan bo'ldim. Samolyot kechikib uchdi. Yarim kechada uyga qaytsam... ham-mayoq jimjit. Hamma o'z oromi bilan...

Tushimda onam chiroq ko'tarib yurganmish.

HAQQUSH

Do'stlarim: «Juda siqilib ketdingiz, aylanib kelamiz», deb toqqa sudrashdi. Alla-pallagacha o'tgan-ketgandan gaplashib o'tirdik. Qiziq, har gal bosh ustiga bosib tushgudek mag'rur qad kerib turgan tog'larni, ulkan novvot parchasidek qirrador qoyalarni ko'rganda hayot abadiy emasligini o'ylayman. Qorong'i osmonda yana ham qoraroq soyadek qilt etmay turgan bu qoyalar bizga o'xshaganlarning necha-nechasini ko'rdi ekan?.. Faqat ularning tili yo'q...

Kechasi tunagan joyimiz sovuq edi. Anchagacha uxlay olmadim. Tashqarida teraklar shitirlaydi. Qayerdadir, yaqin joyda daryo shovullaydi. Bir mahal qulog'imga dilni orziqtiruvchi mungli tovush chalindi: «Haq-qu, haq-qu...» Bir zum sukunat tushdida, ancha olisdan yana o'sha tovush takrorlandi: «Haq-qu, haq-qu...»

Bola edim, go'dak edim, Onam aka-ukalar haqida g'alati bir cho'pchak aytib bergan edi. Emishki, bir zamonlar ikki aka-uka yashagan ekan. Birining oti Ilhaq, ikkinchisniki Is'hoq ekan. Ikkalasi bir-birini ko'rarga ko'zi yo'q, juda noahil ekan. Ularning ko'rnglini olaman, deb ikki o'rtada onalari adoyi tamom bo'пти. Shunda qodir Xudoning qahri kelibdi-yu, ikkovining ham ko'zini ko'r qilib, qushga aylantirib qo'yibdi.

Shundagina aka-uka bir-birini ko'rmasa turolmasligini, bir-biriga kerak ekanligini tushunishibdi. O'shandan beri ikkalasi kechalari bo'zlab bir-birini chaqirib chiqisharmishu, topolmas emish...

Tashqarida hamon terak barglari shitirlaydi. Daryo shovullaydi. Mana shu shovullagan sukunat ichida dilni titratadigan iztirobli nido yangraydi: «Ilhaq! Is'hoq!..»

Bechora onam! O'sha iztirobli afsonani aytayotganingda inidan mo'ralagan qaldirg'och bolasidek ko'rpadan bosh chiqarib yotgan besh bolang bir-biri bilan inoq bo'lishini shunchalik xohlaganmiding!

...Onalar farzandlari hamisha birga bo'lishini istaydilar. Qismat esa, ularni qanot chiqarishi bilan har yoqqa uchirib ketadi. Hayot loaqal shu masalada ham onalarga shafqat qilmaydi.

QARZ

Bir kuni gapdan-gap chiqib, aka-ukalar oyimga hazillashdik:

– Har oy pensiya olasiz. Shuncha pulni qayoqqa qo‘yyapsiz? Sandiqqa bosyapsizmi?
– Sandiq qatta, bolam? – deb kuldi onam. – Qarzlirim bor. O‘shanga beraman-da.
Akamning qovog‘i osildi:
– Qarz? Hali birovdan qarz ham olasizmi?
– E, senga nima, bolam! Mening ishimga aralashib nima qilasan?
Keyin gap boshqa yoqqa aylanib ketdi. Bu suhbatni butunlay unutib yuborgan edim. Qaysi kuni ertalab hovlida aylanib yursam, qo‘shnimizning yetti yashar qizchasi Nilufar chiqib qoldi. Oppoq bantik taqib, atlas ko‘ylak kiyib olibdi.
– Ha, Nilu, yasanib olibsan, mehmonga ketyapsanmi? – dedim erkalab.
– Bugun man tug‘ildim, – dedi u qop-qora ko‘zlarini pirpiratib jilmayarkan.
– Iya, yubilyar ekansan-da, shoshmay turchi, hozir...
Uydan bir hovuch konfet olib chiqdim.
– Mana, o‘rtoqlaring bilan ye.
Nilufar kattalardek jiddiy bosh chayqadi:
– Men ishkalad yemayman. Tishim tushgan. –Keyin yana o‘sha jiddiy ohangda qo‘shib qo‘ydi: – Bultur poshsha buvim menga tufli olib beruvdilar. Tug‘ilganimda. – Qizcha o‘ylanib qoldi. – Keyin-chi, Bahoga uch oyoqli velosiped, Baxtiga ko‘ylak...
Qo‘limdan konfet tushib ketdi.

IKKI AFSONA

Gazetachining ishi bir tomondan uloqchi otga, ikkinchi tomondan omoch tortadigan otga o‘xshaydi. Uloqchi otdek manzilga yuguradi-yu, yer haydaydigan otdek har kuni omoch tortadi...

Navbatchi edim. Xonada yolg‘iz ishlab o‘tirsam, farrosh kampir Vera xola kirdi.

- Shu stol siznikimi? – dedi negadir qovog‘ini solib.
- Shu.
- Chekasizmi?
- Chekaman.

– Nega kulni polga tashlaysiz? Kuldongiz bo‘lmasa, ayting, uydan obkeb beray!

Mulzam bo‘ldim. Yo‘q, yo‘lakning devorida «Farrosh mehnatini hurmat qiling» degan yozuv ilib qo‘yilgani uchungina emas. Gap shundaki, farroshning ishi qanaqa bo‘lishini yaxshi bilaman, o‘zimning boshimdan o‘tgan.

Oyim farrosh edi. Shundoq hovlimizning yonida pioner lageri bo‘lardi. Oyim kun chiqmasdan turib yo‘lkalarni supurardi. Biz aka-ukalar suv sepamiz. Aslida suv sepish unchalik qiyin emas. Yo‘lka chetidagi ariqchaga tushib olasizu alumin tog‘oracha bilan sepib tashlayverasiz. Keyin oyim bandiga uzun tayoq bog‘langan burgan supurgi bilan supurib ketaveradi. Ertalab suv muzdek bo‘lgani uchun oyog‘ingiz sovqotib «kesilib» ketadi. Ammo gap bunda ham emas. Hammasidan yomoni – tong otmasdan turish. O‘zi yarim kechagacha «ko‘cha sanqib» rosa holdan toya-miz. Endi shirin uxlab yotganda oyim sekin turtadi:

– Bo‘la qol, o‘g‘lim, hali-zamon kun yoyilib ketadi.

O‘zing tengi bolalar lager palatkalarida maza qilib uxlab yotganida sen suv sepib yo‘lka supurishing... Nima desam ekan... Sal alam qiladi kishiga. Shundanmi, vaqti-vaqti bilan «shaytonlik» qilaman. Goh boshim og‘rib qoladi, goh oyog‘im... Oyim negadir ko‘proq meni avaylaydi. o‘rnimga o‘zim bilan bir ko‘rpada tepishib yotadigan Abduvohid degan o‘rtog‘immi, akammi turib ketadi. Ba‘zan dadamning jahli chiqadi. «Nima, buningni boshida shoxi bormi, ishlasin-da», deydi...

Katta akam institutga kirganida beshinchimi-oltinchimi sinfda o‘qir edim. Akam student bo‘lganidan keyin oyimning kasbi unga yoqmay qoldi. Oxiri ochig‘ini aytdi:

– Oyi, qo‘ying endi shu ishingizni...

Oyim o‘yga toldi.

– Nima, or qilyapsanmi? – dedi bir muddat xomush o‘tirgach.

— Men o‘g‘irlik qilayotganim yo‘qku, bolam. Mehnatning aybi bormi?

Dadamdan ham, akalarimdan ham sado chiqmadi.

Nimagaligini bilmaymanu, o‘sha kuni negadir qaytadan go‘dak bolaga aylanib qolgandek bo‘ldim. Kichkintoylik paytimda onam bir yoniga ukamning beshigini qo‘yib, bir yonida meni olib yotardi.

Qish kechalari sandalga tiqilib yotarkanman, yali-naman:

– Oyi, cho‘pchak aytib bering.

- Uxla, bolam, charchaganman.
- Ayta qoli-i-ing.
- Xo‘p, ko‘zingni yumib yotgin-da, eshit... Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim-qadim zamonda...
- Gap qayoqqa qarab ketayotganini darrov bilaman.
- Yana obkashmi?
- Yo‘q, oftob...
- Uniyam aytgansiz-ku
- Boshqasini bilmayman-da...
- Mayli, ayta qoling.
- Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda oftob bo‘lgan ekan.
- Shu o‘zimizning oftobmi?
- Ha, o‘zimizning oftob. Shunday qilib, oftob bor ekan. Lekin yer yuziga sira chiqqisi kelmas ekan. Har kuni ertalab Xudoga nola qilarkan. Yer yuzida iflos narsalar ko‘p, hech ko‘rgim kelmaydi der ekan. Tangri uni ovutarkan. Sen chiqavergin, yer yuzini iflos narsalardan tozalaydigan odamlar bor, der ekan. Shuning uchun kim yer yuzini tozalasa, o‘sha eng yaxshi odam bo‘larkan.
- Siz yaxshisiz-a? Doim ko‘chalarni suparasiz-ku.
- Quloq sol, o‘g‘lim... Oftob har kuni yana Xudoga nola qilarkan. Yer yuzida yomon odamlar bor. Ularniyam ko‘rgim kelmaydi, der ekan. Tangri uni ovutarkan. Sen chiqavergin, qancha ko‘p nur sochsang, yer yuzida yomon odamlar shuncha kamayadi, der ekan.
- Oyi, akam yomon-a?
- Nega, jinnivoy?
- Hali yasagan qorbobomni tepib buzib tashladi-ku!
- Yo‘q, akang yaxshi... Yomonlar boshqacha bo‘ladi.
- Qanaqa bo‘ladi?
- Katta bo‘lganingda tushunasan. Bo‘ldi, endi uxla.
- Yettinchi lampaning piligi pasaytirib qo‘yilgan, uy ichini tanchadan chiqqan ko‘mir hidi, lampamoy isi tutgan... Nimqorong‘i. Hech ham uyqum kelmaydi.
- Oyi, obkashniyam ayting.
- Bo‘ldi, uxla...
- Ayta qo-li-i-ing.
- Mayli, eshit. Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim zamonda

bir yigit bo'lgan ekan. O'zi yaxshi yigit ekan-u, bir kuni onasini xafa qilib qo'yibdi.

– Nima qipti?

– Ishqilib, xafa qilib qo'yibdi-da. Ertalab ko'chaga chiqsa, qo'shni kampir ikki bukilib obkashda suv olib ketayotganmish.

– Yigit yugurib borib kampirning qo'lidan obkashni olmoqchi bo'libdi. Kampir bo'lsa, rahmat o'rniga yigitning yelkasiga obkash bilan rosa uribdi.

– Og'ribdimi?

Oyim jim qoladi.

– Nima og'riydi? – deydi anchadan keyin.

– O'sha yigitning yelkasi-da.

– Og'ribdi. – Oyim kuladi. Keyin xo'rsinadi. – «Sen, – debdi kampir yigitga, – birovning ko'nglini ovlashdan oldin o'z onangning ko'nglini og'ritmaslikni o'rgan».

– O'sha bola keyin onasini xafa qilmabdimi?

– Yo'q, hecham xafa qilmabdi. – Oyim uzoq jimib qoladi, keyin sekin davom etadi. – Ko'rdingmi, odam eng avvalo o'zining yaqinlarini yaxshi ko'rishi kerak. Dunyoda yaxshi odamlar ko'p. Judayam ko'p. Ammo sen adangni, opangni, akalaringni yaxshi ko'rmasang...

– Sizniyam, – deyman uning gapini bo'lib.

– Meniyam... – deydi onam kulib. – Meniyam yaxshi ko'rmasang, dunyoda hech kimni yaxshi ko'rolmaydigan bo'lib qolasan.

– Uyimizniyam, – deyman mahmadonalik qilib.

Oyimni jahli chiqmaydi.

– Uyimizniyam, – deydi ma'qullab. – O'z uyimizni yaxshi ko'rmasang, yuz qavatli uylarniyam yaxshi ko'rolmaysan.

– Endi chakka o'tmaydimi, oyi?

– Tomdanmi? Adang tuzatib tushdilar-ku. Endi o'tmaydi.

Sukunat cho'kadi. Xayol suraman. Yuz qavatli uy qanaqa bo'lishini o'ylaymanu sira ko'z o'ngimga keltirolmayman.

– Oyi, – deyman sekin. – Toshkentda yuz qavatli uy bormi?

– Yo'q.

– Toshkent katta shaharmi?

– Juda katta shahar.

– Undan kattasi yo'qmi?

– Bo'lsa bordir. Sen o'sha shaharlarni yaxshi ko'rish uchun

Toshkentni yaxshi ko'rish kerak. Toshkentni yaxshi ko'rish uchun o'zimizning Do'mbiobodni yaxshi ko'rgan, xo'pmi?

– Xo'p. Nega?

– Katta bo'lganingda tushunasan. – Oyim peshonamni silaydi.

Negadir xo'rsinadi.

Butunlay uyqum o'chib ketadi.

– Oyi, – deyman yana. – Daryo kattami, dengizmi?

– Dengiz.

– Daryo-chi?

– Uyam katta.

– O'zimizning Qonqusdan ham kattami?

– Katta.

– Xo'ja aytadiki, Chirchiqda daryo bormish...

Oyim kuladi.

– Endi uxla, bolam.

Uyqu qayoqda? Nuqul daryolarni o'ylayman.

– Yozda-chi, – deyman esimga tushib. – Vali Qonqusda oqib ketay degan. Akam olib chiqqan!

– Bari bir, – deydi oyim o'ychan ohangda. – Qonqusniyam yaxshi ko'rgan.

– Nega?

– Nega deganda, Qonqus o'zimizning anhor. Undan o'zimiz suv ichamiz.

– O'shanaqa qilsam, boshqa daryolarniyam yaxshi ko'rib qolaman-a?

Oyim tag'in kuladi.

– Albatta.

– Kuchugimniyam yaxshi ko'ray-a?

– Yaxshi ko'rgan, o'g'lim.

– Oyi, Adham jinni-a?

– Nega?

– Kecha-chi, mushukni muz bilan urdi. Mushuk cho'loq bo'lib qoldi.

– Jonivorlarga ozor berib bo'lmaydi, bolam. Bo'ldi, endi uxlaymiz.

– Xo'p... Katta bo'lsam, ka-a-atta shaharlarga boramanmi?

– Borasan, o'g'lim, borasan. – Oyim sekin-sekin mudrab ketadi.

Nimqorong'i shiftga tikilib yotganча xayol suraman. Goh

katta shaharlarga borib qolaman, goh daryolarda suzaman. Beshik g'ichiraydi. Ukam yig'lay boshlaydi. Oyim darrov uyg'onadi. Beshikni ohista tebratib, alla aytadi. Oyim ukamga alla aytadi-yu, ohangiga men uxlab qolaman...

Haqiqat havoga o'xshaydi. Nafas olib turasizu o'zini ko'rmasiz. O'ylab qarasam, oyim go'dakligimda qayta-qayta aytib bergan mana shu ikki afsona hayotdek oddiy, hayotdek chuqur haqiqat ekan.

GILAM PAYPOQ

Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelaman. Kavkaz tomonda ko'p bo'ladi. Juba deyishadi, jurabi deyishadi. Oyim xuddi noyob narsaga ega bo'lgandek, uzundan-uzoq duo qiladi. Shundoq mehribon o'g'li borligini aytib qo'shnilariga maqtanadi. Uning oyog'i kasal. Salqin tushishi bilan shishib ketadi, og'riydi.

Qo'ni-qo'shnilar ahvol so'rasa, ularniyam, o'ziniyam yupatadi.

— Ha, endi keksalik-da, o'rgilay.

Lekin onamning oyoq og'rig'i faqat keksalikdan emas. Buni boshqalar bilmasa ham, men bilaman. Yaxshi bilaman.

Bolaligimda ko'p kasal bo'lardim: qizamiq, ko'kyo'tal, bezgak... Shuning uchun oshxonadagi mixda ko'k qarg'aning patidan tortib, gultojixo'rozgacha ilig'lik turardi... Ayniqsa, tomoq og'rig'i yomon qiynaydi. Oyog'im zaxga tegishi bilan tomog'im og'rishga tushadi. Oyoq bilan tomoqning nima aloqasi borligini haliyam tushunolmayman.

O'shanda necha yoshligim esimda yo'q. Biroq juda kichkina edim. Bir kuni akalarim bilan yaxmalak o'ynab terlab ketdim. Terlab turib muz yedim. Kechqurun isitma ko'tarildi. Quv-quv yo'talaman. Oyim tomog'imni achchiqtosh bilan chayib ko'rdi, bo'lmadi, turshak qaynatib suvini ichirdi, bo'lmadi... Oxiri tomog'im xippa bo'g'ilib qoldi. Og'riqni sezmaymanu nafas olishga qiynalaman. Hushimdan keta boshlaganimni es-es bilaman. Qulog'im ostida onamning chirqillab yig'lagani, hadeb bir gapni qaytarayotgani eshitiladi:

— Voy, endi nima qilaman! Voy, bolam o'lib qoladi!

Keyin meni shosha-pisha ko'rpachaga o'radi. Bir mahal onamning qo'lida ketayotganim esimda bor. Gupillatib qor

yogʻayotganini his etib turardimu, biroq yuzimga qor tushmas edi. Onamning issiq nafasi urilib turar, u sirgʻanib-sirgʻanib borar, ogʻir hansirar edi.

Xira chiroq miltirab turgan allaqanday uyga kirdik. Koʻz oʻngim yana qorongʻilashib ketdi. Oyim hamon chirqillaydi.

– Oʻlib qoladi! Bolaginam oʻlib qoladi!

– Vahima qilmang, poshsha, dardni bergan Xudo, davosiniyam beradi.

Bu Hoji buvining ovozi ekanini gʻira-shira idrok etdim.

Hoji buvi boshimni tizzasiga qoʻyib chalqancha qilib yotqizdi. Doka oʻralgan barmogʻini ogʻzimga tiqdi. Koʻnglim agʻdarilib, tipirchilagancha yigʻlar, ammo Hoji buvining qoʻlidan chiqib ketolmasdim. U tomogʻimga nimadir qildi. Dod solib qoʻlini tishlab oldim. Qiziq, birpasdan keyin ahvolim yengillashdi. Koʻzimni ochsam, Hoji buvi jilmayib turibdi.

– Nega tishlaysan, kuchukvoy? – dedi boshimni silab.

Keyin tepamga oyim engashdi. U hamon hansirar, sochlari toʻzgʻib ketgan, yuzi jiqqa hoʻl edi.

Birpasdan keyin qaddimni rostlab, tanchaga oyogʻimni tiqib oʻtirdim. Hoji buvi allaqanday taxir suyuqlik ichirdi. Keyin oyimga qaradi-yu, birdan xitob qildi.

– Voy poshsha-a-a! Nima qilib qoʻydingiz, tamom boʻp-siz-ku!

Oyim talmovsirab, goh menga, goh Hoji buviga qarar edi.

– Oyogʻingizdan ayrilibsiz-ku! – dedi Hoji buvi boshini chayqab. – Shu ahvolda qandoq keldingiz?

Kavshandozda turgan oyimning kalishini endi koʻrdim. Kalishning ichi qorga toʻla edi.

– Sarpoychan kelaverdingizmi?! – dedi Hoji buvi hamon oʻsha vahimali ohangda.

– Endi nima qilasiz? Qargʻaning miyasini chaqib surmasangiz, choʻloq boʻlib qolasiz.

Oyim tanchadan oyogʻini chiqardi. Ikkala oyogʻi qip-qizil goʻsht boʻlib ketgan edi.

– Sovuq yegani yoʻq, – dedi sekin. – Qaytaga isib ketdi. Qorda oʻzi isib ketarkan.

Hoji buvi uning oyogʻini uqalab koʻrdi.

– Sezyapsizmi?

– Nimani? – dedi oyim oyogʻiga emas, menga qarab.

– Qo‘limni sezyapsizmi?

Oyim indamay bosh chayqadi-da, piqillab yig‘lab yubordi.

... Ertasiga u yotib qoldi. Uzoq yotdi. Dadam bir joydan qarg‘a otib keldi. Hoji buvi qo‘lidan kelgancha dori-darmon qildi... Keyin oyim tuzaldi. Biroq salqin tushishi bilan oyoqlari shishib, azob beradigan bo‘lib qoldi...

Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelardim. U xuddi noyob narsaga ega bo‘lgandek, uzoq duo qiladi, birpasda hamma qo‘shnilarga ko‘z-ko‘z qilib chiqadi, shundoq «mehribon» o‘g‘li borligini aytib maqtanadi. Shunda qor gupillab yog‘ib turgan mudhish kecha, onamning qip-qizil go‘shtga aylanib ketgan oyoqlari ko‘z o‘ngimga keladi-yu, indamay chiqib ketaman.

ENG OG‘IR GUNOH

Kuz kirganini qishloq bolasining qo‘lidan bilsa bo‘ladi. Yong‘oq hali «paqqa» bo‘lib ajralmasdan turib, daraxtga tarmashib ketamiz. Xom yong‘oqning po‘stini tozalash oson emas. G‘adir-budir g‘isht topib, ishqalayverasiz, ishqalayverasiz. Oxiri sap-sariq yong‘oq ajralib chiqadi. Ammo qo‘lingiz ham xina qo‘ygandek sarg‘ayib ketadi. Loy bilan ming marta ishqalab yuvsangiz ham foydasi yo‘q. Pishmagan yong‘oqning bitta yaxshi tomoni bor: og‘ir bo‘ladi. Uchi bilan dum tomonini yaxshilab ishqalab yog‘lasangiz, zoldirdek sip-silliq soqqaga aylanadi. Ana undan keyin «soqqa quvar» o‘ynayverasiz. Soqqa qancha kichkina bo‘lsa, shuncha yaxshi. Manaman degan yong‘oqqa qars etib uriladi-yu, o‘ziga uncha-muncha yong‘oq tegmaydi. Tuproq orasiga yashirinib yotavera-di. O‘yin-ku o‘z yo‘liga. Yong‘oqning yana bitta fazilati bor: qorinni to‘q tutadi. To‘rttasini yeb olsangiz, yarim kun kekirib yurasiz.

... Endi o‘ylab qaragam, o‘sha – urush endi tugab, og‘ir-chilikning zahri ketmagan yillarda yaxshiyam meva-cheva bo‘lgan ekan. Odamlarning joniga shu ora kirgan ekan-da. Erta ko‘klamda sumalak, ketidan ismaloq, keyin qarabsizki, tut pishadi. Ermon buvaning tuti! Mayiz deysizmi, shinni deysizmi, hammasi tutdan bo‘ladi. Bundan keyin olma, uzum, kuzda yong‘oq. Ham ovqat, ham o‘yin.

Bir kuni Xo‘ja, Toy, Vali to‘rtovlashib rosa soqqa quvar o‘ynadik. Jimitdekkina soqqam bilan bir do‘ppi yong‘oqni yutib

oldim. O'yinga jo'raboshimiz ham aralashgan edi, uyam bir cho'ntak yong'og'idan ayrildi.

Kechqurun og'zim qulog'imga yetgudek bo'lib bir do'ppi yong'oq ko'tarib keldim. Qarasam, oshxona tomondan gup-gup etgan tovush kelyapti – oyim o'g'irda tolqon qilyapti.

Nima uchundir onam tez-tez tolqon qilardi. Sababini keyin tushunganman. Non ko'pligi uchun emas, kamligi uchun tolqon qilisharkan. Tolqon to'yimli bo'ladi. Ikki qoshiq yeb, ustidan olma choy ichsangiz, darrov nafsingiz qonadi.

Yong'oqni ko'tarib oshxonaga kirdimu do'ppini uzatdim.

– Qayoqdan olding? – dedi oyim ko'zimga tikilib.

– Yutdim. Mang, tolqonga soling.

Bilaman, yong'oqli tolqonning ta'mi boshqacha bo'ladi. Yog' mazasi kelib turadi.

Onam do'ppi to'la yong'oqni qo'limdan olib, yelkamga qoqdi:

– Bor, sabr qilib turgin, hozir yong'oq tolqon qilib beraman.

Supadagi xontaxta oldiga borib o'tirdim. Dasturxonda to'nkarib qo'yilgan ikkita piyola bilan choynakdan bo'lak narsa yo'q edi. Zum o'tmay oyim boyagi tovoqda tolqon ko'tarib keldi. Bir qoshiq tolqon yeyishim bilan to'satdan soqqam esimga tushib qoldi. U cho'ntagimni qarayman – yo'q, bu cho'ntagimni qarayman – yo'q.

– Nima bo'ldi? – dedi oyim tipirchilayotganimni ko'rib.

– Soqqam qani?

– Qanaqa soqqa?

– Yutadigan soqqam!

Birdan ko'nglimga g'ulg'u tushdi. Oyim soqqamniyam qo'shib chaqib qo'rgan bo'lsa-ya!

Og'zimda tolqon bilan oshxonaga yugurdim. Bir chekkada yarimta g'isht, yonida tesha yotibdi. Po'choqlar orasini titkilab, yutadigan soqqamning yaltiroq po'chog'ini topdim. Alamimdan chinqirib yubordim:

– Soqqamni nima qilib qo'ydingiz?

Supa tomondan onamning ovozi keldi:

– Nima bo'пти?

– Nima qildingiz? – dedim alam bilan. – Soqqamni nima qilib qo'ydingiz?!

Oyim sekin tepamga keldi.

– Mana, – dedim po'choqni ko'rsatib. – Soqqamni chaqib

qo'yibsiz-ku!

Oyim negadir kuldi:

– Qayoqdan bilaman. Qo'y, bolam, akang boshqasini topib berar.

Oyimning kulishi battar alam qildi.

– Kerakmas, kerakmas! – dedim oyog'imni tipirlatib. – Yutadigan soqqam edi.

Oyim boshimni siladi.

– Bilmabman-da, o'g'lim. O'zing do'ppisi bilan berding. Yur, choyingni ich! – U qo'limdan tutib yana supaga olib chiqdi. Oldimga tolqonli tovoqni surib qo'ydi. – O'tir, ovqatlanib ol. Qorning ochib ketdi-ku!

Tovoqni nari surdim.

– Yemayman!

Oyim tovoqni yana men tomonga surdi.

– Ol, bolam, shirin bo'пти.

– Kerakmas! Kerakmas! Kerakmas! – Tovoqni qo'lim bilan bir urgan edim, uchib avval supaga, undan yerga tushdi. Tolqon yer bilan bitta bo'lib sochildi-da, tuproqqa qorishib ketdi.

Birdan oyimning ko'zida g'azab chaqnadi. Shapalog'ini yozib quloq-chakkamga yaqin keltirdi. Qo'rquvdan ko'zimni yumib oldim. Yo'q, urmadi. Biroq labi titrab pichirladi:

– Non-ku, bu, ahmoq! Gunoh bo'ladi-ku!

U sekin yerga tushdi. Sochilgan tolqonni kafti bilan sidirgan edi, tuproq aralashib chiqdi. Onam boshini ko'tarib menga qaradi. Ko'zlarida alam, ta'na bor edi.

Birpasdan keyin opam, akalarim dasturxon atrofida yig'ilishdi. Har bittasiga yarim qoshiqdan tolqon yo tegdi, yo tegmadi. Keyin dadam keldi, oyim oshxonadan bug'i chiqib turgan bir lagan lavlagi ko'tarib chiqdi. Lavlagi shirin narsa-yu, har kuni yegandan keyin jonga tegadi. Bari bir non emas.

– Tolqon qilmadingmi? – dedi dadam bir bo'lak lavlagini puflab-puflab yer ekan.

Qo'rquv ichida oyimga qaradim.

– Qiluvdim, – dedi u sekin.

– Qolmadimi?

– O'g'ir o'lgur ag'darilib ketdi, – dedi onam aybdor ohangda.

– Nima? – dadam lavlagi bo'lagini qo'lida tutganicha jahll bilan onamga qaradi.

– To‘kilib ketdi, – dedi oyim boshini quyi solib.
– Padaringga la’nat! – dedi dadam sekin, ammo tahdidli ohangda. – Kap-katta xotin uvol qilib o‘tir-sang. Bilib qo‘y, non ko‘r qiladi seni! – U shahd bilan o‘rnidan turdida, bir hatlab supadan tushdi. Tez-tez yurib ko‘chaga chiqib ketdi.

Men oyimga qaradim. U bo‘lsa hamon bosh ko‘tarmay o‘tirar, ko‘zlarida iztirob bor edi.

BOLA YIG‘ISI

Onamning jahli chiqqanini kamdan-kam ko‘rardim. Ammo bu gal juda qattiq achchiqlandi. Opamnikiga ketayotgan edik. Tor ko‘chaga burilishimiz bilan yig‘i ovozi eshitildi. Ko‘cha chetida uch yoshlardagi bola yerga dumalab tajanglik bilan chinqirar, oppoq ko‘ylagi, ishtonchasi qora tuproqqa belangan edi.

– Mashinani to‘xtat, o‘g‘lim, – dedi onam xira tortgan ko‘zlarini o‘sha tomonga tikib.

– Nima edi?

– To‘xtata qol, bolam, – deya onam ma’yus jil-maydi.

Ikkilanibroq to‘xtatdim.

Onam inqillab-sinqillab eshikni ochib tushdi. Uishgan oyoqlarini uqalagancha oqsoqlana-oqsoqlana orqaga, bola yig‘layotgan tomonga qarab ketdi. Men ham beixtiyor ergashdim. Bola hamon yerga dumalar, har dumalaganda quloqni teshib yuborgudek chinqirar edi. Uning tepasida o‘zi ham o‘pkasini arang bosib turgan yoshgina juvonga endi e’tibor berdim.

– Jinni bo‘lib qolgan bu, – dedi juvon yig‘lamoqdan beri bo‘lib. – Morojniy ober, dedi. Olib bersam bunaqa qilyapti.

Bola hamon chinqirib yig‘lar, xarxasha qilar edi:

– Issiq manoj! Issiq manoj obering!

– Unaqasini qayoqdan topaman! – Juvonning toqati toq bo‘ldi shekilli, dumalayotgan o‘g‘lini yerdan yulqib ko‘tardi. Orqasiga bir-ikki shapatiladi.

– Hoy, qizim, bola-ya bu, bola-ya! – onam chumchuqdek chirqillab juvonga yopishdi. – Kel, jonim, – dedi bolani bag‘riga bosib. – Kela qol, o‘zim senga issiq morojniy olib beraman.

Bola yig‘idan to‘xtamadi. Ammo avvalgidek tipirchilamasdi. Uning shunchalik jahlini chiqargan «sovuq manoj» oqib ko‘ylak-chasining oldini shalabbo qilgan, boshdan oyog‘igacha loy edi.

– Nimaga qarab turibsan? – dedi onam menga to‘satdan. – Yo sen ham bolamisan? Bor, olib kel mashinangni. Hozir utaga boramiz. Di-ditga tushamiz-a?

Rostini aysam, bolani shu ahvolda mashinaga o‘tqazgim kelmadi. Chet eldan keltirilgan yangi parolon g‘ilof olgan edim. Hammasini rasvo qilib yuboradi endi. Noiloj mashinani tislantirib olib keldim, qovog‘imdan qor yog‘ayotganini o‘zim ham sezib turardim.

Onam yoniga o‘tirgan juvonga tushuntirdi:

– Bunaqada bola xuyli bo‘lib qoladi, qizim. Aldab-suldab ovuting-da. Ana, di-ditga tushdik.

Bola endi yig‘lamos, ammo o‘pkasi to‘lib to‘xtovsiz hiqillar edi,

– Qayoqqa ketayotgan edinglar, o‘rgilay? – dedi onam ayolni ham yupatuvchi ohangda.

Meni ona-bolaning qayoqqa borishi emas, o‘rindiqning qancha joyi loyga belangani ko‘proq o‘ylantirardi.

Ayol chimirilib o‘tirganimni sezdi shekilli, xijolat chekib shosha-pisha qo‘l siltadi.

– Mana, keldik. Rahmat. Shu yerda trolleybusga chiqamiz. – U ovunib qolgan o‘g‘ilchasini ko‘tarib shosha-pisha mashinadan tushdi. – Katta rahmat, baraka topinglar.

Qarasam, xuddi o‘zim o‘ylagandek: o‘rindiqning yarmi loyga belanibdi.

– Qiziqsiz, – dedim jahlimni bosolmay, – hammaning ishiga aralashaverasizmi?

– Nima hammaning ishi?

– Birovning bolasi bo‘lsa... Yig‘lasa, sizga nima? Yig‘lab-yig‘lab ovunadi.

– Nimaga birovning bolasi bo‘larkan! – To‘satdan onamning jahli chiqib ketdi. – Yig‘lab turgan bolaning begonasi bo‘ladimi? Uyalmasanmi shunaqa degani? Yig‘lab turgan norasidaga rahmi kelmagan odam – odammi?

Indamadim. Ammo bari bir o‘shanda onamni nohaq hisoblagan edim. Yo‘q, chamamda, onalarning biz tushunmaydigan, bizning o‘lchovimizga sig‘maydigan o‘z olami borga o‘xshaydi.

XIYONAT

Hali maktabga qatnamasdim. Mahallamizdan ikki chaqirim-cha narida allaqanday bolalar uyi bor edi. Katta bolalarning aytishiga qaraganda, o'sha yerda tez-tez kino bo'lib turarkan. Bir kuni akalarim qo'shni bolalar bilan pichir-pichir qilishayotganini eshitib qoldim:

– Eshitdinglarmi, bugun kino kelarmish.

– Urush kino ekan.

Akalarim kinoga borsa, men qarab turarmidim.

– Men ham boraman, – dedim qaysarlik bilan.

– Bo'пти, borasan. Aytgan ishlarimizni hammasini qilsang, oboramiz.

Shu kuni nima yumush buyurishsa, oyog'im olti, qo'lim yetti bo'lib yugurib yurdim. Yong'oqqa bog'lab qo'yilgan echkini ikki marta sug'ordim, hovlidagi supaga to'shalgan bo'yra ustiga yoyilgan turshaklarni qush talamasin deb qo'riqlab o'tirdim... Hatto rogakamning rezinkasini uzib, ukamga ishtonbog' qilish uchun berdim.

Kechqurun qulog'imni ding qilib turgan edim, ko'chada qo'shni bolalar chaqirib qolishdi. Akalarimga ergashib yugurdim. Akamning Damin degan o'rtog'i meni ko'rib so'radi:

– Sen qayoqqa?

– Kinoga! – dedim ishonch bilan.

Damin o'ylanib qoldi.

– Bo'lmasa, botinkangni kiyib chiq, – dedi oyog'imga qarab.

Hammamiz yalangoyoq edik.

– Botinkani nima qilaman?

– Devordan oshib tushamiz, bildingmi! – Birdan Daminning jahli chiqib ketdi. – Qorovul quvlasa, yantoqzordan qocha olasanmi? Chop, kiyib chiq! Biz kutib turamiz.

Otilib hovliga kirdim.

Oyim cho'nqayib o'tirib, echki sog'ayotgan ekan. o'tirgan joyida shu saratonda botinka nimaga kerak bo'lib qolganini surishtirdi.

– Kerak! Kerak! – dedim nafasim tiqilib. Oyimning javobini ham kutmay bostirmaga yugurdim. Eski lash-lushlar qalashib yotgan sandiqni kavlashtirib, poshnasi qiyshayib ketgan botinkamning bir poyini topdim. Aksiga olib ikkinchisi yo'q edi. Hammayoqni ag'dar-to'ntar qilib tashladim. Mana, nihoyat ikkinchisi ham topildi. Ikki poy botinkani ikki qo'limda

ushlagancha ko'chaga chopdim. Chiqsam... Akalarim ham, bolalar ham yo'q. Meni kutishga va'da bergan Damin hammani boshlab ketganini tushundim. Yalangoyoq tuproq sachratgancha katta ko'chaga yugurdim. Yo'q, hammayoq jimjit edi...

Hovliga qaytib kirdimu botinkalarni yerga uloqtirgancha yig'lab yubordim. Ilgari hech qachon bunaqa alam bilan yig'lamagan bo'lsam kerak, oyim qo'rqib ketdi.

– Nima bo'ldi? – dedi tepamga kelib.

– Meni aldashdi!

– Kim, nimaga?

– Aldashdi! Aldashdi! – Boshqa gap aytolmasdan nuqul shu so'zlarni qaytarar, yer tepinib yig'lar edim.

– Aldashdi! Aldashdi!

Oyim sut hidi anqib turgan qo'llari bilan peshonamni siladi.

– Qo'yaver, o'g'lim. Ba'zan shunaqasi ham bo'p turadi. – U bir zum jimib qoldi-da, sekin qo'shib qo'ydi. – Faqat o'zing bunaqa qilmagin, xo'pmi?

...To'rtinchi sinfda o'qiyotganimda yana bir voqea bo'ldi. Bir sinfda o'qiydigan, bir partada o'tiradigan o'rtog'im bor edi. Uning dadasi urushdan qahramon bo'lib kelgan, o'zining oti ham Qahramon edi. Otasi qahramon bo'lgani uchunmi, o'qituvchilar uni yaxshi ko'rishardi. Maktabimiz hovlisida yong'oq ko'p bo'lardi. Katta tanaffusda o'qituvchilarning ko'zini shamg'alat qilib, yong'oq qoqardik. Faqat issiqxona yonidagi yong'oqqa kesak otishga hech kim jur'at qilmas, oyna sinsa, oqibati yaxstii bo'lmasligini bilardik. Bir kuni katta tanaffusda Qahramon o'sha yoqqa boshlab qoldi.

– Qo'ysang-chi, – dedim uning qo'lidan tortib. – Teplitsa-ning oynasi sinadi.

– Shunaqa qo'rqqomisan! – Qahramon kuldi. – Bunday qilamiz. Sen qarab turasan. Men qoqaman. O'qituvchi ko'rinib qolsa, hushtak chalasan.

Yong'oq, hech qoqilmagani uchun bo'lsa kerak, g'uj-g'uj bo'lib yotardi. Qahramon bir kesak otganda-yoq o'ntachasi duv etib to'kildi. U ikki cho'ntagini to'ldirib oldi-da, kattaroq kesakni olib, yana otdi. Bu safar mo'ljali xato ketdi shekilli, qars etgan tovush eshitildi. Teplitsa oynasi chil-chil sindi. Nima bo'lganini anglab yetgunimcha, Qahramon lip etib g'oyib bo'ldi. Shu payt birov qo'limdan mahkam ushlab tortdi. Qarasam, sinf rahbarimiz.

Maktabdagi eng badjahl o'qituvchi shu edi. Qo'rqib ketdim.

– Nima qilding? – deb so'radi u darg'azab bo'lib.

– Hech nima, – dedim tovushim titrab.

U qo'limni qo'yib yubormay, sudrab ketdi. O'qituvchilar xonasiga olib borsa kerak, deb battar qo'rqib ketdim. Biroq u idoraga emas, sinfimizga yetaklab kirdi. Qiy-chuv qilayotgan bolalar bir zumda jimib qolishdi. O'qituvchi partalar orasidan yetaklab o'tib meni doska oldiga turg'azib qo'ydi. Sekin Qahramonga qaradim. Begunohgina bo'lib derazaga qarab o'tiribdi.

– O'rtoqlaringni oldida ayt! – dedi sinf rahbarimiz donadona qilib. – Hozir nima qilding?

– Hech nima, – dedim yerga qarab.

– Teplitsani kim sindirdi?

– Bilmayman.

– Bilmaysanmi? – o'qituvchi qahr bilan ovozi balandlatdi.

– Bo'lmasa, kim tosh otdi?

Tomog'imga bir nima tiqilib turar, gapirsam yig'lab yuborishimni bilar edim.

– Kim?! – dedi o'qituvchi battar g'azablanib.

Labimni tishlaganicha bosh chayqadim.

– Mana bu, – dedi u barmog'ini menga nuqib, – qilg'iliqni qilib qo'yib, tonyapti. – Uning ovozi birdan pasaydi. – Bolalar, uning yong'oqqa tosh otganini hech kim ko'rmadimi?

Iltijo bilan o'rtoqlarimga qaradim. Hamma jim edi.

– Sen-chi? – dedi o'qituvchi ovozi tovlanib. – Sen ham ko'rmadingmi, Qahramon?

Qahramon sekin o'rnidan turdi.

– Ko'rdim, – dedi ming'illab. – O'zi otdi.

Ko'z o'ngim qorong'ilashib ketdi. Uning nima deyayotganini yaxshi eshitmasdim. Faqat bitta gap qulog'im ostida jaranglab turardi: «Ko'rdim, o'zi otdi».

– Xayriyat! – o'qituvchi bosh silkidi. – Oranglarda hech bo'lmasa bitta mard bor ekan. O'tir, Qahramon. – U menga yuzlanib davom etdi. – Sen yolg'onchisan! Yolg'onchi bo'lganing uchun qo'rroqsan. Dadangga borib ayt, hoziroq oynani joyiga keltirib qo'ysin.

Ko'zimga yosh quyilib kelar, butun sinfga, butun maktabga eshittirib hayqirgim kelardi: «Men emas, o'zi otdi, o'zi sindirdi!»

Ishonmasanglar cho‘ntagini qaranglar!» Shunday degim kelardiyu, negadir ovozim chiqmasdi. Sinfdan otilib chiqib ketdim. Ko‘chaga chiqqandan keyingina yig‘lab yubordim. Uyga kelib entika-entika hammasini oyimga aytib berdim. Oyim boshimni silagancha, ohista yupatdi:

– Qo‘yaver, o‘g‘lim. Ba‘zan shunaqasi ham bo‘ladi. Faqat o‘zing unaqa qilma. Ko‘rdingmi, yolg‘on gapirgani uchun o‘rtog‘ingni yomon ko‘ryapsan. Agar yolg‘on gapirsang seniyam hamma yomon ko‘rib qoladi.

...Student edim. Farishtadek go‘zal, farishtadek pokiza bir qizni sevib qoldim. Oy sutdek yorug‘ nur sochgan oqshomlari uzoq sayr qildik. Bizning «o‘z» xiyobonimiz, «o‘z» anhorimiz, «o‘z» skameykamiz bor edi. Keyin... negadir u mendan o‘zini olib qochadigan bo‘lib qoldi. Xayol suradi, ko‘zini yashiradi...

Aybim nimaligini bilolmasdim. Hasratimni eng yaqin do‘stimga aytardim. Do‘stim bilan tanaffus paytlari to‘rt tiyinlik studentlik somsasini bo‘lishib yerdik. Paxtaga, hasharga chiqqanda, bir kosada sho‘rva ichardik, biznikiga kelganida bir ko‘rpada yotardik. Do‘stim onamni «oyi» deb atar edi. Oyim ham uni «beshinchi o‘g‘lim», derdi. Shunday qilib, hamma sirlarimni shu do‘stimga aytardim. Do‘stim ishning ko‘zini biladigan yigit edi. «Qo‘yaving, – derdi u yupatib, – qizlarning shunaqa noz-firog‘i bo‘ladi.

Nimaga noz qilayotganini o‘ziyam bilmaydi. Siz indamay yuraving, bir kuni o‘zi bosh egib keladi...» Do‘stim to‘g‘ri aytardi. Men endi oqshom sayllari o‘rniga kutubxonada o‘tiradigan bo‘ldim.

Imtihonlar yaqinlashib qolgan edi. Bir kuni qiroatxona yopilguncha o‘tirdim. Ko‘chaga chiqdimu o‘sha o‘zimizning xiyobondan o‘tgim keldi. Iliq yoz oqshomi edi. Osmonda to‘lin oy pokiza nur sochar, yulduzlar xushchaqchaq porlar, bog‘ ustida shabada shodon shivirlar edi. Suv bo‘yidagi o‘zimizning skameykaga yaqin keldim. Keldimu juda tanish, juda jarangdor kulgini eshitib, taqqa to‘xtadim. Bu kulgini bir chaqirim naridan ham tanir edim. Ichimda bir nima uzilib ketgandek bo‘ldi. Xuddi o‘sha joyda, yaqindagina men bilan o‘tirgan skameykada o‘sha qiz o‘tirardi. Mening o‘rnimda esa... do‘stim o‘tirar, qizning yelkasidan quchib, ko‘ksiga tortar, qiz esa undan o‘zini olib qochgandek bo‘lar, mening bag‘rimda qanday kulgan bo‘lsa, uning

quchog'ida ham shunday g'amza bilan jilpanglar edi... Odam bir yo'la ham muhabbatidan, ham do'stidan ayrilib qolsa og'ir bo'larkan... Uyga qaytdimu, hovli o'rtasidagi supaga muk tushib yotib oldim. Hozir hech kimni, hatto onamni ham ko'rishga ko'zim yo'q edi. Ancha yotdim. Bir mahal ko'cha eshik tomonda do'stimning ovozi keldi:

– Assalomu alaykum, oyi!

G'azabdan butun vujudim qaltirar, ammo o'rnimdan turolmas, oyimning u bilan aylanib-o'rgilib ko'rishganini eshitib yotar edim.

Keyin uning xushchaqchaq tovushi eshitildi:

– Iya, bizning o'rtoqqa nima bo'ldi?

Bilmayman, sakrab turib basharasiga musht tushirdimmi yo ustimga egilganida urib yubordimmi... Shunisi esimdaki, u so'lagi sachrab ketgan labini artib qandaydir g'ayritabiiy, behayo iljaydi-da, indamasdan chiqib ketdi. Nariroqda oyim karaxt bo'lib turardi. Negadir madorim qurib yana yotib qoldim. Osmonda xoin oy kezar, behayo iljayganicha harom nurini sochar, xiyonatkor yulduzlar xoinlarcha ko'z qisishar, xiyonatkor shamol xoinona qiqir-qiqir kular edi.

Bir mahal tepamga onam keldi. O'zimni uxlayotganga solib ko'zimni chirt yumib oldim. U anchagacha yonimda o'tirdi-o'tirdi-da, sekin pichirladi:

– Qo'yaver, o'g'lim, ba'zan shunaqasi ham bo'lib turadi. Faqat sen...

Gapining davomini eshitmadim. Eshitishni xohlamasdim ham. «Nima men?! – dedim xayolan xitob qilib. – Men nima qilay? U ko'zing bu ko'zingni o'yaman desa, eng sirdosh kishilaring xiyonat qilsa, do'sting xiyonat qilsa, nima qilish kerak?! Birov xiyonatni shunchaki kasbga aylantirib olgani uchun, birov ishini bitirib olish uchun, birov hasad qilgani uchun xiyonat qilaveradimi? Shuning uchun bu dunyoni yolg'onchi dunyo deyishadimi? Unday bo'lsa, yashashning nima ma'nisi qoldi?! Qani ayting, nimaga ishonish kerak, kimga ishonish kerak?».

Yuragim gursillab urgancha xayolan shunday deb hayqirdim. Biroq vujudimni o'rtagan savollarga javob topolmasdim. Onam esa jimgina peshonamni silab o'tirar, qo'llari bilinar-bilinmas titrayotganini sezib turardim. Shunda to'satdan yana yosh bolaga aylanib qoldim. O'shanda akamning o'rtog'i aldab ketganida,

sinf-dosh o'rtog'im tuhmat qilganda... onamning yupatishlariga ovungandek... Qalbimning zulmat bosgan qaysidir burchagida ojiz, ammo ishonchli bir nur yilt etdi. «Onang-chi, onang hech qachon xiyonat qildimi senga! Biron marta, aqalli bir marta xiyonat qildimi? Har kim har kimning ko'ziga cho'p solishi mumkin, har kim har kimga xiyonat qilishi mumkin. Faqat ona o'z bolasiga hech qachon xiyonat qilmaydi. Ehtimol, inson hayotining shuncha yillardan buyon davom etib kelayotgani shundandir».

Onamning bilinar-bilinmas titrab turgan qo'llarini tutdimu sekin labimga bosdim.

SURAT

Dunyoning ishlari doim shoshilinch. Odatdagidek tik turgancha nonushta qilayotgan edim. Onam odatdagidek qistardi:

– O'tirsang-chi, bolam. Birpas o'tirgin.

– Bo'ldi, ketdim.

– Shoshma, bolam. – Onam ko'zimga odatdagidan boshqacha, qandaydir mung bilan termildi. – Gap bor.

Tipirchilab soatga qaradim: hali benzin olish kerak, ishga borish kerak, keyin nashriyotga o'tish...

– Nima edi?

Onam ko'zimga hamon ma'yus termilib o'tirardi.

– Suratga tushaylik, – dedi to'satdan.

Ajablandim.

– Nega?

– Yaqinda men o'laman.

Onam bu gapni xuddi: «Qo'shninikiga chiqib kelaman», degandek ohangda aytdi. Kulib yubordim.

– Qo'ysangiz-chi, oyi.

Shunday dedim-da, chiqdim ketdim.

Oradan ikki hafta o'tdi-yu... Kechalari uyg'onib ketaman, o'ylayman. O'ylayman: sen nomard, sen ahmoq nimaga, nimaga o'shanda kulding? Suratga tushishga vaqting yo'qmidi? Kerak bo'lsa topasan-ku! Kitob uchun, jurnal uchun, ish ustida, bog'da, ko'chada... Nima, sen kinoyulduzmisan? Jahonshumul shaxsmisan? Ana, bir dasta surating yotibdi. Har xil. Har yerda... Faqat... Onang bilan tushgan surating yo'q!

KITOB

Bugun kitobim chiqdi.

Har gal yangi kitobim chiqishi bilan birineci nusxasini onamga atar edim. Har gal bir xil soʻz yozib berardim: «Birinchi oʻqituvchim — onamga!» Onam kitobni koʻrishi bilan koʻzlari quvonchdan porlab ketar, uzundan-uzoq duo qilar, peshonamdan oʻpib, yakkash bitta gapni takrorlar edi.

— Sen mening suyangan togʻimsan, oʻgʻlim...

Keyin xuddi birov olib qoʻyadigandek, kitobni yostigʻining tagiga yashirardi. Shunda men kitobim chiqqani uchun oʻzimdan koʻproq onam quvonganini bilib turardim.

Bir kuni mahallaning narigi chekkasida turadigan nonvoy-nikiga kirib qoldim. (Nima yumush bilan borganim esimda yoʻq). Qarasam, yogʻoch soʻrida kitobim yotibdi. Varaqlari titilgan, oftobda sargʻayib ketgan. Qiziqib qoʻlimga oldim. oʻqisam, oʻzimning dastxatim: «Birinchi oʻqituvchim — onamga!»

Oʻshanda nima uchun bunday ahvolga tushganimni bilmayman. Xuddi birov meni masxara qilayotgandek boʻlib ketdi. Kelib onamga toʻngʻilladim:

— Kitobni yetti mahalla nariga tashlab keling, deb berganmidim sizga!

Onam aybdor qiyofada maʼyus jilmaydi.

— Mavlu hech qoʻymadi-da, bolam. «Bitta oʻqib beraman», dedi.

— Mavludagacha yana mingta qoʻldan oʻtgani koʻrinib turibdi, — dedim zarda bilan. — Maqtangansiz.

— Oʻzingni siqma, jon bolam. Hozir olib kelaman.

Chindan ham, oʻsha kuni kitob qaytib keldi...

Har gal kitobira chiqsa, onam bir gapni aytardi:

— Sen mening suyangan togʻimsan, oʻgʻlim...

Bilmagan ekanman, men onamning emas, onam mening suyangan togʻim ekan. Togʻim toʻsatdan qulab tushdi.

Bugun yangi kitobim chiqdi. Birinchi nusxasini emas, bitta nusxasini emas, oltmish ming kitobning hammasini onamga bagʻishladim. Lekin...

MAHALLANING «SHAYXI»

Qachondir uning ismi bo'lsa bo'lgandir. Biroq mahallada hech kim uning otini bilmaydi. Hamma Shayx deb chaqiradi.

Aytishlaricha, urush paytida bir beva xotin besh-olti yoshlardagi bolasi bilan shu yerga kelib qolgan. Insofli odamlar bevaga choyxona yonboshidagi pastak hujrani ajratib berishgan. Bola bari bir bola-da. Bahorda hujraning tomiga chiqib varrak uchirayotgan ekan, varrak havolagan sayin qiziqib ketib ipni torta-torta tisarilib boribdi-yu, tomndan chalqanchasiga yiqilib tushibdi. Sho'rlik onaning dod-faryodiga choyxo'rlar yopirilib chiqishsa, bolaning boshi yorilib, qonga belanib yotganmish. Hoji buvi uning boshiga kigiz kuydirib bosibdi, qorakuya suribdi, haytovur, bola tuzalib ketibdi. Faqat esi aynibroq qolibdi. O'shandan buyon hech kim uning biron marta yig'laganini ko'rmagan. Qachon qarasangiz, iljayib turadi. Iljayganda ham tilining uchi og'ziga sig'may doim chiqib turadi. Shundan bo'lsa kerak, onda-sonda ustara tegadigan do'rdoq labining ikki cheti oqarib yotadi. Urushdan keyin onasi vafot etadi-yu, Shayx yolg'iz qoladi. Eski choyxona buzilganida ularning hujrasidan ham nom-nishon qolmadi. Biroq Shayx ko'chada qolgani yo'q. Mahalladagi hamma uy Shayxniki. Uning uchun hamma eshik ochiq. U biznikiga ham tez-tez kelib turadi. Onam bilan uzoq-uzoq gaplashganini ko'rardimu onam bu devona bilan nimani gaplashishiga aqlim yetmasdi.

Jamiki to'y, jamiki ma'raka Shayxsiz o'tmaydi. Uning o'z vazifasi bor: samovar qo'yadi. Xotinoshida mahalla otini, nikohu bazmlarda to'yboshi erkaklar Shayxning xizmatiga muhtoj.

– Shayx, to'rt choynak choy! Uch choynak famil, bir choynak ko'kidan bo'lsin.

– Hodzir...

Shayx g'alati gapiradi, «z»ni aytolmaydi, «dz» deydi, «s» deyolmaydi, allaqanday «ts» qilib aytadi.

– Shayx tezroq! Nozik mehmonlar kelib qoldi.

Shayx shoshilmaydi. Ishini bilib qiladi.

– Tsekin. Nodzik bo'tsa, o'dziga, – deydi iljayib.

Odamlar ranjimaydi. Shayxning puxtaligini bilishadi. Shuncha yildan beri bironta to'yda choynak darz ketmagan, biron mehmon choysiz qolmagan.

U faqat pivo ichadi. Ko‘p emas, ikki shishagina. To‘y egalari Shayxning ulushini alohida ajratib qo‘yishadi. To‘y tarqashi oldidan, xizmatini qilib bo‘lgandan keyin Shayx shishani og‘ziga qo‘yib pivo ichib oladi-da, birdan o‘yinga tushadi. Yoqavayron bo‘lib, og‘zidan ko‘pik sachratib xo‘p o‘ynaydi.

Odamlar qarsak chalgan sayin balandroq sakraydi:

– Bo‘sh kelma, Shayx!

– Malades, Shayx! Orangutan bo‘p ket-e!

Bunday «maqtovlar» Shayxni battar jazavaga soladi. Har tepinganda yer zirillab ketadi.

Ba‘zan hangomatalab yigitlar Shayxni o‘rtaga olib qolishadi.

– Bu... to‘yni qachon boshlaymiz, Shayx?

Shayx tilini chiqarib iljayib qo‘yadi.

– Senga ham xotin olib beraylik bundoq.

– Xotinmas, qidz...

– A?... Voy ko‘nglingning ko‘chasidan o‘rgildim! Seni ko‘rgan qiz infarkt bo‘lib «Grudnoy xirurgiya»ga tushadiku!

Shayx xafa bo‘lmaydi. Umuman, xafa bo‘lishni bilmaydi. Iljayadi.

Onamning yigirmasi bo‘layotgan edi. G‘ira-shira tong otayotganda eshikdan ko‘ylakchan Shayx lapanglab kirib keldi.

– Iya, ana, Shayx kelib qoldi! – dedi allakim tantana bilan. – Qani, samovarga o‘zing qaray qol.

Ammo Shayx hovli burchagida turgan samovarlar tomonga yurmadi. Hech kimga qaramay bir hatlab ayvon zinasidan chiqdi-yu, oyimning xonasiga yo‘naldi.

– Hoy, Shayx o‘lgur, qayoqqa? – ayollardan biri uning yo‘lini to‘sdi. – U yerda qariyalar o‘tiradi.

– Qoch! – dedi Shayx ko‘zini olaytirib. Keyin onamning xonasiga kirdi-yu, to‘satdan o‘zini yerga otdi.

– Oyi! – dedi xirillab. – Oyi-i-i!

Yoqasiga chang solib bir tortgan edi, kir ko‘ylagi shir etib yirtildi-da, qop-qora, baquvvat yelkari titragancha og‘zidan ko‘pik sachratib hayqirdi:

– Oyi! Oyi!

U har «oyi» deganda boshini yerga urar, yerni mushtlar edi. Birpasda peshonasi momataloq bo‘lib ketdi.

– Oyi! Qayoqqa ketdidz, oyi!

Umrida yig‘lamagan Shayxning nolasi hammani karaxt qilib

qo‘ygan edi. Kimdir ko‘tarmoqchi bo‘lgan edi, Shayx siltab yubordi.

– Tegmanglar! – dedi allakim pichirlab. – Mayli, yig‘lab olsin.

Anchadan keyin u gandraklab o‘rnidan turdi. Hech kimga qaramay hovliga tushdi-yu, indamay chiqib ketdi.

«TOY»

Bultur bahorda eshigimiz oldidagi gullarni sug‘orayotgan edim, yap-yangi «Moskvich» kelib to‘xtadi. Mashina eshigi ochilib, zabardast gavdali yigit tushib keldi. Taniy olmadim.

– Hormang, dehqonchilik katta-ku! – dedi notanish yigit do‘rillagan ovoz bilan.

Shunda hayratdan baqirib yubordim:

– Iya, Toymisan?

Ha, xuddi o‘sha Toyning o‘zi. Faqat shuncha bo‘y, bunaqa uzun qo‘l-oyoqlarni qayoqdan oldi ekan! Yaqindagina buloqdek oqib turadigan burnini eplolmay mashaqqat chekadigan bola edi.

– Poshsha oyimlarni ko‘rgani keldim! – dedi bahaybat qomatiga uncha mos kelmaydigan alpozda muloyim jilmayib. Uzun oyoqlarini katta-katta bosib hovliga kirdi-yu, onamga duch keldi.

Qiziq, onam uni darrov tanidi.

– Voy, o‘zimning toychoq o‘g‘limdan aylanay! Voy, o‘zimning o‘g‘lim kelib qolibdi-ku!

Onam peshonasidan o‘payotganda Toy ikki bukilib turdi.

– Mashina teguvdi, – dedi yana iljayib. – Sizdan fotiha olgani keldim. Yuring, bir aylantirib kelay.

Toy onamni oldingi o‘rindiqqa o‘tqizdi. Yarim soatcha aylantirib keldi.

Onamning yosh boladek birovning mashinasiga tushib «kataysa» qilishi menga erish tuyuldi. Ammo onam xursand edi.

– Nordek yigit bo‘pti, – dedi quvonib. – Istalovoyda sheppovar ekan. Xudoyo umridan baraka topsin.

Toy keyin ham o‘tgan-ketganda biznikiga tez-tez kirib turadigan bo‘ldi.

Uni har ko‘rganimda bolaligimni eslayman. Kichkinaligimizda oramizda eng bo‘sh-bayov bola shu edi. Uyimizning orqasida kattagina maydoncha bo‘lardi. Uzoq-yaqindan mol boqishga

kelgan bolalar shu yerda yig'ilib shovqin-suron solib o'ynardik. Toy hammadan uzoqdan – Beshqo'rg'ondan o'ziga o'xshash yuvosh, shoxsiz sigirini oldiga solib kelardi.

Har faslning o'z o'yini bor: erta bahorda chillak, varrak, yozda futbol, kech kuzda lanka tepish... Faqat ikkita bola o'yinga ko'p qo'shilmasdi. Bittasi – ko'zlari doim javdirab turadigan Xo'ja, yana biri – Toy. Xo'janing o'zi o'yinga uncha qiziqmas, Toyning esa o'z yumushi bor edi. Nega deganda zimmasida mol boqish vazifasi bor. Birovning daydi sigiri, birovning shaytonga dars beradigan echkisi zum o'tmay ekin oralab ketadi. Shunda mo'ylovi qorayib, do'rillab qolgan jo'raboshimiz buyuradi:

– Toy! Galing keldi, echkini qaytar!

– Sigirga qara, Toy, sigirga!

– Toy! Qo'y kartishkaga oralab ketdi-ku!

Negadir Toyning navbati hammanikidan tez kelaverardi. Sigiri xuddi o'rgatib qo'ygandek egasidan nari ketmaydi. Ammo boshqalarning moliga ham kimdir qarashi kerak-ku. Toy burnini tortib qo'yadi-da, indamay polizga qarab yuguradi. Dikonglab sakrayotgan takani qaytarib kelguncha biron buqacha dumini xoda qilib jiydazorga yugurgilab qoladi... O'ynab-o'ynab charchaganimizdan keyin hammamiz tol soyasida dam olamiz. Jo'raboshimiz dadasi urushdan olib kelgan shinelni o'tga yoyib, ustiga yonboshlaydi-da, maza qilib esnaydi:

– Toy, biz charchadik. Bir mizg'ib olmasak bo'lmaydi. Sen dejursan, mollarga qarab turasan.

Toy burnini jahl bilan tortadi-yu, indamaydi.

Bir kuni u astoydil yalindi:

– Meni Toy demanglar. O'zimning otim bor – Toyir.

Jo'raboshimiz quvlik bilan hammaga bir-bir qarab qo'ydi.

– Bo'pti! – dedi do'rillab. – Senga uch kun muhlat. Uch kungacha hammaning molini yaxshilab boqsang, Toy otingni o'zgartiramiz. Ammo kechqurun sigirimning yelini tirsillab tursin, bildingmi?

Chindan ham Toy uch kungacha sidqidildan xizmat qildi. Biz maza qilib futbol tepdik. To'rtinchi kuni jo'raboshimiz «majlis» to'pladi.

– Bolalar, – dedi tantana bilan. – Endi Toyni hech kim Toy demasin. Bugundan boshlab uning oti – Xo'tik. Yana bir yil harakat qilsang, o'sib Eshak bo'lasan.

Hammamiz xaxolab kulib yubordik. Toy bolalarga birma-bir qarab chiqdi-da, burnini tortdi. Indamay yer chizib o'tiraverdi.

Chillak o'ynining shafqatsizroq bir qoidasi bor: yutqazgan bola zuvlab nafasi yetmay qolsa, bir oyoqda hakkalaydi. Qoqilib ketsami, ikkinchi oyog'i yerga tegsami, tamom! Tag'in tayoq bilan chillakni urib sanaladi-da, yana chillak otiladi. Chillak borib tushgan joydan qaytadan zuvlash shart.

Bir gal Toyni salkam yarim chaqirim joydan zuvlashga majbur qildim. Turgan gapki, nafasi yetmadi.

– Lo'killa! – dedim baqirib.

U chap oyog'ini ko'targancha hakkalab sakray boshladi. Ammo o'n qadam ham yurolmadi. Har sakraganda burni buloqdek qaynaydi. Qayta-qayta artgani bilan foydasi yo'q. Bolalar xaxolaydi. Ayniqsa, men huzur qilib kulaman. Oxiri bo'lmadi – Toy yiqilib tushdi.

– Bo'ldi! Qaytadan zuvlaysan.

– Zuvlamayman!

– Zuvlaysan!

– Zuvlamayman! Zuvlamayman! – Toy to'satdan jazavasi tutib yerni mushtlagancha yig'lab yubordi. – Hammangni yomon ko'raman! Ayniqsa, sen yomonsan!

Shovqin-suron bilan bo'lib onamning chaqirganini eshitmay qolibman. Bir mahal qarasam, tepamda onam turibdi...

– Tur, bolam, – onam Toyning boshini siladi. Etagini ko'tarib, uning burnini artdi. – Voy, onang o'rgilsin, qo'y, yig'lama, bolam. – Keyin meni chetga imladi. – Bu yoqqa yur-chi! Nariroqqa bordim.

– Nega ukangni yig'latasan? – dedi qahr bilan.

– Qaysi ukamni?

– O'sha ukangni!

– Toy-ku! Qanaqasiga ukam bo'lsin? – dedim iljayib.

– Shunaqasiga! Nega qiynaysan bola bechorani? Yog'ochning bo'shini qurt yemay o'lsin.

– G'irromlik qilmasin-da, bo'lmasa! – dedim chiyillab. – Nega zuvlamaydi?

– O'lib qoldingmi shu bilan?..

O'shandan keyin ko'p o'tmay Toylar ko'chib ketishdi. Qayoqqaligini bolalar surishtirishmadi ham.

Toy... o'sha o'zimizning Toy shunday yigit bo'lganiga hamon

hayron edim.

Onam vafot etganda Toy onasi Niso xolani boshlab keldi. Keyin ham ko'p yelib-yugurdi. Kunora keladi.

«Bizga xizmat bormi?» deb mashinasini to'g'rilab turadi.

Qaysi kuni ishdan kelsam, eshik oldida yana Toyning mashinasi turibdi. Qarasam, ayvonda Toy bilan Niso xola o'tirishibdi. Sochlari oqarib ketgan Niso xola men bilan aylanib-o'rgilib ko'rishdi.

– Poshsha opamni tush ko'ribman, – dedi ko'ziga yosh olib.
– Toyirjonni yetaklab yurgan emishlar. Shunga bir xabar olay, deb keldim. – U bir zum indamay qoldi-da, ovozi tovlanib davom etdi: – Poshsha opam qandoq edilar-a! Toyirjonni qandoq yaxshi ko'rardilar-a!..

Niso xola ko'zimga tikilib ohista so'radi:

– Bilasiz-a?

– Bilaman, juda yaxshi ko'rardilar. – dedim bolalikdagi o'sha voqealarni eslab.

Niso xola ko'zimga yana diqqat bilan tikildi.

– Aytgan bo'lsalar kerak?

– Nimani?

– Aytmaganmilar?

– Nimani aytadilar! – dedim hayron bo'lib.

– Iya, Toyirjon sizning ukangiz-ku! – Niso xola astoydil ajablendi. Keyin ma'yus tortib jimib qoldida, xo'rsindi. – O'shanda siz talpinchoq bo'lib qolgan edingiz. Toyirjonning chillasi chiqmagan... Xudoning ham bandalariga atagan azobi ko'p ekan. Bir kechada kasalga chalinib qoldim. Ko'kragimga yomon yara chiqib, qirq kun «ol ket, ol qo'y» bo'lib yotibman deng... Ayni qahatchilik, urush, birov birovga holing nima kechdi, deyishi mahol... O'zim-ku, mayli, bolam o'lib qoladi, deyman. Dokaga angishvonadek yog'mi, nonmi o'rab chaqaloqning og'ziga solib qo'yishadi. Shunda deng, bir kuni Poshsha opam kelib qoldilar. Aylanib-o'rgilib, Toyirjonni bag'rilariga bosib emizdilar. Shu yerdan Beshqo'rg'onga saratonda kuyib har kuni uch marta qatnaydilar. Qirq kun shunday qildilar. Bir ko'kragini siz emasiz, bittasini – Toyirjon. – Niso xola hiqillab qoldi. Yosh g'iltillagan ko'zini ro'molining uchi bilan artidi. – Qandoq xotin edilar-a! Nima bilan rozi qilishimni bilmayman. So'rasam, urishib berdilar. «Voy, gapingiz qurmasin, ovsin, ona sutiyam sotiladimi», deydilar.

«Birovga yaxshilik qilib, ketidan tama qilgan odamning savobi gunohga aylanadi», deydilar... Qandoq edilar-a!

Niso xola ro‘molining uchini g‘ijimlagancha o‘yga toldi. Men ham, shu paytgacha o‘zim bilmagan ko‘kaltosh ukam Toyirjon ham bir nuqtaga tikilib qolgan edik. Har qaysimiz o‘z o‘yimiz bilan band edik, biroq hammamiz bir odamni – onamni o‘ylardik.

QANOAT

Otamning jahli yomon edi. Badjahl bo‘lib aka-ukalardan, birontamizni chertgan emas. Biroq onam: «Hoy, ehtiyot bo‘l, adangning jahllari yomon», deb shunchalik uqtirib qo‘yganki, otamizni ko‘rishimiz bilan hammamiz yuvosh tortib qolardik.

Tirikchilik vajidan bo‘lsa kerak, otam kechalari soat tuzatardi. Qo‘ni-qo‘shni, mahalla-ko‘yda kimning soati buzilsa, biznikiga olib kelar, otamning hujrasida katta-kichik soatlar muttasil chiqillab turar edi. Onam bizni bu hujraga hech yo‘latmasdi. Bir kuni ukam ikkalamiz u yerga kirsak, stol ustida kichikroq piyolaning og‘zidek keladigan zanjirli cho‘ntak soati yotibdi. Qopqog‘i, oynasi ochilgan, murvatlari bir chekkaga tartib bilan terib qo‘yilgan. Aka-uka o‘zimizcha «ustachilik» qildik. Soatning yurishidan darak yo‘q. Bir mahal narigi uyda onamning sharpasini sezib qoldigu sekingina sirg‘alib chiqib ketdik.

Kechqurun otam hujraga kirishi bilan xunob bo‘lib qichqirdi:

– Soatga kim tegdi?

– Hech kim kirgani yo‘q-ku! – dedi onam hayron bo‘lib.

– Hammasini sochib tashlabdi-ku! – otam jahl bilan chiqib keldi. Qo‘lida biz «tuzatgan» soat. – Mili yo‘q. Egasiga nima deyman!

Ukam ikkalamiz churq etmay mo‘ltirab o‘tiribmiz. Yaxshi hamki akalarimiz ko‘chada, bo‘lmasa, hamma ayb o‘shalarga tushishi aniq.

Ko‘p o‘tmay ovqat keldi. Ukamga yog‘och qoshiq, menga temir qoshiq tegdi. Ikkalamiz qoshiq talashib qoldik. Ukam u yoqqa tortadi, men bu yoqqa. Ikki orada kosa dumalab, dasturxonga sho‘rva to‘kildi. Boyagi xunobgarchilik ustiga bunisi ham qo‘shildi-yu, biz bir yoqda qolib otam onamni tushirib qoldi. Aka-uka pildirpis bo‘lib, in-inimizga kirib ketdik. Onam

shoʻrlikning qovogʻi koʻkarib chiqdi. Achindik. Ammo nachora?..

Ertalab tursam, otam ishga ketgan, hovli tomondan ayol kishining shangʻillagani eshityapti. Ovozidan tanidim: qoʻshnimiz Moʻmin akaning xotini. Moʻmin aka — ketmonchi. Oʻzi ham moʻmingina odam. Xotini boshqacharoq. Katta-yu kichik hamma uni Kelinoyi deb chaqiradi. Kelinoyining qiziq odati bor. Ichida gap yotmaydi. Uyida qaysi sholchaga xokandozdan choʻgʻ tushib, qancha joyi kuygani, qaysi oʻgʻli sholgʻomni yomon koʻrishi, qaysi qizining sochiga sirka oralagani — hammasini birpasda mahallaga yoyib chiqadi.

— Ketaman! — dedi u ovozini baralla qoʻyib. — U qoʻymasa, mana man qoʻydim! Ketaman! Ketgandayam uyini vayron qilib ketaman!

Tushundim. Bundan chiqdi, Kelinoyi eri bilan urishgan. Uyida sal janjal chiqsa, albatta oyisinikiga «ketadigan» boʻlib qoladi. Tomosha koʻrish uchun asta moʻraladim.

— Nima boʻldi oʻzi, ovsinjon? — dedi onam sekingina.

— Kecha mani shundoq soʻkdi, shundoq soʻkdi, yigitgina oʻlgur! — Kelinoyi ikki qoʻli bilan sharaqlatib soniga shapatiladi. — Onamni soʻkdi-ya, boʻyginang goʻrda chirigur.

— Qoʻying, xafa boʻlmang, — deb onam uni yupatishga urindi.

— Nimaga xafa boʻlmas ekanman? — Kelinoyi yana ham qattiqroq shangʻillay boshladi. — Kechqurun oʻsma ezib qoʻyuvdim. Shu savil qurib qolmasin, deb qoshimga qoʻya qoluvdim. Ha, moshkichiri jindak tagiga olib, qotib ketibdi. Shungayam ota goʻri qozixonami? «Pardoz-andoz qilgandan koʻra ovqatingga qarasang oʻlasanmi!» deydi-ya, goʻrsoʻxta! Ha, pardoz qilsam, oʻynashimga qipmanmi, qirchiningdan qiyilgur! Qirmochmi, balomi, zahringga yeyavermaysanmi, yergina yutgur! Xah, onamni soʻkkan tillaring tanglayingga yopishgur! Tagʻin nima deydi, deng? Aybni menga toʻnkaydi: tiling bir qarich, deydi. Voy, tilimni gapirgan tillaring jodida qiyma-qiyma boʻlsin-a. Yeldek kelib, seldek olmasa aslo rozimasman!

— Qoʻying, ovsinjon, — onam maʼyus jilmaydi. — Oshsiz uy bor, urishsiz uy yoʻq... Qargʻamang becho-rani.

— Voy nega qargʻamas ekanman? Ogʻzi-burningdan laxta-laxta qoning kelgurni, nega qargʻamas ekanman? Ketaman!

— Olti bola bilan qayoqqa borasiz, ovsinjon? — dedi onam kulimsirab. — Joʻjabirdek jonsiz. Shularning shukurini qilsan-

giz-chi.

– E, oltita bolamni oydingda oyog‘im bilan boqib olaman. Oyiginamning tor qorniga siqqan keng uyiga sig‘maymanmi? Birov mani ko‘kragimdan itarmas. Mana shu ajalning tig‘i parroniga uchragur bilan turgandan ko‘ra... – Kelinoyi birdan jimib qoldi.

Kipriklarini og‘ir-og‘ir pipiratib onamga uzoq tikildi-yu, ovozi pasaydi. – Voy, yuzingizga nima qildi?

– O‘tin tegib ketdi, – dedi onam sekingina. – Qarasam, o‘tin o‘lgur qolmabdi. Bolalar o‘qishda, adasi ishdalar. Ko‘zliroq sarjin ekan, tesha bilan urga-nimni bilaman... – Onam qovog‘ini silab qo‘ydi. – Adasi ishdan kelib juda xafa bo‘ldilar. «Birpas sabr qilmaysanmi, o‘zim yorib bermaymanmi», dedilar.

Men turgan joyimda qotib qoldim. Onam yolg‘on gapirardi. Yolg‘on gapirardi-yu, negadir bu menga juda yoqar edi...

– Ana! – Kelinoyi tag‘in shang‘illadi. – Sizning eringiz o‘tiningizgacha yorib beradi. Maniki bo‘lsa, bir paqir suv olib kelmaydi, qo‘lginang sinib, akashak bo‘lgur. Uyim-joyim deb bo‘ynini egmaydi, bo‘yniginang kesilgur, eshshak! Xudoyo bo‘yniginang hazrati Alining qilichida kesilmasa, u dunyo-bu dunyo rozimasman-a!

Ortiq qarab turolmadim. Negadir yig‘lagim keldi.

...Hozir ham eri sal qovog‘ini solsa, «melisa» bilan qo‘rqitib, «o‘n besh sutkani» pesh qiladigan ba‘zi xotinlarni ko‘rsam, onamning qanoatini, Kelinoyining qarg‘ishlarini eslayman.

SOVCHILAR

Ishdan charchab qaytdim. Bilamanki, bunaqa paytda televizor ro‘parasiga o‘tirsangiz, tamom! Bahona o‘zidan o‘zi topilaveradi. Bosh qurg‘ur toliq-qani, yangi film boshlangani...

Yaxshisi, kabinetga kirib ishlash kerak. Hech bo‘lmasa kitob o‘qish... Jurnalning yangi sonini varaqlab o‘tirsam, eshik taqillab, qassob qo‘shnimizning qizi – Guli kirib keldi.

– Kel, Guli, – dedim jurnaldan bosh ko‘tarmay. – Yaxshimisan?

Guli eshik oldida turib qoldi.

– Ensiklopediya kerak edi, – dedi negadir qovog‘ini solib.

– Ana, xohlagan tomingni olaver.

Shunday dedimu yana jurnalni o‘qishga tushdim. Ko‘p o‘tmay

Guli ishini bitirdi shekilli, eshik oldiga bordi. Ammo chiqib ketmadi.

– Menga qarang, – dedi eshik tutqichini ushlab. – Siz hayotiy problemalargayam aralashasizmi yo nuqul kitob yozaverasizmi?

Rostini aytsam, esankirab qoldim.

Bu qizning falsafa fakultetida o'qiyotganini eshitgandim, mahalladagi eng «modniy» qizlardan ekanini, jinsi shim kiyib yurishini bilardimu kechagina ko'chada cherta o'ynab yurgan qizaloqdan bunchalik ilmoqli savol kutmagan edim. Beixtiyor jurnalni bir chekkaga surib qo'yib unga tikilib qoldim. Avvalgi-dek sansirashni ham, sizlashni ham bilmasdim.

– Nima bo'ldi? – dedim dovdiraq.

Guli kresloga o'tirarkan, qoshini chimirdi.

– Mana, sizlar eskilik sarqitini yo'qotish kerak, u-bu deb yozasiz, to'g'rimi?

Indamay bosh silkidim.

– Unaq bo'lsa nimaga ko'zingizning oldida bo'p turgan sarqitga qarshi kurashmaysiz?

Ko'rdimki, ro'paramda cherta o'ynab yurgan qizaloq emas, jiddiy odam o'tiribdi.

– Kechirasiz, – dedim sizsirab. – Nima bo'ldi o'zi?

– Sovchi degan gap qayoqdan chiqqan? – Guli jahl bilan qo'l siltadi. – Hali unisi keladi qiyshayib, hali bunisi keladi, tugunini osiltirib!

«E, bo'ldi, gap buyoqda ekan-da!» Kulib yubormaslik uchun labimni tishlab, uni yupatgan bo'ldim.

– Qizlik uy bozor! Keladi-da, xaridorlar! Yaxshi qiz ekan-sizki, sovchilar keladi.

– Nima, bozor bo'lib men echkimanmi! – Jahli chiqqanidan Gulining yuzi qizarib, chiroyli kipriklari pirqirab ketdi.

– Hech kim sizni sotib yuborayotgani yo'q-ku, – dedim kulib. – Shunaqa bo'ladi-da taomili!

– Kitobda boshqa gaplarni yozasiz-ku! – Guli jahl bilan qo'l siltadi. – Umrimda ko'rmagan o'g'lini maqtaydi. O'qituvchi deydi. Boshimga uramanmi!

– Balki, o'g'li rostdan ham yaxshi boladir...

– Mard bo'lsa o'zi gaplashsin! Onasini elchi qilishga balo bormi? Jinimdan yomon ko'raman, shunaqa lattachaynar yigitlarni!

Bildimki, Gulining o‘z «yigiti» bor. Yana yupatdim.

– Sovchi degani keladi. So‘raydi, surishtiradi...

– So‘ramasayam hammasini biladi.

– O‘zingiz xohlagan yigitning onasiyam keladi-da, bir kun.

U «kelib-kelib senga maslahat solamanmi», degandek hafsalasi pir bo‘lib chiqib ketdi. Xona jimjit bo‘lib qoldi. Shunda g‘alati xayollarga bordim. Sovchi desa muncha hurkmasa bu qiz! Axir ota-onasi oyoq-qo‘lini bog‘lab birovga berib yuboradigan zamon emas-ku, hozir! Shuni o‘yladimu bir vaqtlar sovchilar bizning ham eshigimizning «turmugini buzgani» yodinga tushdi.

• • •

Erta bahor edi. Kunlar ilib qolgan, ammo yerdan hali qishning zahri ketmagan, unda-munda yovvoyi sarimsoqlar nish urgan, tol novdalari sarg‘ish rang olib, hushtak yasashga yaroqli bo‘lib qolgan... Opam ishda, akalarim maktabda. Bir o‘zim zerikkanimdan darvoza oldida cho‘zilib yotgan xariga minib olgancha, burnimni tortib-tortib akamning qalamtaroshida hushtak yasab o‘tirardim. Kuchugim oyog‘it ostida o‘zini oftobga toblab yotar, ora-chora itpashshalarni quvib, dumini tishlar, ammo pashshalar tutqich bermay uchib ketar, zum o‘tmay, yana qo‘nib g‘ashiga tegardi.

Bir mahal kuchugim dik etib turdi-yu, akillagancha yugurgilab qoldi. Ellik qadamcha narida kelayotgan ikki xotinni ko‘rdim. Biri paranji yopinib olgan, past bo‘yli, qo‘lida hassa-tayoq, oqsoqlanib qadam tashlaydi. Yana biri yoshroq, boshiga g‘ijim ro‘mol o‘ragan, atlas ko‘ylagining ustidan baxmal nimcha kiygan. Har ikkalasining qo‘lida tugun borligini ko‘rdimu darvozadan baqirib kirdim.

– Oyi! Opamga sovchilar kelyapti!

Sovchi xotinlarni uzoqdanoq taniydigan bo‘lib qolganman. Albatta qo‘lida tuguni bo‘ladi. Keyingi paytda uyimizga bunaqa xotinlar serqatnov bo‘lib qolgan: kun ora har xili kelib ketadi.

Oyim ayvonda cho‘kkalab o‘tirgancha un elayotgan ekan.

– Voy o‘lay, – dedi-yu, ildam o‘rnidan turdi. Elakni supraga o‘rab, hujraga yugurdi. Zum o‘tmay qo‘lini yuvib chiqdi-da, mehmonlarni kutib olish uchun shoshildi. Oyimdan oldinroq men yetib bordim. Mehmonlar darvozaga yaqin kelib qolishgan, kuchugim ularning atrofida gir aylanib vovullar, goh unisiga, goh

bunisiga «hujum» qilar edi. Ayollar itga qarab-qarab sekin yurib kelishardi. Kuchugimga pakana xotin xunukroq ko‘rindi shekilli, paranjisining etagiga yopishdi.

– Yot! – dedim o‘dag‘aylab.

Kuchuk bo‘lsa meni ko‘rib ruhlanib ketdi, pakana xotinga koptokdek otildi. Ammo xotin, pakana bo‘lsayam balo ekan! Hassasi bilan mo‘ljallab bir tushirgan edi, kuchuk oqsoqlanganча angillab qochib qoldi. Ancha nariga borib, orqa oyog‘ini yaladi.

– Voy o‘rgilaylar! – dedi onam eski qadrdonlarini ko‘rgandek, quvonib. – Xush kepsizlar!

U har ikkala ayol bilan quchoqlashib ko‘rishdi. G‘ijim ro‘molli ayol ko‘rishayotganda nima uchundir oyimning sochini hidlagandek bo‘ldi. Onam pakana xotinning paranjisini qo‘lga oldi. Aylanib-o‘rgilib, uyga boshladi. Atlas ko‘ylakligi esa negadir lip etib oshxonaga kirib ketdi. Zum o‘tmay chehrasi yorishib chiqib keldi.

Akamning qalamtaroshini joyiga qo‘yish bahonasida sekingina sirg‘alib uyga kirdim. Oyim yaqinda ko‘milgan tancha o‘rniga qo‘yilgan xontaxta atrofiga darrov ko‘rpacha yozdi. Tokchadan patnis oldi. Patnisda nimalar borligini aniq bilaman: turshak, chaqilgan yong‘oq, jiyda, oltita zog‘ora non, bitta likopchada maydalab qirqilgan kalla qand. Qand tanqis bo‘lsa ham, oyim bu – mehmonlarga atalgan deb ko‘p tayinlagani uchun biz – bolalar unga tegmasdik. Mehmonlar fотиha o‘qishdi. Oyim choy quyib uzatdi.

– Endi, o‘rgilay, – deb gap boshladi atlas ko‘ylakli xotin, uzoq hol-ahvol so‘rashganidan keyin, – agar taqdir qo‘shgan bo‘lsa qarindosh bo‘larmiz, degan umidda eshigingizni supurgani keldik.

Oyim indamadi.

– Olib o‘tiringlar, – dedi anchadan keyin dasturxonga imo qilib.

– Eshitdik, o‘zim o‘rgilay, – dedi pakana xotin, – tag-zotli odamlar ekansiz. Bolalar katta bo‘lgandan keyin ota-ona zimmasidagi qarzini uzgisi kelib qolarkan. Bizning o‘g‘limiz ham yaxshi, mo‘min-qobil yigit. Muallim...

U, «endi siz gapiring», degandek atlas ko‘ylakli ayolga sekin burilib qaragan edi, sochining uchiga taqilgan so‘lkavoylari jiringlab ketdi.

— Bizlar ham hurmat ko‘rgan odamlarmiz, — atlas ko‘ylakli xotin qalin bilaguzuk taqqan qo‘llari bilan o‘zi keltirgan tugunning bog‘ichini yecha boshladi.

— Ovora bo‘lmang, aylanay, — dedi oyim uning qo‘lidan ohista tutib. — Nasib etsa, hali ko‘p borish-kelish qilamiz.

Oyim hech qaysi sovchining dilini og‘ritmas, ammo sovchilar tugib kelgan nonni sindirishga yo‘l ham qo‘ymasdi. Hozir ham shunday qildi.

— Mayli, sizlar ham so‘rang, surishtiring, — dedi pakana xotin choy ho‘plab. — Qa‘nida turamiz. Shundoq guzar oldidagi qo‘shqavat darvoza. Odilxo‘ja desangiz hamma biladi. Mahmud bukurning yonidagi hovli.

— Ovsinim kuyov bo‘lmishning onalari! — Atlas ko‘ylakli ayol jilmaydi. — Muborak chevar desangiz, hamma taniydi. «Zinger» mashinalari bor.

Meni Odilxo‘ja-yu Mahmud bukur ham, Muborak chevaru, «Zinger» mashinasi ham qiziqtirmas, ikki ko‘zim qandda edi. O‘zimning borligimni bildirib qo‘yish uchun qalamtaroshni qo‘limdan tushirib yubordim. Oyim yalt etib qaradi-yu, pastki labini tishlab, bilinar-bilinmas bosh chayqab qo‘ydi. Bu — «uyat bo‘ladi, chiqib ket», degani edi. Qanddan umidimni uzib chiqib ketishdan bo‘lak choram qolmadi. Yarim soatdan keyin sovchilar ketishdi. Kuchugimning alami ichida qolgan ekan shekilli, oyimning hay-haylasliiga qaramay, sovchilarni ancha joygacha «kuzatib» keldi.

Uch kundan keyin sovchilar tag‘in kelishdi. Sochining uchiga so‘lkavoy taqqan paranjili xotin bilan yana o‘sha novcharog‘i. Bu safar novcha xotin qarg‘ashoyi ko‘ylak kiygan, bo‘yniga dur osib olgan edi. Oshxonada ovqat qilayotgan opam darvozadan kirib kelayotgan mehmonlarga ko‘zi tushishi bilan tomorqaga qochib ketdi. Bu safar sovchilar uzoqroq o‘tirishdi, oyim ularni moshxo‘rda bilan mehmon qildi. Kechki ovqatdan keyin opam idish-tovoqni yuvish uchun oshxonaga chiqib ketganida oyim dadamga qaysi kungi sovchilar tag‘in kelishganini aytdi.

— Yaxshi, tag-zoti ko‘rgan odamlarga o‘xshaydi. o‘g‘liyam muallim emish. Uningiz yo‘q, buningiz yo‘q deb o‘tirmaymiz, boriga baraka qilib to‘y qilaveramiz deyishyapti.

Dadam anchagacha indamadi.

— Surishtirib ko‘rish kerak, — dedi oxiri. — Bu — umr savdosi.

— Keyin shisha nosqovog‘ini olib, nos otdi. — Qizingni ko‘ngliniyam bilish kerak.

Shu bilan gap boshqa yoqqa aylanib ketdi. Dadam eski paxtaligini kiyib, kechqurungi smenaga ishga jo‘nadi. Biz — aka-ukalarga jon kirdi. «Qushim boshi» o‘ynadik, o‘rta barmoqni topish o‘ynadik. Oxiri o‘yindan o‘q chiqdi. «Oshxo‘rakam kaptar» o‘ynayotganimizda akamning boshi ukamning boshiga qattiqroq urilib ketdi shekilli, ukam arillab yig‘lay boshladi. Oyim bilan opam koyib-koyib, joy solib berishdi. Hamma uxlab qoldi. Men bo‘lsam anchagacha uxlolmay yotdim. Bir mahal tashqarida chaqmoq chaqdi. Ketidan momaqaldiroq gulduradi. Sharillab jala quyib yubordi.

— O‘lsin, — dedi oyim o‘rnidan turib. — Chakka o‘tyapti.

Opam ikkovlari tokchadan tovoqlarni olib chakka o‘tadigan joyga qo‘yishdi. Ko‘zimni yumib yotsam ham qayerdan o‘tishini bilaman. Burchakda, sandiqning oldidan, keyin kavshandoz yaqinidan o‘tadi.

Opam bilan onam yana joylariga kelib yotishdi.

Opam deraza tagiga, oyim — ukamning yoniga. Men bo‘lsam chakkaga quloq solib yotibman. «Chak-tik-puk», «Chak-tik-puk...» Chakillayveradi, chakiliayveradi, xuddi soatga o‘xshaydi. Faqat ohangi har xil: «chak-tik-puk...»

Endi ko‘zim ilingan ekan, opamning xo‘rsinganini eshitib yana uyg‘onib ketdim.

— Nimaga kelishaveradi, oyi!

— Sovchimi? — dedi oyim. — Keladi-da, qizim. Qizlik uy — bozor. Shoh ham keladi, gado ham. Birovning eshigiga umid bilan kelgan odamni xafa qilish gunoh.

Oyimning uyqusi o‘chib ketdi shekilli, ovozi ancha balandlatib gapira boshladi.

— Qadim zamonda bir saxoba o‘tgan ekan. Oy desa oyday, kun desa kunday, yakkayu yagona qizi bor ekan. Bir kuni uch joydan uch sovchi kepti. Saxoba sovchilarning dili og‘rimasin, deb uchalasigayam rozilik berib yuboribdi. Keyin nima qilishni bilmay, Xudoga nola qipti. O‘zi bittayu bitta qizim bo‘lsa, uch joyga so‘z berib qo‘ygan bo‘lsam, endi nima qilaman, deb yig‘labdi. Shunda Xudoning rahmi kelib bir kechada saxobaning sigiri bilan echkisiniyam qiz qilib qo‘yibdi. Uchala qiz bir xil emish. Uch sovchi uch qizini to‘y-tomoshalar bilan olib ketibdi. Shunda saxoba Xudoga yana nola qipti. Qaysi biri o‘zimning

qizim ekanini endi qayoqdan bilaman, debdi. Xudodan nido kepti: eshikdan kirib borganingda salom berib kutib oladigan, erini, qaynota-qaynonasini, qayin-bo'yinlarini hurmat qiladigan qiz — o'zingning qizing. Hech kimni hurmat qilmaydigan, shaltoq qiz sigiring. Hech kimni hurmat qilmaydigan og'zi shaloq qiz — echking bo'ladi debdi. Har xil xotinlar o'shandan tarqalgan emish. Biri esli-hushli, chaqqon, biri — shaltoq, biri adabsiz...

— Kennoyiga o'xshaganmi? — deb yuborganimni o'zim ham bilmay qoldim. Bu shunday kutilmaganda bo'ldiki, oyimning cho'pchagi shartta kesilib qoldi.

Keyin opam ikkovlari sharaqlab kulib yuborishdi.

— Voy shayton, uxlamaganmiding?! — dedi opam qaddini rostlab. O'rnidan turdi-da, pilingi pasaytirilgan lampali tokcha oldidan o'tib kelib, meni quchoqladi. U yuzimdan, bu yuzimdan o'pdi. Opam urishib beradi, deb qo'rqib turgandim. o'pgani uchun judayam yaxshi ko'rib ketdim...

Ertasiga choydan keyin oyimning mahsi kiyayotganini ko'rib, mehmonga o'tlanayotganini sezdimu darrov ergashdim.

— Menam, menam boraman!

— Mehmonga ketayotganim yo'q, — dedi oyim bosh chayqab.
— Ishim bor.

— Boraman, oborasiz!

Onam bir zum ikkilanib turdi-da, rozi bo'ldi.

— Mayli, ammo charchadim demaysan.

Ona-bola yo'lga tushdik. Yomg'ir kechasi tinib qolgan, ammo yer hamon ko'pchib yotibdi. Oyoq bossangiz bir botmon loy yopishadi. Avval jiydazordan, keyin Qonqus ustiga tashlangan yakkacho'pdan o'tdik. Lopillab turgan yakkacho'pdan o'tayotganda qo'rqdimu o'tib olgandan keyin shundoq suv bo'yida o'sib yotgan sambittollarga angrayib qoldim. Sambittol zo'r! Hushtak yasasa ham bo'ladi, «ot» qilib o'ynasa ham...

— Yur, tezroq, — dedi oyim qo'limdan tutib...

Nihoyat guzarga yetib keldik. Choyxonada odam yo'q hisob, eski namat tashlangan so'rida bir chol oftobda mudrab o'tiribdi, yonida tumshug'i chegalangan choynak, sopol piyola... Keyin devorlari nurab ketgan otxona oldidan o'tdik. Qovurg'asi sanalib qolgan uchta ot dumi bilan pashsha qo'rib charchoq qiyofada boshini solintirgancha mudraydi. Otxona hovlisining burchagiga uyib qo'yilgan go'ngdan hovur ko'tariladi.

— Qayoqqa ketyapmiz, oyi?

— Keldik shekilli, — dedi onam atrofga alanglab. — Qurib ketsin, soʻraydigan odam ham yoʻq.

Ikki betida tollar, teraklar oʻsib yotgan loy koʻchadan yana ozgina yurgan edik, obkashda suv koʻtarib kelayotgan semiz xotin koʻrindi.

— Hoy egachi, shu yerlikmisiz? — dedi oyim, yaqinroq borib.

Semiz xotin obkashni yelkasidan oldi. Ustiga chambarak tashlangan ikki paqir suvni yerga qoʻydi. Harsillab oyim bilan koʻrishdi.

— Mahmud bukning uylari qaysi, oʻrgilay? — dedi onam semiz xotining iltijoli termilib.

Semiz xotinning rangi oʻchib ketdi.

— Bukur boʻlsa Xudo qilgan! — dedi harsillab. — Tavba deng!

Shunday dedi-yu, sharaq-shuruq qilib ilgakni ilgancha obkashni koʻtardi. Shartta burilib ketdi. Sirgʻalib-sirgʻalib borarkan, obkashi bilan qoʻshilishib orqaga burildi.

— Taʼna tagi taygʻoq, — dedi harsillab. — Betamiz!

Oyim hang-mang boʻlib qolgan, ogʻir-ogʻir kiprik qoqar, hozir yigʻlab yuboradigan alpozda edi.

— Voy, shoʻrim! — dedi pichirlab. — Kelib-kelib xotinidan soʻrabman shekilli.

U hamon sirgʻangancha obkashini lapanglatib ketayotgan ayolga anchagacha qarab turdi-da, qoʻlim-dan tutdi.

— Yur, keta qolaylik.

Bu yerga nima uchun kelganimizni tushungandek boʻldim.

Kecha dadam «surishtirib koʻrish kerak» degan edi. Bundan chiqdi oyim sovchilarni qoʻni-qoʻshnisidan bilib olmoqchi.

Choyxona roʻparasida pastak tomiga qora qogʻoz tashlangan, derazasining koʻziga yaltiroq xitoy qogʻoz yopishtirilgan sartaroshxona bor ekan. Ichkarida kim borligini bilmadimu, biroq doʻkon eshigi oldidagi yogʻoch xarrak boʻsh edi. Uch-toʻrt qadam yurgandan keyin oyim toʻxtab qoldi.

— Sochingni oldiramizmi? — dedi toʻsatdan.

Ikkilanib qoldim. Sochimni oldirib borsam, akalarim, joʻraboshi albatta boshimga shapatilab «ustara haqi» olishadi.

— Yura qol, — oyim yelkamga qoqdi. — Soching oʻsib rangingni siqib yuboribdi.

Ochiq eshikdan sekin moʻraladim. Ichkarida mijozlar yoʻq,

oldiga kir peshband taqqan sartarosh devor tomonga qarab choy ichib o'tirgan ekan. Kechagi yomg'irda bu yerdan ham chakka o'tgan shekilli, hujraning xomsuvoq qilingan devoriga uzun-uzun zahkash iz tushib qolgan. Oyim eshikdan mo'ralab, sekin yo'taldi.

Sartarosh yelkasi osha burilib qaradi. Mo'ylovi tekis qaychilangan qisiqroq ko'zli kishi ekan.

— Jiyanning sochini olamizmi? — dedi o'rnidan turib. Shundagina uning bitta oyog'i yog'och ekanini ko'rdim. Nosrang galife shimining yog'och oyog'idagi pochasini qayirib qo'yibdi. U taxtalarining orasi ochilib yotgan polni do'pillatib yaqin keldi.

— O'tir, jiyani, — dedi eski kursiga imo qilib.

Devorga tirab qo'yilgan xira toshoyna ro'parasiga o'tirdim. Oyim boshimdan do'ppimni yechdi-da, boya sartarosh o'tirgan kursiga joylashdi.

— Ustarada olamizmi, mashinadami? — sartarosh stol ustida yotgan, soch tolalari yopishgan matoni qoqib-qoqib bo'ynimga solarkan, onamga yuzlandi.

— Mashinada ola qoling, — dedi oyim.

Sartarosh qutichadan yaltiroq mashinasini oldi. Chakkamga mashinani tirab shiq-shiq qilganicha sochimni olishga tushdi.

— Nega ixraysan? — Sartarosh boshimni besh barmog'i bilan changallaganicha dashnom berdi. — Soldat hamma narsaga chidashi kerak. Za Rodinu, deb atakaga borsang ham ixraysanmi?

Oyimdan panoh kutib, aksini oynada ko'rish umidida mo'raladim. Biroq ko'zgu shunaqangi xira ediki, o'zimning yuzimni zo'rg'a ko'rardim.

— Siz shu yerlikmisiz? — dedi onam bir mahal.

— Sho'tlikmiz, — sartarosh ishini davom ettirarkan, onamga burilib qaradi. — Nimaydi?

— Men bir xayrli yumush bilan keluvdim, — dedi oyim osoyishta ohangda. — Odilxo'ja deganni taniysiz- mi? Ayollari chevar ekan. Muborak chevar.

— Nega tanimas ekanman! — Sartarosh tantana bilan ovozi balandlatdi. — Shundoq Mahmud bukur bilan qo'shni turadi-da, otxonadan o'tsangiz to'rtinchi darvoza!

— Bir narsani bilmoqchiydik, — oyim bir zum jimib qoldida, davom etdi. — Xudoyligingizni aytsangiz: qanaqa odamlar o'zi, tag-zoti qanaqa, asli shu yerlikmi yo boshqa joydan kelishganmi?

— Ha-a-a! Bundoq demaysizmi? — Sartarosh onamning maqsadini tushundi shekilli, bosh irg'adi. — Tag-zoti toza odamlar! Qadimdan shu yerda turishadi. Ota-bobosi bog'bon o'tgan. Katta uzumzori bo'lardi. Shibilg'oni deysizmi, shakarangur deysizmi, echkiemarmi — hammasi shu bog'da bo'lardi. Ana uzumu mana uzum! Urushning kasofati bilan ko'plari yo'q bo'p ketdi. Qo'li qisqalik qip qoldi bechoralarni! Sartarosh gapirgan sayin g'ayratga kirar, g'ayratga kirgan sayin mashinani tezroq shiqirlatar, unga sayin sochim ko'proq yulinar edi. Ko'zimdan yosh chiqib ketdi.

— Avlodida yomon odamlar chiqmaganmi? — dedi onam. — Qimorboz, o'g'ri, nashavand deganday...

— Yo'q! — dedi sartarosh qafiyat bilan. — Hammasi yaxshi odamlar.

Onam yengil tortib, xo'rsinib qo'ydi.

Endi sochimning orqasini olishga navbat keldi. Sartarosh kaftini botirib, nuqul boshimni pastga egadi. Boshim egilgan sayin paydarpay burnimni tortaman.

— O'g'li-chi? — dedi oyim asosiy maqsadga o'tib.— To'laganxo'ja degan o'g'li bor emish...

— Vo! — Sartarosh mashina bandiga tiqilgan bosh barmog'ini dikkaytirib ko'rsatdi. — Meravoy bola! Ma'lim! Maktabda ma'limlik qiladi.

— Urushga bormaganmi?

— Yo'q, — sartarosh qitig'imni keltirib tag'in bo'ynimga mashina soldi. Shilt etib burnimni tortdim. — Malimlarni urushga olishmagan. Ammo meravoy bola! Nima, quda bo'lmoqchimisizlar?

— Qaydam, — dedi oyim sekin. — Taqdir qo'shgan bo'lsa...

— Ammo og'iz solishgan bo'lsa shu boladan qolmanglar. Tag-zoti ko'rgan, buning ustiga kimsan, ma'limni kuyov qilasizu jon demaysizmi, singil! O'zingiz kimning oilasi bo'lasiz?

Oyim hammasini batafsil aytdi. Dadamni, asli qayerdan kelib chiqqanimizni...

— Yulduzlar yulduzlaringga to'g'ri kepti! — dedi sartarosh mashinani puflab-puflab tozalar ekan. — Xudo xohlasa osh yer ekanmiz-da!

Qutulganimga shukur qilib, dik etib o'rnimdan turdim.

Onam do'ppimni boshimga kiygazib, sartaroshga pul berdi. — Ie, qudalardan pul olsak qandoq bo'larkin? — Sartarosh pulni

shimining kissasiga tiqarkan, tayinladi. — Shulardan qolmang, yaxshi odamlar.

Uyga qaytishimiz bilan bir burda zogʻorani oldimu koʻchaga yugurdim. Maydonchada oʻynab yurgan Toy, Vali, joʻraboshi — hammasi paysalga solmay «ustara haqi» olishdi. Ayniqsa, joʻraboshi oʻrta barmogʻi bilan chertganda boshim ogʻridi. Lekin chidab turdim. Oʻzim olib kelgan yangilik bilan hammani qoyil qoldirmoqchi edim.

— Yaqinda biznikida toʻy boʻladi! — dedim maqtanib. — Opamning toʻyida rosa osh yeymiz! Keyin quda buvi menga koʻylak tikib beradi. «Zinger» mashinasi bor!

...Lekin toʻy boʻlmadi. Bir oydan keyin ham, bir yildan keyin ham... Bir-ikki marta opam, «kerakmas», deb yigʻlaganini, oyim, «koʻnglingdagini ayt boʻlmasa», deganini eshitib qoldim.

Tanish sovchilar hamon tez-tez kelib turishar edi. Bir kuni ertalab tursam, oyim yoʻq. Tushga yaqin xomushroq qaytdi. Ertasiga opam ishga ketganida, nonushta ustida dadamga qiziq gap aytdi.

— Pishmaydigan savdoga oʻxshaydi. Urugʻida jinni bor ekan. Toʻlaganxoʻjaning katta amakisi uch-toʻrt marta jinnixonaga tushgan ekan.

— Boʻlmaydi! — dedi dadam keskin qoʻl siltab. — Sovchilar yana kelsa javobini berib yubor.

Bir narsani hech tushunmasdim. Oʻshanda onam sovchilarning kelib chiqishi qayerdanligiyu, avlodida yomonotliq odamlar bor-yoʻqligini, kasb-kori nima-yu, qarindoshlarida kasallar bor-yoʻqligini nima uchun bunchalik surishtirganiga hech aqlim bovar qilmasdi.

Bu savdolar, bu savollar bora-bora yodimdan chiqib ketdi. Biroq kunlardan birida gʻalati voqea boʻldi. Redaksiyada ishlab oʻtirsam, egnidagi kiyimidan tortib taqinchoqlarigacha juda yarashgan koʻhlik ayol kirib keldi.

Anchagacha gapni nimadan boshlashni bilolmay uyalib oʻtirdi — oʻtirdi-da, oxiri dardini ochdi.

— Usmon akam ikkalamiz bir-birimizni yaxshi koʻramiz. Ammo ajrashmasak boʻlmaydi.

Xudo haqqi, bunaqa masalalarga aralashishni jinimdan yomon koʻraman.

Koʻhlik juvonga toʻgʻrisini aytdim, oʻz hayotingizni oʻzingiz hal qiling, dedim.

Ayol bir zum yerga qarab turdi-da, iltimos qildi.

— Usmon akam bilan bir gaplashib ko'rsangiz...

«Usmon akasi» kelishini xayolimga ham keltirmagan edim. Uch kundan keyin eshikdan har jihatdan mukammal yigit kirib kelib o'zini tanishtirganida hayron qoldim. Ikkovlari bir-biriga shu qadar munosib ediki, shundoq oilaning ajrashmoqchi ekaniga achinib ketdim. Gapni nimadan boshlashni bilmay garangsib turgan edim, Usmonning o'zi muddaoga o'tdi.

— Xotinim meni, men xotinimni sevaman. Bolamiz yo'qligiga xafaman. Ammo choramiz ham yo'q!

— Hozirgi zamon meditsinasi uchun shuyam problema bo'ptimi, — dedim Usmonni yupatib. — Uchrashib ko'ringlar axir.

Ma'yus jilmaydi.

— O'zim vrachman. Vrach bo'lganim uchun xotinimning tug'ishini xohlamayman.

Butunlay esankirab qoldim.

— Nega axir? Bir-birlaringni sevsangiz. Munosib bo'lsangiz...

— Men vrachman, — dedi Usmon yana bo'g'iq ovozd. — Genetikani yaxshi bilaman. Xotinimning o'g'il tug'ishidan qo'rqaman. — U yana xo'rsindi. — Qo'rqaman. Umuman, hammasiga o'zim aybdorman. Nazirani sevardim. Xudbinlik qildim. Boshida aytishim kerak edi. — U nimanidir, juda muhim narsani aytishga ikkilanar edi.

— Mayli, — dedi nihoyat. — Rostki, sizga yuragimni ochdimmi, bu yog'iniyam aytishim kerak. Mening buvam — dadamning otasi ShZ bo'lgan.

— Nima u ShZ? — dedim daf'atan tushunolmay.

— Shezofreniya kasalligi. Ruhiy xastalikni meditsinada shunaqa deyiladi. Bu — naslga o'tadigan dard. Ota avlodida bo'lsa o'g'ilgami, nevaragami, xullas kimgadir o'tadi.

— Qiziq ekansiz, — dedim uni yupatib. — Vrachlar vahimachiroq bo'ladi o'zi! O'tmasa-chi!

— Oo'tsa-chi! — Usmon mahzun qiyofada boshini quyi soldi. — Men-ku mayli, Nazirada nima ayb? Ruhiy xasta bola bilan umrbod ezilib yuradimi?!

Yana allanimalar deb ko'nglini ko'targan bo'ldim. Usmon mahzunlik bilan jilmayib o'tirdi-o'tirdi-da, indamay chiqib ketdi.

...Shunda chakka o'tgan o'sha kecha, erta bahorda oyim bilan

loy kechib, Qa'niga borganimiz, frontovik sartarosti, yana ko'p narsalar yodimga tushdi. Onamni qo'msash aralash sog'inch tuyg'usi vujudimni sirqiratib yubordi. Shu paytgacha o'zim tushunmay yurgan ko'p haqiqatlarni anglagandek boldim.

...Qaysi kuni metro stansiyasi oldida Gulini ko'rib qoldim. Yonida baland bo'yli, jingalak sochli yigit. Mo'ylovi o'ziga xo'p yarashgan. U Gulining jajji sumkachasini ko'tarib olgan. Guli uni qo'ltiqlab kelar, yigit xushchaqchaq bo'lsa kerak, allanima-larni gapirar, Guli xandon otib kular edi.

Uch kundan keyin Gulini ko'chada uchratdim.

— Yaxshi bolaga o'xshaydi, — dedim o'sha yigitni eslab.

— Kim?

— O'sha kungi yigit. To'y qachon?

Guli qizardi. Ammo quvonchini yashira olmadi.

— Farhod akam yoqdimi sizga? — dedi jilmayib.

— Yoqdi, — dedim rostini aytib. — Kasbi nima?

— Oshpaz, — Guli yana jilmaydi. — Shefpovar.

— Qarindoshlaring emasmi?

Guli «yo'q» degandek bosh chayqadi.

— Qayerlik ekan o'zi?

Guli hayron qolib chiroyli kipriklarini pirlirtdi.

— Buning nima ahamiyati bor?

— Mabodo avlodidan o'g'rimi, nashavandmi chiqmaganmi?

— Beixtiyor og'zimdan onamning savoli chiqib ketdi.

Guli birdan jiddiy tortdi. Qoshini chimirdi.

— Nima deganingiz bu?

— Jinni-chi? Mabodo qarindosh-urag'larida ruhiy kasallar yo'qmi? Surishtirib ko'ring.

Guli ko'zimga tikilib turdi-da, sekin-sekin orqasiga tisarila boshladi. Nariroqqa borib birdan yugurib ketdi. Chamasi meni esdan og'ib qolgan deb o'yladi.

ERMON BUVANING TILAGI

Agar dunyoda ikkita beozor odam bo'lsa bittasi Ermon buva. Agar dunyoda ikkita beozor odam bo'lsa yana bittasi — Ermon buvaning kampiri — Habiba buvi. Mabodo dunyoda ikkita yuvosh sigir bo'lsa bittasi Ermon buvaning ola sigiri. Agar shunaqa sigir dunyoda bitta bo'lsa shu sigirning o'zi.

Ermon buvaning chap oyog'i oqsoq: hasa bilan yuradi. Sigirining o'ng shoxi singan. Ola sigirning shoxi qandoq singanini hech kim bilmaydi. Ammo Ermon buvaning oyog'i nega oqsoqligini hamma biladi. Biladi-yu, hamma har xil gapiradi. Oyimning aytishiga qaraganda, Ermon buvaning oyog'i bosmachilar bilan urushda singan emish. Dadam bo'lsa boshqacha tushuntirgan. Qishloqni bosmachi bosganida Ermon buva daraxtga chiqib ketayotganda yiqilib, oyog'i cho'loq bo'p qolganmish.

Xullas, nima bo'lgandayam u oqsoqlanib yuradi. Bahor paytlari ola sigirini yetaklab kelib qoladi. Qo'lida hasa, sigirining butun shoxiga tuguncha ilib qo'yilgan. O'tloqqa yetganidan keyin sigirning shoxidagi tugunchani oladi-da, o'zini qo'yib yuboradi. Belidagi qiyiqchasini tol soyasiga tashlab «bismillohu rahmonur rahim» deb maysa ustiga yonboshlaydi. Ola sigir shundoqqina uning yonida poyezddek pishillab o'tlashga tushadi. Ora-chora shu ishim ma'qulmi, degandek egasiga qarab-qarab qo'yadi. Shunaqa yuvosh sigirki, bolalar tagiga kirib emsa ham hoy, nima qilyapsan, deb qayrilib qaramaydi. Biroq bolalar Ermon buvani ham, sigirini ham qattiq hurmat qilishadi. Hatto jo'raboshimiz ham buvani ko'rishi bilan yuvosh tortib qoladi, ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib:

— Assalomu alaykum, buvajon, — deb salom beradi.

— Vaalaykum assalom, mullo bo'ling, tasadduq, — deydi Ermon buva salmoqlab. Bari bir uning ovozi salmoqli chiqmaydi: xotinlarnikidek ingichka, ammo nihoyatda mehribon.

Uni har ko'rganda oyim aytib bergan Xizr esimga tushadi. Nega deganda Ermon buvaning sochi ham, soqoli ham, hatto ko'ziga qayrilib tushgan o'siq qoshlarigacha oppoq. Oppoq yaktak, lozim kiyib yuradi. Habiba buvi kiyimini doim top-toza qilib yuvib, dazmollab beradi. Yaktagining delvagay yoqasidan ko'rinib turgan ko'krigidagi tuklariyam oppoq. Faqat ikki yuzi qip-qizil. Oyimning aytishiga qaraganda, farishtali odamning yuzidan nur tomib turarmish. Farishtaning qanaqa bo'lishini bilmaymanu, ammo Ermon buvani yaxshi ko'raman. Judayam yaxshi ko'raman.

U yonboshlab yotganicha yaktagining cho'ntagidan nosqovog'ini chiqarib bir otim nosni tili tagiga tashlaydi-da, ko'zlarini qisib bahor oftobiga tikilganча hassasini chertib xirgoyi qiladi:

«Tolda chumchuq sayraydi, ko'rsam ko'nglim yayraydi...»

Shunda endi yo‘lga kirgan ukam ishtonchan chopqillagancha uning yoniga keladi. Ermon buva xirgoyisini to‘xtatadi. Ukamning buti orasiga qo‘l cho‘zib hazillashadi:

— Nosdan bering, otam, nosdan bering.

Ukam qitig‘i kelib qiqirlab kuladi. Ermon buva tirnoqlari qiyshayib ketgan barmoqlarini hidlagan bo‘ladi-da, ataylab aksa uradi.

— Ap-ap-ap-shu! Voy-bo‘! Nosingiz zo‘r ekan-ku, otam!

Ukam huzur qilib qiqiraydi. Nariroqqa qochib boradi-da, tag‘in buvasiga «nos bergisi» kelib qoladi. Qaytib keladi. Keyin hammasi yangitdan boshlanadi.

Bir mahal oyim maydon chekkasida turib meni imlab chaqirayotganini ko‘ramanu yuguraman. Oyim qo‘lidagi obdastani uzatadi.

— Ma, buvanga oborib ber.

Bilaman, obdastada iliq suv bor. Bir qo‘lim bilan obdastaning bandidan, ikkinchi qo‘lim bilan jo‘mragidan tutib halloslab chopib kelaman.

— Mang, buva!

Ermon buva hayron bo‘lgandek qarab turadi-da, mamnun jilmayadi:

— Peshin bo‘p qoldi deng, qoravoy? Barakalla! Umringizdan baraka toping, Poshsha qizim sizlarning rohatingizni ko‘rsinlar.

Shunday deydi-da, bir qo‘lida hassa, bir qo‘lida obdasta panaga o‘tadi. Bir ozdan so‘ng yuz-qo‘lini artib qaytib keladi. Qiyiqchani joynamoz qilib o‘t ustiga tashlaydi-da, pichirlab uzoq namoz o‘qiydi. Bolalar jimib qolishadi. Nihoyat u cho‘kkalab o‘tirganча ovozini chiqaradi.

— Ilohi omi-in! Yurtimiz tinch bo‘lsin, u dunyoyu bu dunyo qirg‘inbarot bo‘lmasin, ollohu akbar.

Bolalaru qizlar chuvillashib baravar salom berishadi. Ermon buva alik oladi-da, chordana qurib o‘tiradi. Boyagi tugunni shoshilmasdan yechadi.

— Qani qoravoylar! Qani popuklar, — deydi qandaydir tantanavor ohangda. — Dasturxonga marhamat. Uyalminglar, tasadduqlar!

Dasturxonda zog‘ora nonmi, arpa nonmi bo‘lgan kuni hammamizga bayram. Ko‘pincha unisiyam bo‘lmaydi, bunisiyam. Biroq tutmayiz albatta bo‘ladi. Tutmayizni yeb olsangiz darrov

qorningiz to'yadi. Shunaqa shirin, shunaqa mazali! Men bir kaft mayizni og'zimga tashlaymanu uyga g'irillayman. Oyim albatta choy damlab qo'ygan bo'ladi. Olma choymi, boshqa-mi, ishqilib choy-da! Shundoq qilib hammamiz birgalashib ovqatlanamiz. Oxirida Ermon buva dasturxon-ga fotiha o'qiydi.

— Yaratgan ne'matingga shukur! — deydi ingichka ovozda. — Ilohi omi-in! Yurtimiz tinch bo'lsin, u dunyoyu bu dunyo qirg'inbarot bo'lmasin, ollohu akbar!

Ana undan keyin Oltmishvoyning ta'rifi boshlanadi. Oltmishvoy Ermon buvaning o'g'li. Habiba buvi ko'p tuqqan. Hammasi chillasi chiqmasdan o'lib ketgan. Ammo Oltmishvoy boshqacha yigit-da! Bittayam kasal bo'lmagan. Menday paytida otni egarlab o'zi choptir-gan. Jo'raboshimizday bo'lganida ketmon bilan bir tanob yerni hashpash deguncha ag'darib tashlagan. Oltmishvoy ana shunaqa yigit!

Avvaliga Habiba buvi oltmishta tuqqani uchun Oltmishvoyning oti shunaqa deb o'ylagan edim. Yo'q, keyin tushundim. Oltmishvoy Ermon buva oltmishga kirganda tug'ilgan ekan.

— Mening Oltmishvoyimdaka yigit dunyoda yo'q, — deydi Ermon buva har kungi gapini qaytarib. — Bunaqa yigitni xudo bitta yaratganu qolipini sindirib tashlagan! — U o'zining hikoyasidan o'zi zavqlanib ketadi. Nosqovog'idan kaftiga mo'lroq solib tilining tagiga tashlaydi. — Mana, hozir nemisning dodini berib yuribdi. O'ziyam Azob dengiz degancha bor-da, tasadduq! Bir shamol tursa bormi, har suv ko'tariladiki, tog'dek keladi. Ammo mening Oltmishvoyim azobdan qo'rqmaydi. Rosa savalayapti, pashist demaganni! Komandiri mazasi yo'q bola ekan! Oltmishvoy giroy bo'lib o'ldi, deb yozibdi... — Ermon buva birdan

orzumandlik bilan. Keyin hassasini chertib xirgoyi qiladi:

«Tolda chumchuq sayraydi, ko'rsam ko'nglim yayraydi...»

Ermon buva qo'shiq aytadi. Men bo'lsam unikiga oyim bilan borganim, Oltmishvoyning suratini ko'rganimni eslab ketaman. Aslida Ermon buvaning uyi hammamizniki. Ayniqsa, tut oqarishi bilan qishloqning hamma bolasi Errnon buvanikiga ko'chib boradi. Uning devori juda past. Eshak minib o'tsangiz, hovlisi ko'rinib turadi. Lekin bu hovliga devorning keragiyam yo'q. Eshik doim ochiq turadi. Kirib borishingiz bilan dokaro'molini u yoqqa tashlagan, bu yoqqa tashlagan Habiba buvi peshvoz chiqadi.

— Voy uyingga bug'doy to'lgurlar, voy ko'pay gurlar, kela qolinglar, — deydi ovozi tovlanib. O'sha zahoti bolalar tutga tarmashadi. Tut ham egasiga o'xshagan. Hovlining yarmini egallab yotadi-yu, ammo tik o'sganmas. Shoxlari tarvaqaylab ketgan. Bemalol osilib chiqaverasiz. Shundoq bo'lsayam, Habiba buvi bolalarni tutga chiqarmaydi.

— Hoy ko'paygur, osilma! — deydi chirqillab. — Yiqilib ketasan. Hozir buvangni chaqiraman!

Zum o'tmay ayvon yonboshidagi pastak hujradan hassasiga tayanib Ermon buva chiqadi.

— Iye-ye, qoravoylar, kep qopsizlar-da! — deydi quvonib. — Qani, kampir, chodirni opchiq.

Habiba buvi qirq yamoq bo'lib ketgan chodirni olib chiqadi. Kamida o'ttizta bola qaldirg'ochdek tizilib chodirning to'rt tarafidan ushlab turadi. Ermon buva oqsoqlagancha tut tagiga boradi-da, inqillab-sinqillab shoxga minadi. Habiba buvi pastdan turib uzun tayoq uzatadi. Ermon buva «bismillo» deb tayoqni bir urishi bilan duv etib tut yog'iladi. Tut bo'lgandayam shu-naqangi tutki, har bittasi pilladek keladi. Bolalar chodirni qo'yib yuborgancha qiy-chuv qilib o'rtaga tarmashadi. Yuqorida Ermon buvaning ingichka tovushi keladi.

— Shoshmanglar, popuklar, shoshmanglar qoravoylar, yana besh-o'n marta qoqay, hammalaringga yetadi.

Qarabsizki, hammamiz tutga to'yib olamiz. Ayvonda esa uchta kattakon xum qatorlashib turadi. Har bittasi mendek keladi. Habiba buvi shinni pishirib shu xumlarga to'ldirib qo'yadi. Qish bo'yi qachon kelsangiz, shinniga to'yasiz.

Shunday qilib, Ermon buva har qachon Oltmishvoyni gapirganida oyimga ergashib ularnikiga borganim esimga tushadi.

Ayni tut pishig'i edi. Ermon buva tut qoqib berdi. Habiba buvi yuvib, tozalab, sopol laganga to'ldirib keldi. Maza qilib yedik. Keyin Habiba buvi kuyunchaklik bilan tushuntirdi.

— Tut yurakni o'rtab yuboradi, ko'paygurlar. Yuringlar, choy ichamiz.

Oldinma-keyin tizilishib pastak hujraga kirdik. Tokchalarga eski barkashlar bezak qilib qo'yilgan xonaga kirishim bilan eng avval nonga ko'zim tushdi. Bunaqangi chiroyli nonni birinchi ko'rishim edi. Ustiga sedana sepilgan, qip-qizil patir non. Qiziq, nonni negadir devorga mixlab qo'yishibdi. Bir chekkasi kemtik.

— Oyi-i, non! — dedim yalinib.

Oyim yarq etib qaradi-yu, labini tishlab bosh chayqadi. Bildimki, onam uyalyapti. Endi Habiba buviga tarmashdim. Bilaman, dunyoda Habiba buvidan saxiy odam yo'q.

— Buvi, non, — dedim yana o'sha ohangda. Devordagi nonni ko'rsatdim. — Buvi, no-o-on!

Qiziq, negadir Habiba buvi bu safar saxiylik qilmadi.

— Bu nonga tegib bo'lmaydi, ko'paygur, — dedi boshimni silab. — Qorningni qorachig'idan aylanay, tegib bo'lmaydi. Bu non Oltmishvoy akangniki. Ko'rdingmi, bir chetini tishlab ketgan. Kelganida yana bitta tishlaydi-da, qolganini senga beraman. Ana, Oltmishvoy akang ham senga qarab turibdi.

Qarasam, nonda chindan ham Oltmishvoy akaning tishlagan izi ko'rinib turibdi. Nonning tagida esa o'zining surati. Surat negadir sarg'ayib ketgan. (Habiba buvining ko'z yoshi tomaverib sarg'ayib ketganini keyin tushunganman). Suratda dengizchilarning kokil-dor shapkasini kiygan qop-qora yigit jilmayib turibdi.

— Qurut yeysanmi? — dedi Habiba buvi yana boshimni silab.

Oyimga qarasam, qovog'ini solib turibdi. Indamay qo'ya qoldim. Tashqariga chiqqanimizdan keyin onam dashnom berdi.

— Uyatga o'ldirding-ku, bolam. Nonni Oltmishvoy akangga atab qo'yishibdi, bildingmi? Oltmishvoy akangdan qoraxat kelgan, tushundingmi?

Nimani tushundim, nimani tushunmadim, bilmaymanu, ammo Ermon buvaning gaplariga ishongim keladi. Erta-indin Oltmishvoy aka giroy bo'lib keladi. Ermon buva uning komandiriga xat yozdiradi. Sen yaxshi bolamas ekansan, deydi. Mana, Oltmishvoyim giroy bo'p keldi-ku, sen bo'lsang uni o'ldi deyapsan, deydi... Keyin ola sigirni sotib to'y qilishadi.

Ermon buva Oltmishvoy akaning ta'rifini rosa keltirganidan keyin har kuni aytadigan afsonasini boshlaydi. Shu cho'pchagi menga hech yoqmaydi: qo'rqaman. Ammo hadeb qaytaravergani uchun yodimda qolgan. Qiziq, negadir jo'raboshimiz xuddi shu cho'pchakni yaxshi ko'radi.

— Buva, — deydi yalinib. — U yurt bilan bu yurtni aytib bering.

Ermon buva jon deb rozi bo'ladi.

— Bo'пти, qoravoylar, popuklar, yaqinroq kelinglar.

Aytmoqchi, Ermon buva hech qaysimizni otimizni bilmaydi. O'g'il bolalarning hammasi uning uchun qoravoy, qizlarning hammasi popuk. Bundan tashqari, hech kimni sen demaydi, hammani sizlab gapiradi. U nosni yana otib oladi-da, afsonasini boshlaydi: — Bir bor ekan, bir yo'q ekan... Bir-biri bilan qo'shni turadigan ikkita yurt bor ekan. — Ermon buva birdan jimib qoladi-da, qizlardan biriga dashnom beradi. — Hoy popuk, ukangizni burnini artib qo'ying, tasadduq!

«Popuk» bironing ukasi bo'lsayam, etagini qayirib, yonida o'tirgan bolaning burnini artishga majbur bo'ladi.

— Barakalla! — deydi Ermon buva mamnun bo'lib. — Shundoq qilib desangiz, u yurtdagilar ham, bu yurtdagilar ham tinchgina bug'doyni sepib, molini boqib yurarkan. Ammo-lekin tasadduqlar, g'alamis degani o'sha zamonlardayam bor ekan-da! O'rta g'alamis aralashib ikki yurtning orasini buzibdi. U yurtning ichiqora odamlari o'z podshosini yo'ldan uribdi. «Bu yurtda shunaqangi yaylovlar borki ot minib uch kun choptirsangiz u boshidan bu boshiga yetolmaysiz», debdi. «Bosib olsangiz xazinangiz oltinga to'ladi», debdi. Bu yurtning ichiqora odamlariyam o'z podshosini ko'ngliga g'ulg'ula solibdi. «U yurtda shunaqangi bog'-rog'lar borki, jannatga o'xshaydi», debdi. «Bosib olsangiz xazinangiz oltinga to'ladi», debdi.

Ermon buva nosini tupurib birdan Toyga ko'zi tushib qoladi.

— Iya, qoravoy, sizniyam burningiz oqib ketdi-yu, artib oling, tasadduq!

— Qo'yavering, buva! — deydi jo'raboshimiz bilag'onlik qilib.

— Artgani bilan foydasi yo'q. Buniki qaynab chiqaveradi.

Toy jahl bilan «shilq» etib burnini tortadi. Zum o'tmay yana oqib ketganiga parvo qilmaydi. Ermon buva bo'lsa berilib hikoya qiladi.

— Shundoq qilib, u yurtning podshosi ham, bu yurtning podshosi ham lashkar to‘plashga kirishibdi. Tag‘in qanaqa lashkar deng! Har bittasi mening Oltmishvoyimga o‘xshagan norg‘il yigitlar emish. Yigitlarning mo‘ysafid otalari, keksa onalari g‘amboda bo‘lib qolishibdi. Urushdan kimga foyda-yu, kimga ziyon, deyishibdi. Urush qilib xazinasini boyitadigan podsholaru bolamizni ajalning og‘ziga yuboradigan bizmi, deyishibdi. Ammo kambag‘alning dodini kim eshitardi, tasadduqlar! U yurtning lashkari bu yurtnikiga ot suribdi. Bu yurtning lashkari u yurt ustiga bostirib boribdi. Shundoq qilib desangiz, qirg‘inbarot boshlanibdi. Ne-ne oydek qizlar oyoqosti bo‘pti, beshikdagi bolalar onasidan, onalar bolasidan ayrilibdi. Popukday qizlar, nozaninday juvonlar, norasida bolalar Xudoga nola qilishibdi. «Podsholar bir-birining yurtini bosib olaman desa bizda nima gunoh», deyishibdi. «Nimaga bizni onamizdan judo qilasan, akamizdan ayirasan?» deyishibdi. Lekin ularning nolasi Xudoga yetib bormabdi.

Ermon buva jimib qoladi. Xazinasini oltinga to‘ldiraman deb urush ochgan u yurtning podshosini ham, bu yurtning podshosini ham yomon ko‘rib ketaman. Onalarni bolasidan, bolalarni onasidan judo qilgan u yurtning g‘alamis odamlarini ham, bu yurtning g‘alamis odamlarini hara yo‘q qilib tashlagim keladi.

— Iya, qoravoy, ishtonni ko‘taring, ishtonni, — deydi u kulimsirab. — Bulbulingiz ko‘rinib ketdi-ku, tasadduq.

Shosha-pisha ishtonni ko‘taraman.

— Barakalla, tasadduq! — deydi Ermon buva jilmayib. — Umringizdan baraka toping... Shundoq qilib, qirq yil qirg‘in bolibdi. U yurt ham, bu yurt ham vayronaga aylanibdi. Yo tavbangdan ketay, tasadduqlar, ne-ne daryolar qurib, ne-ne bog‘lar kultepaga aylanibdi. Boringki, yilt etgan bitta giyoh qolmabdi. Tikkaygan bitta daraxt qolmabdi. Jamiki parrandalaru darrandalarga qiron kepti. Oxiri daraxtlaru o‘t-o‘lanlar, daryolaru qushlar Xudoga nola qipti: «Urushni qiladigan-ku odamlar, bizda nima gunoh», debdi. «Sen bizni odamlar uchun yaratgan eding-ku, nimaga odamzod bizga qiron keltiradi», debdi. «Odamzodning fe‘li shunaqa yomon bo‘lsa biz nima qilaylik», deb yig‘lashibdi. Ana o‘shanda Olloyi-taoloning qattiq qahri kepti. U yurtni ham, bu yurtni ham cho‘l-biyobonga aylantirib tashlabdi. U yurtda ham, bu yurtda ham, bironta qimirlagan jon, na bitta daraxt, na bitta o‘t-o‘lan, na bir tomchi suv — hech nima

qolmabdi. O‘shandan buyon oftob ham shu yurtlarni chetlab o‘tarmish. Shamol yaqiniga bormasmish. Qush uchmasmish. U yurt ham, bu yiirt ham zimistonga aylanib qolgan emish.

Ermon buva niosini tupurib chuqur xo‘rsinadi. «Ana shunaqa gaplar», degandek ma‘nodor bosh chayqab qo‘yadi.

— Mana, tasadduqlar, pashist deganiyam jazosini oldi-ku. Meni Oltmishvoyim ham pashistni jazosini beraman deb qilich o‘ynatib yuribdi-da. Bo‘lmasa Azob dengizda suzish osonmi! — U menga qarab ko‘zini qisib qo‘yadi. — Oltmish akangizni-chi qilichi bor. Alpomishnikiga o‘xshab qirq gaz keladi. Qaytib kelgandan keyin o‘sha qilichni sizga beraman.

...Ermon buva va‘da qilgan Oltmishvoy akaning qirq gazli qilichi menga nasib etmadi. Uning o‘zi ham, qilichi ham urushdan qaytmadi. O‘sha yili birinchi qor tushgan kuni Ermon buva yana bitta afsona aytib berdi. Bu cho‘pchakni atigi bir marta aytgan bo‘lsa ham negadir xotiramda saqlanib qoldi.

Kechqurun Ermon buvaning ayvoniga to‘plandik. Tashqarida gupillab yirik-yirik qor yog‘ar, ayvon oldiga o‘zimiz tut qoqib yegan qirq yamoq chodir tutib qo‘yilgan, sovuq edi. Hammamiz sandalga oyoq tiqib o‘tiribmiz. Oyoq iligani bilan badandan muz o‘tib ketgan. Sandal ustiga bir qop ko‘sak uyub tashlangan. Ermon buvaning aytishiga qaraganda o‘n pud ko‘sakni chuvish zimmamizga tushgan emish. Ertagacha chuvib bo‘lmasak, brigadir Haydar shamol xafa bo‘larmish. Ko‘raklar sovuqda muzlab qolgan, ushlangiz qo‘lingizni uzaman deydi. Ikkita tokchaga bittadan lip-lip chiroq qo‘yilgan. Chiroqlarning piligi lipillagan sayin xotinlarning devordagi bahaybat soyalari ham afsonaviy devlardek sakrab-sakrab ketadi. Xotin-xalaj indamay ko‘rak chuyiydi. Bir qopi tugashi bilan Ermon buva ikkinchi qopni eski dasturxonga ag‘daradi... Qo‘lim akashak bo‘lib qoldi. Buning ustiga ko‘rak tikandek qotib qolgan. Paxtasini sug‘urib olguncha tirnog‘ingiz orasiga kirib qonatib yuboradi. Ermon buva menga qarab-qarab qo‘yadi.

— Qo‘lni isitib oling-da, qoravoy!

Oxiri onamning ham toqati toq bo‘ldi.

— Paxtasiyam o‘lsin! — dedi zorlanib. — Qo‘limda qo‘l qolmadi-ya!

Ermon buva sokin bosh chayqadi.

— Unaqa demang, Poshsha qizim, — dedi ingichka ovoz

bilan. — Gunoh bo'ladi. Paxta jannatdan chiqqan, tasadduq!

U qishda ham delvagay ochib yuradigan yaktagining cho'ntagini uzoq kavlashtirib nosqovog'ini topdi. Tilining tagiga uch-to'rt urib nos otdi.

— Paxta jannatdan chiqqan, — dedi ishonch bilan. — Men sizlarga bir hikmatni aytib beray, tasadduqlar.

Shunday deb men eshitmagan afsonani aytib berdi.

— Qadim zamonda bir yurtni yov bosibdi. Odamlar qala ichiga berkinib olishibdi. Yov shaharni o'rab olib kutaveribdi, kutaveribdi. Oxiri qal'a ichidagilar ham, yov ham holdan toyibdi. Qamalda qolganlarning ochlikdan sillasi quribdi. Odamlar oqsoqol oldiga borib, bo'ldi endi, shaharning darvozasini ochib beramiz, deyishibdi. O'zimiz och, bolalarimiz yalang'och, otlarga yem yo'q, o'tin yo'q, deb nolishibdi. Ammo oqsoqol dono kishi ekan. — Ermon buva tantana bilan qaddini kerib qo'yadi. — Bir hujraga yig'ib qo'ygan allaqancha g'o'zapoyani opchiqibdi. Paxta degani jannatdan chiqqan, menga ishoninglar, tasadduqlar, debdi. Buni qarangki, chol aytgan gap to'g'ri chiqibdi. Paxtaning momig'ini askar bolalarning yarasiga bosishibdi. Tolasini yigirib bo'z to'qishibdi, kiyim tikishibdi, chaqaloqlarga yo'rgak qilishibdi, chigitni yog'ini eritib go'sht qovurishibdi. Kunjarasini otlarga berishibdi. G'o'zapoyani yoqib uylarni isitishibdi. — Ermon buva ovozini yanayam balandlatadi. — Qarabsizki, yovning holi tang. Sichqonning ini ming tanga bo'lib ketibdi. — Ermon buva namatni qayirib nosni tupuradi. Tomog'ini taqillatadi. — Ana ko'rdinglarmi paxtaning xosiyatini, tasadduqlar. Qani, kampir, shinnidan opke. Bir maza qilaylik!

Habiba buvi ildam o'rnidan turib xumga sopol piyolani botiradi. Yana bir marta... Keyin yana bir marta. Birpasda ayvonnini tut shinnining isi tutib ketadi...

...O'sha birinchi qor tushgan kuni Habiba buvini oxirgi marta ko'rayotganimni bilmagan ekanman. Hali yangi yil kelmasidan ketma-ket qor yog'ib qahraton sovuq boshlandi. Shunday kunlardan birida ertalabki choydan keyin onam to'satdan so'rab qoldi:

— Ermon buvangnikiga borib kelamizmi?

Quvonib ketdim. Ermon buvanikiga bo'ladi-yu, yo'q deymanmi!

— Shinni yeyishgami? — dedim hovliqib.

Onam ohista bosh chayqadi.

— Yo‘q. Habiba buvi zotiljam bo‘p qopti. O‘tini yo‘qmish. Ko‘mir oborib beramiz.

Bultur o‘zimizning o‘tinimiz qolmaganida qanaqa ahvolga tushganimiz esimdan chiqqanmas. Shuning uchun bo‘lsa kerak, bu yil dadam ko‘mirni yaxshilab g‘amlab qo‘ygan edi.

— Menam oboraman! — dedim irg‘ishlab. — Qopda oboraman!

— Bo‘pti, — oyim boshimni siladi. — Sen qop ko‘tarolmaysan, chelakda oborasan.

Dadam ishda, akalarim maktabda. Opam echki sutini sotish uchun shaharga ketgan. Uyda oyim, ukam qolgan. Ukamni amallab beshikka tiqdik. Oyim aldab-suldab uxlatdi. Oshxonaga kirib qopga ko‘mir soldik. Men og‘zini ochib turdim, oyim xokandoz bilan soldik. Sandalga yirik ko‘mir bo‘lmaydi. Albatta kukunidan solish kerak. Tez cho‘g‘ oladi, uzoq turadi. Onam har gal xokandozni bo‘shatganida qop-qora chang ko‘tariladi. Bir zumda oyimning ham, mening ham og‘iz-burnimiz qorayib ketdi. Keyin kichikroq paqirga teng ko‘mir to‘ldirdim. Ikkalamiz yo‘lga tushdik. Onam burni yerga tekkudek bo‘lib enkaygancha qorda chuqur-chuqur iz qoldirib yurib ketdi. Ketidan men ergashdim. Kichkinagina chelak avvaliga yengil tuyulgan edi. Ellik qadamcha yurmasimdan juda og‘irlashib ketdi. U qo‘limdan bu qo‘limga olaman, bu qo‘limdan u qo‘limga olaman, sirg‘anib-sirg‘anib ketaman. Bu ham yetmagandek, qo‘limga so‘zak kirib ketdi. Paqirning bandi kaftimga chippa yopishib qolgan. O‘ng qo‘limdan chap qo‘limga olayotganimda terimni shilib olayotgandek bo‘ladi.

— Oyi, qo‘lim muzlab qoldi, — deymen yig‘lamsirab.

Onam menga achinib qarab qo‘yadi-yu, to‘xtamaydi.

— Yura qol, jon bolam, yaqin qoldi.

Qopning tagini ham sichqon teshgan ekan: qor ustida bora borgancha qop-qora iz tushib bordi.

Nihoyat Ermon buvaning ochiq eshigi oldiga keldik.

— Sen kirmay qo‘ya qol, — dedi onam harsillab. — Men hozir. — Shunday dedi-yu, ikki bukilgancha hovliga kirib ketdi, zum o‘tmay qaytib chiqib paqirni ham olib kirdi.

— Alahlab yotibdi bechora! — dedi qaytib chiqib. — Buvang tepasida duo o‘qib o‘tiribdi.

Bu safar buvining shinnisiga umid bog‘lamadim. Oyim ikkalamiz darrov izimizga qaytdik. Oyimning qo‘lida paqir, paqir

ichida bo'shagan qop...

Qorda tushgan ko'mir izini dadam ko'ribdi shekilli, kechqurun oyimdan so'radi:

— Kimga ko'mir berding?

Oyim aybdor qiyofada yerga qarab turdi-da, rostini aytdi.

— Habiba buvi shamollab qopti. Ko'miri yo'q ekan, oborib berdim.

Dadam oyimni urishmadi.

— Chatoq bo'пти, — dedi sekin. — Achinskaga xabar berish kerak.

Onam bosh chayqadi.

— Judayam zarilmas shekilli. Mana, uyi isib qoldi. Ajabmas, erta-indin tuzalib ketsa...

Lekin Habiba buvi tuzalmadi... Indini ertalab ishga ketgan dadam yarim yo'ldan qaytib keldi. Ukamni tizzasiga o'tkazib choy ichirayotgan oyim hayron bo'lib dadamga qaradi:

— Tinchlikmi?

Dadam negadir ko'zini yashirdi:

— Odamzodning ahvoli shu ekan-da, — dedi xo'rsinib. — Habiba buvi omonatini topshiribdi.

— Voy... Voy bechora! — Oyimning rangi quv o'chgancha shunday ingrab yubordiki, qo'rqib ketgan ukam bir zum olazarak bo'lib turdi-da, chirillab yig'lay boshladi. — Kecha borganimda tuzalib qoluvdi-ku! — Oyimning ko'zidan tirqirab yosh chiqib ketdi. Ukamni siltab ko'rpachaga o'tkazdi-yu, ikki kafti bilan yuzini to'sgancha o'kirib yubordi.

— Nachora, kuni bitganda, — dedi dadam tomog'ini bo'g'gan ko'z yoshidan ovozi hirillab. — Kim bilibdi shunaqa bo'lishini!

Dadam, uning ketidan ukamni ko'targan oyim, uning ketidan men Ermon buvanikiga yugurdik. Birpasda tumonat odam to'planibdi. Zebi xola u yoqdan-bu yoqqa yugurgan. Isroil mo'ylov hovlidagi qorni kuragan, Sepkilli xola bilan Kelinoyi «voy onamlab» yig'lashgan...

Ermon buva kimni ko'rsa javdirab qaraydi. Yaktagining delvagay yoqasidan ko'rinib turgan oppoq tuk bosgan ko'ksiga mushtlagancha ovozi yanayam ingichkalashib, nuqul bitta gapni qaytaradi:

— Bittagina bolasini ko'rolmay ketdi-ya! Oltmishvoyning diydoriga to'yolmay ketdi-ya!

Yo'q. U yig'lamaydi. Faqat ingraydi. Titrab-titrab ingraydi.

Bosh yalang bo'lib olgan. Oppoq sochlari, oppoq soqoli, oppoq ko'ksini muzday qor zarralari qoplagan.

Doim odamlarga buyruq berib o'rganib qolgan brigadir Haydar shamol ham tut tagida cho'kkalab o'tirgancha peshonasiga mushtlab yig'laydi.

— Voy onam-a! Ro'shnolik ko'rmagan onam-a!

Ustiga paranji yopilgan tobutni hovliga opchiqishganida, ayniqsa qiyomat bo'ldi. Oyim dodlagancha tobutga yopishdi.

— Onajon! Yolg'izini ko'rolmay ketgan onajonim!

Erkaklar tobutni ko'tarishganida oyim besh-olti qadam yugurdi-yu, kalishi sirg'anib ketib, chalqanchasiga yiqildi.

— Oyi, oyi! — dedim uning ustiga egilib. Yig'lab yubordim. Onamning ko'zi olayib ketgan, chamasi meni tanimas edi.

— Voy onajon-a! — dedi ingrab. — Kun ko'rib, kuni ro'shnolik ko'rmagan onam-a! O'sha kundan boshlab onam g'alati bo'lib qoldi. Bir nuqtaga tikilib o'tiraveradi, o'tiraveradi. Birov gapirsa eshitmaydi. Faqat ukam yig'laganida hushi joyiga keladi... U Habiba buvining kir yuvdisi, yettisida yelib-yugurib xizmat qildi. Ma'rakaga borganida oyog'i olti, qo'li yetti bo'lib yuradi-yu, uyga kelganda yana g'alati bo'lib qoladi.

Habiba buvining yigirmasiga Ermon buva sigirini sotdi. Dadamning aytishiga qaraganda, Haydar shamol o'rtaga tushib, shu ishni qilmang, desa ham Ermon buva ko'nmapti. «Kampirim bechora dunyoga kelib nima ko'rdi. Hech bo'lmasa o'zi ko'rmaganni arvohi ko'rsin, Oltmishvoyim kelganida amallab boshqa sigir olarmiz», debdi. Sigirni Dalavoy suv tekinga sotib olganmish...

O'shandan keyin onam sal o'nglangandek bo'ldi. Har kuni Ermon buvanikiga qatnaydi, goh yaktagini yuvib, sandal ustida quritib beradi, goh lavlagi sharbatiga holvaytar pishiradi... Nuqul bitta gapni qaytaradi: «Buvangga jabr bo'ldi, bolam, buvangga jabr bo'ldi».

Bir kuni dadam yangi gap topib keldi. Ermon buva kampirining qirqida ham yurtga osh berarmish. Odamlar o'rtaga tushib yo'ldan qaytarmoqchi bo'lgan ekan, ko'nmapti. «Qirq degan xotinlarning ma'rakasi bo'ladi. Kampirimning arvohi shod bo'lsin», debdi.

Xuddi o'sha ma'rakadan uch kunmi-to'rt kun ilgari g'alati voqea bo'ldi. Yakshanba bo'lsa kerak, dadam ham, akalarim ham uyda edi. Bir mahal hovli tomonda gurji kuchugim bir-ikki akilladi-yu,

negadir jimib qoldi. To'satdan eshik ochildi. Ostonada yaktak kiyib olgan Ermon buva paydo bo'ldi. Tashqarida qor yog'ayotgan bo'lsa kerak, uning yalang boshi, yaktagining yelkasi qorga ko'milgan edi. Qiziq, qo'lida hassa yo'q. U ostona hatlab chiqqanidan keyingina oyoq yalang ekanini ko'rdim. Uning katta-katta oyoqlari qip-qizil go'sht bo'lib ketgan, negadir lozimining pochasini qayirib olgan, to'pig'igacha qoplagan tuklariga kir qor yopishib qolgan edi. Dadam bilan akalarim ham, oyim bilan men ham hayratdan qotib qoldik.

— Oltmishvoyim keldi, — dedi Ermon buva iljayib.— Keldi! Kampirim ham keldi. Ikkovlari mozor boshiga ketishdi.

Oyimning yuziga bir zum tabassum qalqidi-yu, keyin dahshat ichida dadamga qaradi.

— Keldi, — dedi Ermon buva tag'in g'alati iljayib.

Keyin o'ng qo'li bilan chap qo'lini dutor qilib cherta boshladi.

— *Tolda chumchuq sayraydi, ko'rsam ko'nglim yayraydi...* —

U to'satdan jimib qoldi. Birdan menga ko'zi tushdi-yu, g'ayritabiiy, ingichka ovozda kulib yubordi. — Ya, sizam shu yerdamisiz, qoravoy! Oltmishvoy akangiz keldi. Keldi... — dedi ovozini pasaytirib. Keyin to'satdan xaxolab kula boshladi. Uning bunaqangi bor ovoz bilan kulganini hech qachon eshitgan emasdim. Go'shti chiqib ketgan oyoqlarini gursillatib yerga urgancha yana qo'shiq aytdi.

— *Tolda chumchuq sayraydi, ko'rsam ko'nglim yayraydi.*

Hammamiz sehrlangandek qotib qolgan edik. Ermon buva xo'p o'ynadi! Yalang oyog'ining boldiriga yopishgan loy aralash qorlar namatga sachrab ketdi. Keyin u charchab, cho'kkalab qoldi. Kavshandoz tomonga qarab yuziga fotiha tortdi.

— Ilohi omi-i-in! Yurtimiz tinch bo'lsin, illo-billo qirg'inbarot bo'lmasin. Ollohu akbar!

Ertasiga uni jinnixonaga olib ketishdi. Haydar shamol bilan dadam birgalashib oborishdi. Dadamning aytishiga qaraganda, Ermon buva jinnixonaning eshigidan kirayotganda ham qibla tomonni qidirib cho'kkalab olganmish, Osmonga qarab iltijo qilganmish.

— Ilohi omi-i-in! Illo-billo qirg'inbarot bo'lmasin, ollohu akbar! — deganmish.

MENING ACHA XOLAM

Oyim odamsiz turolmasdi. Qo'shni kelinchaklar, yetti mahalla narida turadigan kampirlar — hammasi yig'ilishib gangir-gungir suhbatlashib o'tirishardi. Shuncha gap qayoqdan topilishiga ba'zan hayron qolaraan. Har kuni ertalab gazeta olib keladigan pochta — tatar xotin eshikdan qayta qolmaydi. Albatta oyimning oldiga kiradi.

— Isanmisiz? — deb so'rashadi-yu, hasratini to'kib soladi. — Kitti, svolish! Yana uynashig'a kitti, parazit.

Oyim har galgidek uni yupatadi:

— Qo'ying, jon bolam, sabr qiling. Eringiz yomon bolamas.

— Razvodg'a biram! Alimentg'a dabitsa itam!

— Unaqa demang, o'rgilay, bolangizni tirik yetim qilmang.

— Ay, ni bo'lsa bo'lar! Sudg'a biram.

Oyim ishonch bilan tushuntirdi:

— Mana, meni aytdi dersiz. Eringiz sizni jonidan yaxshi ko'radi. Ko'nglim sezib turibdi. Bugun-erta apoq-chapoq bo'lib ketasizlar.

Pochtachi ketishi bilan oqsoqlanib qo'shni kampir kirib keladi.

— Jigar-jigar, digar-digar ekan, o'rgilay, — deydi yig'lam-sirab. — Rahmatullaga aytuvdim-a tog'angning qizini ol, ot tepkisi otga o'tmaydi deb. Yo'q, quloq solmadi. O'laman sattor, mana shu qirchang'ini olaman, deb turib oldi. Mana, oxiri nima bo'ldi... Kecha itni kunini boshimga soldi, aylanay! Xotin olgandan keyin ona kerak bo'lmay qolarkan. Shuni oldi-yu o'g'lim ham aynidi-qoldi, qoqindiq.

— Unaqa demang, ovsinjon. — Oyim osoyishta ohangda yupatadi. — Keliningiz yomon bolamas, qaysi kuni ko'chada ko'rib qoldim. Og'zidan bol tomib sizni maqtadi boyoqish.

— Voy, tilyog'lama bo'lmay tillari kesilsin. Siz uning tilini bilmaysiz, o'rgilay!

— Mana, meni aytdi dersiz, — oyim qandaydir ichki ishonch bilan tushuntiradi. — Keliningiz sizni o'z onam deb etagingizdan tutgan. Ko'nglim sezib turibdi...

Oyimning «sezgir ko'ngli» qiziq. Hamisha yaxshilikni «karomat» qiladi.

Har gal shunaqa gaplarni eshitganimda bolaligimda ro'y bergan voqeani eslayman.

Urush tugagan paytlar edi. O‘shanda go‘dak tasavvurimga sig‘magan narsani keyin tushunganman: urush bitib, odamlarning yarasi yangilangan damlar ekan. Birovning eshigida surnay, birovnikida aza tovushi eshitalardi...

Bir kuni akam eshikdan baqirib kirdi.

— Oyi! Lo‘li kelyapti, lo‘li!

Turgan joyimda tirrakdek qotib qoldim. Lo‘lilar haqida shunaqa gaplar eshitgan edikki, nomi qulog‘imizga chalinishi bilan sichqonning ini ming tanga bo‘lib ketar edi. Lo‘li ko‘chada yurgan bolani qopiga solib ketarmish. Uyda kattalar bo‘lmasa, bolalarni bo‘g‘ib o‘ldirarmish-da, hamma narsani ship-shiydon qilib g‘oyib bolarmish.

Akam bilan ketma-ket xuddi quvlagandek, qop-qora lo‘li xotin kirib keldi. Uzun, isqirt ko‘ylagining ustidan nimcha kiygan, shokilasi osilib yotgan qo‘sh ko‘zli xurjunini yelkasidan oshirib tashlab olgan, sochlarining uchiga so‘lkavoy taqqan, oyog‘ida eski qizil etik... Dahshat ichida oyimning pinjiga tiqildim. Uyda dadam yo‘q-ku, endi nima qilamiz? Hovlining allaqaysi burchagida yotgan mushukdekkina gurji kuchugimiz g‘azab bilan akillagancha lo‘liga qarab yugurdi. Lo‘li xotin bir lahza to‘xtadi-yu, qiyshiq tayog‘ini itga o‘qtaldi. Sarosima ichida oyimga qaradim: tezroq haydab yuborsa-chi!

Oyim lo‘liga diqqat bilan qarab turdi-da, birdan yuzi yorishdi.

— Voy, Acha xola-ku! — dedi eski qadrdonini ko‘rgandek quvonib. — Keling, aylanay.

U lo‘li tomon yura boshlagan edi, qo‘lidan ushlab jonholatda orqaga tortdim.

— Bormang! — dedim yig‘lamsirab.

— Qo‘rqma, jinnivoy, Acha xolang-ku bu! — Oyim ayvondan ildam tushdi. Hovlining o‘rtasiga kelib qolgan lo‘li bilan aylanib-o‘rgilib ko‘rishdi.

Gurji kuchugimiz hamon to‘xtovsiz akillar, lo‘lining atrofida gir aylanar edi.

— Qani, kela qoling, — dedi oyim ayvon tomonga yurib.

— Yo‘q, mango shu yer yaxshi! — Lo‘li xurjunini yerga — bodom soyasiga tashladi-da, ustida o‘tirdi. Issiqlab ketganidan keng ko‘ylagining yoqasini g‘ijimlab yelpingan edi, bo‘ynidagi ikki shoda munchoq marjon ko‘rinib ketdi. Qulog‘idagi tilla oybaldog‘ini ko‘rdimu, negadir «o‘g‘irlab olgan» degan xayolga

bordim. Tag'in qo'rqib ketdim. Hozir boshlaydi. Akalarim qulog'imga quygandek, «poli keldi-poli keldi», deb fol ocha boshlaydi-da, avrab-avrab hammamizni o'ldirib ketadi.

— Oyi-i-i! — dedim chinqirib.

Lo'li menga qayrilib ham qaramadi. Qop-qora qo'llarini keng yoydi.

— Ovmin! Qadam yettu balo yetmasun! Pirlar madadkor bo'lsun. Dushmaning xoru zor bo'lsun, bacham!

Oyim ham yerga cho'kkalagancha unga qo'shib fotiha o'qidi.

Akam xabar bergan bo'lsa kerak, bir zumda hovliga Hoji buvi, uch hovli narida turadigan kelinchak Xayri opa kirib kelishdi.

— Uyingda amol bo-or! — dedi lo'li cho'zib. — Ganiming bo-or!

Vujudimni yana qo'rquv bosdi. Ammo nima uchundir oyim xotirjam edi.

— Amal nima qiladi, xolajon, — dedi sekin. — Akamdan xavotirdaman. Ming yerimga pichoq ursa bir yerimdan qon chiqmaydi. Hamma qaytyapti, akam bechoradan darak yo'q.

Oyim urushga ketgan tog'amni ko'p gapirardi. Dadamni kasalligi tufayli urushga olishmagan, ammo oyim har ikki gapning birida akasini eslab yig'lardi. Hozir ham shuni gapirdi. Tushundim, fol ochirmoqchi.

— Bor, bolam, o'ynab kel, — dedi oyim mening hamon qo'rqib turganimni ko'rib. Biroq men sehrlan gandek o'rnimdan jilolmay qoldim.

Lo'li shoshilmasdan xurjuniga qo'l suqdi. Kirligidan guli bilinmay ketgan tuguncha oldi. Hoji buvi bilan Xayri opa ham oyimning ikki tomoniga jimgina cho'kkalashdi.

— Acha xolaning romi doim to'g'ri chiqadi, — dedi oyim qo'shnilarga maqtanib. — Ko'p sinaganman. Acha xola parvo ham qilmadi. Qop-qora barmoqlari bilan tugunchasini yechgan edi, bir hovuch tosh chiqdi. Qo'shni qizaloqlar sopalak o'ynaydigan mayda toshlarning o'zi. Faqat rangi har xil: oq, qora, ko'kimtir... U toshlarni to'da-to'da qilib qo'ydi-da, ko'zlarini yumib allanimalarni pichirlay boshladi. Uning yumuq kipriklari pirpirab-pirpirab qo'yar, shunda yuzidagi ko'kimtir xoligacha qimirlab ketganga o'xshar edi. Endi qo'rquv o'rnini allaqanday qiziqish egalladi-yu angrayib qoldim. Hammamiz xuddi mo'jiza kutgandek qotib qolgandik. Hozir allanima bo'lishi, nimadir ro'y

berishi kerakdek edi.

— Akang tirek! — dedi lo‘li to‘satdan. Kaftining orqasi bilan bir turtgan edi, to‘dalanib turgan toshlar har yoqqa sochilib ketdi. Oppoq bir tosh dumalab oyimning oyog‘i oldiga keldi.

— Akang keladu! — dedi oyimning ko‘ziga tik qarab. — Yo‘lga chiqq-o-on!

— Og‘zingizdan aylanay, xolajon! — oyim dik etib o‘rnidan turdi-da, uyga yugurdi. Bisotimizda bitta yaltiroq qoshiq bor edi. Oyim uni kumush qoshiq, deb maqtardi. — Mana, oz bo‘lsa, ko‘p o‘rnida ko‘rasiz. Akam eson-omon kelsa bosh-oyoq kiyim qilib beraman. — U qoshiqni Acha xolaga uzatdi. Lo‘li qoshiqni shosha-pisha xurjuniga yashirishini kutib turardim. Ammo u shoshilmadi. Qoshiqni bir chekkaga qo‘yib, Hoji buviga yuzlandi.

— Bolaginamni ko‘rarmikinman? — dedi Hoji buvi ovozi titrab. — Yolg‘izginamni ko‘rib o‘lsam, armonim yo‘q edi.

Bu safar lo‘li nimchasining cho‘ntagini uzoq kavlashtirdi. Keyin yong‘oqdek keladigan olti qirrali tosh oldi.

— Muhra bilan ocharkanlar, — dedi oyim pichirlab.

Lo‘li hech nimani eshitmagandek, toshning u yog‘ini aylantirdi, bu yog‘ini aylantirdi. Uning qop-qora qo‘li bilinar-bilinmas titrar, allaqanday chiziqlar tortilgan toshga tikilib to‘xtovsiz pichirlar edi.

— Bachangni yo‘li to‘sulgon! — dedi u nihoyat.

Hoji buvining ko‘zlarida, hamisha ma‘yus boquvchi ko‘zlarida cho‘g‘ yaraqlab ketgandek bo‘ldi.

— O‘zi tirikmi axir? — u ingragudek ohangda lo‘li tomon talpindi. — Uch yildan buyon na o‘ligini bilaman, na tirigini. Joni omonmi ishqilib?

— Amon! Bachang amon. Kutasan. Ancho kutasan.

Boyadan beri nafasini ichiga yutib o‘tirgan Xayri opa endi chidab turolmadi shekilli, hayqirib yubordi:

— Asqar akam-chi? Asqar akam qachon keladi? Jon xola, bir ko‘ring! Asqar akamga nima bo‘lgan? Gospitaldan bir xat keldi-yu, daraksiz ketdi.

Jon xola, bir ko‘ring... Lo‘li unga sinovchan qarab qo‘ydi-da, tag‘in shoshilmasdan hurjunini kavlashtirib, kaftdek ko‘zgu oldi.

— Ushla bune! — dedi oynani Xayri opaning qo‘liga tutqazib. — Qarab o‘ter!

Xayri opa oynaga tikilib cho‘kkalagancha qotib qoldi. Lo‘li

boshqa bir oynacha oldi.

— Yoshini ayt! — dedi qat'iy ohangda.

— Asqar akammi? — Xayri opa to'satdan uyg'onib ketgandek cho'chib lo'liga qaradi. — Yigirma ikkida.

Agar... agar... — U nimadir demoqchi bo'ldi-yu, tutilib qoldi. — Yigirma ikkida, — dedi shoshilib. — Hozir yigirma ikkiga kirgan. — U bir zum jimib qoldi-da, ohista qo'shib qo'ydi. — Chillamiz chiqmasidan ketgan.

Lo'li o'zining qo'lidagi ko'zguga tikilib pichirlagan-cha boshini bir maromda tebrata boshladi. Xayri opa ko'zguga qarab qotib qolgan, go'yo qimir etsa fojia ro'y beradigandek edi. Nihoyat, Acha xola o'zi tutib turgan ko'zguni etagiga artib xurjuniga tiqdi.

— Nima? — dedi Xayri opa pichirlab. — Nima?

Asqar akam...

— Kuyoving amon... — Acha xola uning yuziga qaramasdan qo'lidan ko'zguni oldi. — Ko'zimga ko'rinda. Kuyoving kasal bo'lgon.

— Qachon, qachon ko'raman? — Xayri opa Acha xolaning qo'liga yopishdi. — Aytning, nima ko'rdingiz? Qachon ko'raman?

Acha xola o'ylanib qoldi:

— Yo'l ko'rдем, yo'l! Kuyoving keladu. Oy to'lganda, uxlamay osmonga qaro. Ko'rason!

— Nafasingizdan aylanay, xolajon! — dedi Xayri opa iltijo qilib. — Tilingizdan aylanay. Kuyovingiz kelsa, mana shu bilaguzugim sizniki. — U gapining rostligiga ishontirmoqchi bo'lgandek tilla bilaguzugini qo'lidan yechib ko'rsatdi. — Asqar akam menga boshqasini olib beradilar. o'sha kuni uyimizda bayram bo'ldi. To'rt xotin o'tirishib olma choy ichishdi. Oyim ertalab yopgan zog'ora nonini, Xayri opa tolqonini, Hoji buvi bir hovuch tut mayizini o'rta qo'ydi.

O'sha kuni yana bir sirni bilib oldim. Bir haftadan keyin oy to'ladi. Uch qo'shni oyga tikilib xolaning romini amalda sinab ko'rishadi.

Kutilgan kechada Hoji buvi bilan Xayri opa bizniki-ga chiqishdi. Dadam ishda edi. Anchagacha u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirishdi. Keyin bolalarga supaga joy solib berishdi. Akalarim uxlab qolishdi. Men esa nima bo'lishini kutib poylab yotar edim.

Nihoyat, uch ayol bodom tagidan yaydoq joyga borib, tizilishib

o'tirishdi. Chigirtkalar chirillar, oso-yishta osmonda to'lin oy sutdek mayin, sutdek iliq nur sochar edi. Oyim, Hoji buvi, Xayri opa oyga tikilganча qotib qolishgan, hech qaysisi churq etmas, chamasi har biri o'zi izlagan odamni oydan topgisi kelar, oydan topishiga umid qilar, ishonar edi. Oradan ancha vaqt o'tdi. Hamon chigirtkalar chirillar, allaqayerda kaltakesak chirqillab qolar, hovli burchagida ora-chora echki ma'rab qo'yar, faqat oy, sehrlı oy jimgina nur sochar, uch ayol esa unsiz qotib qolishgan, o'zi ham, soyasi ham qilt etmas, uchovi ham shu o'tirishda oyga tikilganча haykalga aylanib qolganek edi. Yotib-yotib zerikdim. Boshimni ko'taray desam oyimdan qo'rqaman. Endi ko'zim ilinayotgan ekan hayajonli hayqiriqdan cho'chib ketdim.

— Ana! Ana! Ko'rdim!

Boshimni ko'tardimu ikki qo'lini oy tomonga cho'zgancha iltijo qilayotgan Xayri opaga ko'zim tush-di.

— Ana! Asqar akam! Asqar akam! — Xayri opa nafasi qaytgandek sapchib o'rnidan turdi.

— Ana qaranglar, boshini bog'lab olibdi. Doka bilan boshini bog'lab olibdi!

Boshini bog'lab olgan Asqar akani ko'rish umidida jonholatda oyga qaradim. Yo'q, oymomo hamon muallaq qotib turar, nimqora dog'lardan boshqa narsa ko'rinmas edi.

— Voy, qani, qani? — oyim bilan Hoji buvi ham turib ketishdi.
— Qani, biz ko'rmayapmiz-ku?

— Voy, ana-ku! Kulib turibdilar. — Xayri opa holdan toygandek ko'ksini changalladi. — Xudoga shukur, tirik ekansiz. — U birdan hiqillab yig'lab yubordi. — Voy ko'rdim-a, aniq-taniq ko'rdim-a...

— Aytmadimmi? — dedi oyim quvonib. — Acha xolaning foli to'g'ri chiqadi demaganmidim. Nasib etsa, Asqarjon kelsa, shunaqa to'ylar qilingki.

Xayri opaning o'sma tortilgan qoshlari, rangsiz chehrasi chiroyli, juda chiroyli ekanini birinchi marta payqadim. U nuqul kular, yig'lab turib kular, hadeb bir gapni qaytarar edi.

— Voy ko'rdim-a! Aniq-taniq ko'rdim-a.

...Uch ayol yangitdan choy qo'yishdi. Acha xolani maqtab-maqtab gangur-gungur suhbatlashishdi.

Chindan ham Acha xolaning foli to'g'ri chiqdi. Bittasi to'g'ri chiqdi. Qor tushgan kuni tog'am keldi. Qo'ltiqtayog'ini do'qilla-

tib kirib keldi...

Hoji buvi Acha xola aytganidek o'g'lini kutdi. Yigirma yilcha kutdi. Ancha oydin kechalar o'tdi. Keyin... uni mahalla ko'mdi. Oydin kechada Xayri opa aniq-tiniq ko'rgan Asqar aka ham kelmadi... Lekin nima uchundir Acha xolani hech kim ayblamadi. Tog'am eson-omon kelganida oyim bosh-oyoq sarpo qilolmagani uchun Acha xola ham og'rinmadi. U onda-sonda xurjunini ko'tarib kelib qolar, oyim aylanib-o'rgilib kutib olar edi. Negaki, oyimning o'zi odamsiz turolmas, har doim xonasi gavjum bo'lar edi. Eshikdan kim kirib kelmasin, uning ko'ngli doim yaxshilikni sezib turgan bo'lardi.

Bir galgisi, ayniqsa oshib tushdi. O'zim bilan bir sinfda o'qigan bola prorab bo'lib mahallaning boyvachchasiga aylandiqoldi. Shayton yoldan ozdirdimi, boshqami, ishqilib, bosar-tusarini bilolmay qoldi. Qo'sha-qo'sha imoratlar soldi. Oxiri lop etib qamalib ketdi. Bir kuni ishga ketayotsam, shu yigitning onasi oyimning oldida o'tirib hasrat qilyapti.

— To'xtavoyim tuhamtga uchradi, o'rgilay. Bolaginamning xusumatga yo'liqqaniga qandoq chidayman! O'zimning qon bosimim bor. Erta-indin o'lib ketsam, tepkilab ko'madiganimdan ayrilib qoldim, aylanay.

— Voy unaqa demang, ovsinjon. — Oyim uni ohista yupatdi. — Yaxshi gapgayam, yomon gapgayam farishta omin deydi. Nasib etsa hali hech nima ko'rmagandek bo'lib ketasiz. — U ovozi birdan pasaytirdi. — Ko'nglim sezib turibdi. To'xtavoy erta-indin kelib qoladi. To'xtavoyingiz qandoq yaxshi bolaki! Mana, meni aytdi dersiz. Erta-indin eshikdan kirib keladi.

— Voy, og'zingizdan o'rgilay, ovsinjon! Koshkiydi-ya! — To'xtavoyning onasi yig'lamsirab fotiha tortdi. — Iloyo aytganingiz kelsin!

Oyimning hamma «karomat»lariga chidasam ham, bunisiga chidolmadim. Kechqurun ishdan kelganimda shundan gap ochilgan edi, koyib berdim.

— Sizga ham Acha xoladan yuqqan shekilli, — dedim yarim hazil, yarim kinoya qilib. — Nima, fol ochyapsizmi? Ko'pchilikning haqiga xiyonat qilgan qallobni maqtab o'tiribsiz.

Oyim ko'zimga diqqat bilan tikilib qoldi.

— Qahring shunaqa qattiqmi? — dedi anchadan keyin.

— Qahrning nima daxli bor? — dedim qaysarlik bilan. —

Qilg'ilikni qilgandan keyin jazosini olsinda. Qadamini o'ylab bosadigan bo'ladi.

— Albatta, senlar o'qimishlisan, hamma narsani bilasan... — Oyim bir zum jimib qoldi-da, o'ziga-o'zi gapirayotgandek sekin qo'shib qo'ydi. — Onasida nima gunoh? Qon bosimi bo'lsa, ertaga puf etib dumalab ketsa, shunga suyunasanmi? Ona-ku bu... Shunaqa qahring qattiqmi?

Oraga noqulay sukunat cho'kdi. Negadir Acha xolani, o'sha oydin kechani, o'sha olma choyni esladim...

IMON

«Domimiz»ning birinchi qavatida Klava xola degan kampir turadi. Hech kim uni otasining ismini qo'shib «Klavdiya Falonchiyevna» deb atamaydi. Klava xola — hamma uchun Klava xola. Bechora hayotda omadi yurishmagan xotin. Zavodda o'ttiz yil ishlagan. Yoshligida beva qolgan. Yolg'iz o'g'lini deb umrini o'tkazgan. Aytishlariga qaraganda, o'g'lini rejim bilan ovqatlantirib, rejim bilan uxlatib o'stirgan ekan. Bitta farzanddan ham buyurmadi. O'g'li uylanishi bilan xotininikiga ko'chib ketdi. Shundan keyin Klava xola asabiyroq bo'b qoldi. Eshik tagida o'tirib, uzzukun hammaga dashnom bergani-bergan.

— Hoy piyonista, ertalabdan zaharingga barmatuxa ichgandan ko'ra bolangga ikki paket sut obersang bo'lmaydimi?

— Hoy olifta, mashinangni pod'yezd tagiga qo'yma, bu yer senga garajmas!

Ba'zan kichkina qizalog'im eshikdan hasrat qilib kirib keladi.

— Klava xola meni durochka dedi.

— Nima qiluvding?

— Samokatni tez uchirganmishman.

— Ha, endi, o'zing ham tez uchmagin-da...

Klava xolaning ovozi bir kun chiqmay qolgan edi, darrov bilindi. Surishtirsam, kasalxonaga tushibdi. Buyragi xasta ekan. Bechoraning hammaga dashnom berib o'tirishiyam bir davlat ekan. Butun «dom» zerikib qoldi. Ikki haftacha o'tgandan keyin Klava xola bilan yonma-yon turadigan qo'shnimiz eshik taqillatib keldi.

— Yuz so'm qarz berib turing, — dedi iltimos qilib. — Klava xolaga uch yuz so'm kerak bo'lib qopti. Ikki yuzini qo'shnilardan

yigʻdik.

— Nimaga kerak boʻpti?

— Anigʻini bilmayman, — qoʻshnim yelkasini qisdi. — Ammo judayam zarurmish.

Berdim. Oradan bir oycha oʻtgach, Klava xola qaytib keldi. Uy tagidagi harrakda shumshayib oʻtiribdi. Rangi bir holatda. Odamlarga dashnom beradigan holiyam yoʻq.

— Voy-boʻ, yosharib ketibsiz-ku! — dedim koʻnglini koʻtarish uchun.

Klava xola inqillab oʻrnidan turdi.

— Rahmat, oʻgʻlim, — dedi negadir taʻzim qilib. — Katta yordam berding. Pulingni qaytaraman. Pensiyamdan beraman. Yigʻib-yigʻib.

Shundoq shaddod kampirning taʻzim qilib turishi gʻalati taʻsir qilib ketdi.

— Qiziqmisiz, men sizga pulni gapirayotganim yoʻq-ku. Tuzukmisiz, oʻzi?

— Operatsiyadan yaxshi chiqdim, — Klava xola maʼyus jilmaydi. — Pul bermasam boʻlmadi.

Hayron boʻldim.

— Kimga?

— Kim boʻlardi, vrachga!

Beixtiyor yoniga oʻtirib qoldim.

— Kimga deysiz?

— Vrachga! — Klava xola mening soddaligimdan afsuslangandek ohista bosh chayqadi. — Uch yuz soʻm bermasam boʻlmasdi. Operatsiya qilmasdi. Qilsayam, yarim yildan keyin oʻladigan qilib kesardi.

Rostini aytsam, tovonimdagi jonim hiqildogʻimga keldi.

— Nima, xirurg sizdan pul talab qildimi? Kim oʻsha vrach? Familiyasi nima?

— E, bolam, qoʻysang-chi! — Klava xola qoʻl siltadi. — Familiyasini aytganim bilan nima oʻzgarardi?

Garangsib qoldim.

— Nima, vrach sizdan rostdan ham pul soʻradimi?

— Oy sinok, sinok! — Klava xola ogʻir bosh chayqadi. — Soʻragani yoʻq, soʻragani yoʻq. Faqat seshanba kuni operatsiya qilamiz, deydi-da, jumaga qoldiradi, juma kuni operatsiya qilamiz deydi-da, seshanbaga qoldiradi. Odammisan demaydi. Oxiri

palatadagi kasallar o'rgatishdi. 300 so'm bersangiz, darrov stolga oladi, deyishdi. Pul berishim bilan muomalasiyam o'zgardi, o'ziyam boshqacha bo'p qoldi. — Klava xola mahzun kulib qo'ydi. — Nimayam derdim. Vrach ham odam. Undayam nafs bor. Bir og'iz rahmat degan so'zingga muhtojmi. Bolnitsaga yotishga order olaman, desang, qo'lingga qarab turadi-ku. Bu-ku butun boshli operatsiya.

Dunyoda har xil ablahlik bor. Lekin bemorni davolash uchun pora olish...

Oradan ikki haftami, uch haftami o'tgach, jiyanimning to'yi bo'ldi. Nevropatolog bo'lib ishlaydigan uzoq qarindoshim bilan yonma-yon o'tirib qoldik. Klava xola esimga tushdi. Qarindoshimga bor gapni aytib berdim. Men uning tutaqib ketishini kutib turardim. Qiziq, qarindoshim tutaqmadi. Xotirjam yelka qisib qo'ya qoldi.

— Avvalboshi sen aytgandaqa vrachlar ko'pmas. Sholi kurmaksiz bo'lmaydi. Qolaversa, doktorlarga ham qiyin. O'n olti yil eshakdek o'qib, 140 so'm oladi. Na kechasi tinchlik bor, na kunduzi. O'sha 140 so'm savil qolgurni savdo xodimi bir kunda topadi. — Qarindoshim kulimsiradi. — Yashash ham kerak-ku, akasi bo'yidan. Undan keyin... Qo'lidan tutmaguncha nima deysan? Pora berdim, deb qaysi mard aytadi. Aytsa o'zi qiya bo'p ketadi-ku.

Butunlay esankirab qoldim. Nahotki, oliy ma'lumotli vrach o'zini chayqovchi bilan tenglashtirsa! Axir davlat uni o'n olti yil bekorga o'qitdimi, bekorga stipendiya berdimi? Unaqa bo'lsa, ana, xalatini yechib tashlasin-da, chayqovchilik qilsin!

Yo'q, men bu gaplarni aytganim yo'q. Biroq, qarindoshim qizarib-bo'zarib ketganimdan hammasini tushundi.

— Masalan, men unaqa do'xtirmasman, — dedi yelkamga qoqib. — Arzimagan narsalarga bunaqa tajanglik qilaversang, nevrosteniya bo'lib qolasan. — U ko'zimga sinchiklab qaradi. — Mabodo yuraging sanchimaydimi? Yaxshisi ertaga oldimga bor. Bir tekshirib ko'ramiz.

Qarindoshim yana bir marta muloyim jilmayib qo'ydi. Qadahdagi konyakni ichib, limon bilan gazak qildi. Shunda beixtiyor tag'in bolalik xotiralari yopirilib keldi. Achinska degan do'xtir lop etib yodimga tushdi.

Doim oppoq xalat kiyib yuradigan, oppoq siyrak sochlari nuroniy yuziga qandaydir fayz bag'ishlab turadigan bu odamning

asl familiyasi Achinskiy ekanini keyin bilganman. Uni birinchi marta ko'rganda rosa qo'rqanman. Kichkina edim, hali maktabga qatnamasdim. Kuzda yelkamga yara chiqdi. Oyim qizil piyozni qo'rga ko'mib bosdi. Ne azob bilan yara yorildi-yu, yonidan yana ikkitasi chiqdi. Endi piyoz ham, xamirturush ham yordam bermay qo'ydi. Butun badanimni yara bosib ketdi. Tag'in har bittasi tuxumdek keladi. Oxiri dadam oyimga «Achinskaga opchiqmasang bo'lmaydi», dedi. Ertasiga oyim meni yetaklab do'xtirxonaga obordi. Akalarim: «Achinska mana bundoq nina bilan ukol qiladi», deb qo'rqitib qo'ygani uchunmi, katalakdek xonaga kirdimu dori hidini sezib hiqillab yig'lab yubordim. Xonadagi kursilarda biri yo'talgan, biri shilpiq ko'zini hadeb kir qiyiqchanning uchiga artayotgan kasallar tizilib o'tirishardi. Har kim meni o'zicha yupatar, men bo'lsam battar yig'lardim. Shu payt eshigiga parda tutilgan ichkari xonadan sochi oppoq, yupqa ko'zoynak taqqan xalatli kishi chiqib keldi.

— Kim yiglaydi? — dedi u o'zbekchani buzibroq talaffuz qilib.

Achinska degani shu ekanini bildimu battar qo'rqib ketdim. Oyimning pinjiga tiqildim. Shilpiq ko'zli kishi o'rnidan turgan edi, do'xtir qo'li bilan imo qilib to'xtatdi.

— Ochered balaga, — dedi-da, negadir jilmaydi. Shunda ko'zoynak ortidagi ko'm-ko'k ko'zlarida qandaydir erkalovchi tabassum paydo bo'ldi. — Ay-yay-yay! — dedi bosh chayqab. — Ugil bala yiglamaydi. — U yana jilmaydi. — Ox kakoy yakshi bala!

Achinska qo'limdan tutgan edi, beixtiyor ergashdim. Derzasiga oppoq parda tutilgan xonaga kirdik. Oyim ko'ylagimni yechdi. Do'xtir hozir ukol qiladi deb, kapalagim uchib ketdi. Biroq, u ukol qil-madi. Barmog'i bilan yaralarni avaylab, paypaslab ko'rdi. Keyin allaqanday jigarrang sassiq dori surdi. Agar shundayam tuzalmasa qon quyamiz, deb oyimga tushuntirdi. Chiqib ketayotganimizda yana bir jilmayib qo'ydi.

— Yakshi bala. Malades bala!

...Qishda shu odam bizga yana bir yaxshilik qildi. Esimda, o'sha yili qish juda qattiq keldi. Bilmadim, ehtimol, o'tin-ko'mirimiz bo'lmagani uchun shunday tuyulgandir. Harqalay deraza u yoqda tursin, eshigu devorlarni ham qirov bosib yotar, hammamiz chopon, telpak kiyib uxlardik. Tanchaga oyoq tiqqan

bilan befoyda: sandal pisillaydi. Ko'rpaga tekkan joyini chayondek chaqadi. Ichidan issiq o'rniga sovuq chiqayotgandek. Ustiga-ustak bir kuni kichik akam ko'chadan hammayog'i shalabbo bo'lib keldi. Bolalar bilan Qonqusda yaxmalak uchayotgan ekan, sirg'anib muzning yorig'idan anhora tushib ketibdi. O'rtoqlari amallab tortib olishibdi-yu, yugurib uyga yetib kelguncha kiyimlari tarashadek muzlab qopti. Oyim darrov uni ko'rpaga o'radi. Tog'olcha bilan turshak qaynatib ichirdi. Ammo kechqurunga borib, akamning isitmasi ko'tarilib ketdi. Hadeb yo'taladi.

Kechasi uning alahlashidan men ham uyg'onib ketdim. U nuqul o'zini u yoqdan-bu yoqqa tashlar, «olov yonib ketdi, olovni o'chiring», deb tipirchilar edi.

Ertasiga ertalab dadam arrani egovladi. Katta akamni ergash-tirib, tashqariga chiqib ketdi. Men ham tagi ko'chgan etigimni kiyib ularning ketidan yugurdim. Kun sovuq, osmondan zahardek achchiq zarralar yog'ilar edi. Dadam bilan akam qalin qorni g'arch-g'urch bosib, tomorqaga chiqishdi. Shundoq devor yonida o'sgan, yarmi qurigan qayrag'och tagiga borishdi. Qor ustiga qop yozib, cho'kkalab o'tirgancha, qayrag'ochga arra solishdi. Daraxt shoxidagi qorlar duv etib to'kildi. Biroq, qayrag'ochning po'sti muzlab qolgan — arra hadeb sirg'anib ketadi. Hech iz tushmaydi. Unga sayin dadamning jahli chiqadi. Arra bir oz botganidan keyin ish yana qiyinlashdi. Akam har arra tortganida, butun gavdasi bilan nari borib, beri keladi. Arra hadeb kamalakdek qiyshayadi. «Jing-jing» deb ovoz chiqaradi. Dadam yakkash dashnom beradi:

— Arrani siltab tortma. Jon bormi, o'zi!

Akam sho'rlik birpasda terlab ketdi. O'zi terlab ketganu qo'li sovqotadi. Dam-badam kuh-kuhlab, kaftini isitadi. Burnini tortadi... Nihoyat, qayrag'och gursillab yiqildi. Tarvaqaylab o'sgan shoxlar yerga urilishi bilan atrofga qor sachrab ketdi. Ana endi mengayam ish topildi. Mayda shoxlarni tesha bilan chopa boshladim. Ish ayni qiziganda, kutilmagan voqea ro'y berdi. Biri oq, ikkinchisi qizg'ish jiyron ot burnidan bug' chiqarib, tepamizda gijinglab turar, boshini siltab-siltab, suvlig'ini shiqirlatardi. Notanish odamlar kelganini payqamay qolgan gurji kuchugim allaqayerdan paydo bo'ldi-yu, aybini oqlash uchun bo'lsa kerak, qor ichida bir ko'rinib, bir ko'rinmay pildiragancha otlar atrofni aylanib akillay boshladi. Otlar itga ko'zini olaytirib qarab qo'yar, pishqirib, pashsha qo'rigandek dumini silkitardi.

Jiyron mingan charm paltoli Dalavoyni darrov tanidim. Uni hamma tanir, hamma qo‘rqardi. U hali nalugchi bo‘lmagan, lekin odamlar uni «nozik» joyda ishlaydi deyishardi. Oq otli kishi esa pochapochapostin kiygan, tulki telpagini bostirib olgan, qovog‘i soliq edi.

— Ishlar katta-ku! — dedi Dalavoy otdan tushmasdan.

Negadir dadamning rangi o‘chib ketdi. Arra qo‘lidan tushib qorga ko‘milib qoldi.

— Kelinglar, mehmonlar, — dedi esankirab.

Avval Dalavoy bilan, keyin pochapochapostinli kishi bilan qo‘shqo‘llab ko‘rishdi. Ikkovlari ham egarda o‘tirganicha, istar-istamas qo‘l cho‘zishdi.

— Qani uyga, — dedi dadam qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib. — Bir piyola choyimiz bor.

Dalavoy ingichka sarg‘ish mo‘ylovini chimchilab dadamga bir qarab qo‘ydi-yu, mehmonga yuzlandi.

— Nima qildik, o‘rtoq Toshev? Borib turgan jinoyat-ku bu!

Dadam butunlay dovdirab qoldi.

— Nima gunoh qildim, ukam, — dedi Dalavoyga. — Aybim bo‘lsa ayting, benavotman.

— Tag‘in o‘zini go‘llikka soladi-ya! — Dalavoy tishi orasidan chirt etib tupurdi. — Ruxsatingiz bormi? — dedi ovozi temirdek jaranglab.

— Nimaga? — Dadam madad kutgandek endi mehmonga yuzlandi. — Nimaga ruxsat olishim kerak, o‘rtoq Toship?

— Daraxt kesishga! — Dalavoy shiddat bilan otdan sakrab tushdi. — Qani qog‘ozingiz?

— Qanaqa qog‘oz? — Dadam goh Dalavoyga, goh pochapochapostinli mehmonga javdirab qaray boshladi. — Axir... Axir bu o‘zimning tomorqamdagi daraxt-ku. Mana qarang, qurib qolgan. — U gapining rostligini isbotlash uchun bilakdek shoxni maxsikalishli oyog‘i bilan bir tepgan edi, qars etib sindi. — Ko‘rdingizmi, qurib qolgan. Kuzda kesib olmoqchi edimu, vaqt bo‘lmadi. — U boyadan beri burnini tortib turgan akamga dashnom berdi. — Nega anqayib turibsan? Bor oyingga ayt, choy qo‘ysin, mehmonlar keldi, degin.

Akam ikkalamiz tizzagacha qorga botib, oldinma-ketin uyga yugurdik. Gurji kuchugim ham qorda ko‘milganicha ketimizdan chopdi. Oyim hamon isitmalab yotgan kichik akamning boshida

mungʻayib oʻtirgan ekan.

— Oyi, Dalavoy keldi! — dedi akam hovliqib.

Oyim sakrab oʻrnidan turib ketdi.

— Voy shoʻrim! Ertalabdan buyon oʻng qovogʻim uchayotgan edi-ya. Bu koʻrgulik ham bor ekan.

U birpasda hujradan turshak, jiyda, ikkita zogʻora olib chiqdi. Sandal ustiga yamoq dasturxon yozdi.

Zum oʻtmay uyga rangi oʻchgan dadam, ketidan Dalavoy bilan pocha-poʻstinli mehmon kirib kelishdi. Oyim Dalavoyga peshvoz chiqdi.

— Keling, opovsi, yaxshi yuribsizmi, kelinim yaxshimilar? — dedi ovozi titrab. — Kiraveringlar. Yoʻq, yoʻq, piymangizni yechmang, uy sovuq.

Dalavoy piymasining qorini qoqqan boʻldi-da, kigiz ustidan yurib, sandal chetiga bordi.

— Hozir choy qaynaydi, oʻrgilay! — Onam tashqariga chiqib ketayotgan edi, Dalavoy toʻxtatdi.

— Ovora boʻlmang, biz ketamiz, — u akamga yuzlandi. — Siyoh-ruchkang bormi?

Akam tokchadan siyohdon, «qurbaqa» peroli ruchka oldi.

— Nima qilyapsiz, aylanay? — oyimning rangi dokadek oqarib ketdi.

— Oʻynayapman! — Dalavoy piymasining qori bilan sandal chetidagi koʻrpachaga choʻkkaladi. — Koʻrib turibsiz-ku, nima qilmoqchiligimni! — U ostonada turgancha, papiros chekib, uy ichini jirkanibroq tomosha qilayotgan pocha-poʻstinli mehmonga qaradi. — Oʻzim yozaveraymi?

Mehmon «maʼqul» degandek bosh irgʻab qoʻydi.

Dalavoy charm paltosining ich choʻntagidan qogʻoz oldi. Ruchkani siyohdonga botirgan edi, qirs etgan ovoz chiqdi. U jahl bilan yana botirdi. Peroga siyoh oʻrniga muz ilashib chiqdi.

— Qanaqa oʻquvchisan, oʻzi? — Dalavoy sargʻish qoshini chimirib, akamga qaradi. — Siyohing muzlab qopti-ku.

Toʻsatdan oyim yigʻlab yubordi.

— Nima qilaylik, oʻrgilay, — dedi iltijo bilan. — Sovuqni koʻrmaysizmi? Manavinisi uch kundan buyon ol ket, ol qoʻy boʻlib yotibdi. — U sandal chetida yotgan kichik akamga imo qildi. — Bolaginamdan ayrilib qolaman shekilli.

Dalavoy ruchkani yana muzlagan siyohdonga botirgan edi,

onam uning qo'liga yopishdi.

— Yozmang, jon ukam, yozmang, rahmingiz kelsin.

Dalavoy ijirg'anib, qo'lini siltab tortdi. Kulrang ko'zlari qisilib ketdi.

— Torting qo'lingizni! — dedi shiddat bilan.

— Ho'v! — dadamning tahdidli ovozini eshitib, burilib qaradimu qo'rqib ketdim. Uning yuzida boyagi yalinchoq ifodadan asar ham qolmagan, ko'zi g'azabdan chaqnar edi.

— Ho'v, olifta! — dedi yana o'sha tahdidli ohangda. — Tur o'rningdan! Xudo bo'lsangam piymangni yech. — U bir hatlashda Dalavoyning tepasiga keldi. — Yech deyapman. Tiq oyog'ingni tanchaga! Tiqib ko'r, o'tirib ko'r birpas!

Dalavoy beixtiyor o'rnidan turib ketdi. Esankirab qolgan mehmonga bidir-bidir qilib gapira boshladi:

— Eshitdingiz, o'rtoq Toshev? Guvoh bo'lasiz! Xizmat burchimni bajarayotganimda haqorat qildi. Aktga shuniyam qo'shamiz.

— Daraxtni katta xolang ekib qo'yanmas! — Dadamning mo'ylovi titray boshladi. U qattiq g'azablansa, mo'ylovi titrab ketardi. — Qani, tuyog'ingni shiqillat! — dedi tahdid bilan.

— Nima, urmoqchimisan! — Dalavoy kulrang ko'zlarini yiltiratib, g'azabnok pichirladi. — Qani chertib ko'rchi. Yetti pushtingni quritib yuboraman!

— Yo'qol deyapman! — Endi dadamning butun vujudi titrab ketdi.

— Eshitdingiz-a, o'rtoq Toshev? Bu gapniyam eshitdingiz-a? — Dalavoy eshik tomon tisarilib borarkan, mehmonga qarab, gapini tasdiqlatib oldi. — Yozamiz, hammasini yozamiz!

Onam iltijo bilan Dalavoyning yelkasiga osildi.

— Jon ukam, kechiring, jon ukam! Iloyo martabangiz bundan ham ulug' bo'lsin!

Dalavoy bir siltab uning kaftini yelkasidan olib tashladi. Onam endi pocha-po'stinli kishiga yolbora boshladi.

— Jon xo'jayin, ko'nglingizga olmang, adasi bilmasdan gapirib yubordilar.

— Yalinma deyapman! — dadam shunday hayqirdiki, muz bosgan derazalar zirillab ketdi. Boyadan beri ko'zini ocholmay yotgan kichkina akam olazarak bo'lib, atrofga javdiray boshladi.

— Oyi, suv, — dedi ovozi xirillab.

Tashqarida tuyoqlarning bo'g'iq dukiri eshitildi. Uy ichi o'lik chiqqandek jimjit bo'lib qoldi. Dadam hamon mo'ylovi uchgancha pishqirib nafas olib, uy o'rtasida turar, oyim ostonaga o'tirib qolgan, katta akam deraza oldida turgancha tashqarini tomosha qilardi. Beshik g'ichirlab, ukam g'ingshiy boshladi. Biroq onam o'rnidan turmadi.

— Yomon ish bo'ldi, — dedi sekin. — Endi sudga beradi.

Dadam uy o'rtasida anchagacha qotib turdi-da, indamay chiqib ketdi. Bir ozdan keyin tomorqa tomondan boltaning qarsillagan ovozi keldi.

Qayrag'ochning cho'g'i ham o'riknikiga o'xshagan baland bo'larkan. Sandal isishi bilan jon kirib, yuzimiz qizarib qoldi. Faqat dadamning qovog'i ochilmadi. Onam akamning boshidan jilmas, nuqul xo'rsinar, «o'zing asra», deb qo'yardi. Kechki ovqatni opam qildi. Qorong'i tushgandan keyin akamning ahvoli og'irlashdi. U endi alahlamas, havo yetishmayotgandek qisqa-qisqa nafas olar, dam-badam cho'chib tushar edi. Onam unsiz yum-yum yig'lar, dadamga iltijoli termilardi. Oxiri bo'lmadi. Dadam eski chophonini kiydi, boshiga telpagini bostirdi. Oyim qayoqqa degandek qaragan edi, qisqagina qilib:

— Achinskaga! — dedi.

— Kelmaydi. — Onam zorlanib bosh chayqadi. — Yarim kechada qor kechib kelarmidi?

Dadam eshikni qarsillatib yopgancha chiqib ketdi. Uy ichiga yurakni sirqiratuvchi sukunat cho'kdi. Hujradagi soat chiqillaydi, akamning qisqa-qisqa nafas olishi eshitaladi. Derazaga quruq qor uchqunlari zirillab uriladi. Allaqaysi teshikdan huvillab sovuq kiradi. Issiq sandal elitdi shekilli, uxlab qopman. Bir mahal tashqarida itning akillashi, dadamning «yot» deb baqirishidan uyg'onib ketdim. Kimdir yo'lakda gursillatib yer tepindi. Og'zidan bug' chiqib turgan dadam kirib keldi. Ketidan uzun shinel kiygan, qulog'ini sharf bilan o'rab olgan Achinska kirdi. Oq xalati bo'lmasa ham, ko'zoynagidan tanidim. Dadamning mo'ylovi, doktorning qoshi qordan oppoq bo'lib ketgan edi.

Oyim darrov o'rnidan turdi. Salom berdi. Achinska shinelini yechib, yelkasiga qo'ngan qorni kavshandozga qoqdi. Qulog'ini o'rab olgan sharfni yechgan edi, oppoq siyrak sochlari peshonasiga yoyilib tushdi.

— Nastoyashiy Sibir! — dedi negadir jilmayib. Sandal chetiga

cho'kkalab qo'lini tanchaga tiqdi. Dadamning qo'lida kichkina chamadon borligini endi ko'rdim. Achinska qo'lini bir oz isitgach, muzlab qolgan ko'zoynagini ro'molchasi bilan artdi.

— Issik suv bar? — deb so'radi onamga qarab.

Onam samovarni yangilash uchun darrov oshxo- naga yugurdi. Doktor akamning ko'ylagini yechib, «alyo-alyo» qilib ko'rdi. Sekin bosh chayqab qo'ydi. Qiyofasi jiddiy edi. Keyin chamadondan yaltiroq quticha oldi.

Ukol qilish uchun dori to'ldirayotganda akam hozir dod soladi, deb turgan edim, biroq u akamning ishtonini tushirib, ukol qilganida akam dodlamadi. G'ingshib qo'ydi xolos. Chamasi og'riqni payqamadi ham.

— Nichego, — dedi Achinska dadamni yupatib. — Yakshi bala. Tuzaladi.

Chindan ham ko'p o'tmay, akam ko'zini ochdi. Biroq, doktor ikkinchi ukolni qilayotganda yig'lab hammayoqni buzib yubordi. Achinskaning jahli chiqmadi.

— Vsyo, vsyo, — dedi jilmayib. — Ugil bala yiglamaydi.

Keyin dadam ikkovlari sandal chetida o'tirib, choy ichishdi. Urush g'alaba bilan bitgani, endi non ko'payishi, yana allanimalarni gapirishdi. Ko'zim yumilib ketayotgan bo'lsa ham doktor akamni yana nima qilishini bilgim kelib, chidab o'tirardim. Dadam gap orasida bugun o'tgan voqeani ham aytib berdi. Achinska qoshini chimirib, bir zum o'yg'a toldi. Ko'm-ko'k ko'zlariga jiddiyat cho'kdi. Biroq, qo'l siltab qo'ya qoldi.

— Chepuxa! Xish nima kilmaydi.

Nihoyat u sarg'ish qog'ozga o'ralgan allaqanday dorini majbur qilib akamga ichirdi. Yana to'rt-beshta shunaqa qog'ozlardan qoldirdi. O'rnidan turayotgan edi, dadam onamga imo qildi. Onam hujraga ildam kirib ketdi-da, zum o'tmay, og'zi bog'langan chog'roq xalta ko'tarib chiqdi.

— Aybga buyurmaysiz, do'xtir, — dedi dadam xaltani Achinskaga uzatib. — Pul yo'q edi.

Achinska shinelining bir yengini kiygan joyida turib qoldi.

— Bu nima? — dedi xaltaga imo qilib.

— Turshak, — dadam xijolat chekib, iljaydi. — Qantak o'rikniki. Qoq quruq. Bo'yrada quritganman. Bittasiyam yerga tushmagan.

Achinska yengi kiyilmagan qo'li bilan xaltani nari surdi.

— Balaga kompot kiling. Isitma tushadi. Yakshi bo‘ladi.
 Endi dadam astoydil yalina boshladi:
 — Yo‘q demang, do‘xtir. O‘z qo‘lim bilan quritganman.
 Chodirga qoqib quritganman.
 Gapga oyim aralashdi.
 — Marjangizga oborasiz, do‘xtir, padarka...
 Achinska keskin bosh chayqadi.
 — Balaga kompot kiling. — Shunday dedi-yu, xaltani devorga
 suyab, etigini kiydi-da, tashqari chiqdi. Dadam shosha-pisha unga
 ergashdi.
 — Iloyo baraka toping, — deb qoldi onam eshikdan mo‘ralab.
 — Bola-chaqangizning rohatini ko‘ring.
 Yana sukunat cho‘kdi. Ammo endi bu boyagidek ko‘ngilni
 g‘ashlovchi jimjitlik emas edi.
 Ertasiga kech uyg‘ondim. Katta akam maktabga ketgan, kichik
 akam sandal chetida yostiqa suyanib o‘tirgancha, sutchoy ichar,
 dadam bilan oyim tumshug‘idan chak-chak suv tomayotgan eski
 samovarni o‘rtaga qo‘yib gaplashib o‘tirishardi. Qor tingan,
 tashqarida quyosh charaqlab ketgan shekilli, uy ichi yop-yorug‘
 edi. Endi sutchoyga zog‘ora non botirib yeyishga kirishgan edim,
 tashqarida kuchugim jonholatda akillay boshladi. Eshik sharaqlab
 ochildi-yu, ostonada Dalavoy paydo bo‘ldi. U kechagi charm
 paltosida, kechagi piymasida edi.
 Dadam bilan oyim bir seskanib tushishdi. Hozir janjal
 bo‘lishini bilib, mening ham yuragim orqaga tortib ketdi. Biroq
 hech qanaqa janjal bo‘lmadi. Dalavoy ostonada turib, negadir
 jilmaydi.
 — Assalomalaykum! — dedi baland ovozda. Shunda uning
 judayam qo‘rqinchli odam emasligini payqadim.
 Dadam rangiga qon yugurib, asta o‘rnidan turdi.
 — Keling, keling, — dedi-da, borib ko‘rishdi. Oyim darrov
 dasturxonga jiyda, yong‘oq keltirib qo‘ydi. Dalavoy bu safar
 piymasini yechib chiqdi. Onam yangi ko‘rpacha bo‘lmagani uchun
 sandal to‘ridagi ko‘rpachaning orqasini o‘girib, qaytadan yozdi.
 Dadam mehmonning orqasiga yostiq qo‘ydi. Dalavoy piyolani
 aylantirib-aylantirib, choy ho‘plarkan, menga qarab ko‘zini qisdi.
 — Qalay, polvon!
 Uyalganimdan yerga qarab oldim. Shunda undan allaqanday
 qo‘lansa hid kelayotganini payqadim.

—O‘zizam ja haligidaqa odamsiz-da oka! — Dalavoy dadamga yuzlanib, baralla ovozda kuldi. — Qilar ishni qip qo‘yib, tag‘in odamni so‘kib o‘tiribsiz, oka.

Dadam uzrli qiyofada yelkasini qisdi.

— Endi, ukam, jahl chiqqanda, aql ketadi...

— O‘ziyam ja, kattasini ag‘daribsiz-da, oka! — Dalavoy negadir yana kuldi. — Ha, endi shunaqa ekan, bir og‘iz aytmysizmi, shu ishni shundoq qilmoqchiman, deb. Axir jahon bedarvoza emas, tartib bor, zakun bor...

Dadam xijolat chekib, dasturxon chetini himara boshladi.

— Endi, ukam, biz bir po‘ristoy odammiz. Bunaqa qonunlarni tushunmasak, bu yoqda bolalar sovuqda qoldi.

— Shu-da endi, oka! — Dalavoyning milki qizarib ketgan kulrang ko‘zlarida samimiy tabassum o‘ynadi. Dadamning yelkasiga qoqdi. — Bir og‘iz maslahat solsangizu hammasini zakonniy qilardik.

Boyadan beri indamay choy quyib uzatayotgan onam endi gapga aralashdi.

— Bu odam bilmabdilar-da, jon ukam, gunohlaridan kecha qoling.

Dalavoy oyimga qaramadi, dadamga tikilganча, jiddiy tortdi.

— Endi, oka, biz bir joyning odamimiz, ot tepkisi otga o‘tmaydi.

— Rahmat, ukam, — dadam yana boshini xam qildi. — Siz bizlarni siylasangiz, sizni Xudo siylasin.

— Men-ku shu yerning odamiman, — Dalavoy ovozini pasaytirdi. — Ammo o‘rtoq Toshevning oldida, shu ish shundoq bo‘lgani chatoq bo‘ldi. Katta odam. Qamatmaguncha qo‘ymayman deyapti. Ikkalamizni askarblyat qildi, deyapti.

Oyimning rangi bir zumda o‘zgarib ketdi. Dadam bo‘lsa, taqdirga tan bergandek, hamon boshini quyi solib o‘tirardi.

— O‘rtoq Toshevga yotig‘i bilan tushuntirdim, — Dalavoy ovozini yanayam pasaytirdi. — O‘zimizning odam gunohidan o‘ta qoling, dedim. Hozircha ko‘nmay turibdi-yu, ko‘nadi. Ko‘nmay qayoqqa borardi. «Qurug‘i»dan obkeb beraman, dedim.

Birdan oyimning yuzi yorishdi. Dik etib o‘rnidan turdi-da, hujraga kirib ketdi. Dalavoy onamning ketidan qarab qoldi. Dadam bo‘lsa hamon dasturxon qatini o‘ynab o‘tirar, barmoqlari bilinar-bilinmas titrar edi. O‘sha zahoti onam xalta ko‘tarib chiqdi.

Bu — kechasi Achinska olmay ketgan o'sha turshak to'la xalta edi.

— Mana, opovsi, — dedi oyim xaltani Dalavoyning oldiga qo'yib. — Qoq-quruq. Qantak o'rikning turshagi. Adasi o'z qo'llari bilan quritganlar. Bittasiyam yerga tushmagan.

Dalavoy goh onamga, goh xaltaga qarab, talmovsirab turdida, birdan qah-qah otib kulib yubordi. Bir zumda kulrang ko'zlaridan yosh tirqirab chiqdi. U ko'rpachani mushtlab-mushtlab kular, boshi ham, gavdasi ham muttasil silkinar, sarg'ish yuzi sholg'omdek qizarib ketgan edi. Oyim og'zini lang ochgancha, bir dadamga, bir Dalavoyga qarab qolgan, negadir nuqul ko'ylagining yoqasini g'ijimlardi.

— Voy, voy kennoyi tushmagur-ey! — dedi Dalavoy kulgidan nafasi qaytib. — Voy sodda xotin-ey! «Qurug'i» desam, turshak obchiqibdi. Qarang, oka! Qarang! «Qurug'i» desam... «Qurug'i» desam... — U dadamga qaradi-yu kulgisi kesildi. Dadamning qiyofasi shiddatli, yuzi qizarib-bo'zarib ketgan edi.

— «Qurug'i» kerakmi? — dedi ovozi xirillab.

Dalavoy butunlay jiddiy tortdi.

— Mengamas, o'rtoq Toshevga, — dedi sarg'ish qoshini chimirib. — Men sizga jabr bo'lmasin, deyapman, oka, jo'jabirdek jonsiz.

— «Qurug'i» kerakmi! — Dadam yanayam pastroq, ammo yanayam tahdidliroq ovozda takrorladi. — Mana buni qirqib beraymi! — U kindigidan pastroqqa imo qildi. Dadam birovdan qattiq g'azablansa, padaringga la'nat deb so'kar, ammo biron kimsani bunchalik qo'pol haqorat qilganini eshitmagan edim. Onam ham, yostiqqa suyangan akam ham, men ham qotib qoldik.

— Shunaqami, hali! — Dalavoyning kulrang ko'zlari yonib ketdi. — Endi o'zingdan ko'r! — Shunday dedi-yu, hatlab o'rnidan turdi. Dadam ham sapchib turib ketdi. Oyim dod solib, dadamning yo'lini to'sdi. Dalavoy shiddat bilan charm paltosining cho'ntagiga qo'l suqdi-da, allaqanday qog'ozni dasturxon ustiga uloqtirdi. — Indinga tegishli joyga bormasang, militsiya yuborib, ottirib tashlayman! Umringni turmada chiritmasam, Dalavoy otimni boshqa qo'yaman!

Oyim bekorga dod solgan ekan. Dadam Dalavoyga tashlanmadi. Piymasini kiyib chiqib ketguncha, uy o'rtasida turaverdi. Faqat g'azabdan pishqirib nafas olar, mo'ylovi uchib-uchib qo'yar

edi. Tashqarida it akilladi. Keyin jimlik cho'kdi.

— Endi qo'ymaydi, — dedi onam ingrab. — Qamatmay qo'ymaydi. — U hamon g'azabdan titrab turgan dadamga iltijoli termildi. — Jon adasi, aylanay adasi, johillik qilmang, keling, shular to'ya qolsin. Mayli, sholchani sotamiz.

Kuzda opamni uzatamiz, deb dadam bir sholcha olib kelgan edi. Oyim shuni gapirganini tushundim.

— Nega?! — dadam sandal chetiga cho'kkalagancha, hayqirib yubordi. — Nega?! Nega men pora berishim kerak? Nega?! Porani harom odam beradi, bildingmi! Porani harom odam oladi! Bildingmi?! Porani imonsiz odam imonsiz odamga beradi! Tushundingmi?! Nega men o'z imonimni sotib poraxo'rga yalinishim kerak? Nega?

U esdan og'ib qolganga o'xshar, har gal «Nega?» deganda, dasturxonni mushtlar, Dalavoy tashlab ketgan qog'oz ham, jiyda-yong'oqlar ham har yoqqa sochilib ketgan edi.

— Yo'q! — dedi u nafasi qisilib. — Men pora bermayman. Qamasin! To'piga solib otib yuborsin!

Beshikdagi ukam cho'chib ketdi shekilli, chirillab yig'lay boshladi. Oyim mahzun qiyofada cho'kkalab o'tirgancha, ko'krak tutdi. Dadam tirsagini sandal chetiga tirab, kaftlari bilan yuzini to'sib, uzoq o'tirdi. Qo'li hamon bilinar-bilinmas titrar edi. Nihoyat, jahl bilan o'rnidan turdi. Onam vahima ichida unga termildi.

— Qayoqqa? Hoy adasi, o'zingizni bosing.

— Achinskaga boraman, — dedi dadam sekin. — Ariza yozdiraman.

Shunday dedi-yu eski choponini kiyib, chiqib ketdi. Peshinga yaqin tekis qilib yozilgan allaqanday o'rischa xat ko'tarib keldi.

Keyin bilsam, dadam to'g'ri qilgan ekan. Uni ikki-uch hafta sudrab yurishdi-yu hammasi tinchib ketdi. Faqat Dalavoy keyinroq, nalugchi bo'lganidan keyin boshqa yo'l bilan qasdini oldi. Biroq Achinskaning yordam berganini dadam ko'p yillar hammaga gapirib yurdi.

Mening go'dak shuurimga esa pora — dunyodagi eng harom narsa, degan tushuncha mixlanib qoldi. To'g'ri, keyin ham, poralaru poraxo'rlarning har xilini ko'rdim. Birovga order berish uchun pora oladiganlarni-yu, yaxshiroq uydan joy olish uchun pora beradiganlarni ham, birovning bolasini institutga olib kirish

uchun pora oladiganlarni-yu, o'zining chalasavod bolasini o'qishga joylash uchun pora beradiganlarni ham ko'rdim.

Birovga kamyob narsani navbatsiz to'g'rilash uchun pora oladiganlarni-yu, o'sha narsani boshqalarga uch bahosiga pullash uchun pora beradiganlarni ham, birovni amal stoliga o'tqazish uchun pora oladiganlarni-yu, o'sha kursiga o'tirib, berganini o'n hissa qilib qaytarib olish uchun pora beradiganlarni ham ko'rdim. O'zining qizi tengi xodimini dachasiga sudraydigan ipirisiq amaldorlarni-yu, ishini bitirish uchun begona to'shakka bemalol yotadigan ayollarni ham, pora olib qiya bo'lib ketganlarni-yu, yana pora berib, qutulib chiqish yo'lini topadiganlarni ham ko'rdim. Shunda dadamning titrab-qaqshab aytgan gaplari naqadar rost ekanini tushundim. Hamma-hammasini tushundim.

Faqat... Domimizning birinchi qavatida turadigan so'qqabosh Klava xolaning ma'yus ta'zim qilib turganini ko'rganimda, bir narsaga hech aqlim yetmadi. Nahotki, odam tirik qolish uchun ham pora berishi kerak bo'lsa!

Uzoq qarindoshim bo'lmish o'sha vrachning gapini eshitganimda, battar hayron bo'ldim. Nahotki tirik qolish uchun majburan birovga pora berish ham jinoyat hisoblansa? Xo'sh, bo'lmasa nima qilsin? O'lib ketsinmi?! Nahotki, o'lim to'shagida yotgan odamdan nimadir tama qilish imon degan tushunchaga sal bo'lsayam to'g'ri kelsa?!

Xayolimga shunday iztirobli savollar yopirilib kel-ganida, beixtiyor o'sha qahraton qish, o'sha izg'irinli kecha, ko'zoynagini yiltiratib jilmayib turgan Achinska, namat ustida qolib ketgan o'sha bir xalta turshak xotiramga tushadi.

OPAMNI TOPIB OLDIM

Bayram qanaqa bo'lishini bilasizmi? Bilmasangiz bilib qo'ying! Bayram degani shuki, hammamiz yasanamiz. Bu — birinchidan. To'g'ri, dadam hammamizga baravar boshoyoq kiyim qilib berolmaydi. Lekin hech bo'lmasa, bittadan ohorlik kiyamiz. Undan keyin oyim albatta palov, juda bo'lmasa, shovla pishiradi. Bu — ikkinchisi. Nihoyat, bayram degani shuki, men onamga ergashib, albatta tog'amnikiga boraman. Tog'amning men tengi o'g'li bor. Maza qilib obaki yeymiz. Iloji bo'lsa, «Tarzan» kinosiga

tushamiz. Tarzanni bilasizmi? Xuddi maymundek daraxtdan-daraxtga sakraydi. Yo‘lbarsdan ham, arslondan ham qo‘rqmaydi.

Jo‘raboshimiz aytgan, o‘zi ko‘rgan.

Mana, bugun oyim non yopyapti. Arpa non unchalik oppoqmas. Ammo juda mazali. Ana, non isi kelyapti. Oyim menga atab ataylabdan kulcha yasagan. Kulcha nondan oldin pishadi: kichkina-da! Ana, oyim rapidani qo‘liga kiyib, to‘nkarilgan zambil ustiga chiqdi. Bo‘lmasa tandirning tepasiga bo‘yi yetmaydi. O‘sha yerdan turib buyurdi.

— Do‘ppingni och!

Do‘ppimni boshimdan yulib oldimu tutib turdim. Shu ondayoq cho‘g‘dek issiq, qip-qizil non do‘ppiga tushdi. Jiyaklari titilib ketgan do‘ppimni changallagancha ko‘chaga yugurdim.

— Hoy, sekinroq, yiqilasan! — deb qoldi oyim chirqillab.

Nega yiqilar ekanman! Orqamdan kuchugim ham yugurgilab qoldi. Biladi-da, o‘ziniyam ulushi borligini. Ikkalamiz oldinmaketin chopishib, Shirin arig‘ining bo‘yiga keldik. Issiq nonni suvga tashladim-da, o‘zim pastga qarab chopib ketdim. Gurji kuchugim ham oyog‘imga o‘ralashib yugurdi. Ellik qadamcha yurgandan keyin qoqigullar ochilib yotgan qirg‘oqda kutib o‘tirdim. Ana, bizning non oqib kelyapti! Tandirdan yangi chiqqan nonni oqizoq qilib yemagan bo‘lsangiz, yeb ko‘ring. Meni aytdi dersiz, maza qilasiz!

Bir oyoqlab suvga tushib, nonimni tutib oldimu ushatib yedim. Ana rohatu mana rohat! Usti muzday, ichi issiq. Bir burdasini o‘zim yeyman, bir burdasini kuchugimga beraman. Kuchugim nonini mendan oldin yeb bo‘ladi. Yeb bo‘ladi-da, boshini goh u tomonga, goh bu tomonga tashlab mo‘ltirab qo‘limga qaraydi. Dumini likillatib-likillatib qo‘yadi. Ikkalamiz maza qilib ovqatlandik. Keyin shundoq sohilga yotib, tip-tiniq suv ichdim. Kuchugim ham oldingi oyoqlari bilan cho‘kka tushib, qip-qizil tili bilan shapillatib rosa ichdi.

Uyga qaytsak, dadam bodom tagida turib, endi xaltasini ochayotgan ekan. Ur-re!

— Manavi senga! — dedi dadam oyimga qarab. Xaltadan poshnasi past yaltiroq amirkon kavush chiqdi. Oyim eski kalishini yechib, kiyib ko‘rgan edi, kavush lop-loyiq keldi. U yoq-bu yoqqa yurib ko‘ruvdi, kavushi g‘archillab ketdi.

— Iya, g‘archiyam bor ekan, — dedi oyim yosh boladek

quvonib. — Baraka toping, anchadan buyon shunaqasini orzu qilib yuruvdim.

— Qizing qani? — dadam g'olibona qiyofada yana xaltaga qo'l suqdi.

Tutundan bo'g'ilgan opam oshxonadan ko'zini ishqalab chiqdi.

— Manavini o'rab ko'r-chi! — Dadam guldor shoyi ro'molni opamga uzatdi. Opamning ko'zlari quvonchdan porlab ketdi.

— Rahmat, — dedi uyalinqirab.

Katta akamga yo'l-yo'l ko'ylak, kichik akamga chiyduxoba shim tegdi. Endi bizning navbat! Yo'q, dadam xaltasiga qo'l suqqan edi, bu safar ukamning sovg'asi chiqdi. Dengizchilar kiyadigan ko'ylak! Chetida tasmasiyam bor.

— Menga-chi? — dedim hovliqib.

— Sengayam bor, o'g'lim! — deb dadam xaltasidan qizil duxoba do'ppi chiqardi. Ko'zim yonib ketdi. — Qani, — dedi u do'ppini boshimga kiygizib. — E-e, boshdan ham bergan-da, senga, o'g'lim!

Rostdan ham do'ppi boshimni bir chekkasida qolib ketdi.

— Ziyoni yo'q! — dadam do'ppini tizzasining ko'ziga kiygizib, bir chetidan tortdi. Allanima «tirr» etdi. Qo'rquv ichida do'ppiga qaradim. Yo'q, yirtilmabdi. Dadam qaytadan kiygizgan edi, boshimni xiyol qissayam, loyiq kelgandek bo'ldi. — Boshdan ham bor-da, o'zi, o'g'lim. — Dadam yana kuldi.

Kichik akam hozirjavoblik bilan gap suqdi.

— Boshi katta bo'lgani bilan aqli yo'q.

Opam uning yelkasiga bir tushirdi.

— Yoshi senga yetsa, sendan aqlliroq bo'ladi.

— O'zingiz-chi? — Oyim dadamning ko'ziga termildi. — o'zingizga hech nima olmadingizmi?

Dadam qo'l siltadi:

— Keyin... Keyin olinar. Nima, men yosh bolamidim...

Aka-ukalar bir zumda ko'chaga otildik. Bo'lmasa-chi, qanaqa yasanib olganimizni hamma ko'rib qo'ysin-da.

...Ertalab kimdir sekin yelkamga turtayotganini payqab uyg'onib ketdim. Hali ko'zimni ochmasimdanoq dimog'imga o'sma hidi urildi, Qarasam, tepamda oyim jilmayib turibdi. Qoshi qalin, qop-qora (oyim pardoq qilmas, ammo «qosh suv ichadi» deb o'sma qo'yardi).

— Jim, — dedi u barmog'ini labiga bosib. — Ukang uyg'onib

qolmasin. Tez yuvin.

Tushundim. Demak, tog'amnikiga boramiz. Ukamni tashlab ketamiz. Bo'lmasa, oyimni qiynab yuboradi. Besh qadam yuradida, opiching, deb xarxasha qiladi. Yo'l uzoq.

Ukam, boshi devor tomonda, bir oyog'i mening qornim ustida maza qilib uxlab yotibdi. Hali turgandan keyin «lo'lilik» qilib opamning dodini beradi.

Yuvinib kelib, apil-tapil choy ichdim.

— Bolani ehtiyot qil, — oyim ayvon burchagida o'tirib, to'ng'arilgan piyoladan o'sma botirib qoshiga tortayotgan opamga tayinladi.

— Xavotir olmang. — Opam boshini u yoq-bu yoqqa egib, bir cheti siniq ko'zguga qiyo-qiyo qararkan, jilmaydi. — O'zim qarab turaman.

Opam juda mehribon. Oyim yo'g'ida hammamiz opamning pinjiga tiqilamiz...

Guzarga chiqqanimizdan keyin, eng katta niyatimni sekin aytdim:

— Oyi, kinoga tushsam maylimi? Tarzanga?

U g'archli kavushiga chang qo'ndirmaslik uchun tuproq ko'chadan avaylab borarkan, orqasiga qaramasdan so'radi:

— Kim bilan tushasan?

— Sobir bilan.

— Tog'angnikiga bormaymiz.

Hafsalam pir bo'lib to'xtab qoldim. Bundan chiqdi, ammannikiga borarkanmiz-da. Ammannikida men tengi o'rtog'im yo'q.

— Ammannikiga ketyapmizmi? — dedim qovoq-tumshug'im osilib.

Oyim burilib qaradi:

— Yo'q, opangnikiga.

— Opam uyda-ku? — dedim hayron bo'lib. — Yana qanaqa opamnikiga boramiz?

— O'qchiga. Katta opangnikiga.

Qiziq, qanaqa katta opam? O'zi bitta opam bor-ku.

— Yur, — dedi oyim shoshirib. — Kun isib ketmasidan Beshyog'ochga yetib olaylik.

Oyimga ergashib borarkanman, allanimani g'ira-shira tushungandek bo'ldim. Besh-olti kun oldin ammam kelgan edi. U oyim

bilan pichir-pichir gaplashgan, «o'gay... yig'ladi... o'qchi...» degan so'zlar qulog'imga chalingan edi. Demak, O'qchi degan joyga ketyapmiz.

O'qchi degani ikki tomoni boloxonali uylar bilan o'ralgan tor ko'cha ekan. Bizning tomonlarda allaqa-chon hammayoq ko'karib ketgan, bu yerda bo'lsa ko'cha zax, ikki chetda qop-qora suv jilg'a bo'lib oqib yotibdi. Ancha yurdik. Tez-tez temirchilik do'konlari uchraydi. Bayram bo'lsayam, ba'zilar ochiq. Devordagi mixlarga ketmon, tasha, xaskash ilib qo'yilgan. Sandonda olov gurillaydi. Taraq-turuq avjida: yaqiniga borib bo'lmaydi. Oxiri tagidan qoramoydek loyqa suv oqib yotgan, chetidagi panjaralari liqillab turgan yog'och ko'prikdan o'tdik. Oyim dam-badam to'xtaydi. Hali u eshikni taqillatadi, hali bunisini.

— Hoy, o'rgilay, Bashoratxonning uyi shumi? Eri peravodniy...

Birov yo'q, deydi, birovi yelka qisib eshikni berkitadi, bir xili eshikni umuman ochmaydi.

Shu qadar charchadimki, oyog'imni qimirlatishga madorim qolmadi. Xuddi, hov birda, uydagi opamga sovchi kelganida Qa'niga borganimizdek. Kelmasam bo'larkan. Qaytaga uyda Xo'ja bilanmi, Vali bilanmi maza qilib chillak o'ynab yurgan bo'lardim. Kun isib ketgan, suv ichgim kelardi. Oyimning o'zi ham ko'cha chetidagi vodoprovoddan ikki marta suv ichdi. Suv ichish oson bo'lsayam mayli ekan. Odamlar paqirini ko'tarib, qatorlashib navbat kutib turadi... Bayram bo'lgani uchunmi, yasangan-tusangan o'tkinchilar tuzuk-quruq gaplashmaydi. Hamma qayoqqadir shoshadi.

Bir mahal paranji-chachvonli xotinga duch keldik. Oyim yana o'sha yalinchoq ohangda so'radi:

— Hoy, baraka topgur, Bashoratxonni tanimaysizmi?

Paranjili xotin to'xtadi. Chachvonini yuzidan olgan edi, qo'rqib ketdim. Bunaqangi cho'tir xotinni birinchi ko'rishim edi. Negadir xayolimga cho'tirini berkitish uchun paranji yopinib yursa kerak, degan o'y keldi.

— Qanaqa Bashor? — dedi u ro'molcha bilan ter bosgan yuzini artib.

— Bashoratxon-da! — Oyim kuyib-pishib tushuntirdi. — Eri peravodniy. Ashxobodda yer qimirlaganda kasallarni poyezdda olib kelgan.

— Uyini bilmaysizmi? — cho'tir xotin achinib bosh chayqadi.

— Dunyoda nima ko‘p, Bashor ko‘p.

— Yo‘q. Egachim aytuvdilar, — deb oyim yana tushuntirdi. — Shundoq ko‘prikdan o‘tgandan keyin topasiz, devdilar.

— Bu ko‘chada nima ko‘p, ko‘prik ko‘p, aylanay, — cho‘tir xotin yelkasini nochor qisdi.

— Hayronman, — dedi oyim umidsizlik bilan. — Nechta eshikni taqillatdim, hech yerda yo‘q.

Bo‘lmadi, cho‘tir xotindan ham ish chiqmadi. Tag‘in ikkita katta-kichik ko‘prikdan o‘tdik. Yurib-yurib, choyxona, oldidan chiqib qoldik. Bayram sharofati bilan choyxona ayniqsa gavjum bo‘lib ketgan, so‘rilarda erkaklar chordana qurib, sabzi to‘g‘rab o‘tirishar, to‘rqovoqlardagi bedanalar avjiga chiqib sayrar, havoda jizza hidi kezar edi.

— Bor, bolam, — dedi oyim yalinib, — erkaklarning oldiga men bormay qo‘ya qolay. So‘ragin, peravodniyni uyi qaysi, degin, Bashor degan xotini bor, degin, xo‘pmi?

So‘ri oldiga bordimu, to‘xtab qoldim. Har kim o‘zi bilan o‘zi ovora, qayrilib ham qaramaydi. Askiya.... Qiyqiriq... Sho‘ppayib turib-turib qaytib keldim. Oyim urishmadi. Yana ketaverdik.

Kattakon tilla zirak taqqan, yalpoq gulli ko‘rpabop matodan ko‘ylak kiygan, qalin qoshli juvon duch kelganida oyim tag‘in so‘radi:

— Hoy, opovsi, Bashoratxonni...

— Man namedonam! — dedi ayol yelka qisib.

Oxiri oyim ham holdan toydi. Ko‘cha chetidagi yapasqi xarsang ustiga o‘tirib, tugunini yechdi. Kecha yopgan arpa nonidan olib olgan ekan. Shundan bittasini ushatib, ona-bola yedik. Tag‘in chanqay boshladim.

— Oyi, suv, — dedim hiqillab.

— Shoshma, bolam, sabr qil. — Oyim yupatdi. — Topamiz. Hozir topib olamiz.

Non quvvat berdimi, yana avvalgidek yo‘lga tushdik.

Bir mahal onam to‘xtab qoldi.

— Voy, o‘lsin, tag‘in Beshyog‘ochga chiqib qolibmizku.

Qarasam, rostdan ham Beshyog‘och! Bundan chiqdi, aylanib-aylanib yana shu yerga kelib qolibmizda. Bozor oldidagi maydonda odam ko‘p edi. Yasangan qizlar, papiros tutatgan yigitlar... Daraxt soyasida bir oyoqli kishi qo‘ltiqtayoqqa suyanib turibdi. Oldida

eski kursi, kursidagi savatda obaki. U ingichka bo‘ynining tomirini o‘ynatib, ovozi boricha baqirardi:

— *Obaki dandon.*
Lablari xandon.
Chaynama, shimi.
Chaynama-a-a!

Birpasda chanqoq ham esimdan chiqib ketdi.

— Obaki obering, — dedim yalinib.

Oyim bir zum ikkilanib turdi-da, qo‘limdan yetakladi:

— Yur.

Parvardaga o‘xshatib kesilgan obakini og‘zimga soldimu maza qilib so‘ra boshladim. Saqichga o‘xshagan yumshoq, ammo juda shirin.

— Siz shu yerlikmisiz, amaki? — dedi oyim qandolatchiga termilib.

Qandolatchi qo‘ltiqtayog‘iga suyanib, cho‘ntagidan papiros olarkan, shubhalanib oyimga qaradi:

— Nima edi?

— Bashoratxonni qidirib keluvdik. Eri peravodniy, Ashxobodda yer qimirlaganda kasallarni olib kelgan. o‘qchida ko‘prikning oldida turadi, deyishuvdi.

— Nomeri nechchi? — dedi qandolatchi papiros tutatib.

— O‘shanisini so‘ramabman. — Oyim aybdor qiyofada yerga qaradi.

— Iya, qiziq ekansiz-ku, singil! — cho‘loq qandolatchi ovozi boricha shang‘illadi. — Afandi eshagi yo‘qolganida bir qo‘lida yantoq, bir qo‘lida tezak ko‘tarib, bozor aylangan ekan, buni yeb, buni anaqa qilganni ko‘rgan bormi, deb. Siznikiyam shundan bo‘ldi-ku.

Atrofdagi hangomatalab tomoshabinlar xaxolab kulishdi. Oyim mulzam bo‘lib sekin burildi.

— So‘rab-so‘rab Makkani topgan ekan, amallab topib olarmiz.

Ikkovlashib yana o‘sha zaxkash, ikki chetida qop-qora suv jilg‘a bo‘lib oqayotgan ko‘chaga kirdik. Oyoqda zo‘rg‘a tursam ham, dam olaylik deb oyimga xarxasha qilishga qo‘rqar edim. Boyagi odamning gapi oyimni xafa qilganini bilib turardim. Yurib-yurib yana o‘sha omonat panjarali yog‘och ko‘prikdan o‘tdik.

Oyim ro‘paradan kelayotgan, sumka ko‘targan xotinni to‘xtatdi.

— Jon singlim, bir narsa so‘rasam maylimi? Shu yerlikka o‘xshaysiz. — Oyim uning qo‘lidagi sumkasiga, bayram bo‘lsayam yasanmasdan eskiroq qarg‘ashoyi ko‘ylak kiyganiga qarab, shu yerlik deb gumon qilgan bo‘lsa ehtimol.

Xotin shoshilib turgan ekan shekilli, «gapingizni ayting» degandek qoshini chimirdi.

— Bashoratxonni tanimaysizmi? — dedi oyim shosha-pisha.

— Eri peravodniy. Ashxobodda...

— Nimaga edi? — dedi ayol oyimning gapini bo‘lib.

Oyim uning ko‘ziga tikilib qaradi-da, ko‘nglida umid uyg‘ondi shekilli, ovozi dadillashdi:

— Kerak edi-da. Ertalabdan beri qidiramiz, aylanay. Bilmagani joyning ko‘chasi ko‘p, deb shuni aytar ekanda.

Ayol oyimga tikilib turib negadir ovozi titrab ketdi.

— Siz... Siz kimi bo‘lasiz? — dedi sekin.

— Onasiman, aylanay, onasiman!

Ayolning qo‘lidan sumkasi tushib ketdi.

— Oyijon! — dedi iltijoli ohangda. — Oyijon! O‘zingizmi-siz? — Shunday dedi-yu oyimni quchoqlab oldi. O‘sha zahoti ko‘zidan tirqirab yosh chiqib ketdi. — O‘sha men... Menman... Qizingizman... Oyijon... Biluvdim, topib kelishingizni biluvdim. Biluvdimu ishonmovdim. Ammam aytsalar, ishonmagandim!

U hadeb oyimni o‘par, nuqul bitta gapni qaytarardi.

— Ishonmovdim...

Keyingi daqiqada meni yerdan dast ko‘tarib oldi-da, ko‘zimdan, yuzimdan o‘pa boshladi.

— O‘zimning ukamdan o‘rgilay, ukajonimdan aylanay.

Dimog‘imga binafsha hidi urildi. U baquvvat qo‘llari bilan meni mahkam quchoqlab olgan, yoshli ko‘zlari bilan qayta-qayta ko‘zimga termilib qarar, nuqul o‘par edi. Shundagina uning katta xotin emas, yoshgina ekanligini, allaqayeri uydagi opamga o‘xshab ketishini payqadim. Bashor opa bir qo‘lida meni ko‘targanча egilib, ikkinchi qo‘li bilan sumkasini yerdan oldi.

— Qo‘ying, — dedi oyim uning bilagidan tutib. — Yosh bolamas, o‘zi yuradi. Shu kuzda maktabga boradi-ku.

— Nega qo‘yarkanman?! — Bashorat opam binafsha hidi anqib turgan boshini yana yuzimga bosdi. — Ukajonimni nega qo‘yarkanman?! O‘zim zo‘rg‘a topib oldim-ku!

Kap-katta bola opamning qo'lida ketayotganimdan, botinkam ko'ylagini loy qilib yuborganidan uyalib tipirchiladim.

— Tushaman!

Yo'q, opam qattiqroq bag'riga bosdi.

— Tushmaysan. Charchab qopsan, ukam. Ko'rib turibman.

Bashorat opam shaxdam-shaxdam qadam tashlar, oyim unga arang yetib borar, ikkovlari hayajondan entikib, gaplashib borishardi.

— Tanimay qolganimni qarang, qizim. O'ziyam sizni bir marta ko'ruvdim-da... Ancha bo'p ketdi. O'shanda jamalaksoch qizcha edingiz.

— Men ham avvaliga tanimadim... Qarang, oyijon, sira ishonmovdim.

Opamning uyi chindan ham ko'prik yaqinida ekan. Biroq, yana bitta tor ko'chaga kirish esimizdan chiqibdi. O'sha tor ko'chadan o'tib, kaftdekkina hovliga kirib qoldik. Hovli o'rtasida bir tup tut bor edi. Tut hali pishmagan, ammo ancha oqarib qolgan, shoxiga belanchak ilib qo'yilibdi. Tut tagiga kelgandan keyingina opam meni yerga qo'ydi.

— Mana singling, — dedi belanchakka imo qilib. — Singlim desang ham bo'ladi, jiyanim desang ham. Singlim deyaver.

Mo'ralab qaragam, belanchakda atlas ko'ylakcha kiygan qizaloq yotibdi. Sekin tebratib ko'rdim.

Opam yoshli ko'zlariga tabassum qalqib, yana bir marta boshimni silab qo'ydi-da, uy tomonga qarab qichqirdi:

— Dadasi! Oyim keldilar!

Zum o'tmay oynaband ayvonning eshigi sharaqlab ochildida, yelkasiga beqasam to'n tashlagan kishi chiqib keldi.

— Oyim keldilar! — dedi Bashorat opam tantana bilan.

Beqasam to'nli kishi oyim bilan quyuq so'rashdi. Onam uning peshonasidan o'pib ko'risharkan, menga o'girildi:

— Pochchangga salom bermaysanmi?

Pochcham xuddi katta kishi bilan so'rashgandek, qo'l berib ko'rishdi.

— Otingiz nima, polvon yigit? — dedi kulib.

Pastak shiftli xonaga kirdik. To'rda Stalinning harbiy kiyim-dagi surati ilig'liq turar, deraza tepasidagi mixga ilingan lagan-chaga o'xshash qora karnaydan muzika yangrar edi. Yonbosh tomonda esa zanjirli osma soat. Soatning tepasi mushukning

boshiga o'xshatib ishlangan. Kapgir u yoq-bu yoqqa borib kelgan sayin mushukning ko'zi ham u yoq-bu yoqqa mo'ralaydi. Bunaqa soatni dadamning hujrasida ham ko'rmaganman.

Opam eski sholcha to'shalgan yerga darrov ko'rpacha yozdi. Xontaxta qo'yib, dasturxon bezadi. Piyolamga mushtdek novvot solib choy quyib berdi.

Kun bo'yi piyoda yuraverib, charchadimmi, karnaydan hadeb yangrayotgan muzika elitdimi, uxlab qolibman. Bir mahal opam peshonamni silab uyg'otdi:

— Tur, jonim, qorning ochib ketdi-ku.

Ko'zimni ochsam dasturxonda ustiga ko'k piyoz sepilgan bir lagan moshkichiri turibdi. Oyim, opam, pochcham gangir-gungir suhbatlashib o'tirishibdi. Opamning qistovi bilan uch-to'rt qoshiq moshkichiri yedimu tag'in uxlab qoldim.

Keyin yana uyg'onib ketdim. Anchagacha qayerdaligimni bilolmay, shiftga tikilib yotdim. Xira lampochka yonib turar, allaqayerda soat chiqillardi. Devordagi «mushuk soat»ni ko'rgandan keyingina Bashor opamnikida yotganimni angladim. Yonbo-shimga o'girilgan edim, karavot g'ichirladi. Qarasam, yonimda boyagi atlas ko'ylakli singilcham yumshoqqina bo'lib pishillab uxlab yotibdi. Uyg'otib yubormay deb, tag'in ko'zimni yumib oldim. Avval xo'rsiniq, ketidan ayol kishining hiqillagan yig'isi eshitildi.

— Yuzimni yorug' qildingiz, oyijon... — Bu Bashor opamning ovozi edi. — Kuyovingizning oldida yerdan sug'urib oldingiz. Turmush qurganimizga uch yil bo'lyapti. Kuyovingizga nima deyishimni bilmayman.

Otam bor deymanu borolmayman, onam bor deymanu ko'rsatolmayman. — Opam yana chuqur xo'rsindi. — Oyim tirikligida, otangning ko'ziga ko'rinma, deb tergab turardi. Onam o'lgandan keyin nima deb borishni o'zim ham bilmadim. Bir zamonlar dadam bilan oyimning turmushi buzilgan bo'lsa, mening aybim nima, oyijon... Oyim adamning dilini og'ritgan bo'lsa bordir, ammo menda nima gunoh?

— Qo'ying, jon bolam, — oyim ohista yupatdi. — Turmush o'lgur shunaqa ekan. Odam bu dunyodan nima obketadi? Boradigan joyi bo'yradek yer... Adangizning jahli tez bo'lgani bilan ko'ngli bo'sh. Uch-to'rt kundan keyin o'zingiz boring. Kuyovniyam oboring. Siz bolasiz, u kishi ota. Mening kelganimni aytmay qo'ya qoling. Eski ginalarni unutinglar.

— Bormoqchiyam bo‘luvdim... — Opam taraddudlanib jimib qoldi. — Tag‘in sizning ko‘nglingizga kelmasin, deb...

— Gapingiz qurmasin, — oyim opamning so‘zini kesdi. — Etni tirnoqdan ajratib esimni yebmanmi? Ming qatla shukr, adangiz borlar, singlingiz, qo‘shaqo‘sha ukalaringiz bor, qaddingizni ko‘tarib yuring, jon bolam.

Oyim bilan opam hamon dardlashar, «mushuk soat» bir me‘yorda chiqillar, yonimda yumshoqqina bo‘lib singilcham pishillab uxlab yotar edi. Yana ko‘zim ilindi-yu qotib uxlab qopman.

...Ertasiga hovlimizga mahallaning tabibi — Hoji buvi, Xayri opa, Mo‘min akaning xotini Kelinoyi, Valining oyisi Zebi xola, Sepkilli xola, Xolposh xola to‘planishdi. Oyim aytib kelganmi, bayram bahona bo‘lganmi, unisini bilmayman. Oyim garmdori gulli piyolada qo‘shnilarga choy quyib uzatar ekan, og‘zini to‘ldirib maqtanar edi:

— Qizim berdi! Qarang, piyolasining chiroyliligini qarang! Voy, o‘rgilay sizlardan, shundoq qizim bor ekanu men ahmoq bilmay yurganimni qarang! U bog‘rog‘lar, u oq uy-olabargaklar desangiz! Qo‘sha-qo‘sha gilamlar! Bir radiosi bor, sandiqdek keladi. Qizimning chaqqonligini ko‘rsangiz. Birpasda bir guruch, bir go‘sh t qilib, chigit bosgandek osh damlab keldi. Kuyovimni aytmaysizmi, peravodniylarning boshlig‘i ekan. Uyog‘i Ashxobod, buyog‘i Leninobod — yetti iqlimda ko‘rmagan joyi qolmabdi. Biram odobli, biram aqli...

Oyim opamning hovlisidagi tutdan boshqa qaysi bog‘ni, eski sholchadan boshqa qaysi gilamni, moshkichiridan boshqa qaysi palovni aytayotganini bilmasdim-u, lekin hamma gapiga ishongim kelardi.

— Siz ko‘pam ixtimat qo‘yavermang! — Kelinoyi oyimning gapini og‘zidan oldi. — O‘gay bari bir o‘gayligini qiladi. Undan sizga nima foyda!

— Unaqa demang, ovsinjon. — Oyim unga ta‘nali qarash qildi. — Bu dunyodan hech kim hech narsa orqalab ketmaydi, o‘rgilay. Bolalarim buyoqda otasining bag‘rida yayrab yursin-da qizim uyoqda tirik yetim bo‘lib yursin... Shuyam diyonatdanmi? Bunaqa gapingizni bir aytdingiz, ikkinchi qaytarmang, ovsinjon.

Boshqa xotinlar oyimning so‘zini ma‘qullab chuvillashdi:

— To‘g‘ri aytasiz!

— Oxiratni o‘ylagan odam shundoq qiladi.

— Ammo-lekin... — Oyim ovozi pasaytirdi. — Adasi men borganimni bilmay qo‘ya qolsinlar. Qiz bo‘lib u kelmaydi-yu, ona bo‘lib sen borasanmi, deb dillari og‘riydi... Erta-indin qizimning o‘zi keladi.

Bashor opam ertasiga emas, uch kundan keyin keldi. Dadam bodom soyasida cho‘kkalab o‘tirgancha, arraning tishini egov bilan qayrar, oyim oshxonada, men esa supada ukam bilan kurash tushayotgan edim. Gurji kuchugim darvoza tomonga yugurdi. Ko‘kshoyi ko‘ylak kiygan Bashor opamni darrov tanidim. Opam kuchukni ko‘rib, darvozadan kiriboq to‘xtab qoldi. Dadam bir zum tikilib qaradi-da, garangsibroq o‘rnidan turdi. Kuchukni haydash bahonasida opam tomon chopdim. Opam uch-to‘rt qadam bosdi-yu, ko‘zida yosh bilan hayqirib yubordi:

— Adajon!

Dadam bir qalqib ketgandek bo‘ldi.

— Iye, iye, — dedi ovozi titrab. Keyin oshxonaga qarab qichqirdi. — Hoy, bu yoqqa chiq, qizing keldi!

Bashor opam dadamning quchog‘iga o‘zini otdi.

— Yig‘lama, ona qizim, yig‘lama. — Dadam Bashor opamning sochini silar ekan, ko‘zlari namlandi. (Uning ko‘zida hech qachon yosh ko‘rmagan edim.) — Bormisan, oppoq qizim.

Opam dadamning bag‘ridan chiqishi bilanoq oyim quchoqlab oldi.

— Voy o‘zimning qochqoq qizimdan aylanay! — dedi Bashor opamning yuzidan o‘pib. — Voy, o‘zimning to‘ng‘ich qizimdan o‘rgilay!

Boyadan beri nariroqda bola ko‘tarib iljayib turgan pochchamni endi ko‘rishdi. Dadam pochcham bilan ham quchoqlashib ko‘rishdi. Singilcham birpasda qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketdi. Opam, aka-ukalar birinchi jiyanimizni «xomtalash» qilib yubordik.

O‘sha kuni dadam o‘z qo‘li bilan osh damladi. Hatto pochcham ikkovlari jinday-jinday vino ham ichishdi.

...O‘shandan keyin bironta bayram shunchalik esimda qolgani yo‘q.

BOZOR

Akalarining bo‘lishi ham yaxshi, ham yomon. Yaxshiligi shuki,

bolalardan kaltak yemaysan. Arifmetikadan ikki olmaysan. Yomonligi shuki, nuqul akalaringning kiyimini kiyasan. Masalan, mana bunday. Katta akamga etik oberishadi. Bir yilmi, ikki yilmi o'tgandan keyin katta akamning oyog'i katta bo'lib ketadi. Etik kichkina akamga o'tadi. Kichkina akamning oyog'iyam bir joyda turavermaydida. o'sadi, etik sig'maydi. Ana endi etik bizniki! Faqat bizga yetib kelguncha etikning tagi Naim sartaroshning iyagidek sip-silliq bo'lib ketadi. Aslida, buyam yomonmas. Qishda yaxmalak uchishga maza. Ammo tagining ko'chib ketgani yomon. Cho'lda bir oy yurib chanqagan tuyadek suv demaganni yamlamay yutadi. Bora-bora ukamga dabdalasi chiqqan etik tegadi. Telpak masalasi ham shundoq. Katta akamdan kichkina akamga, kichkina akamdan menga, mendan ukamga yetib borguncha, telpakmas, taqiri chiqqan bir parcha teri qoladi. Valiga maza! Akasi yo'q, ukasi yo'q. Zebi xola unga doim yangi kiyim olib beradi. Shundoq deymanu, dadamga ham qiyin. Hammamizni baravar yasantira olmaydi. To'g'ri, gohi-gohida biz kichkinalarning ham g'amini yeb turishadi. Kuz kunlaridan birida shunday quvonchli voqea bo'ldi. Kechasi hamma yotganda dadam bilan oyim maslahatlashib qolishdi. Rostini aytsam, gap poylaydigan odatim bor. Poylamoqchi emasdimu, o'zlari gaplashib qolishdi. Eshitish kerakmi, kerak!

— Salqin tushib qoldi, — dedi oyim o'ychan ohangda. — Bolalarning egnida yo'q, boshida yo'q. Ayniqsa kichkinalarga qiyin.

Dadam anchagacha indamadi. Chamasi, qayerdan pul topishni o'ylardi.

— Echkini sota qolamiz, — dedi nihoyat bir qarorga kelib.

— Takanimi? — Bu oyimning ovozi edi.

— E, uni qanchaga olardi? — dedi dadam hafsalasiz ohangda.

— Narigisini sotamiz. Besh yuzlarga obqolar.

Tushundim. Bundan chiqdi Qoraquloqni sotishmoqchi. Erta bahorda echkimiz odatdagidek ikkita tuqqan edi: biri erkak, biri urg'ochi. Urg'ochisining o'zi oq, qulog'i qora. Aka-ukalar unga Qoraquloq deb ot qo'rganmiz. Echkinga achindim. Yaxshi, yuvoshgina edi. Chamamda, oyim ham shuni o'ylardi shekilli, sekin gap qo'shdi:

— Qochirib olsak bolalarga sut mo'lroq bo'larmidi?

— Boshqa iloji yo'q-da! — dedi dadam tajangroq bo'lib. —

Jilla qursa, bittasiga pufayka olib berish kerak. Bultur ham maktabga akasining choponini kiyib bordi.

Ha, demak, pufayka meniki bo'ladi. Negaki, ukam hali maktabga bormaydi. Yengining uchiga charm qoplanganidan olaman. Sinfirmizda faqat Valida shunaqa pufayka bor. Zebi xola naqd to'rt yuz so'mga obergan. Valining o'zi aytgan.

— Bozor kuni Tezakopga olib tushaman, — dedi dadam ishonch bilan.

Biroq dadam juma kuni shamollab yotib qoldi. Shanba kuniyam o'rnidan turolmadi. Kechqurun yana echki sotishning maslahati bo'ldi.

— O'zing bora qol, — dedi dadam yotgan joyida.

Onam mung'ayib qoldi.

— Voy, men bozorni bilamanmi? — dedi bo'shashib. — Bir-ikki marta mol sotib yurgan bo'lmasam...

Dadamning jahli chiqib ketdi.

— Nima, bozorga tushadiganlarning shox-butog'i bormi? Hammayam senga o'xshagan odam-da! Ja bo'lmasa, bitta-yarimta dallolning qo'liga o'n so'm bersang, sotib beradi. Ammo besh yuzdan kamiga ko'nma. Zotli mol, degin!

Ertasiga tong qorong'isida oyim meni sekin turtib uyg'otdi.

— Qani, tura qol, bolam, echkini haydashib borasan.

«Nimaga, qayoqqa», deb o'tirmadim. Bilaman, akalarim haydashib borsayam bo'lardi-yu, unda pufaykadan quruq qolaman-da.

G'ingshibroq bo'lsayam turdim. Oyim echkini sog'ib bo'lguncha tong yorishdi. Keyin u Qoraquloqni yetakladi, men tol xivich olib, orqasidan yo'lga tushdim. Qoraquloq ham uyqusirab turgan ekan shekilli, indamay ketaverdi. Faqat darvoza oldiga borganda onasi bilan akasi tomonga qarab qisqagina ma'rab qo'ydi: xayrlashdi chamamda.

Tuproq ko'chadan boryapmiz. Oldinda oyim, ketidan echkim, uning ortidan men. Echkim tuproqni changitib, dik-dik qilib boradi. Ora-chora ko'chaga to'kilgan yong'oq xazonlarini chimdib, kalta dumini likillatib-likillatib qo'yadi. Xivich bilan urmasam ham o'zi ketaveradi. Men ko'chaga to'kilgan yong'oqlarni terish bilan ovoraman. Kechasi shamol bo'lganga o'xshaydi: rosa yong'oq to'kilibdi. Birpasda ikki cho'ntagim to'lib chiqdi. Oyim ora-chora to'xtab, norozilik bilan orqasiga qarab

qo'yadi.

— Yura qolsang-chi, hali-zamon bozor tarqab ketadi!

Tezakop deganiyam, juda olis ekan-da! Avval qora moy hidi anqib turgan temir yo'ldan o'tdik. Keyin mashinalar g'izillab borayotgan ko'chalar chetidan yurdik. Oyog'imda oyoq qolmadi. Nihoyat bozorning temir panjarali darvozasidan ichkari kirdik. Voy-bu! Shuncha odam qayoqdan kelgan? Hammayoq qiy-chuv, hamma shoshgan! Ana, bir chekkada guvillab olov yonyapti. Qozondan qizigan yog'ning oppoq tutuni chiqib turibdi. Vuy, anavi baliqni! Mening bo'yimday keladi-ya! Yog'och ustundagi mixga jag'idan ilib qo'yishibdi. Kir xalat kiygan mo'ylovli kishi kapgirni o'ynatib baqiradi:

— Kep qoling, laqqa baliq! Laqqa baliq! Qatidan qovurib beray?

Undan nariroqda kattakon doshqozonda osh damlab qo'yilibdi. Zarchava solingan, sap-sariq. Og'zimning suvi kep ketdi. Iye, ana kabob! Qop-qora kabobpaz bidir-bidir qilib xaridor chaqiradi.

— Yeganlar darmonda, yemaganlar armonda, dumba-jigar!

Qarang, hidiga odam mast bo'ladi-ya!

— Oyi, hali kabob omerasiz-a? — deyman yalinib.

Oyim bo'lsa, nuqul bitta gapni qaytaradi:

— Anqayma, adashib qolasan!

Yoymachilar to'g'ridan-to'g'ri yerga o'tirib olishgan. Angishvonadan tortib elakkacha, sichqon tutadigan qopqondan tortib isiriqqacha hammasi bor. Qo'ltiqtayoqli askar jikkak chol bilan savdolashib sumak olyapti. Kun salqin bo'lishiga qaramay, ko'ylakchan bo'lib olgan ozg'in bola bir pachka papirosni ko'z-ko'z qilib, bor ovozi bilan baqiradi.

— Papirosi nord, chekmanglar chort!

Shovqin-suronlaru turli hidlardan boshim aylanib ketdi. Unisi turtadi, bunisi surtadi, bu ham yetmagandek oyimga dag'dag'a qilishadi.

— Hov echki! Ko'zingga qara!

Nihoyat mol bozoriga keldik. Ana bozoru mana bozor! Ko'ziga qon to'lgan, burnidan temir halqa o'tkazilgan buqalar, dumbasining og'irligidan yurolmay qolgan, shoxi qayrilib ketgan qo'chqorlar, biri olib, biri qo'yib, paydar-pay hangrayotgan eshaklar... Ayniqsa, anavi qorasi zo'r ekan. Bir hangrashda ketma-ket ulab, yetti marta hangradi. Tag'in har hangraganda quloqlari

dikkayib, dumi xoda bo'lib ketadi. Burun kataklari kerilib, ikki biqini kirib-chiqib, kirib-chiqib turadi. Oxiriga borganda o'pkasi to'lgandek, ovozi xazinlashib qoladi-yu, ammo o'sha zahoti bir pishqirib oladi-da, yangi kuch bilan qaytadan hangray boshlaydi. Oyoq ostini tezak bosib ketgan. Shuning uchun bozorni Tezakop desa kerak-da. (Bu nom Oq podshoning savdogari Tezikov ismi bilan bog'liqligini keyin bilganman.) Kech qolganimiz uchun bizga eng chekkadan — tovuq bozorining yonidan joy tegdi. Biroq bu yerda ham ko'p turolmadik. Janjalning ustidan chiqib qoldik. Shundoqqina oldimizda tarashadek ozg'in, peshonasi tirishgan, tajangligi aftidan ko'rinib turgan kishi qizil babax xo'rozning oyog'idan bog'langan ipdan tutib, cho'kkalab o'tirar, dam-badam nos otib, o'zicha allakimni so'kar edi. Baquvvat oyoqlari uzun-uzun xo'roz esa bo'ynini cho'zib, atrofga olazarak qarar, chamasi boshqa xo'rozlar bilan urishishga bahona qidirardi. Shu payt ayvoni katta oq kalaminka shapka kiygan, cho'michdek burnining teshigidan juni chiqib turgan kishi xo'rozning tepasida to'xtadi.

— Cho'cha chan pul, aka mullo? — dedi oyog'i bilan xo'rozga imo qilib.

Tajang kishi asabiylik bilan boshini ko'tardi. Nosini tupurib, kaftining orqasiga labini artdi.

— Shu jo'jami! — dedi ingichka, tajang ovozda. — Ko'zmi, po'stakning teshigimi!

Burni cho'michdek xaridor pinagini buzmadi.

— Chan pul cho'cha? — dedi yana.

— Bu jo'jamas, xo'roz! — Tajang kishi o'rnidan turib ketdi. — Babax xo'roz! Bir tepsa odamni yiqitadi!

Burni cho'michdek xaridor yana pinagini buzmadi.

— Ha, endu cho'cha-da! Chan pul o'zu?

Shunda kutilmagan voqea bo'ldi. Tajang kishi babax xo'rozni oyog'idan yulqib ko'tardi-yu, xaridorning boshiga tushirdi.

— Mana senga «cho'cha!» — dedi baqirib.

Xo'rozning qiyqirig'i bilan xaridorning dodlashi baravar eshitildi. Boshidagi ayvoni keng shapkasi uchib, tezak ustiga tushdi. Xo'rozning qizil patlari hammayoqqa to'zib ketdi.

Xaridor silliq boshini changallagancha odamlar orasiga sho'ng'idi. Zum o'tmay, shopmo'ylov militsionerni boshlab keldi.

— Mana shu! — dedi xo'rozni amallab buti orasiga tiqayotgan tajang kishini ko'rsatib. — Boshimga urde! Ho'kizdek xeroz

bilan urde! Tuyadek xeroz bilan urde! Bosh yorilg-o-on!

— Nima gap, grajdanlar? — Shopmo'ylov militsioner cho'ntagidan hushtak olib, lunjini shishirgancha churillatdi.

Tomoshaning davomini ko'rishni juda xohlardimu oyim qo'ymadi.

— Yur, keta qolaylik, — dedi sekingina. — Bizniyam boshimiz baloga qolib yurmasin.

Odamlar, mollar orasidan o'tib, nari ketdik. Ana, nihoyat bizning echkiga ham xaridor topildi. Peshonasiga qiyiqcha tang'igan kishi Qoraquloqni uyog'idan o'tib tomosha qildi, buyog'idan o'tib tomosha qildi.

— Qancha so'raysiz? — dedi oyimgamas, echkiga qarab.

— Besh yuz so'm.

— Uch yuz! — qiyiqcha tang'igan kishi echkining bo'ynidan silab qo'ydi. — Shoshib turibman, olamanu ketaman.

— Yo'q, amaki, bu zotli mol, — dedi oyim bosh chayqab. — Onasi har yili ikkitadan tug'adi, ko'p sut beradi. Suti yog'li, sigirnikiga o'xshaydi. Besh yuzdan kamiga bo'lmaydi.

Qiyiqcha tang'igan kishi savdolashib o'tirmay nari ketdi. Yana ikkita xaridor keldi. Biri uch yuz o'n so'mga chiqdi, ikkinchisi ikki yuz ellikdan oshmadi. Keyin echkimizni hech kim so'ramay qo'ydi. Turib-turib zerika boshladim, bir hovuch yong'og'imni u qo'limdan bu qo'limga olaman, bu qo'limdan u qo'limga olaman... Kun isib borar, suv ichгим kelardi. Oyim ham toliqib ketdi shekilli, nuqul atrofga javdiraydi.

— Dallol topmasak bo'lmaydi shekilli, o'g'lim, — dedi ruhi tushib.

Xuddi shuni kutib turgandek, telpagining quloqchinini kuya yegan, paxtali shimining tizzasigacha go'ng bo'lib ketgan kishi paydo bo'ldi.

— Ha, yanga, uloqchaga xaridor chiqmadimi? — dedi shang'illab.

— Uloqchamas, echki-ku, — dedi oyim ranjib. — Qarang, zotli mol, onasi har yili ikkitadan tug'adi. Ko'p sut beradi. Suti quyuyq, sigirnikiga o'xshaydi.

— Ko'rib turibman! — Telpakli kishi qo'l siltadi. — Mushukdekkina echki ekan. Bo'g'oz bo'lganmi- yo'qmi?

Oyim bosh chayqadi.

— Unisini aytolmayman. Yolg'on gapirib nima qildim. Ammo

onasi zotli. Har yili ikkitadan tug'adi, sersut...

Telpagini kuya yegan kishi bir zum o'ylanib qoldi.

— Endi, yanga, gap bundoq, — dedi tag'in shang'illab. — Men xolis odamman, ko'rib turibman, boyadan beri turaverib, sarg'ayib ketdingiz. Xo'p desangiz, molingizni sotib beraman. Ammo cho'talni oldindan kelishib olamiz: yigirma besh so'm!

— Mayli, bir gap bo'lar, — dedi oyim sekin. — Baraka toping, insofli odamga o'xshaysiz... Ammo o'zi zotli mol...

— Qancha so'rayapsiz o'zi? — dallol onamning gapini bo'ldi.

— Besh yuz.

— Nima? — dallol dahshatli gap eshitgandek ko'zini ola-kula qildi. — Besh yuz so'mga govmish sigir beradi-ku! Hozir bozor arzon. Qish kelyapti, yanga! Qish kelyapti! Yem tashvishi bor, pichan tashvishi bor...

Onam norozi qiyofada yelkasini qisdi.

— Mana shu bolamga pufayka olib bermoqchiman. Adasi besh yuzdan kamiga ko'nma deganlar.

— Gappa pasmatri! — dallol xuddi onam gunoh ish qilib qo'yganday qo'lini silkitdi. — Odamlardayam diyonat qolmapti o'zi!

U endi burilib ketayotgan edi, oyim yalindi:

— Xudo xayringizni bersin, bitta-yarimta insofliroq xaridor toping. Mayli, haqingizni beraman.

Dallol qaytib keldi. Qoraquloqning qornini paypaslab ko'rdi.

— Mayli, — dedi to'ng'illab. — Shoshmay turing chi.

Chorak soatchadan keyin u eskiroq chopon kiygan kishi bilan mendan kattaroq bolani boshlab keldi. Bolaning boshida yap-yangi do'ppisi bor edi. Do'ppi uning uzunchoq boshida g'alati qiyshayib turardi. Pufaykadan ortgan pulga oyim mengayam yangi do'ppi oberadi, degan fikr lip etib xayolimdan o'tdi.

— Mana! — dedi dallol shang'illab. — Shundan yaxshi xaridor topolmaysiz.

— Qancha so'raysiz? — eski choponli kishi negadir onamga emas, dallolga qaradi. — Bo'ladiganini ayting.

— Bo'ladigani ikki yuz ellik so'm! — Oyimning o'rniga dallol javob berdi.

— Yo'g'-e, — dedi oyim cho'chib. — Hozir uch yuzga bermadim-ku.

— Oo'zimga emas, mana bu bolaga olyapman! — eski choponli

kishi uf tortdi. — Rangini qarang, bola bechorani! Kasaldan yangi turgan: sil!

Oyim ham, men ham bolaga tikilib qoldik. Hali do‘ppisiga qarapmanu o‘ziga qaramagan ekanman. Bola chindan ham rangsiz, katta-katta ko‘zlari odamga ma’yus termilib boqar edi.

— Yong‘oq! — dedi u qo‘limdagi yong‘oqlarni ko‘rib. Ovozi qizlarnikiga o‘xshagan ingichka, iltijoli edi.

— Ber, ber! — dedi oyim shoshilib. — Hammasini ber.

Qo‘limdagi yong‘oqlarni ham, cho‘ntagimdagilarniyam bolaga berdim. Nima qipti, hali terib olaveraman. Ko‘chamizda yong‘oqdan ko‘pi bormi?

— Yuz so‘m! — eski choponli kishi dallolning qo‘lidan tutdi. — Bor baraka!

— Voy, nima deyapsiz, amaki? — Oyim xuddi birov tortib olayotgandek echkinging arqonidan mahkam ushlab o‘ziga tortdi. — Bu zotli mol. Onasi har yili ikkitadan tug‘adi. Sutni ko‘p beradi. Sutiya yog‘li.

— Sizam insof qiling-da, birodar! — dallol endi xaridorga qarab qo‘lini paxsa qildi. — Yangam rost aytyaptilar. Zotli mol, erta-indin qochib qolsa, bahorda maza qilib sutini ichasiz.

Oyimga jon kirdi.

— Shuni aytaman-da! Zotli mol! Onasi har yili ikkitadan tug‘adi. Ko‘p sut beradi. Suti yog‘li, sigirnikiga o‘xshaydi.

Xaridor horg‘in bosh chayqadi.

— O‘zimga qolsa-ku, besh yuzga ham olaverardim. Shu bolaga so‘rayapman. — U tag‘in bolaga imo qildi.

Bola yong‘oqlarni u qo‘lidan bu qo‘liga olar, yupqa, qonsiz lablarini pichirlatib sanar edi. — Hech kimi yo‘q bechoraning, — dedi xaridor ovozini pasaytirib. — Savob bo‘lar deb boshiga do‘ppi oberdim. Otasi frontda o‘lgan. Yaqinda onasiyam qazo qildi: sil edi bechora. Yetmish yashar kampir buvisi bilan qoldi. Men qo‘shnisi bo‘laman. Kampir bechoraning kigiz tagiga yig‘ib qo‘ygan jindek puli bor ekan. Shunga bittagina echki obering, deb yalindi. Savob uchun tushdim bozorga.

Goh bolaga, goh onamga qarab karaxt bo‘lib qoldim. Bola hamon yong‘oqlarini sanar, oyim ham unga tikilib qolgan edi. Birdan onamning ko‘zlarida yosh aylandi. Bir qo‘li bilan arqondan tutganicha ikkinchi qo‘li bilan bolaning do‘ppisi ustidan boshini siladi.

— Aynoniya! — dedi ovozi titrab. — Hech nima qilmaydi. Hali shundoq yigit bo‘lasanki, sen ko‘rganni hech kim ko‘rmaydi, bolam!

— Mana, bori shu! — xaridor bir so‘mlik, uch so‘mlik pullardan bir hovuchini dallolning qo‘liga tutqazdi.

— Qancha? — dedi dallol.

— Yuz ellik so‘m!

Dallol oyimning arqon ushlab turgan qo‘lini kaftiga olib silkita boshladi.

— Bor baraka deng endi, yanga! Bor baraka deng!

U har siltaganda oyim qo‘li uzilib ketgudek bo‘lib butun gavdasi bilan silkinar edi.

— Hech bo‘lmasa yana ellik so‘m qo‘shing, amaki,— dedi onam eski choponli kishiga iltijoli termilib. — Zotli mol, onasi har yili ikkitadan tug‘adi.

— Nima qilay, singil! — xaridor tag‘in bosh chayqadi. — Mengamas, bolaga deyapman-ku. Savob uchun tushdim bozorga, bor puli shu bo‘lsa, men nima qilay?

— Axir, menam bolamga pufayka obermoqchiman, — dedi onam yig‘lamsirab.

— Savob ham kerak-da odamga, yanga! — Dallol oyimning qo‘lini qo‘yib yubormay shang‘illadi. —Dunyoga kelib, nima karomat ko‘rsatdik?! Ko‘prik soldikmi, machit qurdikmi...

— To‘g‘ri-ku, lekin... Bolamga pufayka... Zotli mol...

Endi onamning gapini xaridor bo‘ldi.

— Xudoga shukur deng, singil. Bolangizni boshida otasi bor ekan, siz bor ekansiz. Jayam yangi bo‘lmasa eskiroq pufayka oberarsiz. Bu bechoraning kimi bor?

Oyim bolaga bir nafas termilib turdi-yu arqonni sekin qo‘yib yubordi. Bola hamon lablarini pichirlatib yong‘oq sanar edi.

— Mang, yanga! Rozi bo‘ling, — dallol pulni sanab oyimga tutqazdi. — Xizmat haqimni opqoldim. Ammo rozi bo‘ling.

Oyim pul changallab turgan qo‘li bilan tag‘in bolaning do‘ppisi ustidan boshini siladi.

— Xafa bo‘lma, o‘rgilay! Buvingga mendan salom aytgin. Echki sotgan xotin salom aytdi, degin.

Dallol bir tomonga, echki yetaklagan choponli odam bilan bola ikkinchi tomonga ketib, zum o‘tmay odamlar orasidan g‘oyib bo‘lishdi. Onam qo‘liga tuflab-tuflab pulni hafsala bilan sanadi,

nimchasining cho‘ntagiga soldi. Ammo ko‘ngli to‘lmadi shekilli, o‘sha zahoti cho‘ntakdan qaytarib olib ko‘ylagining yoqasi tagiga yashirdi. G‘ussaga cho‘kib xo‘rsindi.

— Xudodanam o‘rgilay! Bandasining boshiga shuncha g‘am solmasa nima qipti-ya!

Ikkalamiz indamay yo‘lga tushdik. Oyim qo‘limdan tutgancha boshini quyi solib borar, chamasi boyagi bolani ham, hozir uyga borib dadamdan so‘kish eshitishni ham o‘ylar, o‘ylab o‘yiga yetolmas edi. Yana o‘sha kabobpaz, oshpaz oldidan o‘tdik. Kabob isi so‘lagimni oqizsa ham indamadim. Bilaman, endi oyim kabob obermaydi.

Bozor darvozasiga yetganda onam to‘satdan to‘xtab qoldi.

— Voy sho‘rim! — dedi rangi o‘chib.

Men onam pulni oldirib qo‘ydi deb qo‘rqib ketdim.

— Echkini arqoni bilan berib yuboribmiz-ku! — U shunday dedi-yu, qo‘limdan mahkam tutgancha odamlar orasiga sho‘ng‘ib yana orqaga sudrab ketdi. — Irimi yomon bo‘ladi. Molni arqoni bilan sotib bo‘lmaydi. Voy, meni yer yutsin! Endi nima qildik-a?

Bizni kutib o‘tirarmidi. Ketib bo‘ldi endi! — U shunday derdi-yu, odamlarga urilib, surilib mol bozoriga shoshilardi. Ana, yana bozorga kirdik. Endi mollar xiyla kamaygan, biroq odam qalin edi. Boyagi «o‘zimizning» joyga qaytib keldik. Ammo endi bu yerda toychoq savdosi bo‘layotgan ekan.

— Dallol shu yerning odami-ku. Topilar axir, — derdi oyim menimi, o‘zinimi yupatib. Odamlar to‘dasida anchagina garangsib yurdik. Bir mahal... bir mahal mo‘jiza ko‘rgandek taqqa to‘xtab qoldim. Atrofga alang-jalang qarayotgan onam qo‘limdan siltadi.

— Yursang-chi, anqaymasdan!

— Qoraquloq, — dedim sekin. — Ana, Qoraquloq! o‘zinning echkim.

Men echkimni darrov tanidim. Qulog‘idan tanidim. Yo‘q, o‘zi oq, qulog‘i qora bo‘lgani uchunmas. Chap qulog‘ining qiyshiqligi uchun. Ertalablari echkini sog‘ishdan oldin oyim uni iyitish uchun bolasini birpas emizib olardi. Uloq onasining yeliniga bir yopishgandan keyin ajratish qiyin bo‘ladi. Shunda men uning qulog‘idan ushlab tortaveraman, tortaveraman. Har kuni tortaverganim uchun bir qulog‘i qiyshayib qolgan.

— Qani? — dedi oyim alanglab. — Qani echki?

— Ana! — qo‘lim bilan o‘n qadamcha narida, bir to‘da odam

orasida turgan echkimni ko'rsatdim. Boyagi eski choponli kishi echkinging arqonidan ushlab turar, telpaginging quloqchinini kuya yegan dallol esa shlyapali semiz odamga qo'lini paxsa qilib bir nimani tushuntirar edi. Faqat yangi do'ppili bola ko'rinmasdi...

— Bu zotli mol, akam aylanay! Onasi har yili ikkitadan tug'adi, — dedi dallol shang'illab. — Kuniga bir chirpitdan sut beradi. Suti sigirnikidan ham yog'li. Pulingiz yoningizda ketadi, akam aylanay.

— Judayam osmondan kelavermang-da, siz ham. — Shlyapali odam norozilik bilan bosh chayqadi. — Hech bo'lmasa olti yuz deng.

— O'zingiz ham juda janaz¹ odam ekansiz-da. Qarang, buning qornida bolasi bor! — Choponli kishi echkinging ikkala biqiniga shapillatib qo'ydi. — Xudo xohlarsa, ayni qish chillasida bolalarning og'zi oqarib qoladi, birodar!

Allaqayoqdan boyagi yangi do'ppili, rangsiz bola paydo bo'ldi.

— Dada, — dedi choponli kishiga qo'lidagi obakini ko'z-ko'z qilib. — Mana, obkeldim!

— Bizniyam boshimizda o'zimizga yarasha tashvish bor, — choponli kishi bolaga imo qildi. — O'g'lim o'z qo'li bilan bir yil boqdi echkini. Endi shuning qo'lini halolab qo'ymoqchiman, birodar. To'y qilish osonmi shu zamonda.

Oyimga qaradim. Uning og'zi lang ochilib qolgan, qalin lablari pirpirar, ko'zida yosh bor edi.

— Voy, — dedi u anchadan keyin zo'g'a tili kalimaga kelib. Qiziq, nazarimda u kulgandek bo'ldi. Yo'q, uning yig'layotganini keyin payqadim. — Voy imonsizlar! Ikkalasi bitta odam ekan-ku.

— Men xolis odamman! — Dallol yana shang'illadi.— Savob ham kerak-da odamga. Dunyoga kelib nima karomat ko'rsatdik. Ko'prik soldikmi, machit qurdikmi?..

Oyim madori qurigandek qo'limni qo'yib yubordi.

— Yur, o'g'lim, — dedi ko'z yoshini yengining uchiga artib. — Yesin-ichsin to'ymasin, iloyo buyurmasin!

— Arqon-chi? — dedim sekingina.

— Kerakmas. Yur, bolam, — oyim qo'limdan sekin tutdi-da, odamlar orasidan turtinib-surtinib meni yetaklab ketdi.

PO‘STDUMBALI MOSHKICHIRI

Bu odamni bolaligidan taniyman. O‘shandan buyon uning bittayam tuki o‘zgarmagan, desam lof bo‘lmaydi. Uyog‘ini so‘rasangiz, unda tukning o‘zi yo‘q: ko‘sa. U har kuni ertalab bir vaqtda darvozamiz oldidan mahalla guzari tomonga o‘tib ketadi. Qishda kuya yegan telpak, mushtdekkina gavdasiga yarashmagan uzun kamzul, oyog‘iga kalish-maxsi kiyib yuradi. Yozda bo‘lsa dumaloq, qozonnusxa baxmal do‘ppisini bostirib oladi.

Qo‘lidagi xo‘jalik sumkasi ham kamida yigirma yil sidqidildan xizmat qilgan. G‘ij-g‘ij suriladigan zanjirining tishlari to‘kilib, yakkam-dukkan bo‘lib qolgan. Bandining tasmasi bir necha joyidan yamalgan. Sumkaning ichida nima borligini yaxshi bilaman. Tishi to‘kilgan alumin taroq, boshingizga tegishi bilan bir hovuch sochingizni yulib oladigan qo‘l mashina, qayish bilan olishaverib ixcham tortib ketgan ustara. Xullas, butun mahallaga dong‘i ketgan Naim sartaroshning jamiki ashyolari shu sumkada joylashgan.

U meni yaxshi tanimaydi: o‘zining do‘koniga chiqadigan mijozlardan boshqa odam bilan ishi yo‘q. Ammo onamni qattiq hurmat qiladi. Darvoza oldidagi skameykada o‘tirgan oyimni ko‘rib, darrov to‘xtaydi.

— Baxay, poshsha opa, bardamgina bormisiz? — deydi ingichka ovozda. — Nevaralar chopqillab yurishibdimi?

Qiziq, oyim negadir uni ko‘p ham yoqtirmaydi. Ammo dilini og‘ritmaydijam.

— Shukur, — deydi sekin. — O‘zingiz yaxshi yuribsizmi? Ovsinim bardammilar?

— Yuribmiz tuproqdan tashqari! — deydi Naim sartarosh yo‘lida davom etib. — Ovsiningiz ham tuzuk. Beli og‘rib yotibdi.

Oyim sidqidildan maslahat beradi.

— Kepak qizdirib bossinlar. Uch kunda san ko‘rman ko‘r bo‘lib ketadilar.

— Bosdim. Tuproqqayam ko‘mdim. Foydasi yo‘q, — Naim sartarosh sumkasini beparvo silkitib qo‘yadi. — Yoshligidayam belangi edi o‘zi. Aslida boshqasiga uylansam bo‘larkan.

Onam «notavon ko‘ngilga qo‘tir jomashov» degandek miyig‘ida kulib qo‘yadi. Ammo indamaydi. «Bir mo‘min»ning ko‘nglini sindirgisi kelmaydi.

¹Janar - ziqna, qurumsuq.

Naim sartaroshning eski fanerlardan yamab yasalgan do‘koniya yigirma yil ilgari qandoq bo‘lsa, hozir ham o‘shandoq — mahalla choyxonasiga yopishib qo‘nqayib turibdi. Faqat vaqt o‘tishi bilan toliqib bir tomonga qiyshayib qolgan. Besh yil burun avtobus bekatining ro‘parasida yangi oynaband sartaroshxona ochildi. Ammo Naim sartarosh unga o‘tmadi. «Man tahoratsiz tig‘ ushlaydigan yosh bolalar bilan ishlamayman», deb turib oldi. Mahalladagilar ham uning fe‘lini bilishgani uchun indamay qo‘ya qolishdi.

Shu Naim sartaroshning deng, birdaniga meni jini suyib qoldi. Bir kuni ertalab darvoza oldidagi skameykada o‘tirsam, sumkasini ko‘tarib o‘tib qoldi. Salom berdim. U menga qaramay, «valey» deb o‘tib ketdi-yu, nariroqqa borib to‘xtadi. Siyrak sarg‘ish kipriklarini pirpiratib tikilib turdi-da, yangroq, ingichka ovozda so‘radi:

— Hay, manga qara — o‘zingmisan?

Men indamay bosh silkitdim. Naim sartarosh ko‘p yillik qadrdonini birdan topib olgandek quvonib ketdi. Tez-tez yurib yonimga keldi. Sumkasini skameykaning bir chekkasiga qo‘ydi-da, qo‘sh qo‘llab so‘rashdi. Yuziga fotiha tortib, silliq iyagini silab qo‘ydi.

— Bu deyman, do‘kongayam chiqmaysan, — dedi yana ham ingichkaroq tovushda.

— Endi, xizmatchilik...

— Yozuvchi bo‘psan, gazetda ishlavotsan, deb eshitdim, shu rostmi? — Naim sartarosh mening qobiliyatimni chamalab ko‘rmoqchi bo‘lgandek, boshdan-oyoq bir sidra qarab chiqdi.

— Ha, shunaqa, — dedim bosh silkib.

U sumkasini nariroq surib yonimga o‘tirdi. Uzun kamzulining cho‘ntagidan qizg‘ish nosqovog‘ini chiqarib nos otdi.

— Bu diyman, uka, gazetlaringga bizniyam yozsa bo‘lavuradimi? Yo buniyam «ohoni» bormi?

— Qanaqa «ohoni?»

Sartarosh ko‘zini qisib qiqirlab kuldi.

— O‘zingni soddalikka solma, uka. Man hammasini bilaman. «Ohoni» bo‘lmasa Olim parovozni gazeta maqtab chiqarmidi? Birinchi bo‘lib parovoz haydaganmish. Yolg‘on! Qachon qarasa, ko‘mirga botib yuradigan rabochiy edi. Ha, xo‘p, boringki haydagan bo‘lsin. Ha, nima qipti? Hakim naynov-chi! Birinchi

o'qituvchilardan emish. Man bilmasam ekan uni! Jinko'chalik otin oyining qo'lida birga o'qiganmiz. o'lguday zehni past bola edi. Olti oygacha «Haftiyak»ni tushirolmagan. Tag'in bular persanalniy pensaner emish!

Naim sartarosh dunyoning adolatsizligidan tutaqib ketgandek jahl bilan nosini tupurdi, silliq iyagini silab qo'ydi.

— Bular davlatga xizmat qilgan bo'lsa, bizziyam o'tqazib qo'ygan joyimiz bor. Bular Maskovga borgan bo'lsa, manam borganman. Ularni ko'tar-ko'tar qilasanlaru mani yozmaysanlar, shunaqami? Mani suyanchig'im yo'q-da, a?!

Qarasam, Naim sartarosh rostdan xafa bo'lyapti. To'g'risi, uning o'tmishiga o'zim ham qiziqib qoldim.

— Nega yozmas ekanman. Yozaman. Moskvaga qachon borgandingiz?

— Iye, hozir yili esimda qoptimi, uka? O'sha bosmachilarni qiyratib yurgan paytlarimizda edida. O'shanda sanga o'xshagan qirchillama yigit paytim.

Parkat tomonda Rustam sherday qilich o'ynatib yursam, kamandirimiz chaqirib qoldi. «Chinoq ikkovlaring yaxshi jang qilganlaring uchun Maskovga diligat bo'lib borasan», desa bo'ladimi! Yunus chinoq bir qulog'i yo'q bo'lsayam xo'p azamat yigit edi. Ikkalamiz poyizga o'tirdigu qaydasan Maskov deb jo'nadik-vordik. O'n kun deganda yetib bordik. Bu Maskov degani xo'pam katta shahar ekan. Qavat-qavat uylar desang, ko'cha to'la trollobus, aptobus. Yer tagida poyiz yurarkan.

— Metromi? — dedim iljayib. — Toshkentdagiga o'xshagan?

— Metromas, poyiz, — u birdan to'xtab, menga sinchkov tikildi.

— Maskovga borganmisan?

— Yo'q, — dedim yolg'on gapirib.

— E, Maskovga bormabsan — dunyoga kelmabsan! — Naim sartarosh qo'llarini yozdi. — Shundoqqina Qizil Maydonning oldidagi gastinisaga tushdik. Yonboshimizda bozor. Bizanikiga o'xshaganmas. Hammasi paparatka joylashgan. Qaymoq bozor bir tomonda, shirmoy bozor bir tomonda. Kabobpazlar desang ertalabdan urib jigar kabob sotadi. Ammo lekin somon bozorining mazasi yo'q ekan. Qoplari kichkina-kichkina. Bir tuyaga elliktasini ortib kelishadi. Tag'in bir qopi falon pul. Odam ko'pligi danmi, sartaroshxonasi tirband. Bosmachilarni bir yoqli qigandan keyin

shu tomonlarga kelib do‘kon ochaman, deb ko‘nglimga tugib qo‘ydim... Ammo maishat zo‘r bo‘ldi. Maskovda bir oy turgan bo‘sak, shu bir oy ichida Chinoq ikkalamiz xo‘p huzur qildik. Ertalab lip etib bozorga tushib bir kosa qay moq, to‘rtta shirmoy, anjir, xolva obchiqib ko‘k choyni uramiz. Peshinda kabobxo‘rlik, kechqurun lag‘mon deysizmi, po‘stdumba solingan moshkichiri deysizmi, nima xohlasangiz muhayyo. Kechalari choyxonaga chiqamiz. Bir jo‘jaxo‘roz bedanam bor edi desang, o‘zimam Ismoil kaldan bir qo‘yning puliga olgandim. Shuni obketuvdim. Maskovni manman degan bedanalarini qochirdi. Qaytib kelishimizdan ikki kun oldin maylis bo‘ldi.

— Qayerda? — dedim o‘zimni kulgidan zo‘rg‘a tiyib.

— Qatta bo‘lardi, Qizil Maydonning o‘zida bo‘ldi- da... Laklak odam. Chinoq ikkalamiz bir chekkaga borib turdik. Shu payt desang, minbarda turgan kattalardan bittasi yugurib tushib mani quchoqlab olsa bo‘ladimi?

— Kim?

Naim sartarosh siyrak kipriklarini pirpiratdi.

— Nima kim?

— Sizni quchoqlagan kim edi, deyapman.

— Kattalardan bittasi didim-ku! Shundoq quchoqlab u yuzimdan-bu yuzimdan o‘pdi. «Iya, ko‘sa, bahay? San bu yoqlarda nima qilib yuribsan?» deydi. «Mana, Chinoq bilan kep qoldik. Bosmachilarni qiyratganimiz uchun kamandirimiz o‘ynab kelinglar, deb yubordi». «Obbo, san-ey, keganingga shuncha bo‘bdi-yu, nega hovliga o‘tmading, — deydi. — Kechqurun biznikiga o‘tmasang, qattiq xafa bo‘laman, yangangga norin buyurib kelganman», — deydi. «Yo‘q, shoshib turibman. Boshqa mavrudi kep qolar», dedim. «Bo‘lmasa mana bu mukopot sanga», deb haligi odam cho‘ntagidan medal chiqarib choponimga taqib qo‘ydi.

— Qanaqa medal?

Naim sartarosh, «judayam ezma ekansan-da», degandek ijirg‘anib aftini burishtirdi.

— Qattan bilaman! Bunaqa kerak bolishini bilganimda yo‘qotib qo‘yarmidim. — U birpas o‘ylab turdi-da, qo‘shib qo‘ydi. — Endi, uka, san o‘zimizning mahallani bolasisan. U yog‘ini o‘zing kelishtirib bir yozgin, xo‘pmi?

— Bo‘pti, — dedim jilmayib.

U kaftini ochib duo qildi.

— Iloyim omadingni bersin! — Sumkasini ko‘tarib uch-to‘rt qadam nari bordi-da, to‘xtab o‘girilib qaradi. — Agar-chi, uka, shu ish amalga oshib qolsa-chi, har kuni soqolingni o‘zim op qo‘yaman. Tekinga.

— Qaysi ish?

Naim sartarosh qaytib keldi.

— Iye, halitdan buyon qulog‘ingga tanbur chertdimmi? Gazetingda mani maqtab chiqarsang, Olim parovozga o‘xshab personalniy pensa oladigan bo‘lsam, soqolingni har kuni o‘zim op qo‘yaman. Eshitdingmi, og‘ritraasdan olaman.

Men uch-to‘rt kungacha bu gaplarni eslab kulib yurdimu keyin unutib yubordim. Ammo Naim sartarosh unutmagan ekan. Qaysi kuni avtobus bekatida meni ko‘rib qoldi. Ataylab poylab turgan ekan shekilli, mahkam ushlab oldi.

— Anu narsani yozdingmi-yo‘qmi? — dedi ochiqdan-ochiq dag‘dag‘a bilan.

— Yozdim.

— Ha, mana, bu boshqa gap. — Naim sartaroshning yuzi yorishib ketdi, — Yigit kishining gapi bitta bo‘ladi. Qachon chiqadi endi?

— Erta-indin chiqib qolsa kerak. Hozir tekshirishyapti, — dedim nihoyatda xotirjam ohangda. — Agar rost bo‘lsa, maqolani chiqarib sizga personalniy pensiya tayin qilisharkan. Agar noto‘g‘ri bo‘lsa, sudga berisharkan.

Naim sartarosh bir lahza ko‘zlarini pirpiratib angrayib qoldi.

— Labbay! So‘tga! Kimni so‘tga beradi?

— Siz bilan meni. Yolg‘on gapirganingiz uchun sizni, yolg‘on yozganim uchun meni. — Shunday dedimu burilib ketaverdim.

Bir lahzadan keyin orqadan Naim sartaroshning ingichka ovozi eshitildi.

— Hoy uka, to‘xtang! Hoy o‘g‘lim.

To‘xtab, burilib qaradim.

— Nima gap?

— Manga qarang, uka, — dedi u entikib. — Keling, o‘sha narsa chiqmasa chiqmay qo‘ya qolsin.

— Iya, nega endi?! Men yozib topshirib qo‘ygan maqolani qaytib ololmayman.

Uch-to‘rt qadam bosgan edim, Naim sartarosh pildirab kelib yo‘limni to‘sdi.

— Manga qarang, o‘g‘lim, shu narsani bosdi-bosdi qilib yuborsangiz-chi, har kuni soqolingizni ikki martadan op qo‘yaman. Shundoq qiling, jon uka.

— Iya, nega axir? Persanalniy pensiya olsangiz yomonmi?

— Xo‘p deng, jon uka. Och qornim, tinch qulog‘im. Shu ishni tinchitib yuboring. Man so‘zimning ustidan chiqadigan odamman. Aytдим-ku, har kuni ikki martadan soqolingizni olib qo‘yaman. Uyingizga borib olaman.

Men juda qiyin muammo ro‘parasida qolgan odamday, yelkamni qisdim.

— Mayli, bir urinib ko‘raman. Ammo bu juda mushkul ish-da...

Sartarosh o‘sha kuni meni uyimgacha kuzatib qo‘ydi. Kuzatib qo‘ydi-yu, baribir tinchimadi. Kechasi allamahalda eshik taqillab qoldi. Chiqsam, sartarosh qiyiqchaga o‘rog‘liq bir narsani ko‘tarib turibdi.

— Nima bu? — dedim hayron bo‘lib.

— Issig‘ida yeb ola qoling! — U tugunchani uzatdi. Moshkichiri. O‘z qo‘lim bilan pishirdim.

— E, Moskvadagi moshkichiridan deng?

— Moskovni moshkichirisi qatta endi, uka! Unga qora qo‘chqorning po‘stdumbasi solinardi. Bunisining mazasi yo‘qroq. Shundoq bo‘lsayam, ilindim. Oling, qo‘lim qaytmasin.

Mayli, sazasi o‘lmasin deb sartaroshning sovg‘asini oldim.

Ichkariga kirib qiyiqchani ochsam, ustiga ko‘k piyoz sepilgan moshkichiri. Insof bilan aytganda qoyilmaqom qilib pishiribdi. Uch-to‘rt qoshiq olgan ham edimki, oyim kirib qoldi.

— Nima bu? — dedi hayron bo‘lib.

Iljaydim.

— Pora!

Onam yonimdagi stulga o‘tirib qoldi.

— Nima?

Kulib yubordim.

— Pora! Naim sartarosh pora obkepti.

Oyim goh menga, goh «garimdori» nusxali kosaga qarab birdan rangi o‘chdi.

— Endi shu hunarni o‘rgandingmi? — dedi rostakamiga ranjib.

— Adang senga pora yeyishni o‘rgatgan emasdilar shekilli.

Qarasam oyim chindan ham xafa bo‘ladigan. Ishtaham bo‘g‘ildi. Kosani nari surdim. Oyim jirkangandek, qiyiqchani ikki

barmog'i orasida qisib ushladi-da, ayvonga opchiqib tashladi. o'sha yoqdan allanima deb o'ziga-o'zi gapirgani eshitildi... Biroq Naim sartaroshning porasi bari bir zimmamda turibdi. U haliyam kosasini olib ketgani yo'q. Shunga qaramay, eshitishimcha, endi choyxonada Olim paravoz undoq, Hakim naynov bundoq, menam persanalniy pensiya olishim kerak, degan gaplarni aytmaydigan bo'libdi.

OLTIN BALDOQ

Odamda, harchand uringani bilan o'zgartirolmaydigan g'alati fe'l-atvorlar bo'ladi. Mening ham qiziq odatim bor: birovni ranjitib qo'ysam (adolatli xafa qilgan bo'lsam ham) o'sha odamdan ko'proq o'zimning dilim vayron bo'lib yuradi. Bu odat onamdan yuqqan shekilli.

Oyim bizlarga hech qattiq gapirmas, mabodo xafa qilib qo'ysa birpasdan keyin o'zi yalinar edi. Faqat bir marta meni qarg'agan, yomon qarg'agan. O'shanda ayb kimda bo'lganini hali ham bilmayman.

Bahor kirib, oftobning iliq nurlari yelkani qizitadigan bo'lib qolgan kunlar edi. Bodom tagida o'tirib varrak yasashga tushdim. O'rikning yelimi qog'ozga yopishsa qamishga yopishmaydi, qamishga yopishsa qog'ozga... Burnimni tortib-tortib urinib yotibman. Oyim nariroqda, tagiga po'stak tashlab, kir yuvyapti. Dadam «kambag'albop kiyim» deb aka-ukalarga chiyduxoba shim olib bergan. Chiyduxoba asli yaxshi narsa-yu, chillak o'ynagandami, koptok tepgandami, bir dumalasang, ora-orasiga loy kirib ketishi yomon. Uch kunda bir yuvaverib, onamning esi ketadi. (Xuddi shu chiybaxmal zamonlar o'tishi bilan butun Yevropaga moda bo'lishini dadam xayoliga ham keltirmagan bo'lsa kerak. Uning uchun chiyduxoba «kambag'albop kiyim» edi, xolos.) Xullas, oyim unisini olib bunisini qo'yib, shimlarni yuvar, har siltab ishqaganda jomashovdan ko'pik sachrar, atrofni sovun hidi tutib ketgan edi. Uning ro'parasida Sepkilli xola to'nkarilgan paqir ustida o'tirardi.

Sepkilli xolani yomon ko'raman. O'zinimas, qizini. «Saini senga beraman, olsang ham olasan, olmasang ham, — deydi, — olmasang tugun-tersagi bilan uyingga opchiqib tashlayman, kichkinaligingda qulog'ini tishlagansan», deydi. Saini qulog'ini

tishlagandan ko'ra kuchugimning qulog'ini tishlayman. Saida yomon: o'g'il boladan battar. Lanka tepayotganda bir urib Toyning burnini qonatgan.

Sepkilli xola to'ng'arilgan paqir ustida o'tirib nuqul hasrat qilar edi:

— Kechasi bilan tishim o'lgur shundoq og'ridi, shundoq og'ridi, jonimni qo'yishga joy topolmadim. — U sepkil bosgan lunjini silab qo'ydi.

— Isiriq damlab chayqamadingizmi? — deb maslahat berdi oyim hamon engashib kirni g'ijimlar ekan.

— E, hammasini qildim! — Sepkilli xola yana inqilladi. — Achchiqtochgayam g'arg'ara qildim. Qani bosilsa!

Ikkovlari bir zum jimib qolishdi.

— Uff! Isib ketdim! — Oyim ko'pikli qo'lini sidirib, yoqasi bo'g'iq to'rko'ylagini yechdi-da, chekkaga tashladi.

— O'lmagan qul, bahorgayam chiqdik. — Sepkilli xola xo'rsindi. — Shu yil kuzda Hakimimning boshini ikkita qilib qo'ysak degandik. To'y qilish osonmi? Hali unisi yetmaydi, hali bunisi... Otasining ahvoli bu bo'lsa...

Sepkilli xola eridan ko'p shikoyat qilardi. Chindan ham Isroil mo'ylov ko'p ichadi. Ishining tayini yo'q. Buning ustiga ichib oldimi, tamom, uy ichini tiriqtirib quvadi. Sepkilli xola ko'pincha Saidani dikonglatib biznikiga qochib chiqadi. Yarim kechada, eri uxlaganidan keyin sekin uyiga chiqib ketadi.

— Hakimjon hali yosh-ku, — dedi oyim o'ychanlik bilan. — Bu yil bo'lmasa, yanagi yilga bo'lar to'yi...

— Shundoq deysizu quda tomon shoshiryapti. — Sepkilli xola yana inqilladi. — Shu o'lgurni oldirib tashlab qutulaman shekilli. Kecha dadasiga tish qo'ydirsammikan, desam, otangni xumga ko'mib qo'ygan tillalarini olib kelib qo'ydiraver, deydi... Hayronman, bisotimdagi bitta bilaguzugimni beraman shekilli. Og'zimni o'radek ochib yursam uyat bo'lar.

...Varragimni yelimlab bo'lib, endi qamishini tortib bog'lagan edim, qars etib sindi. Qamish sinsa mayli-ya, qog'ozniyam yirtib yubordi. o'zim katta akamga yalinib-yalinib arang olgan edim. Tamom, hammasi tamom bo'ldi. Alamimdan yig'lab yuboray dedim. Varrakni bir tepgan edim, yerga yopishib qoldi.

— Ha? — dedi Sepkilli xola. — Nima qildi, kuyov bola?

— Sindi.

— Akangga ayt, boshqasini yasab bera qolsin.

Yasaydi-ya, yasaydi! Mendan boshqa ishi yo‘qmi? Maktabdan beri kelmaydi-ku. Alam bilan varrakni yana bir tepdim-da, ko‘chaga chiqib ketdim. Shu ketgancha, kun botganda qaytib keldim. Hovlidagi arqonda qator qilib ilingan shimlar, ko‘ylaklar... Bir chekkada bizning «qushim boshi» o‘ynaganda loyga qorishaverib, unniqib ketgan do‘ppi ham qiyshayib turibdi. Oyim nimqorong‘ida bodom tagida timirskilanib yuribdi.

— O‘lsin, echkiyam sog‘ilmadi, — dedi meni ko‘rib. — Yur, ushlab tur.

Echkimiz yuvosh bo‘lgani bilan ba‘zan «jini» tutib qolar, sog‘ib bo‘lguncha tipirchilab, odamni bezor qilardi. Shunda kichik akammi, menmi birontamiz cho‘nqayib uning orqa oyoqlaridan mahkam ushlab turishga majbur bo‘lardik. Hech ham yoqmaydigan bu mashg‘ulot bugun mening zimmamga tushishini bilib, qochib qolishni mo‘ljallab turgan edim, oyimning jahli chiqib ketdi:

— Sen qachon odam bo‘lasan, zumrasha! Yoshing to‘qqizga chiqibdi-yu, ko‘chada shataloq otishdan beri kelmaysan! Hech foydang tegmasin, xo‘pmi!

— To‘qqizdamas, sakkizda, — dedim chiyillab.

— O‘chir ovozingni! — Oyim bir dag‘dag‘a qilgan edi, istar-istamas borib echkining oyog‘idan ushladim.

Echki bari bir echki-da! Pitir-pitir qilgani ham mayli-yu, oyim sog‘ayotganida, iyib ketsa qiladigan xunuk «qilig‘i» bor. Keyin yarim soat ko‘ylakning oldini tozalashga to‘g‘ri keladi...

Oyim naridan-beri ishini tugatdi-da, buyurdi:

— Yechib yubor anovi savillarni!

Uloqchalarni arqondan bo‘shatishim bilan ikkalasi dikonglab onasining yeliniga yopishdi. Oyim bo‘lsa sutni tovoqlarga soldida, yana bodom tagida timirskilanib bir nimani qidira boshladi.

— Nimani qidiraysiz? — dedim yaqin borib.

Boya urishgani uchun o‘zi achinib turgan ekan shekilli, yelkamga qoqdi.

— Hech nima. Bor, ovqatingni ye, qorning ochib qolgandir.

— Keyin birdan qaddini rosladi-yu xitob qildi. — Voy, qayoqdan kun chiqdi?! Assalomu alaykum!»

O‘girilib qaradimu uch-to‘rt qadam narida turgan ammamga ko‘zim tushdi. Oyim mehmonni ko‘rmay qolganidan xijolat chekib

quchoq ochib ko‘rishdi. Ammam juda chiroyli, yuzida xoli bor, qosh-ko‘zi chaqmoqdek xotin. Ammo juda shaddod. Har gapini xuddi mix qoqqandek tarsillatib gapiradi. Oyim undan qo‘rqadi. Kelganda hurmatini joyiga qo‘ymasin-chi, o‘zini qayerda ko‘rarkan.

— Ha? — dedi ammam yo‘g‘on tovushda. — To‘rvasini yo‘qotgan gadoydek talmovsirab qopsiz, kelinposhsha?!

— Yo‘q, opa, o‘zim... — Oyim chaynalib qoldi. — Ziragim o‘lgurning bir poyi tushib qopti. Haligina qulog‘imda turuvdi.

Qarasam, oyimning o‘ng qulog‘idagi ziragi yo‘q. Oyim kattakon oltin oybaldog‘ini juda avaylar, qaynonamdan qolgan yodgorlik, deb maqtanib yurardi.

— Mayli, topilib qolar, — dedi u sekingina. — Shu yerga tushgan bo‘lsa qayoqqa ketardi.

— Hmm! — Ammam shunday tahdidli bosh chayqadiki, qorong‘i bo‘lsa ham qoshi chimirilib ketganini aniq ko‘rdim. — Ketsa, boydan ketibdi, deng! Belingiz qayishib topmaganingizdan keyin joningiz achimaydi-da, kelinposhsha!

Ammam qo‘lidagi tugunni menga tutqazib, o‘zi ham maxsili kalishining uchi bilan yerni titkilay boshladi.

— Qo‘ying, opajon, — oyim uning yelkasiga ohista kaftini qo‘ydi. — Yuring uyga, hali-zamon ukangiz kelib qoladilar.

— O‘zi shunaqa bo‘ladi, — dedi ammam yerdan bosh ko‘tarmay. — Ot topadi, eshak yeydi! — Keyin birdan qaddini rosladi-da, oyimning ko‘ziga tikilib so‘radi. — Kim kirgan edi oldingizga?

— Hech kim. — Oyim bir zum talmovsirab turdi-da, sekin qo‘shib qo‘ydi. — Hali peshinda Sharopat opa keluvdi. Shu...

— Sharapatmi? — Ammam «tushunarli» degandek istehzo bilan labini burdi. — Bo‘pti, omin oblohu akbar!

Hali oyimning oldida paqir to‘nkarib o‘tirgan Sepkilli xola ko‘z o‘ngimga keldi.

— Qo‘ying, — dedi oyim yalingudek bo‘lib. — Bechorani unaqa demang. Bir poy zirakni nima qiladi?

— Pishirib yeydi! — Ammam jahl bilan qo‘l siltadi. — Qo‘li egriligini bilasiz, o‘lasizmi ehtiyot bo‘lsangiz?

— Yo‘g‘e, — dedi oyim yana ming‘illab. — Bir poy zirakni nima qiladi?

— Yana gapiradi-ya! — Ammamning ovozi tahdidli ohangda

balandladi. — Mana shu bir poy zirak qancha turishini bilasizmi? — dedi oyimning chap qulog‘idagi oybaldoqni barmog‘i bilan nuqib. — O‘zi-ku to‘yga borsa, qo‘liga ilingan narsani tuguniga tiqadi.

Oyim nima qilarini bilmay, javdirab qoldi. Dadam ikkalasi Sepkilli xolaning g‘alati qiliqlarini gaplashishganini eshitganman. To‘ylarda laganmi, piyolami yo‘qolsa Sepkilli xolaning uyidan topishar, xola «esidan chiqib» uyga olib ketgan bo‘lardi. Hozir shuni esladimu goh oyimga, goh ammamga qarab qoldim. Sepkilli xolani juda yomon ko‘rib ketdim.

— Ukangiz eshitmay qo‘ya qolsinlar. — Oyim yana yalindi. — Topilib qolar.

— Go‘rni topiladi! — Ammam qandaydir g‘olibona qiyofada uy tomon yurdi. Ketidan kuymangancha oyim ham ergashdi.

Ertasiga ertalab tursam, oyim yana bodom tagini sinchiklab ko‘zdan kechiryapti. Kechasi bilan uxlamagan shekilli, ko‘zlari qovjiragan... Men ham yordamlashdim. Biroq oybaldoq ertasiga ham, indiniga ham topilmadi. Oyim dadam bilmasligi uchun zirakning ikkinchi poyini ham imi-jimida allaqayerga yashirib qo‘ya qoldi.

... Ehtimol, oradan ikki oycha o‘tib Sepkilli xola tilla tish qo‘ydirmaganida, buning ustiga xuddi o‘sha kuni ammam yana kelib qolmaganida, zirak ham, bu gaplar ham unutilib ketgan bo‘lardi.

Ayni yoz chillasida ammam tag‘in keldi. Yoz chillasi ekani shuning uchun yodimda qolganki, o‘sha kuni ammam ikki bosh chillaki uzum olib keldi. Shaharda turishsa ham ularnikida tok bor edi. Akalarim bilan bir g‘ujum-bir g‘ujumdan talashib yedik. Qishloqni bilasiz, birovnikiga mehmon kelsa, albatta qo‘shnilar chiqadi. O‘sha oqshom birinchi bo‘lib Sepkilli xola chiqdi. Ammam bilan aylanib-o‘rgilib ko‘rishdi. Keyin oyimga yuzlandi.

— Yarashibdimi? — U ustki labini barmog‘i bilan sal ko‘targan edi, ikkita oltin tish yaraqlab ketdi.

Tishlar uning sarg‘ish yuziga juda yarashgan, hatto sepkili ham bilinmay ketgan edi.

— Yarashibdi, — dedi oyim sekingina. — Bilaguzugingizni berdingizmi?

Sepkilli xola negadir qizardi.

— Voy, yo‘q, — dedi ko‘ylagining yengini shimarib.

— Mana! Dadasi aytdilar. «Bermagin, keliningga ko‘rmana

qilasan», — dedilar. — U tilla tishini koʻrsatish uchun boʻlsa kerak labini buribroq jilmaydi. — Ancha insof kirib qoldi dadasiga. Hakimjonning toʻyini tezlatib yubordik, ovsinjon! Xudo xohlasa, kuzda qars-badabang bazm qilamiz.

— Asil tilla ekan! — dedi ammam achitib. — Buyursin ishqilib!

Sepkilli xola xursand, oyim nimadandir bezovta, ammam boʻlsa chimirilib oʻtirardi.

— Ertalab choyni biznikida icha qoling, — deb taklif qildi Sepkilli xola.

— Yoʻgʻ-a, men saharlab ketishim kerak! — ammam yuzini oʻgirdi.

Biroq u ertalab ketmagan ekan. Ammamning qattiq-qattiq gapirishidan uygʻonib ketdim.

— Birovning molidan hazar qilmagan noinsof! Hech boʻlmasa qoʻshniligingni oʻylamaysanmi! Tish yasatish uyoqda tursin, ming koʻyga solsayam, onaginamdan qolgan molni taniyman.

— E, bunaqalarda insof nima qiladi! — Bu onamning ovozi emasdi. Koʻrpaning bir chetidan oʻralasam, mahallaning otin xolasi — semiz xotin. — Qaysi kuni Inoy choʻloqning yil oshisida ikkita choynak yoʻqoldi, — dedi u hasrat qilib.

— Shundan boshqa it ham olmaydi, deb oʻchoqboshisiga kirsam, turibdi. Tumshugʻidagi chegasidan tanidim. «Ha?» desam, «Adashib kirib qolgandir-da», deydi. Ha, yer yutgur, choynakning oyogʻi bor ekanmi, senikiga oʻzidan-oʻzi adashib kiradigan!

— Tagʻin erini maqtaganiga oʻlaymi? Insof kirib qolgan emish!
— Ammam jahl bilan qoʻlini musht qilib, xontaxtaga botirgan edi, barmoqlari shiqirlab ketdi. — Oʻlganda insof kiradi, oʻsha bangi moʻylovga.

Oyim choy koʻtarib kirdi.

— Qoʻyinglar endi, — dedi iltijoli ohangda. — Olgan boʻlsa olgandir. Birovning qoʻlidan tutmagandan keyin nima deysiz? Mayli, mingdan-ming roziman.

— Siz unaqa boyvachchalik qilrang, kelinposhsha! — dedi ammam shaxt bilan. — Bolangizni kiyintiring. Oʻzingiz ham otlanib darrov oldimga tushing!

Oyim choynakni xontaxtaga qoʻyarkan, goh ammamga, goh otin xolaga hayron boʻlib qaradi.

— Qayoqqa?

— Ochiq mozorga! — Ammam hammasiga oyim aybdordek

piching qildi. — Mahallamizda folbin bor. Suf desa, ariqdagi suv teskari oqadi. O‘shanga oboraman. Mana, otin ham guvoh bo‘ladilar, qaytarma qildiramiz. Qani, bo‘yniga olmay ko‘rsinchi.

Oyim boshini quyi solgancha turib qoldi. Chamasi ikkilanar edi.

— Endi, — dedi chaynalib, — ko‘zdek qo‘shni bo‘lsak...

— Ho-o! — Ammam o‘rnidan turib ketdi. — Beli og‘rimaganning non yeyishini tomosha qilinglar! Onaginamdan qolgan bitta-yu bitta yodgorlik yo‘q bo‘lib ketaverarkanu qo‘shningizga joningiz achib qoldimi? Mening sovunimga kir yuvmabsiz hali. Haq joyida qaror topmaguncha, qo‘ymayman. — U menga o‘girildi-da, ovozini muloyimlatdi. — Mana, bola bilan fol ochadi. Norasta bola rostini aytadi. Borasanmi?

— O‘rnimdan irg‘ishlab turib ketdim.

— Boraman! Boraman! — dedim baqirib.

Bo‘lmasa-chi, ammamnikiga borsak, tramvayga tushamiz! Maza qilib uzum yeyman!

Choy ichib bo‘lgandan keyin, ammam, oyim, otin xola, men — to‘rtovlashib yo‘lga chiqdik. Beshyog‘ochga yetib borsak, bo‘ldi. U yog‘iga tramvayga o‘tiramizu jiring-jiring qilib ketaveramiz. Maza!

Mazalikka mazaku-ya, biroq Beshyog‘ochga yetib olguncha ancha gap bor-da! Do‘mbrobodga chiqishimiz bilanoq botinkam oyog‘imni siqa boshladi. Yechib, qo‘limga olvoldim. Yozning tong pallasida yalangoyoq tuproq kechib yurishning zavqi boshqacha bo‘ladi. Undek mayin, salqin tuproq barmoqlaringiz orasidan bilq-bilq otilib chiqadi. Ketaverasiz, ketaverasiz, hecham charchamaysiz.

Laylaktepadan o‘tib Qozirobodga borganda qaynama buloqdan muzday tiniq suv ichdik. Keyin Chilonzor keldi. Yo‘lning shundoqqina bo‘yida oqish yaprog‘ini chang bosgan, tikanlari «tish qayrab» turgan chakalakzor — chilon jiydalar (shuning uchun bu yerni Chilonzor deyiladi). Yo‘lning ikki chetida nok ko‘p — nashvati nok, tosh nok, gulobi nok. Nok hali pishmagan. Faqat tagidan o‘tayotganingizda tuproqqa to‘kilgan bargi tovoningizga yopishib, g‘ashni keltiradi.

«Siymonko‘prik»dan o‘tishning o‘zi bir tomosha. Terak bo‘yi chuqurlikda suv qorayib oqadi. Mo‘ralasangiz boshingiz aylanadi.

Oyim ko‘prik chetiga borishga qo‘ymaydi: suv chaqirarmish, odam o‘zidan o‘zi tushib ketarmish... Ko‘prik o‘rtasidan ot-aravalar, eshak-aravalar qatorlashib o‘tadi. Bir tomondagisi o‘tguncha ikkinchi tomondagisi poylab turadi. Aravakashlar so‘kingan, eshaklar hangragan, og‘zidan tupugi osilgan, ustiga qop-qop somon tog‘dek uyulgan tuyalar ham o‘tib qoladi. Shu ko‘prikdan o‘tilsa, tramvayning g‘iyqillagani eshutilib turadi —uyog‘i Beshyog‘och.

... Ammam aytgan folbinni xuddi Acha xolamga o‘xshagan lo‘li bo‘lsa kerak, deb o‘ylagandim. Yo‘q, boshqacha ekan. Tramvaydan tushgandan keyin ikki tomonidagi devorlardan pishgan o‘riklar mo‘ralab turgan jinko‘chalardan o‘tdik. Keyin gulsafarlar o‘sib yotgan allaqanday zahkash, katalakdek hovliga kirib qoldik. Yerto‘la soyasida yotgan kuchukni ko‘rib, to‘xtab qoldim. Xuddi o‘zimning gurji kuchugimga o‘xshash kichkina, faqat qora emas, oppoq ekan. Negadir akillamadi ham.

To‘rttovlashib ayvonga chiqdik. Oppoq ro‘mol o‘ragan, keng yengli ko‘ylak kiygan yumshoqqina kampir kulimsirab qarshi oldi. Shu xotinning folbin ekaniga ishongim kelmasdi.

— Aynovniy, — dedi u yuzimdan o‘pib. — Muncha shirin bu bola!

Ayvon vassajuftiga to‘rqovoq ilingan, to‘rqovoqdagi bedana sayramas, ammo hadeb sakrar, har sakraganda sholcha ustiga allaqanday don to‘kilar edi. Bedanani tomosha qilib o‘tirarkanman, ammam bo‘lgan voqeani tushuntirib berdi.

— Yuringlar, — dedi kampir o‘rnidan turib. Keyin mening yelkamga qoqdi.

— Sen ham yur, shirin bola.

Hammamiz birgalashib devori xomsuvoq qilingan, pastak tokchalariga barkashlar, allaqanday arabcha kitoblar taxlab qo‘yilgan nimqorong‘i xonaga kirdik. Kampir indamay chiqib ketdi. Ammam, oyim, otin xola, men — hammamiz shaparak ko‘rpachaga tizilishib o‘tirdik. Bir mahal kampir bir qo‘lida kattakon chinni kosa, bir qo‘lida choyshabga o‘xshash oq mato ko‘tarib kirdi.

— Sen bunday o‘tir, shirin bola, — dedi menga imo qilib. Xonaning o‘rtasiga meni o‘tqazib qo‘ydi. — Oyog‘ingni uzatib o‘tir. Yo‘q, oyog‘ingni ochibroq o‘tir.

Kampir aytgandek qilib o‘tirgan edim, u oyog‘imning orasiga

kosani qo'ydi. Qarasam, kosa to'la suv.

— Suvga qarab o'tir, — dedi u muloyimlik bilan. — Men duo o'qiyman, sen ko'zingga kim ko'rinsa o'shani aytasan. — Shunday dedi-yu ustimga choyshabni yopdi. Bir zumda hammayoqni zulmat qopladi. Kampir men tushunmaydigan allanimalarni gapira boshladi. Birpasda damim qaytib ketdi. Yuragimni vahima bosdi.

— Oyi-i-! — dedim yig'lamsirab.

Kimdir yelkamga turtdi:

— Jim o'tir, oying qochib ketgani yo'q.

Ammamning zardali ovozi eshitib, damim ichimga tushib ketdi. Ko'zim endi g'ira-shira ko'ra boshladi. Biroq, kosada xira yaltirab turgan suvdan boshqa narsa ko'rinmas edi. Kampir hamon bir ohangda allanimalar der, ko'z o'ngimda xira yiltirayotgan suvdan bo'lak narsa ko'rinmas edi. Oradan ancha o'tdi. Qimirlamay o'tirganim uchun bo'ynim, oyog'im og'riy boshladi. Meni shuncha azobga qoldirgan ammamni ham, Sepkilli xolani ham yomon ko'rib ketdim. Sepkilli xola oyimning ziragini o'g'irlamaganida hozir maza qilib o'ynab yurgan bo'lardim. Shularni o'ylab o'tiraverdim, o'tiraverdim... Bir mahal qarasam, suv ichida Sepkilli xola mo'ralab turibdi. Nuqul kuladi. Hatto yuqori labi ostidagi ikkita tilla tishigacha aniq ko'rdim. Jonholatda baqirib yubordim:

— Sepkilli xola! Ana, Sepkilli xola!

Birpasda ustimdagi choyshabni olishdi. Qo'rqqanimdanmi, nafasim qaytgani uchunmi, terlab ketgandim.

— Gumoningiz to'g'ri ekan, — dedi folbin kampir oyimga emas, ammamga qarab. — Xudo xohlasa, olgan molini qaytarib beradi, eshonoyi!

— Ana, aytmadimmi! — ammam g'olibona qiyofada atrofidagilarga birma-bir qarab chiqdi. — Borib itning kunini boshiga solmasam yurgan ekanman!

O'sha kuni ammamnikida yotib qoldik. U o'zi aytganidek, ertasiga Sepkilli xolaning boshiga «itning kunini soldi». Uch xotin meniyam yetaklab qo'shninikiga chiqishdi. Sepkilli xola supaga bo'yra yozib paxta savab o'tirgan ekan. Savag'ichni har urganda gup-gup etgan tovush chiqadi, chang ko'tariladi. Eshikdan kirib kelayotgan mehmonlarni ko'rib, savag'ichni ushlaganicha dik etib o'rnidan turdi. Endi ko'rishmoqchi bo'lib quchog'ini yozgan edi,

ammam bobillab berdi:

— Birovning moliga tish qo‘ydiradigan haromxo‘r bilan ko‘rishmayman!

Sepkilli xola qo‘lidagi savag‘ichni osiltirgancha talmovsirab qoldi.

— Bu... bu nima deganingiz, eshonoyi? — dedi rangi o‘chib.

— Bu deganim shuki, o‘g‘irlagan narsangizni joyiga qo‘ying! Sepkilli xolaning rangi battar o‘chib ketdi.

— Nimani o‘g‘irlabman? — dedi ovozi qaltirab. — Ayting, nimani olibman?

— E qo‘ying-e! — ammam jahl bilan qo‘l siltadi. — Kelinimning ziragidan tish yasatib olib, tag‘in o‘zini go‘llikka solib o‘tiribdi. — U otin xolaga yuzlandi. — Mana, guvoh! Norasida bola bilan fol ochirdim. Aniq-taniq sizni aytdi.

— Voy o‘lmasam! — Sepkilli xolaning qo‘lidan tayog‘i tushib ketdi. — Bu qanaqa tuhmat! — dedi yig‘i aralash. Keyin oyimga yuzlandi.

— Uyalmysizmi, ovsin poshsha! Mana, ne niyatda o‘tiribman. Agar ninangizga tekkan bo‘lsam, niyatimga yetmay! — Keyingi so‘zlar uning bo‘g‘izidan yig‘i aralash otilib chiqdi. — To‘rtta bolamning o‘ligini ustida o‘tiray, xo‘pmi!

— Voy, ovsinjon, voy gapingiz qursin! — dedi oyim ovozi titrab. — Qaytib oling gapingizni! Olgan bo‘lsangiz ham mingdanming roziman!

— E, yana, gapiradi-ya! Boyvuchcha bo‘lmay tusingni yel yesin! — Ammam shahd bilan burildi-da, nari ketdi. Darvoza oldiga borganida orqasiga qayrilib qaradi. — Yaxshisi bo‘yningizga oling, bo‘lmasa, qiyomatda azobini tortasiz!

Zum o‘tmay ammam bilan otin xola chiqib ketishdi. Sepkilli xola hamon piqillab yig‘lar, oyim supa oldida boshini xam qilgancha mung‘ayib turar edi.

— Iloyo tuhmat qilgan tuhmat balosiga uchrasin!— dedi Sepkilli xola yig‘lab. — Iloyo niyatiga yetmasin!

— Qo‘ying, ovsinjon. — Oyimning o‘zi ham yig‘lab yuboray deb turardi. — Xudoyo o‘sha bir poy zirak o‘lsin! Ko‘nglingizga olmang, jon ovsinjon!

— Tuhmat balosiga uchramasa, rozimasman! — Sepkilli xola shunday dedi-yu yig‘lagancha uyiga kirib ketdi.

Oyim bir zum supa oldida turdi-turdi-da, birdan menga

o'shqirdi:

— Nimaga serrayib turibsan? Yo'qol ko'zimdan, juvonmarg!

Yomon bo'ldi. O'sha kundan boshlab Sepkilli xola oyim bilan yuzko'rmas bo'lib ketdi. Ammo eng yomoni yana ikki oycha o'tgach, salqin tushgan kunlardan biri-da bo'ldi.

O'sha kuni maktabdan qaytsam, oyim sandiq ustiga muk tushib o'tiribdi. Issiq kiyimlarni sandiqdan olgan shekilli, uy ichini kuya dorining hidi tutib ketgan, bumazi ko'ylaklar, choponlar, quloqchinining ipi uzilgan telpaklar yer bilan bitta bo'lib yotibdi. Yig'layverib, oyimning ko'zlari shishib ketgan. Dadam urgan bo'lsa kerak, deb qo'rqib ketdim. Sekin oldiga keldim. U bo'lsa qayrilib qaramadi. Qo'lidan ushlagan edim, oyim ilon chaqqandek qo'lini tortib oldi.

— Sen bolani yer yutsa bo'lmasmidi! — dedi g'azabdan ko'zi yonib. — Shu kuningdan ko'ra o'lib qo'ya qolsang bo'lmasmidi, yer yutkur!

Oyim hech qachon bunaqa qarg'amagani uchunmi, yig'lab yuboray dedim.

Ammo shuncha yomon gapni to'satdan eshitganimga karaxt bo'lib qolgan edim.

— O'shanda nega unaqa deding, bo'yginang lahatda chirigur! — dedi u yana dag'dag'a bilan.

— Qachon? Nima dedim?

— Folbinnikida, go'rso'xta, folbinnikida! — Oyim ovozi boricha chinqirdi. — Nega Sepkilli xolamni ko'rdim, deding?

— Nima qilay? — dedim alamdand chiyillab. — Ko'zimga ko'ringanini aytdim-da!

— Mana-ku, ko'zginang teshilgur, mana-ku! — Oyim kaftidagi allanimani yerga uloqtirdi. Oltin baldoq yerga tushib jiringlab sakrab ketdi.

— To'rko'ylagimga ilijnib qolgan ekan-ku! Yo'qot, ko'zimdan yo'qot! Bir begunohga tuhmat qilgandan ko'ra o'lganim yaxshimasmi! — U birdan meni quchoqlab, yuzimni yuziga bosgancha hiqillab qoldi. — Endi nima qilamiz, jon bolam!

Oyimning ko'z yoshi birpasda yuzimni jiqqa suv qilib yubordi.

— Nima qilamiz, o'g'lim! Bu sharmandalikka qandoq chidayman, o'g'iljonim! — Oyim madori qurigandek, sandiq ustiga muk tushib qoldi.

Oradan ko'p o'tmay to'y bo'ldi. Sepkilli xola oyimni to'yga

aytmadi. Biroq oyim bir tog'ora qushtili pishirdi. Hech nima bo'lmagandek, to'yxonaga chiqdi-yu yelib-yugurib xizmat qilib ketaverdi. Kechqurun hovlining o'rtasida to'nka qo'yib gulxan yoqishdi. Sepkilli xolaning o'ziga o'xshab ketadigan sarg'ish yuzli Hakim akaga to'n kiygizib, salla o'ratishdi, gulxan atrofini uch marta aylantirishdi, karnay-surnay chalindi... Uy ichida ayollar, Zebi xola dutor chertgan, xotinlar tortishmachoq qilgan... Xo'ja, Toy, Vali, men — to'rtovlashib tortishmachoq bilan ovora bo'lib turgan xotinlar orasiga sho'ng'ymizu cho'ntakni shirinlikka to'ldirib chiqamiz... Keyin to'yxonaning qorong'i burchaklarida rosa bekinmachoq o'ynadik. O'sha kuni kech yotgan bo'lsam ham juda erta uyg'ondim. Endi tong otgan ekan. Qarasam, uyda hech kim yo'q. Demak, to'yxonaga chiqishgan.

Men ham yuzimni «mushuk yuvish» qildimu o'sha yoqqa chopdim. Bo'lmasa-chi, hozir «kelin salom» bo'ladi-da.

Xayriyat, «kelin salom»ga kech qolmabman. Hovli betkayida Sepkilli xolaning qarindosh-urug'lari, to'yda xizmat qilganlar to'planib turishibdi. Erkaklar kam, xotinlar ko'p. Faqat oyim ko'rinmaydi. Hovli etagidagi to'nkarib qo'yilgan qozon orqasida g'olaga minib o'tirgan Valini ko'rib, imlab chaqirdim.

Bir mahal otin xola (Sepkilli xolaning qo'li egriligidan shikoyat qilgan, biz bilan folbinnikiga borgan xuddi o'sha semiz otin xola) oq sholro'mol yopingan, atlas ko'ylagi ustidan oldiga uqa tutilgan nimcha kiygan kelinchakni yetaklab ostonaga olib chiqdi. Parda orqasidan kelinning yuzi yaxshi ko'rinmas edi. Biroq yaqinroqda turgan notanish xotinning ko'zi o'tkir ekan.

— Vuy, muncha chiroyli! — dedi qattiq shivirlab. — Bir qoshiq suv bilan yutgudek-a!

— Baxti bor ekan sariq mashakni! — dedi boshqasi unga javoban.

Otin xola bir tomoq qirib oldi-da, ovozi boricha baqirdi:

— Assalomu alaykum, kelin salo-o-om!

Kelinchak ohista bosh egdi. Hovlidagilar chekka- chekkadan ma'qullab javob qilishdi:

— Baraka topsin!

— Rahmat.

— Qo'shgani bilan qo'sha qarisin.

Otin xola yana bir marta tomoq qirib, ovozini sozlab oldi-da, boyagidan ham balandroq hayqirdi:

— Assalomu alaykum, kelin salo-o-o-m!

Karmonni katta ochgan.

Ayamay pulni sochgan.

Qorinlari qopday.

Mo'ylovlari shopday.

Qaynotasiga salo-o-m!

Odamlar chekka-chekkadan kulib yuborishdi. Isroil mo'ylov hovli etagidagi xonadan karnayga o'xshatib o'ralgan kattakon namatni qo'ltiqlab chiqdi. Hovli o'rtasidan pishillab o'tdi-da, namatni oborib kelinning oyog'i tagiga qo'ydi. Mo'ylovini g'olibona qiyofada bir buragan edi, xotinlar qiy-chuv solib kulib yuborishdi. Isroil mo'ylov uvali-juvali bo'linglar, deb fotiha o'qidi. Otin xola yana bir tomoq qirib oldi:

— Assalomu alaykum, kelin salo-o-o-m!

Tili bilan teng aylanadigan.

Xizmatiga shaylanadigan.

To'ydan quruq qaytmaydigan.

So'zlari moyday, yuzlari oyday.

Qaynonasiga salo-o-m!

Yana qahqaha ko'tarildi. Sepkilli xola qizarib-bo'zarib, odamlar orasidan o'tdi-da, kelin tomonga talpindi. Qo'lidagi bir dasta chinni kosani kelinning boshiga qo'ydi.

Otin xola tag'in davom etdi.

— Assalomu alaykum, kelin salo-o-o-m!

Dutorini sayratgan.

Dilimizni yayratgan.

Zebi opaga salo-o-m!

Zebi xola erkakcha yurish qilib yaqin borgan edi, ichkaridan tugun olib chiqishdi. Zebi xola tugunni olarkan, kelinning yelkasiga qoqdi.

— Baxtli bo'lg'in, qizim!

Otin xola u yoq-bu yoqqa qarab oldi-da, davom etdi.

— Assalomu alaykum, kelin salo-o-o-m! Biri biridan shirin, biri-biridan asal qaynsingillariga salo-o-o-m!

Hakim akaning ukasi yo'q, uchta singlisi bor edi. Uchovlari ikkita-ikkidadan piyola ko'tarib qatorlashib borishdi. Biriga atir,

biriga sochiq, eng kichkina Saidaga ro‘molcha tegdi...

Otin xola kelinning ro‘molini o‘nglab qo‘ydi-da, tag‘in yangi kuch bilan hayqirdi:

— Assalomu alaykum, kelin salo-o-om! Oyog‘i olti, qo‘li yetti bo‘lib xizmat qilgan, kelinning qo‘lidan ishini oladigan, og‘ziga oshini soladigan yon qo‘shnijon qo‘shnilarga salo-o-o-om!

Oyim shu yerda ekanini endi payqadim. U odamlar orasidan rangi o‘chibroq o‘tdi-da, qandaydir, ishonchsiz qadamlar bilan kelin tomonga yura boshladi. Hatto ostona oldiga borganda bir qalqib ketgandek bo‘ldi. Qo‘lida hech nima yo‘q edi. Biroq sekin-sekin zinadan ko‘tarildi-yu, kelinning yuzidagi pardani qiya ochdi. Hovlidagi xotinlar pichir-pichirga tushib qolishdi.

— Nima qilyaptilar?

— Voy, o‘lmasam!

Otin xolaning ham g‘ashi keldi shekilli, dashnom berdi:

— Nomahramlar bor-a, poshsha!

— To‘xtang, — dedi oyim negadir ovozi titrab.

Shosha-pisha kelinning qulog‘idagi ziraklarni yecha boshladi.

— Ushlang buni! — dedi sirg‘alarni kelinning qo‘liga tutqazib. Keyin o‘zining nimchasiga qo‘l soldiyu kattakon oltin oybaldog‘ini chiqardi. Qo‘llari titragancha ikkalasini kelinning ikki qulog‘iga taqdi.

— Niyat qilgandim, — dedi oyim otin xolaga qarab. — Shuni niyat qilib qo‘yuvdim. — Shunday dedi-yu sekin egilib, kelinning peshonasidan o‘pdi.

— Iloyo qo‘sha qaringlar!

Oybaldoq shol ro‘mol tagidan ham yaraqlab ko‘rinib turar, kelinning husniga husn qo‘shib yuborgandek edi. Chekka-chekkadagi xotinlarning hayratli xitobi eshitildi:

— Vuy-y-y-y!

— Asl tillamikan?

— Nima, qalbakisini qilib esini yebdimi?

— Mana bundoq qo‘shnilar bo‘ladi jahonda!

Bir zum gangib qolgan otin xola ovozi boricha hayqirdi:

— Qilichdek o‘g‘illarni o‘stirgan, to‘yda yelib-yugurgan, oy desa, oydek, Xotam Toydek poshsha opasiga salo-o-m!

Oyim odamlar orasidan turtinib o‘tdi-da, chekkaga chiqdi. Shundagina kelin tomonga o‘girilib, mamnun jilmaydi... Uning ko‘zida yosh bor edi.

O'RIS BOLANING OYISI

Shanba kuni mashinani darvoza oldiga olib chiqishim bilan motor o'chib qoldi. Generator tok beryapti, benzin nasosi ishlayapti. Tavakkal qilib karbyuratorni kavlashtirishga tushdim. Ochishga ochdimu bemorning qornini yorib qo'yib, u yog'iga nima qilishini bilmagan no'noq jarrohdek dovdirab qoldim. Mushtdek apparat ichida shuncha murvat borligini bilmagan ekanman. Hammasini qandoq bo'lsa shundoqligicha joy-joyiga qo'yib chiqqan edim, yana allaqancha vintlar, gaykalar «ortib qoldi». Nima qilishimni bilmay tajang bo'lib tursam, orqada yuk mashinasining voshillab tormoz bergani eshitildi. Kabina eshigi taraqlab ochildi. Qarasam, o'zimning bolalikdan birga o'sgan «o'ris o'rtog'im» Vali tushib kelyapti (Asli oti Valentin ekanini keyin bilganman). Mahallada shu bolaning oldiga tushadigan shofyor yo'q. O'zi ham mushtdek boshidan temir-tersakka qiziqradi.

— Bormisan! — dedim quvonib. — Kasal tuzalaman desa, tabib o'z oyog'i bilan keladi-da.

U shoshilmasdan oldimga keldi.

— Nima bo'ldi? — dedi motorga mo'ralab.

— Buni ko'rmaysanmi, — deb qo'limdagi murvatlarni ko'rsatdim. — Olmadek narsaga shuncha lash-lushni erinmasdan joylashganiga qara! Injenerlar ham ovsar ekan!

U «operatsiya» bo'lgan karbyuratorga qaradi-da, hushtak chalib yubordi.

— Injenerlar ahmoqmas, sen ahmoqsan! — dedi jingalak sochlarini silkitib. — Ertadan boshlab men ham kitob yozib tashlasam nima bo'ladi? Aqling yetmagan ishga aralashib nima qilasan?

Garibona qiyofada iljayib turgan bo'lsam kerak, u kulib yubordi. Paralon kurtkasini yechib, mashina tomiga tashladi-da, buyurdi:

— Otvvertkangni ol!

Biroq ishga kirishmadi.

— Aytmoqchi, mamashkani olib keluvdim, — dedi ZIL tomonga imo qilib. — Sizlar gaplashib turgunlaringcha buyog'ini amallab ko'raman.

Boyadan beri e'tibor bermagan ekanman. Yuk mashinasining

kabinasida o'tirgan Zebi xolani endi ko'rdim. Ikkovlashib mashina oldiga bordik. Vali zinaga sakrab chiqib kabina eshigini ochdi. Boshiga qalin ro'mol o'ragan, qora baxmal nimcha kiygan oyisini ko'targudek bo'lib zinadan tushirdi. Qarasam, Zebi xola mushtdekkina bo'lib qolibdi. Oyimning ma'rakalarida kelganida o'z tashvishim bilan bo'lib, razm solmagan ekanman, endi payqadim. Avvalgi alp qomatli, yurganida yer gursillaydigan Zebi xolaning yarmi ham qolmabdi. Ro'moli ostidan chiqib turgan sochlari qordek oqarib ketibdi. Qop-qora yuzi yanayam qorayib, ko'kimtir tusga kirgandek.

— Poshsha singlimdan qolgan yodgorim! — dedi u meni bag'riga bosarkan, bo'g'iq ovozda. Ozg'in qo'li bilan yelkamga qoqib, og'ir-og'ir harsillab nafas oldi. — O'zimning shirin o'g'limdan o'rgilay, yaxshi o'tiribsanmi?

Bolalikdan qulog'iga rayhon taqib yurishiga ko'nikib qolganim uchunmi, hozir ham undan rayhon isi anqib ketgandek bo'ldi.

— Yuring, — dedim uyga boshlab. — Birpas dam oling.

— Yo'q, u yoqdamas, singlimning uyida o'tiraman. — Zebi xola og'ir-og'ir qadam bosgancha, oyimning xonasiga qarab yurdi. — Singlimning joyida birpas o'tiray, — dedi-yu doim oyim o'tiradigan joyga, deraza tagiga cho'kdi. Bo'g'iq ovozi titrab uzoq tilovat qildi.

— Dunyo shunaqa ekan, jon bolam, — dedi o'ychan ovozda. — Hamma bir-bir ketaverarkan...

— O'zingiz bardammisiz, xola? — dedim so'lg'in yuziga, titrab turgan qop-qora qo'llariga qarab. — Nevaralar katta bo'lib qoldimi!

— Xudoga shukur, bolaginam o'zidan ko'paydi. Olti nevaraning duosini qilib o'tiribman. Valijonim bitta bo'lsa ham o'ntaga tatiydigan chiqdi. — Zebi xola shoshilmasdan choy ho'plarkan, devordagi mixga ilig'lik duxoba g'ilofli dutorga qarab-qarab qo'ydi.

Oyim dutorni juda avaylar, «adangdan qolgan yodgorlik», deb doim ko'z o'ngida saqlardi. Shu ondayoq bolalikdagi xotiralar, Zebi xolaning dutor chalganlari esimga tushdi-yu sekin so'radim:

— Hali ham chalib turasizmi?

Zebi xola ma'yus jilmaydi.

— Dutor chalish qatta, bolam. Qo'l o'lgur titraydi. — U bir zum jimib qoldi-da, o'ychan davom etdi. — Qaysi kuni tush ko'rsam, poshsha singlim bilan bir joyda o'tiribmiz. Nuqul dutor

chalayotgan emishman. — U shikasta kuldi. — Odamzod shunaqa ekan, — dedi xo‘rsinib. — Bola-chaqam derkan, yelarkan-yugurarkan, endi og‘zi oshga yetganda yiqilarkan. — U titroq qo‘llari bilan tizzasining ko‘zini siladi. — Sal sovuq tursa, oyog‘im shishib ketadi. Valijon maxsi oberaman, o‘zingiz kiyib ko‘rib tanlaysiz, deb qo‘ymadi. Ketayotgan joyimda birrov singlimnikiga kirib chiqay, dedim.

Yana choy quyib uzatgan edim, Zebi xola bosh chayqadi.

— Mayli, bolam, men bora qolay endi.

Ikkovlashib tashqariga chiqqanimizda Vali mening mashinamda o‘tirar, motorni gurillatib sinab ko‘rar edi.

— Bo‘ldi, — dedi o‘tirgan joyida derazadan boshini chiqarib.

— Ikkinchi bunaqa ustachilik qilsang, o‘zingdan ko‘r.

Ikkovlashib Zebi xolatin kabinaga chiqardik. Vali narigi eshikdan kirdi-yu, mashinasini gurillatganча haydab ketdi. ZIL muyulishda ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi bilan g‘irashira tong pallasida ko‘rgan tushdek xotiralar yopirilib keldi.

Zebi xoladan hayiqmaydigan bola yo‘q edi. Erkaklardek barvasta gavdali, qop-qora bu xotinning yo‘g‘on ovozi ham, uzun qirra burni, ketmonni yelkasiga tashlaganча etik kiyib g‘oz yurishi ham boshqa ayollarga o‘xshamas, hatto qoramtir siyrak mo‘ylovigacha bor edi. U qachon qarasa qulog‘iga rayhon taqib yurar, Darhon arig‘i bo‘yidagi hovlisida yoz bo‘yi rayhonlar barq urib yotardi. Uni birinchi marta ko‘rganimdayoq qo‘rqib qolganman. O‘shanda juda kichkina bo‘lsam kerak. Oyimga ergashib Zebi xolanikiga bordim. Nimagaligi esimda yo‘g‘u xarxasha qilaverdim. Oyim u deb ko‘rdi, bu deb ko‘rdi, bo‘lmadi. Shunda Zebi xolaning jahli chiqib ketdi.

— Jim bo‘lasanmi yo hozir ishtonimga qamab qo‘yaymi! — dedi do‘rillab. Uning vajohati shu qadar qo‘rqulik ediki, ovozim o‘chdi-qoldi.

...Zebi xola sap-sariq jingalak sochli, ko‘k ko‘z «o‘ris bola»sini — Valini jonidan yaxshi ko‘rardi. Qaysi to‘yga borsa, ko‘ylagining yengiga popukqand, monpasi, jiyda solib kelardi. Uning yengi shunchali barakali ediki, Valining do‘ppisi birpasda shirinlikka to‘lib chiqardi. Vali qizg‘anchiq emas, oyisi olib kelganlarni hamma bilan baham ko‘radi... Biroq, bironta bola Valini chertsа bormi, oyisidan baloga qoladi. Zebi xola o‘sha zahoti aybdor bolaning onasini yumma

talaydi. «Sen echkiga oʻxshab har yili bolalaysan, meniki atigi bittal — deydi shangʻillab. — Qani, yana bir marta qoʻl tegizib koʻrsinchi, qoʻlini sindirib oʻchoqqa tiqaman!»

Zebi xola bolasini bunchalik avaylagancha bor edi. Dadamning aytishiga qaraganda, urush boʻlayotgan joydan keltirilgan bolalardan bittasini berasanlar, deb Zebi xola ham boribdi. Ammo oʻsha idoradagilar koʻnishmabdi. «Siz soʻqqaboshsiz, topish-tutishingizning mazasi yoʻq», deyishibdi. Shunda Zebi xola kursini mushtlab chunonam toʻpolon koʻtaribdiki, noiloj mana shu Valini xatlab berishibdi.

Zebi xola soʻqqabosh boʻlsayam, Valini kamsitmagan. Qoʻy soʻyib, yurtga osh berib, toʻyini ham qilib bergan.

Vali ham birinchi sinfda men bilan oʻqir, hisobdan yaxshi edi-yu, ona tilidan qiynalardi. «Q» bilan «G»ni aytishga hech tili kelishmasdi. Risolat opa degan chiroyli oʻqituvchi opamiz buni bilgani uchun Valini koʻp ham qiynamasdi. U doim deraza oldidagi partada oʻtirardi.

Bir kuni maktabga komissiya kelib qoldi. Bir emas, toʻrt kishi orqa partaga borib oʻtirishdi. Oʻqituvchi opamiz dars oʻtyaptiyu, hayajondan ovozi titraydi. Sinf jimjit. Shu payt deraza sharaqlab ochildi-da, Zebi xolaning yoʻgʻon ovozi eshitildi.

— Vali, ma, non!

Hammamiz oʻsha tomonga qaradik, Valining sariq yuzi olovdek yonib ketdi. Nima deyishini bilmay nuqul «keting», deb imlaydi. Zebi xola boʻlsa derazadan ikkita arpa non uzatib turibdi.

— Olsang-chi, qoʻlim kuyib ketdi! — dedi u zarda bilan.

Sinfxonani birpasda issiq non hidi tutib ketdi.

Risolat opamiz bir zum esankirab turdi-da, tashqariga yugurdi.

— Nima qilyapsiz, xola? — dedi yigʻlagudek boʻlib. — Maktabku bu!

— Maktabligini oʻzim ham bilaman! Machitga kelganim yoʻq!
— Zebi xola ovozini baralla qoʻyib doʻrilladi. — Bolam ertalab choy ichmasdan chiqib ketuvdi. Och oʻtirsinmi endi?

Risolat opamiz yalinishga tushdi:

— Jon xola, komissiya bor.

— Nima, kamissiyang non yemaydimi! Bolam bir kun kech olim boʻlsa boʻlar. «Kamissiya keldi», deb tishining kirini soʻrib oʻtirsinmi?

Boyadan beri suv quygandek jimjit boʻlib turgan sinfxonada

to'satdan qahqaha portladi.

— Ana, kamissiyangning o'ziam kulyapti-ku! — Zebi xola derazadan boshini suqdi. — Ma, bolam, yeb ol, uyalma!

...Bir kuni jo'raboshimiz sigirini qaytarmagani uchun Valini urib burnini qonatdi. Ertasiga qiziq bo'ldi. Tol soyasida dam olib o'tirsak, maydoncha chetida Zebi xola ko'rindi.

Toy jo'raboshining yelkasiga turti.

— Oo'lding! Zebi xola kelyapti, qoch!

Jo'raboshining ko'zi olayib ketdi. Qaddini rostladi-yu, keyin qo'l siltab shineliga yonboshladi.

— Qatta uradi! O'zi zo'rg'a kelyapti-ku.

Qarasak, Zebi xola chindan ham zo'rg'a-zo'rg'a kelyapti. Qo'lidagi tayoqqa suyanib ikki qadam yuradi-da, to'xtaydi. Oqsoqlanib qadam bosadi.

— Yiqilib oyog'i singanga o'xshaydi, — dedi jo'raboshimiz.

Zebi xola inqillab-sinqillab yaqin keldi. Ammo besh qadamcha qolganda birdan cho'loqligi tuzalib qoldi. Tayoqni baland ko'targanicha ikki hatlab jo'raboshining tepasiga keldi. Tayoqning qarsillashi bilan jo'raboshining dodlashi baravar eshitildi.

— Mana urish! — dedi Zebi xola do'rillab. — Urish mana bunaqa bo'ladi. — U jo'raboshining gardaniga tag'in tushirdi. — O'zidan kichkinaning burnini qonatish mana bunaqa bo'ladi!

Jo'raboshi jonholatda dumalar, ammo qocholmas-di.

— Oyi! Urmang, oyi! — Vali oyisining qo'lidagi tayoqqa yopishdi.

— Tavba qildim! — Jo'raboshi tipirchilab, kafti bilan boshini pana qildi. — Jon xola, o'lay agar, ikkinchi qilmayman!

— Qyi! — Vali Zebi xolani quchoqlab oldi. — Kerakmas!

Zebi xola tayoqni ulotirdi.

— Nima, meni bolam malaymi senga?! — dedi dag'dag'a bilan. — Sening molingni boqsin, deb katta qilib qo'yibmanmi bolani?!

...O'sha voqeadan keyin jo'raboshimiz ancha yuvosh tortib qoldi. Uchinchimi, to'rtinchi kuni mog'or bosgan kattakon qovoq ko'tarib keldi. Tol soyasida o'tirib qovoqni ikki pallaga ayirdi-da, qirg'ich bilan tozalashga tushdi. Keyin pallalarning qirrasini arraning tishiga o'xshatib jimjimador qilib qirqib chiqdi. Ikki pallani bir-biriga yopgan edi, orasi kovak koptokka aylandi qoldi.

— Nima qilmoqchisan? — dedi Toy burnini tortib.

— Burningga osib qo‘yaman! — dedi to‘ng‘illab jo‘raboshi. — Artib ovora bo‘lib yurmaysan. — Keyin qovoqni bir chekkaga qo‘ydi-da, Toyga buyurdi. — Qorong‘i tushganda shu yerga kelasan. Sen ham, —dedi menga imo qilib. — Xo‘ja bari bir kelolmaydi. Dadasi chiqarmaydi.

— Nimaga o‘zi? — dedim tushunmay.

— Tomosha ko‘rsataman.

— Vali-chi, Vali ham keladimi? — dedim nariroqda tol yog‘ochidan hushtak yasayotgan Valiga imo qilib.

— Yo‘q, — Jo‘raboshi keskin bosh chayqadi. — U ham oyisidan qo‘rqadi. Es-es, kim kelmasa pes!

Kechki ovqatdan keyin bekinmachoq o‘ynayotgan akalarimning ko‘zini shamg‘alat qilib maydonchaga chiqdim. Qorong‘ida, tol tagida Toy bilan jo‘raboshi turibdi. Jo‘raboshining qo‘lida boyagi qovoq. Faqat odamning boshiga o‘xshatib «og‘iz-burun» teshib qo‘yibdi. Negadir hammayoqni lampamoy hidi tutib ketgan...

— Laychang nimaga keldi? — deb to‘ng‘illadi jo‘raboshi.

Qarasam, gurji kuchugim oyog‘im tagida dumini likillatib turibdi.

— O‘zidan so‘ra! — dedim men ham to‘ng‘illab.

Jo‘raboshi yerdan kesak olib otgan edi, it angillab qochdi.

— Nega urasan?

— Xalaqit beradi! — dedi jo‘raboshi zarda bilan. — Yur, bo‘lmasa kech qolamiz.

Toy ikkalamiz beixtiyor unga ergashdik. Qatorlashib Darhon arig‘ining bo‘yiga bordik. Ariq shu yerdan burilib oqar, nariroqda shox-shabbalar ustiga tuproq tashlab yasalgan ko‘prik bor edi. Jo‘raboshi Toy ikkalamizni majnuntollar quyuq o‘sgan qorong‘i sohilga olib tushdi. Negadir yuragimni qo‘rquv bosdi.

— Nima qilamiz o‘zi? — dedim ovozimni balandlatib.

— O‘chir! — Jo‘raboshi kerosin hidi anqib turgan mushtini burnimga tiradi. — G‘ing desang, suvga otvoraman. Shu payt uzoqdan allakimning qadam tovushi eshitildi.

— Kelyapti! — dedi jo‘raboshi pichirlab. Shosha-pisha qovoq pallasini ochdi. Kerosin hidi qayerdan kelayotganini endi bildim: qovoqning ichi to‘la lampamoyga botirilgan latta ekan. Jo‘raboshi yonidan gugurt olib chaqqan edi, lop etib olov ko‘tarildi. U chaqqonlik bilan ikkinchi pallani yopdi-da, qovoqni suvga qo‘yib

yubordi. Suv yuzasida «ogʻiz-burni»dan olov chiqarayotgan «kalla» qalqib-qalqib suzib ketdi.

Joʻraboshining niyatini endi tushundim. Boyagi qadam tovushlari Zebi xolaniki ekanini ham endi bildim.

Qorongʻi boʻlsa-da, katta-katta qadam tashlashidan, yelkasidagi ketmonidan tanidim. Hushimni yigʻib olgunimcha u tuproq koʻprik ustiga kelib qoldi. Suv yuzida qalqib kelayotgan olovli «kalla»ni koʻrdi-yu taqqa toʻxtadi.

— Voy, voy oʻlmasam! — dedi-da, koʻprik ustiga tappa oʻtirib qoldi. — Bis-bis-bismillo... — dedi duduqlanib. Hatto tovushi ham ingichkalashib ketgandek boʻldi. Keyin gandraklab oʻrnidan turdi-da, ovozi boricha qichqirdi. — Dod, voy-dod! oʻrnimdan otilib turdim.

— Qoʻrqmang, xola! — dedim baqirib. Ammo joʻraboshi bilagimdan mahkam tutib, kerosin hidi anqib turgan kafti bilan ogʻzimni toʻsdi. Koʻnglim aynib ketdi.

— Qoʻyvor, eshak! — dedim boʻgʻilib. — Baribir aytib beraman!

— Aytib koʻr-chi! — Joʻraboshi yana mushtini doʻlaytirdi. — Jigʻingni ezib qoʻyaman!

Boyadan beri angrayib turgan Toy jahl bilan qoʻl siltadi-da, indamay nari ketdi.

Ertasiga choy ustida oyim vahimali xabarni dadamga aytib berdi:

— Zebi opa shoʻrlik bir holatda yotibdi. Ajina koʻrdim, deydi. Ogʻzidan olov sohib bechoraga daf qilganmish. Yo koʻziga koʻringanmi...

Dadam jerkib berdi:

— Ajinaga balo bormi? Bitta-yarimta xudobexabar qoʻrqitgandır-da.

— Bechoraga shu koʻrgilik ham bor ekan, — dedi oyim iztirob bilan. — Oʻzining gʻami yetmasmidi...

Hammasiga men aybdordek sekin boshimni ichim-ga tortdimu mum tishlab oʻtiraverdim.

Zebi xolaning nima gʻami borligini bir haftadan keyin tushundim. Oʻsha kuni Hoji buvining chorbogʻida sumalak boʻldi. Qiygʻos gullagan oʻrik tagiga sholcha yozilgan, hamma topganini olib chiqqan, xotinlar bir-biriga gap bermay chuvillashar, biz bolalar ham sumalak yalashdan benasib qolmaslik uchun atrofda oʻralashar edik. Oʻshanda Vali bilan yangi oʻyin topib olgandik.

Baquvvatroq simni «4» raqamga o'xshatib buklaymiz-da, eski bochkadan chiqqan temir halqaga tirab g'ildiratamiz. Qancha tez yugursak, g'ildirak shuncha qattiq jaranglaydi. Agar ovozi pasaytirmoqchi bo'lsak, buning ham yo'li bor: g'ildirakni suvga botirib olsak, ovozi chiqmaydi. Maza!

Bir mahal Zebi xolaning oldida o'tirgan oyim imlab chaqirib qoldi.

O'rtog'ing bilan borgin-da, — dedi sekin, — adangning hujrasidagi dutorni obke.

Ikkilanib qoldim. Dutorga hech kim qo'l tegizolmas, dadam uni doim hujrasida saqlar, ba'zan kechqurunlari «Dilxiroj», «To'rg'ay», «Qari navo», yana allaqanday kuylarni chalib o'tirishni yaxshi ko'rardi. Oyimning aytishicha, dadam dutorni yoshligida eng zo'r ustaga buyurtirib yasatgan ekan.

— Bilib qolsalar urishadilar-ku, — dedim oyog'im tortmay.

— Bilmaydi! — Zebi xola qo'l siltab do'rilladi. —

Nima, yeb qo'yarmidim.

— Ketdik! — dedim Valiga.

Ikkalamiz g'ildiraklarni jaranglatgancha yugurib ketdik.

— Ehtiyot bo'l, sindirib qo'yma! — deb baqirdi oyim ketimizdan.

...Zebi xola g'ilofni ochgan zahoti dutor sadaflari yaraqlab ketdi. U dutorni cherta boshlashi bilanoq, boyadan beri chuvir-chuvir qilayotgan xotinlar jimib qolishdi. Qiziq, o'zim ham o'rikka suyangancha bir qo'limda sim, bir qo'limda g'ildirak bilan qotib qoldim. Dutor dadamning qo'lida qandaydir sho'x, baland ovozda jaranglar edi. Hozir Zebi xola chertganda esa ingrab yuborgandek bo'ldi. Go'yo dutorni Zebi xola chalmas, torlarning o'zi nola qilar edi. Ayollar har xil alpozda sehrlangandek qotib qolishgan, bahor chechaklari barq urgan daraxtzor orasida, oqish-pushti o'rik gullari qanotida, Hoji buvining qizg'aldoqlar lovullagan pastak tomi ustidan nurdek mayin kuy taralardi.

Zebi xola bir-ikki tomoq qirib oldi-da, qo'shiq boshladi. Uning erkaklarnikiga o'xshash do'rillagan ovozi ashula aytganida shu qadar yoqimli bo'lib ketganiga hayron qoldim. Yo'q, uning tovushi mayinlashgani yo'q. Ammo u shunchalik bosiq, shunchalik o'rtanib kuylardiki, badanim jimirlab ketdi.

Yor yurgan ko'chalarni supuray sochim bilan,

Changi chiqsa suv sepay, ko'zdagi yoshim bilan...

Mayin shamol esar, o'rik gullari unsiz to'kilar, daraxtzor ostida maysalar ohista tebranar, ammo butun tabiat bir zum unsiz bo'lib qolgan, hamma-hammasi faqat mana shu dutor sadolariyu mana shu qo'shiqni tinglash uchun tinchib qolgandek edi. O'sha manzarani o'ylasam, xayolimga hadeb bir gap keladi.

Keyin, katta bo'lganimdan keyin ham muhabbat haqida, vafo haqida ko'p qo'shiqlar eshitdim. Biroq, ayol sadoqati to'g'risida bundan yaxshi ashula eshitganim yo'q...

Zebi xola endi ko'zlarini yarim yumgancha boshqa qo'shiq aytardi.

*Jon bolam, jonim bolam, qaylardasan, bergil xabar.
Gamda boshim, ko'zda yoshim, ichganim bo'ldi zahar.
Zafarondek sarg'ayurman hasratingda qon yutib.
Ko'zlarimning nuri ketdi yo'llaringga ko'z tutib.*

Hammamiz qo'rqadigan, ko'rganda hammamiz qochadigan Zebi xola shumi? O'sha qo'pol, o'sha jahldor Zebi xolami shu? Valining oyisida shuncha dard bormidi? Shuncha alami bor ekanmi? Nimaga biz bilmagan ekanmiz?

Zebi xolaning yumuq ko'zlaridan ikki tomchi yosh silqib chiqdiyu qirra burnining chetida to'xtab qoldi. Dutorni yonboshiga qo'ydi-da, keng yengining uchi bilan ko'zini artdi. Hamma jimib qolgan, hech kim birinchi bo'lib gapirishga jur'at etolmas edi.

— Hech bo'lmasa, Kimsanim kelgandayam mayli edi, — dedi u xo'rsinib.

— Qo'ying, opajon, — dedi oyim sekin. — Unaqa demang, Xudoga shukur, mana bor-ku. — Oyim nariroqda g'ildirak ushlab mo'ltirab turgan Valiga imo qildi. — Nasib etsa, to'ylar qilasiz, qo'sha-qo'sha nevaralar ko'rasiz.

Zebi xola yalt etib Valiga qaradi. Ko'zida yosh bilan jilmaydi.

— Sumalak yedingmi, o'g'lim? Qorning ochib qolgandir?

— Yedim, — dedi Vali sekin. U ham oyisining yig'laganini ko'rib o'pkasi to'lib turardi.

— Bo'lmasa, o'ynay qolinglar.

Birpasdan keyin Zebi xola bizni yana chaqirdi.

— Oborib qo'ya qol joyiga, — dedi dutorni g'ilofga solib. — Dadangdan baloga qolib yurmay tag'in.

Bir qo'limda dutor, bir qo'lim bilan g'ildirak g'ildiratgancha yo'lga tushdim. Vali ham g'ildiragini aylantirib yonma-yon borar, ammo endi avvalgidek yugurmas edik. Qulog'imda hamon Zebi xolaning qo'shig'i yangrab turar, go'yo g'ildiraklar ham g'ildirak emas, dutorning ikki tori edi. Ana, ikkovi bir-biriga jo'r bo'lib jaranglayapti. Zebi xola bo'lsa hamon qo'shiq aytyapti:

«Jon bolam, jonim bolam, qaylardasan, bergil xabar...»

Chetini o't bosgan ariqchadan o'tayotganda g'ildiragim sakrab ketdi. Bir hatlab oldinga talpingan edim, o'tga sirg'anib yiqilib tushdim. Dutor yerga urildi... qars etdi. Tamom! Kuy ham, qo'shiq ham tindi-qoldi.

— Sindi! — dedim ovozim titrab.

Vali yugurib tepamga keldi:

— Voy-y-y! Endi dadang o'ldiradi! Ikkalamiz qo'limiz titragancha g'ilof bog'ichini yechdik. Qarasam, dutorning ip tortadigan qulog'i sinib tushibdi.

— Endi nima qilamiz? — dedi Vali ko'm-ko'k ko'zlarini jovdiratib.

Yig'lamoqdan beri bo'lib, yelkamni qisdim.

— Yur! — Vali qo'limdan tutib uyiga boshladi.

Ikkalamiz ularning hovlisiga kirdik. Hovli etagidagi bostirmada eski quti bor ekan. Vali qutini titkilab zanglab ketgan temir topdi.

— Mana! — dedi tantana bilan. — Endi hech ham sinmaydi!

Dutorning singan qulog'i o'rniga temir tiqdikda, imi-jimida g'ilofga solib joyiga ilib qo'ydik.

Kechqurun oyimga nima bo'lganini aytib bergandim, rangi o'chib ketdi. Lekin nima qilishni oyim ham bilmasdi.

O'sha kuni emas-ku, uch kundan keyin sir ochildi. Dadam hujradan turib jahl bilan qichqirib qoldi:

— Dutorga kim tegdi?

Zum o'tmay dutorni ko'tarib chiqdi.

— Garangmisanlar? Qaysi biring sindirding? Bu nima qiliq? — dedi Vali «tuzatgan» dutorni ko'rsatib.

Oyim aybdor qiyofada o'tirar, akalarim hayron bo'lib bir-biriga qarashar edi. Hozir katta janjal bo'lishini sezib qo'rqib ketdim.

— Tiling bormi?! — dadam battar tutaqib ketdi.

— Zebi opa chaluvdi, — dedi oyim sekin. — Sumalakka chiqqanimizda... bir chalib beray, devdi...

Qiziq, dadam birdan hovuridan tushdi.

— Mayli, — dedi ovozi pasayib. — Zebi chalsa mayli. — U hujraga kirib ketdi-da, anchadan keyin bir bo‘lak yog‘och ko‘tarib chiqdi. Dandon sopli pichog‘i bilan yog‘ochni kesa boshladi. — Dutorning qulog‘ini tutdan qilmasa sinaveradi, — dedi sekin. Yog‘ochning uyoq-buyog‘ini o‘yar ekan, uh tortdi. — Qarab turib Xudoning ishlariga ham qoyil qolmayman. Ota-boladan bir oyda «qoraxat» kelsa-ya!

— Shuni ayting, — dedi oyim jonlanib. — Tag‘in ham odamzod chidarkan. Ham eridan, ham yakka-yolg‘iz o‘g‘lidan judo bolib o‘tiribdi boyoqish. — U bir zum o‘ylanib turdi-da, qo‘shib qo‘ydi. — Bechora, Valisiga juda suyanib qolgan. Ishqilib, orzu-havasini shundan ko‘rsin...

• • •

Valentin tuzatib ketgan mashinani haydab borarkanman, beixtiyor Zebi xolaning ko‘chasiga burildim. Ana, Valentinning uchastkasi. Shifer tomli uy oldida ZIL turibdi. Kabina zinasida katta-kichik uch bola oyog‘ini likillatib o‘tiribdi. Biri do‘ppi kiygan, biri shapkasini bostirib olgan... Mashinani sekin haydab o‘tib borarkanman, ichkaridan dutor sadolari eshitilgandek bo‘ldi. Kim bilsin, ehtimol menga shunday tuyulgandir?

XO‘JA

Bolaligida hammaning ham tishi tushadi. Meniki g‘alati bo‘lgan: birinchi tishimni urib tushirishgan. Bunga Xo‘ja sababchi bo‘lgan. Bu bolani nimaga bunchalik yaxshi ko‘rib qolganimni bilmayman. Ehtimol yuvoshligi uchundir. Ehtimol, ko‘zlari doimo javdirab turishi uchundir. Odam bir narsani judayam aytgisi kelsayu aytolmasa, ko‘zi shunaqa — har kimga bir qarab javdirayveradi. Xo‘janing ko‘zlari shunaqa edi.

Hordiq kunlari dadam bilan oyim nonushta paytida «Nekalay» zamonidan qolgan samovarni o‘rtaga qo‘yib uzoq suhbatlashib o‘tirishar edi. Bir kuni dadam tajang bo‘lib gapirib qoldi:

— O‘ziyam ja-a-a Xudo urgan xotin ekan-da, o‘sha Ra‘no! Mana, Egamberdi omon-eson keldi-ku! O‘larmidi likillamasdan ko‘milib o‘tirsal!

Oyim bir nuqtaga tikilgancha o‘yga toldi. Ko‘zlariga g‘ussa

cho'kdi.

— Boshidayam-ku, yulduzi yulduziga uncha to'g'ri kelmasdi-ya, — dedi sekin. — Ammo baribir chatoq bo'ldi. Ikki orada bola bechora tirik yetim bo'lib qoldi.

Tushundim, Xo'jani gapirishyapti. Dadasi urushda yurganda oyisi boshqa odam bilan Chirchiq degan joyga qochib ketgan ekan...

Oyim aytgan «tirik yetim» degan gapning ma'nosini tushunmasam ham Xo'jaga rahmim kelib ketdi. Unga qanchalik rahmim kelsa, oyisini shunchalik yomon ko'rib qoldim.

Xo'ja buvisi, dadasi bilan katalakdek hovlida turardi. Egamberdi akaning jahli yomon. Doim yaltiroq tugmachali jigarrang kitel kiyib yuradi. Gapirganida duduqlanib qoladi. Chap qo'li tayoqday osilib turadi. Xo'janing aytishiga qaraganda, urushdan keyin ham bir yilcha gospital degan katta kasalxonada yotgan ekan. Doktorlar qo'lini kesmoqchi bo'lganida, hammani otib tashlayman, degan ekan, qo'rqib kesishmabdi. To'pponchasi bormish. Onangni qayerda ko'rsam, peshonasidan otib tashlayman, derkan...

O'sha kuni odatdagidek men echkimni, Xo'ja buzog'ini yetaklab, o'tloqqa olib bordik. Mening echkim sersut, yuvoshgina-yu, ammo bir aybi bor. Ko'zni shamg'alat qilib, uloqchalarini to'yg'azib, emizdirib oladi. Shundan qo'rqib oyim yeliniga xalta bog'lab qo'yadi. Xo'janing buzog'i esa qayerda latta ko'rsa yamlab qo'yadi. O'shanda kelib-kelib jo'raboshimizning shinelini chaynamaganida olam guliston edi. Hammamiz qiy-chuv solib o'ynayotgan edik, jo'raboshimiz alam bilan do'rillab qoldi:

— Shinelim! Shinelimni yeb qo'ydi!

Shunday degancha kattakon tayog'ini ko'tarib tol soyasida allanimani mazza qilib chaynayotgan buzoq tomonga yugurdi. Hammamiz turgan joyimizda qotib qoldik. Jo'raboshimiz dadasi urushdan olib kelgan shinelini jonidan ham yaxshi ko'rar, qishda etagini osiltirib kiyib yurar, yozda ham qo'ldan qo'ymasdi. U bora solib buzoqning gardaniga tayoq bilan bir tushirdi. Buzoq sho'rlik shinelining yengidan tishlaganicha, dumini xoda qilib qochdi. Jo'raboshimiz jonholatda shinelga yopishdi. Buzoq anchagina joyini yamlab bo'lgan ekan, yengining yarmigacha so'lak bilan qo'shilib cho'zilib og'zidan chiqdi. Bolalar yetib kelganida jo'raboshimiz g'alvir bo'lib ketgan yengni ushlagancha

bo'zrayib o'tirar edi. Xo'jani ko'rdiyuz jazavasi qo'zib ketdi.

— Nima qilding?! — dedi g'azab bilan.

Xo'ja, buzoq emas, o'zi aybdordek ko'zlarini javdiratganicha goh jo'raboshiga, goh shinelga tikilib lol turardi.

— Endi nima qilaman buni! — jo'raboshi shinelni yerga uloqtirdi. — Moling ham o'zingga o'xshaydi! Xo'jalar peshindan keyin aynaydi. Oying ham aynab, o'ynashi bilan qochib ketgan!

Oramizdan tikroq bolalar chekka-chekkadan piqillab kulib yuborishdi. Toy angrayganicha burnini sekin tortib qo'ydi.

Ertalab dadamdan eslitgan gapni esladimu qo'rqiiv ichida Xo'jaga qaradim. U bir zum hammaga javdirab qarab chiqdi-da, to'satdan jo'raboshiga tashlandi. Ammo o'sha ondayoq chakkasiga tushgan musht zarbidan ancha nariga uchib ketdi.

— Nega urasan! — dedim alam bilan chiyillab. Akalarim o'rgatganidek, mushtimni iloji boricha qattiqroq qisib, jo'raboshiga yugurdim, u bo'lsa, urib ham o'tirmadi. Kafti bilan jag'imga bir turtgan edi, chalqanchasiga ag'darilib tushdim. Og'zim sho'r bo'lib ketdi. Ko'zimni ochsam, tepamda Toy turibdi.

— Tur, — dedi qo'limdan tortib. — Yomon urdimi?

— Ikkalang ham yo'qol! — dedi jo'raboshi do'rillab. — Bugundan boshlab molingni jiydazorda boqasan.

Birpasdan keyin Xo'ja buzog'ini, men echkimni yetaklab, qing'ir-qiyshiq jiydalar orasiga kirib ketdik. Jiydazor etagida Qonqus oqar edi, qirg'oqqa borib o'tirdik.

— Og'zing qonayapti, — dedi Xo'ja yuzimga tikilib.

Kaftimni orqasi bilan artsam, qo'lim qon bo'ldi. Shu paytgacha bilmaganimga o'zim ham hayron qoldim. Tupurib tashladimu oldimdagi kurak tishim ilinib turganini payqadim. Qo'lim tegishi bilan tishim sug'urilib chiqdi.

— Tishingni sindirdimi? — Xo'ja ko'zimga shunday javdirab tikildiki, og'riq ham esimdan chiqib ketdi.

— O'zi liqillab turuvdi, — dedim tishimni tomosha qilib. Endi uloqtirib yubormoqchi edim Xo'ja qo'limdan ushladi:

— Shoshma! Mana bunday o'tir. — U meni suvga teskari qilib o'tqazdi. — Ko'zingni yumasan-da, «Suyak tishimni ol, tilla tishimni sol», deb uch marta aytasan. Tishingni yelkangdan oshirib, anhorga otib yuborsang, yangi tishing tilla bo'lib chiqadi.

Men Xo'janing aytganini qildim.

— Endi og'zingni yuvib ol, — dedi u ko'zimga termilib. —

Meni aytdi dersan, kuzgacha tilla tish chiqadi.

Keyin ikkovimiz anhorga tikilganча uzoq jimib qoldik. Suv unsiz oqar, narigi sohilda qamishlar qilt etmay turar, ora-chora qaldirg'ochlar suvga tumshug'ini tekizib, «viyt» etganча, yana havoga ko'tarilar edi. Xo'ja jo'raboshining boyagi gapini o'ylab o'tirganini bilardim-u, nima deyish, nima qilishga aqlim yetmasdi.

— Juda katta-a? — dedim anhorga imo qilib.

— Shuyam katta bo'ptimi? — Xo'janing ko'zlarida birdan o't chaqnadi. — Chirchiqda shunaqa katta daryo borki, ichida akulalar suzib yuradi.

— O'zing ko'rganmisan? — dedim ishonmay.

— Bilaman-da! — Xo'ja orzumandlik bilan xo'rsindi. — O'sha daryoning bu betidan u betiga bemalol suzib o'taveraman.

— Suzishni bilmaysan-ku?

— Oyim o'rgatadilar.

— Akula yeb qo'ysa-chi?

— Akulang nima bo'pti! Dadamga aytaman, to'pponча bilan otib tashlaydilar. — U shunday dedi-yu birdan noto'g'ri gapirganini payqagandek, jimib qoldi. Ko'zlari javdiraganча teskari qaradi. Bir zum suvga tikilib o'tirdi-da, xo'rsindi. — Yur, mollarga qaraylik. Chakalakka kirib ketmasin...

Ertasiga akalarim jo'raboshining ta'zirini berib qo'yishdi shekilli, echkimni o'tloqda boqishga ruxsat tegdi.

— Lekin anovi Xo'jangga aytib qo'y, yalmog'iz buzog'ini yana olib kelsa, jig'ini ezib qo'yaman! — dedi jo'raboshimiz ko'kargan qovog'ini silab.

O'zimga qolsa echkimni jon deb o'tloqda boqardimu Xo'janing bir o'zini jiydazorda qoldirgim kelmadi. Nima qipti, bu yerda ham o't ko'p. Har kuni o'ynaydigan futbol bilan chillakdan mahrum bo'ldik. Ammo Xo'ja bilan sira zerikmasdim. Shunaqangi narsalarni biladiki! Bu yerdan olisda, judayam olisda, tog'lar orqasida Chirchiq degan shahar bor. Shunaqa katta shaharki, uning oldida Toshkent nima bo'pti! U yerda shunaqangi katta daryo oqadiki, ichida uydek-uydek kemalar suzib yuradi. Xo'janing oyisi qachon xohlasak bizni o'sha kemalarga olib chiqaveradi. Xohlasak, baland tog'larga chiqamiz. U yerdan butun dunyo ko'rinadi. Bizning uyimiz ham, Xo'jalarniki ham, Xo'janing dadasi ham, hamma-hamma!

Bular hammasi yaxshi-yu, Xo'janing bir odatini tushunolmasdim. Gampirib turadi-turadi-da, birdan jimib qoladi.

Anhorga tikilgancha bir narsalarni o‘ylab o‘tiraveradi, o‘tiraveradi. Shunaqa paytlarda zerikib ketaman.

Bir kuni uni yo‘qotib qo‘ydim. Jiydazor ichkarisiga kirib ketgan echkimni qaytarib kelguncha terlab ketdim. U yoqdan haydasam, bu yoqqa qochadi. Chakalak ichiga kirib oladi-da, masxara qilgandek, dumini likillatib, qisqagina ma‘rab qo‘yadi. Oldiga boray desam, jiyda tikanlari hammayog‘imni tirnab tashlaydi. Alam ustida kesak bo‘ron qilib yaydoq joyga olib chiqqunimcha kun botdi. Qarasam, Xo‘janing buzog‘i daraxtga bog‘loqlik turibdigu, o‘zi yo‘q. Yugurib, ikkalamiz o‘tiradigan suv bo‘yidagi do‘nglikka bordim. Yo‘q, u yerda ham ko‘rinmaydi.

— Xo‘ja-a-a! — dedim baqirib.

Oqshom zulmati bostirib kelayotgan jiydazor orasida «a-a-a» degan sado keldi. Birdan yuragimni vahima bosdi. Akalarim jiydazorda ajina bor, deyishar edi. Xo‘jani ajina chalib ketgan bo‘lsa-chi?! Ovozim boricha chinqirib yubordim:

— Xo‘ja-a-a!

Yana o‘sha sado keldi. Akamning allaqaysi kitobida olti qo‘lli odamning rasmini ko‘rgan edim. G‘ira-shirada jiydalar xuddi o‘shanaqa vahimali maxluqlardek qing‘ir-qiyshiq «qo‘llari»ni cho‘zib turishar, yugurgan sayin ustimga bostirib kelayotganga o‘xshar edi. Qo‘rqib ketganimdan tikanlarni bosgancha jonholatda yugurdim. Jiyda tikanlari yuz-ko‘zimni timdalar, oyog‘imga yantoqlar kirayotganini bilardim-u, ammo to‘xtay olmasdim.

Bir mahal ro‘paramda Xo‘ja paydo bo‘ldi.

— Qayoqda yuribsan? — dedim ovozim qaltirab.

Xo‘ja qo‘limdan mahkam ushlab oldi. U ham qo‘rqib ketgan bo‘lsa kerak, nuqul titrar edi.

— Aytmaysan-a? — dedi sekin. — Hech kimga aytmaysan-a?

Shundagina nariroqda, jiydaning panasida turgan qora ko‘ylakli ayolni ko‘rdim.

— Oyi! — dedi Xo‘ja sekin, iltijoli ohangda.

Shunda hammasini tushundim. Xo‘janing oyisi hamon qimirlamay turar, xuddi sehrlanib qolganga o‘xshar edi. Xo‘ja ko‘zimga termilib, tag‘in yalindi:

— Aytmaysan-a?

Men indamadim. Ammo bu sirni hech kimga, hatto oyimga ham aytmasligimni bilib turardim. Shu ondayoq yana bir narsani angladim. Bu yerdan tezroq ketishim. xalaqit bermasligim kerak.

—Tezroq bo'!! — dedimu Xo'janing buzog'i boylangan joyga yugurib ketdim...

• • •

Xo'ja va'da qilgan tilla tish kuzda ham chiqmadi. Biroq endi buni o'ylashga vaqt qolmagan, ikkalamiz uchun ham yangi hayot — maktab hayoti boshlangan edi. Bizning uyimiz maktab yo'lida bo'lgani uchun Xo'ja har kuni ertalab chaqirib kelardi. Zog'ora nonni echki sutiga bo'ktirib yemabsiz, dunyoga kelmabsiz! Erta bilan oyim ikkalamizning oldimizga tovoqda sut bilan zog'ora qo'yar, Xo'ja harchand tortinchoqlik qilmasin, yeb turib ketmaguncha hol-joniga qo'ymasdi.

Bir kuni Xo'ja kelmadi.

— Sen boraver, — dedi oyim. — Bugun Xo'ja maktabga bormasa kerak.

Darsdan qaytdimu mehmonlar kelganini darrov bildim. Ayvon zinasida yangi amirkon tufli yaraqlab turar, ichkarida oyim allakim bilan chaqchaqlashib suhbatlashar edi. Uyga kirishim bilan eng avval Xo'jaga ko'zim tushdi. U uy to'rida yong'oq, mayizlar bilan bezatilgan xontaxta oldida o'tirardi. Yonida esa onasi o'tirar, oyimning gaplariga diqqat bilan quloq solgancha, yong'oq pallasidan mag'iz ajratib, nuqul Xo'janing oldiga surib qo'yardi. O'shanda, qorong'ida aniq ko'rmagan bo'lsam ham, bu xotin Xo'janing oyisi ekanligini darrov bildim. Ostonada bir zum turib qoldim. Qachondir bu xotinni yomon ko'rib qolganim uchunmi, uni xunuk, juda xunuk deb o'ylardim. Yo'q, judayam chiroyli ekan. Qarg'ashoyi ko'ylagi ham, qop-qora sochlari, yuzidagi xoli ham, Xo'janikiga o'xshagan ko'zlari ham chiroyli edi.

U meni ko'rdiy katta odamni izzat qilgandek, dik etib o'rnidan turdi. Oyimga o'xshab, bag'riga bosib ko'rishdi. Peshonamdan o'payotganida dimog'imga atir hidi urildi. Oyim hech qachon atir sepmagani uchunmi, bu isdan boshim aylanib ketdi.

— Kel, jonim, — dedi yonidan joy ko'rsatib. — Birpas oldimda o'tir. — U yonboshda turgan sumkaning zanjirini g'ijirlatib ochdida, sarg'ish qog'ozga o'roqliq allanima uzatdi. — Ma, jonim!

Qog'ozni ochishim bilan ko'zim charaqlab ketdi. Bu — usti xuddi katak daftarga o'xshash shokolad edi. Quvonch bilan Xo'jaga qarab qo'ydim. Uning ko'zlarida shodlik uchqunlari porlab turar edi.

Shu payt hech kutilmagan voqea ro'y berdi. Eshik sharaqlab ochildi. Xo'janing oyisi yarq etib qaradiyu ilon chaqqandek sapchib o'rnidan turib ketdi. Ostonada yaltiroq tugmali kitel kiygan Egamberdi aka turar, rangi quv o'chib ketgan, nuqul titrar edi. Dahshatdan qotib qoldim. Hozir cho'ntagidan to'pponchasini oladiyu Xo'janing oyisini otib tashlaydi.

— Nega k-k-kelding?! — dedi u g'azabdan tili tutilib. — Nima k-k-kerak senga?! — Endi uning butun vujudi, hatto boshi ham qaltirab ketdi. Har doim tayoqdek osilib yotadigan chap qo'ligacha titrab ketgandek bo'ldi. — Nima k-k-kerak, ayt! — dedi lablari pirpirab.

Xo'janing oyisi rangi o'chgan, boshini quyi solganicha devorga suyanib turardi. Qo'rquv aralash yana Egamberdi akaning o'ng qo'liga qaradim. Yo'q, to'pponchasi yo'q ekan. U birdan oyimga yuzlandi.

— Uyalmaysizmi, opa! — dedi hamon lablari pir-pirab. — Q-qo'shmachilik q-q-qilgani uyalmaysizmi!

Boyadan beri indamay turgan oyim endi tilga kirdi:

— Bandasidan uyalmasangiz, Xudodan qo'rqing, ukam, — dedi sekin. — Ona-bola diydor ko'rishsa, qo'shmachilik bo'ladimi? — negadir uning ko'zlarida yosh qalqidi. — Etni tirnoqdan ajratib bo'larkanmi?

— M-men emas, m-mana bu ajratgan! — Egamberdi aka sog' qo'lini bigiz qilib, Xo'janing oyisini ko'rsatdi. — M-mana shu ajratgan!

Xo'ja goh dadasiga, goh oyisiga javdirab qarar, ammo indamas edi.

— Turmush o'lsin, aylanay, — dedi oyim o'pkasi to'lib. — Kim shunaqa bo'lsin, debdi. Urush bo'lmaganda...

— Urush! — Egaraberdi aka shunday hayqirdiki, uy ichi zirillab ketdi.

— M-men q-qonga belanib yotganimda, bu q-q-qanjiq birovning q-qo'ynida yotgan!

Shu gapdan keyin Xo'janing oyisi sekin egilib, sumkasini oldida, eshikka yo'naldi. Egamberdi aka xuddi xazar qilgandek nari surildi. Shunda boyadan beri indamay turgan Xo'ja onasiga talpindi.

— Oyi-i-i! — dedi iltijo bilan.

Uning ovoz chiqarmasdan, yosh to'kmasdan yig'lab turganini

his etdim. Yo‘q, uning ko‘zida yosh yo‘q edi. Faqat onasiga qarab javdirardi.

Onasi sekin yurib qaytib keldi. Ohista egilib, Xo‘janing ikki yuzidan o‘pdi.

— Dadangni xafa qilma, — dedi-yu tez-tez yurib chiqib ketdi.

— Oyi-i-i! — dedi Xo‘ja umidsiz, ojiz tovushda. Biroq orqasidan chopmadi. Uy o‘rtasida to‘xtab qoldi.

Egamberdi aka yana bir zum boshi titragancha qarab turdi-da, eshikni qarsillatib yopib, chiqib ketdi. Oyim lablarini tishlagancha hiqillab yig‘lab yubordi. Ildam kelib, Xo‘jani bag‘riga bosdi.

— Aynovni-ya! — dedi uning boshini silab. — Qo‘yaver, oying yana keladi.

Tomog‘imga bir narsa tiqilib qolgan, nafas olishga qiynalardim. Bir mahal qo‘limga nimadir yopishayotganini payqadim. Qarasam, shokolad erib ketibdi. Nima qilishimni bilmay, Xo‘jaga uzatdim.

— Ma, ishkalad yeysanmi?

Xo‘ja indamay turar, ko‘zlarida kattalarnikiga o‘xshash tushunib bo‘lmaydigan chuqur ma‘no bor edi.

O‘sha voqeadan keyin bir oycha vaqt o‘tgach, Xo‘janing dadasi uylandi. Oyimning ta‘biri bilan aytganda, sovugan oshdekkina to‘y bo‘ldi. Faqat Zebi xola dutor chertib, yo‘g‘on, shirali ovoza ashula aytganida to‘yxona jimib qoldi.

*Shishani zargarga berdim to‘tiyo bo‘lgaymi deb,
Chin ko‘ngilni yorga berdim oshno bo‘lgaymi deb...*

Hamma-hamma bilan, tavanxonada o‘tirgan oyim biz bilan. Nuqul Xo‘jani chaqiradi, goh cho‘ntagiga qovurma chuchvara solib qo‘yadi, goh popukqand beradi.

To‘ydan keyin Xo‘ja avvalgidan ham ma‘yus, indamas bo‘lib qoldi. Oyim mehribonchilik qilgan sayin o‘zini olib qochadi. O‘shanda bir narsani bilmagan ekanman, keyin tushundim. Odam o‘zining nochorligini qanchalik chuqur his qilsa, shuncha mag‘rur bo‘larkan. Bir kuni ertalab, odatdagidek jildini osgancha, Xo‘ja eshikdan kirib keldi. Oyim unga ko‘zi tushishi bilan chumchuqdek chirqillab qoldi.

— Kim urdi seni?! Qaysi qo‘ling singur urdi?

Qarasam, Xo‘janing yuzi momataloq bo‘lib ko‘karib ketibdi.

— Nimaga uradi?! — dedi oyim ovozi qaltirab. — Shuncha ko‘rgiliging yetmaydimi o‘zi, Xudo urgurlar!

— Urgani yo‘q, — dedi Xo‘ja yerga qarab. — Narvondan yiqilib tushdim.

Maktabga ketayotganimizda sekin so‘radim.

— Dadang urdimi?

Xo‘ja bir zum javdirab qarab turdi-da, bosh irg‘adi.

— Opam kir yuvgan edi, — dedi shivirlab (u o‘gay onasini opa derdi), — yoyib qo‘ygan ko‘ylagini buzoq yamlabdi.

— Dadang yomon-a?

— Yo‘q, — Xo‘ja keskin bosh chayqadi. — Dadam opamni yomon ko‘radi. Shunga achchiq qilib urdi. — U hech kimga aytmaligi kerak bo‘lgan sirni ochayotgandek, atrofga javdirab qarab oldi-da, qo‘shib qo‘ydi. — Dadam oyimni yaxshi ko‘radi...

O‘sha bizning oxirgi suhbatimiz bo‘ldi. Xo‘ja negadir ikki dars o‘qib ketib qoldi. Darsdan qaytib kelsam, oyim yo‘q. Kechqurun allaqayoqdan horib-charchab qaytdi.

Ertasiga ertalab Xo‘jani kutib o‘tirgan edim, oyim negadir jerkib berdi.

— Xo‘ja bilan kindiging bittami! Boraver maktabingga.

Indamadim. O‘sha kuni Risolat opa ham Xo‘jani yo‘qlama qilmadi.

Qaytib kelsam, oyim haliyam jahlidan tushmabdi. Xo‘janing buzog‘ini hovlidagi bodomga arqonlab, hadeb kimnidir qarg‘ayapti.

— Uyiga oborib ber, manavi harom o‘lgurni! — dedi arqonning uchini uzatib.

Yomon bir narsani his qilib, bo‘shashib ketdim: —

O‘zi-chi? o‘zi qani?

— Xo‘ja ketdi, bildingmi! — Oyim yana jerkib berdi. — Oyisi bilan ketdi.

Talmovsirab qoldim. Xo‘janing buzog‘ini yetaklab borarkanman, uni judayam yaxshi ko‘rishimni ilk bor anglab yetdim. Ularning darvozasiga yaqin kelishim bilan yuragimni qo‘rquv bosdi. Darvoza oldida Egamberdi aka o‘tin yorar edi. O‘rik shoxini bir uchidan ushlab, to‘nka ustiga surib qo‘yadi-da, yerda yotgan boltani olib, cho‘nqayganicha zarb bilan uradi, shunda chap qo‘li tayoqdek osilib, yerga tegib ketadi. Keyin boltani yerga tashlab, sog‘ qo‘li bilan shoxni yana to‘nka ustiga suradiyu qaytadan boltani olib, tag‘in chopadi... Qo‘rqa-pisa to‘xtab qoldim.

U qaddini rostlagan edi, menga ko‘zi tushdi.

— N-nima gap? Xo‘ja q-qani? — dedi goh menga, goh

buzoqqa qarab.

— Xo‘ja ketdi. — Qo‘rquvdanmi, alamdanmi, ovozim titrab chiqdi. — Chirchiqqa ketibdi.

Uning qo‘lidan boltasi tushib ketdi. Bir zum lablari titrab, tikilib turdi-yu ko‘zlariga yosh qalqib chiqdi.

— N-nega? N-nega ketadi? — dedi ingrab. Keyin kafti bilan yuzini to‘sgancha, to‘nka ustiga o‘tirib qoldi. Chap qo‘li hamon tayoqdek osilib turar, o‘ng yelkasi esa dir-dir titrar edi.

Katta odamning yig‘lashini birinchi ko‘rishim edi. Kecha Xo‘jani urganini eshitganimda qanchalik yomon ko‘rgan bo‘lsam, hozir unga shunchalik rahmim kelib ketdi. Buzoqning arqonini qo‘yib yubordim-da, uyga yugurdim. Yugurib borarkanman, yig‘lardim, nimaga yig‘layotganimni o‘zim bilmasdim-u, hech o‘pkamni tutolmasdim.

Keyin Xo‘jani boshqa ko‘rmadim. U ora-chora tushimga kirib qolar, nuqul ko‘zlarini javdiratib turgan bo‘lardi. Bahor paytlari kunchiqar tomondagi tog‘lar yaraqlab ko‘rinar, ularni har ko‘rganda xayol surar edim. O‘sha tog‘lar orasida Chirchiq degan shahar bor. Shunaqa katta shaharki, Toshkent uning oldida hech gapmas. U yerda shunaqangi katta daryolar borki, ichida akulalar suzib yuradi. O‘sha shaharda Xo‘ja degan bola bor. Dunyoda undan yaxshi bola yo‘q. Xo‘ja o‘sha daryolarda bemalol suzadi. O‘sha tog‘lar ustiga chiqib, butun dunyoni tomosha qiladi. U meni ham ko‘rib turibdi. Faqat men uni ko‘rolmayapman...

Ancha yillardan keyin, o‘ninchi sinfni bitirayotganimda Xo‘janing daragini eshitdim. Kechki ovqatdan keyin dadam oyimga gapirib qoldi:

— Egamberdi bechora kuyib adoyi tamom bo‘pti. Chirchiqdan kelyapman, deydi. O‘g‘li cho‘ntak kesayotganda qo‘lga tushganmish.

Oyim: «A?» dedi-yu qo‘lidan piyola tushib ketdi.

Men karaxt bo‘lib qolgan edim. Yo‘q, ishonmayman. Yolg‘on, bu gap yolg‘on! Dunyoda Xo‘jadan yaxshi bola yo‘q. Xo‘ja yomon bo‘lishi mumkin emas... Tag‘in kim biladi deysiz, hayot qonunlari har doim ham bizning xohishimizga bo‘ysunavermaydi...

OY QUYOSHDAN NUR OLADI

Ataladan suyak chiqibdi, degandek, ayni saratonda shamol-

lab yurganimni qarang. Dalaga chiqqandim, anhorda cho‘mildim. Qaytishda mashinaning to‘rttala oynasini tushirib qo‘yganim uchunmi, kechasi bilan isitmalab, hammayog‘im qaqshab chiqdi.

Ertalab rayon poliklinikasiga bordim. Qarasam, odam tirband. Tor yo‘lakning ikki chetidagi qator kursilarda biri boshini changallagan, biri bo‘ynini o‘rab olgan bemorlar. Oradan turtinib o‘tib kerakli eshik yaqiniga borsam, odam ayniqsa tiqilinch. Boshim sirqillagancha devorga suyanib ancha turdim. Nihoyat, menga ham joy tegdi. Liqillab turgan kursining bir chekkasiga omonat o‘tirdim. Mendan oldingi o‘rindiqa quralay ko‘zlari katta-katta, qisqa kesilgan sochi tiniq yuziga xo‘p yarashgan ko‘hlik juvon o‘tirar, yonidagi ro‘mol o‘ragan o‘rta yashar xotin bilan gaplashardi. U boshini har chayqaganda sochlari chiroyli silkinib-silkinib ketardi. Tiqilishib o‘tirganim uchun beixtiyor ularning suhbatini eshitishga majbur bo‘ldim.

Ko‘hlik juvon barmog‘i bilan bo‘ynidagi nafis oltin zanjirni asabiy o‘ynar ekan, uf tortdi:

— O‘lsin, kech qolib ketdim. Murodjon akam mashina yuboraman, deb edilar. Kutib qolgandir...

— Murodjon... o‘rtog‘ingizmi? — dedi ro‘molli ayol inqillab.

— O‘rtog‘im? — Ko‘hlik juvon nordon narsa yeb qo‘ygandek burnini jiyirdi. Hatto oydek yuzi ham xunuklashib ketganday bo‘ldi. — Avval avtobusga osilib yurishni eplasin! Mashina yuborish yo‘l bo‘lsin unga!

Ro‘molli ayol bir zum hayron qarab turdi. Bari bir ayollarga xos qiziquvchanligi ustun keldi chog‘i, qayta so‘radi.

— Bo‘lmasa kim?

— Murodjon akammi? — Ko‘hlik juvon jilmaydi. Quralay ko‘zlari suzilib ketdi. Chehrasida: «Nahotki shundoq odamni tanimasangiz?» degan ifoda paydo bo‘ldi. — Boshlig‘imiz-da! — dedi ovozi tovlanib. — Shunaqa yaxshi odam, shunaqa yaxshi odam! Anovi ahmoq bo‘lsa Murodjon akamni ham yomon ko‘radi. O‘z ko‘ngillarida rashk qilar emishlar. Murodjon akamning slujebniy mashinasida dachalariga borganimni odamlar ko‘rganmish. Qo‘ling bilan ushladingmi, dedim! Avval o‘zingni epla, piyonista!

— Eringiz ichadimi? — ro‘molli ayol hamdardlik bilan bosh chayqadi. — Ichkilik o‘lsin! Boshida surishtirmagan ekansiz-da!

— Oldin unaqa emasdi, hozir itdek ichadi. Alamlaridan icharmishlar! — chiroyli juvon qo‘l siltadi. — Murodjon akamga

aytuvdim, jahllari chiqdi. «Bolang ko‘paymasidan yig‘ishtir, razvodga beraver, o‘zim senga kooperativniy kvartira olib beraman», dedilar.

Ro‘molli ayol sergaklandi:

— Bolangiz bormi?

— Qizim bor...

— Bolangiz bo‘lsa, unaqa qilmang, singlim, — deya ro‘molli ayol nasihat qildi. — Har qalay, umid bilan bir yostiqa bosh qo‘ygansiz, bolani tirik yetim qilmang, opovsi aylansin.

— E! — Ko‘hlik juvon tilla zanjirini yana asabiy o‘ynay boshladi. — Murodjon akam...

Bo‘lmadi. O‘z erini bemalol tuproqqa qorishtirib «Murodjon aka»sini og‘zidan bol tomib maqtayotgan ko‘hlik juvon ko‘zimga xunuk ko‘rinib ketdi. «Ehtimol, ering seni deb ichkilikka ruju qo‘ygandir, balki rostdan ham alamidan ichar!» Yana birpas o‘tirsam, shu gaplar og‘zimdan chiqib ketishini bilib, o‘rnimdan turdim. Avvalo, birovning gapiga aralashish odobsizlik. Qolaversa, o‘zgalarning shaxsiy hayoti bilan necha pullik ishim bor? Lo‘qillayotgan chakkamni barmog‘im bilan bosgancha nari ketdim. Chekkim keldi.

Anchadan keyin qaytib kelsam, vrach eshigidan boyagi ko‘hlik juvon chiqib kelyapti. «Murodjon aka»sining mashinasi kutib qolganidan ozor chekkan bo‘lsa kerak, shosha-pisha yo‘lakka otildi. Tor xonaga kirsam, deraza oldidagi oppoq stol ro‘parasida yupqa gardishli ko‘zoynak taqqan, xalatining tugmalarini yechib qo‘ygan naynov vrach o‘tiribdi.

— Yechining, — dedi u kattakon daftarga bir nimani yoza turib.

Xona o‘rtasida to‘xtab qoldim. O‘zi kalta yengli ko‘ylak kiygan bo‘lsam, tag‘in nimani yechaman?

— Yechining! — vrach asabiylashib boshini ko‘tardi. Ko‘zoynagini yiltiratib bir lahza tikildi-yu o‘rnidan turib ketdi.

— Iye, domla, bormisiz! — dedi dilkashlik bilan. — Televizorda uncha-muncha ko‘rib turamizu o‘zingizni hech topolmaymiz. — U chayir, uzun barmoqlari bilan qo‘limni mahkam siqib ko‘rishdi. — Bir xil odamlarga hayron qolasan. Hozir bittasi kirib yarim soat boshimni qotirdi. Tayinli kasali yo‘g‘u byulleten berasan, deydi. U yog‘ini ishxonadagilari bilan o‘zi kelisharmish. — U jilmaygan edi, ko‘zoynak ortidagi mitti ko‘zlari yanayam kichrayib ketdi. — Tanimadingiz-a? Men — Orifman.

Hech baloni eslay olmasam ham, odob yuzasidan bosh silkidim:

— Ha, bo‘ldi-bo‘ldi... Qalay, yaxshi yuribsizmi? Yolg‘on gapirmang, tanimadingiz! U samimiyat bilan yelkamga qoqdi. — Men Risolat opaning o‘g‘liman. O‘qituvchi opa bor edilar-ku!

Endi esladim! Axir, bu o‘zimizning Orifku! Risolat opaning o‘g‘li-ku! O‘shandayam ko‘zoynak taqardi. Jo‘raboshimiz unga «Shapko‘r» deb laqab qo‘ygan edi.

— Dunyo shunaqa ekan, — dedi u o‘yga tolib. — Bu yoqda poshsha xolamlarni ham berib qo‘yibsizlar, ma‘rakada bormoqchi bo‘ldimu hovlinglarni topolmadim. Hammayoq o‘zgarib ketibdi.

— Shunaqa bo‘ldi, — dedim sekin. Risolat opam tuzukmilar, deb so‘ragim kelsada, qanday surishtirishni bilmasdim. Mabodo onasi vafot etgan bo‘lsa nima qilaman yarasini yangilab. U ko‘zimdagi savolni uqdi.

— Bizdayam shundoq bo‘lgan. Uch yil ilgari... — dedi bir nuqtaga tikilib. — Oyim: «Hech bo‘lmasa, bitta bolangni ko‘rsam, armonim yo‘q», derdilar. Bir emas, uchtasini opichlab katta qildilar... Keyin yana Toshkentga kelib qoldik. Qorasuvda turamiz.

Kasal bir yoqda qolib o‘zimizning suhbatimizga berilib ketdik. Asakaga ko‘chib borishgani, onasi Orifning vrach bo‘lishini orzu qilgani, Orif Andijon medinstitutida o‘qigani...

Gapimiz cho‘zilib ketdi shekilli, hadeb yo‘talayotgan soqolli kishi eshikni ikki marta ochib ichkariga ma‘noli mo‘raladi. Suhbatimiz chala qoldi. Orif yozib bergan dori qog‘ozlarni olib chiqib ketarkanman, bolalik xotiralari tag‘in yodimga tushdi.

...O‘sha yili qish qattiq keldi. Tuf desa, tupuk yaxlaydi. Dadam menga birinchi marta piyma olib berdi. Yaxmalak o‘ynashga yaramasa ham, yaxshi, issiqqina. Biroq qor shunchalik qalin yoqqanki, iz tushmagan joyda yursam, piymamning qo‘njidan bemalol kirib ketaveradi. Risolat opalarning hovlisi biznikidan narida bo‘lgani uchun deyarli har kuni darsdan o‘qituvchim bilan birga qaytamiz. U kalish-mahsi kiyib olgan. Yo‘l ochib ketaveradi. Men ketidan ergashaman.

Qahraton tonglardan biri edi. Tanchaga tiqilib yotibman. Akalarim o‘qishga ketgan. Men peshindan keyin boraman. Chopon kiygan dadam to‘rda sandalga tiqilib yarim mudrab o‘tiribdi. Bir tomonda boshiga qalin ro‘mol o‘ragan oyim. Uning yonida samovar. Samovarning qorniga g‘alati tasvirlar tushirilgan.

Oyinning aytishiga qaraganda, bular eski zamonda chiqqan tangalar emish. Jo‘mrak ostiga qo‘yilgan tovoqqa samovar tumshug‘idan muttasil suv tomadi: chik-chak, chik-chak... Derazalarga «Qorbobo rasm chizib ketgan». Tashqari ko‘rinmaydi. Hatto eshikni ham qirov bosgan. Ammo-lekin tancha mazza. Odam bir yotgandan keyin turgisi kelmaydi. Sandal ustidagi eski dasturxonda uch-to‘rt bo‘lak qora non jiyda, turshak...

Bir mahal tashqarida gurji kuchugimning akillagani eshitildi. Dadam bir ko‘zini ochib oyimga savol nazari bilan qaradi. Oyim endi o‘rnidan turayotgan edi, eshik shaxt bilan ochildi. Uyga avval ammam, ketidan sovuq g‘urillab kirdi. Ammamning qalin tivit ro‘moli, qora baxmal paltosi, hatto kipriklarigacha qirov qo‘ngan edi. Oyim ildam borib, uning qo‘lidagi katta tugunni oldi.

Dadam ham shoshib qoldi.

— Iye, iye! — dedi chehrasi yorishib. Ammo boshqa gapirolmadi. Og‘zida nosvoy bor edi. U shosha-pisha sandal ko‘rpasining bir chetini ko‘tardi-da, tanchaga tupurdi.

— Tuzukmisiz, opa? — dedi o‘rnidan turib.

Ammam muzdek lablari bilan peshonamdan o‘pdida, qo‘lini tanchaga tiqdi.

— Xah, o‘lsin-a! — dedi qaltirab. — Qo‘limga so‘zak kirib ketdi-ya.

Oyim choyni yangilash uchun darrov samovarni ko‘tarib chiqib ketdi. Dadam ammamning ko‘ziga tikilib qaradiyu xavotirlanib so‘radi:

— Tinchlikmi, opa, nima bo‘ldi?

— Dard bo‘ldi! Balo bo‘ldi! Sen bu yerda tanchaga ketingni tiqii-ib yotgin, xo‘pmi! Opamning ahvoli nima kechdi, demagin, xo‘pmi!

— Nima bo‘ldi o‘zi? — dedi dadam murosaga chaqirgan ohangda.

Ammam to‘satdan yig‘lab yubordi:

— Ne umidlar bilan kutuvdim bu bolani! Mana, urush bitdi, bolam eson-omon keldi, endi yaxshi to‘ylar qilaman, degan umidim bor edi.

Dadamning rangi o‘chdi:

— Afzalxonga bir nima bo‘ldimi?

Urushdan yaltiroq tugmali shinel kiyib kelgan, ammamning o‘ziga o‘xshash chiroyli Afzalxon akam ko‘z o‘ngimga keldi.

Qaytib kirgan oyim ham dadamning xavotirli savolini eshitib uy o'rtasida turib qoldi.

— Tinchlikmi?

— Bola emas, balo bo'ldi bu! — Ammam ro'molchasiga burnini qoqib piqilladi. — «Kelganingga ikki yil bo'ldi, yoshing ham o'ttizga qarab ketyapti, bilgan u deydi, bilmagan bu deydi», desam, pissayib yurganida gap bor ekan. Daraxtni bir tepsang, yuzta qiz yog'iladi-yu, bu yigit o'lgur mana shu juvonnini olaman deydi! Orqasida tayloqday bolasi bo'lmasayam go'rgaydi.

— Kimni? — dadam bilan oyim baravar so'rashdi.

— Kimni bo'lardi. Risol degani bor ekan-ku! «Erga tegmasidan oldin ham yaxshi ko'rardim», deydi. «Bolasiga o'zim otalik qilaman», deydi. Voy, birovning itvachchasiga otalik qilmay tusingni yel yesin! — Ammam jahl bilan dasturxonni mushtlagan edi, jiydalar sochilib ketdi. — Loy qozonga oltin tuvoq bo'lmay bo'yginang lahatda chirigur!

Endi ko'z o'ngimga Risolat opa keldi. Axir maktabdagi eng chiroyli, eng shirinso'z o'qituvchi shu — o'zimizning Risolat opamiz-ku!

— Ko'zini suzib, qoshini qoqib jodu qilib olgan bolamni bu megajin! — Ammam alam bilan yana yig'lay boshladi. — Bo'lmasa, Toshkentday shahri azimda qiz anqoning urug'i bo'ptimi! Hozir o'n yetti yashar qizga er yo'g'u qilichday bolam shu juvon o'lgurning tuzog'iga ilinib o'tiribdi.

— Yo'g'-e, — dedi oyim bo'shashib. — Risolatxon unaqa juvon emas shekilli.

Ammam «sen jim tur» degan ma'noda onamga o'qraydi.

— Afzalxon yoshlik qilmasin, — dedi dadam o'ylanib. — Har qalay, umr savdosi-ya bu.

— Ha, tiling bor ekan-ku! — Ammam hammasiga dadam aybdordek bobillab berdi. — Gapir! Tog'a bo'lib nasihat qil. Oydayilda bir borsang, dumingni tutqazmaysan. Hech bo'lmasa, uyingga kelganda gapirsang, og'zing bichilib qolmaydi-ku.

Afzalxon akam keyingi paytda biznikiga tez-tez keladigan bo'lib qolgan. Hozir shu esimga tushdi.

— Mayli, — dedi dadam bosh silkib. — Bafurja gaplashamiz.

— Sening gapingga ko'zi uchib turibdi! «Shunga uylanmasam, Toshkentni suvi menga harom, boshim oqqan tomonga ketaman», deydi. — Ammam jahl bilan oyimga burildi. — Nimaga mulla

mingan eshakdek so‘ppayib turibsiz, kelinposhsha! Kiyinmaysizmi?

— Qayoqqa? — dedi oyim talmovsirab.

— Lahadga! — Ammam yana burnini qoqdi. — Sovchilikka bitta o‘zim bormayman-ku.

Oyim garangsib sandalning bir chetiga cho‘kdi.

— Qandoq bolarkin? — dedi ikkilanib. — Xolposh xolaga nima deymiz? «Kelingizga sovchi bo‘lib keldik», deymizmi? Bechoraning o‘zi o‘g‘lidan ayrilib jigar-bag‘ri ezilib o‘tirgan bo‘lsa.

— Yo‘q desa go‘rga... Qo‘lidan kelsa kelinini tiyib olsin!

Ammamning hamma gapini tushunmasam ham, Risolat opani yomonlayotganini his etib turardim. Yo‘q, o‘qituvchim yomonmas. Maktabdagi eng yaxshi o‘qituvchi — o‘zimizni opamiz. Hatto ikkinchi «B»dagilar ham bizga havas qilishadi. Ularning o‘qituvchisi yomon.

Ammam naridan-beri choy ichdi-yu, onamni otlantirdi.

— Sen ham yur! — dedi menga qarab. Oyimning ko‘ziga yalinib qaradim.

— Bormayman, — dedim sekin. — Borgim kelmayapti.

— Bora qol, — dedi dadam. — Hali maktabingga vaqtli-ku.

O‘qituvchimnikiga borishga uyalar, ayniqsa, hozir sira borgim kelmasdi. Dadam ammamdan hayiqqani uchun menga buyurdi, men dadamdan qo‘rqqanim uchun noiloj kiyindim.

Xolposh xolaning bir ko‘zi ko‘r. Negadir aftiga qarashga qo‘rqaman. Ammo o‘zi juda yaxshi xotin. Nuqul «girgitton» deb gapiradi. Jo‘raboshimiz uni «Girgitton xola» deydi. Ularning uyi Toylarnikidan narida... Qor kechib ancha yurdik. Nihoyat, isiriq hidi anqigan pastakkina uyga avval oyim, ketidan tugun ko‘targan ammam, uning ketidan men kirib bordim. Xolposh xola sandal chetida xamir qorib o‘tirgan ekan. Mehmonlarni ko‘rib quvonib ketdi.

— Voy girgittonlar, voy o‘zim girgittonlar! — deganCHA kalovlanib o‘rnidan turdi. Qo‘li xamir yuqi bo‘lgani uchun bilagi bilan yelka qoqib ko‘rishdi.

Paytavani qalin o‘ragan ekanman, piyammani yechguncha qiynalib ketdim. Xolposh xola bir zumda dasturxon yozdi. Xanik chetida cho‘nqayib o‘tirib yong‘oq chaqdi, tut mayiz, shinni qo‘ydi... Oyim qizarib bo‘zarib, ammam esa chimirilib o‘tirardi. U tancha ichidan oyimning oyog‘iga o‘xshatibgina tepdi shekilli, onamning ixcham gavdasi silkinib ketdi.

— Ko‘p ovora bo‘laver mang, — dedi battar qizarib. — Biz bir yumush bilan keluvdik.

— Voy girgitton, ovarasi bor ekanmi? Eshon-oyimning oyoqlariga qo‘y so‘ysak arziydi.

Ammam: «Gapirasanmi-yo‘qmi?» deb qoshini qoqqan edi, oyim tutilib-tutilib gap boshladi:

— Biz... Haligi... Qulchilikka keluvdik, aylanay...

Xolposh xola bir zum dovdirab qoldi. Choy quyib uzatayotgan piyolasi havoda muallaq turib qolgandak edi. U yagona ko‘zi bilan oyimga hayron tikildi.

— Shundoq bo‘p qoldi, — dedi ammam jilmayishga urinib. Uning tabassumi yig‘idan battar ayanchli edi. — Shu, Afzalxon tushmagur Risolatxondan bo‘lagiga ko‘nmayapti... Bilmadim, mabodo taqdir qo‘shgan bo‘lsa...

Xolposh xola yagona ko‘zini ammamga qadab piyolani dasturxonga qo‘ydi.

— Albatta, sizga og‘ir, — dedi oyim ovozi titrab. — Xudo shohid, dilingizni og‘ritmoqchi emasmiz. Bilamiz, bu gapning mavridi emas, o‘zingizning og‘zingiz to‘la qon...

Xolposh xola boshini xam qilib o‘yga toldi.

— Risolatni kelinmas, qizim deganman, girgitton, — dedi anchadan keyin. — Nima qilay, urush judo qildi o‘g‘limdan. Bolamning o‘rniga bolam, deb etagidan tutgan edim. — Uning ovozi titray boshladi. — Mayli, ilojim qancha, meni deb yosh umrini o‘tkazsa, Xudo nima deydi.

Ammam boshqacha gap kutgan ekan shekilli, rangi o‘chdi.

— Men aytdim, — dedi ovozini balandlatib. — «Hoy, bola, yoshlik qilma, keyin shoxing sinib qoladi», deb necha marta aytdim.

— Albatta, teng tengi bilan degan gap bor. — Xolposh xola hamon boshini quyi solib o‘tirardi. — o‘g‘lingiz ko‘z ochmagan yigit bo‘lsa. Qizim... — U jimib qoldi. — Tag‘in o‘zlari bilishadi. Ikkovining ko‘nglida shu niyat bo‘lsa bizning qo‘limizdan nima kelardi. — U qandaydir ichki sezgi bilan sergaklandi. — Shoshmang, girgitton, bolam keldi. Orifim keldi.

Chindan ham eshik ochildi-da, eski paltosining ustidan yelkasiga jild osgan Orif paydo bo‘ldi. U telpagining quloqchinini tomog‘i ostidan o‘tkazib bog‘lab olgan, qoshiqdek yuzida ko‘zoynagi allaqanday kulgili yaltirab turardi.

— Keldingmi, bolam, — Xolposh xola darrov Orifning jildini oldi.

— Sovuq qotib ketibsangiz, shakartoyim.

Orif uchinchi o'qiydi. Ularning darsi tugagan bo'lsa, demak, men ham tezroq maktabga jo'nashim kerak.

— Oyi, ketaylik, — dedim tipirchilab.

— Hali vaqtli, biz uchta o'qidik. — Orif yelkamga qo'lini tashladi. — Yur, qubba o'ynaymiz.

— Mayli, narigi uyga kira qolinglar, — dedi Xolposh xola darrov ko'nib. — Kattalarning gapiga quloq solsa uyat bo'ladi, girgитtonlar.

Orif ikkalamiz qirov bosgan, derazasidan xira nur tushib turgan katalakdek uyga kirdik. Bu Risolat opaning xonasi bo'lsa kerak, burchakda stol, suyanchig'i baland stul bor edi. Stol ustida daftar-kitoblar taxlab qo'yilgan. Kirpech osilgan devorda Risolat opaning chust do'ppi kiygan kishi bilan tushgan surati. Risolat opa do'ppili kishining yelkasiga boshini xiyol egib jilmayib turibdi.

— Bu kim? — dedim suratdagi kishini ko'rsatib.

— Dadam! — Orif tokchadagi tovoqdan bir hovuch yong'oq oldi. — o'ynaysangizmi?

— Mening yong'og'im yo'q-ku.

— Qarzga berib turaman. — U o'nta yong'oqni sanab ajratdi.

— Men gan qo'yaman, xo'pmi?

— Bo'пти.

Qubba o'yini qiyin emas. To'rtta yong'oq qubba qilib qo'yiladi. Uzoqdan poylab tekkizsangiz, gan sizniki. Tekkizolmasangiz, otgan yong'og'ingiz qulog'ini ushlab ketdi deyavering.

Birpasda qarz olgan yong'og'imdan beshtasini yutqazib qo'ydim. Yong'oq namat ustida yaxshi dumalamaydi. Yo sakrab ketadi, yo to'xtab qoladi. Buning ustiga uy nimqorong'i.

Rosa berilib o'ynayotgan edik, narigi uydан Xolposh xolaning ovozi keldi.

— Sandiqning tagiga yong'oq otmanglar, girgитton, sichqon ko'payadi.

Ketma-ket ammamning zardaliroq gapirgani ham eshitildi:

— Mayli, endi bizlar turaylik.

...O'sha kuni xotinlar tag'in nimani gaplashganini bilmayman. Biroq ertasiga Risolat opa juda g'alati, xomush bo'lib qoldi. Tarasha bilan isitilgan temir pechka peshindan keyin ilimiliq bo'lib

qolar edi. Biz bolalar choponimizni yechmasdan o'tiramiz. Hammadan yomoni siyoh muzlab qoladi. Siyohdonni pechka ustiga qo'ysangiz sal eriydi-yu, yana muzlayveradi. Peroni botirsangiz qirs etadi, siyoh yuqmaydi. Har qanday sovuqda ham paltosini yechib, sochini silliq tarab, bosh yalang o'tiradigan Risolat opa o'sha kuni negadir paltosini ham, ro'molini ham yechmadi. O'qish darsi edi. Doskaga chiqdim.

— O'qi, — dedi Risolat opa jurnalni ochib.

— «Quduq yoniga uch xotin keldi. Hammasi o'z o'g'lini maqtay boshladi», — deb sharillatib o'qib ketdim. Bittayam joyida tutilmadim. O'qib bo'ldimu Risolat opaning «O'tir» deyishini kutib turaverdim. U bo'lsa indamaydi. Og'irligimni u oyog'imdan bu oyog'imga tashlab, hali turibman, hali turibman... Risolat opa derazaga tikilgancha o'tiribdi. Shu o'tirishda uxlab qolgandek edi. Oxiri bo'lmadi. Avval sekinroq, keyin qattiqroq yo'talдим.

— O'qi, — dedi u hamon derazadan ko'z uzmay.

— Bo'ldim, — dedim sekin.

— A? — Risolat opa cho'chib uyg'ongandek boshini burdi. — o'ldingmi? O'tir, rahmat.

Risolat opa ertasigayam, indinigayam shunday bo'lib yurdi. Har kuni o'qituvchim bilan birga ketishga o'rganib qolgan ekanman. Maktabdan yolg'iz qaytish alam qilar edi. Bultur Xo'ja bilan qaytardik. Endi uyam yo'q: Chirchiqda. Biyday keng, kimsasiz dala o'rtasidagi ipdek ingichka yo'ldan o'tguncha zerikib ketaman. Yo'ldagi izlar chuqur-chuqur botgan, ikki cheti belim baravar qor. Sal chetga chiqsam, piymam qorga to'lib chiqadi. Risolat opam bilan yursam mazza, harna shamolni to'sib ketadi.

Uchinchi kuni Risolat opam bilan ketdim. Faqat ikkalamiz emas: Afzalxon akam ham bor edi.

Oxirgi darsdan chiqib yuz qadamcha yurgan edim, qarasam, qordan shoxlari egilib ketgan tol tagida Afzalxon akam turibdi. Askarcha shinelini kiyib olgan, oyog'idagi etik yaraqlatib moylangan. Faqat boshyalang. Yaqin bordim.

— Quloqchiningni tushirib ol. — U telpagimning bog'ichini yechib quloqchinni tomog'im ostidan o'tqazdi. — Qulog'ing sovuq qotib qoladi. — Keyin shinelining cho'ntagidan buklangan gazeta oldi. To'rtburchak qilib yirtdi. Boshqa cho'ntagidan xal-tacha chiqardi. Xaltachadan tamaki chimdib oldi-da, uni sarg'ayib ketgan barmoqlari bilan qog'ozga sepib o'ray boshladi.

— Menga qara! — dedi tamaki o‘ray turib. — O‘qituvchingni aytib chiq.

— E, uyalaman! — dedim rostini aytib.

— Xo‘p degin. — Afzalxon akamning barmoqlari titrab ketgandek bo‘ldi. — Bitta ukalik qilgin, jiyan. O‘zing katta yigitsan-ku, senga ordenimni beraman.

Afzalxon akamning kattakon, og‘ir Qizil Yulduzini o‘ynashni yaxshi ko‘rardim. U bo‘lsa, burovini bo‘shatib, yechib ko‘rishimga hech ruxsat bermasdi.

Ordendan ko‘ra uning yalinishi ta‘sir qildi. Piymamdan sovuq o‘tib, oyog‘im muzlay boshlagan bo‘lsa ham orqaga qaytdim. O‘qituvchilar xonasining eshigini qo‘rqa-pisa ochdim. Bu yer ham sovuq, devorda xaritalar. Stol ustida jurnallar. Risolat opa sovib qolgan pechkaning tunuka dudburoniga kaftini bosib, qo‘lini isitayotgan ekan. Nariroqda sochlari oppoq matematika o‘qituvchisi o‘tiribdi.

Risolat opa meni ko‘rib negadir jilmaydi:

— Uyga ketmadingmi?

Indamay bosh chayqadim.

— Bo‘pti, ketdik. — U ro‘molini qaytadan o‘radi. Paltosining tugmalarini soldida, kelib qo‘limni tutdi. — Vuy, qo‘ling muzlab ketibdi-ku. Meni kutishing shartmidi?

Negadir o‘zimni juda yomon ko‘rib ketdim. Yerga qaragancha indamay ketaverdik. Oldinda o‘qituvchim, orqada men. U qo‘lini orqaga cho‘zgancha iliq kafti bilan qo‘limni ushlab olgan. Har qadam bosganida kalish-mahsisi g‘ijir-g‘ijir qiladi. Tovonidan quruq, muzdek qor sachraydi. Bir mahal u qo‘limni qo‘yib yubordi. Menga o‘girilib qaraganini, ko‘zimga tikila-yotganini his qilib turardimu boshimni ko‘tarolmasdim. Afzal akam qorni g‘ijir-g‘ijir bosib yaqin keldi. Shundagina sekin boshimni ko‘tardim. Risolat opa hamon menga qarab turar, sovuq bo‘lsa ham kulcha yuzlari qizargan, yanayam chiroyli bo‘lib ketgan edi. Afzalxon akam ikki qadam narida to‘xtadi.

— Kechirasiz, — dedi sekin. — Men iltimos qiluvdim. — U qorga botib Risolat opaga yo‘l bo‘shatdi.

Oldinda Risolat opa, keyin Afzalxon akam, uning ketidan men — tizilishib yo‘lga tushdik. Anchagacha jim ketishdi. — O‘ylab ko‘rdingizmi? — dedi nihoyat Afzalxon akam.

Ularning gapini eshitish yaxshi emasligini his qilib turardim.

To‘xtab qoldim. Ular ham o‘n qadamcha nari borib to‘xtashdi.

— Bitta o‘g‘lingizni o‘ylasangiz xavotir olmang, — dedi Afzalxon akam. Biroq Risolat opa bir nima deb imladi shekilli, Afzalxon akam ovozini pasaytirdi. Qo‘lini keskin-keskin siltagancha allanimani kuyib-pishib tushuntira boshladi. Ancha gaplashishdi. Oyog‘imdan muz o‘tib ketdi. Burnimni tortaverib charchadim. O‘tib ketay desam, bir yog‘i qorga botishdan, ikkinchi tomoni, ularga yaqin borishdan qo‘rqaman.

Afzalxon akam shinelining cho‘ntagidan yana qog‘oz, tamaki oldi. Tez-tez o‘ray boshladi. Ikkovlari tag‘in yurib ketishdi. Xayriyat! Men ham ergashdim. O‘ttiz-qirq qadam yurib yay-doq dalaning qoq o‘rtasida yana to‘xtashdi. O‘n qadamcha berida men ham to‘xtadim. Endi oyog‘im akashak bo‘lib qolgan, piyma ichida nima bor — nima yo‘q, o‘zim ham bilmasdim.

Afzalxon aka tamaki tutab turgan qo‘lini silkitib yana allanimalarni gapira boshladi. Shundan keyin g‘alati bo‘ldi. Afzalxon akam birdan sirg‘anib ketgandek, cho‘kkalab qoldi. Avvaliga yiqilib tushdi deb o‘ylagan edim. Yo‘q, yiqilmagan ekan. U Risolat opamning oyog‘idan quchib hayqirib yubordi:

— Ayting, nima qilay! Bilaman, Yo‘ldoshni yaxshi ko‘rardingiz. Men ham yaxshi ko‘rardim. Do‘stim edi... Lekin endi u yo‘q-ku!

Risolat opa Afzalxon akamning qo‘ltig‘idan tutib turg‘izmoqchi bo‘lar, ammo kuchi yetmasdi. Beixtiyor uch-to‘rt qadam yaqin borib qoldim.

— Ikkalamiz bitta raschyotda edik! — dedi Afzalxon akam hamon o‘sha ohangda. — Pragada o‘z qo‘lim bilan yerga qo‘ydim. Men tirik qolganim uchun aybdor emasman-ku! Nima qilay endi, u yo‘q-ku!

Risolat opa yig‘lab yubordi. Afzalxon akamning sochini ikki qo‘li bilan hadeb silar ekan, iltijo qildi:

— Men-chi, men?

— Nima siz? Nima?! — dedi Afzalxon akam ham iltijo bilan.

— Men borman-ku! — Risolat opa yana Afzalxon akamning boshini siladi. — U o‘lgan bo‘lsa men tirikman-ku.

Shu alpozda Afzalxon akamning boshini silab, ko‘zlaridan shashqator yosh oqqancha ancha turdi. Keyin sekin burildi yu qorli so‘qmoqdan chayqalib-chayqalib yurib ketdi.

Afzalxon akam anchagacha cho‘kkalab turdi-da, sekin qaddini

rosladi. Men tomonga burildi. Shinelining tizzasi qorga belangan, ko‘zlarida yosh bor edi. U menga qaramadi. Bir hatlab chetga chiqdi-yu, qor kechib gandaraklab yurib ketdi. Hatto nariga borganda ham yo‘lkaga tushib olmadi. Biydak dalada yolg‘iz qoldim. Qora palto kiygan Risolat opa bir tomonga, kulrang shinel kiygan Afzalxon akam ikkinchi tomonga ketar edi. Oxiri ikkalasi ikkita qora nuqtaga aylanib oppoq qorliqqa singib ketdi. Nima uchundir sovuqni unutdim, uygayam borgim kelmas edi.

...Keyin Afzalxon akam biznikiga juda kam keladigan bo‘lib qoldi. Risolat opa sinfimizni yozgacha o‘qitdi-yu, g‘oyib bo‘ldi. Oyimning aytishiga qaraganda, Xolposh xolamning andijonlik singlisi bor ekan. Hammalari o‘sha yoqqa ko‘chib ketishibdi.

Afzalxon akam, ammam aytganidek, «Toshkentning suvi menga harom», deb bosh olib ketgani yo‘q. Biroq anchagacha uylanmay yurdi...

Bir necha yildan keyin yuqori sinfda o‘qiyotganimda astronomiya o‘qituvchimizdan bir haqiqatni bilib oldim: o‘yning o‘zi yog‘du sochmas ekan, quyoshdan nur olarkan. Bu dunyoda oftob borligi uchun ham oy yog‘du sochib turarkan.

PISTACHI

U guzardagi bozorchaning kiraverishida, tagiga pastak kursicha qo‘yib o‘tiradi. Oldida ikkita xalta. Bittasida pista, bittasida qurut. Qish paytlari yonboshida tagi mix bilan teshilgan paqirda cho‘g‘ ham bo‘ladi: qo‘lini isitish uchun. Uning moli xuddi magazindagi singari qat‘iy narx bilan sotiladi. Chumchuqning tuxumidek qurutning ikkitasi o‘n tiyin, pistaning stakani yigirma tiyin. Stakan ham antiqa: bir kaft pista solishi bilan to‘lib chiqadi. Ertalablari uning kayfiyati yomon bo‘ladi. Kulrang ko‘zlari siyrak qoshi ostidan odamga o‘qrayib qaraydi. Qurut sanayotganda, stakanga pista solayotganda qo‘li titraydi. Bilganlar u bilan savdolashib o‘tirmaydi. Mabodo biron xaridor molining qimmatligini aytsa, baloga qoladi.

— Menga o‘rgatma, o‘v! — deydi ko‘zlari g‘azabdan yonib. Jahli chiqqanidan sariq mo‘ylovi uchib-uchib qo‘yadi. — Zakkunni sendan yaxshi bilaman! Senga o‘xshaganlarni deb qon to‘kkanman! — U gapining isboti uchun tarashadek qotib qolgan, bukilmaydigan o‘ng oyog‘ining tovonini o‘tirgan joyida yerga urib-urib qo‘yadi. — Ko‘rdingmi?!

Kechqurunga borib sal chiroyi ochiladi.

— Ja-a-areniy semichka! — deydi ovozini baralla qo‘yib. O‘tgan-ketganga iljayib qaraydi. Silliqroq juvonlar o‘tsa sariq mo‘ylovini burib boshini sarak-sarak qilib qo‘yadi. Yaqinroq kelgan kishi og‘zidan arzon vino hidi gupillayotganini sezadi...

Bu — Dalavoy. Bir vaqtlar dadam tomorqadagi daraxtni kesgani uchun qamatmoqchi bo‘lgan, keyin pora so‘ragan Dalavoyning o‘zi. Uni deyarli har kuni ko‘raman. Har ko‘rganda ko‘nglimda g‘alati xotiralar uyg‘onadi.

. . .

Dalavoy nalugchi bo‘lganidan keyin, ayniqsa quturib ketdi. Yaqin atrofda «Dalavoy kelyapti», desa cho‘chimaydigan odam yo‘q edi. U gijinglagan qizil jiyron minib yurar, yaraqlab turgan etigi ham, galife shimi, «po‘rim» qilib qo‘yilgan sarg‘ish sochi ham o‘ziga xo‘p yarashgan edi. Yelkasidan oshirib tashlab olingan charm tasmali sumkasi, qo‘lidagi qamchisi kishida qandaydir qo‘rquvga o‘xshagan narsa uyg‘otardi. Odamlar uni ko‘rganda azbaroyi hurmat qilganidan emas, qo‘rqqanidan salom berardi.

Urush endi bitgan, hammaning ahvoli o‘ziga ma‘lum... Dalavoy nalugchi soliqni o‘z vaqtida to‘lay olmagan odamlarning hovlisiga to‘ppa-to‘g‘ri otda kirib kelar, adi-badi aytishib vaqtini o‘tkazib o‘tirmas, namat bormi, samovar bormi, xullas, yaroqliroq biron buyumni baholab olib ketardi.

Odatdagi yoz oqshomlaridan biri edi. Oyim echkini sog‘ib bo‘lib, «nasibasini» emsin, deb uloqchalarni qo‘yib yubordi-da, oshxonaga kirib ketdi. Biri qora, biri oq ikki uloqcha onasining yeliniga yopishgancha oldingi oyoqlari bilan cho‘kkalab dumchalarini likillatib-likillatib emishar, echki uzun, oqish kipriklarini yarim yumib maza qilib kavshanar edi. Oyim oshxonada go‘ja pishirar, havoda tutun aralash piyozdog‘ hidi kezar, akam bilan men supada turib kim uzoqqa sakrash o‘ynayotgan edik.

Bir mahal ko‘cha tomondan tuyuq tovushi eshitildi. Darvoza sharaqlab ochildi-da, qizil jiyronning jilovidan tutgan Dalavoy nalugchi kirib keldi. Akam bir zum angrayib turdi, keyin ovozi boricha qichqirdi:

— Oyi!

Oshxonadan achishgan ko‘zini ishqalab oyim chiqdi.

Dalavoyni koʻrdiyu shoshib qoldi.

— Voy, voy, aylanay, — dedi ovozi titrab. — Assalomu alaykum. Yaxshi oʻtiribsizlarmi, oʻrgilay? Kelinim eson-omonmilar?

Dalavoy indamay bosh irgʻab qoʻydi. Uning avzoyi buzuq edi. Kulrang koʻzlari qisilib turar, qoʻlidagi ilondek qamchisini oʻynatib-oʻynatib qoʻyar edi.

— Voy esim qursin. — Oyim endi hushini toʻplagandek jilmaydi. — Nimaga qarab turibman? Oʻtiring, oʻrgilay. Hali-zamon ovqatim pishib qoladi. Men hozir...

Oyim koʻrpacha opchiqish uchun boʻlsa kerak, uy tomonga yoʻnalgan edi, Dalavoy qatʻiy bosh chayqadi:

— Yoʻq, mundoq keling.

Oyim taraddudlanib hovli oʻrtasida toʻxtab qoldi.

— Xoʻ-oʻsh, — dedi Dalavoy maʼnodor qilib. — Bu, naluglar koʻpayib ketibdi-ku, bu yogʻiga nima qilamiz?

Oyim jilmayishga urindi:

— Bilmasam, opovsi. Uch kundan keyin adasi maosh oladilar.

— Unisi uch kun deydi, bunisi besh kun deydi! — Dalavoy jahl bilan sariq qoshini chimirdi. — Nima, mening jonim temirdanmi? Yuraveramanmi u eshikdan kirib, bu eshikdan chiqib!

Oyimning koʻzlari tashvish bilan javdiradi:

— Nima qilaylik, opovsi, oʻtgan safar barkashni olib ketdiniz...

Oyimning gapi negadir Dalavoyni gʻazablantirib yubordi.

Kulrang koʻzlari qisilib, allaqanday koʻkish oʻt sachrab ketgandek boʻldi.

— Nima, barkashingizni uyimga oborib qoʻyibmanmi? — dedi ovozi jaranglab. — Zakun bor, bildingizmi?

Shu payt osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi, allaqayoqdan gurji kuchugimiz paydo boʻldi. Xuddi hozir gʻajib tashlaydigandek toʻppa-toʻgʻri otning oyogʻiga yopishib ovozi boricha akillay boshladi. Jyron yer tepinib pishqirdi. Boshini shiddat bilan koʻtargan edi, Dalavoyning jilov tutgan qoʻli siltanib qayrilib ketdi.

— Yoʻqol-e, padaringga laʼnat! — U jahl bilan jilovni tortdi. Itga qamchi oʻqtaldi. Kuchuk angillab qochdi. Biroq nariroqqa borib battar vovillashga tushdi. — Yeching anovini! — Dalavoy dagʻdagʻa bilan oyimga buyurdi.

Oyim bir zum koʻzlarini pirlpiratib turdi-da, sekin, entikib

so‘radi.

— Nimani, opovsi?

— Anovi govmish sigirni! — Dalavoy labining bir cheti bilan istehzoli kuldi. — Qo‘tir echkidan boshqa nimangiz bor o‘zi?

— Insof qiling, opovsi. O‘zi bolalarning og‘zini oqartirib turgan bisotimizda bor molimiz shu. Buniyam opketsangiz holimiz nima kechadi? Bir joylik odammiz-ku, o‘rgilay.

— Qanaqa g‘alcha odam bular o‘zi? — Jahli chiqqanidan Dalavoyning ingichka mo‘ylovi ucha boshladi. — Nima, sendaqalardan boshqa ishim yo‘qmi?! Davlat bor, zakun bor! Mana! — U qamchisini qo‘ltig‘iga qistirdi-da, yelkasidan oshirib taqib olgan charm sumkasini ochdi. — Mana, — dedi oyimning burniga allaqanday qog‘ozni tiqishtirib. — O‘ttiz kilo go‘sh, o‘n besh kilo yog‘, yuz litr sut... O‘qing, savod bormi o‘zi?

Oyim qog‘ozga emas, Dalavoyning ko‘ziga termildi:

— Qo‘tir echki qanaqa qilib yuz litr sut bersin, opovsi, — dedi sekin.

— Iya! — Dalavoyning kulrang ko‘zlari qisilib ketdi. — Hali davlatning zakuni bekor ekan-da! Tegishli joyda gaplashib qo‘ymaylik tag‘in.

Oyimning rangi quv o‘chib ketdi.

— Jon ukam, — dedi yalinib. — Iloyo martabangiz bundan ham ulug‘ bo‘lsin. Ko‘rib turibsiz-ku...

— E, nimani ko‘raman! Mana bu yerga hammasini yozib qo‘yibman-ku! Mana! Mana!

U qog‘ozni «mana» deb shahd bilan ko‘targan edi, jiyron hurkib ketdi. Qattiq pishqirdiyu suvlig‘ini shiqirlatgancha bir siltagan edi, jilov Dalavoyning qo‘lidan cliiqib ketdi. Qo‘ltig‘iga qistirilgan qamchisi tuproqqa tushdi. Ot dumini gajak qilgancha darvoza tomon yo‘rti. Dalavoy jaholatda otning ketidan yugurdi. Bir sakrab jilovdan tutib oldi-da, sudragundek bo‘lib boyagi joyga olib keldi. Engashib yerdan qamchisini oldi-yu, kuchi boricha jiyronning boshiga soldi. Ot jon achchig‘ida boshini silkitib oldingi oyoqlari bilan yer tepina boshladi. Ammo Dalavoyning baquvvat qo‘li jilovni burab olgan, har gal qamchi vizillaganida ot pishqirib suvlig‘idan ko‘pik sachratar, ko‘zlari olayib qulog‘ini ding qilgancha yer tepinar, biroq jilovini bo‘shatolmas edi.

Dahshatdan chinqirib yubordim. Akam hamon angrayib turardi. Oyim yugurib kelib Dalavoyning qamchisiga osildi:

— Urmang, jonivorda nima gunoh!

— E, nari turing! — Dalavoyning ko‘zlarida rosmana vahshiy o‘t yonar, o‘zining labi ham xuddi otiniki singari ko‘pirib ketgan edi. U a‘zoyi badani titrab turgan otini jilovidan siltab tortganча hovli burchagiga qarab yurdi. Bir qo‘lida jilov tutgan ko‘yi ikkinchi qo‘li bilan echkining arqonini qoziqdan yecha boshladi. Oyim chumchuqdek chirqillab, echkining arqoniga yopishdi.

— Bermayman! — dedi nafasi qaytib. — o‘ldirsang ham bermayman.

Dalavoy arqonni yechib torta boshladi. Boyadan beri yonimda indamay turgan akam supadan sakrab tushdi-da, chopib borib arqonga yopishdi. Dalavoy u yoqqa tortdi, oyim bilan akam bu yoqqa. Oyimning ro‘moli yechilib, yelkasiga tushdi. Sochlari yoyilib ketdi. Echki ham xuddi hammasini tushungandek to‘rtta oyog‘ini yerga tirab orqaga tisariladi. Endi ovozi o‘cha boshlagan kuchugimiz tag‘in «ishga kirishdi». Qandaydir ingichkalashib ketgan tovushda alam bilan akillaganча, koptokdek pildirab chir aylana boshladi. Faqat men dahshat ichida qotib turar, nima qilishimni bilmas edim. Dalavoy arqonni sal bo‘shatgan edi, bo‘yni cho‘zilib ketgan echki boshini silkitib, bo‘g‘ilib yo‘tala boshladi.

Ichkarida uxlab yotgan ukam shovqin-surondan uyg‘onib ketdi shekilli, ayyonga ishtonчаan chiqib burni oqqanча yig‘lay boshladi. Oyim Dalavoyning arqonni bo‘shatganidan umidvor bo‘lib yana yalindi.

— Hech bo‘lmasa mana shu qora ko‘zlarni o‘ylang. Iloyo siz ham shunaqa qo‘sha-qo‘sha o‘g‘illar ko‘ring, ukam, — dedi harsillab.

Dalavoy arqonni qo‘yib yubormadi. Ijirg‘anib yuzi-ni o‘girdi:

— E, shunaqa qing‘ir-qiyshiq bolalar ko‘radigan bo‘lsam, ko‘rmadim-e!

Oyim tarsaki yegandek birdan seskanib ketdi. Bir zum Dalavoyga tikilib turdi-yu arqonni qo‘yib yubordi. Qalin lablari titray boshladi.

— Ol! — dedi ovozi qaltirab. O‘sha zahoti ko‘zlari jiqqa yoshga to‘ldi. — O‘zimni so‘ksang so‘k, bolalarimni nimaga haqorat qilasan, imonsiz! — Keyingi so‘zlar bo‘g‘zidan yig‘i aralash nido bo‘lib chiqdi. — Iloyo u dunyo bu dunyo tirnoqqa zor bo‘lgin, bildingmi! Iloyo xonadoning chaqaloq yig‘isiga zor bo‘lsin!

Dalavoy birpas bezrayib turdi-da, g‘udranib so‘kindi. Arqonni

qo'yib yuborib orqasiga burildi.

— Opket! — dedi oyim qat'iyat bilan. — Erkak bo'lsang, so'zingdan qaytma!

Dalavoy uch qadamcha yurgan joyida shartta burildi. Arqonni yulqib oldi-da, echkini eshik tomon sudrab ketdi. Echki hamon tixirlik qilib orqaga tisarilar edi. Boya onasini to'yib emib olgan, endi hovlining allaqaysi burchagida yurgan uloqchalar dikonglab echkiga ergashdi. Akam jonholatda yugurib uloqchalardan birining orqa oyog'idan ushlab qoldi. Uloqcha ayanchli ma'rab tipirchilar, akam qo'yib yubormas edi. Dalavoy darvozaga yetganda ikkinchi uloqchani etigi bilan turtib ichkarida qoldirdida, bir qo'lida ot jilovi, boshqa qo'lida echki arqonini tutganicha eshikni qarsillatib yopib chiqib ketdi. Ro'y bergan voqeaning butun dahshatini endi tushungandek bo'ldim. Echkim bo'lmasa, maydonchaga nima deb boraman? Vali bilan qanday o'ynayman? Toy bilanchi?

Oyim bir zum hovli o'rtasida sochlari parishon turib qoldi. Keyin hamon yig'layotgan ukamning tepasiga keldi. Burnini etagiga artdi-da, ko'tarib uyga opkirib ketdi.

Qosh qorayganda darvozadan yugurgudek bo'lib dadam kirib keldi. Hamma gapni ko'chadan eshitgan shekilli, to'ppa-to'g'ri uyga kiriyu qo'shog'iz miltig'ini ko'tarib chiqdi.

Oyim dod solib miltiqqa yopishdi.

— Qamab qo'yadi! — dedi chirqillab. — Nima qil- moqchisiz, qamab qo'yadi!

— Qoch! — Dadam g'azabdan qaltirab, tirsagi bilan oyimni nari surdi. — Bir boshga bir o'lim!

— Kerakmas, Xudo xayringizni bersin, kerakmas.

Oyimning nolasi ta'sir qildi chog'i, dadam holdan toygandek supaning chekkasiga o'tirib qoldi. Tizzasasi ustiga miltiqni ko'ndalang qo'yganicha kaftlari bilan boshini changalladi...

— Davlatning odami bilan o'ynashib bo'ladimi, — dedi oyim murosaga chaqirgan ohangda.

— Davlat unaqa deganmas! — dadam jahl bilan tizzasiga mushtladi. — Davlat, bironing oxirgi molini shilib kelasan, deganmas. Bu gap o'sha piyonistaning o'zidan chiqqan.

— Qo'lida qog'ozi bor-ku, — dedi oyim yoshli ko'zlarini mo'ltiratib.

— Tag'in gapiradi-ya! — Dadam hammasiga oyim aybdordek yana tizzasiga mushtladi. — Hech kim unga unaqa qilasan, deb

o'rgatgan emas! Bu ablahning o'zi davlatni odamlarga yomon ko'rsatib yuribdi. Shunga aqling yetadimi, yo'qmi!

— Mayli. — Oyim yengining uchi bilan ko'zini artdi. — Ungayam boqqan balo bordir... Mayli, — dedi xo'rsinib. — Shukr, urush bitdi, bu kunlar ham o'tib ketar. Hademay bolalar katta bo'lib qoladi. — Dalavoyning boyagi gapi yana yuragini o'rtab yubordi shekilli, oyimning ovozi titrab ketdi. — O'zimni so'ksa mayli edi, bolalarimni nimaga gapiradi...

...Onam aytganidek, o'sha kunlar unut bo'ldi. Turmush iziga tushib ketdi. Kunlardan birida oppoqqina, do'mboqqina notanish xotin bir narsadan qo'rqqandek hurkib darvozadan kirib keldi. Oyim aylanib-o'rgilib unga peshvoz chiqdi. Notanish xotin oyim bilan ko'risha turib hiqillab yig'lab yubordi.

— Kuyovingiz yana urdi, — dedi sekin. Uning chap yuzi momataloq bo'lib ketganini endi ko'rdim.

— Kunora uradi. «Qisir sigirsan», deydi. Bo'yimda bo'lmasa, nima qilay, opajon. «Seni ming taloq qo'yib onasi o'pmagan qizni olaman», deydi. — Notanish xotin ho'ng-ho'ng yig'lar, o'pkasini tutib ololmasdi. — «Seni deb odamlarga yomon ko'rindim», deydi. Nimani qoyil qipti? Topganini ichadi. Kecha mast bo'lib sizni gapirdi. «Shuyam qarg'agan edi», deydi. Mahallaga qo'shilolmasam, birovga hasrat qilolmasam. Burchak jinnisi bo'lib o'tiribman. Kinga dardimni aytsam kuladi. Ta'nadan boshim chiqmay qoldi, aylanay opajon.

Bu — Dalavoyning xotini ekanini endi tushundim. Hayron bo'lib goh onamga, goh Dalavoyning xotiniga qarab turardim.

— Voy, gapingiz qurmasin! — Oyim uning yelkasiga qoqdi. — Qo'ying-e, nima, men payg'ambar bo'pmanmi? Jahl ustida aytgan bo'lsam, ming marta qaytib oldim, o'rgilay! — U choy quyib uzatdi. — Shuni o'ylab yuribsizmi hali? Qo'ying, o'zingizni bosing. Meni aytdi dersiz, opovsi, ichingiz to'la bola. Hali shunaqa qo'sha-qo'sha o'g'illar ko'rasizki, og'ziga kuchi yetmaganlar uyaliq qoladi, aylanay!

Dalavoyning xotini oyimga termilib turarkan, yoshli ko'zlari bilan jilmaydi:

— Aytganingiz kelsin, — dedi pichirlab.

Ammo Dalavoy aytganini qildi: xotinini qo'yib yuborib, «onasi o'pmagan» qizni oldi... Teshik munchoq yerda qolmaydi deganlari rost ekan. Dalavoyning avvalgi xotini Abdi degan aravakashga

tegdi. Ora-chora bir bolasini ko'tarib, birini yetaklab oyimning oldiga kelib qolar, ikkovlari uzoq-uzoq chaqchaqlashib o'tirishar edi.

Dalavoyning ikkinchi xotini ham tug'madi. Lekin bunisi «zakunni» bilish bobida o'zidan qolishmas ekan. Dalavoy uni ham «qisir sigirsan», deb bir marta urgan ekan, «tegishli joy bilan gaplashib qo'ydi» shekilli, nalugchilikdan bo'shatishdi. Biroq, Dalavoy otdan tushsa ham egardan tushmasdi. Hamon jiyronini gijinglatib «po'rim» kiyinib yurar, faqat endi yelkasiga osib yuradigan charm sumkasi yo'q edi.

Falokat qosh bilan qovoqning o'rtasida turadi degan gap bor. Dalavoy bir kuni mast bo'lib kelayotganida ot hurkib sudrab ketibdi, degan gap tarqaldi. Beli bilan oyog'i sinib kasalxonada yotdi. Uzoq yotdi...

...Hozir uni deyarli har kuni ko'raman. Guzardagi bozorxada o'tirib pista sotadi:

— Ja-a-reniy semichka!

Bilganlar u bilan savdolashib o'tirmaydi. Bilmaganlar sal jig'iga tegishsa, tayoqdek qotib qolgan o'ng oyog'ining tovonini yerga urib-urib qo'yadi. G'azabdan sariq mo'ylovi uchib-uchib xirillaydi:

— Menga qara, o'v! Zakunni sendan yaxshi bilaman. Senlarni deb qon to'kkanman!

Har gal uni ko'rganimda g'alati tuyg'ular qiynaydi. Bir jihatdan achinaman. Ehtimol, u o'z vazifasini bajargandir. Ehtimol, o'sha paytda shunday qilish kerak bo'lgandir. Ammo insonning fe'li g'alati. Yaxshi narsa esidan chiqsa-chiqadiki, yomonlikni unutishi qiyin. Ayniqsa, bu — bolalik xotirasi bo'lsa... Uni har ko'rganimda ko'z o'ngimda onamni haqorat qilgani xayolimga kelaveradi. Onamning jiqqa yosh to'la ko'zlari tasavvurimda jonlanadi.

USTA

O'zbekning o'tpuskasi yo uy qurish bilan o'tadi, yo to'y qilish bilan. Bultur hovli etagiga mehmonxona, ayvon soladigan bo'ldik. Imorat solish tashvishini boshiga tushgan biladi. Taxta bo'lsa, g'isht yo'q, g'isht bo'lsa, tunuka yo'q, tunuka topilsa, bo'yoq yo'q... Mayli, hozir gap bunda emas.

Devor ko'tarilganidan keyin Abdujabbor degan usta ishga tushdi. G'irt chapani, ammo qo'li gul yigit. To'sin tashlash

deysizmi, ustun qo'yish, pol qoqishmi — hammasini o'rinlatadi. Halol ishlaydi. Faqat bitta kamchiligi bor — ichadi, har kuni ichadi. Peshingacha amallab turadi-yu, tushlik paytida chidolmay qoladi.

— O'v, akam, opkela qoling anovi «oqbola»dan! Tomoq jonivor bedana bo'p sayrab ketdi-ku!

Nima qilsayam mehmon, bir nima deyolmayman. Oyimga sezdirmaslik uchun imi-jimida piyolani to'ldirib quyib beraman. U o'zining aytishicha, «zahariga» otib oladi-da, ashulani vang qo'yib ishini davom ettiraveradi:

*Bog' aro-o-lab boraman,
Gulshan ar-o-olab boraman...*

Oyim uning yana ichganini bilib, meni koyishga tushadi.

— Bola-chaqali odamni piyonista qilmoqchimisiz? Har kuni ichirishga uyalmasanmi?

Abdujabbor tepadan turib hayqiradi:

— Ichganim yo'q, Poshsha oyi! Ichganim yo'q! Ichgan bo'lsam bir qoshiq suvda cho'kib o'lay! Meni mast deb o'ylayapsizmi? Mayli, kerak bo'lsa bir oyoqda turib beraman. — U to'sin ustida bir oyoqlab turib «mast emasligini» namoyish qiladi. Oyim battar chirqillaydi:

— Hoy, ehtiyot bo'l, yiqilib ketasan!

...Ish tom yopishga yetganda oyim meni chetga imlab qattiq tayinladi.

— Agar shu bolaga endiyam ichirsang, norozi bo'laman! Kecha yiqilib ketishiga sal qoldi. Birovning bolasi mayib bo'lib qolsa, Xudo nima deydi!

O'sha kuni tushlikda Abdujabborga yotig'i bilan tushuntirdim:

— Endi, birodar, ko'nglingizga kelmasinu tushlikda ichmay qo'ya qoling.

Usta u deb ko'rdi, bu deb ko'rdi, bo'lmadi. Oxiri qovog'i osilib tomga chiqib ketdi. Qo'shiq aytish yo'q, gaplashish yo'q... Uchto'rt kun ahvol shunday davom etdi. Keyin men ham ishga tushib ketdim. Bir kuni tushdan keyin xabar olay deb kelsam, uzoqdan ustaning vadavang ashulasi eshitilyapti. Tunukani ikki marta taraqlatadi-yu iyagini o'ng tomonga cho'zib chiranib qichqiradi:

Bog' aro-o-olab boraman...

Bolgʻani yana ikki marta uradi-da, iyagini chap tomonga choʻzib qaytaradi:

Gulshan aro-o-olab boraman...

Oshxonada choy qaynatayotgan oyimning oldiga kirdim.

— Bu, yana «bogʻ arolab» borish boshlanibdi-ku, kim ichirdi?

— Bilmasam, — deydi oyim menga qaramay. — Ichgani yoʻq shekilli.

Abdujabbor gapimizni eshitib qoldi chogʻi, tomdan turib baqirdi:

— Nima deyapsiz, oʻv akam! Ichgan boʻlsam bosgan izim orqamda qolsin. Nima, ichsam aytishga qoʻrqamanmi sizdan! Poshsha oyimning oldilarida ichib jinni boʻpmanmi! Yaxshisi, bitta opkeb qoʻying «oqbola»dan! Kechqurun jigarini ezamiz...

Birovga tuhmat qilgim kelmay indamay qoʻya qoldim. Keyin bu gaplar unutilib ketdi.

...Yaqinda uyda ishlab oʻtirsam, Abdujabbor kelib qoldi. Kiyimlar bashang, doʻppi boshga qiyshiq qoʻndirilgan. Soqollar qirtishlangan...

— Qalay, akam, qogʻoz qoralab oʻtiribsizmi! — dedi shangʻil-lab. — Bizga xizmat-pizmat yoʻqmi bundoq.

Qiziq, uning shangʻillashi, chapanilarcha «akam» deb gapirishi ham oʻziga yarashadi. Quchoqlashib koʻrishdik.

— Ozgina olasizmi? — dedim kulib. — Oʻshanda besh-oʻn kun sazangizni oʻldirgan edim. Endi qarzimni uzay.

— Yoʻq. — Abdujabbor keskin bosh chayqadi. — oʻzim qarzimni uzgani keldim.

U shimining piston choʻntagini kavlab oʻn soʻmlik chiqardi-da, stolga qoʻydi:

— Mana.

— Nima bu?

— Qarzim, — dedi u negadir qovogʻini solib.

Hech nimaga tushunmadim.

—Mendan qarzingiz yoʻq.

— Sizdan emas, Poshsha oyimdan olganman.

Uning birdan oʻziga yarashmagan maʼyus qiyofaga tushib qolishi gʻalati edi. Onamni eslab, oʻzim ham maʼyus tortib qoldim.

— Olgan boʻlsangiz yaxshi, — dedim sekin. — Shuniyam oʻylab oʻtiribsizmi?

— Yoʻq, — Abdujabbor yana keskin bosh chayqadi. — Men

odatdagidek shiddat emas, o‘ychanlik bor edi.

— Keyin yana bir marta mazam qochganda Poshsha oyim tag‘in besh so‘m «tushirib qo‘ydilar», — dedi u sekin, — men topib oldim.

Oraga uzoq sukunat cho‘kdi. Abdujabbor bir nuqtaga tikilib o‘tirar, qovog‘i soliq edi.

— Mana o‘sha o‘n so‘m! — U pulni men tomonga surdi.

— Qo‘ying, — dedim sidqidildan. — Oyim sizdan rozi ketganlar.

— Olmasangiz otamning bolasimasman! — Abdujabbor shaxd bilan o‘rnidan turdi, ostonaga borganda to‘xtab qayrilib qaradi. — Anuv kuni Poshsha oyimni ziyorat qilgani boruvdim, — dedi ovozi xirillab. — Mozor darvozasidan qaytdim: ichgan edim. — U bir zum yerga qarab turdi-da, qo‘shib qo‘ydi. — Bugun payshanba, bormoqchiman. Uch kundan buyon og‘zimga olganim yo‘q.

U javobimni kutmay eshikni yopdi-yu, chiqib ketdi.

HAVAS

Har qanday dardning eng yaxshi davosi vaqt deydilar. Bilmadim, boshqalarda shunday bo‘lsa bordir. Menda... Ba‘zan hammasini unutganday bo‘lamanu biron narsadan siqilsam, tag‘in qaytadan boshlanadi. Kechasi uyqum o‘chganicha qorong‘i shiftga tikilib yotaveraman, yotaveraman... Shunda qulog‘im ostida onamning ohista yupatishi eshitiladi. «Qo‘y bolam, o‘zingni siqma... Menga sening chivindek joning kerak. Sen uchun mening yuragim yonganida boshqalarni etagining bari ham kuymaydi, bolam. Hech bo‘lmasa meni kuydirmagin...»

Bir vaqtlar shunchaki gapdek ko‘ringan bu so‘zlar endi boshqacha, juda boshqacha jaranglaydi xayolimda...

Jahongir degan jurnalist do‘stim bor. Juda dilkash yigit. Faqat doim shoshib yuradi. Bugun Toshkentda, ertaga qarasangiz Samarqandda... Xotini o‘zining teskarisi: bo‘shashgangina juvon. «Jahon qani?» desangiz, «bilmadim, Tojikistonga komandirovkaga ketuvdilar shekilli, yanagi haftalarga kelib qolsalar kerak», deb qo‘ya qoladi. Yanagi hafta borsangiz, Jahongir Turkmanistonga ketgan bo‘ladi.

Qaysi kuni shu o‘rtog‘im kelib qoldi.

— Qani, otlan! — dedi odatdagidek shoshilib. — Jizzaxga ketdik.

Lanjlik qilib bahona izlay boshlagan edim, qo'limdan ushlab uyiga sudradi. Darvoza oldida «Moskvich»i yaraqlab turibdi. Mashina yonida keksa onasi — Mehri xola... Uning nimasinidir o'z onamga o'xshataman. Ma'yus qiyofada boshini bir yonga tashlab turishimi, uzun, qora baxmal nimchasimi, qalin ro'mol tagidan chiqib turgan oppoq sochlarimi...

Mehri xola o'g'lidan xursand. Ko'ziga parda tushib ko'rolmay qolganida Jahongir Muhammadjon do'xtirga oborib operatsiya qildirdi. Mehri xola: «Jahonim tufayli dunyoga yangidan keldim», deb har gapida duo qiladi. Ko'zi-ku, yaxshi ko'radigan bo'lgan. Lekin qulog'i og'ir. Qattiq gapirmasangiz eshitmaydi.

U meni ko'rib quvondi. Peshonamdan o'pib ko'rishdi.

— Bu dalovsha yana o'tlanib qoldi, — dedi Jahongirga imo qilib. — O'zi kecha keluvdi.

Do'stimning fe'lini bilganim uchun indamay qo'ya qoldim. Jahongir kapot ostiga sho'ng'ib motorni tekshirish bilan ovora edi.

— Yo'lda ehtiyot bo'linglar! — Mehri xola xira ko'zlarini javdiratib iltimos qildi.

— Xavotir olmang, — dedim uni yupatib.

— A?

Ovozimni balandlatib yana tasalli berdim:

— Xotirjam bo'ling, indinga qaytib kelamiz.

Mehri xola bir zum boshini egib jim turdi-da, hamon motorni kavlashtirayotgan Jahongirning yoniga bordi.

— Jahon, — dedi sekingina, — tog'dan ehtiyot bo'lib o'tgin.

Jahongir yelkasi osha onasiga qaradi:

— Jizzaxning yo'lida tog' yo'q.

— Tog' ko'p bo'lgani uchun aytyapman-da, — Mehri xola astoydil kuyinib tushuntira boshladi. — Mashinangni sekin haydagin. Shoshmagin, jon bolam.

— Tog' yo'q desam, tog' ko'p deysiz-a! — Jahongir burnini tortib qaddini rostladi. — Qo'rqmang, oyi, tog'ning yoniga bormaymiz, chetlab o'tib ketamiz.

Mehri xola bir zum indamay turdi. O'g'lining javobidan bari bir qanoat qilmadi. Tag'in mening oldimga keldi.

— O'zingiz qarab boring, jon bolam, — dedi yolvorib. — Ayting, to'xtab-to'xtab, dam olib, dam olib yursin.

— Xo'p, oyijon. O'zim qarab turaman. Dam olib-dam olib

boramiz.

Mehri xola yana bir zum qarab turdi-da, hovliga kirib ketdi. Biroq ko'p o'tmay po'stakka o'xshash bir narsani quchoqlab ko'tarib chiqdi. Qarasam, kattakon po'stin. Endi kapotni yopgan Jahongir nochor qiyofada aftini burishtirdi.

— Kun issiq-ku!

— Nima?

— Kun issiq-ku, nima qilaman buni?

— Yo'lda sovuq qotib qolsang, kiyasan.

Do'stimning nochor qiyofasida ham, Mehri xolaning po'stin ko'tarib turishidayam ham kulgili, ham qandaydir odamning dilini larzaga soladigan g'alati ifoda bor edi.

— Menga bering, — dedim Mehri xolaning qo'lidan po'stinni olib. — Jahon kiymasa, o'zim kiyaman.

— Bo'пти, ketdik. Kech qolamiz! — Jahongir shaxd bilan mashinaga o'tirdi.

— Shoshma! — Mehri xola xol-xol dog' bosgan qo'lini siltab imo qildi. — Qani, omin! — dedi duoga qo'l ochib. — Bolamni sizga, sizni Xudoga topshirdim. Oy borib, omon kelinglar. Safarlaring bexatar bo'lsin, do'stga zor, dushmanga xor qilmasin. Iloyo tuproq olsanglar oltin bo'lsin. Iloyo...

Jahongir noiloj kaftini ochib turarkan, alamini boyadan beri mashina atrofida aylanishayotgan o'g'ilhasidan oldi:

— Nimaga bosh yalang chiqding? Sovuq-ku! Uyga kir, shpana!

— Shunday dediyu betoqatlik bilan motorni yurgizdi. Mehri xola shosha-pisha fotiha tortdi. Do'stim endi mashinani orqaga tislantirib o'nglagan edi, onasining qo'l siltab qichqirgani eshitildi.

— To'xtasang-chi, hoy!

Jahongir noiloj yana to'xtadi.

— Ha, yana nima, oyi? — dedi mashina eshigini qiya ochib.

Mehri xola harsillab yaqin keldi. Timirskilanib nimchasining yon cho'ntagini kavlashtira boshladi.

— Nima qidirapsiz? — Jahongir norozilik bilan qoshini chimirdi.

— Shoshma, bolam, — Mehri xola nihoyat cho'ntagidan bir siqim paxta chiqardi. — Ma, — dedi qiya ochiq eshikdan uzatib, — qulog'ingga tiqib ol. Bilasan-ku, sal shamol tegsa qulog'ing og'riydi.

— Obbo! — do'stim paxtani olib bardachokka tash ladi. —

Xo‘p xayr, yaxshi o‘tiringlar.

— Yo‘q, hozir tiqib ol. Keyin esingdan chiqib ketadi.

— Uff! — Jahongir jinday paxtani naridan-beri dumaloqlab qulog‘iga tiqqan bo‘ldi. Motor gurilladi. Mashina shiddat bilan oldinga sapchidi. Bir zum jim ketdik. Do‘stim yo‘ldan ko‘z uzmay borarkan, xijolat chekkandek tushuntirdi: — Odam keksayganidan keyin yosh bolaga aylanib qolarkan-da...

Men indamadim. Nima dey? «Shu gaplarni nega xotining aytmadi, nega bolalaring aytmadi-yu, onang aytyapti, nega bu yog‘ini o‘ylamaysan?» deymi? «Senga qanchalik havas qilayotganimni bilsang edi, nodon!» deymi?

Qiziq o‘sha kecha onam tushimga kirdi. Qo‘lida oppoq paxta ko‘tarib yurganmish...

KALTAKESAKNING DUMI

Shundoq darvoza oldida silliqanib ketgan eski yog‘och skameyka bor. Har kuni ishdan qaytishda beixtiyor skameykaga qarayman. Bir vaqtlar darvoza oldi, mana shu xarrak doim gavjum bo‘lardi.

Ertalab tong otishi bilan onam darvozani lang ochib qo‘yadi: farishta kirarmish. Hali uyg‘onmasimdan gangur-gungur suhbat boshlanadi.

— Yaxshi o‘tiribsizmi, poshsha oyi?

— Shukur, aylanay. O‘g‘lingizdan xat bormi?

— Ikki haftadan buyon xat kelmayapti, ko‘nglim g‘ash.

— Unaqa bo‘lsa erta-indin o‘zi kirib keladi. Meni aytdi dersiz.

Hozir armiyadan bolalar qaytadigan vaqt bo‘ldi.

Shanba-yakshanba kunlari endi ishlayman, deb o‘tirsam shovqin-suron ayniqsa avjiga chiqadi. Skameyka jonivor xuddi o‘chakishgandek deraza tagida...

Mahallaning yarim bolasi simga tizilgan qaldirg‘ochdek xarrakka o‘tirib oladi. O‘rtada oyim.

— Poshsha buvi, konfet bering.

— Poshsha buvi, mengayam! Yo‘q, unaqasidanmas, zarligidan.

Shu payt, ko‘cha boshida qariligidan quloqlari osilib qolgan, echkidekkina ozg‘in eshak ko‘rinadi. Ixcham aravaning g‘ildiraklarini g‘iyqillatgancha sekin-sekin keladiyu xuddi stansiyasini bilib to‘xtagan poyezddek deraza ro‘parasida to‘xtaydi.

Qishin-yozin oyog'iga mahsi kiyib, telpagini bostirib yuradigan qop-qora chol «Bismillo», deb aravadan tushadi-da, ovozi boricha baqiradi:

— Kep qoling, shara-bara-a-a! — Mushtdekkina cholning shunchalik jarangdor ovozda qichqirishiga ba'zan hayron qolamiz.

— Kep qoling! Zar koptokka kep qoling!

Chol kaftini karnay qilib har baqirganida derazalar zirillab ketadi.

— Hushtakning bulbuli o'zimizda! Saqich deganlar kelaversin!

U, shu hayqiriq orasida oyim bilan hol-ahvol so'rashib qo'yishniyam unutmadi:

— Qalay, Poshsha opa, bardamgina o'tiribsizmi?

— Shukr, — deydi oyim. — Kenjangiz qachon keladi?

Cholning kenja o'g'li aspiranturada o'qiydi.

— Dilgirom keldi, yigirmanchida kelarkan. Chor-shanba kuni Ko'kterakka borib qo'y opchiqdim, — deydi chol. — O'g'lim kelishi bilan oyog'iga so'yaman. — U yana kaftini karnay qilib qichqiradi. — E, shara-bara-a-a!

Derazalar tag'in zirillab ketadi. Oyim bir ko'cha qora-qura bolalarni ergashtirib hovliga kiradi. Hammayoqni qiy-chuv tutib ketadi.

— Aya! Shisha bering!

— Poshsha oyi, o'n tiyin bering, hushtak olaman.

— Mengayam!

Shara-barachi chol kamida yarim soat savdo qiladi. Birovga saqich, birovga shaqildoq... Yana birovga rezinka bog'langan uchidan tortib otilsa qo'lga qaytib keladigan zar koptok... Qari eshak bo'lsa turgan joyida quloqlarini osiltirib mudrab hordiq chiqarib oladi.

Chol ketishi bilan qiy-chuv bosiladi deb o'ylaysiz-mi? Yo'q, battar avjiga chiqadi.

— Nilu, o'lgur, nima qilding? Ha, qiz bo'lmay ajalni oldida ket! Shishani yog'i bilan berib yuboribsanku.

— Hoy, Alish! Nima hunar ko'rsatding? Hushtak chalmay yergina yutgur, adangni arog'ini to'kib tashlab shishasini beribsanku. Hali qo'limga tushgin, go'shtingni bir burdadan qilmasam yurgan ekanman.

Bir to'da bola o'rtasida o'tirgan oyim ohista yupatadi.

— Qo'ying, kelinposhsha, qarg'amang, bolalik — poshsholik-da, o'rgilay. Adasi bir kun ichmasa ichmas...

Bahor paytlari, olcha gullaganda kechasiyam tinchlik yo‘q. Yarim kechagacha pichir-pichir, hingir-hingir... Oxiri bo‘lmadi. Bir kuni skameykani tag-tugi bilan arralab tashlamoqchi bo‘ldim. Dastarrani ko‘tarib chiqsam oyim odatdagidek bir to‘da bola orasida o‘tiribdi.

— Ha? — dedi qo‘limdagi arraga qarab.

— Bo‘ldi, — dedim to‘ng‘illab. — Odamga tinchlik ham kerak-da.

Qora-qura bolalar, sochi sichqonning dumidek dikkaytirib o‘rilgan qizaloqlar mengamas, onamga termilib qarashdi.

— Odam bor joyga odam keladi-da, o‘g‘lim, — dedi oyim sekin. — Norastalar suyunsa yomonmi...

Yakshanba kunlaridan birida darvoza oldi yana gavjum bo‘lib ketdi. Ammo bu safar bolalar emas, xotin-xalaj to‘plandi. Ayollarning hayajonlanib shovqin solishidan bildimki, Huri satang kelgan. Huri satang, yoshgina ko‘hlikkina juvon. Faqat og‘zidagi qator-qator tilla tishlari, bo‘ynidagi durlar, ayniqsa lo‘mbillatib katta-katta gapirishi uni yoshiga nisbatan ulug‘roq ko‘rsatadi. Bechoraning turmushi bo‘lmadi. Mahallada to‘y-hasham bo‘lsa, odamlarning hovlisiga sim tortib «tuyalampochka» qo‘yib beradigan yuvoshgina montyor yigitga tekkan edi. Besh oy deganda bir emas, ikkita popukdek qizaloq tug‘ib berdi. Mahalladagi og‘zi botir otinning aytishiga qaraganda «shaftolini danagi bilan yeb qo‘ygan» ekan. Montyor yuvosh bo‘lsayam, oriyatli yigit ekan — uy-joyini tashladi: ketdi.

Ipdekkina bo‘lib yurgan Huri eridan chiqdi-yu, semirib ketdi. O‘zining aytishicha: «Mana, ersiz o‘lgani yo‘q, qaytaga brilliantga belanib yuribdi». Uning xo‘jalik sumkasini ko‘rishi bilan xotinlarning ko‘zi yonib ketadi. O‘ziyam sumkamas, xazina. Ichida billur vazadan tortib maxer koftagacha, poshnasi bir qarich platforma tuflidan tortib, nomozshom atlasgacha — hammasi topiladi.

Beixtiyor derazadan mo‘ralasam, «bozor» ayni avjiga chiqqan ekan. Huri satang semiz oyog‘ini skameykaga, shundoq oyimning biqiniga tiragancha ko‘zni qamashtiradigan atlasni ko‘rsatib turibdi. Atrofdagi ayollar havas bilan tikilib qarashyapti. Oyim Hurining oyog‘iga joy bo‘shatgani uchunmi, skameykaning bir uchiga ilinib o‘tiribdi.

— Bunaqasi endi chiqmay qo‘ygan. — Huri satang atlasni

tizzasiga yozdi-da, kafti bilan siladi.

Ayollar havas bilan tomosha qilishar, ammo birontasi aqalli narxini so‘rashga jur‘at qilolmas edi.

— O‘ladigan dunyoda yeb-ichib, kiyinib qoladi-da odam. — Huri satang do‘mboq kaftini siltadi. — Opchiqing, pochcham sandiqqa bosib qo‘ygan pullardan, Dilbar opa! Odam bo‘lib mundoq atlas obersin sizgayam!

Bir etak bolaga o‘ralashib qolgan Dilbar opa sekin ming‘illadi:

— Ha, nasib etsa, bir kun kiyarmiz.

— Hozir kiymasayiz, qachon kiyasiz! Ikki-uch yildan keyin chalpakka o‘rab tashlasa, it qaramaydigan bo‘p qolasiz. O‘zizziyam o‘ylang bundoq.

Dilbar opa yana bir nima deb ming‘illadi. Huri satang: «Xaridor yo‘qmi?» degandek xotinlarga bir-bir qarab chiqdi-da, atlasni sumkaga tiqdi. Keyin uzoq titkilab bir nimani qo‘liga olgan edi, ayollar xuddi o‘rtog‘ining yangi o‘yinchog‘ini tomosha qilgan bolalardek baravariga uning kaftiga egilishdi:

— Vuu-uy! Manovi zirakni!

— Tillami?

— Qancha turadi?

— Tilladan ham zo‘r! Platina deb qo‘yibdi buni! — Huri satang boshini mag‘rur ko‘tardi. — O‘n uchta.

Oyim ham xira tortgan ko‘zlarini uning kaftiga tikdi.

— Qani? O‘n uch so‘m bo‘lsa arzon ekan-ku!

Huri satang ovozi baralla qo‘yib kuldi. Uning kulishi g‘alati. Odatda odam kulganida ko‘zidan nur porlab ketadi. Biroq Huri satangning kulishi boshqacha. O‘zi emas, tomog‘i kuladi... «Ha... ha... ha...» deydi bo‘lib-bo‘lib. Faqat tilla tishlari yaltiraydi. Semiz, bo‘liq ko‘kraklari silkinib ketadi.

— Bir ming uch yuz so‘m, poshsha oyi! Ko‘zini ko‘rdiyizmi, brillant-ku.

U, «bo‘ldi, tomosha tamom», degandek brilliant zirakni ham yashirdi. Keyin tag‘in sumkasiga qo‘l suqdi. Bu safar allaqanday yaltiroq mato chiqdi. Oy-kuni yaqinlashib qolgan qo‘shni kelinchak Guli matoning bir chetini jur‘atsizlik bilan ushlab ko‘rdi.

— Bemalol, — dedi Huri satang. — Bemalol, kelin poshsha, g‘ijim bo‘ladigan narsamas bu. «Mokriy trikotin» deb qo‘yibdi otini.

Oyim ham matoning bir chetidan tutib ko‘rdi.

— O‘zimizning misqoli dokaga o‘xsharkan, — dedi sekin.

— Voy-voy-voy! Dokayiz hammomda bo‘ladi! — Huri satang qoshini chimirdi. — «Mokriy trikotin», disam doka diydi.

— O‘zi qancha? — dedi Guli Huri satangning ko‘ziga termilib.

— E, ot minan tuya bo‘larmidi, opovsi! Bir joydagi odammiz. Yigirma so‘m-de! Puliyiz yonizda qoladi.

Guli tushunmadi.

— Metri yigirma so‘mmi?

— Metri nima qiladi? Men metr lab sotmiyman. Bir kiyimligi bir yuz yigirma so‘m, tushundizmi?

Guli sekingina qo‘lini tortib oldi. Uning eri shofyor. Bahorda allaqaysi sovxozga tut bargi olib ketayotganda avariya bo‘lib uch oy gipsda yotdi. Haliyam ishga chiqib ketgani yo‘q.

— Menga to‘g‘ri kelmas ekan, — dedi Guli sekingina.

— Ha-ha-ha! — Huri satang og‘zidan olov purkab tomog‘i bilan kuldi. — Erta-indin qo‘chqordek o‘g‘il tug‘ib beradigan xotiniga bitta ko‘ylak oberolmiydigan er qanaqa o‘zi! Belida belbog‘i bormi?

Gulining dog‘ bosgan yuzi qizardi.

— Mayli, — dedi sekingina. — Qo‘ya qoling. — U «mokriy trikotin»ga judayam havasi kelayotgan bo‘lsa kerak, yana ushlab ko‘rdi.

— Etvotman-ku, puliyiz yonizda ketadi. Asl mol bu! — Huri satang oltin uzukli barmoqlari bilan matoni g‘ijimlab-g‘ijimlab qo‘yib yuborgan edi, yana tep-tekis bo‘lib qoldi. — Bola yasashni bilgan odam guldek xotinini yasatib qo‘yishniyam eplas-in-de!

Boyadan beri indamay o‘tirgan oyim gapga aralashdi.

— Har kim o‘zidan o‘tganini o‘zi biladi, bolam, — dedi sovuq ohangda. — Nima qilasiz bechorani uyaltirib.

— Voy-voy-voy! Manov odamni qarayla! — Huri satang birdan jiddiy tortdi. — Man osin deb etagiga osilvotmanmi?! Manam o‘zimdan o‘tganini o‘zim bilaman. Biramas, ikkita tirik yetimni boqib o‘tiribman.

— Nima qipti sizga? — dedi oyim qovog‘ini solib. — Binoyidek yuribsiz.

Guli, har qalay, shu matodan ko‘ylak kiyishni judayam xohlayotgani ko‘rinib turardi.

— Sakson so‘mga bo‘ladimi? — dedi sekin.

— Sakson so‘mga marojniy ob yeng. Marojniy osayiz, eriyiz

bilan maza qilib yeysiz.

— Judayam unaqa noinsoflik qilmang. — Oyim yana gapga aralashdi. — Bir joydagi odamlarmiz, tobutkashmiz.

— O'lsam, tobutim ko'chada qolmas. Kim o'ladi, kim qoladi, xudo biladi! — Huri satang matoni Gulining qo'ldan yulqib oldi. — Avval buyog'ini bir yoqlik qiling. Tug'ib olguningizcha hali nima gapu nima so'z.

Guli esankirab qoldi. Oyimning rangi o'chdi.

— Nimaga unaqa deysiz? — dedi tahdid bilan. — Manga qarang, qo'ying, ikkinchi mening eshigimga bunaqa narsalarni ko'tarib kelmang. — U pashsha qo'rigandek qo'lini siltadi. — Boring! Bunaqa harom-harish narsalardan hazar qilaman.

— Ho, bo'yiz yetmagandan keyin puf sassiq bo'ldimi! — Huri satang sumkasini ko'tarib shaxdam odimlar bilan jo'nab ketdi. Zum o'tmay xotinlar tarqalishdi. Oyim ham o'rnidan turdi. Bir ozdan keyin xonasidan uning ovozi eshitila boshladi:

— Niyating o'zingga yo'ldosh bo'lgur, diyonatsiz! O'zi-ku, ikki yo'lning o'rtasida o'tiribdi. Nima qilasan bechoraga bunaqa deb. — Oyimning qiziq odati bor. Jahli chiqsa, o'zi bilan o'zi gaplashadi. Hozir ham eshikdan sekin mo'ralasam, deraza yorug'ida tugma qadab o'tirganicha o'ziga gapiryapti: — Undan ko'ra eson-omon qutulib olgin, degin, yohsan, hali bundan yaxshilarini kiyasan, degin... Pul joningni olgur, ochofat, o'lsang puldan kafan qilmaydi-ku, imonsiz!

Hammasini bilib tursam ham eshikni ochib, sekin so'radim:

— Ha, oyi, kimni urishyapsiz?

U sekin burildi.

— E, — dedi qo'l siltab. — Har xil odam bor ekanda, bu dunyoda...

...O'shandan keyin ham darvoza oldi odatdagidek gavjum bo'laverdi. Bolalar chug'urlashadi, «shara-bara» keladi, xotinlar to'planadi, faqat Huri satang boshqa ko'rinmadi. Biroq, ikki oycha o'tgandan keyin qiziq voqea bo'ldi. Ishdan kelib oyimning xonasiga kirsam, Huri satang o'tiribdi. Ko'ziga surma tortmagani uchunmi, yig'lagani uchunmi, qizarib, xunuklashib ketibdi. Lo'ppi yuzi yanayam shishib, barkashdek bo'lib ketgan. Sinchiklab qarasam, brilliant taqinchoqlari ham, tilla uzuklariyam yo'q. U meni ko'rdi-yu, bir nimadan cho'chigandek, shosha-pisha hovliga otildi.

— Nimaga kepti? — dedim ensam qotib.

Oyim surilib yonidan joy ko'rsatdi. Tushundim, zarur gapi bor. Ikkilanibroq ko'rpachaga o'tirdim.

— Tinchlikmi?

Oyim darrov javob bermadi. Choynak ustidagi latta qalpoqchani olib choy quydi.

— Ochilip deganni taniysanmi? — dedi anchadan keyin.

— Nima edi? — dedim sergaklanib.

— Hurini gazetaga urib chiqmoqchi emish. Qo'y, bolam, shuni yozmay qo'ya qolsin.

— Tanimayman, — dedim yolg'on gapirib.

— Sen uni tanimasang ham, u seni taniydi-ku, — dedi onam osoyishtalik bilan.

— Tanisa nima qipti! — dedim zarda bilan. — Bilasiz, men bunaqa ishlarga aralashmayman!

— Bilaman, bolam, bilaman. — Oyim o'ylanib qoldi. Keyin yana o'sha gapni qaytardi. — Qo'y, shuni yozmay qo'ya qolsin.

Endi rosmana jahlim chiqa boshladi.

— Qiziqsiz! — dedim g'ashim kelib. — Qaysi kuni Hurini o'zingiz haydab yuborgandingiz. Endi yonini olyapsiz. Kim o'zi u! Bitta haromxo'r chayqovchi-da.

Oyim yana o'ylanib qoldi.

— To'g'ri, — dedi anchadan keyin. — Huri yomon, haromxo'r. Lekin bu bechora kaltakesakning dumidek gap, bolam. Bunga oshiradiganlar boshqa. Kaltakesakning dumini uzganing bilan boshqasi o'sib chiqaveradi... — U yana jimib qoldi. — Choyingni ich, — dedi yupatuvchi ohangda. — Bolasi bor-a, bir emas, ikkita norasidasi bor-a, o'g'lim.

Indamadim. To'g'risi, nima deyishni o'zim ham bilmasdim. Bu — onamning oxirgi iltimosi ekanini o'shanda bilmagan edim...

... Mana, hozir har kuni ishdan qaytishda darvoza oldidagi skameykaga qarayman. Skameyka bo'm-bo'sh. Na bolalar bor, na xotinlar... Hatto «shara-bara» ham ko'chamizdan o'tmaydigan bo'lib qoldi.

ALLA

Qabriston g'ishtin devor bilan o'ralgan. Darvozaning narigi tomonida — go'rkovning hujrasi. Berigi tomonida — tashqarida, uning hovlisi. Darvozaga yaqin kelishim bilan ichkaridan — hujra

tomondan tilovat sadosi eshitildi. Xuddi shu payt hovli tomondan alla ovozi yangrab ketdi:

Allayo, alla, jonim bolam-a, alla...

Kim bo'ldi bu? Go'rkovning kelinimi? Qizimi?.. U hamon sokin tovushda davom etardi:

Uxla, qo'zim, allayo, shirin qizim, alla...

Ertalab yomg'ir yoqqan edi. Darvozaning temir panjaralarida suv tomchilari yaltiraydi. Ko'lmakda quyosh jilolanadi. Muzdek tutqichdan ushlagancha turib qoldim. Bir tomonda tilovat sadosi, bir tomonda alla... Ajab, ular bir-biriga xalaqit bermas, bir-birini rad etmas, ikkalasi qo'shilib bahor nafasiga to'lgan osmonda, qabriston yo'lkasidagi kuchala chiqargan teraklar ustida parvoz qilar edi:

«Rabbano-o-o, rabbno-o-o...» «Allayo, alla»...

Bir xil bo'lib ketdim. Panjarador darvozaga suyanib uzoq turib qoldim.

Onam beshigim ustida alla aytganini eslay olmayman. Esimni taniganimda beshikda yotmaydigan bo'lgan edim. Biroq oyim ukamga alla aytganini eshitganman. Ko'p eshitganman.

Qish kechalari sandalga suqilib tiqilishib yotardik. Uy nimqorong'i. Piligi pastlatib qo'yilgan chiroq xira nur sochadi. Shiftda lampa shisha uchidan chiqqan nur doirasi ko'rinadi. Chiroq doim bir joyda turgani uchun shiftning o'sha yeri sarg'ayib qolgan. Hammayoq jimjit. Shu qadar jimki, dadamning hujrasidagi soatning chiqillayotgani ham eshitiladi. Tashqarida bo'ron guvillaydi. Quruq qorning derazaga chirsillab urilishi eshitilib turadi. Ukamning beshigi g'irchillaydi. Onam alla aytadi.

*Alla, bolam uxlay qol-a, alla,
Quchog'imda orom ol, alla...*

Yo'q, bu qo'shiq emas. Oyimning ovozida qandaydir boshqa narsa bor. Mungmi, iltijomi...

*Tog'lardagi shunqorim-ey, alla,
Beshikdagi qo'chqorim-ey, alla.*

Ukam ovunib qoladi. Oyimning o'zi ham beshikni quchoqlagancha mudrab ketadi. Bir mahal beshik ustidagi qo'li shilq etib

yoniga tushadi. Ukam uygʻonadi, beshik yana gʻijiraydi. Oyim ham choʻchib koʻzini ochadi. Beshikni ohista tebratadi:

*Yigitlarni sardori boʻl, jonim-a,
Yuragimni madori boʻl, alla...*

Yana jimlik choʻkadi. Soat chiqillaydi, qor derazaga chirsillab uriladi. Sekin-sekin koʻzim uyquga ketarkan, qulogʻim ostida yana oʻsha maʼyus sado eshitiladi.

*Oq uy-ola bargaklarda jonim-a,
Yonib turgan chirogʻimsan, alla...*

Keyin... katta boʻlganimda ham qayerda alla eshitsam, negadir yuragim shirin orziqish bilan talpinib ketar, nega bunaqa boʻlayotganini oʻzim bilmas edim. Bir yili uch-toʻrt qalamkashlar olis togʻ qishlogʻiga bordik. Mashina yurmas edi. Ot minib oʻrganmaganim uchun charchab qoldim. Manzilga yetmasimizdan qorongʻi tushdi. Yaylovdagi qirgʻiz oʻtovida tunab qolishga toʻgʻri keldi. Qimiz ichdik, suzma yedik. Keyin birimiz namatga, birimiz poʻstakka yonboshlagancha uxlab qolibmiz. Bir mahal sovuq qotib, uygʻonib ketdim. Atrof jimjit. Faqat olisda it akillaydi. Oʻtov keragisidan shom yegan oy moʻralaydi. Shu payt qoʻshni oʻtovda chaqaloq yigʻisi, ketidan ayol kishining alla aytayotgani eshitildi. Men uning soʻzlarini aniq bilmasam ham alla aytayotganini his qilib turardim. Negadir yuragim shirin orziqib ketdi. Ayolning ovozi, alla ohangimi, xuddi onamga oʻxshab ketardi. Negadir shu ohang bilan qalbinga orom kirganday boʻldi-yu oʻz-oʻzidan koʻzlarim yumilib keta boshladi. Goʻyo qirgʻiz ayol bolasiga emas, menga alla aytayotganday... Yaqin orada bunaqa shirin uxlamagan edim.

Oradan uch-toʻrt yil oʻtgach, shunaqa holatni yana bir marta boshimdan kechirdim. Kislovodskka dam olishga borgan edik. Toʻrtta oʻzbek yigʻilsa osh qilish harakatiga tushib qoladi. Sanatoriy yaqinidagi xonadondan qozon topdik. Bu yerning aholisi yoz paytida uyiga dam oluvchilarni ijaraga qoʻyadi. Bu xonadonda ham sibirlik juvon ijara oʻtirarkan. Sap-sariq sochli, barvasta gavgavli, yuzini sepkil bosgan juvon qishloq ayollariga xos soddadillik bilan bizga darhol elakishib ketdi. Kichkintoy oʻgʻilchasini koʻtarib goh sabzi artishadi, goh idishlarni yuvadi. Oʻzbek palovining taʼrifini koʻp eshitsa ham hech yemaganini

dilkashlik bilan aytib kuladi.

Birgalashib osh yedik, ko'k choy ichdik. Keyin sibirlik juvon kichkintoyini ko'tarib uyga kirib ketdi. Oradan chorak soatcha o'tgach, ichkaridan uning ovozi keldi:

Bayu ba-ayushki, bayu, bayu-bay...

Qiziq, yuragimda yana o'sha shirin orziqish uyg'ondi. Uning ovozi ham onamnikiga o'xshab ketardi. Do'stlarim gangur-gungur suhbatlashib o'tirishibdi. Men bo'lsam ichkaridan chiqayotgan alla sadosiga quloq solaman. «Ba-yu, bay...»

Bu qanday holat?! Bu qanday sehr? Nima o'zi bu?

Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam o'z seviklisiga aytgan dil rozini dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam aytgan qo'shiqni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chekkasida turib bir odam aytgan eng oqilona fikrni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Biroq dunyoning bu chekkasida turib ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go'dak bemalol orom oladi. Nega shunaqa? Nahotki, go'dak tushungan narsaga biz tushunmasak? Ehtimol, buning boisi boshqa joydadir. Ehtimol, ona tushungan narsani bizlar tushunmasmiz. Balki shuning uchun ham ona —tabiatning eng buyuk ixtirosidir.

Bilmadim... Qabriston darvozasi oldida, bir tomonda tilovat, bir tomonda alla yangrayotgan darvoza oldida turib shularni o'yladimu g'alati bo'lib ketdim.

OQ MARMAR, QORA MARMAR...

Bahor devorlarning oftobro'ya etaklaridan boshlanmaydi. Bahor ariqlarning kungay sohillaridan boshlanmaydi. Bahor go'ristondan boshlanadi. Ilk maysalar mungli do'ppaygan qabrlar yonboshidan unib chiqadi. To'ng'ich chuchmomalar eng avval sukutga cho'mgan qabriston ustida mayus qo'ng'irog'ini chaladi. Bag'riqon qizg'aldoqlar birinchi bo'lib mana shu yerda ochiladi.

Kim bilsin, tabiatning marhumlar ruhiga yilda bir marta ko'rsatadigan marhamati ehtimol shudir... Cho'g'dek lovullagan qizg'aldoqlar, saf tortgan gulsafsarlar orasida marmar toshlar ko'rinadi. Oq marmar, qora marmar, ko'k marmar... «Onajon, sizni to' abad unutmaymiz», «Onajon, qildingiz bizga jon fido, e

voh, taqdir sizdan ayladi judo», «Onajon, xotirangiz qalbimizda mangu yashaydi...»

Oq marmar, qora marmar... Bu soʻzlarning har bitta harfiga qanchadan-qancha koʻz yoshi tomganini bilaman. Ehtimol bular inson bolasining hayotda aytgan. Eng rost soʻzlaridir. Faqat... har gal ularni oʻqiganda bir narsani oʻylayman: mana shu soʻzlarni yurak-yurakdan, iztirob bilan aytgan farzand onasi hayot ekanligida qanchalik koʻnglini ololdi ekan? Xotiniga qimmatbaho poʻstin olib berayotganida, onasiga bir kiyimlik koʻylak qoʻshib olish yodidan chiqmadimikan? Oʻz uyini chet el mebeli bilan toʻldirib qoʻyganida onasiga aqalli boʻyradekkina gilamcha sovgʻa qilishni unutmadiykan? Qizini tugʻilgan kunida atlas koʻylak, oʻgʻlini velosiped bilan qutlaganida onasiga oddiy bir paypoq olib berishni esidan chiqarmadimikan?

Bilmadim... Faqat bir narsani aniq aytishim mumkin. Mabodo Tangri marhumlarga qayta jon ato qilsayu onalar tirilib qolsa, hayot paytida mehr berganmi, bermaganmi — baribir farzandlarini maqtab gapirgan boʻlardir. Onalar hatto vafotidan keyin ham onaligicha qoladi.

...Bahor devorining oftobroʻya etaklaridan boshlanmaydi. Bahor ariqlarning kungay sohillaridan boshlanmaydi. Bahor mana shu yerdan boshlanadi. Qabrlar ustida qoʻngʻiroq chalgan chuchmolar, lovillab yongan qizgʻaldoqlar onalarning farzandini yupatish uchun taqdim etgan chechaklari boʻlsa ajab emas...

ILTIJO

Oyi, men keldim... Eshityapsizmi, oyi, men yana keldim...

Qarang, oyi tagʻin koʻklam kirdi. Esingizdami, har yili bahor kirishi bilan sizni dalaga olib chiqardim. Siz charaqlagan oftobni, tiniq osmonni, koʻm-koʻk maysalarni koʻrib quvonardingiz. Esingizdami, nevaralaringiz terib kelgan boychechaklarni koʻzingizga surtib, «omonliq-somonliq» qilardingiz...

Bugun... oʻzingizning ustingizdan boychechak oʻsib chiqibdi... Yoʻq, yoʻq, oyijon... Yigʻlayotganim yoʻq. Bilaman, men yigʻlasam, siz bezovta boʻlasiz. Hozir... hozir oʻtib ketadi. Mana, boʻldi...

Ertalab-chi, oyi, yomgʻir yogʻdi. Qattiq yomgʻir yogʻdi. Siz bahor yomgʻirini yaxshi koʻrardingiz... Keyin oftob chiqib ketdi. Qarang, oftob charaqlab yotibdi... Esingizdami, siz menga oftob

to'g'risida cho'pchak aytib bergan edingiz. O'sha oftob charaqlab yotibdi... Ko'ryapsizmi...

Esingizdami, oyi, siz ukamga alla aytardingiz. Men allaning ohangiga mast bo'lib uxlab qolardim. O'sha beshikda men ham yotganman. Allangizdan men ham orom olganman. Nima qilay, oyi, men alla aytishni bilmayman. Qabringizni silab qo'ysam orom olasizmi... Mana, oyijon, mana... Yo'q, yo'q, yig'layotganim yo'q. Hozir, hozir o'tib ketadi. Esingizdami, oyi, siz bir marta, atigi bir marta, o'shandayam hazillashib: «Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o'g'lim», degandingiz. Men: «Sizning nimangizni kitob qilaman, oyi?» degan edim. Xafa bo'lmang, men hazillashgan edim. Mana, o'sha kitob. Yo'q, uni men yozganim yo'q. Uni siz yozgansiz. Men uni qog'ozga tushirib, odamlarga tarqatdim, xolos. Men uni dunyodagi hamma onalar o'qishini xohlayman. Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi. Shundoq bo'lsayam, ularning hammasi Sizga o'xshashini xohlayman...

1980—1981

IKKI KARRA IKKI – BESH

Hajviy qissa

Yaqin o‘tmishda ro‘y bergan «oshirib yozish»lar haqida bir qadar «oshirib» yozilgan, hushchaqchaq hajv bilan to‘liq bu asar bugungi avlodga ma‘qul kelsa, o‘quvchining qalbi quvonchga to‘lib, chehrasida tabassum barq ursaa, g‘oyat xursand bo‘lur edim.

Muallif

Birinchi bob

KASALLIK TARIXI

— E, do‘xtirjon! Qiynab nima qilasiz, odamni! Aytyapman-ku, soppa-sog‘man! Rahmat yaxshi davoladinglar. Esingizdami, bannisaga kelgan kunlarim, bir lunjim oqib tushgan nondek osilib yotuvdi. Og‘iz — yomg‘irda qolgan o‘choq!». Qo‘lim bilan to‘g‘rilayman, deb xarchand urinaman, qani joyiga kelsa, tag‘in qiyshayib qoladi, xumpar! Ko‘zning ham bittasi katta, bittasi kichkina edi! Mana, hammasi bip-binoyi! Endi, do‘xtirjon, bizga javob bersangiz... Nima? Yana so‘raysiz-a? Jinoyatchisan deb tergovchi so‘roq qilsa, jinnisan deb, do‘xtirlar so‘roq qilsa... Nima qilay, axir? Kimga aytay dodimni!

A? Hech qanaqa kasal bo‘lgan emasman! Bolaligimda ham, undan keyin ham... Angina-mangina, qizamiq-pizamiq — birontasi bizga yo‘lagan emas! U yog‘ini so‘rasangiz, besh yoshga to‘lgunimchayam yalang‘och yurganman! Nima? Ha, qishdayam!

Bir kuni desangiz, qahraton qishda hovuzning muzini yorib, ichiga tushib olganman. Dadam uch oyoqli velosiped olib beraman, deb va‘da qilmaguncha, hovuzdan chiqmaganman. O‘shanda onam «voy, endi nima qildim, bolajonim o‘lib qoladi» deb chirqillagani esimda.. Baloyam urmadi... Qaytaga mazza qildim: yalang‘och odam erkin nafas oladi-da, to‘g‘rimi? Odamning hamma joyi nafas olishi kerakmi axir? E, sizam onamning gapini aytasiz-a! Kichkina paytimda onam nuqul tutib

olib, yalang'och ketimga shapatilardi. «Hamma og'zi-burni bilan nafas olsa, sen boshqa joyingdan olasanmi, juvonmarg!» derdi. Kechirasiz-ku, do'xtirjon, kimning qayeridan nafas olishi o'zining ishi! To'g'rimi-yo'qmi? Qolaversa, inson bolasi o'zini-o'zi chiniqtirishi kerak. Ha, ana endi o'zingizga keldingiz, do'xtirjon! Rais buva ham doim shunaqa derdi. Aytgan gapini ma'qullasam: «Ana endi o'zingga kelding, Qo'shovoy, aqling toshni yoradi», derdi.

Obbo! Yana o'sha savolmi? Aytyapman-ku, umrim bino bo'lib gripp bo'lgan emasman, tomog'im og'rimagan, ichketar bo'lmaganman. Toshni yesam, qum qilib yuboraman!

A, Avariyadayam qolgan emasman! Jo'ram Shodivoy bilan bir marta avariya qilishimizga sal qolgan-u, Xudoning o'zi bir asragan.

Nima? Yiqilishga-yiqilmaganman! Yong'oqdan! Qir uchidan! O'ziyam yong'oqmisan-yong'oq edi-da! Yong'oq-ku tomorqada edi. Ammo shunaqangi tarvaqaylab ketgandiki, tomorqadagi daraxtning soyasi kuni tikkaga kelguncha hovlimizning yarmisini qoplab yotardi. Paxtaga dori sepadigan samolyot qishlog'imiz ustidan uchib qolsa, bizning hovlini teppasiga kelganda varillab, havolab ketardi. Bir safar pastroq uchgan ekan, bitta qanoti uzilib yong'og'imizning shoxiga ilinib qolgan. O'n kungacha dakang varrakka o'xshab lapanglab turgan. Temir shapka kiygan odamlar osmon baravar narvon keltirib amallab tushirib olishgan. Men ana o'sha yong'oqning qir uchidan yiqilib tushganman. Nima? Necha yoshdaligimni qayoqdan bilay? Xullas, hali maktabga bormagan paytlarim edi-da!

G'ira-shira esimda. Tomsuvoq boshlangan kezlar edi. Tomsuvoqni bilasizmi? Ha, yashang! Tomorqadagi xuddi o'sha yong'oq tagidan loyxandaq qazib, somon bosishdi. Loyni somonga aralashtirib rosa qorishdi. Dadam shimining pochasini qayirib, loyxandaqqa kirdi. Hasharchilarning paqiriga paydar-pay loy solib turibdi. Hasharchilar zipillab tashib turibdi. E, do'xtirjon, siz bilmaysiz! Qishloq joyda hashar desa hamma yopirilib kelaveradi. «Qayoqqa, nimaga», deb surishtirib o'tirish — nomardlik bo'ladi. Xullas, hovlimizga tumonat odam to'plandi. Qarasam, bashang kiyinib olgan o'zim tengi bola yong'oqqa kesak otyapti. Shunaqangi do'mboq, shunaqangi dumaloq bolaki, xo'ppa semiz quyonga o'xshaydi. Otgan kesagi tom baravar ko'tarilsa, o'la qolay!

«Hoy, kimsan?» desam, yig'lamsirab, «yong'o-oq» deydi. «Oting nima, hoy bola!» desam, yana «yong'o-oq» deydi. Chaqqonligimni bir ko'rsatib qo'ygim keldi. Kaftimga tuflab turib, yong'oqqa tirmashganim esimda. Mehmon bolani yong'oq bilan siylay qolay deb maymundek tipirchilab, daraxtning qir uchiga chiqqanim ham yodimda. Yong'og'imiz ham xo'p meva solgan ekan o'zi! Har bittasi olmadek kelar jonivor! Tag'in g'uj-g'uj. Eng yuqoridagi shoxni siltaganimni bilaman. Bir mahal qaragam... televizorda ko'rsatadigan suvga sho'ng'uvchilar borku, o'shanga o'xshab loyxandaqqa kalla tashlab tushyapman. Oyoq-qo'llarimni juftlab olganman, deng. Hali tushayapman, hali tushayapman, qani loyxandaqqa yetsam! Bir mahal «sho'lq» etgan ovozni ham eshitgandek bo'ldim. U yog'i esimda yo'q. Keyin aytib berishdi. Loyxandaqning qoq o'rtasiga boshim bilan sanchilib qolibman. Dadam ishga qiziqib ketib sezmadidim. Hatto bir-ikki marta ketmonning orqasini juftlashib turgan oyog'imga qoqib, loyini tozalabdi. Qoziq deb o'ylaganda! Anchadan keyin charchab «perekur» qipti. Nosqovog'ini tovonimga urib-urib tagidagi yopishib qolgan nosini ko'chirmoqchi bo'lgan ekan, qitig'im kelib, oyog'imni tipirlatib qolibman. Qitig'im yomon-da! Otam turgan joyida taxta bo'pqopti. Hammayoq qiy-chuv bo'lib ketibdi. Ko'plashib loyxandaqdan sug'urib olishibdi. Yuvib-tarab, munday qarashsa, boshim tars yorilib ketganmish. Men bo'lsam yig'lash o'rniga kuli-ib yotganmishman. To'g'risini aytaymi? O'shandan beri hech yig'lamaganman. Nuqul kulaman. O'shandayam onam «voy, bolajonim, senga nima bo'ldi», deb yig'laganida kulib turaveribman. Sal-pal esimda bor, negadir o'shanda onam ko'zimga ikkita bo'lib ko'rindi. Ovozi bitta-yu, o'zi ikkita.

— Tirikmisan, bolajonim! — dedi ovozi bitta, o'zi ikkita onam.

— Tirikman, ena, — dedim iljayib.

Keyin boshimga otam egildi.

— Nima bo'ldi, Qo'shovoy?

Negadir dadamning ko'zi to'rtta bo'lib ko'rindi.

O'ng qo'limning to'rtta barmog'ini dikkaytirdim.

— Ko'zlaringizga qo'llarimni tiqib olaymi?

Dadam hurkib, o'zini orqaga tashladi.

Yo'q, uch kun ichida hech nima ko'rmagandek o'ynab ketdim.

Dadam jo'ralariga maqtandi: «Bizning o'g'il malades! Tegirmonga tushsa butun chiqadi!»

Ha, aytmoqchi, o'sha kuni uyimizga mehmon keldi. Xuddi o'sha — «yong'oq» deb yig'lamsiragan do'mboq bola. Oti — Shodivoy ekan. Buni qarangki, Shodivoy otasini boshlab kepti. Rais buvaning o'g'li ekan. Rais buva qo'limga zarqog'ozli ishkalad berdi.

— Shodivoy bilan qiyomatli jo'ra bo'llaring! — dedi.

Mayli, Shodivoy bilan jo'ra bo'lsam, bo'larmanu, o'sha kundan boshlab g'alati odat chiqardim. Bir qarasangiz miyam, traktorchi qo'shnimiz Tursunboy akaning pat-patiga o'xshab qarsillab ishlab ketadi, bir qarasangiz hech baloga aqlim yetmaydi. Ustiga-ustak, tag'in bitta aybim bor: lof-qofi bilan gapirmasam, ko'nglim joyiga tushmaydi. O'zimdanda bir yosh kichkina Ju degan singlim bor (oti mavjuda, men uni «Ju» deyman). Masalan, dadam singlimga do'ppi olib kelsa, ko'chaga chiqib, shovqin solaman.

— Dadam juga to'rtta do'ppi olib keldi!..

Sigirimiz tug'sa, yana ko'chaga yuguraman.

— Suyunchi beringlar! Sigirimiz uchta tug'di! — Buyog'iniyam bir zumda to'qib tashlayman. — Ikkitasi urg'ochi, uchinchisiyam urg'ochi!

Birpasda onamning ro'moli sakkizta, dadamning etigi o'n to'rtta, o'zimning botinkam o'n oltita bo'ldi! (Koshki botinka kiysam!)

Tursunboy akamning mototsikli bittaligini bilaman. Ammo butun qishloqqa xabar tarqatib keldim: «Tursunboy akaning oltita pat-pati bor!»

Kechqurun Oysara yangam biznikiga chiqib, onamga hasrat qildi.

— Qo'shovoy tushmagur hammayoqqa Tursunboy aka oltita pat-pat sotvoldi deb gap tarqatibdi. Opajon, o'zi yangi ro'zg'or bo'lsak. Shu bitta pat-pat o'lgurniyam rais bova olib berdi: kuyovingiz yaxshi ishlagani uchun. Bilmaganlar, bular bitib ketgan ekan, demaydimi? Bolangizni tiyib qo'ying, opajon!

Oysara yangamni yaxshi ko'raman. Onamning aytishicha, qishlog'imizdagi eng suluv juvon shu emish. Kolxoz kutubxonasida ishlarkan! Shunaqa-ku, yangamning gapi menga yoqmadi. Hozir kaltak eyman, deb cho'chib turgan edim, unday bo'lmadi.

Onam beparvo qo'l siltadi.

— Bola-da, o'rgilay kelin, bola! Nima qipti, o'g'irlab obdi demabdi-ku. Yaxshiligingizni oshirib, yomonligingizni yashirsa

yomonmi!

Enamni shunaqangi yaxshi ko'rib ketdimki, kechqurun dadam ishdan kelishi bilan maqtandim.

— Dada-chi, dada, enam bugun sizga uch qozon palov damlab qo'ydilar!

Onam, xursand bo'lish o'rniga, dadamga hasrat qildi:

— Bu tentagingiz qachon odam bo'ladi-a, nomusga o'ldiryapti-ku! Bir hafta oldin sigirimiz uchta tug'di, deb hammaga aytib chiqqan edi. Bugun Oysara kelin hasrat qilib chiqdi. Bechoralarning bitta pat-patini oltita deb gap tarqatibdi.

Qarab tursam, dadamning o'ng lunji uchyapti. Koshki, odatini bilmasam! Lunji ucha boshladimi, jahli chiqqani shu!.. Aslida dadam menga ham, Jugayam biron marta qo'l ko'targan emas. Onamning aytishiga qaraganda, otam urush bitay-bitay deb turganida frontga ketgan ekan. O'sha yoqdan shunaqa badjahl bo'lib qaytgan emish. To'ydan keyin mening bitta akam, yana bitta opam tug'ilibdi-yu, akam chillasi chiqmay, opam yoshiga to'lmay o'libdi bechora. Shuning uchun «Qo'sha-qo'sha farzand ko'raylik», degan niyatda bizga Qo'shoqvoy deb ot qo'yishgan ekan. Bolani yaxshi ko'rgani uchun dadam bizni urishmas ekan.

O'sha kuniyam dadam lunji uchib-uchib qo'ydi-yu, bari bir koyimadi.

— O'g'lim, — dedi yelkamga qoqib. — Odam boshqa narsada adashsa mayli, lekin hisobda adashmasligi kerak. Men — bug'altirman-ku, bilaman-ku. Mana, sendan kichkina singling maktabga qatnayapti. Erta-indin sen ham borasan. Qani, ayt-chi, yigirmaniyigirmaga qo'shsa, qancha bo'ladi?

— Ellik! — dedim o'ylab o'tirmay.

— Dard! — Dadamning jahli chiqib ketdi. O'ng lunji paydarpay ucha boshladi. — Misol uchun, senda ikkita yigirma tiyinlik bor. Xloppunkt yonida o'tiradigan Rahmon pistachidan semichka olmoqchisan. Bir istakon pistichka yigirma tiyin turadi. Ikki istakoni qancha bo'ladi?!

Rahmon pistachidan semichka olaverib pishib ketganman.

— Qirq tiyin! — dedim ishonch bilan.

— Bo'pti-da, ulim! — Dadam quvonib ketdi. — Hisobda adashib bo'lmaydi. Adashsang, o'zingga jabr qilasan!

— Adashmasam-chi?

Qiziq, dadamning lunji tag'in uchdi.

— Undayam jabr bo‘ladi, — dedi xo‘rsinib. — Rais, hisobdan adashmaganim uchun yomon ko‘ryapti-da meni. Unga hisobni bilmaydigan bug‘altir kerak.

Dadamning gapini uncha tushunmadim. Lekin, maktabga borguncha hisobni binoyidek o‘rganib oldim. Qo‘shish, ko‘paytirish... Ayniqsa, pul hisobini... To‘g‘risini aytsam, o‘shandayam lof-qofi bilan gapirish odatim qolmagan ekan. Maktabga borgan birinchi kunimoq shu dardim qo‘zib qoldi.

Ikkinchi bob

MAKTABGA KIRIB OLDIM

Maktabga onam qo‘limdan yetaklab olib bordi. Gulzor hovlining ikki tomonidagi qator-qator oppoq xonalardan biriga kirdik.

Chiroyli kiyingan, sochini silliq taragan bir qiz stol yonida o‘tirgan ekan. Lip etib, o‘rnidan turdi.

— Mana, Muhabbatxon, sizga yana bitta o‘quvchi olib keldim! — dedi onam iljayib.

O‘qituvchi ona boshimni siladi.

— Voy, qandoq yaxshi... Bu — Mavjudaning... — shunday dedi-yu, bir menga, bir onamga qarab angrayib qoldi. Chamasi, toyloqdek bo‘yimni ko‘rib hayron bo‘ldi: men Juning ukasimanmi, akasimanmi?

— Akasi! — dedi onam tushuntirib. — Sal tobi yo‘qroq edi.

O‘qituvchi opa yana boshimni siladi. Faqat bu gal qoq ikki pallaga bo‘linganida tomorqadagi o‘qariqdek chuqur iz qolgan boshimga barmog‘ining uchini tegizib qo‘ya qoldi.

— Ajab qipsiz! — dedi kulishga urinib, o‘zi kulyapti-yu, afti xuddi yig‘layotgan odamnikiga o‘xshaydi.

— Familiyang nima, bolakay? — dedi menga yuzlanib.

— Salimip! — dedim baqirib.

— Salimovmi? — U stoldagi kattakon daftarni ochib, tez-tez yozdi.

— Oting?

— Qo‘shovoy!

— Qo‘shavoy degin... Yaxshi. Yoshing nechada?

Xuddi shu payt eski dardim qo‘zg‘ab, lof-qof bilan aytish kasalim tutib qoldi.

— O‘n besh.

O‘qituvchi opa bir cho‘chib tushdi. Ko‘zimga xavotirlanib qarab qo‘ydi. Onam dumbamni shu qadar achistib chimchiladiki, iljayib qo‘ydim.

— Muhabbatxon!— dedi onam kulimsirab. — Qo‘shavoy hazillashdi, o‘zi shunaqa hazilkashroq bola. To‘qqiz yoshga to‘ldi.

O‘qituvchi opa yana yig‘lamoqdan beri bo‘lib kuldi.

— Shunaqa deng... Mayli. Mavjuda qizimiz pishiq, — dedi onamga. — A‘lo o‘qiyapti. — Keyin mendan so‘radi. — Boshqa singillaring ham bormi?

— Bor. O‘nta!

O‘qituvchi opaning pastki labi osilib ketdi. Og‘ir-og‘ir kiprik qoqib, onamga uzoq tikilib qoldi. Chamasi, to‘qqiz yilda o‘n ikkita bola tuqqan xotinni birinchi marta ko‘rib turgan bo‘lsa kerak.

Onam dumbamni chimchilashdan ish chiqmasligini payqadi shekilli, biqinimni o‘ymalab oldi. Qitig‘im kelganidan hiringlab kulib yubordim. O‘qituvchi opa goh onamga, goh menga qarab, qisqa-qisqa nafas ola boshladi. Qo‘lidan ruchkasi tushib ketdi.

— Qo‘shoqvoy, — dedi qo‘rqa-pisa. — Dadangiz?

— Ikkita! — dedim shosha-pisha.

— Nima?

— Ikkita!

Shu gapni aytganimni bilaman! Onam uch qadam orqaga tisarildi. Eskirgan chit ko‘ylagingning o‘ng yengini shimardi-da, yuzimga chunonam tarsaki tortib yubordiki, xonadagi derazalar jaranglab ketdi.

Yuzim og‘riganidan emas, kulгим qistaganidan ko‘chaga otildim.

— To‘xta, yer yutkur!— Onam ketimdan chopdi. — To‘xta, juvonmarg!

To‘xtab bo‘pman! Halloslab dadamning oldiga chopdim. Bilaman, dadam kolxoz idorasida katalakdek xonada cho‘t qoqib o‘tiradi.

— Dada, — dedim iljayib. — Enam meni kelisop bilan urdi. O‘n marta urdi. Yuz marta urdi!

— Qo‘yavur, ulim! — dedi dadam meni yupatib. — Enang seni kelisop bilan urgan bo‘lsa, men ham uni uraman! Yomon uraman!

O‘sha kuni dadam aytganini qilib, onamni kechasi bilan kaltaklab chiqqan bo‘lsa kerag-ov! Nega deganda onam erta bilan

saqich chaynab, ming‘illab ashula aytgancha, hovli supurib yurganini ko‘rdim. Ertalab dadam o‘z qo‘li bilan yetaklab maktabga olib bordi-yu, direktor bilan gaplashib, meni o‘qishga «joylab» qo‘ydi.

Uchinchi bob

BIZNI SINFDA QOLDIRADIGANNING BOSHI O‘NTA!

Buni qarangki, birinchi kundanoq Shodivoy bilan bitta partada o‘tirib qoldik. Hov o‘shanda, uyimizda tomsuvoq bo‘lgan kuni «yong‘ooq» deb yig‘lamsiragan, Rais buva «ikkovlaring qiyomatli jo‘ra bo‘llaring!» degan Shodivoy bilan. Quyondek yumshoqqina, do‘mboqqina Shodivoy bilan.

Ikkalamiz birinchi partada o‘tirgan edik, o‘qituvchi opamiz meni tanib qolgan ekanmi, familiyamni aytib, koyidi:

— Salimov! Orqa partaga o‘t! Bo‘yingni qara! Orqangda o‘tirganlar doskani ko‘rolmay qoladi-ku!

Bizga baribir! Orqaga o‘trsak-o‘taveramizda! Menga desa derazaga o‘tqazib qo‘ymaydimi!

Endi o‘rnimdan turayotgan edim, Shodivoy bilagimga osildi.

— Opa... — dedi yig‘lamsirab, — Qo‘shominam birga o‘tiraman!

— Sen kichkinasan-ku!

— Birga o‘tiraman... — Shodivoy yana yig‘lamsiradi.

O‘qituvchi opamiz ikkilanib qoldi. Men oldinda o‘tirsam, boshqalar doskani ko‘rmaydi, Shodivoy orqaga o‘tsa, u hech nimani ko‘rolmay qoladi.

— Birganlaringni qil! — dedi opamiz zarda bilan, Keyin jurnalni ochib yo‘qlama qila boshladi.

— Alimov! (Qarang Shodivoy jo‘ram bilan familiyamiz ham uyqash. Uniki — Alimov. Meniki — Salimov).

— Men! — Shodivoy burnini torta-torta o‘rnidan turdi.

— Baqoyev!

— Men!

— Vahobov?

— Men!

Bora-bora yo‘qlama «S» harfiga keldi.

— Samadov!
 — Men!
 — Salimov!
 — Biz! — dedim oʻrnimdan sakrab turib.
 Oʻqituvchi opamizning qoshi chimirilib ketdi.
 — «Biz» emas, «men» degin, Salimov!— dedi tushuntirib. —
 Sinfimizda bitta Salimov bor. Uyam boʻlsa sensan! Tushundingmi?
 — Tushundim!
 Opamiz qaytadan oʻqdi.
 — Salimov!
 — Biz!
 — Voy, qanaqa bolasan oʻzi? Sen bittasan! Salimov Qoʻshoqvoy!
 Nega «biz» deysan?
 «Biz» deymanmi» «men» deymanmi, nima ishi bor! Oʻqishni qoyil
 qilsam boʻldimi?
 Rostini aytсам, oʻqishni bopladim! Oʻzbek tili, tabiat — hammasini
 doʻndirdiraman! Rasm chizishdan bir marta «besh» ham oldim. Faqat
 matematika masalasida oʻqituvchi bilan hech kelisholmaymiz!
 Opamiz hamma qatori meniyam doskaga chaqiradi.
 — Qani ayt-chi, Qoʻshoqvoy, ikkini ikkiga qoʻshsa qancha boʻladi!
 — Besh! — deyman baqirib.
 Sinfdagi bolalar xaxolab kuladi. Oʻqituvchi opa ikki chakkasini
 changallab joyiga oʻtirib qoladi.
 — Qoʻshoqvoy! — deydi jigʻibiyron boʻlib. — Masalan, se-ning
 qoʻlingda toʻrtta olma bor...
 — Yongʻoq! — deyman baqirib.
 — Nima?
 — Men olma emayman. Yongʻoq yaxshi.
 — Boʻpti! — Oʻqituvchi opamiz uf tortadi. — Senda Yongʻoq bor.
 Ikkitasini menga berding...
 — Yoʻq!
 — Nima?
 — Yongʻogʻim oʻzimga kerak. Sizga bermayman!
 — Men misol uchun aytayapma, Salimov! Ayirishni misol qilyapman,
 tushundingmi?
 — Ayirishni bilmayman! — deyman men ham zarda bilan. —
 Qoʻshishni yaxshi koʻraman.

— Bo‘pti! Senda oltita yong‘oq bor edi. Men to‘rtta qo‘shdim.
Hammasi qancha bo‘ladi?

— O‘n bitta!

— Qo‘shoqvoy!— O‘qituvchi opamiz qaytadan tushuntiradi. —
Mana qarab tur... — U barmoqlarini bukib sanashga tushadi. — Bir,
ikki, uch, to‘rt, besh, olti... Yana to‘rttasini qo‘shamiz. Demak,
yetti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n... Ko‘rdingmi? Hammasi qancha bo‘ldi?
O‘ntami?

O‘nta bo‘lganini o‘zim ham bilaman. Lekin hech bo‘lmasa,
bitta qo‘shib aytсам, aqalli jindek lof qilmasam bo‘lmaydi-da,
nima qilay?

— O‘n bitta!

Bolalar yana xaxolaydi. O‘qituvchi opamiz astoydil yalinadi:

— Jon, Qo‘shoqvoy! O‘nta deyaqol.

— O‘n bir.

...Papkamni ko‘tarib uyga kirishim bilan onam so‘raydi:

— Necha baho olding?

— Olti!— deyman iljayib.

Singlim yomon-da!

— Qani, aka, kundaligingizni bir ko‘ray!— deb papkamni
titkilaydi.

— Ena! Akam uchta «ikki» opti!

Onam shavla yuqi kapgirni boshimga o‘qtaladi.

— Nima hunar ko‘rsatding yana, yaramas?

— Olti oldim!

...Onam ota-onalar majlisiga kulib ketadiyu, qovoq-tumshu-
g‘i osilib qaytadi.

— Qachon odam bo‘lasan-a? — deydi zor qaqshab. — Hech
bo‘lmasa, singlingdan uyalsang bo‘lmaydimi? Sendan bir sinf
yuqorida o‘qiydi. Hamma bahosi — besh...

Dadam kelganida meni yomonlamaydi-yu, hasrat qiladi:

— Shu... o‘g‘lingizga hayronman-da dadasi... Boshqa
darslardan binoyidek o‘qirkan-ku, hisobni bilmasmish...

...Birinchi sinfni-ku amallab bitirib oldim. Ikkinchiga
ko‘chganimda o‘qituvchi opamizning toqati toq bo‘ldi shekilli,
darsdan keyin meni olib qolib tayinladi:

— Bugun kechqurun otangni olib kelmasang, maktabdan
haydatib yuboraman.

Kechqurun ota-bola boshlashib, direktorning xonasiga kirdik.

Maktabimizning direktori poxol shlyapa kiyib yuradigan qop-qora odam. Qorni juda g'alati. Xuddi ketma-ket bir emas, ikkita tarvuz yutganga o'xshaydi. Qorning tepa qismida taxminan mening boshimdek, pastrog'ida o'rtacha tarvuz tiqilib qolgan...

Eshikdan kirib borsak, direktorimiz u yoqdan-bu yoqqa betoqat yurib turgan ekan. Ikki qadam tashlaydi-da, to'xtab qoladi. Uch qadam yuradi-da, tag'in dam oladi. Qornidagi tarvuzlar bir-biriga urilib ichini og'ritsa kerak-da.

Deraza oldida o'qituvchi opamiz o'tiribdi. Qovog'i soliq. Kirib kelganimizda menga qaramadi ham. Dadamning hurmati uchun o'rnidan turib, salom berdi. Ammo o'sha zahoti yana qovog'ini solib oldi. Direktorimiz negadir yo'talib qo'ydi. Dadam bilan qo'shqo'llab ko'rishdi-da, qornini siladi.

— Xo'-o'-o'sh!— dedi cho'zib. — Siz, Salimjon aka, hurmatli odamsiz. Biz sizni juda yaxshi ko'ramiz, maktabimizga ko'p yordam qilgansiz. Remont-pemont, shipir-mipir, o'tin-ko'mir degandek... Lekin... — u juda chuqur o'ylanib qoldi shekilli, yana qornini siladi. (Chamasi aqli qornida, yo'q, qorning o'zida emas, ichidagi qo'shaloq tarvuzlarda bo'lsa kerak). — Bu Qo'shoqvoyning o'zlashtirishi chatoq-ku.

Shunaqa deyishga deb qo'ydi-yu, yana paydar-pay qornini silay boshladi. Nazarimda yuziyam yorishib ketgandek bo'ldi.

— Yo'q, Salimjon aka, biz Qo'shoqvoyni yomon demaymiz, o'zi zo'r bola. Intizomi durust, zehni o'tkir. Qaysi kuni xo'rozning rasmini chizgan ekan. Ko'rib xavasim keldi. O'ziniyam tirikka o'xshatvoribdi, azamat! E, otangga rahmat, devordim!

Direktorimizning gapi ilikdek yoqib ketdi. Mazza qilib iljayayotgandim, o'qituvchi opamiz, dik etib o'rnidan turdi.

— Kechirasiz-ku, — dedi negadir qizarib-bo'zarib — Salimov matematikadan — nol! Ikkinchi sinfga arang ko'chirdik. Shu ketishi bo'lsa...

— Endi, Muhabbatxon, sizam qizishmang-da, singlim. — Direktor insofga chaqirgandek qisqagina yo'talib qo'ydi.

— Bola — yosh. Vaqti-soati bilan o'rganib oladi...

Voy-bu, o'qituvchi opamning jahli shunaqa yomonligini bilmagan ekanman.

— O'rganib oladi-i? — dedi ovozi ingichkalashib. Ikki yuzi shunaqangi qizarib ketdiki, birov bexosdan gugurt chaqib yuborsa, lov etib yonib ketgudek ahvolda edi. — Qachon o'rganadi?

Qachon? — U entikib qoldi. — Yaxshi, — dedi dadamga qarab. — Qo‘shoqvoyga bitta savol bersam maylimi? Bog‘cha bolasiyam biladigan savol...

Munday qaragam, dadam direktorga, direktor dadamga tikilib turibdi. Ikkalasidan ham sado chiqadigan emas.

— Mayli, — dedim otamning o‘rniga o‘zim javob berib. Aniq sezib turibmanki, hozir qo‘shib hisoblash kasalim qo‘zg‘amayapti. Aqlim, Tursunboy akaning pat-patidek qarsillab ishlab turibdi.

— Marhamat! — o‘qituvchi opam tantana bilan goh direktorga, goh dadamga, goh menga qarab oldi. — Ikki karra ikki qancha bo‘ladi?

— To‘rt.

Dadam bilan direktor yarq etib o‘g‘irishdi. Yo‘q, mengamas, o‘qituvchi opaga. O‘qituvchi opam, negadir ko‘zimga uzoq tikilib qoldi. Bir-ikki yutinib qo‘ydi.

— Besh kara besh? — dedi nafasi ichiga tushib.

— Yigirma besh!

— To‘qqiz karra to‘qqiz?

— Sakson bir!

— Sakkiz karra o‘ttiz uch?

— Ikki yuz oltmish to‘rt.

O‘qituvchi opamning rangi quv o‘chib ketdi. Direktorimizning ichidagi tarvuzlar bir-biriga paydar-pay urila boshladi shekilli, qorni o‘zidan-o‘zi lopillab ketdi.

— Yetmish uchdan o‘n sakkizni ayirsa-chi? — dedi o‘qituvchi opam. Hayronman, bu safar ovozi shu qadar xorg‘in, shu qadar yig‘lamsirab chiqdiki, savolini zo‘rg‘a eshitdim.

Aytyapman-ku, men ayirishni bilmayman. Faqat ko‘paytirishni qoyil qilaman. Navbatdagi savolga nima deyishni bilmay turgan edim, jonimga direktor ora kirdi.

— Bo‘ldi! — hayronman, direktorning ovoziyam jaranglab ketdi. O‘qituvchi opamizga qarab, qo‘lini paxsa qildi. — Hamma savolingizga mendan yaxshi javob berib turibdi-ku! Tag‘in nima kerak? Nega qiynaysiz bolani?

Rostini aytsam, o‘qituvchi opamga rahmim kelib ketdi. Xuddi mo‘jizaga duch kelgandek nuqul g‘alati iljayadi. Og‘zi lang ochilib qolgan.

Direktorimizning qorni shitob bilan lopillay boshladi. Shunangangi lopilladiki, o‘ziyam tisarilib borib-borib moshrang movut

qoplangan uzun stolga dumbasi bilan urildi, orqasi ozor chekdi shekilli, afti burishib ketdi.

Chamamda o'qituvchi opamiz hushidan ketib qoldi-yov! Ora-chora «hiq-hiq» deb ovoz chiqib qo'yadi. Direktor ham esidan og'ib qolganmikan, desam, yo'q es-hushi joyida. Tepamga kelib, ikkiga yirilib ketgan, qoq o'rtasida o'qariqdek iz qolgan boshimni siladi. Mehr bilan, uzoq siladi.

— Ruxsat sizga, Qo'shoqvoy,— dedi ovozi tovlanib. Tovushidagi mehrdan ko'ra sizlab gapirishi ayniqsa yoqib tushdi. Shu paytgacha meni hech kim «siz»lamagan, hatto singlim ham kamdan-kam «siz» deydi.

— Mayli, — dedim eshikka yo'nalib. — Rahmat!

Yo'lakka chiqsam, allaqachon qorong'i tushib qopti. Ham-mayoq jimjit. Yo'lakda ham, maktab hovlisida ham odam zoti ko'rinmaydi. Turib-turib zerikib ketdim. Hech zog' bo'lmagandan keyin, yilt etgan nur ko'rinmaganidan keyin zerikadi-da odam.

Qarasam hozirgina o'zim chiqib ketgan direktorning xonasidan chiroq nuri tushib turibdi. Yo'q, xonaning o'zida emas, eshik zulfinidan. Avval kalit solinadigan teshikdan ichkariga mo'raladim. Hech nima ko'rinmadi. Keyin jillaqursa o'sha yoqda nima gap bo'layotganini eshitgim keldi. Harchand quloq solmay, hech baloni eshitmadim. Oxiri, zulfiga qulog'imni qapishtirib oldim. Direktorimizning zardali ovozda gapirayotgani qulog'imga kirdi. Aniq-tiniq kirdi!

— Siz, o'rtoq Ikromova, shahardan kelgan odamsiz, — dedi direktor tajang ohangda. — Yoshsiz. Ammo bilib qo'ying. Qishloq — shahar emas! Hamma olim bo'lib ketaversa, podani kim boqadi?

Bir zum sukunat cho'kdi. Dadamning g'o'ldiragan tovushi qulog'imga kirdi.

— Qo'ying, o'rtoq direktor, Muhabbatxon yosh... O'g'limizning o'ziyam...

Zulfin teshigiga qapishib turgan qulog'imga o'qituvchi opamning hiqillagani eshitilgandek bo'ldi.

— Men... Men... Bolalar savodsiz bo'lmasin, ilm olsin, deymen... Bolalar shu holda ketaversa... ertaga hammasi chalasavod...

— Bas! — direktorning ovozi o'qdek qarsillab ketdi. — Bilib qo'ying, o'rtoq Ikromova! Bu — sizning Toshkentingiz emas! Bizga oqbilak intellegentlarmas, dala zahmatkashlari kerak!

Paxtakorlar! Maktabimiz bo'yicha yuz foiz o'zlashtirish beramiz deganimizda siz ham bordingiz?! O'qituvchilar kengashida qo'l ko'targanmidingiz?

Direktorimiz yana jimib qoldi. Chamamda, qornini silab qo'ydi shekilli.

— Xo'sh, nega endi o'zingizni panaga olasiz? Nega rayono oldida, oblono oldida bizni sharmanda qilasiz?!

Tag'in jimlik cho'kdi. Qulog'imni eshikka yanayam qattiqroq bosdim.

— Mayli, endi, ma'limjon... — Bu — dadamning ovoziligini bildim.

— Yo'q, maylimas!— direktorimiz to'satdan chinqirib yubordi. Ovozi o'qituvchi opamnikidan ham ingichkaroq chiqdi. — Gap shu! Ertadan boshlab bironta bolaga «ikki» qo'ymaysiz. «Uch» ham qo'ymaysiz! Kerak bo'lsa, bolaning uyiga borib o'qitasiz. Yonida yotib qolasiz. Xohlasangiz shu, xohlamasangiz katta ko'cha. Poyezd biletini olib beramiz.

Ichkaridan tars-turs qadam tovushlari eshitildi. Eshikka yanayam qattiqroq yopishdim.

Shu payt... Eshik chunonam zarb bilan ochildiki, birov o'ng qulog'imga... yo'q tarsaki bilan emas, naqd o'rtacharoq ketmoni bilan tushirib qolgandek bo'ldi. O'zim ham kamida olti marta o'mbaloq oshib ketdim-ov! To'rt oyoqlab turgancha munday qarasam, o'qituvchi opamiz nimqorong'i yo'lakda chopqillab ketyapti. Poshnalari «tars-turs», «tars-turs» qiladi.

Emaklab o'rnimdan turgancha, gir-gir aylanayotgan boshimni ushlab ko'rdim. Xayriyat, joyida ekan! O'ng qulog'im lovullayotganiga qaramay iljayib qo'ydim. O'qituvchi opam matematikadan endiyam «ikki» qo'yib ko'rsin-chi! Xohlasam, ikki karra ikki yigirma ikki deyman! Xohlasam, beshni beshga qo'shsa, ellik besh bo'ladi deyman. Meni sinfda qoldirib bo'pti!

To'rtinchi bob

XIX, TULPORIM, XIX!

To'rtinchi sinfni bitirayotgan kezlarim edi. Bir kuni ertalab papkamga yarimta non, bir hovuch yong'oq, besh-oltita popuk qand solib, chiqib ketayotsam, dadam to'xtatdi.

— Shoshma, ulim! Bugun bozor boramiz.

Angrayib qoldim. Har kuni tayoq olib maktabga haydagudek bo‘ladigan otam, bugun bunaqa deyapti.

Hovli burchagida butiga chelak qistirib, sigir sog‘ib o‘tirgan onam ham dadamning gapini eshitdi. Onam, o‘zi juda yuvoshku, bir jahli chiqsa, shunaqangi bobillab beradiki, men tugul otam ham qochgani joy topolmay qoladi.

— Hoy! — dedi onam sigir sog‘ishda davom etib.— Nima deb aljirayapsiz? Bolani o‘qishdan qoldirguncha o‘zingiz ishga borsangiz o‘lasizmi? Rais bova nima deydi?!

— Bormayman!— dadamning lunji uchib ketdi. — Ishlamayman o‘sha Rais bovang bilan, tushundingmi, ishlamayman!

Onam sigirni chala-chulpa sog‘ib, yarim paqir sutni ko‘targancha yaqin keldi.

— Nima bo‘ldi? — dedi hurkibroq.

— Ishla-may-man!— dadam ayvon peshida o‘tirgancha tizzasiga shapatiladi. — Aldam-qaldamiga toqatim yo‘q!

Onam birpasda shalpayib tushdi.

— Mayli-ku, — dedi yalinib. — Kap-katta odam ishlamay qo‘ysangiz... Buyoqda bola-chaqa...

Dadamning lunji battar ucha boshladi.

— Men qamalib ketsam, bola-chaqani sen boqasanmi, ahmoq xotin!—deb mushtini do‘laytirgan edi, onam paqirni lapanglatib qochdi.

— Mayli, o‘zingiz bilasiz, — dedi nariroq borib.— Ammo shu topda Qo‘shoni bozorga...

— Ishing bo‘lmasin! Yur, ulim, Chiyaliga boramiz!

Suyunganimdan papkamni hovliga uloqtirdim.

Chiyali bozorni ko‘rmabsiz, dunyoga kelmabsiz! Bu bozordachi, xoh ishonang, xoh ishonmang, odamdan boshqa hamma narsa sotiladi. To‘g‘nag‘ichdan tortib buldozergacha, sichqondan tortib filgacha! Ovqatlarining zo‘rligini aytmysizmi? Xohlasangiz, serqatiq to‘ppa osh iching, xohlasangiz — archa hidi anqib turgan tandir kabob yeng! Bilamiz-da! Bultur kelganimizda onam meni yaxna go‘sht bilan siylagan.

Balki Siz Chiyali bozor g‘ij-bij chayqovchiga to‘lib ketgan deb o‘ylarsiz? Bekorlarning beshtasini aytibsiz! Bozor kuni hammayoqni aptalapka bosib ketadi. Bir gal onam aptalapkadan yaltiroq ko‘ylaklik olmoqchi bo‘lgan-u, puli yetmagan.

Esimda. Onam:

«Kristalingiz necha pul?» desa, boshiga cho‘girma kiyib olgan sotuvchi:

«Oltmish so‘m» degan.

Onam:

«Bir kiyimligi oltmish so‘m mi?» desa, cho‘girma kiygan sotuvchining achchig‘i chiqqan.

«Magazinning moli kiyimlab sotilmaydi, ena, metri oltmish so‘m!» deb, jerkib bergan.

Onamning ham jahli chiqib ketgan.

«Men bilaman, davlat bahosida metri o‘n yetti so‘m turadi!» degan.

«Yo‘lingdan qolma, ena!» degan sotuvchi sansirab.

Onam o‘zidan kattani sansirash mana bunaqa bo‘ladi, deb melisa boshlab kelgan.

Melisa yaxshi kishi ekan. Onamni yupatgan:

«Xafa bo‘lmang, ena, narigi aptalapkadan olaqoling!»

Onam ikkalamiz narigi aptalapkaga borsak, xuddi o‘shanaqa yaltiroq matoning bir metri yetmish so‘m ekan...

Chiyali bozori ana shunaqa! Butun boshli O‘zbekistonni o‘n marta, boringki, o‘n bir marta aylanib chiqsangiz ham bunaqa bozorni topolmaysiz!

Rostki, dadam meni bozorga yetaklab qoldimi, bundan chiqdi, avvalo qornim yorilib ketguncha mehmon qiladi! Keyin boshoyoq yasatadi. Kim bilsin, balki «pat-pat» ham olib berar! Tursunboy akamning «pat-pat»ini havas qilib yurganimni onam dadamga aytgan bo‘lsa — aytgandir-da! Nima qipti! Yakkayu yolg‘iz o‘g‘ilmiz!..

...Ajab! Dadam yaxna go‘sht tugul ayron ham olib bermadi. Mototsikl bozori uyoqda qolib, eshak bozoriga sudradi. Echkidekkina xo‘tikka xaridor bo‘ldi. Savdolashib-savdolashib, «bor, baraka top!» qildi.

Rostini aytsam, xo‘tigim xunukkina edi. Qiltiriq, quloqlari shalpaygan, uzun-uzun oyoqlari qaltirab turibdi.

— Bilib qo‘y, ulim! — dedi dadam tantana bilan. — Ko‘rasan, mana shu jonivor hali senga ko‘p xizmat qiladi!

Yanayam rostini aytsam, uyga yetaklab kelguncha xo‘tigim o‘zimgayam yoqib qoldi. Yuvoshgina ekan. Katta-katta, qopqora ko‘zlari odamga ma’yuslanib termuladi. Hangramoqchi bo‘ladi-yu, eplolmaydi. Og‘zini lang ochib, ingichka ovozdada «xhi-

hhi» qilib qo‘yadi. Xuddi kulganga o‘xshab.

Ertasigayoq butun maktabga xabar qilib chiqdim:

— Mening fildek hangi eshagim bor. Oti — Tulpor! Bir tepsa, tuyani sulaytiradi!

...Bekorga maqtanmagan ekanman! Ikki yil o‘tib, oltinchi sinfga ko‘chganimda Tulporim chunonam hangi eshak bo‘lib yetildiki, ko‘rsangiz havasingiz keladi. Yursa yer titraydi, yugursa «man-man» degan poygachi otni yarim yo‘lda qoldirib ketadi. Bekorga Tulpor deb ot qo‘ymaganman-da! Aqlligini aytmaysizmi? Qishlog‘imizdagi odamlarning qoq yarmisi soatini eshagimning hangrashiga qarab to‘g‘rilaydi. Erta bilan soat jiringlaganidan emas, Tulporimning hangraganidan uyg‘onaman. Roppa-rosa soat yettida roppa-rosa yetti marta hangraydi.

Dadam ham eshagim hangrashini bilan yo‘lga otlanib qoladi. Endi kolxoz idorasida cho‘t qoqmaydi. Xloppunkt yonidagi do‘konchada gazeta sotadi. Onamning aytishiga qaraganda, Rais buva insof qipti: dadamning gunohidan kechib, gazeta sotuvchi qilib qo‘yganmish. Lekin dadamning o‘zi bu to‘g‘rida og‘iz ochmaydi. Tulporim bo‘lsa, har soatda hangrab turadi. Kun bo‘yi. Bir minut ham kechikmay! Qo‘shni kolxozda turadigan tog‘am Tulporingni «Moskvich»ga almashasanmi, deganida jon-ponim chiqib ketdi. Esimni yebmanmi, almashib? Eshak qayoqda-yu, allaqanday «Moskvich» qayoqda! Mana, men sanay, siz barmog‘ingizni bukib turing.

Birinchidan, mashinaga benzin kerakmi? Kerak! Benzin degani osongina topila qolsa ekan! Bir marta eshagimni minib uzum olish uchun tuman markazidagi bozorga tushganimda o‘zim sanaganman. Benzokolonkada bir yuz o‘n to‘qqizta mashina safga tizilgan askardek qator turgan ekan. Sho‘pirilar so‘kingan, mashinalar paydar-pay signal bergan. O‘shanda Tulporim mashinalar hadeb bibillayverganidan g‘ashi keldimi, butun kuchini to‘plab shunaqangi hangrab berdiki, tog‘dek keladigan samosvallarning ham dami ichiga tushib pildir-pis bo‘lib qoldi. Shunday qilib, mashina zoti benzinsiz bir qadam yurolmaydi. Eshak-chi? 93 benzin uyoqda tursin, solyarka ham kerakmas!

Ikkinchidan, har qadamda melisa to‘xtatmaydi. Bo‘lar-bo‘lmasga taloningni teshaman deb do‘q urmaydi. Demak, bu tomondan ham pulingiz yoningizda qoladi.

Uchinchidan, siz tomonlarda qanaqa bilmadim-u, bizning

tumanda paxta terimi boshlanishi bilan shaxsiy mashinalarda yurish taqiqlanadi. To'g'ri-da, har kim o'zining mashinasida katay-sa qilib yuraversa, paxtani kim teradi? Shuning uchun ko'chada ketayotgan mashinani taqqa to'xtatishadi-da, sho'pirning ham, mashinada o'tirganlarning ham qo'liga etak tutqazishadi. Marhamat qilib, 20 kilodan paxta terib berasiz-da, keyin to'rt tomoningiz qibla! Etak to'lmaguncha ketish yo'q. O'n chaqirim yurmasingizdan yana to'xtatishadi. «Hozirgina terib berdim-ku» desangiz, «u sovxozning paxtasi edi, endi kolxoznikini terasiz», deyishadi. Tog'am aytib bergan. Bultur yangamni tuman markazidagi tug'ruqxonaga olib ketayotganda uch joyda to'xtatib «hashar» qildirishibdi. Yangam tug'ruqxonaga etib borishni kutib o'tirmay mashinaning ichida tug'ib qo'ya qopti. Shuning uchun jiyanimning otini, erkalab «Moskvich polvon» deymiz. O'ziyam polvon bola. Kuzda tili chiqdi. Ena deb emas, dada debmas, «pa-pa-a-p» deb chiqdi. Qarang, mashina ichida tug'ilgani esida bor ekan. Aqlli bola-da!

Xo'sh, endi aying-chi, eshak minib ketayotgan odamni birov to'xtatib, paxta ter deydimi? Demaydi, Odamlar shuni bilib qolishgan. Xotini ayni kuzda tug'moqchi bo'lsa, mashinaga o'tqazib emas, eshakka mingashtirib oborishadi tug'ruqxonaga.

Tog'am aytgan: bitta g'ildirak davlat bahosida yetmish so'm turarkan. Ammo ustaxonada g'ildirak yo'qligi uchun bozordan ikki yuz so'mga olarkan. Bitta akkumulyator oltmish so'm turarkan. Ustaxonadagi qadrdoni u yoqqa yugurib-bu yoqqa yugurib, arang bir yuz yigirma so'mga topib beribdi. Tog'am xursand bo'lib ketganidan oshnasiga yana o'n so'm qo'shib beribdi. Akkumulyatorni «yuvish» uchun...

Eshakka-chi! Zapchast kerakmi? Xullas, sanayversam, Tulporimning maqtoviga so'z topolmayman. Mehribonligini aying. Har kuni oxirgi dars tugashi oldidan nuqul derazaga qarayveraman. Xuddi o'zim bilganimdek, derazada aval bir juft dikkaygan quloq, keyin Tulporimning tumshug'i ko'rinadi. U kulrang-ko'kish lablarini cho'chchaytirib, havoni huzur qilib iskaydi-da, boshini silkitib-silkitib, pishqirib qo'yadi.

O'qituvchilar ham tanib qolishgan uni.

— Iye, Qo'shovoy, dars tugab qopti shekilli, eshaging keldi, — deb qo'yishadi. Qo'ng'iroq chaladigan navbatchi adashsa-adashadiki, Tulporim xato qilmaydi. Chiqishga o'z vaqtida

qo'ng'iroq urmasa sekund-sekundini to'g'rilab hangrab yuboradi. Hangraganda ham qanaqa deng? Naqd derazaga tumshug'uni tirab o'kiradi. Har bittasi taxminan yarim metr keladigan quloqlari dikkayib, dumi xoda bo'lib ketadi. O'sha zahotiy oq qo'ng'iroq chalinsa — chalingani. Chalinmasa deraza ortidan o'qituvchiga jahl aralash adovatli qarab qo'yadi-da, ikki biqini kirib-chiqib hirqillay boshlaydi. Hafa bo'lganidan shunaqa qiladi, deb o'ylaysizmi? Hecham-da! Tulporim yangidan hangrash uchun kuch to'playotgan bo'ladi. O'pkasini svejji havoga liq to'latib olishi kerakmi axir? Agar o'shandayam qo'ng'iroq chalinmasa, shunaqangi shovqin soladiki, faqat bizning sinfimiz emas, butun maktab titrab ketadi. Derazalar jarang-jurung qilgan, shiftning ohak suvog'i ko'chib tushgan...

Yo'q, ko'pincha ish bunchalikka borib yetmaydi. Tulporimning ovozi bilan darsdan chiqishga qo'ng'iroq deyarli baravar jaranglaydi.

Sinfxonalardan otilib chiqamizu Shodivoy ikkalamiz eshagimga mingashib olamiz. Shodivoy yaxshi bola-da o'zi! O'qituvchilar u yoqda tursin, direktorimiz ham uni «siz»lab gapiradi. Shodivoy ham menga o'xshagan bittayu-bitta o'g'il. Faqat menga o'xshab singlisi emas opasi bor. To'rtta. Hov o'shanda, ikkinchi sinfda o'qib yurganimda direktorimiz o'qituvchi opamizni rosa urishganini aytgandim (O'shanda o'qituvchi opam eshikni qaltisroq ochgan ekanmi, boshimdagi tuxumdek g'urra salkam ikki oygacha ketmadi. G'urram joyiga tushguncha o'qituvchi opaning o'zi ishdan bo'shab ketdi. Sababini keyin bildim. Opamiz men tugul, hatto Shodivoydek bolaning ham choragiga «ikki» chiqarmoqchi bo'lgan ekan. Direktorimiz shunisiga chidolmabdi).

Keyingi paytlarda Shodivoy yanayam semirib, yanayam do'mboq bo'lib ketdi. Avval ikki yuzi lo'ppigina nonga o'xshardi. Hozir kamida bir kecha-kunduz oshib yotgan xamirdek bo'lib ketgan. Ba'zan hazillashib jo'ramning yuzini silagim kelib qolsa, bir yuzini ikki qo'llab silayman.

Shunday qilib, Shodivoy ikkalamiz sinfxonadan otilib chiqib eshagimga mingashib olamiz. Men-ku Tulporimga minaverib usta bo'lib ketganman. Lip etib ustiga chiqib olaman. Papkamni tizzamga qo'yib, Shodivoyni imlayman.

— Kelaver!

Shodivoy eshakka mingashguncha terlab, suv bo'lib ketadi.

Harsillab nafas olgancha, goh o'ng tomondan keladi, goh chap tomondan... Tulporim bo'lsa taqdirga tan bergandek qimir etmay turadi. Esli-da, Shodivoy qil o'tmas o'rtog'imligini biladi!

Jo'ramning qo'ltig'idan tortib eshakka mingashtirguncha o'zim ham terlab ketaman. Dadam minganida qilt etmaydigan Tulporim Shodivoy mingashishi bilan orqaga cho'nqayib o'tirib olgudek, bir silkinadi. Chamamda orqa oyoqlari bukilib ketadi-yov! Ammo sir boy bermaydi. Avvaliga uch-to'rt qadam gandraklabroq boradi-da, keyin yo'rg'alahga tushadi.

— Hih, Tulporim! — deymen baqirib.

Maktabdan chiqayotgan bolalarni bir zumda quvib o'tamiz. Keyin katta ko'chaga chiqamiz. Avtobus bekatida do'ppi kiygan kishilar, atlas ko'ylagi oftobda tovlanib turgan xotinlar bizga havas bilan qarab qolishadi. Ba'zilar negadir afsuslanib bosh chayqaydi...

Shu... Xotinlarga ham hayronman-da! Atlas ko'ylak kiyishni yaxshi ko'rishadi-yu, qurt boqish azobidan xabari yo'q! O'ylasa kerak-da atlas degani magazinga chiqadi-yu, do'konchiga ozroq pul qo'shib bersa, peshtaxta tagidan bir jo'ra atlasni olib, gazlab beraveradi, deb!

Pilla boqish oson ekanmi? So'ri qurish bor. G'anak qilish bor. Siyraklatish bor, so'ri tagini tozalash bor. Yerga tushib ketgan qurtlarni bitta-bittadan terib joyiga qo'yish bor. Jimitdek qutidan chiqqan qurtlar o'n besh kunda butun uyni egallaydi. Avvallari joy topilmaganidan qurt uchun maktabdagi bitta-ikkita sinxonaniyam bo'shatib berisharkan. Yo'q, keyingi paytlarda Rais buva «qurti odamlar uyida boqsin» deb buyruq bergan. Tag'in bu qurt demagani shunaqangi tannozki, xona issiq bo'lsayam yoqtirmaydi, sovuq bo'lsayam. Havo sal qovog'ini solsa, azzabazza pechka yoqasiz. Havo isib ketsa, derazani qiya ochib, salqinlatasiz. Shuning uchun aprel oyi oxirlashi bilan odamlar uyini qurtga bo'shatib, o'zlari hovlida yotishadi.

Eng qiyini bu ham emas. Pilla qurt deganning dahasi bo'ladi. Birinchi daha, ikkinchi daha... Uchinchi dahaga kirganida har bittasi ajdardek ochofat bo'lib ketadi. Barg deganni yamlamay yutadi. Yetkazib bermay ko'ring-chi! Ayniqsa, katta dahaga kirganida ko'rsangiz! Mingtachasi bab-baravar boshini ko'tarib, bersang eyman, bermasang o'laman, deb turadi. Ammo, qani o'sha barg? Avvallari paxta paykallari chetida qator-qator tutzorlar bo'larkan. Rais buva, bo'ltak-so'ltak yerlar ko'payib ketgan, texnikaga keng maydon kerak,

deb tutlarni kestirib tashlagan.

O‘shandan beri pilla qurti katta dahaga kirishi biln yugur-yugur boshlanadi. Bizning kolxozdagilar yuk mashinasiga o‘tirib, narigi kolxozga borsa, narigi kolxozdagilar bir emas, ikkita mashinaga o‘tirib bizning kolxozga keladi. Dadamning aytishicha, bir safar bizning pillachilar tutning konini topishibdi. Narigi xo‘jalikda kattakon tutzor bor ekan. Yarim kechada borib chopqi bilan rosa barg kesishibdi. Mashinaga bosishibdi. Shopir mashinani haydayman desa, g‘ildiragi daqir-duqur qilarmishu yurmasmish. Tushib qarashsa, mashinaning to‘rttala baloni yorilib yotganmish. «Birovning molini o‘g‘irlash shunaqa bo‘ladi! — debdi mo‘ylovli bir kishi ularning yoniga kelib. — Pilla kerak bo‘lsa, o‘zlaring tut o‘stiringlar! Rahmat, ishimizni yengillashtirib barg kesib berdilaring».

To bu yoqdan boshqa mashina to‘rtta balon oborguncha tutzor egalari tayyor kesilgan barglarni tashib ketishibdi.

Bu gaplarni aytmasdimu, nima qilay, biznikida ham bir quti pilla bor-da! Hozir katta dahaga kirgan. Ertalab dadam, «O‘g‘lim, Tulporingni egallab barg qidirmasang bo‘lmaydi», degan.

Shuni o‘ylab ketayotsam, orqamda mingashib o‘tirgan Shodivoy biqinimga turtib qoldi (Mushtiyam biqqigina, yumshoqqina. O‘zi o‘ng biqinim qichib turgan edi, jonim rohat qildi).

— Qo‘shovoy! — dedi jo‘ram. — Xloppunktga bormaymizmi? Bugun kino bor ekan. Indiyский kino...

—E, kinoni boshimga uramanmi! — dedim to‘ng‘illab. — Barg topmasam, dadam o‘ldiradi! Xix!

Eshagim shoshib turganimni sezdi. Yo‘l chetidagi toshlarni shaqir-shuqir bosib, ildamlab ketdi. Shodivoyni har kuni Tulporimga mingashtirish malol kelmasa ham bugun alam qildi. Men buni tekindan-tekinga uyiga oborib qo‘yaman, bu mazza qilib kino ko‘radi. Men bo‘lsam, hali barg izlashim kerak! Shodivoyning uyi yaqin bo‘lsayam go‘rgaydi. Yo‘l o‘lgudek aylanish! Avval idora yonidan o‘tamiz. Keyin atrofni allaqanday jilonjiydalar, yulg‘unzorlar o‘rab yotgan chakalakzor mozor chetidan o‘tamiz. Ana undan keyin Shodivoyning uyi keladi.

— Bargni qayoqdan olasan?— dedi Shodivoy yana biqinimga turtib.

— Men qayoqdan bilay? Xix, Tulpor!

Eshagim yanayam ildamroq dikillab ketdi.

— Qo‘shovoy! — dedi jo‘ram bir mahal. Ovozi g‘alati, sirli chiqdi. — Bir eshak barg topib bersam, kinoga borasanmi?

Sevinganimdan butun gavdam bilan o‘girildimu o‘rtog‘imning yuzidan o‘pib oldim. O‘ziyam bir tog‘ora xamirning bir burchidan o‘pgandek bo‘ldim.

— Rostdanmi? — dedim baqirib.

Muvozanat buzildi shekilli, eshagim munkib ketdi. Lekin darrov qaddini rostlab yana dikir-dikir qilib yo‘lida davom etdi.

— Rostdan, — Shodivoy yelkamga qoqdi, — yuraver biznikiga!

Rais buvaning «Volga» uyoqda tursin, ZIL ham, boringki tank ham sig‘adigan kungurador darvozasi oldida to‘xtadik. Shodivoy yerga tushishi bilan eshagim xo‘rsinib-xo‘rsinib nafas ola boshladi. Qarasam, ikki labi ko‘pirib, sarg‘imtil tili osilib ketibdi. Hangraydigan vaqti bo‘lgan ekanmi, bir-ikki hirqillab o‘kirgisi keldi-yu, madori yetmadi shekilli.

Jo‘ramnikiga shuncha kelgan bo‘lsam ham hovlisiga kirmagan edim. Hozir ham ichkariga kirgim kelmadi.

— Yuraver! — dedi Shodivoy darvoza yonboshidagi eshikni ochib. — O‘zimizning tutimiz bor. Bargini kesib olamiz.

Qo‘rqib ketdim.

— Dadang bilib qolsa-chi?

— Dadam ishda.

— Enang-chi?

— Yuraver! — Shodivoy qo‘limdan tortdi. — Enam Sojida opamning beshik to‘yiga ketgan.

Yo‘lakka kirishim bilan bir emas, uchta mashinaga ko‘zim tushdi. Bittasi oq «Volga», bittasi yangi chiqqan qizil «Jiguli», eng ichkarida havorang «Zaporojes» turibdi.

— Kimniki? — dedim «Volga»ga imlab.

— Dadamniki.

— Dadang «Niva»da yuradi-ku!

Jo‘ram kuldi. Ikki yuzi qizarib, yanayam lo‘pillab ketdi.

— Unisi — davlatniki! Bu — o‘zimizniki!

— U-chi?

— Bumi? — jo‘ram yumshoq kafti bilan qizil «Jiguli»ning tomiga shapatilab qo‘ydi. — Kichik pochchamniki. Dadam pochchamga aytgandi. «O‘g‘il ko‘rsang «Jiguli» seniki» degandi. Sojida opam o‘g‘il tug‘di. Endi pochcham mashinani olib ketadi.

— Bunisi-chi?

Shodivoy havorang «Zaporojes»ga mensimayroq qarash qildi.

— Bunisi meniki. Dadam va'da qilgan. Yettini bitirgan kuning kalitni qo'lingga beraman degan. Yanagi yil minaman...

— O'zimning Tulporim yaxshi!— dedim past kelishni xohlamay.

Hovliga kirib, angrayib qoldim. Xuddi tomoshabog'ning o'zi! Olmalar, giloslar qator-qator ekilgan. O'rtada katta gulzor. Atirgullar ochilgan. Gulidan g'unchasi ko'p. Gulzor o'rtasida marmar fontan. Hali suv o'tilmayapti-yu, ammo marmar ustunchalari yuvib qo'yilgan. Hovlining to'rt tomonida qator-qator uylar. Ustuni naqshlangan ayvonlar...

— Qani tut, Shodi? — dedim garangsib.

— Ana!— jo'ram hovli burchagiga imo qildi. Qarasam, judayam bizning yong'oqchalik bahaybat bo'lmasa ham kamida o'shaning yarmidek keladigan tut savlab to'kib turibdi. G'arq pishganini aytmysizmi? Hatto tagiga asfalt bosilgan yerga ancha-muncha to'kilibdiyam.

G'ayratga kirib ketdim.

— Dastkallang bormi? — dedim hovliqib.

— Nima u dastkalla?

— Chopqi-da, ishqilib, oshpichoqqa o'xshagan! Barg kesadigan...

Shodivoy uzoq o'ylab qoldi.

— Bolta bor! — dedi nihoyat.

— Obkel!

— Yiqilib tushma! — dedi Shodivoy tutga tirmashayotganimda.

Uchi bulutga tegib turgan o'zimizning yong'oqdan kalla tashlagan odamga allaqanday tutga chiqish nima bo'пти. Bolta bandini kamarimga qistirdimu, bir zumda tut shoxiga minib oldim. Boltani bir urganimni bilaman! Boshimga duv etib tut yog'ildi. Tag'in qanaqa deng? Marvarid tut! Har bittasi barmog'imdek keladi.

Shoshma! Nuqul barg kesaverib, tut yeyish esimdan chiqib ketibdi-ku! Avval bir to'yib olay! Qo'lim yetgan joydagi shoxlarni sindirib tutlarni kappalab og'zimga tiqaverdim. Shunaqangi shirinki, ishkaladga o'xshaydi.

— Qo'shovoy! — pastdan jo'ramning ingichka ovozi eshitildi.

— Bo'l tez! Hozir enam kepqoladi!

Onasi bilan nima ishim bor?! Shipillatib tut eyishga tushdim.

Ertalabdan beri qornim ochib ketgani uchunmi, shunaqangi

ishtahaga kirib ketdimki, shu ochofatligimni ko'rsa, katta dahaga kirgan qurtlar ham bir chekkaga chiqib ta'zim qilib turgan bo'lardi.

— Qo'sho!— Shodivoy pastdan turib yalindi. — Jon Qo'sho! Senga bir tog'ora tut beraman! Yo'q, o'n tog'ora! O'zim uyingga oborib beraman! Tezroq bo'la qol, jo'rajon...

Tezroq bo'larmishman! Shoshib nima qildim! Ana hammasi tayyor! Tut o'zimga, barg — qurtinga. Tutni kapalab yeyaverdim-yeyaverdim, oxiri, qornim darangos bo'lib quldur-quldur qila boshlaganini sezdim. Chamamda, qornim emas, shinni to'ldirilgan xumga aylanib ketdi-yov! Bo'pti, endi ishga kirishamiz.

O'zimcha daraxtdagi tutning yarmisini eb qo'ydim, deb o'yladim. Yo'q hali ko'p ekan. Bolta bilan bitta shoxni kesguncha yuzta tut yerga duv to'kiladi.

— Tezroq! — Shodivoy turgan joyida yer tepdi. — Bo'lsangchi!

— Shoxlarni eshakka ortaver! — dedim baqirib. — Men kesib turaman, sen tashiysan.

Shundoq qildik. Men paydar-pay shox kesib turibman, Shodivoy paydar-pay tashib turibdi.

Odam bir g'ayratga kirib ketsa, nima qilib qo'yganini o'zi bilmay qolarkan! Bir mahal qarasam, butun boshli tutning qir uchida uchdami-to'rttami shox qopti! Xuddi qamish uchidagi popiltiriqday.

— Qo'sho-o!— pastdan Shodivoyning yig'lamsiragan ovozi keldi. — Eshaging ko'rinmay ketdi. Hammayog'i shox!

— Qo'yavur! — dedim iljayib.— Tulporim bir emas ikkita ZILning yukini ko'taradi.

Xuddi shu payt darvozaxona tomonda yangragan ayanchli xitob qulog'imga chalindi.

— Yo tavba! Yo xudo! Voy... Voy. Voy-do-o-od!

Avval o'zim yerga sakradimmi, yo men tushishimdan oldin yer qimirladimi, bilmayman. Shundoq qarasam kamida bir ko'rpaga yetgulik qora atlasdan ko'ylak kiygan xotin ko'zlari shokosasidan chiqqudek bo'lib chalqanchasiga gursillab yerga yiqildi. Qo'lidagi tugun ancha nariga otilib ketdi. Nazarimda, uylaru ayvonlar ham, yalang'ochlanib qolgan tut ham silkinib ketgandek bo'ldi.

— Do-o-od! — xotin shunaqangi yo'g'on ovozda hayqirdiki, xuddi stansiyadagi teplovoz gudok chalgandek ikki qulog'im

chippa bitib qoldi.

— Voy-dod! Uyim kuydi!

Alang-jalang bo‘lib Shodivoyni qidiraman, qani ko‘rinsa! Yerga kirdimi, osmonga uchib ketdimi, bilsam o‘lay!

Men ham vaqtni g‘animat bilib, ko‘cha eshikka otildim. Boyagi semiz xotin bo‘lsa kalovlanib qaddini rostlashga urinar, filning qulog‘idek osilib ketgan yuzini yulib, nuqul dod solardi:

— Uyim kuydi! O‘g‘ri bosdi!

Yer bilan bitta bo‘lib yotgan tutlarni bosib ko‘chaga otildim. Qarasam, darvozaxona ro‘parasida o‘rtacharoq yuk mashinasiga ortsa taxminan chorak qismi ortib qoladigan barg g‘arami turibdi-yu eshagim ko‘rinmaydi. Xayolimga lop etib bir fikr keldi. «Tamom bo‘ldim! Hozir Shodivoyning onasi chiqib, meni tagiga bir bossa, burgadek pirt etaman-u, jonim chiqadi-ketadi!»

— Tulpor!— dedim chinqirib. — Tulporim!

Kamida bir yarim mashinaga yuk bo‘ladigan barg xirmonining qoq o‘rtasidan «Hirq» etgan tovush keldi.

Bor ekansan-ku, Tulporim!

Tipirchilab-tipirchilab barg g‘aramining qir uchiga chiqib oldim. Shodivoy ham malades-da! Shoxlarni shu qadar shibbalab yuklagan ekanki, xirmon boshiga chiqqunimcha bittayam barg to‘kilmadi.

— Xix, Tulpor, xix! — dedim baqirib.

Xuddi shu payt kungurador darvoza sharaqlab ochildi. Shodivoyning onasi eshikdan chiqay desa siqilib qolishini bilib, darvozani lang ochib qo‘ya qolganini tushundim. Chamamda, u darvozaning yarmini egallab turardi. U, o‘zidan-o‘zi sudralib borayotgan g‘aramga, g‘aramning qir uchida chordana qurib o‘tirgan qop-qora bolaga, ya‘ni menga ko‘zi tushdi-yu rangi dokadek oqarib ketdi.

— Bis-bis-bismillo!— dedi duduqlanib. Tappa o‘tirib qoldi. O‘sha, zahoti yana yer qimirlagandek bo‘ldi. O‘zim ham xirmon ustidan uchib tushay dedim. Eshagimning qorni o‘rniga tut shoqlarini tepkilab baqirdim.

— Xix!

Xayriyat, xavfli joydan uzoqlab ketdik. Katta yo‘lga chiqqanimizda bir narsani payqadim. Velosipedu mototsikllar u yoqda tursin, yuk mashinalari ham bizni chetlab o‘tyapti. Mototsiklchilar o‘z yo‘liga. Hatto shopirlar ham ellik metrcha oldinga o‘tib mashinasini to‘xtatadi-da, azza-bazza yerga tushib, orqasiga qaragancha angrayib qoladi.²⁰⁹

Men bo'lsam, fil ustida o'tirgan podshodek buyruq beraman:

— Ha, Tulpor!

Tulporim dikir-dikir qilib ildamlaydi. Donoligini qarang. O'zi-ku ustiga ko'rpa yopilgan mushukdek shoxning tagida ko'rinmay ketgan. Yo'lni qayoqdan topib boryapti, bilsam o'lay! Ustiga-ustak har soatda minut-minutigacha aniqlik bilan hangraydigan eshagim mana, oradan uch soatcha vaqt o'tibdiki, g'iq etib ovoz chiqarmaydi. Yaxshi-da! Odamlar qoyil qolsin! Bir yarim mashina tutbarg o'zidan-o'zi Qo'shovoylarnikiga o'rmalab ketyapti. Barakalla, Tulporim! Malades!

Hayronman, xayol olib ketibdimi, onamning falokat qosh bilan qovoq o'rtasida turadi, degani rostmi, nima bo'lganini o'zim bilmay qoldim. Bir mahal es-hushimni to'plab olsam, kattakon chorrahaning qoq o'rtasida turibmiz. Eshagim g'azabnok hiqillayapti. Avval o'ng tomonimga qaradim. Hech gap yo'q. Keyin chap tomonimga qaradim. Hech nima ko'rinmadi.

— Xix! — dedim hayqirib. — Xix, Tulpor!

Biroq qadrdon eshagim qilt etmay turaverdi. Alamli pishqirib qo'ydi. O'tirgan joyimdan mundoq orqamga o'girilib qaragam, ne ko'z bilan ko'rayki, allaqanday qirchang'i bir eshak biz ne mashaqqat bilan kesgan barglarni bemalol kavshayapti.

Qo'limni musht qilib baqirdim.

— Yo'qol!

Voy surbet-ey! Parvo qilmaydi! Tut bargini uzib-uzib oladida, huzur qilib kavshaydi. Rostmana hangi bo'lsayam mayliya, Tulporimning yarmicha keladimi-yo'qmi-yu, g'olibona pishqirib qo'yadi.

— Xix! — dedim chinqirib. — Xix, harom o'lgur!

Tulporim bunaqa dag'dag'ani o'ziga tegishli deb o'yladimi, jahli chiqdimi, unisini bilmayman. Shunisi esimdaki, eshagim nafrat to'la ohangda hangrab yubordi. Xirmon o'zim bilan qo'shilishib, roppa-rosa bir yuz sakson gradus aylanib ketdi. Shunaqangi keskin aylandiki, yerga chilparchin bo'lib tushishimga bir bahya qoldi. Begona eshak xirmon tagida shundoq qudratli raqibi borligini bilmagan ekan shekilli, shataloq otib qochib qoldi. Tulporim ham uch soatdan beri jim turganining xumoridan chiqish uchun to'xtovchiz hangragancha tog' bo'yi xirmonni, xirmon ustida o'tirgan meni ortmoqlab «o'g'ri» eshak orasidan yo'rtib ketdi.

O'g'ri eshak qancha tez chopsa, Tulpor ham shuncha tez yo'rg'alaydi. O'g'ri eshak dumini chotiga qisib nola chekkandek hiq-hiq qiladi. Tulporim g'olibona hangraydi. Qarasam, o'g'ri eshak mozariston yonidagi jilonjiydalar, qoratikanlar chirmashib ketgan chakalak orasiga o'zini urdi. Chakalakka kirib ketayotganda alam qilsin, degandek ikki marta shatta otib ham qo'ydi.

— Ishsh!— dedim jon holatda. — Ish-sh! Jon Tulpor, ish-sh!

Qayoqda? Tulporim bittayam gapimni eshitmadi. Yo eshitsayam qirchang'ining haqoratiga chidolmadimi, bilmayman. Avval oyoqlarimga, keyin qo'llarimga, undan keyin yuz-ko'zimga tikanlar sanchila boshladi.

— Ish-sh!— dedim baqirib. Jilov qo'limda bo'lsaki, tortsam. — Ish-sh!

Alam bilan oxirgi marta qichqirganimni bilaman. Anchadan keyin ko'zimni ochsam, tut barglari orasida yalpayib yotibman. Hammayog'im lovullaydi.

Yig'lamoqdan beri bo'lib eshagimni chaqirdim.

— Tulpor!

Qayoqda! «O'g'ri» eshakdan ham, Tulporimdan ham darak yo'q! Amallab o'rnimdan turdimu bir tutam tut bargni quchoqlab, turtina-turtina yo'lga tushdim. Chakalakzordan chiqqunimcha kun botdi. Yo'l-yo'lakay badanimga sanchilgan tikanlarni sanab olib tashlay-tashlay uyga kelsam, Tulporim eshik oldida raqibini yenggan askardek «smirno» turibdi. Meni ko'rib quloqlari ding bo'lib ketdi. Hatto g'olibona hangrab ham qo'ydi.

Beshinchi bob

MUSHAK SABZI

Bargdan ajrashga ajradim, ikki orada Shodivoy otasidan so'kish eshitgani qoldi. Ertasiga darsga o'rtog'im qovoq-tumshug'i osilib keldi. Onasi, uyimni o'g'ri bosdi, deb yomon qo'rqan ekan. Rais buvaga yig'lab shikoyat qipti.

— Dadam tumandagi kattalarni tutxo'rlikka aytib qo'ygan ekan, — dedi Shodivoy ming'illab. — «Jo'rang aqalli bittayam shoxini qoldirmabdi, qo'limga tushsa butini yirtib tashlayman» deyapti, otamning ko'ziga ko'rinmay tur, Qo'sho...

Odamning buti yirtilgandan ko'ra yirtilmagani yaxshiligini o'zim ham bilaman. Shuning uchun Rais buvaning ko'zidan

uzoqroq yurgan edim, bugun qo'lga tushib qoldim.

Hammasiga onam sababchi bo'ldi. Ertalab dalaga chiqib ketayotganida qattiq tayinladi:

— O'radan yarim paqir sabzi olib Oysara yangangnikiga chiqarib ber. Osh qilmoqchi ekan, sabzisi qolmabdi.

O'radan sabzi olayotganimda xayolimga bir gap keldi. Sabzidan ko'proq olib chiqsam, Oysara yangam pat-patga minishimga ko'narmikan? Oysara yangam o'zi yaxshi-yu o'lgudek ziqna. Tursunboy aka olgan mototsikl doim bostirma tagida turadi. Tursunboy akamga «mengayam pat-pat haydashni o'rgating» desam, «pat-pat menikimas, yangangniki» deydi. Qo'rqadi-da, xotinidan. Oysara yangam sabzini ko'rib zora iyisa. Hech bo'lmasa egarga minib, bir-ikki bibiplatay. Shirin xayollar bilan sabzi to'la paqirni ko'tarib, Tursunboy akamning eshigiga kelsam, taqa-taq berk. Itarib ko'rdim, mushtlab ko'rdim. Hech kim yo'q. Bundan chiqdi Oysara yangam kutubxonaga ketibdi-da.

Hafsalam pir bo'lib qaytib kelayotgan edim, deraza tagiga yetganimda ichkaridan Tursunboy akamning Oysara yangam bilan g'o'ng'ir-g'o'ng'ir gaplashayotgan ovozi keldi. Qarang, ikkalasiyam uyda o'tirgan ekan-ku, darvozasini ochmaydi. Yaqin kelib ovozim boricha baqirdim:

— Oysara yanga!

Ichkaridan sado chiqmadi. Qaytaga ikkalasi jimib qolishdi.

Hovlimizga qaytib kirib, o'ylab qoldim. Onam Oysara yangangga yarim paqir sabzi olib chiqqin deganmi, degan! Yarim paqir emas, naq bir paqir sabzi oldimmi, oldim! Shuncha ovora bo'lganimdan keyin Tursunboy akaning pat-patini bir martagina minib ko'rishim kerakmi, kerak! Bo'pti-da, eshikdan kirdim nima-yu, tuynukdan tushdim nima? Hovlimizning etagida, devor tagida tuynuk bor. Avvallari suv oqib yotardi. Hozir paxtaga suv yo'g'u, odamlarning tomorqasiga suv qayoqda! Ariq qurib-qaqshab ketgan. Oysara yangamning tovug'i har kuni o'sha tuynukdan chiqib, bizning hovlimizda sayr qiladi... Chopqillab borib, avval paqirimni narigi tomonga o'tkazdim. Keyin o'zim ham qisilibroq bo'lsa ham Tursunboy akamning hovlisiga eson-omon o'tib oldim.

Birpas quloq solib tursam, hammayoq jimjit. Nima balo, bular bolasini bog'chaga jo'natib, o'zlari qaytadan uxlayaptimi? Qo'limdagi paqirni salanglatib endi uy tomon yurgan edim, oynavand eshik sharaq-shuriq qilib ochildi. Ochildi-yu... ostonada

Rais buva paydo bo‘ldi! Shodivoyga «jo‘rang qo‘limga tushsa, butini yirtib tashlayman» degan Rais buvaning xuddi o‘zi! Shiftday bo‘lib eshik kesakisidan ushlab turibdi. Egnida kulrang kitel, pochasi keng shim. Shunaqa-ku, negadir etigi yo‘q, oyoqyalang...

Qo‘rqib ketganimdan sabzi to‘la chelakni ko‘targancha orqaga tisarila boshladim. Hayronman, Rais buva meni ko‘rib negadir ostonada turgancha qotib qoldi. Pishillab-pishillab nafas ola boshladi. Nazarimda pastki labi osilib ketgandek bo‘ldi.

— Iye, senmisan? — dedi g‘alati iljayib. Ovozi yalinibroq, yig‘lamsirabroq chiqqanga o‘xshadi. — Nima qilib yuribsan, tutxo‘r?

«Tutxo‘r» dedimi? Bundan chiqdi haliyam esida ekanda. Battar qo‘rqib ketdim.

— Men... men, — dedim tutilib. — Sabzi...

Rais buva bir menga, bir ayvon kavshandozida qiyshayib yotgan jigarrang etigiga qarab qo‘ydi-da, yana iljaydi.

— Obbo sen-ey, nima qilib yuribsan?

Iljayganidan sal dadil tortdim.

— O‘zim... sabzi...

Shu payt Rais buvaning orqasida Oysara yangam ko‘rindi. Negadir rangi o‘chib ketgan, qo‘li titrab hadeb sochini tuzatardi.

— Voy, o‘zimizning Qo‘shoqjon-ku! — dedi-da, Rais buvaning qo‘ltig‘i tagidan lip etib o‘tdi. — Siz bilmaysiz, Qo‘shovoy shunaqa yaxshi bolaki! Pat-pat minging keldimi, Qo‘shoqjon!

Oysara yangamning mehribonligidan taltayib ketdim.

— Minaveraymi? — dedim iljayib. Qo‘limdagi paqirni endi Oysara yangamga uzatmoqchi edim, to‘satdan Rais buvaning qiyofasi o‘zgardi. Kulib turgan odam dag‘dag‘a bilan so‘radi:

— Shoshma, o‘v! Qayoqdan kelding?

— Tuynukdan, — dedim rostini aytib.— Tovuq o‘tadigan...

— Nima?! — Rais buva yalangoyoq yer tepindi.— Eshikni bir taqillatding, ikki taqillatding, ketavermaysanmi yo‘lingga, qanaqa sur bolasan?

— Seki-i-in! — Oysara yangam Rais buvaga yalinib qaradi.— Bilmaganda, Qo‘shojon yaxshi bola!

Qiziq, Rais buvaning battar jahli chiqdi.

— Shu yaxshi bolami? — dedi-yu ustimga bostirib kela boshladi. — So‘roqsiz birovning tutini kallaklab ketsa, so‘roqsiz birovning uyiga tuynukdan tushsa! To‘g‘risini ayt, kim yubordi seni?

— Tursunboy akam! — dedim baqirib.

— Sekin!— Oysara yangam tovushi titrab yalindi.— Jon Qo‘shojon, sekinroq!

— Tursunboy akam aytdilar!— dedim ovozimni yanada baralla qo‘yib.— Bugun osh yeydigan kun dedilar. Ikkalamiz sabzi olib keldik...

Oysara yangam ikki qo‘llab yuzini changalladi.

— Voy sho‘rim!

Rais buvaning ko‘zi ola-kula bo‘lib ketdi.

— Nima?

— Darvozani galma-galdan taqillatdik.

— A? — Rais buva men buyoqda qolib kavshandoz tomon yugurdi. Yerga o‘tirib olib qo‘llari qaltiraganicha paytava o‘ray boshldi. Rais buvaning qo‘rqqani ta‘sir qildimi, yo o‘zimning aqlim qarsillab ishlaydigan payt kelib qoldimi, unisini bilmayman.

— Shuncha taqillatdik, hech kim javob qilmadi!— dedim ataylab ko‘cha eshik tomonga qarab.

— Bo‘ldi-i-i! — Rais buva o‘tirgan joyida menga yelkasi osha qaradi. — Kar odam yo‘q-ku, nega chiyillaysan!

Shuncha yolg‘on to‘qiganda buyog‘i nima bo‘pti dedim-u, tag‘in baqirdim:

— Keyin Tursunboy akam aytdilar: Qo‘shovoy, tuynukdan kir, dedilar.

Oysara yangam dag‘-dag‘ titraganicha meni quchoqlab, iltijo qildi.

— Qo‘shojon, jon ukam! Baraka topkur ukam, bo‘ldi, sekinroq...

To‘g‘risini aytsam, Oysara yangamga rahmim keldi.

— Pat-pat minsam maylimi? — dedim ovozimni ancha pasaytirib.

— Pat-pat sendan aylansin! Yuz marta min, ming manta min! Akangga aytaman, haydashni o‘rgatadi. —U hamon meni quchoqlaganicha Rais buvaga o‘shqirdi. —Bo‘lsangiz-chi...

— Etik... sig‘mayapti. — Rais buva paytavani chala o‘rganmi, uvvalo urinadi — qani etigini kiyolsa! Bechora birpasda terlab ketdi. Etik oyog‘ini siqayotgan bo‘lsa kerak, oqsoqlanib darvoza tomon yurgan edi, Oysara yangam ingragudek xitob qildi:

— Qayoqqa? Qanaqa odamsiz o‘zi?

Rais buva alang-jalang bo‘lib to‘xtab qoldi.

— Nima qilay axir? — dedi yig'lamsirab.
— Bugun o'rgatadilarmi? — dediim Oysara yangam va'dasini unutmashdan turib tasdiqlatib olish uchun. — Tursunboy akamni chaqiraymi?

Ayvondan sakrab tushishim bilan, Oysara yangam sabzi to'la paqir ustiga o'tirib qoldi.

— Sho'rim qursin!— dedi ingrab. — So'yadi! Tikka so'yadi!

Rais buva qo'limdan changalladi.

— O'chir-e!— dedi rapidadek kafti bilan og'zimni to'sib. Negadir qo'lidan atir hidi kelardi. Nafasim qaytib ketdi. Tipirchilab kaftini qayirib tashladim. Og'zimni to'sib turganida ichimga ancha-muncha havo to'planib qolgan ekanmi, chunonam hayqirdimki, Tulporim ham bunchalik hangramasa kerak.

— Tursunboy aka-a-a!

Kuchim boricha ko'cha eshik tomon yugurgan edim, Rais buva orqamdan lo'killab kelib, uy burchagida yetib oldi. Mahkam quchoqlab, qulog'imga egilgancha shivirladi:

— Yurgin, bu yoqqa yurgin, o'zing yaxshi bolasan-ku.

— Nega bo'lmasa og'zimni to'sasiz? — dedim jahlim chiqib.

— Bo'pti, ikkinchi bunaqa qilmayman. Yurgin, jon bolam...

Xohlamayroq orqaga qaytar ekanman, noz qildim: — Tursunboy akam darvozani ochasan deganlar, kutib turibdilarda.

Qarasam Oysara yangam hamon paqir ustida g'ujanak bo'lib o'tiribdi.

— O'zing katta yigitsan-ku, tutxo'r, — Rais buva erkalab yelkamga qoqdi. — Pat-patni yaxshi ko'rasanmi?

— Judayam!

— Shodivoynikiga o'xshagan velosiped olib beraymi?

— Yo'q, pat-pat!— dedim qovog'imni solib.

— Bo'pti. — Rais buva yana yelkamga qoqdi. — Yangang va'da berdiku, Tursunboy akang pat-pat haydashni o'rgatadi. O'zim senga zo'ridan padarka qilaman.

— Qachon?

— Ketsangiz-chi! — Oysara yangam yig'lab o'zining tizzasini chimchiladi. — Sho'rim qursin! Ikkita bolam yetim bo'lib qoladi endi.

— Nima qilay? — Rais buva goh Oysara yangamga, goh menga qarab tipirchiladi. Tag'in Oysara yangamga ichim achidi.

— Yuring, — dedim xotirjam iljayib.— Biznikidan chiqib

ketasiz.

— Nima?— Rais buva avvaliga hech nimani tushunmadi shekilli, bir zum talmovsirab turdi-da, mahkam quchoqlagancha shapillatib peshonamdan o'pdi. — Rahmat, tutxo'r! Yaxshiligingni unutmayman!

Uzun-qisqa bo'lib tuynukka bordik. Rais buva ikkilanibroq ariqqa tushdi.

— O'tavering, sig'asiz!— dedim bilag'onlik qilib.

Rais buva emaklab borib tuynukka boshini suqdi. Yelkasi kirdiyu, u yog'i sig'may qoldi. Nuqul inqillab oyog'ini tipirlatadi. — Bo'lmayapi, — dedi kuchanib. — Itar!

Ikki qo'llab dumbasidan itaraman, qani kuchim yetsa! Rais buva kuchangan sayin devordan shuvillab tuproq to'kiladi.

— Voy, o'laman!— dedi ingrab. — Tort!

Sonidan qo'shqo'llab ushlaganча chiranib bir tortgan edim, ariq ichiga yiqilib tushdim. Rais buva yerga cho'kkalaganча ko'zimga iltijoli mo'ltiradi. Bechoraning aftiga qarab bo'lmaydi: hamma yog'i tuproq.

— Devorga osila qoling,— dedim yangi maslahat berib. — Qo'rqmang, yiqilmaysiz.

U hansiraganча devorga tirmashdi. Birpasda qora terga tushib ketdi.

— Uyingda kim bor?— dedi devorga minib olib.

— Pat-patni qachon olib berasiz?

— Qachon desang! Kim bor uyda?

— Hech kim. Otam ishda, enam ishda, Ju maktabda. Qo'rqmang.

— Bilib qo'y, — Rais buva men tomonga egilib astoydil yig'lamsiradi. — Men senga otalik qilaman.

Rais buva devorlan narigi tomonga o'zini tashladi. Burilib qaragam, boyadan beri paqir ustida o'tirgan Oysara yangam ayvonda cho'zilib yotibdi. Paqir dumalab, sabzilar sochilib ketgan.

Qo'rqib ketdim. O'lib qolmasaydi, bechora. Oshxonaga kirib, yog'loqda suv olib chiqqunimча anча vaqt o'tdi. Xud-bexud bo'lib yotgan yangamning og'ziga suv tutdim.

— Iching.

Oysara yangam suvdan bir-ikki ho'playdi.

— Ketdimi?— dedi ingrab.

— Ichavering! Tursunboy akam ham ketib qoptilar.

Oysara yangamning ko'zi yarq etib ochildi.

— Rostdanmi!— dedi-yu, suvdan mo'lgina ichib, chuqur uf tortdi. — Xudoga shukr... — birpas turdi-da, yig'lamsirab yalindi. — O'zing esli bolasan-ku, Qo'shojon. Bu yerga Rais bovangni ko'rganingni...

— Minaveraymi? — dedim pat-patga imo qilib.

— Minaver, jon ukam, minaver. Akangga aytaman, haydashni o'rgatib qo'yadi. Har kuni o'rgatadi.

Pat-patning egariga minayotganimda Oysara yangam ayvon-da sochilib yotgan sabzilarni yig'ishtirishga tushdi.

— Sabzing muncha chiroyli, Qo'shovoy!— dedi ovozi tovlanib.— Mushak sabzi ekan!

Egarga minib oldim-da, pat-patni bibiblataverdim-bibiblataverdim, oxiri signal jonivor mushukdek big'illaydigan bo'lib qoldi.

Oltinchi bob

«ZAPOROJES»DAN TUG'ILGAN «VOLGA»

Yettini bitirib ta'tilga chiqishimiz bilan chopiqqa tushdik. Ertalabdan g'o'za chopiq qilaverib, qornim tatalab ketdi. Tulporim tushlik bo'lganini mendan yaxshi biladi. Avval meni izlab maktabga borardi. Endi dalagayam topib kepti. Paykal chetiga kelib bir hangragan edi, bahona topilganiga suyunib, o'sha tomonga yugurdim. Shiyponda salqinlab o'tirgan brigadir:

— Hoy bola, qayoqqa?— degan edi, yo'l-yo'lakay baqirdim:

— Eshagimning jahli yomon, To'lash aka! Bormasam o'zi yonimga keladi. Bir gektar paxtazorni payhon qilib tashlaydi.

To'lash aka irg'ib o'rnidan turib, chinqirdi:

— Tezroq yo'qot, palakat eshagingni!

Ketmonimni eshagimning gardaniga ko'ndalang qo'yganicha, lip etib minib oldim. Tulporim buyrug'imni kutib o'tirmay, uy tomon yo'rg'aladi.

Ko'chaga kirishim bilan eshigimiz oldida turgan havorang mashinaga ko'zim tushdi. «Tog'am kepti-da», deb eshagimni niqtadim. Yaqinroq kelib qaragam, yo'q, «Moskvich» emas, «Zaporojes». Chap eshigi ochiq. Jonajon jo'ram Shodivoy bir oyog'ini tashqari chiqarib, rulni changallab o'tiribdi. Issiqdan ikki yuzi qizarib, tandirdan yangi uzilgan nondek yaltirab turibdi.

Meni ko‘rib, sevinib ketdi.

— Qayoqda yuribsan?— dedi iljayib. — Boyadan beri kutaman.

— Kim bilan kelding? — dedim eshagimdan tushmay.

— O‘zim!

Bundan chiqdi, Rais buva va‘dasining ustidan chiqib, Shodivoyga «Zaparojes» sovg‘a qipti-da!

Rais buva menga va‘da qilgan pat-pat esimga tushdi. Oysara yangam-ku so‘zining ustidan chiqdi. Eriga «uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo‘shni afzal, Qo‘shovoy o‘zingizning ukangizday gap, shu bolaning pat-patga ishq tushibdi, mindira qoling», deb hol-joniga qo‘ymaganidan keyin Tursunboy akam mototsikl haydashni uncha-muncha o‘rgatdi. Avval meni lulkaga o‘tqazib uchirdi, keyin egarga ming‘izib haydatdi. Ammo Rais buva pat-pat tugul velosiped ham olib bermadi.

— O‘zing haydab keldingmi? — dedim alam qilibroq.

— Bo‘lmasa-chi!

Rostini aytsam, g‘ayiriligim keldi.

— Kim o‘zarga, o‘ynaymizmi?— dedim. Tulporimning jilovini g‘olibona siltab.

— Qo‘ysang-chi! — Shodivoy mashina rulini changalladi. — Yur, kataysa qildirib kelaman.

Ikkilanibroq eshakdan tushdim.

— Haydashni bilasanmi, o‘zi?

— Shu yergacha kim haydab keldi bo‘lmasa? — u o‘tirgan joyida egilib, o‘ng eshikni ochdi.— O‘tir! — shunday deb o‘ng tomondagi suyanchiqni egdi.— Orqaga o‘t, yonimda o‘tirsang, xalaqit berasan.

— Menam pat-pat minishni bilaman, — dedim maqtanib.

Shodivoy indamadi. Ikkala eshikni qarsillatib yopdi-da, xuddi ming yil shopirlik qilgan taksichilarday ishonch bilan motorni gurillatib yubordi. Xuddi shu payt eshagim ayni men o‘tirgan oynaning ro‘parasiga tumshug‘ini tirab o‘kinch aralash hangradi. Xayrlashdi-yov!

Mashina varillaganicha tor ko‘chada g‘izillab ketdi. Oysara yanganing turoqqa bag‘rini berib yotgan kurk tovug‘i qaqog‘lab qochdi. Katta yo‘lga chiqishimiz bilan «Zaparojes» o‘qdek uchib ketdi. Sanab turdim: oltita telejka, uchta yuk mashinasini quvib o‘tdik. Qarasam, mashinaning g‘ildiragi yerdan uzilib osmon-falakka uchib ketadigan.

— Shodi, — dedim yelkasiga turtib.— Sekinroq...
— A?— U menga butun gavadasi bilan o‘girilib qaradi. Ko‘zlari ola-kula, rangi o‘chib ketgan. — Nima?— dedi ovozi ingichkalashib.

Ellik qadamcha oldinda sarg‘ish «Volga» ko‘rindi. To‘ppa-to‘g‘ri ustiga bostirib boryapmiz.

— Yo‘lga qara, yo‘lga! — dedi chinqirib.

Shodivoy cho‘zib-cho‘zib signal berdi. Masofa borgan sayin qisqarib borardi.

— Chapga bur, ahmoq!— dedim baqirib.

— Nima? — Shodivoy yana orqasiga o‘girildi. O‘zimni yerga otay desam, eshik yo‘q. Ko‘zimni chirt yumib oldim. Bir mahal qulog‘imga Shodivoyning chiyildoq ovozi kirdi:

— Amaki, «Zaporojes»ni bilasizmi?

Ko‘zimni ochsam, «Volga»ni o‘ng tomondan quvib o‘tyapmiz. Bir zumda «Volga» orqada qolib ketdi.

— Sekinroq! — kuchim boricha Shodivoyning yelkasiga mushtladim. — To‘xtat!

Xuddi shu payt «Volga» bizni quvib o‘tdi. Nazarimda, ming kilometrda bosib o‘tdi-yov o‘ziam!

— To‘xtat!— dedim jonholatda.

Qayoqda, zum o‘tmay yana «Volga»ga yetib oldik. Peshonadagi oynakdan ko‘rib turibman. Shodivoy ko‘zlari alang-jalang bo‘lib yana bibillatdi. «Volga» chor-nochor tag‘in o‘zini chapga oldi.

— Amakijon! «Zaporojes»ni bilasizmi? — bu safar Shodivoyning ovozi yig‘lamsirab chiqdi.

Bir mahal old tomonda bedasi o‘rib olingan allaqanday keng maydon ko‘rindi. «Zaporojes»imiz qurbaqaday sakray boshladi. Hammayoq daqir-duqir, daqir-duqir qiladi. Boshim paydar-pay mashina shiftiga uriladi. Nazarimda ichaklarim aralash-quralash bo‘lib ketdi-yov.

— To‘xtat!

Shodivoy yana orqasiga o‘girildi.

— Q-qanaqa... q-qanaqa q-qilib...

U so‘zini tugatolmadi. Ro‘paramizda bostirmadek uzun-uzun oqish binolar, o‘tlab yurgan ola-bula sigirlar paydo bo‘ldi.

...Bir mahal hushimga kelsam, hammayoq qop-qorong‘i. Negadir dimog‘imga pichan hidi kirdi. Boshimni ushlab ko‘rdim: joyida. Oyog‘imni silab ko‘rdim: butun.

— Shodi! — dedim qo‘rqa-pisa.
Qorong‘ilik ichidan ingichka ovoz keldi:
— Ha-a!
— Tirikmisan!
— Shunaqa shekilli!
— Qayoqqa kepqoldik?
— Bilmayman.
— O‘-o‘-o‘!— dedim cho‘zib.

G‘ira-shira qorong‘ilikka oxiri ko‘zim ko‘nikdi. Shunda payqadimki, ikkalamiz ham tirikmiz. Mashina ichida o‘tiribmiz.

— Eshikni och!— «Eshshak»— degim keldi-yu, Tulporim eshitib qolsa xafa bo‘lishini o‘yladim. — Eshikni och, ho‘kiz!

Shodivoy o‘tirgan joyida ming‘illadi:

— Ocholmayapman.
— Qattiqroq itar!

Po‘pizam ta’sir qildi shekilli, avval eshik g‘iyqilladi, keyin shitir-shitir ovoz eshitildi. Shodivoy omon-eson yerga tushib oldi chog‘i nimqorong‘ilik orasidan ming‘irlagan tovush keldi:

— Tushaver, Qo‘sho...

Qiziq, uning ovozi g‘ildirak tagidan eshitilgandek bo‘ldi. Oldingi o‘rindiq suyanchig‘ini pastga bosgan edim, qo‘lim rulga tegib ketdi. Mashina «Beep» deb qo‘ydi. Qorong‘ida g‘alati eshitilarkan.

— Signal chalma, akkumulatori o‘tirib qoladi,— dedi Shodivoy negadir quv-quv yo‘talib.

«E, akkumulatoring bilan qo‘shmozor bo‘l!»! O‘zim eshikni topolmay garangman-ku! Eshikdan tushishim bilan yuzimga xas-xashak urildi. Qaddimni rostlamoqchi edim, ustimdan allaqanday og‘ir yuk bosayotganini payqadim. Dimog‘imga chang aralash pichan isi kirar, qurib qolgan o‘t-o‘lanlar burnimga tegib aksa urgim kelardi.

— Qayoqdasan?— dedim baqirib.

— Bilmayman. — Shodivoyni yana yo‘tal tutdi.

Oxiri allaqanday xashak g‘arami orasida yurganimizga aqlim yetdi. Oyoq-qo‘limni baravar tipirlatib, o‘zimga yo‘l ochgancha, emaklab ketdim. Old tomonda nur ko‘rindi. Xayriyat, yorug‘ dunyoga chiqib oldim.

— Kelaver, Shodi!— dedim o‘zim yo‘l topib chiqqan teshikka engashib.

Shu payt boshim ustida g‘o‘ldiragan ovoz eshitildi:

— Hov jo'jaxo'roz! Nimaga o'zingdan katta odamni mayna qilasan?

Qarasam, shundoq tepamda kalta yengli ko'ylak, jinsi shim kiygan, qora ko'zoynak taqqan kishi ikki qo'lini beliga tirab turibdi. Bilagining har payi choynakdek keladi. Yuz qadamcha narida, simto'siq ortida boya o'zimiz quvib o'tgan sarg'ish «Volga» qiyshayibroq turib qolgan.

— Amaki... — dedim yalinib. — Menmas...

Pichan g'arami shitir-shitir qildi. Shodivoy qorni yer supurgudek bo'lib emaklab chiqib keldi. Jo'ramning afti-angoriga qarab bo'lmas, a'zoi-badaniga xas-xashak yopishgan, ikki qulog'iga salkam bir qulochdan pichan ilashib qolgan edi.

— Senmi shopir?— qora ko'zoynakli kishi Shodivoyning ustiga bostirib bordi. — Nega odamni mayna qilasan? «Zaporojes»ni ko'rib qo'y, demoqchimisan?

Shodivoy yumronqoziqday tisarilib teshikka qaytib kirib ketdi. Sekin boshini chiqarib mo'raladi.

— Amaki...— dedi-yu ketma-ket olti marta aksa urdi. — Men... ap-shu! «Zaporojes»ni... ap-shu, tormozi... ap-shu... tormozi qayoqda bo'ladi demoqchiydim.— u gapining yakuniga yana bir marta aksa urib qo'ydi.

Qora ko'zoynakli kishi insofga kelish o'rniga battar jahli chiqib ketdi.

— Chiq buyoqqa!— dedi-da, bir chang solib Shodivoyning qo'ltig'idan tortib chiqardi. O'rtog'im bechora xuddi qassobning qo'lga tushgan biqqigina quyondek osildi-qoldi. Nuqul pitir-pitir qiladi. Qarasam, «qora ko'zoynak»ning vajohati yomon. Qochib qolay desam, jo'ramni ko'zim qiymaydi.

— Men nima qildim? — dedi Shodivoy battar tipirchilab.

— Nima qildi-im? — ko'zoynakli kishining afti alamdand qiyshayib ketdi. — Seni quvaman deb resordan ayrildim. To'lab ber mashinani!

Xuddi shu payt bostirmaga o'xshash oq binodan bir kishi otilib chiqib biz tomonga yugurib kelayotganini ko'rdim. Oyog'ida Rais buvaning kiyib yuradiganiga o'xshash jigarrang etik, qo'lida panshaxa!

Panshaxasi oftobda shunaqangi yaltiraydiki, qorningga sanchilsa bormi, kuragingdan teshib chiqadi. Xuddi kabobni sixga tortgandek! Baqirib yubordim.

— Qoch, Shodi!

— Qayoqqa? — qora ko‘zoynakli kishi bir qo‘lida Shodivoyini changallab turgancha ikkinchi qo‘li bilan chovut solib mening ham bilagimdan ushlab oldi. O‘rtog‘im bechora boyadan beri tipirchilayotgani bejiz emas ekan-da.

— Ressorning haqini cho‘z! — «Qora ko‘zoynak» ikkalamizni baravar silkita boshladi.

Shu orada panshaxa ko‘targan kishi ham yetib keldi. Panshaxasini negadir mening qornimga tiradi.

— Nima qilding? — dedi o‘shqirib. — Iskirdni nima qilding, uying kuyg‘ur! Bo‘linmas fond edi-ku, bu g‘aram! Siyirlarni nima qildig‘? Bo‘vozlari bola tashlab qo‘ysa kim javob beradi? — U panshaxani qornimga qattiqroq tiradi. Qochay desam, «Qora ko‘zoynak» changallab turibdi. Panshaxa qornimga botishi bilan qitig‘im kelib, hiringlab kulib yubordim. Panshaxali kishining jayra nayzasidek yakkam-dukkam mo‘ylovi dikkayib ketdi. Panshaxani qornimga yanayam qattiqroq botira boshlagan edi. Shodivoyning yig‘lamsiragan ovozi eshitildi:

— Unaqa qilmang, Ferma tog‘a!

«Ferma tog‘a» men bilan andarmon bo‘lib Shodivoyini payqamay qolgan ekanmi, yalt etib o‘girildi-yu to‘satdan yuzi yorishdi. Nazarimda dikkaygan mo‘ylovi ham shalpayib qolgandek bo‘ldi.

— Iya, polvon! — dedi iljayib. Qo‘lidan panshaxa tushib ketdi.

— Xush ko‘rdiq, palvon, xush ko‘rdiq! — Ammo o‘sha zahoti qiyiq ko‘zlarida tag‘in o‘t chaqnadi. Siyrak mo‘ylovi qaytadan tippa-tik bo‘lib ketdi. Yerdan yotgan panshaxani olib taxdidli silkitdi.

— Jubor! — dedi hayqirib. Panshaxani «Qora ko‘zoynak»ning qorniga tiradi. — Qo‘yib jubor!

«Qora ko‘zoynak» hamon bizni changallaganicha orqaga chekina boshladi.

— Qo‘yasanma-jo‘qma?

— Qanaqa odamsiz o‘zi? — «Qora ko‘zoynak» qo‘lini bo‘shatdi. Shodivoy u yoqqa, men bu yoqqa qochib har ehtimolga qarshi o‘n qadamcha nariga borib oldik. — Ressorim...

— Jo‘lingg‘dan qolma! — «Ferma tog‘a» panshaxani bir silkitgan edi «Qora ko‘zoynak» it quvgan soqovdek simto‘siq tomonga qochdi. O‘ziyam shunaqangi tez yugurdiki, agar

«Paxtakor»ning o'yinchilari shunaqa chopsa, raqib darvozasiga bir minutda beshta to'pni bemalol urgan bo'lardi! Zum o'tmay sarg'ishtob «Volga»ning eshigi ochilib-yopildi. Mashina bedasi o'rib olingan maydondan beshiktebratardek chayqalib-chayqalib yurib ketdi.

— Obbo, polvon-ey! — «Ferma tog'a» Shodivoyning yelkasiga qoqdi.— Sho'xliq qibjatibman, deng'! Ammo siyirlarni qo'rqitib jubording'iz-da, polvon!

Qarasam, besh-oltita sigir olisdagi bino panasida to'dalashib turibdi. Bittasi, haliyam es-hushi joyiga kelmagan shekilli, dumini xoda qilib, u yoqdan-bu yoqqa shataloq otadi. Kirroq oq xalat kiygan xotin sigir ketidan quvyapti. Bir tomonda to'ppa uyumi, boshqa tomonda go'ng uyumi tog'dek savlat to'kib turibdi.

Shuni angladimki, bizning azamat «Zaporojes» simto'siqni qahramonona yanchib o'tib, o'zini fermaga urgan ekan. Hovli o'rtasidagi pichan g'aramiga chunonam kalla qiptiki, u tomonidan kirib, bu tomonidan chiqib ketmaganiga hayronman. Hatto iziyam qolmabdi. G'aram avval qanday turgan bo'lsa, hozir ham xuddi shunday. Sim-sim eshigi qayta yopilib qolganga o'xshaydi. Yaxshiyam «Ferma tog'a» Shodivoyni tanib qolgani, bo'lmasa ikkalamiz panshaxaga tortilib, shashlik bo'larmidik.

— Juring'izlar, jigitter. Choy ichabiz. Ko'k choy,— «Ferma tog'a» bir gapirib, o'n kulib bizni aziz mehmondek oq bino tomonga endi yetaklagan edi, hovlining narigi burchagidagi darvozada «Niva» mashinasi ko'rindi.

Shodivoy avval to'xtab qoldi, keyin bir qadam orqaga tisarildi, undan keyin ikki qadam... Ana undan keyin mashinamiz kalla urgan pichan g'arami tomonga tiraqaylab qochdi. O'lganning ketidan shayid deb men ham orqasidan chopdim. Yo'l-yo'lakay «Ferma tog'a»ning quvonchli xitobi qulog'imga chalindi.

— Iya, Rais bova-qu!

Shodivoy nega qochganini endi tushundim. Dadasidan qo'rqyapti. Xalloslab xirmon orqasiga o'tsam, xirmonning bir burchagida o'rtog'im g'ujanak bo'lib o'tiribdi. Shundoq semiz jo'rajonim gavdasi ingichka tortib ketgandek. Yoniga kelib o'tirishim bilan «jim» deb imo qildi.

Aksiga olgandek, motor tovushi guvillab pichan xirmoniga yaqinlashib kelardi. O'ziyam xirmonning narigi tomoniga tumshug'ini tirab to'xtadiyov. Eshik qarsilladi. «Ferma tog'a»ning ovozi tovlanib chiqdi.

— Xush koʻrdiq, Rais bova, assalom alayke-e-em!
 — Qalaysan, Musayip?
 Shodivoy dadasining ovozi tanib, rangi oʻchib ketdi. Shitir-shitir qilib orqasi bilan xirmon ichiga kirishga urindi.
 — Jotibmiz, Rais bova!
 — Sen shunaqa yotishni bilasan. — Birpas jimlik choʻkdi.
 Keyin yana Rais bovaning ovozi eshitildi. — Ertaga komissiya keladi.
 — Kelsa jaxsi.
 — Yaxshi-ya, yaxshi! Bu galgisi anoyi emas. Oblastdan keladi.
 — Jaxsi!
 — Yana yaxshi deydi-ya! Fermengga qara! Axlatxonaga aylanib ketibdi-ku!
 — Maʼqul, Rais bova, tozalaybiz.
 — Tozalaysan... Menga qara, Musayip, goʻsht planini qancha deb yozgansan?
 — Juz oʻttiz poiz! Yanvarda doʻndirgʻanmiz.
 — Isparapkalar joyidami?
 — Joyida, Rais bova.
 — Sut-chi?
 — Har siyirdan ikki mingʻ uch juz litr.
 — Qogʻozi bormi?
 — Bor, Rais bova!
 Yana jimlik choʻkdi. Oʻrnimdan turmoqchi edim. Shodivoy qoʻlimdan siltab tortdi. Doʻmboqqina mushtini doʻlaytirdi. Xirmon orqasidan tagʻin Rais buvaning ovozi keldi:
 — Musayip! Bu — qoʻzilatishni qanaqa deb yozuvding?
 — Juz sovliqdan juz jetmish jetti.
 — Jetmish-petmish demasdan ikki yuz qilib qoʻyaqolsang oʻlasanmi?
 — Oʻzi tuvgʻani juz oʻnta, Rais bova!
 — Nima? — Rais buvaning ovozi jaranglab ketdi.— Vistavkaga borishni bilasan. Medal olib, majlislarning toʻrida oʻtirishni bilasan. Bu yogʻiniyam toʻgʻrilab qoʻy-da. Tugʻmasa tugʻdir! Yetmasa oʻzingnikini qoʻsh!
 — Maʼqul, Rais bova, tuvdirabiz.
 Shu gapdan keyin Rais buva mashinasiga oʻtirib joʻnab qoladi, deb oʻylagandim. Yoʻq, motor gurillamadi. Qaytaga, Rais buvaning ovozi yanayam tajang chiqdi:

— Mana bu ro‘daponi qachon yo‘qotasan?

— Kamissiya ko‘rsa jaxsi-ku, Rais bova. Bir jilda ikki jilliq jem-xashak...

— Sen kamissiyani o‘zingga o‘xshagan ahmoq deb o‘ylaysanmi? To‘rt yildan beri shu xashakni ro‘kach qilasan!

Gurs-gurs qadamlar g‘aramni aylanib o‘ta boshladi. Shodivoy ikkalamiz pichan ichiga o‘rmalab kirib ketishni ham, qochib qolishni ham bilmay turgan edik, g‘aram boshida Rais buva, uning ketidan chopqillab kelayotgan «Ferma tog‘a» ko‘rindi. Rais buvaning egnida doim kiyib yuradigan kulrang kitel-shim, boshida do‘ppisi qiyshayibroq turardi.

— Anovilar nega dumalab yotibdi ish paytida?— Rais buva avvaliga bizni tanimadi shekilli, qo‘lini paxsa qildi.— Uxlab yotibsanlarmi?

«Ferma tog‘a» negadir iljayib qo‘ydi, Rais buva taqqa to‘xtab qoldi.

— Iya? — dedi goh bizga, goh «Ferma tog‘a»ga yuzlanib.— Nima qilib yuribdi bular, Musayip?

O‘rtog‘im ikkalamiz o‘rnimizdan turib, egnimizga yopishgan xas-xashakni tozalagan bo‘ldik. Shodivoy miq etmay turgani uchun o‘rniga men javob qilib qo‘ya qoldim.

— Shunday, o‘zimiz...

Rais buva labining bir burchi bilan jilmaydi.

— Senam jo‘rang bilan keldingmi, tutxo‘r?

Pat-patni esiga solgim keldi-yu, qo‘rqdim.

— Ha...— dedim ming‘illab.

Shu... «Ferma tog‘a» ham g‘irt jinni ekan-da! Jim turaqolsa-ku olam guliston edi.

— Rais bova, — dedi iljayib.— Polvon bir sho‘xliq qipti-da.

— Nima?— Rais buva birdan jiddiy tortdi.

— Moshin minib...

— Qanaqa moshin?

— Jahsi ko‘rmadimu... rangi ko‘kimtir-ov. Tuvrimi, polvon?

— «Zaporoj»mi?— Rais buvaning ko‘zi olazarak bo‘lib ketdi.

— Minuvdingmi? Qani, moshin?

«Ferma tog‘a» mo‘ylovini uchirib, g‘aramga imo qildi,

— Iskirda, Rais bova.

Rais buva og‘ir-og‘ir kiprik qoqdi. Tez-tez yurib, butun g‘aramni aylanib chiqdi.

— Qani? — dedi Shodivoyning tepasiga kelib. Shodivoy hiqillab yigʻlab yubordi.

— Ichida,— dedi burnini tortib.

— Nimaning ichida? — dedi Rais buva tajang ovozda. — Qandoq qilib kirdi?

— Jigit-da, jigit! — «Ferma togʻa» Rais buvani yupatdi,— mingʻisi kelgʻan.

— Kamchibek! — Rais buva kaftini karnay qilib baqirdi. Zum oʻtmay Rais buvaning koptokdek dum-dumaloq shopiri chopib keldi.

— Sim top!— dedi Rais buva shopirga.— Uzunroq!

Bir ozdan keyin shopir uzunligi yigirma quloch keladigan yoʻgʻon simning bir uchidan sudrab keldi. Rais buva «kir» degandek imo qildi. Ammo shopir gʻaramning qayogʻidan kirishni bilmay, mitti koʻzlarini javdiratdi.

— Menga bering— dedim simga qoʻl choʻzib. — Siz topolmaysiz.

Simning ilgak qilingan uchini changallagancha emaklab boya oʻzimiz chiqqan teshikka kirib ketdim. Hali unchalik sezmagan ekanman: gʻaram orasi oʻlgudek issiq ekan. Buyam kamlik qilgandek pichan bosilib yotaverib, dimiqib ketganmi, achimsiq hid dimogʻimni yoray deydi. Birpasda nafasim qaytib, terlab ketdim.

To mashinaga yetib olguncha bir kun emaklagandek boʻldim-ov. Nihoyat qoʻlim mashinaning temiriga urildi. Qorongʻida sim ulaydigan joyini topib boʻlsa ekan?! Yoʻq, oxiri topdim shekilli. Zoʻrmiz-da, oʻzimiz ham! Yoʻgʻon sim qoʻllarimni qayirib yuborganiga qaramay, ilgakni chandilab mahkamladim.

Yana emaklab yorugʻ dunyoga chiqqanimda Shodivoy bir chekkada shumshayib turardi.

— Ahmoq! — dedi Rais buva yasamaroq dagʻdagʻa qilib. — Joʻrangga oʻxshab uquvli boʻlsang oʻlasanmi?! Qara, Qoʻshoqvoy qandoq aqlli bola! Sen nuqul buzishni bilasan. Qani, Qamchibek, obke mashinangni.

Shopir xirmon orqasiga yugurdi. «Niva»ni gurillatib kelib, xirmonga roʻpara qildi. Kabinadan chaqqon sakrab tushib, simning bir uchini «Niva» ilgagiga bogʻladi.

— Tort!— dedi Rais buva qoʻl siltab.

«Niva» chiranib tisarildi. Sim tarang tortilib, gʻaram ustidan palaxsa-palaxsa pichan koʻchib tusha boshladi.

— Qoch hammang!— Rais buva tag'in qo'l siltab buyruq berdi.
— Nari turinglar!

«Niva» devdek o'kirar, sim rubobning toridek tarang tortilib ketgan, ammo «Zaporojes»dan darak yo'q edi. Nihoyat, xirmon tagidan qaldir-quldir, qaldir-quldir degan ovoz keldi. Qarasam, negadir «Ferma tog'a»ning har mo'ylovi nayzadek tippa-tik bo'lib ketyapti. Bir mahal xirmon orasidan oppoq bir narsa chiqib kela boshladi. Tushimmi-o'ngimmi? Shodivoyning «Zaporojes»i havorang edi-ku! «Niva» yana bir g'ayrat qilgan edi, yap-yangi, oppoq «Volga» yerga yonboshlagancha yorug' dunyoga chiqib keldi. Obbo! Qorong'ida simni eshik tutqichiga bog'labman-da. Bunisiyam mayli-ku, Shodivoyning mashinasi havorangligini bilaman, «Zaporojes»ligini bilaman, bunisi oq-ku, «Volga»-ku!

Yon tomonimda g'alati ovoz eshitilgandek bo'ldi. Talmovsirab o'girilsam, «Ferma tog'a» jo'xori tiqilgan xo'rozdek bo'ynini cho'zib, «g'iyq» deb qo'ydi. Keyin qiyiq ko'zlarini chirt yumib oldi-da, dikkaygan mo'ylovini changallab, tag'in ikki marta «g'iyq», «g'iyq» qildi.

— Nima bu?— Rais buvaning hokimona xitobidan cho'chib tushdim.

— Sendan so'rayapman, Musayip?

«Ferma tog'a» avval bitta ko'zini ochdi, keyin ikkinchisini... Keyin bir yo'la og'zini ham ochib qo'ya qoldi. «Niva»ning shopiri esankirab qoldimi, tormoz berish o'rniga gazni bosib yubordi shekilli, motor bir varangladi-yu, «ding'» etgan ovoz eshitildi. Tarang sim qoq o'rtasidan uzilib ketdi. Boyadan beri yonboshlab yerga sudralib kelayotgan «Volga» bir silkindi-da, oyog'i osmondan bo'lib ag'darildi. Oynalari chil-chil sindi. Tomi pachaqlanib, yalpayib qoldi. Mashina to'ntarilib yotsa, g'alati bo'larkan. Xuddi oyog'i osmondan bo'lib qolgan qo'ng'izdek.

— Hov, Musayip? — Rais buva «Ferma tog'a» chaqchaydi.— Nima bu?

«Ferma tog'a» juda g'alati iljaydi.

— Moshin...

— Moshinligini ko'rib turibman, kimniki?

— Sizdiqi!— dedi «Ferma tog'a» pinagini buzmay.

— Meniki «Zaporoj»ku, — dedi Rais buva xunob bo'lib.

«Ferma tog'a» yana iljaydi.

— Tuvibdi-g'o'y!

— Nima?

— «Zaporoj»ing‘iz bo‘voz ekan, «Volga» tuvib berdi, Rais bova. Qutti bo‘lsin!

Rais buva nima deyishini bilmay qoldi.

— Bultur «Moskvich» olib beruvdim-ku, bitta mashina kamlik qildimi, nokas!— dedi qo‘lini paxsa qilib.

«Ferma tog‘a» yalpayib yotgan mashinaga tikilganча tovuqning oyog‘iga o‘xshagan bo‘ynini cho‘zib tag‘in bir marta «g‘iyq» deb qo‘ydi.

— Sizdiqi,— dedi yana. — Qutti bo‘lsin.

— E, o‘l-a!— Rais buva negadir qiqirlab kulib yubordi.— Moshin sigirmidi, tug‘adigan?

— Tuvadi!— «Ferma tog‘a»ning mo‘ylovi uchib qo‘ydi. Faqat bu safar xomushroq, ma‘yusroq uchdi.— Tuvmasa tuvdirabiz.

— Bo‘pti, moshinning bolasini senga berdim. Yur, buyoqqa.

«Ferma tog‘a» farzandi o‘lgan odamdek pachoq «Volga»ga oxirgi marta qarab qo‘ydi-yu, chor-nochor Rais buvaga ergashdi.

— Obtush! — dedi Rais buva baqirib. Shopir yigit «Niva» ichidan magazinlarda konfet solinadigan yashikka o‘xshagan karton qutini olib tushdi. Quti og‘irroq shekilli, ikki bukilganча pishillab ko‘tarib keldi-da, «Ferma tog‘a»ning oyog‘i ostiga qo‘ydi. Ichida bir nima shiqirladi.

— Nima bul? — dedi «Ferma tog‘a» qovoq-tumshug‘i osilib.

— Atir!— Rais buva qoshini chimirdi.— Ertalab har bir sigirning ustiga sepasan. Kamissiya kelganda atir hidi anqib tursin.

— Rais bova, — dedi «Ferma tog‘a» mo‘ylovini qashlab, — burnovi jili «Shipr» sepqanda uying‘ kuyg‘ur siyirlar bir-birovini jalag‘an shig‘armi, ush kungacha tappidan atir isi kelib jatti!

— Nima, tappidan atir hidi kelmay, sening hiding kelsin-mi?!— Rais buva bizga yuzlandi.— Senlar buyoqqa yur!

Shodivoy ikkalamiz «Niva»ning orqasiga o‘tirdik. Rais buva shopirning yoniga.

— Musayip!— dedi Rais buva mashina o‘rnidan jilganda.— Eshitib qo‘y, hammayoq chista bo‘lsin. Isparapkalar bexato bo‘lsin.

— Keyin iljayib qo‘shib qo‘ydi.

— Skirdni ochib, «Zaporoj»ni biznikiga oborib qo‘y... Xafa bo‘lma, yanagi yil yuz sovlıqdan ikki yuztadan qo‘zi olsang, o‘zim «Volga» padarka qilaman.

Yettinchi bob

SIMLI ATLAS

Rais buva «Ferma tog'a»ga yangi «Volga» sovg'a qiladimi-yo'qmi unisini bilmayman-u, men pat-patdan allaqachon umidimni uzib qo'yanman.

Avvallari Tursunboy akamning mototsikliga minishimga jon-jon deb rozi bo'ladigan Oysara yangam ham to'satdan aynadi-qoldi. Bir kuni kechqurun pat-pat minish ilinjida uylariga kirsam er-xotinning janjali ustidan chiqib qoldim. Hovli o'rtasida o'rtacha paxta gulli piyola, ikkita choynak, sopol lagan chil-chil bo'lib yotibdi. Ayvonda Oysara yangam sochi paxmayib yig'lab o'tiribdi. Chap yuzi momataloq bo'lib ketgan. Tursunboy akam olma tagida turgan qo'lini paxsa qilib, allakimni bo'ralab so'kyapti. Yuzi tirnalgan.

Angrayib qopman. Sekingina juftakni rostlab qolmoqchi edim, birdan Tursunboy akamning ko'zi menga tushdi.

— Ha, Qo'shovoy, pat-pat minging kelyaptimi?— dedi so'kishdan to'xtab. Hatto g'alatiroq iljayib ham qo'ydi. — Juda yaxshi-da, ukam! — U tirnalgan yuzini kafti bilan siladi. — Mana kalit, minaqol!— dedi cho'ntagiga, qo'l suqib.

Ayvonda xun-xun yig'lab o'tirgan Oysara yangam hamma gapni eshitib turgan ekan. Uchib hovliga tushdi.

— Belingiz og'rib topibsizmi, pat-patni!— dedi chinqirib.— Bu yoqqa bering kalitni!

— Ha-a! Joning achidimi? Bundan chiqdi... Sening beling og'rigan ekan-da! — Tursunboy aka alang-jalang bo'lib qoldi.— Hozir!— dedi hayqirib.— Hozir dabdala qilaman!

U yugurib borib tandir tagida yotgan teshani yulqib oldi. Oysara yangam dod solib teshaning bandiga yopishdi. Tursunboy aka u yoqqa tortadi. Oysara yanga bu yoqqa. Uy ichidan kalta ko'ylak kiygan qizaloq bilan oyoqyalang bolacha chiqib, chirqillab ularga yopishishdi.

Vaqt g'animatda oyoqni qo'lga olib ko'chaga zing'illadim...

...O'shandan beri Tulporimni minib tinchgina yurgandim...

U yog'ini so'rasangiz, bu yil o'ninchini bitiramiz. Davlat imtihoniga tayyorlanish kerak. O'zim bilan o'zim ovora bo'lib,

aravamni tortib yursam, bugun Rais buva yana eski va'dasini esimga soldi. Yo'q, undan ham kattaroq va'da berib yubordi.

Papkamni salanglatib, ko'chaga chiqsam, eshigimiz oldida «Niva» turibdi. Darrov tanidim: Rais buvaning mashinasi. Rais buva biznikida nima qiladi? Otam ishda, onam bilan singlim dalada. Bundan chiqdi mashina to'xtab qolgan bo'lsa, Qamchibek aka tagini kavlashtirib yotgandir-da.

Shu xayol bilan yaqin borsam, rulda Rais buvaning o'zi o'tiribdi. Meni ko'rib, eshikni ochdi-da, yerga chaqqon sakrab tushdi.

— Nega chopiqqa chiqmading?— dedi to'satdan.

Esankirab qoldim. Hayronman, dovdirab qolganimda miyam qarsillab ishlab ketadi.

— Uch kundan keyin imtihon, Rais bova!— dedim tantana bilan.— Shodivoy ikkalamiz yozmadan tayyorlamoqchi edik.

Rais buva alang-jalang bo'lib, bizning eshik tomonga qaradi.

— Shodi senikidami?— dedi ovozini pasaytirib.

— Yo'q. Men sizlarnikiga bormoqchi edim.

— Malades! — Rais buva erkalab yelkamga qoqdi.— To'g'ri o'ylabsizlar. Davlat imtihoniga yaxshi tayyorlanish kerak. — U bir zum jimib qoldi-da, qo'shnimizning darvozasiga zimdan qarab qo'ydi. — U yoqda kim bor?

— Bilmadim, — dedim rostini aytib.

Rais buva tag'in yelkamga qoqdi.

— Bo'yingni qara!— dedi iljayib. — Obbo, tutxo'rey! Mendan ham o'sib ketibsana-ku. Ovozim ham do'rillab qopti. Otangga aytaman, uylantirib qo'yadi.

Labim o'zidan-o'zi bir tomonga qiyshayib iljaya boshlagan edim, Rais buva birdan jiddiy tortdi. Hatto qovog'iyam osilib ketdi.

— Menga qara, tutxo'r!— dedi ho'mrayib.— Oysara yangang anchadan beri ishga chiqmayapti. Kasal bo'pqopti. Mana shu kitobni obkirib berasan. — U mashina eshigini ochib o'rindiqlik ustida yotgan, gazetaga o'rog'liq kitobni oldi. — Ma! Rais bova kitobingizni berib yubordilar. Ertadan boshlab ishga chiqarkansiz, Rais bova yana kitob o'qigilari kepti, degin, uqdingmi?— U kitobni qo'limga tutqazdi. — Yugur! Shoshma, papkangni tashlab ketaver.

Qarasam gazetaga o'rog'liq narsa — yumshoq. Tursunboy akamning uyidagi urush-janjalni eslab, g'ashim keldi. Ustiga ustak,

Rais buva va'da qilgan pat-patdan hamon darak yo'q.

— Tursunboy akamga bersam ham, maylimi? — dedim iljayib.

Rais buva mendan ham yoyilibroq iljaydi.

— Tursunboy akang dalada. Oysaraning o'z qo'liga ber! Bo'l tez!

Og'rini broq hovliga kirsam, Oysara yangam ayvonda xamir qorib o'tirgan ekan. Meni ko'rib, qayrilib ham qaramadi.

— Manavi kitobni Rais bova berib yubordilar!— dedim g'o'ldirab. — O'zlari ko'chada mashinada o'tiribdilar. Tezroq ishga chiqib yana kitob berarkansiz.

— Nima? — Oysara yangam dik etib o'rnidan turdi-da, ayvon labiga keldi. Xamir yuqi qo'li bilan gazeta qatini ochgan edi, lovullab turgan atlasning bir uchi yergacha cho'zilib tushdi. Og'zim lang ochilib qoldi. Axir bu yaltiroq sim atlas-ku! Enam necha marta otamga aytgan: «Movjuning to'yiga aqalli bir jo'ra «sim atlas» olib qo'ymasak, uyat bo'ladi», degan. Otam «bir jo'ra «sim atlas»ing chayqovda falon pul turadi, qayoqdan olaman», deb to'ng'illagan.

Qarang, Oysara yangam shunday narsaning qadriga yetmadi-ya! Xamir yuqi qo'li bilan atlasni shart-shurt gazetaga qaytadan o'radi-da, qo'limga tutqazdi.

— Rais bovangga ayt!— dedi labi titrab.— O'qiydigan kitobi ko'payib ketgan! O'shalarni o'qiyversin, xo'pmi?

Gursillab yurib, joyiga borib cho'nqaydi-da, xamir emas, Rais buvaning boshiga urayotganday xamirni shiddat bilan mushtlay ketdi.

Menga nima! «Kitob»ni qo'ltig'imga qistirib ko'chaga chiqsam, «Niva» joyida yo'q. Yo'l chetida papkam yonboshlab yotibdi. Endi o'sha tomonga yurgan edim, orqa tomondan dag'dag'ali ovoz keldi.

— Shoshma, Qo'sho! Anavi nima?

Qayrilib qarasam, o'n qadamcha narida Tursunboy akam qovog'ini solib turibdi. Boshida unniqib ketgan eski do'ppi. Ko'ylak-shimi bir enlik chang.

Dovdirab qoldim.

— Atlas,— dedim tutilib.

Uning rangi quv o'chib ketdi.

— Qanaqa atlas?

Battar esankirab qoldim.

— Geografiya atlası, Tursunboy aka, — dedim ming‘illab. —
Tarix atlası... Imtixonaga...

— Bo‘pti, ketaver... — U tishlarini g‘ijirlatgancha uyiga kirib
ketdi.

Rais buvaning «Niva»si ikki ko‘cha narida turgan ekan. Eshikni
ochib, imlab chaqirdi.

— Bo‘ldimi, tutxo‘r?— dedi mashinadan tushib.

— Mang! — gazetaga o‘rog‘liq atlasni qo‘liga tutqazdim.

Rais buva ko‘zimga xavotirlanib qaradi.

— Nima bo‘ldi?

— Boshqa kitoblarni o‘qirkansiz!

U atlasni shosha-pisha o‘rindiqqa tashladi.

— Tursunboy seni ko‘rmadimi?

— Ko‘rdi.

— Nima dedi?

— Qo‘lingdagi nima, deb so‘radi.

— Sen nima deding?

— Atlas, dedim.

— A?!— Rais buvaning ko‘zi olayib ketdi.— Atlasligini
qayoqdan bilding, ahmoq!

Iye, nega menga o‘shqiradi bu!

— Oysara yangam ochib ko‘rdi!— dedim baqirib.— Sim atlas
ekan. Chiyali bozorida sotiladigan atlas ekan! Ammo-lekin olmadi!

— Bo‘ldi, tutxo‘r, bo‘ldi,— u peshonamni silamoqchi edi,
boshimni orqaga tortdim.

— O‘zi olmasa men nima qilay?

— Ajab qibsan, xo‘p qibsan, olmasa sadqai sar! Tursunboy
seni ko‘rmadimi, axir?!

— Ko‘rdi deyapman-ku!

— Qayerda?

— Ko‘chaga chiqqanimda.

Rais buvaning rangi gezarib ketdi.

— Rostdan-a?!

— Nega ishonmaysiz! — xunob bulib bir baqirgan edim, Rais
buva quchoqlab oldi.

— Ishonaman, tutxo‘r, sen yaxshi bolasan, keyin nima dedi?

— Kim?— dedim qovog‘imni solib.

— Tursunboy.

— Qo‘lingdagi nima, dedi, deyapman-ku!

Rais buva shilq etib, mashinaga suyanib qoldi.

— Qanaqa atlas, deb so‘ragandir?— dedi ovozi titrab.

— So‘radi.

— Sen nima deding?

— Sim atlas dedim!

— Kim berdi, dedimi?— Rais buva og‘ir-og‘ir kiprik qoqib ingradi. — Sen nima deding? Rais bova, demadingmi, axir?..

Qarasam, Rais buvaning ahvoli chatoq. Yupatgim keldi.

— Indamay ketaverdim! — dedim tantana bilan.

— Malades!— Rais buva birdan jonlandi.— Endi bunday qilamiz tutxo‘r. Agar Tursunboy yana so‘rab qolsa, onam atlas olib kelgan ekan, qimmatlik qipti, shuning uchun yangamga olib chiqqan edim, deysan. Uqdingmi?

Qo‘rqib ketdim. Otam bu gaplarni eshitsa, terimga somon tiqadi. Onam ham sog‘ qo‘ymaydi.

— Tursunboy akam enamdan so‘rab qolsa-chi? — dedim to‘ng‘illab.

— So‘ramaydi!— Rais buva mamnun jilmaydi. — Bu yog‘ini Oysara yangangning o‘zi tinchitadi. Tursunboyni shunaqangi buraydiki, hech kimga og‘iz ochmaydigan qilib qo‘yadi. Sen bir-ikki oy jim yursang bas. Tushundingmi?

Indamay burilib ketayotgan edim. Rais buva chaqirib qoldi:

— Shoshma, o‘v! Hali Shodi bilan dars qilaman degan eding-ku! O‘tir!

U mashinaga chaqqon minib, o‘ng eshikni ochdi.

— Min,— dedi mehri tovlanib. Anchagacha jim ketdik. O‘shshayib o‘tirganimdan xavotirga tushdi, shekilli, idora yonidan o‘tayotganimizda to‘satdan gapirib qoldi.— Sen malades bolasan, tutxo‘r! Hov birda pat-pat olib beraman degandim. Men bir so‘zli odamman. Payti kelib albatta olib beraman. Ungacha bir ish qilamiz.— U menga qarab, ko‘z qisib qo‘ydi.— Jo‘rang Qo‘sho Toshkentga bormasa, men ham institutga kirmayman, deyapti. Ikkalangni bitta institutga joylab qo‘yaman. Toshkentda bizning jo‘ralar ko‘p, bildingmi? Bu yog‘idan xotirjam bo‘laver, tutxo‘r. Institutga kirding hisob!

Sakkizinchi bob

«KAMPIR QONUNI»

Adabiyot imtixonidan-ku, amallab o'tib oldim. Judayam «besh» bo'lmasa ham uch-uch yarim degandek. Lekin buyoqda hali fizika turibdi. Eng yomon ko'rgan fanim — fizika! Adabiyotni yaxshi ko'rishimning ham, fizikani yomon ko'rishimning ham sababi bor. Adabiyot o'qituvchimiz — yaxshi odam. Bechoraning to'qqizta qizi bor. O'qituvchimiz har gal endi o'g'il ko'raman, deb harakat qilavergan, xotini paydar-pay qiz tug'avergan... O'g'li yo'qligi uchun ham adabiyot muallimimiz bilan qadrdon bo'lib qolganmiz: rahmim keladi. O't yulganimda Tulporimga ikki bog'ginasini ortib, uyiga oborib tashlayman. Tomorqasida jo'xori uzsa qarashvoraman. Yettinchi sinfdan buyog'iga kuzda har kuni ataylab eshigining oldidan o'taman. Bari bir ko'mir olib keladi-ku! G'izillatib tashib beraman. Shuning uchunmi, o'zim adabiyotdan zo'rmanmi, xullas, shu o'qituvchim meni yaxshi ko'radi. Judayam «besh» qo'ymaydi-yu (beshni Shodivoyga qo'yadi), har qalay, mendan «to'rt»ni ayamaydi.

Fizika o'qituvchimiz — yomon! Usmon Qilichev desa boshqa ma'lumlar uyoqda tursin, direktorimizning o'zi ham tipirchilab qoladi. Usmon aka urushda bo'lgan: chap qo'li yo'q. Lekin, qo'li bitta bo'lsayam bizlarni shunaqa ushlaydiki...

Usmon akadan «besh» oladiganning boshi o'nta. Hammani «ikki» bilan siylaydi. Yo'q, oshirib yubordim-ov! Bultur singlim Ju boshqa fanlardan «to'rt» olsa ham xuddi shu Usmon aka «besh» qo'ygan. Choraklariga ham, yilligiga ham, hatto imtihonda ham.

Esimda, erta yozda shu ma'lim biznikiga kelgan edi.

«Salimjon, jo'ra, qizingizdan malakali mutaxassis chiqishi mumkin, politexnika institutining ASU fakultetiga yuboring» deganida dadam negadir uzoq o'ylanib qolgan, «bilaman, ma'lim, nima qilay, mening ortiqcha jamg'armam yo'q-da», deb qo'ya qolgan edi. Usmon aka, «sizdaqa frontovik odamdan shunaqa gap chiqsa», deb yakka-yu yagona qo'lini jahl bilan siltaganida onam o'rtaga tushgan edi: «Qiz bolaga institutni kim qo'yibdi, shaharga borsa aynab ketadi». Ju bechora o'shanda, rosa yig'lagandi.

Gap bundayam emas... Jonajon o'rtog'im Shodivoyni butun maktab, hatto Rayono ham oltin medalga tayyorlayotgan ekan. To'qqizinchi sinfdan shu — Usmon aka fizikadan dars o'ta

boshladi-yu Shodivoyning kundaligi «uch»ga to‘lib ketdi. O‘shandan beri aytishlaricha, Rais buva ma’limimiz Usmon Qilichevni yomon ko‘rib qolganmish. «Shu ma’limni pensiyaga chiqarib qutulmasam bo‘lmaydi» deganmish. Tag‘in u yog‘ini bilmadim-u, shunisi aniqki, jo‘ram oltin medal» ololmaydi. Ustiga ustak, ertaga fizikadan davlat imtihoni topshiramiz.

...Imtihonga tumandan, hatto viloyatdan odamlar keladi, deyishgandi. Hech kim kelmadi. Shodivoyning familiyasi Alimov emasmi, Usmon aka, birinchi bo‘lib jo‘ramni chaqirib qoldi.

O‘n yil o‘qib, bironta ma’limdan qo‘rqmaydigan Shodivoy shu — Usmon akani ko‘rsa, oyog‘i qaltiraydigan bo‘lib qolgan. Hozir ham familiasini aytib chaqirishganini eshitmadi. Hammamiz yo‘lakda tipirchilab turibmiz.

— Alimov!— qiya ochiq eshikdan Usmon akaning zardali ovozi keldi.

— Seni chaqiryapti!— dedim sekingina jo‘ramning biqiniga turtib.

Shodivoy garangsirab og‘zini kappa-kappa ochdi:

— A?

— Kir!— qattiqroq baqirib yubordim shekilli, kimdir yelkamga musht tushirdi.

— Sekin-e!

— Qo‘rqib ketyapman...— Shodivoy ko‘zimga shunaqangi iltijo bilan termuldiki, o‘zim ham qo‘shilishib yig‘lab yuboray, dedim.

— Shpargalkani cho‘z!— o‘rtog‘imning qalin qilib tugilgan chuchvaradek qulog‘iga shivirladim. (Shpargalkalarning zo‘ri Shodivoyda bo‘ladi-da. Boshqa bolalar dalada g‘ayrat bilan ishlayotganda jo‘ram uyiga kirib olib g‘ayrat bilan shpargalka tayyorlagan: hammamiz uchun) — Derazaning oldiga o‘tir. Biletingning nomerini aytsang, oshiraman.

Shodivoy ixcham qilib buklangan qog‘ozni cho‘ntagidan olib qo‘limga tutqazdi.

— Alimov!— qiya ochiq eshikdan boyagidan battar zardali ovoz keldi.

Shodivoyning qo‘ltig‘iga kirib, sudragudek olib bordim-da, eshikni kattaroq ochib, gardaniga bir musht tushirgan edim, suzong‘ich buqadek boshini elkasi orasiga tortganicha, to‘ppa-to‘g‘ri Usmon akaning ustiga bostirib bora boshladi.

— Jinnimisan!— Usmon aka o‘rnidan turib ketdi. Yagona

qo'lini ko'tarib, katta qo'yishni mo'ljallab kelayotgan Shodivoyning peshonasiga kaftini ro'para qildi.

Shodivoy taqqa to'xtab qoldi.

— Bilet ol!— dedi Usmon aka Shodivoyga shubhaliroq qarab.

Tezroq sinfxonaning narigi tomoniga etib bormasam bo'lmaydi. Papkamning bandidan changallagancha yo'lakdan yugurib ketdim. Imtihonni dalada topshirganimiz qandoq yaxshi edi-ya! Baho qo'yishda brigadirimiz To'lash aka ko'maklashib yuborardi. Bir gektar o'toq qilganda — «besh», Yarim gektarga — «uch»... Shu... Rais buvagayam hayronman-da! Davlat imtihoni qonuniy bo'lsin, kamissiya kelib qolishi bor, debdi-da! Mana endi o'zining o'g'liga jabr bo'ldi!

Imtihon bo'layotgan sinfxonaning derazasi oldiga yetib olgunimcha hali qancha bor! Avval uzundan-uzoq yo'lakdan o'tishim kerak. Keyin hovliga chiqaman. Undan keyin maktab orqasiga o'taman.

Xalloslab chopib boryapman-u, bir narsani o'ylayman. Mehnat darsidan zo'ri yo'q ekan-da, o'zi! Masalan, menga eng yaxshisi — mehnat darsi! Ma'limlar nuqul savol beraverib boshingni qotirmaydi... Shunisiga xursandmanki, mehnat darsi bizda, ayniqsa ko'p bo'ladi. (Boshqa joyda qanaqa, bilmadim-u, bizda shunaqa). G'o'za sal qaddini rostlashi bilan yagana boshlanadi. O'zingiz o'ylab ko'ring. Qorni och to'rtta odamning oldiga bitta likopchada osh qo'yib, «qani olin-oling» desangiz, to'rttalasi baravar chang solsa, nima bo'ladi? Hammasi och qoladi, to'g'rimi? G'o'zayam shunaqada! Bundan chiqdi, bittasini qoldirib, boshqalarini yulib tashlash kerak. Birmi? (Barmog'ingizni bukib, sanab turing). Undan keyin... To'rtta g'o'zadan uchtasini yulib tashlaganimiz bilan boshqa oshxo'r topilmaydi, deysizmi? Siz-ku, yerga ming xil «palov» berasiz, mahalliy o'g'it, mineral o'g'it (voy, hidi qursin. Odamni zaharlab o'ldiraman, deydi-ya!). Siz-ku «palov»ni paxtaga berasiz. Ammo uning nasibasiga sherik bo'ladigan begona o'tlar ham chiqadi-da! O'shanaqa tekinoxo'rlarni tag-tomiri bilan quritish kerakmi-kerak! Buning oti o'toq deyiladi. Ikkita bo'ldimi? Ana undan keyin chopiq boshlanadi. Paxtaniyam joni bor. Nafas olmasa, o'lib qoladi. Siz bilan biz-ku og'iz-burnimiz bilan nafas olamiz. Paxta bo'lsa, ildizi bilan nafas olishi shart. Demak, chopiq qilish kerak. Keyin pilla mavsumi keladi. (Bunisini aytib beruvdim, boshqa gapirib o'tirmayman). Ketidan pichan o'rish mavsumi boshlanadi.

«Fermatog‘a»ning sigirlari pichan yemasa — harom o‘lib qolmaydimi? Undan keyin, yana chopiq, g‘o‘za sug‘orish... Bu — paxta degani suvga chunonam o‘chki, juda otchalik ichmasayam, kamida mening Tulporimchalik simiradi.

Paxta ochilganidan keyin-ku... dalada bayram boshlanadi. Avval, birinchi nav paxta terasiz, keyin ikkinchi terim, uchinchi terim. Shu paxta degani xo‘p erinmagan narsa-da! Bugun terib olsangiz ertaga yana iljayi-i-b, ochilib turaveradi. Keyin podbor terasiz, ya‘ni mashina terib ketganida ariqqa to‘kilib qolgan paxtani yig‘ib olasiz. Chanoqda yarim-yortisi qolsayam uvol-da! Undan keyin ko‘rak terish, ketidan ko‘rak chuvish... Oxiri dalalar qip-qizil bo‘lib qolganida g‘o‘zapoya yulasiz...

Ana endi o‘zingiz o‘ylang! Mehnat darsidan zo‘ri bormi? Har kuni ochiq havoda yurasiz. (Biologiya ma‘limimiz aytgandek, «ochiq havo — tanga davo»). O‘qituvchilar ham qiynab o‘tirmaydi. Birinchi sentabrdan o‘qishni boshlaysiz-u oltinchi sentyabrdan terimga tushasiz. O‘ninchi dekabrda maktabga qaytib kelsangiz, jurnallar to‘ldirilgan, chorak baholar chiqarilgan!

A? Nima dedingiz? Kattalar nima ish qiladi, deysizmi? Kim aytdi sizga kattalar bekor o‘tiradi deb?

Masalan, mening otam ham Usmon akaga o‘xshagan urush invalidi. Rais buva dadamni, lunji uchishini yoqtirmagani uchun bug‘altiriklikdan bo‘shatib, gazeta sotuvchi qilib qo‘ygan bo‘lsayam terim boshlanganida otam do‘konchada «kepqoling, gazeta opqoling» deb o‘tiradi deysizmi? Hecham-da! Singlim Ju, otam, onam tong otmasdan dalaga chiqib ketishadi. Qorong‘i tushganda qaytishadi! Ne mashaqqat bilan yetishtirilgan «oq oltin»ni yerda qoldirish g‘irt gunoh-ku!

Boshqalarmi? Kechirasiz! Bizning «Mash‘al» kolxozida tekinoxorlar yo‘q. Hamma ishlaydi. Rais buvaning jiyani tomorqasida ketmon chopadi. Kuyovi hisobchilik qiladi. Yana bitta kuyovi — agronom. Kenja kuyovi — iqtisodchi. Qaynisi — do‘konda atir-upa sotadi... Bular — erkaklar! Ayollarning yarmisi dalada, yarmisi — uyida. Nega deysizmi? Ayol bo‘lgandan keyin tug‘ishi kerakmi, axir? Masalan, bizning qishloqda o‘ttiz bitta Qahramon ona bor. Bitta bolasini tug‘ishi bilan ikkinchisiga zagatovka tayyorlab qo‘yadi...

E, unaqa chalg‘itmang-da, Jonajon jo‘ram Shodivoyga shpargalka uzatmoqchi ekanimni aytuvdim-ku!

Maktabning uzundan-uzoq binosini aylanib o'tguncha jiqqa terga botib ketdim. Kun issiq. Boshqa sinflar chopiqqa chiqib ketgani uchun maktab jimjit. O'zim ham shunaqangi tez yuguribmanki, nafas olaman, desam, ichimga hech havo kirmaydi. Bunday qaragam, tilim taxminan bir qarich osilib qopti. (Qo'lim bilan tiqib, joyiga kirgazib qo'ydim).

Shodivoy malades! O'zim aytganimdek, deraza yonida o'tirgan ekan. Ochiq oynadan beshta barmog'ini ko'rsatdi. Demak, beshinchi bilet!

Yerga tappa o'tirib olib, imtihon biletleri yozilgan daftarchani titkilab ketdim. Aksiga olib, hech topolmayman.

Shodivoy, qiynalib ketganimni tushundi shekilli, kalta, yo'g'on bo'ynini cho'zib, qattiq shivirladi:

— Kulon qonuni! Eshitdingmi, Qo'sho! Kulon qonuni!

Kulon qonuni bo'lsa, Kulon qonuni-da! Hozir topamiz!

Shpargalkaning qatini yoyishga tushdim. Shodivoy ham butun kitobni ko'chirib chiqqanmi, nima balo! Shpargalka qatini ochgani sayin Shokir abziyning garmonidek cho'zilib ketyapti. Ataylab qilgandek Kulon qonuni yozilgan joy hech chiqmaydi. Bir mahal kimdir «garmon»ning yerga cho'zilib yotgan uchidan tortib ketayotgandek bo'ldi. Qo'rqa-pisa qaragam, qay ko'z bilan ko'rayki, Tulporim shundoq tepamda turib olib tasmadek shpargalkani bir chetdan yamlab yutyapti.

— Qo'yvor! — dedim-u, jon holatda qog'ozni tortqiladim. Shpargalkaning bir qismi so'lakka qorishib eshagimning og'zidan qaytib chiqdi. O'ziyam rangi suykilib, majaqlanib gulsafsardek ilma-teshik bo'pketibdi.

Tulporim, harqalay yarim qulochginasini uzib olishga ulgurgan ekan. Huzur qilib chaynadi-da, g'o'lq etib yutib yubordi. Yoqib qoldi shekilli yana «gormon»ga talpindi. O'rnimdan sakrab turib, quloq chakkasiga tarsaki tortib yubordim! Bilasiz, Tulporim kaltak yeb o'rganmagan. Ko'zimga birpas qarab turdi-da, shunaqangi alam bilan hangrab yubordiki, qo'rqib ketganimdan «tishsh» dedimmi, «ishsh» dedimmi, esimda yo'q.

Derazadan qarab turgan Shodivoyning lo'ppi yuzi qiyshayib ketdi. Papkamni shosha-pisha titkilab, «Fizika» kitobini oldim.

— Mana!— dedim eshagimning hangrab turganidan foydalanib, — yozib ol, Shodi! Vakkumda joylashgan zaryadli qo'zg'almas nuqtaviy ikki jinsning o'zaro ta'sir kuchi...

— Alimov!— sinfxona ichkarisidan dag‘dag‘ali xitob yangradi. Nazarimdan Shodivoyning ko‘zi g‘ilay bo‘lib ketdi. Bir ko‘zi menga qarab turibdi, bittasi Usmon akaga. Eshagim ham taqataq jimidi-qoldi.

Xuddi shu payt sinfxona ichida g‘ala-g‘ovur boshlandi.

— Domullo! Qanaqasiz o‘zi!— degan tovush shang‘illadi.— Nima qilasiz bolalarni qiynab. Bo‘ling-da, tezroq. Chopiq qolib ketyapti.

Topdim. Brigadirimiz To‘lash akaning ovozi!

— Chiqing!— Usmon aka stolni bir qo‘llab mushtladi shekilli, allanima qarsilladi.— Chiqing! Kim sizga ruxsat berdi, davlat imtihoniga bostirib kirishga!

— Imtihon-ku o‘z yo‘liga... — To‘lash akaning tovushi endi yalinibroq chiqdi.— Ammo, bu yoqda shuncha ish... domullo...

— Yo‘qol! Qachondan boshlab, sen savodsiz menga... qirq yillik pedagogga...

Hammayoq gumbur-gumbir bo‘lib ketdi.

— Shodi! Ma!— dedim baqirib, Fursatdan foydalanib «Fizika» kitobining o‘n besh varaqchasini yirtib, derazadan uzatdim.

Sinfxona tomonidan To‘lash akaning alam to‘la tovushi keldi.

— Domulloman, deb ko‘p kerilmang, domullo! Rais bova kelsa o‘zingiz javob berasiz.

Papkamni changallab, maktab darvozasi tomonga yugurdim. Ketimdan To‘lash akaning boshi boshim bilan urishib ketishiga sal qoldi. Uning ikki yuzi xo‘rozning tojisiday qip-qizarib ketgan, hansirab nafas olardi.

— Shoshmay tur!— dedi mushtini do‘laytirib.— Hozir Rais bovaning o‘zi keladi!

Qo‘rqqanimdan lip etib chetga o‘tdim. To‘lash aka nariroqda turgan kajavali motosikliga mindi, chunonam patillatdiki, qulog‘im yorilib ketay dedi.

Chopib, sinfxona eshigiga kelsam, Shodivoy iljayib turibdi.

— To‘rt!— dedi ikki yuzi yumronqoziqning lunjidek yalpayib.
— Kir. Seni chaqiryapti.

Qo‘limdagi papkani do‘stimga uzatdim.

— Yugur! Deraza oldiga bor!

— Shpargalkani cho‘zmaysanmi?

— Cho‘zilib bo‘ldi!— dedim to‘ng‘illab.— Kitobni yirtaver.

Sinfxonaga kirsam, Usmon aka doska oldida turgancha u

yoqdan-bu yoqqa borib-kelyapti. Butun gavdasi muttasil chayqaladi.

— Bema'nilik!— dedi ovozi titrab. — Borib turgan bema'nilik!

Bilet olishga shoshilmasdim. Avval Shodivoy derazaga yetib olsin!..

— Sharmandalik!— ma'lim lablari titrab ingradi.— Allaqanday chalasavod... Bilet olmaysanmi!— dedi to'satdan.

Qo'rqa-pisa, stol ustida yotgan uzunchoq qog'ozlarga qo'l cho'zdim. Titrab turgan barmog'imga ilashib chiqqan bittasini cho'g' ushlagandek chimchilab tortdim.

— O'n uch...— dedim talmovsirab.

— Bema'nilik!— ma'lim yana bir xitob qildi-da, negadir ovozi mayinlashdi. — O'tir, o'g'lim, tayyorlan. Shoshilmasdan, o'ylagin, xo'pmi?

Ochiq deraza yoniga borib o'tirdim. Birinchi savolning ma'nosini endi tushundim: «Amper qonuni...»

— Qo'sho, — deraza orasidan ming'illagan tovush keldi — Qo'sho... Savoling nima?

Ko'z qiri bilan qarasam, deraza tagida Shodivoy bo'ynini cho'zib turibdi.

— Amper qonuni! — dedim qattiq pichirlab.

Aytdim-ku, ma'limmizning o'zi yomon deb.

— Kim u? — ma'lim yugurgudek bo'lib tepamga keldi. — Qurting bormi? Nimaga tipirchilaysan?

— O'zim, — dedim iljayib.— Ovoz chiqarmasam, masala yecholmayman, ma'lim.

Usmon aka har ehtimolga qarshi deraza tomonga qarab qo'ydi. Men ham ko'z qirimni tashlasam, hech kim yo'q. Shodivoyning aqli toshni yoradi-da! Allaqachon quyonni surib qopti!

Ma'lim bir qo'llab sharaq-shuruq qilib derazani yopti. Doska oldiga ketdi. O'sha zahoti deraza ortidan yana Shodivoyning barkashdek yuzi ko'rindi. «Och» deb imo qildi. «Ilojim yo'q», degandek bosh chayqadim. Shodivoy deraza yopiq bo'lgani uchun mendan boshqa hech kim eshitmaydi, deb o'yladi, shekilli, kitobni ochib olib, oynaga yaqin keltirdi.

— Yoz, Qo'sho!— dedi ovozi boricha baqirib.— O'zidan tok kuchi o'tkazayotgan o'tkazgichning uzunligi... Shipillatib yozib ketdim. «O'zidan tok kuchi...»

— Kichik kesimga u bilan burchak hosil qiluvchi...

Shipillatib davom etdim: «Kichik kesimga...»

— Induksiya magnit maydoni...— dedi Shodivoy ovozini yanayam balandroq qo'yib.

— Salimov! Doskaga!

Noiloj Usmon akaning yoniga bordim.

— Bo'ldingmi?

— Bo'ldim... Birinchi savolni.

— Qani eshitaylik...

Ikki minut oldin Shodivoy qanaqa baqirgan bo'lsa, men undan o'n hissa qattiqroq hayqirib javob bera boshladim:

— O'zidan tok kuchi o'tkazuvchi o'tkazgichning...

Xuddi shu payt sinf eshigi taraqlab ochildi. Shunaqangi shiddat bilan ochildiki, kaptarxonaga bexosdan mushuk oralab qolsa qanaqa bo'ladi? Hamma kaptarlar har yoqqa patirlashib uchib ketadimi? Mendayam xuddi shunaqa bo'ldi. Kallamda hech vaqo qolmadi, xuddi u qulog'imdan kirgan shamol g'uvillab bu qulog'imdan chiqib ketayotgandek. Qarasam, ostonada Rais buva turibdi. Kun issiqligiga qaramasdan egniga qora kostum kiyib olibdi. Ko'ksi to'la — medal. Orqasida To'lash aka. Rais buvaning qo'ltig'idan mo'ralab-mo'ralab qo'yyapti. Xuddi echking chotidan boshini chiqarib mo'ltirayotgan uloqchadek.

— Ma'lim...— Rais buva g'alati iljaydi.— Ruxsat etsangiz, kadrlarimizning ilmini bizam ko'rsak.

Usmon akaning yupqa labi titrab ketdi.

Rais buva ruxsat kutmay, birinchi partaga o'tirib oldi. To'lash aka uning yoniga cho'kmoqchi edi, qorni sig'madi. Eshik oldiga qaytib bordi-yu, qo'l qovushtirib turaverdi.

— Umuman, Amper, zo'r olim bo'lgan!— dedim yanayam qattiqroq baqirib.— O'zi nemis bo'lgan, ma'lim. Elektrni ham shu odam topgan. Ya'ni, ma'limjon, Amper qonuni...

— Ma'lim!— Rais buva o'rnidan siltanib turdi. Parta taraqlab ketdi. — Ko'rdik, baloga aqli yetyapti, bolalarni. Allaqandaqa «Kampir qonuni» deb shunchalik cho'zg'ilash shartmi?

— Kampirmas, Amper!— nazarimda ma'limimiz yig'lab yuborgudek ingradi.— Qachongacha savodsiz bola tarbiyalaymiz!

Rais buva bir zum o'ylanib qoldi. Bilmadim, ma'limdan uyam hayiqarkanmi yo andisha qildimi, har qalay uyalibroq jilmaygandek bo'ldi.

— Qo'ying, endi,— dedi iljayib.— Eshitdik, oblonodan

kamissiya kelmaydigan bo'пти. Yigitlarimiz malades! Yo'lini topib ketadi. Ko'rib turasiz, institutlarni kattasiga kiradi bular!

— Qandoq qilib? Pora beribmi?

Ma'limning gapi jon-jonidan o'tib ketdi shekilli, Rais buvaning yuzi qahrli tus oldi.

— Hov, ma'lim!— dedi har so'zni chertib.— Har yili ish ayni qiziganda bir ishkali chiqarasiz. Nima, bular hezalak, oqbilak bo'lsinmi? Mana shu bola... — U menga qarab barmog'ini bigiz qildi,— mana shu azamat kechasi bilan tongotar uxlamay g'o'za sug'orib chiqqanini bilasizmi?

Rais buva rost aytdi. Judayam tongotar bo'lmasayam oy chiqquncha g'o'za sug'organim rost.

— Kelajakni shu avlod yaratadi!— Rais buvaning ovozi shu qadar hokimona jarangladiki, to'rtta partada o'tirgan sinfdoshlarim pildir-pis bo'lib qolishdi. — «Kampir qonuni»ni boshiga uradimi bular! O'ylang-da, siz ham, ma'lim.

Usmon aka yomon dedim-ku! To'satdan unikiyam tutib ketdi.

— Hov, Rais!— dedi titrab.— Qo'lingizdan kelsa ottirvoring. Men savodsiz kadr tayyorlamayman! Maktabda medal olib, institutga borganda «ikki»ga tortolmaydigan bolani yomon ko'raman!

Angrayib qoldim! Shu paytgacha bironta odam Rais buvaning ko'ziga tik qarab, bunaqa gapirmagan edi. Rais buva ham bir zum esankirab qoldi. Lekin o'sha zahoti shiddat bilan hayqirdi:

— Bolalar yaxshi ilm olmagan bo'lsa ayb sizda! Bilib qo'ying, shu bolalar institutga kiradi. Albatta kiradi!

Ajab, Usmon aka kuldi. Kulgandayam, bo'g'iq, xirillab kuldi.

— Sizning o'g'lingizmi, Rais? Xohlasangiz olim ham qilasiz uni.

— Senga nima?

Battar dovdirab qoldim. Ma'limning yoshi Rais buvadan kamida besh yosh, bo'lmasa o'n yosh katta. Sochlari oqarib ketgan. Rais buva uni bemalol sansirayapti!

— To'rt yil oldin pensiyaga chiqishing kerak edi! — dedi Rais buva battar tutaqib.— Nimaga ivirsib yuribsiz?

— Yaxshi...— Usmon aka chuqur uf tortdi.— Bo'shayman. O'zimniyam jonimga tegdi...— U negadir jilmaydi. Pastki labini tishlab uzoq jimib qoldi.— Sengayam boqqan balo bordir...— dedi sekin.

— E, o'chire, ig'vogar!— Rais buva ildam kelib, mening

qo'limdan tutdi. — Yur, tutxo'r!

Talmovsirab orqasidan ergashdim.

Hovliga chiqsam Shodivoy kutib turgan ekan.

— Nechchi qo'ydi?— dedi ko'zimga tikilib.

Indamadim.

— Shu palid domlanning gapi uchun ham ikkalangni yurist qilaman!— Rais buva bir qo'li bilan Shodivoyni, bir qo'li bilan meni bilagidan olib sudrab ketdi.

Darvoza oldiga kelsak, Tulporim meni kutib turgan ekan. Boshqa joy qurib qolgandek naq darvozaga ko'ndalang turib olibdi. Chetlab o'tib ketsak ham bo'lardi-ku, Rais buva kelib-kelib eshakka yo'l bo'shatishni xohlamadi, shekilli, dag'dag'a qildi:

—Xix!

Tulporim uzun quloqlarini osiltirib xayol surib turaverdi. Boya nega urganimni o'ylayotgan bo'lsa kerak.

Rais buva Shodivoy bilan mening qo'limni qo'yib yubordida, eshak boshida musht ko'tardi.

—Xix!

Tulporim boshini xotirjam burib, o'girildi. Lablarini cho'chchaytirib Rais buvaning qulog'ini hidladi. Keyin tilini ikki qarich chiqarib uning yuzini yalab ham qo'ydi.

Hozirgina ma'lim bilan urishib g'azablanib turgan Rais buvaning jon-poni chiqib ketdi.

—Xixe, harom o'lgur!— dediyu ikki qadam orqaga tisarilib, kuchi boricha eshakning qorniga tepdi. Tulporim bir silkinib ketdi. Keyin sekin-sekin burilib, roppa-rosa to'qson gradus o'girildi. Bir nimani nishonga olgandek, orqasiga qarab qo'ydi. Ana undan keyin Rais buvaning qovug'ini mo'ljallab turib chunonam tepdiki, Rais buvaning ichida «g'iq» degan ovoz chiqdi. Tuproq yo'lga chalqanchasiga yiqildi.

Shodivoy ikkalamiz angrayib qoldik.

— To'xtat! — Rais buva inqillab o'rnidan qo'zg'aldi.— To'xtat deyman. Kimning eshagi bu!— u orqasiga yopishgan changni qoqib qaddini rostlaguncha Tulporim shataloq otib g'oyib bo'ldi.

To'qqizinchi bob

BIZ TALABA BO'LAMIZ!

Osmon-falakda uchib ketyapmiz! YaK-40 da! Yonimda

Shodivoy o'tiribdi. Og'zi qulog'ida! Ustara tegmagan mo'ylovi qiymataxtadan o'tkazsa, bir qozon chuchvaraga bermalol yetadigan do'rdoq labini yanayam qalin qilib yuborgandek. Yuziga husnbuzar toshib, afti — ustiga unda-munda tosh to'kilgan asfalt ko'chaning o'zi bo'lib qolgan. Tig' tegmagan mo'ylov bilan husnbuzar masalasida o'zimiz ham jo'ramizdan qolishmaymiz. Shodining yuzi-ku siyrak tosh sachragan asfalt. Bizniki-chi? Naq tosh yo'lning o'zginasi!

Oldingi o'rindiqa Rais buva o'tiribdi. Shlyapasining qirrasi o'rindiq suyanchig'iga tegib qiyshayibroq turibdi. Rais buva bunaqa samolyotlarda uchaverib, ko'zi pishib ketgan shekilli, allaqachon yetti uyquni urib bo'ldi-yov. Ora-chora o'rtacharoq ovozda xurrak tortib ham qo'yadi.

Umrim bino bo'lib, samolyot u yoqda tursin, poyezdga ham minmaganman. Shuning uchunmi, trapdan ko'tarilayotganda yuragim salgina taka-puka bo'ldi. Ammo darrov o'zimni yupatdim. Samolyot Shodivoyning «Zaporojes»i emaski, «Ferma tog'a»ning g'aramiga kalla qilsa! Rostdan ham «YaK-40» jonning rohati ekan! Qilt etmaydi-ya! Xuddi bir joyda qotib turgandek. Shundoq tagimizda oppoq, do'mboq bulutlar suzib yuribdi. Shunaqangi xo'ppa-semizki, paxta xirmonidan farqi yo'q. Ustiga chiqib irg'ishlaging keladi. Ola-chalpoq «yirtig'i»dan yerga tushib ketmasang bas! Jo'ramning biqiniga turtib, yumaloq derazadan «ko'rib qo'y» degandek, bulutlarga imo qildim. Shodivoy «zo'r» degandek bosh barmog'ini dikkaytirib qo'ydi.

Shundoq qilib, yaqinda bir student bo'lamiz! Aslida bunaqa o'y yetti uxlab tushimga ham kirmagandi.

O'shanda Rais buva «Senlarni yurist qilmasam, rais otimni boshqa qo'yaman» deyishga deb qo'ydi-yu, palakat bosib Tulporimdan tepki yegandan keyin, bu gap paqqos esidan chiqib ketgandir, deb o'ylagandim. Birinchidan, Tulporim maydalashib o'tirmaydi. Tepsa birvarakay tepib qo'ya qoladi. Rais buva uch kungacha hech kimga ko'rinmadi. Shodivoyning aytishiga qaraganda, dadasi uch kungacha tumandan massajchi chaqirib, vazelin bilan qovug'ini silatganmish. Ikkinchidan, Rais buva eshak meniki ekanini bilgan. Bilmay qayoqqa borardi: Tulporimni mingta hangi orasiga qo'yib yuboring: manaman deb ajralib turadi.

Xullas, Rais buva Shodivoy ikkimizni institutga kiritib qo'yishniyam xuddi mototsikl olib berishga o'xshab allaqachon

esidan chiqarib yubordi, deb o'ylagandim.

Yo'q, unutmagan ekan. Uch kun avval saharlab turib eshagimni sug'orayotsam harsillab-gursillab, Shodivoy kelib qoldi.

— Chamadoningni tayyorla!— dedi do'rillab.— Toshkan boramiz.

— Nega?

— O'qishga kiramiz. Yuridicheskiyga!

Yuridicheskiy deganini judayam yaxshi tushunmasam ham ozmi-ko'pmi aqlim yetardi.

— Nima, odamlarni qamaysanmi?

Shodivoy ham buyog'ini o'ylab ko'rmagan ekanmi, ikkilanib qoldi.

— O'zimga qolsa-ku,— dedi ming'illab.— Fizkulturniyga kirmoqchidim. Hozir yuz kilo shtanga ko'taryapman.

— Men anavinaqa dorga osiladiganiga kirardim,— dedim xuddi dadam darrov javob bera qoladigandek.

— Shunaqa-ku, — Shodivoy yana ming'illadi.— Fizkulturniyda dadamning jo'rasi yo'q ekan. Keyin... yuristlar mixday yasharmish.

Hafsalam pir bo'ldi.

— Boraver!

— Yo'-o'-o'q!— Shodivoy boshini sarak-sarak qildi.

— Sen bormasang, menam kirmayman o'qishga! Dadam jo'rasiga aytib, seniyam joylab qo'yadigan bo'ldi.

Do'stim rost aytgan ekan. Kechqurun onam eshikdan hovliqib kirib, Rais buvani alqashga tushdi. Rais buva onamni ataylabdan idoraga chaqirib olib aytganmish. «Shundoq-shundoq, yanga, Qo'shovoyni azaldan yaxshi ko'raman. Uyam o'zimning o'g'limdek, gap. Shodivoy ikkalasi o'qib, yurist bo'lib keladi!»

Hovli supurayotgan singlim enamning gapini eshitib negadir hiringlab kuldi.

— Sizdan yurist chiqmaydi, aka!

Supada jo'xori uqalab o'tirgan dadamning o'ng lunji ucha boshladi. Onamga qarab chaqchaydi.

— Ilonning yog'ini yalagan o'sha Rais otalik qilarmishmi, mening o'g'limga? Rahmat! Beradiganini belbog'iga bog'lasin!

Onam ko'ziga yosh oldi.

— Doim shunaqa kajbahslik qilasiz. Birov sizning o'g'lingizni o'qitaman, odam qilaman, desa...

Dadam so'tani uloqtirdi-da, jahl bilan qo'l siltab ko'chaga

chiqib ketdi.

Kecha Shodivoy yana keldi. Cho‘ntagidan bir dasta qog‘oz chiqardi.

— Ko‘rib qo‘y!— dedi maqtanib.— Inshoning zo‘ri mana bunaqa bo‘ladi! Adabiyot ma‘limimizning o‘zi yozgan.

Esim og‘ib qolay dedi.

— Hoy jinni!— dedim baqirib.— Toshkandagi institut sening maktabingmi, shpargalka ko‘chirsang indamay turadigan! Derazadan o‘zingni uloqtirib yuborar!

— Uloqtirmaydi. Dadamning jo‘rasi bor.

Kechqurun otam ishdan keldi-yu, ayvon o‘rtasida turgan bir dasturxon patir, bir tog‘ora bo‘g‘irsoqni ko‘rib hayron bo‘ldi.

— Nima bu?

— Yo‘lga!— dedi onam tushuntirib.— Bolam bechora musofir yurtda och-nahor yuradimi? Jilla qursa ozroq pul bering. Nonushta qilishi bor, istalavoyga kirishi bor...

Dadamning bir emas, ikkita lunji ucha boshladi.

— Ehtiyot bo‘l!— dedi to‘ng‘illab.— O‘g‘ling kosmosga uchib ketyapti... Ko‘rasan hali, hafta o‘tmay qaytib keladi to‘rvasini ko‘tarib.

Onaning jazavasi qanaqa tutishini aytuvdim-a? Hozir ham shunaqa bo‘ldi.

— Hoy,— dedi ikki qo‘lini tizasiga baravar shapatilab.— Odamlar bolasini o‘qishga joylayman deb sigirini sotadi, moshinini sotadi. Beliga jaraq-jaraq pul tugib, domlaning uyiga boradi. Rais bovadek odam bosh qo‘shib turganda siz bittayu bitta o‘g‘lingizdan pul ayaysizmi?— U to‘satdan yig‘lab yubordi.— Mayli uzugimni sotaman, sirg‘amni sotaman! Kerak bo‘lsa Mavjuning to‘yiga atab qo‘ygan gilamni sotaman!

— Bo‘ldi!— dadam, boshi muttasil chayqalib shimining cho‘ntagini kavradi, mayda-yirik aralash pullarni xontaxtaga uloqtirdi-yu, hovliga tushib ketdi.

Onam darrov ovunib qoldi. Sholchaga cho‘nqayib o‘tirganча bosh barmog‘ini yalab hafsala bilan pul sanadi, ro‘molchani yechib, pulni chandilab bog‘ladi.

— Ma, belingga tugib ol! Shahar yomon bo‘ladi. Bitta-yarimta kissangni olib qo‘ymasin.

Onam chamasi kechasi bilan uxlamadi-yov. Allaqayoqdan eski chamadon topib keldi. Issiq to‘rko‘ylak (shamollab qolmasligim

uchun) bitta qora kostum (dadamniki, kuyadori hidi kelib turibdi), ikkita shim, ikki juft paypoq, o'n oltita patir (o'zim sanab turdim), bir to'rva turshak (tog'amnikidan kelgan, qurtlaganidan bildim) yarim to'rva qurut (o'zimizning qatiqdan), yarim to'rva bo'g'irsoq (kecha pishirilgan) yana allaqancha narsalarni joylab, qopqoqni yopgan edi, chamadon ajdarning og'zidek bir ochilganicha ustiga minib olib, bossa ham qayta yopilmadi.

Onam ishning ko'zini biladi-da! Dadamning eski shimidan qalinligi besh enli keladigan kamarni yechib olib, bir tortgan edi, chamadonim og'zini yumdi. Faqat eshagimning xurjunidek ikki tomonga tarvaqaylab, do'mbayib qoldi.

Tong saharda turib, tashqariga chiqdimu eng avval yong'og'im bilan xayrlashdim.

— Xayr, qadrdon yong'og'im! Ustingdan yiqilib, boshim yorilgan bo'lsayam baribir seni yaxshi ko'raman! Sening mevalaringni yeb, aqlim to'lishdi. Erta-indin student bo'laman! Mabodo tosh otib, shoxingni sindirib, xafa qilgan bo'lsam, rozi bo'l.

Yong'og'im qilt etmadi.

Keyin og'ilxonaga kirib, Tulporim bilan xayrlashdim.

— Xayr, mehribon Tulporim. Imtihan kuni seni urmoqchi emasdim. O'zing shpargalkamni yeb qo'yib chatoq qilding. Xafa bo'lma! Rozi bo'l, Tulporim! Har kuni maktabning derazasi oldiga borib turarding. Endi mendan kim xabar oladi?

Eshagim yuzimga qarab bir xo'rsindi, ikki xo'rsindi. Keyin entikib-entikib hangrab yubordi. Qarasam, o'zim ham yig'lab yuboradiganman. Chopib hovliga chiqdim. Singlim tandirga g'o'zapoya tiqib endi gugurt chaqayotgan ekan.

— Xayr, Ju!— dedim yig'lamsirab. Singlimni bag'rimga bosib, peshonasidan o'pdim.— Kalishimni yirtib qo'yganingda so'kkandim, rozi bo'l.

— Voy qo'lim kuydi!— singlimning afti burishib ketdi.— Qanaqa kalish?

— Qarang, allaqachon esidan chiqib ketgan ekan-ku, men bo'lsam...

Ayvonda turgan onam o'pkasi to'lib, meni bag'riga bosdi.

— Xayr, enajon, rozi bo'ling!— degan edim, xo'ngrab yig'lab yubordi.

— Voy, bolajonim, enaginangni tashlab, qayoqlarga ketyap-

san?

— Xayr, dadajon!— uy tomonga qarab xo‘rsinib qo‘ydim.

— Dadang allaqachon ishga ketgan!— onam ro‘molini uchiga burnini qoqdi.

Qarang, dadam uzoq safarga ketayotganimni ko‘ra-bila turib, xayrlashgisi kelmabdi. Shu qilganiga Toshkentga borib olim bo‘lib ketaman! Prapisir bo‘lib kelaman! Bir uyalsin!

Mana, ketyapmiz endi YaK-40 da! Samolyot derazasidan qarab boryapmanu bundan besh yil avval qazo qilgan momojonimning gapini eslayman. Bir kuni momojonim maqtangan edi. Bu dunyoda men ko‘rmagan joy qolmadi, bolam, buyog‘i Shaldiramasoygayam borib keldim! (Shaldiramasoy bizning qishloqdan olti chaqirim narida. Eshakda bir soatli yo‘l.)

Samolyot manzilga yaqinlashdi shekilli, pastlay boshladi. Ip tortilgandek to‘ppa-to‘g‘ri yo‘llar, oppoq binolar, poyezd izi ko‘rindi. Oldingi o‘rindiqda o‘tirgan Rais buva samolyot yerga qo‘nganidan keyingina uyg‘ondi. Suyanchiq ustidan bizga mo‘ralab qaradi. Yuzi qip-qizarib ketibdi. Kaftining orqasi bilan so‘lagini artib, qiyshayib ketgan shlyapasini to‘g‘rilab oldi.

— Keldik, polvon!— dedi iljayib. Menga aytdimi, Shodivoygami, tushunmadim.

Voy-bu! Toshkent degani ham xo‘p g‘aroyib shahar ekan-da! Odamlar muncha ko‘p! Tag‘in hammasi shoshiladi. Ko‘pkariga kelgan chavandozga o‘xshaydi-ya! Mashinalarning g‘izillashini aytmaysizmi! Biz o‘tirgan taksi osmon baravar bino oldiga yetib kelguncha ellik sakkizta mashinani quvib o‘tdi. Sanab turdim.

Shodivoy o‘zining chamadonini, men o‘zimning do‘mpayib ketgan chamadonimni ko‘tarib, tepasiga qarasangiz, do‘ppingiz tushib ketadigan binoga kirdik. Rais buvaning qo‘lida yuk yo‘q hisob. Ixchamgina «diplomat» ko‘tarib olgan. U, ketimdan yuringlar, degandek imo qildi-da, allaqancha odam to‘dalashib turgan oyna to‘siq oldiga bordi. Binoning ichi salqingina ekan. (Odamning uxlagisi keladi). Shodivoy ikkalamiz chamadonni ko‘targancha Rais buvaning ketidan safga turdik. Oynavand to‘siq ortiga sekin mo‘raladim. Shodivoyning «Zaporojes»iga o‘xshagan havorang ko‘ylak kiygan xotin baland suyanchiqli kursida o‘tiribdi. Avvaliga xotin pamildori yeb o‘tirgan ekan, deb o‘yladim. Yo‘q, labi shunaqa, qip-qizil ekan. Qoshini aytmaysizmi, qoshini! Xoh ishonang, xoh ishonmang, qildan ham ingichka. Bechora onasining

qornidan qoshsiz tugʻilgan boʻlsa, uyalganidan qalam bilan chizib qoʻygandir-da, deb oʻyladim. Yoʻq, razm solib qaragam, «qil»ning tagi koʻkaribroq turibdi. Dadam soqolini guzardagi sartaroshxonaga kirib, Sobir choʻloqqa oldirib kelgan kuni shunaqa koʻkarib qolishini koʻrganman. Bundan chiqdi, zangori koʻylakli xotin ham kun ora sartaroshxonaga kirib Sobir choʻloqqa oʻxshagan sartaroshga qoshini qirdirar ekan-da! Ogʻrigandir, bechoraning qovogʻi!

Xotin sariq telefonni qulogʻiga bosib, allakim bilan gaplashardi.

— Gulichka! Lyolya erini razvodga beribdi... Nima? Yoʻq, piyonistamas! A? Injener edi-da! Oladigan maoshi yoʻlkirasidan ortmasdi. Tagʻinam Lyolya bechora olti oy chidadi!

«Safimiz»ning old tomonida asabiy ovoz yangradi:

— Qizim!

Boʻynimni choʻzib, bu yoqqa qaradim. Saraton boʻlishiga qaramay telpak kiyib olgan chol tuynuk tomonga engashib hayqirdi:

— Menga qara, qizim...

— Minutochku!— xotin telefonni qulogʻidan nari surib, cholga yuzlandi:

— Joy yoʻq!

— Qizim...

— Mening otam koʻkarib chiqqaniga oʻn toʻrt yil boʻldi, — xotin telefonni yana qulogʻiga bosdi.— Gulichka eshityapsanmi? Ertaga sudga borarkan. Nima, kvartiranimi?

— Jon opa!— boyagi chol ovozini balandroq koʻtardi.

— Minutochku!— xotin ipdek qoshini chimirdi.— Mening ukam yoʻq!

— Opajon!— chol yalinishga tushdi. — Oʻgʻlim uzum sotgani kelgan edi. Bozorda qoʻlga tushib ishi sudga oshirilibdi.

— Chayqovchi jazosini olishi kerak,— xotin telefonni qulogʻiga bosdi.— Eshityapsanmi, Gulichka! A? Lyolya durochkami, kvartirani berib qoʻyadigan. Injenerning ketiga bitta tepsa...

Telpakli chol joy olishdan umidini uzdi shekilli, nari ketdi. Avval Rais buva, ketidan Shodivoy, Shodivoyning ketidan men — chamadonni koʻtargancha roppa-rosa bir qadamcha oldinga jildik. Munday orqaga qaragam, yana yigirmatacha odam toʻplanib ketibdi. Voy-boʻ, birpasda-ya!

—Lyolya Ayrapetyan bilan gaplashibdi...

Choldan keyin turgan, boshiga ro‘mol o‘ragan qop-qora xotin endi birini bo‘lib qolganiga quvondi shekilli, shang‘illadi:

— Singlim?!

— Gulichka, minutochku!— zangori ko‘ylakli xotin telefonni yana qulog‘idan uzoqlashtirishga majbur bo‘ldi. — Opam uchta!— dedi mix qoqqandek qarsillatib. — To‘rtinchi opam borligini bilmasdim.

Qora xotin balo ekan.

— Men — Qahramon onaman!— ded chertib-chertib. Bir emas, o‘nta mixni baravar qoqqandek qarsillatib tashladi. — O‘n bitta bolam bor.

Zangori ko‘ylakli xotin pinagini buzmadi.

— Tabriklayman!

— Oltinchi qizim — og‘ir kasal. ToshMIga yotqizdim. Ko‘chada to‘rt yashar kenjam turibdi.

— Qanaqa odamsiz o‘zi, yosh bolani ko‘chada qoldirib bo‘ladimi? Mashina urib ketsa buniyam ToshMIga oborasizmi? — U yana telefonni qulog‘iga bosdi, — Gulichka! Lyolya Ayrapetyan bilan gaplashibdi. Ayrapetyan aytibdi: «Ering yaxshilikcha uyini bo‘shatmasa qamatib yuboraman» debdi. Nima? — Zangori ko‘ylayli xotin quvonch bilan xitob qildi. Hatto o‘rnidan turib ketdi. — «Ji-ji?» Arabskiyimi? Yo‘q, bittamas, ikkita! Keyin... Bittagina «Adidas...» Shefingga aytsang...

Qora xotin rostdan ham to‘rt yashar bolasini mashina urib ketishidan qo‘rqdi shekilli, yerda yotgan tugun-tersaklarini ko‘tarib tashqariga otildi. Yana bir qadam surildik.

— Gulichka!— zangori ko‘ylakli xotin telefonni qulog‘iga yanayam qattiqroq bosdi.— Shefingga ayt: noinsoflik qilmasin. Shapkasini boshqalarga qo‘ysin.

Old tomondan g‘o‘ldiragan ovoz keldi:

— Opajon!

Qarasam, ayvoni katta shlyapa kiyib olgan yigit tuynukka engashib yalinyapti:

— Jon opa!

Xotin bu gal telefonni qulog‘idan olmadi. Shlyapaliga qaramadiyam. O‘ng qo‘lidagi ruchka bilan tuynukning yarmisini to‘sib turgan taxtachaga nuqib qo‘ydi. Bo‘ynimni yanayam cho‘zib qaragam, taxtaga har bittasi o‘rta barmog‘imdek keladigan harflar bilan «Joy yo‘q!» deb yozib qo‘yilibdi.

— Gulichka!— xotin sirli jilmaydi. «Ji-ji» bilan «Adidas»ni to‘g‘rilab bersang,— dedi ovozini pasaytirib,— bitta «Lama» bizdan!

— Opajon!— shlyapali yigit astoydil yalindi. — Olisdan kelganman.

— O‘zbekmisiz?— xotin bu gapni «Gulichka»ga aytdimi, shlyapali yigitgami, bilmadim. Har qalay, shlyapaliga aytgan ekan. Yigit quvonib ketdi. — Ha, opajon, o‘zbekman!

— O‘zbek bo‘lsangiz men ham o‘zbek tilida aytyapman. Joy yo‘q! Tushunarlimi?

— Axir men uzoqdan kelganman! Anjandan!

— Eh-he! Men Argentinadan deb o‘ylabman. Qirq sakkiz, Gulichka! Ikkinchi rost. Sening razmering.

Xayriyat-ey! Rais buvagayam gal keldi.

— Joy bormi? — dedi Rais buva negadir iljayib. Zangori ko‘ylakli xotin biz tomonga qaramadi. «Joy yo‘q!»— deb yozilgan taxtachaga ruchkasi bilan nuqib, davom etdi:

— Yoqmay o‘lsin! «Mister — D»dan to‘rtta kerak, Fikon bo‘lsayam mayli. Marat akamga! Yoqasi qirq bir...

— Joy bormi?— Rais buva bu gal dag‘dag‘aliroq xitob qildi.

— Savod bormi?— xotin yana taxtachaga nuqidi.

— Gulichka! Eshitdingmi, qirq bir! E, jinsini boshiga uradimi? O‘zida tiqilib yotibdi.

Rais buva taxtachani shaxd bilan yulqib olib nari surib qo‘ydi.

— Bizgayam-a!

— Minutochku, Gulichka! Bu naxallar...— to‘siq orqasidagi xotin qoshini chimirib, biz tomonga yarq etib qaradi-yu, to‘satdan yuzi yorishdi. — Iye,— dedi jilmayib. Telefonni qulog‘iga bosib, nihoyatda mayin, nihoyatda muloyim gapirdi.— Gulichka, uch minutdan keyin telefon qilaman. — Go‘shakni qo‘yib, o‘rnidan turib ketdi.

— Bormisiz, Toshmamat Alimovich! Nimaga ocherid kutib turibsiz? Bu yoqdan kelavermaysizmi?!

— Ishingiz qiyin ekan...— Rais buva og‘ir-og‘ir bosh chayqadi.

— Har kuni shu ahvolmi?

— E, shularni deb gipertonik bo‘p qoldim, Toshmamat Alimovich!— u shu qadar ozor chekib ikki chakkasini qisdiki, qo‘yib bersa hozir yig‘lab yuborgudek edi. Xayriyat, yig‘lamadi.

Kulrang telefonni ko'tarib shosha-pisha raqam terdi.

— Muxochka!— dedi ovozini pasaytiribroq.— Yetti yuz o'n to'qqizning egasi keldi.— Keyin muloyim jilmayib, Rais buvadan so'radi:— Bir o'zingizmi?

— Ko'pchilik!— Rais buva Shodivoy ikkalamizga imo qildi.— Kadrlarni olib keldik. O'qishga kirmoqchi...

Xotin bir qo'li bilan telefonni quloiga bosgan kuyi tuynukdan boshini chiqarib, avval Shodivoyga, keyin menga qaradi.

— Sizam xitirsiz!— dedi Rais buvaga qoshini uchirib.— O'g'lim bitta deb yurardingiz-ku!

Rais buva biz tomonga qarab qo'ydi.

— Bittalikka bitta! Bunisi,— deb menga imo qildi.— Bunisiyam yaxshi bola, o'zimizning kadr.

Xotin tuynukdan boshini ichkari tortdi.

— Muxa! Hozir chiqishadi. Uch kishi! Nima? Yo'q, ayollar yo'q. Menga qara! Yana bitta nomer topasan.

— Kerakmas!— Rais buva iljayib qo'l siltadi.— Kadrlarni joylashtiraylik. Men... Bilasiz-ku, Oydin! Bedananing uyi yo'q, qayga borsa pitpildiq!

— Sizam xitirsiz!— xotin qip-qizil, uzun tirnoqli barmog'i bilan po'pisa qildi.

— Yurlaring!— Rais buva qovog'ini solib Shodivoy bilan menga buyurdi.

O'rtog'im ikkalamiz jonholatda chamadonlarga yopishgan edik, Rais buvaning jahli chiqib ketdi. Mengamasu Shodivoyga o'shqirib berdi:

— Qo'y, joyiga, nokas! O'zlari obchiqadi.

Ammo o'zi qo'lidagi diplomatini tashlamadi. Shodivoy zina tomonga yo'nalgan edi, tag'in o'shqirdi:

— Shoshma, buyoqqa kel!

Negadir zina emas, allaqanday jigarrang eshik oldiga borib qoldik. Ikki ko'zim Tulporimning xurjunidek do'ppayib ketgan chamadonimda! Non bilan bo'g'irsoq, yong'oq bilan qurtlagan turshak-ku, mayli. Ammo chamadonimda dadamning kostumi bor. Onam sotib olgan paypoq bor. Bir emas, ikki juft. Birov lip etib o'marib ketsa...

Shu payt jigarrang eshik o'zidan o'zi shig'illab ochildi. Ichidan qora ko'zoynak taqqan mallasoch chol bilan xuddi qishlog'imizdagi bog'cha bolalarnikiga o'xshagan kalta ishtoncha kiyib olgan kampir

chiqib keldi. Angrayib qopman. Chol-kampirlar allaqanday tilda «ve-o-ve-o» degan nari ketdi.

— Kirsang-chi!— Rais buva qo'limdan tortib eshik ichiga olib kirdi.

Tushundim. Liftga chiqqan ekanmiz. Zum o'tmay tag'in eshik ochildi. Rais buva ixcham portfelini salanglatgan deraza oldida turgan stol tomon bordi. Xayolim chamadonimda! Yong'oq bilan turshak-ku, mayli... Paypog'im... Dadamning kostumi...

— Bormisiz, Muhabbatxon!— Rais buvaning quvonchli xitobidan hushim joyiga keldi.

Ustiga moshrang mato yopilgan, bir chekkasiga telefon, bir chekkasiga guldon qo'yilgan stol orqasida o'tirgan xotin dik etib o'rnidan turdi. Bu xotin ham xuddi pastdagi ayolga o'xshab kalta yengli zangori ko'ylak kiyib olgan, farqi shuki, gavdasi pastdagi xotonga taxminan bir yarimta kelar, ammo Shodivoyning onasidan, ya'ni hovlisida tut bargi kesganimda yiqilib tushib, yer qimirlatib yuborgan Jamila xolamdan ancha ixcham edi.

— O'zingiz kamnamosiz, o'rtoq rais!— u Rais buvaning kaftini changallab, qo'shqo'llab qisdi. Shunda bildimki, har bilagi mening sonimdan yo'qon bo'lsa borki, ingichka emas. — Eson-omonmisiz? Planlar yuzmi? Bola-chaqalar omon-esonmi?

U qo'lini har silkitganida Rais buvaning chayir gavdasi silkinib-silkinib ketardi.

Pastdagi xotin «Muxa» deganida pashshadek qiltiriq ayolni ko'z oldimga keltiruvdim. «Muxa»si shunaqa bo'lsa, fili qanaqa bo'larkin?

«Muxa» opa, ya'ni Muhabbat opa stol tortmasini sharaq-shuriq qilib ochdi-yu, bandiga tuxumdek yog'och ilgich osilgan kalitni olib, yo'l boshladi. Tavba! Shundoq semiz xotin, shunaqangi zipillab yurishini birinchi ko'rishim. Yo'lakka to'shlgan cho'g'dek gilam ustida yurib emas, uchib borayotgandek.

«Muxa» opa yo'lak adog'iga yetay deganda bir eshik oldida to'xtadi. Kalit solib, sharaq-shuriq qilib ochdi.

— Marhamat qilsinlar!— dedi yosh kelinchaklardek tamanno bilan ikki qo'lini semiz ko'ksiga qo'yib.

Avval Rais buva, keyin Shodivoy, undan keyin men ichkari kirdik. Voy-bu! Gastinsa degani zo'r bo'larkan-ku! Yerga olovdek gilamlar to'shalgan. Bir tomonda divan, bir tomonda yog'och karavot. Burchakda xolodilnik...

Xayolinga lop etib bir fikr keldi. Mayli, Shodivoy karavotda yotsin, menga divan ham bo'laveradi. Shunaqa-ku, chamadonim qayoqda qoldiykin? Yaxshiyam onam dadamdan olib bergan bir yuz o'n to'rt so'mni belimga tugib olganman. Bo'lmasa, uyam ketardi-da, qulog'ini ushlab!

Shuni o'ylab tursam, eshik jur'atsiz taqilladi.

— Da!— dedi «Muxa» opa zardaliroq ohangda.

Eshik ochilib, ikkita chamadon ko'targan, boshiga zangori shapka kiygan shopmo'ylovli kishi ko'rindi. Xayriyatey, chamadonim omon ekan!

Mo'ylovli kishi ikkala chamadonni yerga qo'yib, uf tortdi. Endi burilib ketayotgan edi, Rais buva to'xtatdi.

— Shoshma!— cho'ntagini kavlab pul chiqardi.— Rahmat!

Mo'ylovli kishi negadir xijolatli iljaydi:

— Ko'p-ku, Rais aka!

— Bo'pti, boraver!— Rais buva qovog'ini solgan edi, mo'ylovli kishi pulni changallaganicha, tisarila-tisarila yo'lakka chiqib ketdi.

Chamadonim omon-eson topilganiga quvonib ketdim. Bu yog'i-ku joyida! Shodivoy karavotda yotsa, men divanda yotsam, Rais buva nima qiladi? Xuddi shuni kuzatib turgandek, «Muxa» opa yonboshdagi eshikni ochdi. Ko'kimtir parda orqasidagi eshikni ko'rmay qopman.

— Marhamat! — dedi ta'zim qilib.— Buyog'i yotoqxona.

— Qorin och!— Rais buva yana qoshini chimirdi.

— Restoran soat yettigacha pereriv...— dedi «Muxa» opa aybdor alpozda jilmayib.— Shu yoqqa zakaz qilasizmi?

Rais buva noroziroq alpozda xo'rsindi:

— Nima bor o'zi?

— Aniq bilmadim-ku, antrikot, kavkazskiy shashlik, kiyevskiy kotlet, tabaka, mampar, lag'mon...

— Bo'pti!— Rais buva uning gapini kesdi.— Tabaka obchiq.

— Uchtami?

— To'rtta! Qorin piyozning po'sti bo'p ketdi.

«Muxa» opa negadir ketishga shoshmasdi.

— Rais aka,— dedi eshik oldida to'xtab... Qanchaga kelgansizlar o'zi?

— Men bilan ishing bo'lmasin!— Rais buva biz tomonga qarab qo'ydi. — Kadrlar... Xullas, o'qishga joylashib bir yoqlik bo'lguncha turadi. Xohlasa, bir oy, xohlasa, ikki oy.

— O‘zlari-chi, xo‘jayin?— «Muxa» opa jilmayib, qoshini uchirdi. Ikki qo‘lini o‘g‘irdek beliga tirab, qilpanglamoqchi bo‘lgan edi, yaxshi uddalay olmadi. Qorni lopillab ketdi.

— Gapni ko‘paytirmay tabakani obchiqsang-chi! — dedi Rais buva o‘shqirib.

«Muxa» opa chiqib ketishi bilan Rais buva Shodivoy ikkalamizni ichkari xonaga boshladi. Qarasam, boyagi xona buning oldida ip esholmaydi. Derazalarga pushti rang pardalar tutilgan. Ikki deraza oldida ikkita karavot, burchakda rangli televizor! Bir burchakda magnitafon.

— Iye, yaponskiy shekilli?— Shodivoy endi magnitafon tomonga yurgan edi, Rais buva baqirib berdi.

— Ahmoq! O‘qishga kirishga kelganmisan, muzika eshitishgami?..

Shodivoy xona o‘rtasida taqqa to‘xtab qoldi.

— Unaqamas-da!— dedi Rais buva sal hovuridan tushib.— Avval institutga kirib ol... Keyin... — shunday deb gurs-gurs qadam bosib, narigi xonaga chiqib ketdi. Zum o‘tmay o‘sha tomonda suv shovulladi.

...Tabaka degani shunaqangi mazali taom ekanki, bunaqasini Chiyali bozorda ham topolmaysiz. Shodivoy ikkalamiz qovurma tovuqning suyaginiyam g‘ajib tashladik-ov!

— Menga qara! — Rais buva yog‘ bosgan qo‘llarini, qalin lablarini qog‘oz ro‘molchaga artib, o‘rnidan turdi. Ertalabdan beri o‘zi ko‘tarib yurgan diplomatni Shodivoy tanlagan karavotning tagiga suqib qo‘ydi.— Yo‘qotib qo‘ysang...— dedi Shodivoyga chaqchayib.— Ichagingni sug‘urib olaman! Uqdingmi? Yostig‘ingni tagiga qo‘yib yot. Tashqari chiqsalar...— u endi menga o‘girildi.— Kalitni etajniy dejurga bermaysan!— Rais buva yelkamga qoqib qo‘ydi.— Sen pishiq bolasan-ku, tutxo‘r! Jo‘rang ahmoq!

Shodivoyga qarasam, barmog‘ini yalab o‘shshayibroq o‘tiribdi.

— Unaqamas, Rais buva, — dedim iljayib.— Shodi— malades!

— Bo‘pti!— Rais buva o‘rnidan turdi.— Mening zarur ishlarim bor. Ertalab kelaman. Eshikni qulflab ollaring. Kalit og‘zida qolsin. O‘shanda birov kirmaydi.

Shunday dedi-yu chiqdi-ketdi. Shodivoy menga qaradi. Men Shodivoyga.

— Eshikni qulfladingmi?— dedi Shodivoy qo‘rqa-pisa.

— Qulfladim.
— Kalit og‘zida qoldimi?
— Qoldi. Sal chaproq tomonga burib qo‘ydim. Shodi...
— Endi nima qilamiz, Qo‘sho?
— Televizor ko‘rmaymizmi? Toshkentda boshqacha ko‘rsatsa kerak.

— Dadam bilib qolsa, o‘ldiradi.
— Muzika eshitamizmi?
— O‘ldiradi.
— Ko‘chani tomosha qila qolaylik, Shodi.
— Mayli-i-i!

Ikkalamiz deraza pardasini ochib, ko‘chani tomosha qila boshladik. Hammayoq chiroq! Mashinalar shovullab o‘tadi. Allaqayoqda tramvay g‘iyqillaydi. Pastdan, birinchi qavat tomondan «gumbir-gumbir», «vosh-vosh» degan sado keladi. Restoranda o‘yin-kulgi bo‘lyapti, chog‘i. Ro‘paradagi bog‘ ichi charog‘on. Bog‘ o‘rtasidagi pushtirang yozuvga ko‘zim tushdi: «Morojennoye».

— Shodi-i!— dedim sekin.— Morojniy yemaymizmi? Menda pul bor. — Gapimning isboti uchun belimni qashlab qo‘ydim. Shuncha pulni belga bog‘lab yurish oson emas ekan. Ertalabdan beri biqinim qichishadi.

— Iloji yo‘q, Qo‘sho! — o‘rtog‘im xo‘rsindi.— Ertaga...
— Bo‘lmasa uxlay qolaylik.
— Mayli...

Chiroqni o‘chirib yotdik. Shodivoy u derazaning tagiga, men bu derazaning tagiga. Uyqu kelsa qani? Darpardani tortib qo‘yganimiz bilan Shodivoyning ham, mening ham yostig‘im ustiga bir tutamdan nur tushib turibdi. Nuqul bugungi voqealarni eslayman. Tulporim bilan xayrlashganim. Onamning yig‘lab qolgani, samolyot, bulutlar. Qoshini sartaroshga oldirgan xotin, «Muxa» opa... Bir mahal Shodivoyning karavoti g‘irchillay boshladi.

— Shodi,— dedim boshimni ko‘tarib.— Nima qilyapsan?
— Dadam aytdi-ku! Yostig‘imning tagiga qo‘yib yotmasam...
— Jo‘ram avval yostiqni ko‘tarib, boyagi diplomatni joylab ko‘rdi. Keyin, ko‘ngli o‘rniga tushmadi, shekilli, to‘shak qatini ochib, diplomatini qo‘ydi. Ustidan to‘shak yopdi. Uning ustidan choyshab yoydi. Ustiga yostig‘ini bosdi.

Shoshma! Rais buva Shodivoyni bekorga ogohlantirdimi?

Mening chamadonimdagi narsalar unikidan kammi? O'n oltita patir, bir to'rva bo'g'irsoq, yarim to'rva yong'oq, yarim to'rva qurut... Eng muhimi dadamning kostumi, paypoq...

Men ham o'rnimdan irg'ib turdim-da, yalang'oyoq shipillab borib, shkafni taraq-turuq ochdim. Chamadonimning bandidan ikki qo'llab ko'tarib kelib, yostig'imning tagiga bosdim.

— Nima qilyapsan, Qo'sho? — dedi Shodivoy pichirlab.

— Chamadonimni ehtiyot qilyapman, jo'ra,— dedim men ham pichirlab.

To'g'ri-da! Gastinsani o'g'ri bossa, Rais buva yo'q. Shodivoyning kichkinagina diplomatini o'g'irlaganda mening hurjundek chamadonimni sog' qo'yarmidi?

Boshimni yostiqaqqa tashlaganimni bilaman. Do'q etgan ovoz eshitildi. Gardanim chunonam zirqillab ketdiki, aftim olmaqoqidek bujmayib ketdiyov. Bo'ynimni silab-silab bu gal yostiqaqqa boshimni sekinroq tashladim.

— Uxlaymizmi, Shodi...— dedim pichirlab.

— Mayli, Qo'sho...

Shu Toshkent deganiyam xo'p serg'alva shahar ekan-da! Ko'cha to'la shov-shuv, vag'-vug'. Xonamiz zirillaydi. Hammasiyam mayli-ku, yotibmanmi, o'tiribmanmi, o'zim bilmayman. Yostiq ostidan chamadonim g'o'dayib turibdi. Gardanim haliyam zirqillayapti. Oxiri ko'zim ilinibdi. Bir mahal allaqanday shatirshutir tovushdan uyg'onib ketdim. Tovush chap tomondan kelar edi. Avvaliga qayerda yotganimni bilolmadim. G'alati tovush esa, hamon shipillardi.

— Olti ming bir yuz yigirma besh... Olti ming bir yuz ellik, olti ming bir yuz yetmish desh... Olti ming bir yuz sakson besh... Olti ming ikki yuz o'n...

Sekin o'girilib qaragam, Shodivoy karavotida chordona qurib o'tiribdi. Kun bo'yi Rais buva qo'lida ko'tarib yurgan diplomatning og'zi ochiq. Derazadan tushib turgan bir tutam nur ostida karavotda yuz so'mlik, ellik so'mlik, yigirma besh so'mlik, xullas, bir quchoq pul yotibdi. Shodivoy g'ayrat bilan sanayapti.

— Yetti ming yigirma besh. Etti ming ellik.

— Mengayam oshir!

Uyqusirab turganim uchunmi, ovozim shunaqangi do'rillab chiqdiki, o'zim ham qo'rqib ketdim.

Shodivoy pul sanashdan to‘xtab qoldi. Ichidan inraganga o‘xshagan ovoz chiqdi. Keyin «dod» dediyu o‘zini diplomat ustiga tashladi. O‘sha zahoti to‘shakda yoyilib yotgan pullar esiga tushib qoldi shekilli, patir-putir qilib pullarni changallab, maykasining ichiga tiqishga tushdi.

— Voy-dod! O‘g‘ri!

Battar qo‘rqib ketdim. Sapchib o‘rnimdan turib, chiroqni yoqdim. O‘rtog‘imning rangi quv o‘chib ketgan, tutqanoq tutgan odamdek oyoq-qo‘lini baravar tipirlatib, pullarni yashirishga urinyapti.

— Shodi!— dedim baqirib.— Esing joyidami?

Stol ustida turgan grafindan stakanga suv quyib avval yuziga sepdim. Keyin ichirdim.

— Kim?— Shodivoy tishlari taqillab, stakandagi suvdan besholti qultum g‘o‘lqillatib ichganidan keyingina rangi sal o‘ziga keldi.— Kim, Qo‘sho?— dedi hamon titrab.— Pulingdan ber, deb kim aytdi?

— E, o‘le!— jo‘ramning yalang‘och yelkasiga qarsillatib sobqoldim.— Puling bilan qo‘shmozor bo‘le!

— Menikimas...— Shodivoy ko‘zimga iltijoli termuldi.— Dadam aytgan. Domlaniki... Sanashib yuborasanmi?

— Uxla!— dedim to‘ng‘illab.— Ertaga sanaysan!

— Jon Qo‘sho... — Shodivoy hamon titragancha yalindi.— Dadamga aytmagin, xo‘pmi? Papkani nega ochding deb o‘ldiradi!

O‘ninchi bob

DOMLAJONNING «XATOSI»

Ertalab bo‘ynim og‘rib uyg‘ondim. Xona to‘ridagi toshoynaga qaragam, boshim chap yelkamga yopishib qopti. Bundan chiqdi, yonboshim bilan yotgan ekanman-da! Muttasil qichishayotgan biqinimni qashlagan edim, qo‘lim do‘ppayib turgan tugunchaga tegdi. Tugun badanimga botib, chuqurcha qilib yuboribdi.

Ro‘molni yechib, pulimni sanab ko‘rdi. Joyida: bir yuz o‘n to‘rt so‘m. Shoshma, qiynalib nima qildim? Kissamga solib qo‘ya qolsam bo‘lmaydimi?! Zo‘r kelsa, qo‘limni cho‘ntagimga suqib yura qolamanda! Shodivoyni uyg‘otish qiyin bo‘ldi. Yuvinish uchun vannaxonaga kirib ketayotganida bundoq yuziga qaragam,

aftini ko'rib bo'lmaydi. Hamma yog'iga uchuq toshib ketibdi. Kechasi yomon qo'rqqan ekan, sho'rlik!

Chamadonimni ochib, ikkita patir, bir hovuch turshak, yong'oq, to'rtta qurut oldim. (Xayriyat-ey, qardron xurjunim sal-pal «ozdi»).

— Ana endi bir choynakkina ko'k choy bo'lsa...

Gapim og'zimdanda chiqmasdan eshik taqilladi. Chopib bordim:

— Rais bova...

Eshik ortidan qo'ng'iroqdek ovoz keldi:

— Zavtrak!

Angrayib qopman. Nima balo, cho'pchaklardagi sehrli saroyga kirib qolganmizmi? Nimani xohlasang, og'zingdan chiqmasdan muhayyo qilishadi.

Kalitni burab, eshikni ochsam, beliga oppoq peshband bog'lagan nozikkina, chiroylikkina qiz yaltiroq tutqichli aravacha bandidan ushlab jilmayib turibdi.

U bir zumda stol ustini to'ldirib tashladi. Ikki stakan qaymoq, to'rtta non, ikki choynak choy, ikkita ishkalat, pishloq... Hatto o'rtacharoq lagandek keladigan tort ham bor. Yana ikkita talinkada to'rtburchak perashkalar.

— Go'shtli blinchik...— dedi qiz jilmayib.

Aravachasini g'ildiratib eshik tomon yurgan edi «boyvachchaligim» tutib ketdi.

— Qancha bo'ladi?— dedim Rais buvaga o'xshab, cho'ntakka qo'l suqib.

— Puli to'langan...— oldiga peshband taqqan qiz eshikda to'xtab, shiringina jilmaydi.

— Choyingiz to'qson beshmi?

— Ikki xil, — qiz bu safar ensasi qotibroq iljaydi.— Bittasi qora— indiyskiy. Bittasi ko'k.

Vannaxonadan yelkasiga sochiq tashlagan Shodivoy chiqib ketdi.

— O'tir, zaptrik qilamiz, — jo'ramni qo'lidan sudrab stol oldiga obordim.

Qaymog'i biram yog'li, nonlari biram issiq, to'rtburchak somsasi biram mazali... Men-ku, noz-ne'matlarni pok-pokiza tushiryapman. Qarasam, Shodivoy, kechasi bexosdan tagini ho'llab qo'ygan boladek bo'zrayib o'tiribdi.

— Yemaysanmi— dedim somsaga imo qilib. — Qiymasini

o'xshatib qovuribdi.

— Yeyolmayman!— jo'ram og'zini kafti bilan bekitib ming'illadi. — Labim achishyapti.

Bechora! Yuvinganida ikki labining burchidagi uchuqlar qonab ketibdi.

— Og'zimni ocholmayapman, Qo'sho...

— Oldin qaymoqni ichgin, Shodi! Labing yog'lanib, o'zidan-o'zi yo'li ochilib ketadi.

...Nonushta qilib bo'lgach, dars tayyorlashga o'tirdik. Ya'ni, shpargalkalarni o'qib chiqq boshladik. To'g'ri-da, birinchi imtihon yozmadan — insho. Maktabdagi adabiyot ma'limimiz ham rosa g'ayrat qipti, o'zi. O'n oltita inshoni ipga tergandek yozib tashlabdi. Alisher Navoiyning «Xamsa»sidagi «Farhod va Shirin» dostoni, G'ofur G'ulomning «Sen yetim emassan» she'ri, Abdulla Qahhorning «Shohi so'zana»si, «Hamid Olimjon — baxt kuychisi», yana allaqancha insholar. Erkin mavzularni atmaysizmi? «Tinchlik — bizning hayotimiz», «Mehnat— mening baxtim», «Vatanimni sevaman», «Men sevgan kasb»... Xullas, o'n oltita.

— Qo'sho...— dedi Shodivoy uchuq toshgan labini arang qimirlatib.— «Qutlug' qon» tushsa yaxshi bo'lardi. Shu oson.

Ma'limimiz yozib bergan insholar orasidan «Qutlug' qon»ni topdik. To'rt yarim bet ekan.

— Kamroqmasmi, Shodi?— dedim ikkilanib.

— Yana nimani qo'shasan?

— Yanami?— o'ylab qoldim. Bilag'onligimni ko'rsatib qo'ygim keldi.— Masalan, Yo'lchi paxtada ishlaydimi? Ma'lum «Yo'lchi to'nka kavlaydi, g'o'za sug'oradi» debdi. To'nka kavlashning paxtaga qanday aloqasi bor?

Shodivoy, yana nima qo'shsa bo'ladi, degandek ko'zimga termuldi.

— Masalan, yagana qiladimi? O'toq qiladimi? Chopiq qiladimi? Chekanka-chi? Paxta terib, podbor terish, varaxaga ko'rak tashlash... Shular ham mehnat-da!

Qizishib ketib, jo'ramga insho qanday yozilishini shunaqangi baqirib tushuntira boshlabmanki, eshik ochilib, Rais buvaning kirib kelganini ko'rmay qopman.

— Eshikni qulflab o'tirlaring demabmidim?!

Rais buvadan rosa dakki yeymiz deb qo'rqib ketdim. Yo'q, razm solsam, urishadigan holi yo'q. Kechasi bilan ko'pkarida

uloq chopgan ayg'ir otdek so'ljayib qopti. Rangi bir holatda. Nazarimda ko'zlari yumilib-yumilib ketayotgandek.

— Zaptirka berdimi?— dedi cho'zib-cho'zib esnab.— Yaxshi! Kiyinlaring. Bir joyga boramiz...

. . .

Toshkent shunaqangi katta shahar ekanki, taksida bir soat yursak ham oxiri ko'rinmadi! Yurib-yurib ikki cheti olchazor ko'chaga kirdik, pishiq g'ishtdan qurilgan, derazasiga temir panjara tutilgan uy ro'parasida to'xtadik. Rais buva pushtirang sirli bo'yoqqa bo'yalgan darvoza tomon yurdi. Shodivoy ikkalamiz biyaning ketidan ergashgan toychoqlardek zing'illadik. Rais buvaning darvozasiniyam maqtab yurgan ekanman-da! Darvoza degan mana bunaqa bo'ladi! Rais buvanikiga tank sig'sa, xoh ishonang, xoh ishonmang, bu darvozaga osmondan uchib tushgan gurzovoy samolyot pir etib kirib ketaveradi!

Rais buva darvoza burchagidagi tugmachani bosgan edi, ichkaridan «blyum-blyum» degan ovoz keldi. Rais buva bir qadam orqaga chekinib, kaftini og'ziga bosgancha huzur qilib, esnab qo'ydi. Ichkaridan javob bo'lavermagach, borib yana tugmachani bosdi. Qo'ng'iroq biyron jiringlab ketdi. «Blyum-blyum-blyum».

Darvoza qiya ochilib, yaltiroq, guldor xalat kiygan novchagina, ko'hlikkina xotin mo'raladi.

— Kelinglar...—dedi ikkilanibroq.

— Assalom alayke-em, yanga! («Ferma tog'a» Rais buvaga qanaqa salom bersa, Rais buva ham «yanga»ga shunaqa salom berdi)— Assalomalay-ke-em! Yangajon! Salomat omongina bormisiz? Eshik-ellar, kadrlar yaxshimi?

— Rahmat!— «Yanga» xavotirlanibroq hammamizga bir-bir qarab chiqdi.

Rais buva uning unsiz savolini tushundi, chog'i, iljayib so'radi:

— Domla uydamlar?

— Yo'g'iydilara!— «Yanga» afsus-nadomat bilan bosh chayqadi.

— Qayoqdalar?

— Leningradga ketganlar.

— Qanchaga?

— Ikki oyga. Pavisheniyaga.

— Iya, yangajon, katta domlayam pavishena qiladimi?

«Yanga» tag'in hammamizga birma-bir qarab chiqdi.

— Qachon qaytadilar?— dedi Rais buva ovozi bala dlatib.

— Sentyabrning oxirlarida kelib qolsalar kerak.

— Domla Leningradga pavishenaga ketgan bo'lsalar, sentyabrda qaysalar aytib qo'ying, yanga! — dedi Rais buva shang'illab.— «Mash'al» kolxozidan rais jo'rangiz kelib-ketdi, bugun kechqurun soat o'nda yana kelarkan, zarur yumushi bormish, deng, uqdingizmi?

«Yanga» olazarak bo'lib, u yoq-bu yoqqa qarab oldi.

— Sekin-e!— dedi tahdidli, ammo past ovozda.— O'n ikkidan keyin...— U bir zum jimib qoldi-da, norozi to'g'illadi.— Taksini eshik oldigacha obkelishga balo bormi!

— Bo'ldi yangajon, benavat!— Rais buva mamnun iljaydi.— Yurlaring!— dedi-yu, Shodi ikkalamizni yetaklab nariroqda poylab turgan taksiga qaytadan o'tqazdi. Allaqaysi bekatga borganda mashinani to'xtatdi.

— Bularni boyagi joyga oborib qo'yasan!— dedi shopirga pul uzatib.— Uqdingmi?— o'zi «diplomati»ni olib, tushib ketdi.

Taksi gatinisa oldida to'xtashi bilan jo'ramga yalindim.

— Bittagina morojniy yeylik, Shodi.

— Pulim yo'q-da, Qo'sho,— dedi Shodivoy mung'ayib.

— Biz-da, pulning koni, jo'rajon!— pul tugulgan ro'mol solingan cho'ntagimni shapatilab qo'ydim.

Ro'paradagi bog' ichiga kirdik. Salqin maydonchaga oppoq, yumaloq stollar qo'yilgan. Odamlar to'rta-to'rttadan o'tirib olib, yaltiroq likopchalardagi morojniyni uryapti.

— Sen joy olib tur!— dedim Shodivoyga. O'zim o'ntacha odam orqasidan ochiridga turdim. Yumaloq, oynavand uycha ichida o'tirgan oppoqqina, do'mboqqina xotin (har kuni tekin morojniy yeydi-ku, do'mboq bo'lmaydimi?) har minutda «sleduyushiy» deb turibdi. Morojniysi ham o'zimizning xloppunkt oldida sotiladigan muzqaymoqqa o'xshamaydi. Rangi boshqacharoqmi-ey!

Morojniychi xotinning ishiyam oson ekan. Biz tomonlarda morojniyni toroziga solib tortib beradi. Bu xotin to'rtburchak yaltiroq qutining tutqichini bir aylantirsa, likopchaga morojniyning o'zi buralib-buralib tushadi-yu, gulga o'xshab qoladi. Semiz xotinning qo'li-qo'liga tegmaydi. Likopchaga tushgan morojniy ustiga bir qoshiq ishkalad kukuni, bir qoshiq qip-qizil sharbat, yana bir chimdim chaqilgan yong'oqmi-ey allanima, sepadi-da,

tuynukdan uzatadi.

— Sleduyushiy!

— Ikki pors!— dedim yaqin borib.

Xotin bir zumda ikki likopcha to‘la morojniyni tuynukdan uzatdi.

— Sleduyushiy!

Obbo! O‘zim ham qiziqman-da! Hali pulni sanaganimda ishtapil ro‘molni shunaqangi chandilab bog‘lagan ekanmanki, yechaman deb tirnoqlarim ko‘chib ketdi.

— Sleduyushiy!— xotin betoqat bo‘lib, qo‘lidagi qoshiq bilan peshtaxtani urib qo‘ydi. Tugunchani tishim bilan yechishga urinib yotganimda kimdir orqamdan turti:

— Surilsang-chi, hoy!

Esi joyidami, pul to‘lamay, qayoqqa surilaman! Xayriyat, tugunni yechdim.

Ertalab labi achishib, og‘zini ocholmagan Shodivoy morojniyni ko‘rishi bilan ishtahasi shunaqangi karnay bo‘lib ketdiki, likopchaga to‘rt marta qoshiq botirib, lo‘q etib yutib qo‘ya qoldi. Shu, Shodivoy ham g‘irt savodsiz-da! Morojniy yeyishni anavi qizlardan o‘rgansa bo‘lmaydimi? Narigi stolda ikkita qiz o‘tiribdi. Qoshiqning uchiga jichcha morojniyni ilib oladi-da, nozikkina pushtirang tilini chiqarib, yalaydi. O‘zlariyam chunonam ketvorgan, chunonam oppoq. Ikkalasiyam atlas ko‘ylak kiygan. Ko‘ylagi shunaqa kaltaki, do‘mboqqina boldirlari ko‘rinib turibdi.

Eson-omon o‘qishga kirib olay. Kattaroq domlanning ketvorgan qizi meni sevib qoladi. «Qo‘shovoy akajon!»— deb bo‘yninga osiladi — «sizsiz o‘lib qolaman»,— deydi. «Yig‘lama,— deyman oppoqqina yuzini silab.— Mayli senga uylanaman...». «Dadamga aytaman, bizga uy olib beradi. Ikki xonali» deydi. «Yo‘q,— deyman oyoq tirab,— qishloqqa ketmasak bo‘lmaydi. Kelin bo‘lganingdan keyin ota-onamning xizmatini qilishing kerak-da!», «Mayli, besh xonali», deydi u yalinib.

Xayol surib ketgan ekanman, boshim ustida birov g‘o‘ldiradi:

— Bo‘ldingmi, hov bola! Joyni bo‘shat.

Qarasam, tepamda ingichka mo‘ylov qo‘ygan yigit ikki qo‘lida ikkitadan to‘rtta likopcha ko‘tarib turibdi. Yonida uchta qiz. Mening bittayam «qizim» yo‘g‘-u, buniki uchta! E, o‘l ochofat! Jillaqursa ikkitasini ber, Shodivoy bilan menga. Iya, Shodivoy qani? Allaqachon morojniyni yeb bo‘lib daraxt tagiga borib

olibdi-ku! Boyagi qizlar qani? Osmonga uchib ketdimi?

— Endi dars qilamiz!— dedi jo‘ram gastinisa tomon sudrab.

• • •

Yarim kechadan oshganda Rais buva bizni ergashtirib yana «katta domla» jo‘rasining uyiga olib bordi. Faqat bu safar taksiga ko‘cha boshida javob berib yubordi. Ikki tomonda olcha daraxtlari saf tortgan, simyog‘ochlardagi lampochkalardan ola-chalpoq nur to‘kilib turgan jimjit ko‘chadan o‘tib, o‘sha qadrdon darvoza oldida to‘xtadik. Bu safar qo‘ng‘iroq ikki marta jiringlashi bilan darvoza qiya ochildi. «Katta domla» deganda tilla ko‘zoynak taqadigan, tilla hassa tutib yuradigan, sochlari oqarib ketgan odam xayolimga kelgan edi. Yo‘q, televizorda ko‘rsatadigan gimnastikachilarnikiga o‘xshagan sport kiyimi kiyib olgan kishi darvoza peshtoqida yonib turgan lampochka nurida jilmayib turardi. Chamamda «katta domla»ning yuzidan ham nur yog‘ilib ketgandek bo‘ldi.

— E, Toshmamat aka, xush kelibsiz!— «Katta domla» shunday deb Rais buvaning qo‘lini qisdi. Hatto Shodivoy ikkalamiz bilan ham qo‘l olishib ko‘rishdi.

— Salom, yigitlar, salom!— dedi muloyim kulimsirab.

Usti yopiq darvozaxonaga kirishimiz bilan bir burchakda yotgan, qulog‘i dikkaygan itni ko‘rib etim jimirlashib ketdi. O‘ziyam Tulporimning yarmichalik kep qolar-ov! Yechilib ketsayam g‘ajiydi-da odamni! Yo‘q, it jonivor kechasi kelib-ketadigan bizga o‘xshagan mehmonlarga o‘rganib qolganmi, zanjirini shiqillatib, boshini bir silkib qo‘ydi-yu, og‘zini ochib esnadi. Har bittasi o‘rtacharoq qoziqdek keladigan tishlari chiroq nurida yiltirab ketdi. Obdan esnab bo‘lgach, yonboshidagi guldor tog‘orachada yotgan yarimta tortni bir-ikki iskadi-da, ensasi qotib uzala tushib oldi. Yo tavba, aqalli nomiga bo‘lsayam bir marta «vov» deb qo‘ymadi-ya!

— Kesinlar, Toshmamat aka, kesinlar!— «Katta domla» ildam qadamlar bilan hammamizni hovliga boshlab kirdi. Hovlimas, naq jannatning o‘zi! Ayvon peshtoqidagi o‘qlovdek uzun, oppoq chiroq nurida hovlidagi anvoyi gullar tovlanib yotibdi. Tunuka tomga tutashib ketgan baland-baland so‘rilardan uzum boshlari mo‘ralaydi. Uzumga kul tushganini darrov payqadim. Xomtokni chala qilgan-da. Olim bo‘lgani bilan dehqonchilikni bilmaganidan keyin shu-da.

«Katta domla» hovli burchagidagi olma tagiga, naqshinkor soʻri oldiga boshladi:

— Laylo, qizim, bitta choy tashkil qilinglar.

Rais buva diplomatini soʻri burchagiga qoʻyib, toʻrga chiqdi. Biz pastroqqa choʻkkaladik.

— Yigitlarni obkepsiz-da, Toshmamat aka!— «Katta domla» Rais buvaga qarab yana kulimsiradi. Shundagina uning judayam yosh emasligini, sochiga oq oralaganini, kulganda yuzi besh yil burun qazo qilgan momomning mahsisidek tirishib ketishini payqadim.

— Kadrlar oʻqisin debsiz-da? E, malades! Malades!

— Endi, domlajon, bizlar oʻqiyolmadik!— Rais buva chordana qurib joylashibroq oʻtirib oldi. — Plan dedik, xoʻjalikni mashʼal qilamiz dedik... Jillaqursa kadrlar olim boʻlsin-da endi.

— Zap oʻylabsiz-da!— «Katta domla» avval soʻri burchagida yonboshlab turgan «diplomat»ga, keyin menga, undan keyin Shodivoyga, ana undan keyin Rais buvaga qaradi.— Malades,— dedi-yu ovozi negadir hazinroq chiqdi. Chamasi, bu «kadr» larning qaysi biriga yordam berishim kerak, demoqchi boʻldi.

Shu payt orqa tomonda ship-ship qadam tovushi eshitildi. Munday qaragam, yuzi sutdek tiniq, qop-qora sochlari yelkasiga yoyilgan qiz kumush patnischa koʻtarib kelyapti. Ichimdan uzundan-uzoq xoʻrsiniq toshib ketdi. Voy-boʻ! Shunaqayam chiroyli qiz boʻlarkan-da jahonda! Oʻziyam chunonam nozikki, suv ichsa tomogʻidan, sabzi yesa biqinidan koʻrinadi-ya! Boyagi morojniyoʻr, qizlar buning oldida nima boʻpti! Mana-da, dadajonimning boʻlajak kelini! Oʻqishga kirib olay, Layloxonning boshini shunaqangi aylantirib tashlaymanki! Avval uzumlarini xomtok qilaman, gullarini sugʻoraman. Keyin sekin-sekin... Qarabsizki, boʻynimga osilib yigʻlaydi. «Jon, Qoʻshojon aka...» Dadamga — bu yoqqa joʻnayotganimda xayrlashmagan, «oʻgʻling bir haftada toʻrvasini koʻtarib qaytib keladi» degan dadamga koʻrsatib qoʻyamiz. «Dadavoy, mana» keliningiz bilan tanishib qoʻying!» deymiz. «Uncha-muncha odam emas, naq eng katta domlaning oʻzlari bilan quda boʻldingiz, endi xohlasam, hamma qarindosh-urugʻlarni Toshkanni eng zoʻr institutlariga joylayveraman» deymiz!

Shunaqa-ku, kelin boʻlmish sal ozgʻinroqmi? Ziyoni yoʻq. Keyin semirib ketadi. Kiyinishiyam... A? «Katta domla»ning oʻziga oʻxshab «sportivniy» kiyim kiyib obdi. Mayli, esli qizga oʻxshaydi. Tushuntiramiz. «Layloxon, qishloq joyda bunaqa kiyinib yurish

uyat bo'ladi. Enam xafa bo'ladi. Sigir sog'ish bor, tomorqa bor...».

Layloxon zinalardan lip etib so'riga chiqdi-da, salom berdi. (Ovozi muncha shirin! Boya «blyum-blyum» qilgan qo'ng'iroqni o'zi-ya!)

— Vallyaykum assalom! Baxtli bo'ling, qizim...— Rais buva iljayib alik oldi. Obbo, o'zining Shodivoyiga mo'ljallab qo'ydi shekilli! Ko'ramiz, kim olg'irroq ekan. Menmi, Shodivoymi?

Layloxon zinadan lip etib tushdi-yu, chopqillab uy tomonga ketdi. Qomatni qarang!

— Qani, osinlar... — «Katta domla» non ushatdi. Choy quydi. Qand-qurs, bodom, asal solingan billur idish to'la patnischaga imo qildi.— Marhamat.

Asalni boshimga uramanmi? Ikki ko'zim Layloxon kirib ketgan uyda. Qarasam, Shodivoy ham o'sha tomonga qarab ko'zini lo'q qilib o'tiribdi. Voy, ko'nglingning ko'chasidan o'rgildim! Biqiningga sop qolaymi?

— Layloxon qizim nechanchi sinfga ko'chdi?— dedi Rais buva choy xo'plab.

«Katta domla» kuldi.

— Bu yil to'rtinchi kursga boradi. O'zimizda o'qiyapti. Pavisheniy stipendiya oladi.

Nima? Shiringina xayollarim bir zumda alg'ov-dalg'ov bo'p ketdi. Layloxon to'rtinchi kursga borsa... bundan chiqdi mendan kamida ikki yosh katta ekan-da. Men uni nari borsa sakkizinchi sinfga ko'chgan desam... Mayli, bizga singlisiyam bo'laveradi. «Katta domla»ning qizi bitta emasdir, axir!

— Xo'sh...— «Katta domla» boya uzilib qolgan gapini davom ettirgisi keldi shekilli, bir menga, bir Shodivoyga qarab, dangaliga ko'chib qo'ya qoldi,— Xullas, Toshmamat aka, qaysi biri kirmoqchi bizning fakultetga?

— Bizning kadr bunisi!— Rais buva Shodivoyga imo qildi.— Mushtdek bolaligidan so't bo'laman, deydi. Bo'lmasa-ku boshqa joylardayam sizga o'xshagan qadrdonlar ko'p.

«Katta domla», «bo'lmasa manavi nega ergashib yuribdi» degandek chimirilib qarab qo'ydi.

— Buyam o'zimizning xo'jalikni bolasi. Otasi qo'li qisqaroq odam-ku, o'zi durust bola. Bizni Shodivoy, jo'ramniyam obormasangiz o'qishga kirmayman, deb turib olsa bo'ladimi?

«Katta domla» xo'rsindi. Nimaga xo'rsinganini tushunmadim.

«Bir bolangni-ku olib kelding, ikkinchi dardisarga balo bormidi» demoqchi bo'ldimi, yo otasining qo'li qisqaroq degan gap yoqmadimi, xullas, bilmadim.

— Toshmamat aka,— dedi «Katta domla» jiddiy ohangda.— Hozir zamon nozik. Birinchidan bizga mehnat staji borlar kiradi.

— Bor-da o'sha istaj!— Rais buva darrov uning gapini kesdi.— Bularga yettinchi sinfdan boshlab mehnat daftarchasi ochilgan. Ikkalasiyam mehnatdan qochadigan bolalar! Eson-omon kirib olsa ko'rasiz. Paxta terimida eng peredovoyi shular bo'ladi.

— To'g'ri-ku!— «Katta domla» qiyshayib yotgan diplomatga zimdan qarab qo'ydi.— Imtihon komissiyasi ja strogiy! Har tomonlama sinovdan o'tkazadi.— U biz zum o'ylanib turdi-da, to'satdan so'rab qoldi. — Qani, aytinglar-chi, yigitlar: qu sakkiz yuz sakson besh kvadrat ildizdan pi bir yuz o'ttiz uch kub ildizni ayirsa qancha bo'ladi?

Og'zim lang ochilib qoldi. Nima deyapti bu? Men Shodivoyga qaradim. Shodivoy menga...

To'satdan pulim esimga tushib qoldi. Cho'ntagimni paypaslab ko'rdim. Tugun joyida, Shunaqa-ku, peshinda ikkita muzqaymoq oldim. Semiz xotin qancha qaytim berdi?

— Endi, domlajon...— dedi Rais buva. — Bular «qu-pu»ingizni biladimi. Esini tanibdiki, daladan beri kelmaydi. Qolaversa, hisob fakultetiga kirayotgani yo'q-ku.

— Baribir...— «Katta domla» qovog'ini soldi.— Hozirgi kunda yuridika eng pristijniy soha. Talabgorlar ko'p. Keyin... umuman... adliya xodimi hamma narsani bilishi shart. Tarixniyam, matematikaniyam, ekonomikaniyam.

— Pul sanashni,— deb qo'ydim dadamning gapi esimga tushib. «Katta domla» men tomonga xavotirlanibroq qarab oldi. Rais buvaga shunaqangi ta'na-malomat bilan o'qraydiki, o'zim ham qo'rqib ketdim.

— Ammo Shodivoy— zehqli bola! — dedi Rais buva shoshapisha.— Ko'rasiz, domlajon, ishonchingizni bir yuz ellik prosent oqlaydi. Qolaversa, bu yoqda o'zimiz turibmiz.

...Shodivoy ikkalamiz nimqorong'i ko'cha boshida Rais buvaning chiqishini poylab ancha turib qoldik. Oxiri Rais buva «Katta domla»ni insofga keltirdi, shekilli, yengil tortibroq chiqdi. O'zi ham, qo'li ham...

— Birpas gapga aralashmay tursang o'larmiding, tutxo'r! — dedi menga ho'mrayib. Ammo boshqa koyimadi. — Qattiqroq

tayyorlanlaring. Ekzamenni Begmatov degan odam olarkan. Domla aytib qo'yadigan bo'ldi. Begmatovning o'zi senlarni topib oladi.

...Begmatov degani yuzi qoshiqdekkina, ko'zoynagi piyoladekkina kishi ekan. Bir kuni konsultatsiyadan keyin Shodivoyga imo qilib, «sen qol» dedi. Meni unutib qo'ydi-yov! Hamma chiqib ketganidan keyin Shodivoy ikkalamiz auditoriyada qoldik.

— Sen nima qilib o'tiribsan? — dedi Begmatov ko'zoynagi ustidan menga o'qrayib.

— Buyam o'qishga kirmoqchi!— Begmatov menga qanaqa o'qraygan bo'lsa, Shodivoy ham unga shunaqa o'qrayib qaradi.

— Bo'pti!— Begmatov Shodivoyning qog'oz papkasidan ma'limimiz yozib bergan insholarni olib tekshirib chiqdi. Ba'zi joylarini tuzatdi.— O'qituvching pishiq ekan, — dedi xursand bo'lib.— Bexato ko'chirsang, «besh»ga tortadi. Ertaga oxirgi qatorga o'tir.— Shunday dedi-yu, chiqdi-ketdi.

...Mana, o'tiribmiz oxirgi partada! Omadni qarangki, xuddi o'sha «Qutlug' qon» tushsa deng. Kattakon auditoriya jimjit. Yuzdan ortiq yigitlaru qizlar shipillatib insho yozib yotibdi. Narigi qator oralab keksaroq xotin, bizning qator tomonda Begmatov u yoqdan bu-yoqqa borib-kelib turibdi. Ma'limimiz yozib bergan inshoni o'rta qo'yib olganmiz. Uyoqdan Shodivoy ko'chiradi, bu yoqdan men.

Endi uchinchi betga o'tgan edik, o'rtaroqda shovqin-suron bo'lib ketdi.

— Tur o'rningdan!—dedi Begmatov dag'dag'a bilan. — Cho'ntagingni ko'rsat. Unisimas, chap cho'ntagingni!

Eskiroq do'ppi kiygan yigit talmovsirab o'rnidan turdi.

— Ko'chirganim yo'q, domla,— dedi yalinib.— Men erkin tema yoz yapman. Unaqasi yo'q menda.

— Manavilar shpargalka bo'lmay nima?

— Ishonmasangiz qarang! Menda unaqasi yo'q!—yigit bechoraning rangi oqarib ketdi.

— Chiqib ket!

— Domlajon! Men uch yildan beri kelaman,— yigit alam bilan yer tepindi.—Ko'chirganim yo'q. O'zim yaxshi bilaman bu mavzuni.

— Yanagi yilga to'rtinchi marta kelasan! — Begmatov do'ppili yigitning yozayotgan narsasini olib, ikki bukladi. Shoshilmasdan

cho‘ntagiga tiqdi-da eshikni ko‘rsatdi.

— Marsh!

Voy-bo‘! Domlajonning achchig‘i yomon ekan-ku! Bir mahal qaragam, domlajon biz tomonga bostirib kelyapti.

— Bekit, Shodi!— dedim jon holatda.

Shodi shoshib qolganidan ma‘limimiz yozgan inshoni bir tortgan edi, qog‘oz «shalop» etib stol tagiga tushdi. «Bo‘ldi! Tamom bo‘ldik!» Men-ku, mayli, qaytib ketaveraman. Jo‘ram dadasidan baloga qoladigan bo‘ldi-da!

Domlajon zipillab tepamizga keldi. Yerda yotgan shpargalka-qog‘ozni engashib oldi.

— Tuppa-tuzuk yozibsiz-ku!— dedi ko‘zoynagini orqasidan muloyim jilmayib. Qo‘g‘ozni stol ustiga qo‘ydi.— Shoshmasdan yozgin, xo‘pmi? Undan keyin... «mehnat qilib» deb yozilmaydi. Oxirgi harfi «b» bo‘ladi. «Mehnat qilib»... Tuzatib qo‘y...

Shodivoy chernovoydagi «p»ni «b» qilib o‘zgartirdi: Men ham issig‘ida o‘zgartirib qo‘ya qoldim.

— Yozishing durust!— dedi Begmatov domla Shodivoyning ishiga ko‘z yugurtirib,— Shoshilma, hali ikki soat vaqt bor.

Qoralamani eson-omon yozib bo‘ldik. Endi oqqa ko‘chirish kerak. G‘ayrat bilan ishlab yotgan edim, domlajon yana Shodivoyning tepasiga keldi.

— Yaxshi...— deli birinchi betni o‘qib.— Keyin Shodivoyning qo‘lidan ruchkani oldi-da, ikkinchi betning burchagiga bilinar-bilinmas nuqta qo‘ydi.— Yozaver,— deb nari ketdi.

Qarang, ikkinchi betning burchagiga, naq qizil chiziq yonboshiga nuqta qo‘yish kerakligini bilmas ekanmiz-da! Yaxshiyam domlajon o‘rgatgani! Domlajon Shodivoyning inshosiga qanaqa nuqta qo‘yib ketgan bo‘lsa, men ham xuddi o‘sha ikkinchi betning xuddi o‘sha burchagiga, xuddi o‘shanday nuqta bosdim. Katta ham emas, kichik ham.

Shodivoy ikkalamiz judayam birinchi bo‘lib emas-ku, to‘rtinchimi, beshinchimi bo‘lib, inshoni topshirib chiqdik. Og‘iz quloqda.

— Ikkalamiznikiyam «besh» bo‘lad! — dedi Shodivoy iljayib.

— Yo‘q, Shodi...— dedim kamtarlik bilan. — Seniki «besh», meniki «to‘rt» bo‘ladi.

Rais buva juda mehribon-da! Sadaqayrag‘och tagidagi skameykada shlyapasi bilan yuzini yelpib kutib o‘tirgan ekan.

Umuman, institut oldidagi maydon odamga to‘lib ketibdi. Hayronman, anavi chol-kampirlar ham imtihon topshirgani kelganmi, nima balo?

— Bo‘rimi-tulki?— dedi Rais buva shlyapasini boshiga ilib.

— Yo‘lbars!— dedim iljayib.

— Malades!— Rais buva Shodivoyning yelkasiga qoqdi. — Indinga bahoingni e‘lon qilishadi. Shunisidan «besh» bo‘lsa, og‘zakisi chepuxa!

...Indiniga Rais buva, Shodivoy, men — uzun-qisqa bo‘lib yana o‘sha ko‘pqavatli bino oldiga keldik. Voy-bo‘! Avvalgi kuni to‘plangan odamlar ham baharnov ekan. Chiyali bozor bo‘pketibdi-ku, hammayoq! Poxol shlyapa kiygan qorindor kishilar. Biri atlas, biri hilhiloyim ko‘ylak kiygan xotinlar. Maydoncha mashinaga to‘lib ketgan. «Volga»lar, «Jiguli»lar... «Moskvich»lar, hatto oynasiga «R» degan harf yopishtirilgan «Zaparojes»gacha bor. Tag‘in nomeriyam har yoqniki. Ota-onalar har joy-har joyda to‘p-to‘p bo‘lib turishibdi. Olaquloq matodan keng-mo‘l ko‘ylak kiygan xotin o‘rtacharoq samovardek keladigan termosdan choy quyib, yonidagi olacha to‘nli kishiga uzatadi. Yerga to‘shalgan ixchamroq sholchaga o‘tirib olgan tarashadek ozg‘in xotin tog‘oradan manti olib, o‘g‘liga tiqishtiradi: «Olsang-chi, ibi, kotmotta bacha uch kundan beri avqot yemaysan-ku!»

Bizning fakultetga xaridor juda ko‘p ekanmi, Rais buva birovni tirsagi bilan, birovni dumbasi bilan turtib, yo‘l ochguncha terlab ketdi. Oxiri yog‘och panjara taxtaga ilib qo‘yilgan ro‘yxat oldiga sog‘-salomat yetib bordik. Shosha-pisha ro‘yxatni topdim. Mana, «Oltinchi B grupp...». Yuragim taka-puka bo‘lib o‘qiy boshladim.

— Abbosova — 2, Abdullayev — 3, Abdurahmonov — 2, Abdusalomova — 2, A‘zamova — 3, Azimova — 4, Alimov ...

Nima? Avval o‘ng ko‘zimni ishqalab ko‘rdim. Keyin chap ko‘zimni... Hafsala bilan ishqalab-ishqalab, qayta o‘qidim. Alimov — 2. Iye, bu qanaqasi? Axir Begmatov — domlaning o‘zi Shodivoyni maqtovdi-ku! Shoshma, balki boshqa Alimov bordir? Yo‘q. Aniq-taniq qilib yozib qo‘yibdi. «Alimov Sh. — 2».

Yonimda allakim otdek, yo‘q, mening Tulporimdek pishqirdi. Qarasam, Rais buva entikib-entikib nafas olyapti.

Shosha-pisha «S» harfini qidira boshladim. Aslida-ku, izlashdan foyda yo‘q. Shodivoyniki 2 bo‘lsa, bizniki 1 bo‘ladi-da!

Sadriyev — 4, Samadova — 2, Sattorova — 5 (xayriyatey

«besh» ham qo'yarkan-ku) Salimov...

Salimovni pichirlab o'qidimu ko'zim tinib ketdi. Nazarimda — havo yetishmagandek, nafasim qaytib ketgandek bo'ldi. «Salimov Q...»ning ro'parasida 5 raqami jaranglab turibdi-da! Shoshma, tag'in boshqa «Salimov» bo'lmasin! Yo'q, uyog'i «To'xtayev — 2»ga aylanib ketibdi. Shuni g'ira-shira angladimki, bir yuz yigirmata familiya orasida bor-yo'g'i uchta «besh» bor ekan. To'rttami-beshtami — «to'rt». Yettita — «uch». Qolgani qatorasiga — «ikki»!

— Ketdik!— Rais buva shunday hayqirdiki, muttasil chug'urchug'ur qilayotgan odamlar o'q ovozi eshitgan chumchuqdek jimjit bo'lib qoldi. Rais buva Shodivoyning bilagiga chang soldi.

— Tezroq!

— Shoshmang!— dedi Shodivoy yulqinib. — Qo'shoqnikini ko'ray!

— E, Qo'shog'ingni!— Rais buva jo'ramning bilagidan changallab sudradi. O'z-o'zidan jonli yo'lak ochilganiga xursand bo'lib, men ham ergashdim.

— Padaringga la'at!— Rais buva tashqariga chiqib battar entikdi.— «Katta domla» bo'lmoq tugul akademik bo'lmasanmi! Hali shunaqangi o'ynatayki, shogirding bilan... Tezroq!— dedi Shodivoyga o'shqirib.

Katta yo'l bo'yiga chiqib oldik. Rais buva duch kelgan mashinaga qo'l ko'tara boshladi. Aksiga olib, qani to'xtasa!

— Qo'sho?— dedi Shodivoy pichirlab,— seniki necha?

— «Be-esh»,— dedim men ham pichirlab.— Xafa bo'lmagin, jo'ra, sen kirmasang, menam kirmayman. Ketaman.

Nihoyat, surmarang taksi Rais buvadan sal nari o'tib to'xtadi.

— Gastinisaga!— dedi Rais buva old eshikni ochib. Qaysi gastinisaga borishimizni aytdi.

— Men parkka ketayotgan edim, mehmon...— keksaroq taksichi xijolat chekkanday iljaydi.

— Og'zingizga siqqanini olmaysizmi, qanaqa odamsiz — Rais buva shopir oldiga o'tirib eshikni qars yopdi. — Hoy, — dedi baqirib. — Min chaqqonroq!

Taksichi bir rangi o'chdi-yu, indamadi. Gastinisa oldiga kelguncha hech kimdan sado chiqmadi. Yetib kelishimiz bilan Rais buva orqaga qarab o'shqirdi.

— Tushlaring! Shu yerda poylab turasan. Men yarim soatda

kelaman. Ketdik!— dedi shopirga imo qilib.— Prapirsrskiy gorodokka!

— Gastinisaga degansiz, mehmon!— shopir nihoyatda xotirjamlik bilan motorni o‘chirdi.— Men parkka borishim kerak.

— Hov, bodi!— Rais qo‘li titrab cho‘ntagini kavlati. Bir dasta pulni shopirning tizzasiga shapatiladi,— yetadimi yo yana beraymi? Ajab, taksichining jahli Rais buvanikidan battar ekan. Lip etib eshikdan chiqdi-yu, mashina oldidan aylanib o‘tib, berigi eshikni ochdi.

— Tush!— dedi ovozi titrab.

Rais buvadek odamni «sensiragan» kishini ikkinchi marta ko‘rishim edi. Hov, maktabda fizika muallimimiz Usmon Qilichev shunaqa muomala qilganda hayron qolgan edim. Bu safar ham og‘zim lang ochilib qoldi.

— Tush-e, o‘rgildim boyvachchaligingdan!—Taksichi shunday dedi-da, pullarni uloqtirib yubordi. Rais buvani yoqasidan bo‘g‘ib pastga tushirdi. Joyiga o‘tirib eshigini qarsillatib yopti-da, jo‘nab ketdi. Rais buva jonholatda o‘zini chetga oldi.

— Nomiri nechcha, Shodi?— dedi chiyillab.

Shodivoy ikkalamiz es-hushimizni yig‘ib olgunimizcha taksi ko‘chadan shovullab o‘tayotgan mashinalar daryosiga sho‘ng‘ib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

— Kutib turlaring!—Rais buva taksi nomerini yozib olishniyam unutib, ko‘cha chetiga yugurdi. Allaqanday «Jiguli»ni to‘xtatib, o‘tirib oldi.

Shodivoy ikkalamiz mung‘ayib qolaverdik. Qarasam, o‘rtog‘imning ko‘ziga yosh to‘lib turibdi.

— Shodi-i!— dedim yalinib.—Yur, morojniy yeylik.

Jo‘ram indamay ketimdan ergashdi. Oqshom tushib qolgani uchunmi, morojniyxonada odam ko‘p edi. Bu gal bir emas, ikkitadan morojniy oldim.

Avvalgi safar Shodivoy morojniyni ikki yamlab bir yutgan edi. Endi bo‘lsa, qoshiqni yalab, ermak qilib o‘tiribdi.

— Shodi...— dedim sekin. — Yana morojniy opkelaymi?

— Bo‘ldi,— dedi Shodivoy iljayishga urinib.— To‘ydim.

— Shodi,— dedim tag‘in yalinib.— Xafa bo‘lmasin.

— Xafamasman, Qo‘sho...

O‘ylab-o‘ylab bir narsani topdim.

— Menga qara, Shodi...— dedim tantana bilan.— Bilasanmi,

nima qilamiz? Men o‘zimning «besh»imni senga beraman! Sening «ikki»ngni men olaman!

— Jinnimisan!— Shodivoy boyadan beri birinchi marta kulib yubordi.— Ikkalamizdan bittamizniki baribir «ikki» bo‘lishi kerak edi-ku!

— Bo‘pti-da! Meniki «ikki», seniki «besh» bo‘ladi!

— Qo‘y, jo‘ra!— Shodivoy ko‘zimga shunaqa aqli, shunaqa ma‘noli tikildiki, damim ichimga tushib ketdi.— O‘qisam, sen bilan o‘qiyman, bo‘lmasa kerakmas! Sensiz bir kun ham turmayman bu yerda.

Qorong‘i tushib qolganida ikkalamiz sho‘ltillab, gatinisa tomonga o‘tdik. Liftga o‘tirib, yettinchi qavatga ko‘tarildik. Bugun «Muxa» opaning navbati ekan. Negadir bizdan oldin salom berdi.

— Keldinglarmi? Rais aka kutyaptilar,— dedi iljayib.

O‘zimizning yetti yuz o‘n to‘qqizinchi xona eshigini endi itarmoqchi edim, ichkaridan kelayotgan ovozni eshitib, to‘xtab qoldim. Bilaman, Rais buvaning achchig‘i yomon. Shodivoyga «to‘xtab tur» deb imo qildim.

— Tartib bormi o‘zi sizlarda! Labz bormi? Masalan, men paxta planini bir yuz ellik protsent bajaraman dedimmi — bajaraman!— Bu Rais buvaning ovozi edi.— Yerning tagidan olib bo‘lsayam bajaraman! Brigadirimga har gekardan 55 sentnerdan olasan, dedimmi — oladi. Olmasin-chi, ichagini boshiga salla qilib qo‘yaman! Siz-chi? Kim bo‘psiz? Nari borsa, bir domlachasiz? Nega katta domlaning topshirig‘ini bajarmaysiz?

— Bajarish bundan ortiq bo‘ladimi?— begonaroq tovush asabiy jarangladi.— Katta domlaning aytganini qildim. Chernovikni tekshirdim. Belovikka belgi qo‘ydim. Nima, imtihon komissiyasi ahmoqmi! Bu — sizning kolxozingizmas, Rais aka! Shifrlarni chalkashtirib tashlashgan. O‘g‘lingiz tayyor inshoniyam o‘n ikkita xato bilan ko‘chiribdi. Chernovoyu, belovoyini ming mashaqqat bilan topdim. Katta domlaning yuzidan o‘tolmay uyimga obordim. Beshinchi kursda o‘qiydigan singlimga qayta yozdirdim, tag‘in nima deysiz?

— Kimnikini?— Rais buva shunaqangi chiyilladiki, yig‘lab yuboray dedi. (Bechoraga rahmim kelib ketdi).

— Qayoqdan bilay?— Rais «domlacha» degan odam undan battar yig‘lamsiradi. (Endi «domlacha» sho‘rlikka yuragim tuzdek

achisha boshladi)— Aniq esimda bor, belovoyga o‘z qo‘lim bilan belgi qo‘yganman. Mana shu qo‘lim bilan.

— Kimnikiga?

— Qayoqdan bilay! Belgi qo‘yganimni «besh»ga to‘g‘riladimmi axir. Tag‘in nima deysizlar.

— Gapni aylantirma, domlacha! Sengayam ulush tegdimi-yo‘qmi? Shundan gapir!

— E, qanaqa odamsiz o‘zi? Menga unaqa gaplarni gapirmang, aka! Xotinim bo‘lmasa, bola-chaqam bo‘lmasa...— «Domlacha» entikib qoldi.—Jonimga tegdi,—dedi ingrab.— To‘rt yildan beri kandidatskiyni yoqlolmayman. Katta domlaning yuzidan o‘tolmay...

— Voy, nimaga kirmay turibsizlar? Rais aka kutyaptilar!— qulog‘im tagida shaqqillagan ovozdan cho‘chib tushdim. Qarasam, «Muxa» opa ikki qo‘lida ikki choynak ko‘tarib turibdi. Meni Rais buvaning o‘g‘li deb o‘yladi chog‘i, ogohlantirdi.— Mang, yigitcha, dadangizga aytib qo‘ying. Bunaqa gaplarni baqirib aytmaydi odam. Gostinisa — nozik joy. Bunaqa ishlar imi-jimida qilinadi...

Eshikni qandoq ochdim, choynak ko‘tarib qandoq ichkariga kirdim, esimda yo‘q. Qarasam, to‘rtburchak stolning u tomonida Rais buva, bu tomonidan Begmatov domla bir-biriga jo‘jaxo‘rozdek bo‘ynini cho‘zib turibdi.

Begmatov domla avval Shodivoyga, keyin menga ko‘zoynagi orqasidan tersayib qarab qo‘ydi.

— Sen — Salimovsan-a?— dedi Shodivoyga.

— Yo‘q — Alimov! — Shodivoy yelkasini qisdi.

Domlajon endi menga yuzlandi.

— Sening familiyang Alimov emasmi?

— Yo‘q, domla, Salimov,— dedim hech baloga tushunmay.

Begmatov domla, negadir qo‘llari titrab, har ko‘zi piyoladek keladigan ko‘zoynagini yechdi-da, taraqlatib stolga tashladi. Tirnab teshilgandek mitti ko‘zlarini menga qadab, taxminan besh minut turdi. Keyin Shodivoyga yuzlandi. Chamamda jo‘ramga mendan ko‘ra ko‘proq tikildi. Undan keyin Rais buvaga qaradi-da, ingichka yelkalari silkinib g‘alati ovoz chiqardi. «Ix-xi» dedimi «xix-ho» dedimi yaxshi eshitmadim. Ana undan keyin to‘satdan o‘zini orqaga tashlab, Shodivoyning karavotiga yiqildi-da, g‘ayritabiiy qiliqlar qila boshladi. Tikilibroq qarasam, kulayotgan ekan. «Xix-

xi-xo!» «Hi-hi-hi!» «Voh-ho-ho!» U karavotga o'tirib olib chillakdek tizzalariga urib kula boshladi.

— Rais aka!— dedi entikib.— Bularning familiyasini adashtirib yuboribmiz-ku, Rais aka! Alimov bilan Salimovni chalkashtirib yuboribmiz. Inshoni Alimov «besh»ga yozgan.— U dik etib o'rnidan turdi-da, ko'zyoshlarini artib, Shodivoyning ro'parasiga keldi.— Obbo, uka-yey, obbo azamat-ey! Sal bo'lmasa, g'irt adolatsizlik bo'larkan-da! «Qutlug' qon»da inqilobiy ongning rivojlanishi»ni sen yozganmisan? Shuni aytmaysanmi, ukajon! Tabriklayman!— u Shodivoyning yumshoqqina qo'lini olib qisdi.— Yozmang — zo'r! Og'zakidan ham «besh» olsang...

Shodivoy alang-jalang bo'lib qoldi.

— Qo'sho-chi?— goh domlajonga, goh dadasiga qaradi.— Qo'shoning ishi nima bo'ladi?— dedi qo'lini tortib olishga urinib.

— Adashibmiz-da, ukam!— domlajon Shodivoyning yelkasi-ga qoqdi.— O'rtog'ing bu yil bo'lmasa yanagi yil kiraveradi. Arzimagan xatolik o'tibdi-da, Rais aka... Darrov to'g'rilaymiz! — Domlajon pildirab eshik tomon yurdi. Boyadan beri angrayib turgan Rais buva endi o'ziga keldi.

— Katta domlaga salom ayting! — dedi yuziga qon yugurib.

Xatosini o'z vaqtida payqagan «domlajon» chiqib ketishi bilan uchalamiz bir-birimizga qaradik.

— Domlalar ham tirik jon-da! — Rais buva xiyol qizargandek bo'ldi. Erkalab kiftimga qoqdi. — Qara Shodivoy bilan sening familiyangni adashtirib yuboribdi. Yigitlar, endi restoranga tushib bir maishat qilaylik.

Rais buva eshik tomon yo'nalgan edi, Shodivoy to'satdan g'o'ldirab qoldi:

— Dada!

— Ha! — dedi Rais buva uning ro'parasida to'xtab.

— Dada... — Shodivoy boshini quyi soldi. — Agar Qo'sho institutga kirmasa, men ham o'qimayman!

— Nim-ma? — Rais buva ikki qadam orqaga chekinib bo'ynini cho'zdi. — Nima deding?

— Agar Qo'shoyam kirmasa...

— Ahmoq! — Rais buva rapidadek kaftini yozib, Shodivoyga po'pisa qildi, — O'chir!

Qarasam, Shodivoyning ko'zida g'alati, yovvoyi o't yonib ketyapti. Qo'yib bersam, ota-bola yoqalashib ketadigan.

— Shodi... — dedim yalinib. — Baribir mendan soʻt chiqmaydi. Sen oʻqiyvergin, joʻrajon! Men paxtada ishlaganim tuzuk.

— Oʻqimayman! Qoʻsho oʻqimasa, menam oʻqimayman! Shodivoy jini qoʻzib, hammayoqni toʻs-toʻpolon qilib yubordi. — Boshida aytganman: Qoʻsho kirmasa, men ham kirmayman, deganman.

— Xoʻp, ulim, xoʻp... — Rais buva uning yelkasiga qoqdi. — Mana, joʻrang shuncha oʻynadi, koʻrmagan joylarni koʻrdi. Bir yilcha sabr qilib turgin. Yanagi safar joʻrangni oʻzim olib kelib, oʻzim oʻqishga joylayman... Kim biladi, hali sen oʻqishni bitirib borguningcha Qoʻshovoy sendanam zoʻr odam boʻp ketadimi?

— Kerakmas! — Shodivoy qaysarlik bilan yer tepingan edi, yupatdim.

— Unaqa qilmagin, joʻrajon! Xoʻp degin, oʻqiy qolgin!

Uchinchi bob

«ARPATEXNIKA» QOIDALARI

Bugun viloyat radiosidan muxbir kelib, roppa-rosa bir soatcha qiynadi odamni! Oʻv, birodar, sendan boshqa ishim yoʻqmi, bu yoqda kultivatsiya qolib ketyapti, degim keldi-yu, tilim bormadi. Rostni aytaymi? Maqtagan Xudoga yoqibdi, degan gap haq-rost ekan! Keyingi paytlarda akang qaragʻay mashhur boʻp ketganmiz! Bir qarasang, ashqol-dashqolini koʻtarib suratkash keladi. Bir qarasang, daftar-qalamini koʻtarib, gazetadan muxbir keladi. Suratga tushishu gazeta muxbiri bilan gaplashishga ustasi farang boʻpketganmiz. Masalan, suratkash goh traktor kabinasiga oʻtkazib, goh chekkamga «baraka» chanoqni qistirib, besh-olti marta chiqillatadi-yu, ketaveradi. Muxbirning ishiyam oson. Tushlikda shoʻrvadan quruq qolganing demasa, narisi bilan yarim soat vaqtingni oladi. «Brigadangizda necha gektar yer bor?» deydi. «Har gektardan qancha hosil olmoqchisiz?» deydi. «Oʻtgan xoʻjalik yilida qanchadan olgansiz?» deydi. Savoli ogʻzidan chiqmasidan javobni qotirib tashlaymiz. Yozadi-da, ketaveradi.

Qarabsizki, gazetada iljayib turgan suratingiz chiqib turibdi. Voy qistaloq! Shu — yozuvchilaram ja gapga usta boʻladi-da! Sarlavhasining zoʻrligini aytmaysizmi? «Mashʻal»ning mashʻali», «Paxtazorda tugʻilgan yigit», «Oq oltin zargari...» Xullas, odam

bir og'izga tushdimi, oshig'i olchi bo'lib ketaverarkan. To'g'risini aytaymi? Hadeb ko'tar-ko'tar qilaverganidan keyin yiliga kamida besh-olti marta gazetada maqtab chiqmasa, bir narsasidan ayrilgan odamdek mung'ayadigan bo'lib qolarkansiz!

E, nimasini aytasiz! Rais buva odam qildi-da, meni! Shundoq otaxonim bo'lmasa, yuraverardim-da, Tulporimga minib, ko'cha changitib. Mana endi kimsan Qo'shoqvoy Salimov desa tanimaydigan odam yo'q! Ammo Rais buva so'zining ustidan chiqadigan odam ekan. To'rt yil avval Shodivoy — jo'ramga «sen institutni bitirib borguningcha Qo'shovoy sendanam ulug' odam bo'p ketadi» deganda karomat qilgan ekan-da!

Beriroq keling: quloqqa aytadigan gap chiqib qoldi.

Aslida mening «mash'al» bo'lishim-u, butun boshli brigadaga rahbarlik qilib, hosildorlikni «misli ko'rilmagan» darajada oshirishim, ya'ni har gektar paxta maydonidan 51 sentnerdan hosil ko'tarishim arzimagan gapdan boshlandi.

...O'shanda qadrdon jo'ram Shodivoyni qon-qon yig'latib, musofir yurtlarga o'qishga tashlab kelganimda o'zim ham bir haftagacha garangsib yurdim. Shodivoy bechoraning boshiga nene tashvishlar tushmadiykin? Jo'ram ertalab vaqtida uyg'onolmay qiynalmayaptimi? Domlajonlar sho'rlikni siqib suvini ichmayaptimi?

Ikki hafta ichida «ozib» qolgan chamadonimni ko'tarib qishloqqa qaytganimda akang qarag'ayni har kim har xil kutib oldi. Onam suyunib ketdi. «Ajab qipsan, bolam, — dedi. — Yetti yot begonalar orasida ranging somondek sarg'ayib yurgandan ko'ra bag'rimda bo'lganing yaxshi, hozir institutni bitirganlar aptobusga osilib yursa, traktorchi mexayniklar o'zining mashinasida kataysa qiladi. Erta-indin singlingni uzatsak, seniyam oyog'ingni to'rtta qilib qo'yamiz». Onamning oxirgi gapi, moydek yoqib tushdi. To'g'ri-da, qishloq joyda qiz bolani vaqtida egasiga topshirmasa, gap-so'z ko'payadi. Singlimga shuni aytib, yotig'i bilan nasihat qilmoqchi edim, mendan oldin bijillab qoldi.

— To'g'ri bo'пти, aka, sizni institutdan baribir haydab yuborishardi.

Gapini qarang! Menga aql o'rgatgandan ko'ra, tezroq erga tegib, yo'lni bo'shat, mahmadana!

Dadam esa, o'ng lunji uchib kinoya qildi.

— Qaraya! Men seni olim bo'b keladi, devdim. Bilib qo'y,

katta institutda raislarning bolasi o'qiydi, ulim! Sendaqalarga yo'l bo'lsin.

Meni ko'rib hammadan ko'p quvongan Tulporim bo'ldi. Og'ixonaga kirishim bilan shunaqangi dikirlab ketdiki, onasini sog'ingan uloqcha ham bunchalik irg'ishlamaydi.

Ko'p o'tmay terim kampaniyasi boshlandi. El qatori ishga tushib ketdim. Jimgina paxta terib yurgan edim, hamma ishni brigadirimiz To'lash aka buzdi. Bir kuni (kech kuz edi) ikki etak podbor terib, xirmonga olib chiqsam, tarozi boshida brigadirimiz qornini osiltirib telpagini qiyshiq kiyib turibdi. Tergan paxtamni taroziga ildim. Uchoyoq qiltiriq cho'pga ilingan osma tarozisi qiyshayib ketdi.

— Yigirma kilo!— To'lash aka «o't» degandek soqoli tikanak bo'lib ketgan iyagi bilan imo qildi.

Jon-ponim chiqib ketdi!

Ikki etak podbor yigirma kilo bo'ladimi? Orasida allaqancha xom-xatala ko'sak bor, barakasini bersin deb erinmasdan qo'shgan tuprog'imning o'zi kamida besh kilo keladi. Maktabda o'qib yurganimda ham shu — To'lash aka doim «cho'michda qoqardi». Brigadirning tarozisi yigirma kilodan ortiq tortolmasa, men aybdormanmi? Yo'q, endi men sodda-go'l bola emasman. Naqd Toshkentning o'ziga borib kelgan salkam talabaman! To'lash akaning «kamaytirib aytish» kasali tutganini ko'rdim-u, mening ham «oshirib aytish» kasalim qo'zg'ab ketdi.

— Sakson kilo!— dedim baqirib.

— Nima?— To'lash akaning ko'zi ola-kula bo'p ketdi.

— To'qson! — dedim yer tepib.

— O'v, tentak!— brigadir telpagini olib, siyrak sochli boshini hafsala bilan qashidi. — Ikki etak paxta sakson kilo chiqqanini ko'rganmisan hech!

— Yuz!— uch oyoqli tarozini bir tepgan edim, chillakdek yog'ochlardan biri sinib, etaklar osilgan tarozi sharaqlab yerga tushdi.

— Ahmoq! Tarozini nima qilding?— To'lash aka musht ko'tarib ustimga kelayotgan edi, tormoz g'iyqilladi. Bilmayman, osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi, Rais buvaning «Niva»si shundoq xirmon yoniga kelib to'xtadi. Poxol shlyapa kiygan Rais buva eshikni qarsillatib yopib yonimizga keldi.

— Nima gap?— dedi qovog'ini solib.

— Manavuni qarang! — To‘lash aka menga qo‘lini bigiz qilib, yig‘lamsiradi.— Shu mataxni sakson kilo deyapti! Tarozi sindirdi.
Rais buvaga xavotirlanibroq qarab turgan edim, negadir iljaydi.
— Yuz yigirma!— dedi shaxsan o‘zim tergan ikki etak podborga qarab.

To‘lash aka esankirab qoldi. To‘g‘risini aytsam, o‘zim ham angrayib qoldim.

— Rais bova...— dedi To‘lash aka ming‘illab.— Axir bu...

— O‘chir!— Rais buvaning qoshi chimirilib ketdi.— Ko‘pdan beri kuzatib yuribman. Oshirilgan majburiyat olganimizni ko‘ra-bila turib, ataylab tempani tushirib yuboryapsan...

— Rais bova!— To‘lash aka siyrak kipriklarini piri-piratdi.

— Bugun uch protsent berishing shart!

— Rais bova, axir qanaqasiga... Paxtaning o‘zi yo‘q-ku,— To‘lash aka shunaqangi iltijo qildiki, bechoraga rahmim keldi. Uyog‘ini so‘rasangiz, tergan podborim tuproq-muprog‘i bilan qo‘shib hisoblashgandayam, o‘ttiz kilodan oshmasligini o‘zim ham bilaman.

— Mayli, qirq kiloga roziman!— dedim insofga kelib.

Rais buva gapimni eshitdimi-yo‘qmi bilmayman-u, har qalay To‘lash akaga qo‘lini paxsa qildi.

— Gap shu. Bugun uch protsent berasan!

— Qayoqdan olaman yo‘q paxtani?!— To‘lash aka siyrak sochli boshini alam bilan qirtillatib qashladi. Rais buva gapning lo‘ndasini aytib qo‘ya qoldi.

— Qaribsan, To‘lash! O‘sib kelayotgan yosh kadrlarga yo‘l berish kerak. To‘rt oydan keyin o‘rningga shu bola brigad bo‘ladi!

Rais buva «Niva»siga o‘tirdi-yu, ketdi-qoldi. To‘lash aka menga qaradi, men To‘lash akaga.

— Mayli, o‘ttiz kilo! — dedim achinib.

— E, bore! — brigadirimiz boshini ikki qo‘llab qashlagancha nari ketdi.

Rais buva hazillashdi desam, chin ekan, to‘rt oy mexanizatorlar kursida o‘qidim-u, brigad bo‘lib qoldim. Qayoqqa qarasam, «Qo‘shoq Salimov, Qo‘shoq Salimov!» Qo‘ying-chi, Qo‘shoq Salimovga it boqmaydi!

To‘lash akayam yurgan ekan-da, brigadirman deb! Har gekardan oladigan paxtasi o‘ttiz sentnerdan oshmasdi. Ishni do‘ndirishni bizdan so‘rasin! Bolaligidan paykal ichida yurgan odamga paxta yetishtirish nima bo‘pti?! Birinchi yil hosildorlikni

gektariga qirq uch sentnerga «yetkazdik». Ikkinchi yili qirq yetti sentnerga. Mana bu yil ellik bir sentnerga chiqarmoqchimiz. Aslida-ku, hosilning cho'g'i ko'pmas. Nachora, kattalar aytsa reja ham bo'laverarkan-da. Ishlar gumbur! Gazetalarda suratlar chiqqan! Maqolalar bosilgan! Majlislarning to'rida o'tiramiz! Rais buvaning aytishicha, shu yil medal olsak ajabmas.

Bugun kelgan radio muxbiriga shularni bir chekkadan aytib bermoqchi edim, dahmazasi ko'p ekan! Qoq peshinda g'o'za kultivatsiya qilib yursam, shiypon tomonda rais buvaning «Niva»si ko'rindi. Mashina Tulporim bog'lab qo'yilgan tol salqinida to'xtab, cho'zib-cho'zib, signal berdi. Ertalab dalaga eshagimni minib kelaman. (Traktor minib kelmaydi-ku, odam, to'g'rimi? Menda pat-pat yo'q). Keyingi paytlarda Oysara yangam guldek ochilib, lorsillab ketgan. Ustiga-ustak battar ziqna bo'lib qolgan. Mototsikl kalitining bandiga ip bog'lab, bo'yniga osib yuradi. Xotini semirgan sayin Tursunboy akam ozib ketyapti. Allaqanday odamovi bo'lib qolgan. Hayronman...

Shunday qilib, traktorimda kultivatsiya qilib yursam, shiypon tomonda Rais buvaning «Niva»si ko'rinib qoldi. Traktorni dala o'rtasida to'xtatib, belga urib yotgan g'o'zalar oralab o'sha tomonga yugurdim. Halloslab yetib borsam, bo'yniga tasmasi uzun apparat osgan sap-sariq jingalaksoch yigit, do'ppi kiygan o'rta yoshlardagi kishi, Rais buva tol soyasida gurunglashib turishibdi.

— Mana, bizning mash'al brigadir — Qo'shoq Salimov! — dedi Rais buva tantanali ohangda. — Qo'shoqvoyning tajribasini viloyat emas, butun respublikaga yoysa arziydi! Gektaridan ellik bir sentnerdan hosil ko'taraman, deb jon kuydirib yotibdi, azamat! Bo'пти, bir soatdan keyin mashina kelib, sizlarni boqqa olib boradi. Tushlikni o'sha yerda qilamiz.— Rais buva shunday dedi-yu, «Niva»ga o'tirdi.

— Ketdik, Qamchibek! — dedi shopirga.

«Niva» chang-to'zon ko'tarib g'izillab ketdi.

Do'ppili kishi ham, jingalak malla sochli yigit ham men bilan qo'shqo'llab so'rashdi.

— Gap bunday, o'rtoq... — do'ppili kishi cho'ntagidan to'rt barmoqli qog'oz olib, shosha-pisha o'qidi.— O'rtoq Salimov. Biz obradiodanmiz. Mening familiyam Po'latov, bu yigit — u yelkasiga tasmasi uzun magnitafon osib olgan mallasoch yigitga imo qildi. — Operatorimiz Kolya. Kolya, tayyorlan! Endi gap bundoq... — U

yana qog'ozga qarab qo'ydi, — o'rtoq Salimov! Men sizga savol beraman. Siz, mana bu qog'ozga qarab, sharillatib o'qiyverasiz. Gatopmi, Kolya? — muxbir jingalaksoch yigitga buyurdi. — Bo'laqol! Mallasoch yigit yelkasiga ilib olgan chamadondan avval magnitafon chiqardi. Keyin mikrofonni magnitafonga ulab, Po'latovga uzatdi. Magnitafon murvatlarini burab, sozladi.

— Vsyo, Po'latov aka,— dedi jilmayib.

Muxbir mikrofonni og'ziga tutdi.

— Bir, ikki, uch... Qalay, Kolya?

Kolya mixday, degandek bosh barmog'ini dikkaytirdi.

Muxbir mikrofonni og'zidan taxminan yarim quloch uzoqlatib gap boshladi.

— Hurmatli do'stlar! Bugun biz viloyatimizning mash'al tumanidagi «Mash'al» kolxoziga tashrif buyurganmiz. Yo'q, aziz tinglovchilar! Bu ramziy ma'nodagi so'z emas! Butun respublikaga dong'i ketgan nishondor rais, paxta ilmining haqiqiy akademigi Toshmamat Alimov rahbarlik qilayotgan xo'jalikning nomi «Mash'al» deb ataladi. Mana, biz «Mash'al» kolxozining «oq oltin» zargari Qo'shoqboy Salimov boshchiligidagi eng ilg'or brigadasi dala shiyponidamiz. — U mikrofonni baland ko'tarib, tol tomonga to'g'riladi. Shu alpozda ancha turib qoldi. Nazarimda oyog'ining uchida cho'zilib turaverib, charchab ketdi-yov. Tol shoxida chumchuqlar tinimsiz chirqillar edi.

— Eshityapsizmi?— dedi mikrofoniga. — Qushlarning shodon chug'urini eshityapsizmi? Bu — zahmatkash Qo'shoqboy Salimov boshchilik qilayotgan azamat paxtakorlarning shinam dala shiyponi. Qushlar shod-hurram sayrab turibdi. G'ir-g'ir shabada esadi.— Muxbir bir zum jimib qoldi. Shimining cho'ntagidan ro'molcha olib, peshonasidan duv-duv oqayotgan terini artdi. — Shiypon atrofi gulzor!— dedi tantana bilan,— anvoyi gullar mayin shabadada ohista tebranib turibdi.— U saraton oftobida hansirab yotgan paxtazorga qarab qo'ydi.— Gullarning muattar hidini aytmayszmi? Hozir tushlik payti. Yaxshi dam — mehnatga hamdam, deganlaridek, brigada a'zolari miriqib ovqatlanib bo'lib, dala shiyponi kutubxonasida gazeta-jurnallar o'qishyapti, ba'zilari rangli televizor ko'rishyapti.— U suvoqlari ko'chib tushgan devorlarga, derazasi sinib ketgan shiypon hujrachasiga, yerga to'shalgan eski sholchaga mehr bilan qarab, davom etdi.

— Biz mehnat maydonida javlon urayotgan yosh qahramon,

yil sayin hosildorlikni oshirayotgan, bu yil gektar maydondan 51 sentnerdan xirmon ko'tarishga azmu qaror qilgan brigada boshlig'iga — Qo'shoqboy Salimovga so'z beramiz. — U menga qarab muloyim jilmaydi. — Qo'shoqboy!— dedi tantanali ohangda.— O'z ishlaringiz haqida ikki og'iz gapirib bersangiz.— Shunday dedi-yu «o'qing» degandek boya qo'limga tutqazgan qog'ozga imo qildi.

Xuddi shu payt, palakat bosib, yo'tal tutib qolsa bo'ladimi? Bilmadim, bolaligimdan shu kasalim bor. Maktabda doskaga chiqsam ham avval bir yo'talib olib, keyin gap boshlar edim.

— O'xxo', o'xxo'!— dedim bo'g'ilib.

Muxbirning ko'zi alang-jalang bo'p ketdi. Xavotirlanib, mallasoch Kolyaga qaradi. Kolya «ziyoni yo'q» degandek qo'l siltadi. Muxbir menga o'girilib qo'lini ohista siltadi. Tushunmadim, «to'xta» deyaptimi, «boshla» deyaptimi?

— O'qiyveraymi?— degan edim, muxbir chinqirib yubordi.

— Stop, Kolya!— keyin menga tushuntirdi. — Imo qildim-ku, boshlaysizmi? Zapis, Kolya!

Mikrofonni og'zinga tuqqudek bo'lib, baqirib o'qib ketdim.

— Biz, «Mashg'al» kolxozining azamatlari...

— Stop! Mikrofonni yorib yuborasiz-ku, qanaqa odamsiz o'zi!

— muxbir mikrofonni menga ishonmay, o'zi ushlab turadigan bo'ldi. Yarim quloch narida. — Marhamat, — dedi shivirlab.

— Biz «Mash'al» kolxozining azamatlari arpatexnika qoidalariga amal qilib...

— Stop!— muxbir alam bilan qo'lini paxsa qildi.— Mashinkada ko'chirilgan tayyor gapniyam o'qiyolmaysizmi?! «Arpatexnikaga» balo bormi? «Agrotexnika!»

— Qayoqday bilay, aka!— qog'ozni muxbirning tumshug'iga tiqishtirdim.— Mana, o'zingiz o'qing.

Muxbir qog'ozga ko'z yugurtirib, hijolatli iljaydi.

— Hech mashinistkaga yolchimadik-yolchimadik-da! Boshladik, Kolya!

Boyagi so'zlarni qaytadan o'qib ketdim.

— Biz — «Mash'al» kolxozining azamatlari arpatexnika qoidalariga qat'iy amal qilib, o'tgan xo'jalik yili...

Muxbir qo'lini paxsa qilib o'dag'ayladi.

— Arpatexnika emas, dedim-ku, agrotexnika! Tushunyapsizmi, ag-ro-tex-ni-ka!

Menikiyam tutib ketdi.

— Nega baqirasiz? O‘zingiz shunaqa deb yozib qo‘yibsiz-ku! Muxbir mikrofonni changallagancha bir zum o‘ylanib qoldi.

— Yaxshi, — dedi yuzidan duvillab oqayotgan terni artib,— jonli suhbat qilib qo‘yaqolamiz. Tekst kerakmas. — Kolya, boshladik!—U mikrofonni og‘ziga yaqin keltirib gap boshladi.— Hurmatli Qo‘shoqboy! Mana, siz yosh brigadirsiz. Yoshlik — shijoatdir, degan maqol bor. Uch yil avval siz boshchilik qilayotgan zarshunoslar gektaridan 43 sentnerdan hosil olishgan, to‘g‘rimi?

— To‘g‘ri!— dedim baqirib.

Muxbir «judayam unchalik hayqirish shart emas» degandek ko‘rsatkich barmog‘ini labiga bosdi.

— O‘tgan yili 47 sentnerdan xirmon ko‘targansiz. To‘g‘rimi?

— To‘g‘ri!

— Bu yil gektaridan 51 sentnerdan durdona yig‘ib olmoqchisiz. Ayting-chi, bu muvaffaqiyatlarning siri nimada?

— Hech qanaqa sir-piri yo‘q!— gazetachilarga doim aytadigan gaplarim yod bo‘lib ketgani ish berdi. O‘ziyam bulbuligo‘yo bo‘pketdim-ov!— G‘ayrat bilan ishlayapmiz. Agar hurmatli Rais bovamiz gektaridan 60 sentnerdan hosil ko‘tarasan desa, uniyam do‘ndiramiz!— To‘satdan kolxoz idorasining peshtoqiga ilib qo‘yilgan shior esimga tushdi.— Muxbir aka!— dedim tantanali ohangda.— «Plan qonun, majburiyat — vijdon» degan gap bor! Biz har qancha majburiyat bo‘lsa uddalayveramiz!

Muxbir mikrofonga egildi.

— Qo‘shoqjon!— dedi menga emas, mikrofonga qarab.— Xalqimizda ajoyib hikmatli gap bor. Daromadga yarasha buromad deganlar. Aytingchi, brigada azamatlarining daromadi qanday? Shu jumladan o‘zingizning ham?

— Daromadning mazasi yo‘q!— dedim xo‘rsinib.— Yaqinda singlimni uzataman deb, dadamning beli chiqib ketdi. Shahar joyda qanaqa, bilmaymanu, bizning udumimizda qiz uzatgan otana aqalli to‘qqiztagina ko‘rpa qilishi kerak. Dadam sho‘rlik to‘qqizta ko‘rpaga chit izlab, Toshkentgacha borib kelsa, deng. Hayronman, muxbir aka, paxta planini qancha oshirib bajarsak chit, satin, sochiq degan mataxlar shuncha kamayib ketyapti.

Qarasam, muxbirning og‘zi lang ochilib, jag‘i osilib qoldi. Nuqul og‘ir-og‘ir kiprik qoqadi.

— Hali buyoqda o‘zimning uylanishim bor,— dedim g‘o‘ldirab.— Yuraveramanmi, boshim tuynukdan chiqib! Uylanish hazil gapmi, muxbir aka! Kamida bir qop pul kerak. Dadam bir invalid bo‘lsa...

— Buyog‘ini montaj qilamiz, Kolya! — dedi muxbir gapimni bo‘lib. Keyin yana menga yuzlandi.—Fidoyilik bor joyda g‘alaba bor, deydilar. — Siz boshchilik qilayotgan brigada a‘zolari chinakam fidoyi odamlar. Ayting-chi, ular orasidan kimlarni alohida ta‘kidlagan bo‘lardingiz?

— Hammasiyam yaxshi!— dedim boyagi gapim chala qolganidan g‘ijinib.

— Masalan?

— Ya‘ni masalan, Tursunboy aka! Halol odam! — dedim rostini aytib. — Yaxshi mexanizator. Ammo-lekin xotini Oysara yangam... Ha, mayli, u yog‘ini aytmay qo‘ya qolay. Choriyam yaxshi mexanizator. Panji suv tarashning ustasi. Ammo shu Panji uylandi-yu aynidi, muxbir aka! Kecha deng, g‘o‘zani sug‘orib turib yarim kechada uyga jo‘nab qopti, yaramas. O‘n olti egatga suv toshib ketibdi. Mana, haliyam daragi yo‘q! Yotgandir-da, sulayib! Qo‘limga tushsin...

— Stop! Kolya!— muxbir yana chinqirdi.— O‘ylab gapirgin-da, uka,— dedi sensirab.— Oysara yangangni gapirasan, allaqanday to‘yni gapirasan. Men sendan ishni so‘rayapman, uka!

— Chori o‘zi yaxshi yigit-ku, bitta aybi bor,— dedim salmoqlab.— Nos chekadi, qistaloq. Tushlikni hammadan oldin paqqos urib olib, darrov nos otadi. Nos chekishi mayli-ku, tuplasa, odamning yuziga sachragani chatoq.

— Jon uka!— muxbir astoydil yalinishga tushdi.— Baraka topkur, ukajon! Yutuqlardan gapir! Kolxozdan gapir! Boshladik...

— Xullas...— dedim o‘ylanib.— Xo‘jaligimizning dono rahbari Toshmamat Alimov boshchiligida yil sayin hosildorlikni oshirib bajaryapmiz. «Mash‘al» kolxozi bayroqdor viloyatimizda chinakam mash‘al bo‘lyapti. Biz mehnat g‘alabalarimizni mustahkamlab boraveramiz!

Muxbir «mana bu boshqa gap», degandek mamnun bosh iring‘adi.

Muxbirning daldasidan ruhlanib ketdim.

— Xo‘jaligimizning xloppunkt bilan aloqasi zo‘r!— dedim usta notiqdardek chertib-chertib.— Masalan, Jovli aka degan

priyomchik bor. Men sizga aytsam, muxbir aka, tumanimizdagi eng beli baquvvat odam shu — Jovli aka. Faqat bitta aybi bor: afti xunuk. Ko‘zi xuddi ukkinikiga o‘hshaydi. Ammo o‘zi yaxshi odam. Endi xloppunktimizam katta-da, aka! Bir emas, to‘rtta tuman paxtasini qabul qilib oladi. Yonida paxta zavodiyam bor. Rais bova u yoqda tursin, Raykom bova ham, Jovli akani ko‘rsa, «Jovli Mengliyevich, Jovli Mengliyevich» deb tipirchilab qoladi.

hayvon! Unisiyam mayli-ku, ikki hafta oldin Ju uyga yig'lab keldi. Har kuni ichib kelib, singlimni urarmish. Ko'chada tutib olib, o'ziniyam itdek do'pposladim. Agar singlimga yana bir marta qo'l ko'tarsang, enangni ko'rsataman dedim. Bilaman, endi menga zapchastni cho'talgayam bermaydi.

— Stop!— muxbir qo'l siltadi.— Bo'ldi, ukam!— dedi yelkamga qoqib.— bu yog'iga jim o'tirasan.

U bir imo qilgan edi, jingalaksoch yigit tag'in magnitafon tugmachasini buradi.

— Hurmatli tinglovchilar!— dedi muxbir mikrofoniga.— «Mash'al» kolxozining mash'al brigadiri, «oq oltin» ijodkori Qo'shoqboy Salimov bilan qurgan qizg'in suhbatimiz ham oxirlab qoldi. Bu xo'jalik viloyatimizda eng ilg'or sanaladi. Salimov brigadasi esa, mash'allarning mash'ali. Mana, tushlik ham tugadi.

U menga allaqanday imo-ishoralar qila boshladi.

— Ha, yana gapiraymi?— dedim shang'illab.

Muxbir mikrofonni kafti bilan to'sib o'dag'ayladi.

— Bormaysanmi!

— Qayoqqa?

— Traktorga!— dedi u ensasi qotib.— Yugur motorni yurgiz! Shoshilmay o'rnimdan turdim.

— Bir soatli mazmunli hordiq tugadi! Azamat paxtakorlar o'z mehnat postiga, ya'ni «oq oltin» dalasiga yo'l olyapti.— Muxbir mikrofoniga qarab g'ayrat bilan gapira ketdi.— Hozir zumrad dalalar uzra, yana motorlar gurillaydi.— U bir qo'lida mikrofon tutgancha ikkinchi qo'li bilan «chop» degandek imo qildi.— Keling, azizlar... Mehnat simfoniyasini birgalashib tinglaylik!

Xuddi shu payt tolga bog'loqlik turgan Tulporim ovozi boricha hangrab yubordi. Obbo, soat bir bo'ldimikin, ikkimi? Eshagim bekorga hangramaydi.

— Stop!— muxbir mikrofonni changallab baqirdi.— Stop!

Jingalaksoch yigit negadir bepisand jilmaydi.

— Nichego, Po'latov aka, ishak otrejem!

Jon-ponim chiqib ketdi.

Yugurib qaytib keldim.

— Nima?— dedim musht do'laytirib.— Eshagimni so'yadigan senmisan?

— Boring! Jon uka!— muxbir negadir yana sizlashga o'tdi.— Boring, ishingizdan qolmang. Shuncha plenkani rasvo qilganingiz

ham yetadi. Bir soatlik suhbatdan besh minutlik intervyu chiqsayam katta gap!

...Ertasi kechqurun hovli o'rtasidagi so'rida konsert eshitib yotsam radioda birdan o'zim gapirib qoldim. Qiziq, tovushim o'zimmikiga o'xshaydiyam, o'xshamaydiyam. Onam ziyrak-da, darrov tanidi.

— Dadasi, o'g'lingiz gapiryapti,— dedi ayvonda gazeta o'qib o'tirgan otamga.— Mash'al bolamdan aylanay! Ovozlarindan o'zim o'rgilay!

Onamning aylanib o'rgilgani yaxshi. Lekin mikrofoniga aytgan gaplarimni muxbir po'stdumbaga chiqarib tashlabdi-ku! Qiziq, muxbir daromadni so'rasa, men sentnerdan gapiraman. Egatda tug'ilganimdan gap ochsa, dadam urushga borganini aytaman.

Bunisiyam mayli-ku, dadam g'alati ish qildi. O'qib turgan gazetasini ko'rpachaga tashladi-da, salmoqlanib uyga kirib ketdi. Onam aytganicha bor. O'lgudek kajbahs-da, dadam! Men uni shuncha maqtasam-u, eshitgisi kelmasa. Buyam yetmagandek kaftini orasida bir nima changallab kelib indamay qo'limga tutqizdi. Hayron bo'lib qarasam, shalvirab yotgan pufak. Yosh bolalarning uch tiyinlik pufagi. Ko'm-ko'k!

— Pufila, o'g'lim!— dedi lunji uchib.

— Shoshmang, oxirigacha gapirib bo'lsin!— hovli supurayotgan joyida to'xtab qolgan onam ozorlanib koyidi.— Nima qilasiz, chalg'itib?

— Pufila!— dadamning bir emas, ikki lunji ucha boshlaganini ko'rib, noiloj pufakni qo'lga oldim. Tezroq shishirib bera qolay, deb g'ayrat bilan pufay ketdim. Pufakka dam beryapman-u, ikki qulog'im radioda!.. Lo'mbozdek pufak ekan, la'nati. O'ziyam dirijabl bo'lib ketdi-yov!..

Radiodan «mehnat simfoniyasi» degan gap eshitalishi bilan pufak «paq» etib yorilib ketdi. O'ziyam shunaqangi varang'la-diki, ikki qulog'im shang'illab hech nimani eshitolmay qoldim.

Qulog'im ochilganda radiodan konsert boshlangan ekan.

— Shunaqa bo'ladi!— dadam miyig'ida kulgan nari ketdi.

O'n ikkinchi bob

PAXTA PUNKTIDAGI MAJLIS

Avvallari «maza-maza kattalarga!» deb yurardim. Nima qilsa — og‘zining yeli! Hamma ikki bukilib, ta‘zim qilib turadi. Qandoq yaxshi! Endi bilsam g‘irt ahmoq ekanman. Amaldorlikning g‘alvasi shunaqangi ko‘p bo‘larkanki, boshiga tushmagan odamning yetti uxlab tushigayam kirmaydi. Mana, o‘zimni olaylik. Nari borsa bitta brigadirman! Shu qiltiriq amalniyam bir kunlik nag‘masini yig‘ib filga orting, fil bechoraning beli cho‘rt uzilib ketmasa men kafil! Men aytib turay, siz barmog‘ingizni bukib turing. Kuzda korchyovka qilish kerakmi kerak! Qishda sho‘r yuvish, yaxob berish kerakmi — kerak! Bahorda, radioda har kuni aytadigandek, baraka urug‘ini qadash kerakmi? O‘toq qilish, chopiq, dorilash, sug‘orish... Keyin chekanka, defoliatsiya... Omon-eson terim kompaniyasiga yetib olganimizdan keyin g‘alvaning kattasi boshlanadi. Paxta teradigan mashinalar ham o‘lmasin. Shir etib yomg‘ir quysa, otasidan kaltak yegan boladek bir chekkaga chiqib, so‘ppayib turaveradi. Maktab o‘quvchilari-ku, o‘zimizning bolalar. Gapga ko‘nadi. Hay-hay, shahardan kelgan talabalardan asrasin! Har kuni bitta g‘avg‘o! «Yotoqxonangiz molxonaga o‘xshaydi» deydi... «Sovqotib qolyapmiz, qachon pechka o‘rnatib berasiz?» deydi. «Makaron sho‘rvaning go‘shiti qani?» deydi. O‘zimga yo‘q go‘shitni senga qayoqdan topaman, olifta. Qo‘yib bersa rangli televizor ham so‘rarsan, hali. Qaysi kuni bittasi oldimga kelib, daftar-kitobini yoyib tashladi. «Ha» desam, «hisoblab chiqdim, aka, bitta chanoq to‘rt gramm bo‘lsa, bir kilo paxta terish uchun yerga 250 marta egilish kerak ekan, normani pasaytiring, men bir kunda yigirma besh ming marta egilolmayman, mashinani ishlatimg», deb aql o‘rgatyapti. Ko‘tar-ey, to‘rva xaltangni, degim keldi-yu, Rais buvadan hayiqdim.

Mayli, bular-ku, o‘zimiz o‘rganib ketgan gaplar. Eng alam qiladigani shuki, davlatning o‘zi belgilab qo‘ygan matohlarniyam ololmaysiz. Radio muxbirlariga aytgan gapim gap: kuyov — borib turgan apiris. Akkumulyatormi, relemi so‘rab borsang, yuzinggamas, qo‘lingga qaraydi. (Kaltak yeb ham odam bo‘lmadi, ukkag‘ar!). Birovga o‘g‘it deb yalinasan, birovga shpindel deb sarg‘ayasan... Tag‘inam Rais buva menga ozmi-ko‘pmi qayishadi. Planga qarashib yuboradi. («Mash‘al» brigadirmiz-da!)

Brigadamdagi a‘zolni aytmaymizmi! Ish desa ketini quruqqa obqochadi. Qulog‘ingizga aytaymi: ulargayam oson tutib bo‘lmaydi. Mana, masalan Tursunboy aka. Bultur kuzda

mashinada yuz ellik tonna paxta terdi. (Planga zarur bo'lib qolgan edi, Rais buva Tursunboy akanikini 250 tonna, men tergan 170 tonnamni 300 tonna deb yozdirib qo'ya qoldi). Shundoq bo'lsayam, Tursunboy aka hamma narsadan ko'ngli sovigan odamdek ma'yuslanib yuradi. Chorini aytmaysizmi? Yoshgina xotini sariq bo'lib qoldi.(Hayronman, shu kuz kelishi bilan sariq kasal ko'payadi).

Chorining xotini o'zi sap-sariq yana qanaqasiga sariq bo'lganiga odamning aqli yetmaydi. Yana bechoraning yuzi sariq, sochi — qizil. Shuning uchunmi, kasal bo'lganini o'ziyam sezmadim. Oradan ancha o'tib biqinim og'riydi, sariq bo'ldim shekilli, degan ekan. Chori hazilga olibdi. «Qo'yaver, xotin, onangni qornida uzoq yotganing uchun sarg'ayib ketgansan», deb qo'ya qopti... Xotini sho'rlik kasalxonada uch oy yotdi.

Yoki Panjini olaylik. Uylanaman deb qulog'igacha qarzga botgan ekan (Shuni o'ylasam, yuragimni vahima bosadi: haliveri bizning oyoq to'rtta bo'lmaydi, shekilli). Ishga tobi yo'q. Har kuni bir bahona topib tomorqasiga yuguradi. To'g'ri-da, ungam osonmas: qarindosh-urug'idan bir qop pul qarz ko'targan odamga xo'jalikdan tegadigan maosh urvoq bo'ladimi? Shuning uchun dehqonlar tomorqasida o'zi ishlab, bolasini paxtaga haydaydi-da! Panjining dalada ishlashga yaroqli bolasi yo'q. Xotini hozircha tug'ishga ulgurmadi.

Ana endi o'zingiz o'ylab ko'ring. Mendek po'ristoy brigadirning boshida-ki, shuncha g'alva bor ekan, tag'inam Rais buvalar fil ekan-da!

Bugun Rais buva ishning ko'zini bilishiga yana bir marta tan berdim. Noyabr oxirlab qolgan, dalada paxta tugul yilt etgan ko'sak ham yo'q. Ustiga-ustak ikki hafta oldin qor yog'ib hammayoqni atalasini chiqarib yubordi. Pedinstitutdan kelgan hasharchilardan ikki yuztasi bizning brigadaga ham tushgan. Tushlikda borsam, bekorchilikdan domino o'ynab o'tirishibdi. Ovozi olamni tutadi. Hammayoq taraq-turuq, sharaq-shuruq... Ensam qotib chetlab o'tib keta qoldim. Rais buvagayam hayronman-da! Biz brigada planini yuz o'ttiz poiz do'ndirdik. Tumanniki yuz yigirma, viloyatniki yuz yetti... Nima qilamiz, shuncha odamni bekorga boqib o'tirib?

Avval shuni o'ylab xunob bo'lgan edim. Keyin tushunsam, Rais buva nima qilsa, oxirini o'ylab qilar ekan.

Har kuni xloppunktida majlis bo‘lishini eshitar edim-u, o‘zim bormagandim. Bugun palakat bosib borib qolarmanmi! Voy-bo‘, yig‘ilish emas, qip-qizil qiyomat-ku!

Rais buva, Shaydul — kassir, men — uchovlashib, xloppunkt direktorining xonasiga kirdik, odam-odamni tanimaydi: uy ichi tutunga to‘lgan, burchakdagi galanska pechka qizib ketganmi, nafas olib bo‘lmaydi.

— Svodka!— dedi to‘rdagi stol oldida o‘tirgan Raykom buva filtrlri sigaretini tutatib. (Hatto salomga alik ham olmaydi.) Raykom buvani avval ko‘p ko‘rganman. Ikki yuzi qip-qizil odam edi. Endi ko‘zlari kirtayib, rangi kaltakesakka o‘xshab qopti. Yuzi ko‘kimtirmi-yey, nima balo! Xona issiqligiga qaramay, boshidagi andatra telpagini yechishniyam unutibdi.

— O‘rtoq Alimov, svodka!— dedi-yu, bir yutungan edi, uzun bo‘ynidagi shaftoli danagidek uchburchak bag‘baqasi liqillab ketdi.

— Pajalista! — Rais buva muloyim jilmayib, shimining cho‘ntagidan allaqanday qog‘oz chiqardi. Vazmin qadamlar bilan yurib borib, Raykom buva o‘tirgan stolga qo‘ydi. Biru o‘ndan yetti protsent! — Ana, bo‘larkan-ku!

Raykom buva Rais buvaga gapiryapti, deb o‘ylagandim. Yo‘q, deraza tegidagi kursida o‘tirgan novcha odamga gapirayotgan ekan. Papiros tutunidan yaxshi payqamay qopman.

— Mumkin ekan-ku, o‘rtoq Husniddinov! — Endi Raykom buvaning ovozi tahdidli jarangladi. — Nega «Mash‘al» kolxozi bir kunda o‘ndan yetti ko‘rsatkich beradi-yu, «G‘alaba» berolmaydi?! Sizga qolsa, «Mash‘al»ga qor yog‘magan dersiz? Yeringiz bir, suvingiz bir...

— Menda paxta yo‘q!— dedi novcha kishi to‘ng‘illab. Ovozi o‘lgudek yo‘qon ekan.

— Yo‘q? Nega yo‘q?!

— Planni bajardik, majburiyatni bajardik, paxta qolmadi.

— Nim-ma?! — Raykon buva sapchib o‘rnidan turib ketdi. Uchburchak bag‘baqasi universal traktorning porshenidek paydar-pay yuqori chiqib-past tusha boshladi. — Nega «Mash‘al»da bor paxta sizda yo‘q?! Nega tuman planini orqaga surasiz? Nega bayroqdor oblastimizning tempini pasaytirasiz?

Husniddinov degani balo ekan! Shundoq Raykom buvadan qo‘rqmadi-ya!

— Bor paxtani topshirib bo‘ldik!— dedi g‘o‘ldirab. — Yilt

etgan chigit qolmadi.

— Eshitdingiz-a, o‘rtoq Viktorov! Bahonasini eshitdingiz-a?— Raykom buva burchakdagi «galanska» pechka yonboshida o‘tirgan taqirbosh kishiga yuzlandi.

Paxta zavodining direktori Viktorov tog‘a o‘zbekchani binoyidek biladi deb eshitgandim: rost ekan.

— Ishlash xalagan adam chora tapadi, xalamagan bahana!— dedi dona-dona qilib.

Raykom buva shu gapdan keyin hovuridan tushish o‘rniga battar tutaqib ketdi.

— Husniddinov! — dedi hayqirib.— Siz choyxonada emas, raykomning ko‘chma byurosida o‘tiribsiz!

— Asabiylashmang, hammasi tushunarli! — Raykom buvaning yonida terlab-pishib o‘tirgan semiz kishi surnayga o‘xshab g‘iyqilladi. — Husniddinovga raislik yuki og‘irlik qilib qopti. Obkom bovaga bu kimsaning qilmishini xabar qilishga majburman.

— Eshitdingmi, Husniddinov!— Raykom buva stolni mushtladi: — Obkom vakilining gapi gap. Rais bo‘laman deb orqamizdan chamadon ko‘tarib yurganlar son-mingta! Yo‘qol!

Husniddinov indamay o‘rnidan turdi. Eshik oldiga borganda negadir to‘xtadi.

— Rahmat... — dedi iljayib.— O‘zim ham jonimdan to‘ygan-dim.

Raykom buva tag‘in hayqirdi.

— Sezilib turibdi. Ishingni prokuraturaga topshirmasam, odammasman!

«G‘alaba» raisi chiqib ketishi bilan xonaga jimlik cho‘kdi. Hech kimdan sado chiqmadi. Qayoqqa kelib qoldim o‘zi! Asli, boya Rais buva «Yur, majlisga boramiz» deganida Tulporimni minib, uyga jo‘navorsam bo‘larkan.

Eshik ochilib, bir qo‘lida paxta gulli choynak, bir qo‘lida piyola ko‘targan past bo‘yli kishi kirdi. Darrov tanidim, xloppunkt priyomchigi — Jovli aka! Xumdek boshini ikki yelkasi ichiga tortgancha, katta-katta ko‘kintir ko‘zlarida muloyim o‘t yonib, xona to‘riga yo‘l olgan edi, Rais buva dik etib o‘rnidan turib ketdi. (Aytaman-ku, Jovli aka rayondagi eng hurmatli odam deb!) Rais buva uning qo‘lidan choynak-piyolalarni olayotganida Raykom buva ham xijolat chekib jilmaydi.

— Ovora bo‘psiz-da, Jovli Mengliyevich!..

— Ovorasi bor ekanmi?— Joyli aka ukki ko‘zlarida yana o‘t yonib jilmaydi. — Ichlaring uzilib ketdi-ku. Osh tayyor,— dedi Raykom buvaga emas, semiz obkom vakiliga qarab.— Qul-qul tovuq ham sovub qoldi.

— E, shu topda osh o‘tadimi tomoqdan...— semiz kishi shu qadar chuqur xo‘rsindiki, nazarimda qorniyam puchqayib qolgandek bo‘ldi. — Tempani tushirib bo‘lmaydi. Obkomga nima deyman? Boboyning achchig‘i chiqadi.

Jovli aka, ukki ko‘zlari suzilib Raykom buvaga qarab qo‘ydi.

— Menimcha, «Mash‘al»da hali paxta mo‘l.

Raykom buva yarq etib, bizning Rais buvaga yuzlandi.

— Uch protsent qila olasizmi?

Angrayib qoldim. Qanday qilib biru o‘ndan yetti protsentini uch protsent qiladi?

— Qilmasangiz bo‘lmaydi — dedi Raykom buva xotirjamlik bilan. Hatto shaftoli danagidek bag‘baqasi ham liqillamay, uzun bo‘ynining qoq o‘rtasida muqim to‘xtab qoldi. — Yarim soatdan keyin yuqoriga svodka berishimiz kerak.

Semiz kishi cho‘zib-cho‘zib esnadi.

— Amallaysiz-da, o‘rtoq Alimov!

— Shaydul!— Rais buva bir hayqirgan edi, yonimda o‘tirgan Shaydul-kassir sapchib o‘rnidan turdi. Boshi shiftga tegay deb qoldi. (Hayronman, mirzaterakning qolipini shundan olganmi, kassirimizning bo‘yi naqd ikki metrdan ortiq keladi). Hozir ham o‘rnidan turishi bilan hech kimni ko‘rmay qoldim. Na raisni, na Raykom buvani! Ammo Rais buvaning gapini aniq-taniq eshitdim.

— Yugur!— dedi Rais buva. — Senam boraqol, tutxo‘r!

Keyingi gapi menga atalganini tushundim. Rais buva mehri tovlanib ketdi shekilli, meni yana «tutxo‘r» dedi.

Uzun-qisqa bo‘lib tashqariga chiqdik.

Shaydul-kassirning pat-patiga mingashib ketyapman-u, hech baloga tushunmayman. Kolxozning uch protsenti kamida o‘ttiz telejka paxta bo‘ladi. Yarim kechadan oshgan bo‘lsa, varaxaga tushadigan ko‘sak ham qolmagan bo‘lsa, o‘ttiz telejkani qayoqdan olamiz?

— Mening brigadamda bir kiloyam yo‘q! — dedim har ehtimolga qarshi.

Pat-pat haydab ketayotgan Shaydul-kassir gapimni eshitmadi chog‘i yelkasi osha o‘girildi.

— Nima?

— Menda paxta yo‘q! — dedim baqirib. — Yo‘lga qarang!

Negadir shu topda, bir vaqtlar Shodivoyning «Zaparojes»ida skirdga kirib ketganimiz xayolimga keldi. Yer sirpanchiq, bilchillab yotibdi. Ustiga ustak tuman. Yo‘l chetidagi chiroqlar kul orasidagi cho‘g‘dek xira miltiraydi. Shaydul-kassirga nima? Yoshini yashadi, oshini oshadi. Bir emas, ikkita xotini, uchta kuyovi, to‘rtta kelini bor. O‘zim ko‘rganman, molxonasida ikkita govmush sigir, uchta ho‘kiz bo‘kirib yotibdi. O‘lsa o‘lib ketaveradi-da! Jabr bo‘lgandan menga bo‘ladi. Shaydul akaga o‘xshab ikkita bo‘lmasayam aqalli bitta xotin olaylik-da biz ham!

— Sekinroq!— dedim biqiniga mushtlab. Kuchim boricha urib yubordim shekilli, u orqasiga jahl bilan o‘girildi.

— Obkom vakili nima deganini eshitdingmi? Yarim soatdan keyin yuqoriga svodka berish kerak! — dedi shang‘illab.

Mototsikl joni chiqqudek chiranib tarillay boshladi. Ikki qulog‘im sovuq shamoldan muzlab ketdi. Hayriyat-ey, to‘xtadik! Qarasam, kolxoz idorasiga kelibmiz.

— Paxta qaysi brigadada? — dedim hamon qulog‘im shang‘illab turgani uchun baqirib. — Yarim kechada o‘ttizta telejkani qayoqdan topamiz. Shaydul aka?!

— Baqirma-ey! — kassir rapidadek qo‘lini paxsa qildi. O‘zi terakdek bo‘lsayam chaqqon ekan. Zipillagancha idora tomon yo‘rg‘aladi.

— Men ketaveraymi?- dedim yana baqirib.

— O‘chir!— Shaydul aka zinalardan ko‘tarilar ekan, tayinladi.— Ketib qolma, birga boramiz.

Ancha turdim. Ertalab paytavani yupqaroq o‘ragan ekanman, oyog‘imdan muz o‘tib ketdi. Bir yoqda qorin tatalab ketyapti. Rais buvadayam odamgarchilik yo‘q-da, o‘zi! Jovli aka-ku, «osh tayyor» dedi. Birpas sabr qilsa bizam yerdik, bir cho‘qim-bir cho‘qimdan. Sovuq kunda qovurma qulqul tovuq ham teshib chiqmaydi. Odamning qorni och bo‘lsa, buning ustiga obdan sovuq qotsa, uyqu bosarkan. Qani, hozir uyga borsam-u, issiqqina sho‘rvadan bir kosaganani ichib...

Bir mahal Shaydul aka kattakon papka ko‘tarib zinadan tushib keldi.

— Ma, — dedi eski charm papkani qo‘limga tutqazib. —

Ehtiyot qil!

— Qaysi brigadaga boramiz? — dedim bir qo‘lda papkani ushlagancha mototsiklga mingashib.

— Brigadada pishirib qo‘yibdimi, xloppunktga! — Shaydul kassir o‘shqirib berdi. — Lulkaga o‘tir! Papkaga xushyor bo‘l!

Nima, men ikkiqat xotinmanmi, lulkada yalpayib o‘tiradigan. Papkani changallab, orqa egarga mingashib oldim.

Shaydul aka jahl bilan bir qarab qo‘ydi-yu, motorni tarillatdi. Tag‘in yeldek uchib ketdik. Anchagina yurdik. Keyin nima palakat bosdi, bilmayman. Qornimning ochligi ta‘sir qildimi, uyqu elitdimi... Xullas, Shaydul akaning biqinidan qo‘shqo‘llab changallab olganim esimda...

Haybatli dag‘dag‘adan uyg‘onib ketdim.

— Papka, qani, papka?

Ko‘zimni ochsam xloppunktning temir darvozasi oldida turibmiz. Tuman orasida qorovulxonaning chirog‘i xira miltirayotganidan bildim.

— Papka qani?— dedi Shaydul aka chiyillab.

— Qanaqa papka?

— Boyagi papka, ahmoq! Charm papka!

Rostdan ham, hali mototsiklga mingashayotganimda qo‘limda papka bor edi-ya!

— Hayronman,— dedim yelkamni qisib. — Hali qo‘limda edi.

— Uyim kuydi! — Shaydul kassir tarsillatib peshonasiga urdi.— Xonavayron bo‘ldim!— to‘satdan ko‘zi olayib yoqamga yopishdi.— Qayoqqa tashlading? Rostini ayt! Ichagingni sug‘urib olaman, ahmoq!

Iye, nimaga do‘q qiladi menga. Nega hadeb «ag‘moq» deydi! Naynov bo‘lsa o‘ziga! Xudo bergan bo‘y bizdayam bor. Yoqadan olish mana bunaqa bo‘ladi deb, bo‘yniga yopishib oldim. U yoqamni qo‘yib yuborib, bilagimni changalladi.

— Qo‘yvor!— dedi bo‘g‘ilib nafas olib. Bo‘ynini bo‘shatgan edim, entikib-entikib yalindi.— Jon uka! Xarob qilma meni! Bola-chaqam bor. To‘ylaringda xizmat qilay, ukajon!

Rahmim keldi. Bechora bir gap bo‘lsa, ikkita xotini, uchta kuyovi, to‘rtta kelini, sigirlari-yu xo‘kizlari dodini kimga aytadi.

— Ichidagi qog‘ozlar shunchalik zarilmidi?— dedim xavotirlanib.

Shaydul kassir ko‘zimga iltijo bilan termuldi.

— Judayam kerakli hujjat, ukajon! Hozir topmasak, Rais bova oʻn yilni yelkamga iladi. Rostini ayt: qayerga tashlading?

— Bilmayman, koʻzim ilingan ekan, yoʻlda tushib qolgan-dir-da!

— Yur, yur, jon ukam!— Shaydul aka rapidadek kafti bilan yelkamga shapatiladi.— Balki qayerda tushirib qoldirganing esingga tushib qolar.

Mototsiklga minayotganimizda maslahat berdim.

— Idoraga borib, boshqa nusxasini ola qolaylik.

— Bunaqa qogʻozda nusxa boʻlmaydi, — u yigʻlamsirab, burnini tortdi. Shosha-pisha mototsiklini gurillatdi.— E, xudo!— dedi iltijo qilib. — Ishqilib topilsin... Xonavayron boʻlaman, sochim oqarganda turmaga tushaman...

Mototsikl yurib ketdi. Ammo bu safar astaroq, avaylabroq yura boshladi. Aksiga olib, tuman quyruqlashgan, yoʻl chetidagi lampochkalar gʻira-shira koʻrinardi. Shaydul aka yoʻlni yaxshiroq yoritish uchun boʻlsa kerak, mototsiklini goh u yoqqa buradi, goh bu yoqqa.

— Oʻzing sharmanda qilma!— deydi dam-badam. Dala yoʻliga chiqqanda mototsiklini toʻxtatib, azza-bazza yalindi:

— Qoʻshojon! Oʻzim aylanay sendan. Uylanayotganingda bitta hoʻkizni toʻyana qilmagan nomard. Yaxshilab eslab koʻr! Qayerga kelganda uxlovding?

— Uxlaganim yoʻq, mizgʻidim!

— Oʻ!— u yana mototsiklini yurgizib ketdi. Bir chaqirimcha yurgandan keyin toʻsatdan tormozni bosdi. Boshim kuragiga urilib, peshonam sirqillab ketdi. U egardan sakrab turib, oldinga yugurdi. Motosikl chirogʻi yorugʻida oʻn qadamcha narida, yoʻlning qoq oʻrtasida yotgan papkani yulqib olayotganini koʻrdim. Darrov qirov tushibdimi, papkaning usti oqarib qolibdi. Shaydul aka sharaq-shuruq qilib papkaning yaltiroq qulfini ochdi-da, ichiga qoʻl suqdi.

— Xayriyat!— dedi entikib.— Xudoga shukur!

U papkani bandidan changallab chopib keldi.

— Ukam, — dedi ovozi muloyimlashib.— Juma kuni jonlik soʻyib xudoyi qilaman. Peshinda! Senam kelgin, xoʻpmi!

— Menga bera qoling!— deb qoʻl choʻzgan edim, jon holatda papkani bagʻriga bosdi.

— Yo‘q-yo‘q, baraka top, ukam. O‘zim... — u papkani egar qoshiga qo‘ndirib, ustiga minib oldi. Har ehtimolga qarshi, «joyida turibdimi», degandek chotining orasiga qo‘l suqib tekshirib ko‘rdida, mototsiklni orqaga burib, shang‘illadi. — Bo‘lgan hangomani Rais bovaga aytib yurmagin, xo‘pmi? Naq ikkalamizning terimizga somon tiqadi-ya!

Teriga somon tiqishga hojat qolmadi. Xloppunktga qaytib kelsak, darvoza oldida Jovli aka kutib turgan ekan.

— Oyog‘ingga tosh bog‘laganmisan, nima balo!— dedi jerkib. Papkani oldi-da, avval Shaydul kassirning, keyin mening qo‘limni qisdi.— Raykom bova xunob bo‘layotgan edilar. Rahmat, sizlarga javob.

O‘n uchinchi bob

NARGISXONNING HINDU XOLI

Xohlagan odamingiz bilan bas boylashib aytamanki, dunyoda eng yaxshi narsa — sevgi ekan. Yana bir marta xohlagan odamingiz bilan bas boylashib aytamanki, dunyoda eng yomon narsa ham — sevgi ekan. Avvallari, she‘r kitobni ko‘rsam, ensam qotardi. Endi bildim: shoirlar ham avval bittasini yaxshi ko‘rib qolib, keyin shoir bo‘larkan-da! Qiyin ekan u bechoralargayam! Xoh ishoning, xoh ishonmang, allaqanday bir oy ichida o‘zim ham tap-tayyor shoir bo‘ldim-qoldim.

*Men seni sevaman,
Ishongin menga.
Xohlasang jonimni
Beraman senga!*

Bu she‘rni o‘zim yozdim. Yozdim emas, kechalari ko‘zimni yumib yotsam, lop etib xayolimga Nargisxon keladi-yu, o‘zidan o‘zi she‘r to‘qib tashlayman.

O‘zimiz ham ayni qoni gupullagan bo‘z yigit emasmizmi, shundoq ko‘kragimga ikki litrli qumg‘onni qo‘ying: o‘n besh minutda sharaqlab qaynab ketmasa, men kafil! Oh tortsam, nafasim olov bo‘lib chiqadi. Tushlik paytida hamma ovqat yesa, men shiypon tagidagi hovuz bo‘yida, tarvaqaylab o‘sgan tol tagida ko‘ksimni zaxga berib yotaman. Bir hafta o‘tmay, men yotgan joy qurib-qaqshab, o‘tlariyam sarg‘ayib ketdi. Nazarimda tol qurib, hovuzdagi suv

bug'lana-bug'lana bir quloch pasayib qoldi-yov! Brigadadagi yigitlar hayron. «Senga nima bo'ldi, Qo'sho, ranging somon bo'p ketibdi-ku, kasal-pasalmisan» deyishadi. Gapirib nima qildim? Mening kasalimni qayoqdan tushunsin bular.

Qanaqa bedavo dardga yo'liqdim o'zi? Dadamga aytolmasam, enamga aytolmasam? O'rtoqlarim tushunmasa. Kechalari Tulporim bilan dardlashaman. «Nargisxonni yaxshi ko'rib qoldim, oshna!» deyman xo'rsinib. Tulporim mendan ham chuqurroq xo'rsinib qo'yadi. «Bilaman, u meni mensimaydi, kuladi» deyman. Tulporim tag'in xo'rsinadi. «Endi nima qilamiz, oshna, yonimda Shodi bo'lsaki yuragimni yorib, hasratimni aytsam?» Tulporim indamaydi. Nimayam desin? Til-zaboni bo'lmasa. Yordam berish qo'lidan kelmasa... Ko'zimga mo'ltirab-mo'ltirab qaraydi-da, alam bilan hangrab yuboradi.

Asli, bu savdolar bahor oyoqlab, jiyda gullagan kezlarda, boshlandi. O'sha kuni Juman, «idoraga borarkansan, Rais bovaning zaril ishi bormish», deb qoldi.

Rais buvani bilaman-ku, bekorga chaqirmaydi. Yugurdim!

Bizning kolxoz idorasini ko'rmabsiz — dunyoga kelmabsiz.

Dala shiyponlarining mazasi bo'lmasayam, Rais buva idorani boplagan. Ikki qavatli marmar bino. Oldi fontan. Fontan chetida majnuntollar «assalomalayke-e-em» deb salom berib turadi. Odamning yog'i erib ketadigan saratonda ham Rais buvaning xonasi muzdekkina bo'ladi. Xuddi bir vaqtlar Shodivoy ikkalamiz joylashgan Toshkentdagi gastinisadek.

Ikkinchi qavatga ko'tarilib, shundoq eshikni ochganimni bilaman! Gilam to'shalgan qabulxonaning burchagida, och havorang pardalar osilgan deraza tagidagi stolda bir qiz o'tiribdi... Yo alhazar! Odam bolasiyam shunaqa chiroyli bo'ladimi? Yo'q, bu odam emas, onam bolaligimda aytib beradigan ertakdagi parining naq o'zginasi! Sochini chiroyli turmaklab, bir chetiga mittigina jiyda shoxchasini qistirib olgan. (Ikkinchi qavatga chiqishim bilan dimog'imga jiyda guli hidi uriluvdi-ya!) Egnida nim pushti ko'ylak. Derazadan tushib turgan nurda qomati aniq-tiniq ko'rinib turibdi. Yuzlari... yuzlari judayam oppoq emas-ku, tandirda singib pishgan kulchadek qizg'ishtob. «Pari»ning kamondek qayrilma qoshining qoq o'rtasida jajjigina xoli bor. Xuddi indiyский kinodagi artistlarga o'xshaydi.

O‘zim ham mabodo kinoga kirib qolmadimmi, deb u yoq-bu yoqqa alanglab qo‘ydim. Yo‘q, o‘zim bilgan Rais buvaning qabulxonasi. Olti oy avval, qishda kelganimda ham qabulxona shunaqa edi. Gilam ham, och havorang darpardalar ham. Ammo unda «pari» yo‘q edi. Tizzalarim o‘zidan o‘zi qaltiray boshladi. Kelganimni bildirish uchun yo‘tarmoqchi edim, tomog‘imdan xirillagan ovoz chiqdi.

«Pari» uzun-uzun nozikkina barmoqlari bilan mashinkani chiqillatishda davom etib, menga yuzlandi. Muloyim jilmaygan edi, yuzi yorishib ketgandek bo‘ldi.

— Keling, kim kerak edi?

Ovozmi bu, kumush qo‘ng‘iroqning jarangimi? Yuragim qinidan chiqqudek ura boshladi. Traktorimning motoriyam bunchalik gupillamas.

«Pari» mashinkani chiqillatmay qo‘ydi.

— Kim kerak edi? — dedi ko‘zimga sinovchanroq tikilib.

Gapirmoqchi edim, labim labimga chippa yopishib oldi. Qani og‘zimni ocholsam.

«Pari» piq etib kulib yubordi.

— Garangmisiz?

Mo‘ltirab turaverdim.

U menga boshdan-oyoq razm solib chiqdi.

— Soqovmisiz? — dedi rahmi kelib.

— Ha! — dedim. Ovozim yig‘lamsirab chiqdi.— Tilim yo‘q.

«Pari» shirin jilmaydi.

— Gapiradigan soqovni birinchi ko‘rishim!— u negadir oyog‘imga imo qildi.

— Etigingiz loy ekan.

Ertalabdan beri paykal kechib yurgandan keyin etigim loy bo‘lmay do‘ppim loy bo‘lsinmi? Boshqa odam bo‘lsa-ku, shunaqa derdim. Ammo «pari»ning dashnomidan yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadim. Indamay orqamga burildimu, zinalardan pastga otildim. Idora oldidagi fontan zihiga o‘tirib, avval o‘ng oyog‘imning etigini sug‘urdim. Usti u yoqda tursin, ichigacha tozalab yuvdim. O‘ziniyam oq yem qilib yubordim-ov. Keyin chap oyog‘imnikini sug‘urdim.

Halloslab zinadan ko‘tarildim, eshikni ochdim. «Pari» boyagi joyida mashinkani chiqillatib o‘tirgan ekan. Yarq etib men tomonga qaradi-yu, angishvonadek bejirim og‘zini yarim ochib,

uzun-uzun qayrilma kipriklarini pırpıratdı.

— Meni Rais bova chaqirtirgan ekan... — dedim dadıllanıb.

«Pari» hamon kipriklari pırpıraganča yana bir minutmi-ıkki minutmi tikilib turdı-da, o‘zını stul suyanchig‘ıga tashlaganča qah-qah urıb kula boshladı. Qızıq, nega kuladı bu? Yo etıgımnı chala yuvıbmanmi? Mındoq qarasam, o‘ng oyog‘ımda etik boru, negadıır chap oyog‘ımda yo‘q. Iye, qo‘lımda ekan-ku! O‘zınıyam chaqaloq ko‘targan xotındeık bag‘rınga bosıb olibman. Qo‘nıi yerga qarab turganı uchunmi, ıchıdan chak-chak suv tomadı.

Qochmagan nomard deb ko‘chaga otıldım. Shu yugurganča uyga yetganda hushım sal-pal joyıga keldı. Onam hovlıdagi so‘rıda xamır qorıb o‘tirgan ekan. Ahvolımnı ko‘rıb qo‘rqıb ketdı.

— Tınhlıkmi?

— Yo‘q! — dedım halloslab. — Tınhlıkmas. Oxırzamon bo‘ldı.

Onam og‘zını lang ochıb qoldı.

Kechası bılan mıjja qoqmay çıqđım. O‘zıdan o‘zi she‘r to‘qıgım keladı.

Otingni bilmayman,

Aytaqol o‘zing!

Ichimni yondirib

Yubordi ko‘zing...

Uch kungacha garang bo‘lib yurđım. Rais buva chaqırganını bahona qilib, oldıga boray desam, qo‘rqaman. Bormay desam, borgım keladı. Uchinchi kun chıdolmadım. Ertalab, dalaga borısh o‘rnıga qirtıshlab soqolımnı oldım. Shipr atırdan yuzınga mo‘lgına sepdım. Oppoq ko‘ylak, yangı shim, oyog‘ınga lakırovannıy tıfli kıyıb, mındoq oynaga qarasam... Ha, endı bir yıgıt bo‘lsa, bıızchalık bo‘lar-da! Qarchıg‘aynıng qanotıdek qalın qoshlar, xıyol qoraroq, xıyol ozg‘ınroq bo‘lsayam normalnıy yuz, xıyol qıyshıqroq bo‘lsayam ushıasa ushılagudeık qırıra burun. Bosh yorılğanda qolğan chandıq soch tagıda ko‘rınmaydı. «Pari» do‘ppımnı yechıb, sochimnıng orasını tıtkılab o‘tırmıdı. Gazetalarda bir emas, sakkız marta maqtalğan, radıoda gapırgan mash‘al bırgad bo‘lsak! Eng mıhımı xudo bergan bo‘y bor: bıru to‘qson! Narı borsa, Shaydul kassırdan bı qarıch pastmız-da! Hozırđı qızlar baland bo‘yılı yıgıtları yoqtırıshadı. Tag‘ın nıma kerak!

Lakırovannıy tıflıga chang tegızmaslık uchun ko‘cha chetıdan bıtta-bıtta bosıb ketayotsam («Pari» bu safar ham tıflıngız chang

ekan desa, yana sharmanda bo‘lamanmi?) dimog‘imga g‘alati hid kirdi. Qarasam, mozoriston yoqasidagi chakalak chetida jiyda gullab yotibdi. Qo‘limga tikan kirishiga qaramay, bitta shoxchasini sindirib oldim.

Marmar zinadan chiqib boryapman-u tag‘in tizza qistaloq qaltiraydi-da! Ikkala oyog‘imni kesib tashlagim keldi! «Dadil bo‘l, Qo‘sho» dedimu, eshikni shaxd bilan ochdim.

«Pari» xayol surib o‘tirgan ekanmi, bir cho‘chib tushdi. Tanimadi! O‘lay agar tanimadi.

— Kim kerak edi?

— Siz!

Shundoq deyishga deb qo‘ydim-u, o‘zim qo‘rqib ketdim.

U hayron qolgandek yuzimga tikildi, Hatto ikki qoshining o‘rtasidagi hindu xolini nozik barmog‘ining uchi bilan silab ham qo‘ydi. Xuddi avvalgi safargidek boshimdan oyog‘imgacha qarab chiqdi.

— Voy, sizmisiz? — dedi jilmayib.

— Ha...

Shu turishda baqa bo‘lib tikilib qoldim, shekilli, u ko‘zini olib qochdi.

— Unaqa qaramang odamga,— dedi sekin. — Qo‘rqib ketyapman.

— Men ham,— dedim rostini aytib.— Yiqilib tushay deb turibman.— Uning rahmi keldimi, jilmaydi.

— Gulingiz chiroyli ekan,— dedi qo‘limdagi jiyda shoxchasiga qarab.

Suyunib ketdim.

— Sizga!— dedim jon holatda shoxchani uzatib.— Bilasizmi, biz tomonda jiyda ko‘p. Shodivoylarning uyidan nariroqda mozor bor. O‘sha mozorning atrofi chakalakzor. Jiyda demagani tiqilib yotibdi. Ehtiyot bo‘ling, tikani yomon.

«Pari» endi jiyda shoxchasiga qo‘l cho‘zgan edi, yonbosh tomondagi charm qoplangan eshik ochildi. Rais buva chiqib keldi.

— Iya, ha!— dedi goh «Pari»ga, goh menga qarab. Nazarimda g‘alatiroq iljaygandek bo‘ldi. «Pari» darrov qo‘lini tortib oldi. Qip-qizarib nari ketdi.

— Qo‘shovoy, ko‘rinmaysan?— dedi Rais buva jiddiy tortib. Men uchun «pari» javob berdi.

— Qaysi kuniyam keluvdilar. Siz rayonga ketgandingiz...

— Shunaqami?— Rais buva tag'in goh unga, goh menga qarab qo'ydi. — Qo'shovoy — malades. Bizning mash'al brigad shuda!— dedi yelkanga qoqib. — Nargisxon, telefon bo'lsa, men yo'qman. Qani yur-chi.

U oxirgi gapini menga aytganini keyin tushundim. Xayolimda nuqul bir gap aylanardi. «Oti Nargis ekanda. To'ppa-to'g'ri! Otiyam indiysskiy, o'ziyam!»

— E, tashlasang-chi, tikaningni!— Rais buva jiyda shoxini qo'limdan yulqib olib, qabulxona burchagidagi divanga uloqtirdi.— Yur, srochniy ish bor.

Muzdekkina xonaga kirdik.

— Gap bunldoq, tutxo'r!— dedi Rais buva tik turganacha. — Sen esli bolasan. Shu kunlarda rayonimizda bir yozuvchi paydo bo'lgan. Erta-indin sengayam borib qolsa ajab emas.

— Borsa, gaplashaveramiz,— dedim beparvolik bilan. (Fikrizikrim Nargisxonda edi. Gulimni oldimi, yo'qmi?)

— E, unaqa maqtab yozadiganlardan emas! — Rais buva, xuddi yozuvchi ro'parasida turgandek mushtini do'laytirdi.— Hech kim uni upalnamochniy qilmagan. G'irt ig'vogar! Raysentrdagi allaqanday texnikumda ma'lim ekan.

— Yaxshi... — dedim hech baloga tushunmay.

— Nimasi yaxshi!— Rais buva chaqchaydi.— Ig'vogar dedimku, hammayoqni taka-taka qilib yuribdi.

Nargisning hindu holini silab turgani lop etib hayolimga keldi.

— Chiroyli...— dedim xo'rsinib.

— A? — Rais buva shunaqangi baqirib berdiki, cho'chib tushdim. — Bir ig'vogar butun rayonni ostin-ustun qilib yuradiyu, chiroylimi? Eshityapsanmi, hov! — u qo'lini bigiz qilib, peshonamga nuqidi. — Raykom bovaning o'zi aytdi. O'sha iblisni qamatib qutulmasak bo'lmaydi. Erta-indin sening brigadangayam borib qolsa ajabmas. Gap so'rasa, hech nimani bilmayman, deb turaverasan, uqdingmi! Eslab qol, familiyasi — Ergaship, tushundingmi?

— Tushundim, — dedim sekin. — Tushundim, Nargisxon...

— Nima? — Rais buva yoqamdan ushlab silkitdi. — Eshushingni yig', bola! Ergaship so'rasa, hech nimani bilmaysan, bildingmi?

— Bildim. Bilmayman!

— Bo'pti, boraver! — Rais buva yoqamni bo'shatdi. Eshik

oldiga borganimda chaqirib qoldi. — Shoshma,— dedi yumshoq-roq ohangda. — Bilaman, durust bolasan. Ammo bo‘yingga qarab to‘n bich. Xo‘pmi? Nargisxon — Jovli Mengliyevichning jiyani bo‘ladi. Otasi raypo mudiri. Uqdingmi?! Bo‘pti, boraqol endi.

Qabulxonaga chiqsam, Nargisxon ham, divan ustida yotgan jiyda shoxchasiyam yo‘q. Yo‘lakka chiqib, anchagacha talmov-sirab turdim. Nargisxon gulimni olgan bo‘lsa, bundan chiqdi... Endi iljaymoqchi edim, labim o‘zidan-o‘zi burilib, joyiga kelib qoldi. Agar Jovli akaning jiyani bo‘lsa, otasi raypo mudiri bo‘lsa, bizga yo‘l bo‘lsin... Teng — tengi bilan... Rais buva to‘g‘ri aytdi.

To‘rvasini yo‘qotgan gadoydek talmovsirab chiqib ketdim. Qandoq azoblarga qoldim-a? Ishonsangiz, tomog‘imdan ovqat tugul suv o‘tmaydi. G‘ilq etib qaytib tushadi. Hali aytganimdek, Tulporimdan bo‘lak sirdoshim bo‘lmasa... Shodivoy-ku, besh yildan beri qorasini ko‘rsatmaydi. Birinchi kursni bitirganida ta‘tilga kelgan edi. Bilmadim, nima jin urdi jo‘ramni! Ikkinchi kursdan boshlab yozda ham qishloqqa kelmaydigan bo‘lib ketdi. Talabalarga qo‘shilib, qurilishga borarmishmi-ey, Rossiya tomonlarda yangi yer ochayotganmishmi-ey! Kuching oshib-toshib ketayotgan bo‘lsa, kel. Ishimiz shunaqangi ko‘pki, bir haftada qulog‘ingdan kun ko‘rinadigan qilib qo‘yamiz!

Bultur Rais buva «jo‘rang o‘qishni bitiryapti, kattalar bilan gaplashdim, o‘zimizning tumanga ishga keladi» deb yurgandi. U yoqda Jamila xola ham to‘y taraddudini ko‘rib yuruvdi. Buni qarangki, Shodivoy kelmadi. Keyin eshitsam, Toshkentda ishlab qopti. Hatto Rais buvaning o‘ziam bir safar menga hasrat qildi. «Jo‘rang bemehr bola chiqdi, bitta-yu bita o‘g‘lim deb shuncha avayladim, yaxshi ish topib qo‘ygandim, kelmadi», dedi.

Ish-pishini bilmadim-u, baribir, jo‘ramdan men ham xafaman. Jilla qursa mehmon bo‘lib kelmaysanmi, ahmoq! Men senga dardimni aytmaymanmi! «Shundoq-shundoq, jo‘rajon, Nargisxonni sevib qoldim», demaymanmi, sen menga jo‘yaliroq maslahat bermaysanmi!..

Har kuni ertalab kalam dalaga burilsa, oyog‘im idora tomonga tortib ketaveradi. Shu bir oy ichida Nargisxonni atigi ikki marta ko‘rdim. Bir safar idora ro‘parasidagi fontan yonida xayol surib tursam Rais buvaning «Niva»si g‘irillab kelib qoldi. U eshikdan Nargis, bunisidan Rais buva tushishdi. Allanimani gaplashib idoraga kirib ketishdi. Meni ko‘rishmadiyam.

Ikkinchi gal tavakkal qilib, Nargisxonning eshigini ochdim. Xona burchagida negadir xomush turgan ekan. Meni ko'rib, jilmaydi. Gapni nimadan boshlashni bilmay turgan edim, aksiga olib xuddi avvalgi safargidek Rais buva xonasidan chiqib qoldi.

— Ig'vogar keldimi?— dedi to'satdan.

Hayron bo'ldim.

— Qanaqa ig'vogar?

Rais buvaning jahli chisqib ketdi:

— Nima degandim senga? Idorada o'ralashgandan ko'ra ishingga bor! — menga qanaqa o'shqirgan bo'lsa, Nargisxonga ham shunaqa o'dag'ayladi. — Otchetlarni kim ko'chirdi! Yuring!— shunday dedi-yu, Nargisxonni xonasiga boshlab kirib ketdi.

Voy, dimog'ingga bedanam qo'nsin! Rais bo'lmoq tugul payg'ambar bo'lmay-sanmi?! Nega do'q qilasan! O'tkazib qo'yan joying bormi! Kelib-kelib Nargisxonga-ya!

Bir to'polon ko'targim keldi-yu, to'g'risi, Nargisxondan uyaldim.

Isaning alami Musadan deb, Chori bechoraning kaltak yegani qoldi. Urganim yo'g'-u, shunga o'xshaganroq ish bo'ldi.

Tushlik paytida tol tagida ko'kragimni yerga berib yotsam, sho'rva ichib bo'lib, nos chekib kayfini surayotgan Chori vaysab qoldi.

— Esitdingmi, o'v, Qo'so... — dedi og'zida nos borligi uchun tili yaxshi ayatlanmay, — Rais bovaning bir sekretari bor... Sunaqa siroyli, sunaqa siroyli, bir qosiq suvminan yutsang, zoning rohat qiladi...

— Nima?— uchi bordim-u, belidan olib, kuchim boricha hovuzga otdim. Chori bechora hovuzning qoq o'rtasiga sholoplab tushdi. Boyadan beri tinimsiz vaqillayotgan qurbaqalar in-iniga urib ketdi. Tolga bog'loqliq Tulporim shataloq otib qochmoqchi bo'ldi-yu, arqonni uzolmadi. Chori amallab qaddini rostladi. Negadir ko'zi ola-kula bo'lib o'qchiy boshladi.

— Nos ketdi!— eski sholchaga yonboshlab yotgan Panji dik etib o'rnidan turdi-yu, ayuhannos soldi.

— Ichagiga nos ketib qoldi! Kaftini to'ldirib otgan edi. O'lib qoladi, bola!

— O'lsin!— dedim jinnilardek yer tepinib.— O'laversin! Agar Nargisxonni yana bir marta...

Chori loyqalanib ketgan suvdan hovuchlab besh-olti marta

ichdi-da, cho‘zib-cho‘zib kekirdi.

— Ahmoq! — dedi yoshlangan ko‘zlarini ishqalab. — Nima qildim senga?

— Yana bir marta gapirsang...— so‘kmoqchi edim-u, ahvolini ko‘rib rahmim keldi. — Chiq!— dedim o‘dag‘aylab.

— Chiqolmayman! — Chori hovuz o‘rtasida turganacha gavdasini u yoq-bu yoqqa lapanglatib qo‘ydi. — Belimgacha loyga botib qoldim! Tort!

Etigimni yechib suvga tushishga majbur bo‘ldim. Bechora rostdan ham beligacha balchiqqa sanchilib qolgan ekan. Tortib chiqquncha o‘zimning ham sillam qurib ketdi. Chorining etiklari sho‘ltillar, shimi achimsiq loyga belangan edi.

— Belni yeding, xumpar! — dedi afti burishib.— Shuni avvalroq aytmaysanmi, uyini ko‘rsatib qo‘ymaymanmi!

— Jon jo‘rajon! — Chorining etigini oyog‘idan sug‘urib olarkanman yalinishga tushdim. — Rostdan ham ko‘rsatasanmi uyini!

— E, o‘! — uning afti avvalgidan battar burishib ketdi.— Voy belim-a! — dedi inqillab.

— Lolazor posyolkasida turadi. Shundoq univermag ro‘parasida, — yana beli sirqilladi shekilli alam bilan to‘ng‘illadi. — Ko‘nglingga qo‘tir jomoshov! Jovli akaning jiyani bo‘ladi-u! Senga ko‘zi uchib turibdimi?

— Oborasan-a? — dedim Chorini etigini hafsula bilan yuvarkanman. — Mayli, belingni uqalab qo‘yaman. Og‘ritmasdan uqalayman.

...Chori aytganini qildi. Ishdan keyin uzun-qisqa bo‘lib «Lolazor» posyolkasiga bordik. U univermag orqasidagi kattakon temir darvozani ko‘rsatib, «shu!» dedi-yu, ura qochdi. Nazarimda Nargisxonning priyomchik tog‘asidan, raypoda rais bo‘lib ishlaydigan otasidan qo‘rqdi. Chori qo‘rqsa-qo‘rqar. Men nimadan cho‘chiyman?.. Darvoza yaqiniga bordim, kun bo‘yi oftobda qizib yotgan darvozani siladim. Qarasam, bir tavaqasiga qip-qizil tili osilgan itning rasmi chizib qo‘yilibdi. Obbo! Bir kamim itga talanishim qoluvdi endi!

Qo‘rqa-pisa orqaga chekinib, uyni tomosha qildim. Uy emas, qasr! Pishiq g‘ishtdan qurilgan. Derazasidan mo‘ralayman degan odam kamida besh quloqli narvon topib kelishi kerak. Devorini aytmaysizmi? Zambarakning o‘qi teshib o‘tolmaydigan qal’a ham

bunchalik bo'lmas.

Oy chiqquncha ko'cha boshiga bordim-keldim, bordim-keldim. Ichkarida chiroq yondi. Kimdir televizor qo'ydi shekilli, derazalardan birida zangori nur ko'rindi. Ammo hech kim darvozadan chiqmadi, kirmadi-yam!

Ketdik, tarvuzimiz qo'ltig'imizdan tushib! Xato qipman! Asli Tulporinmi minib kelsam bo'larkan. «Lolazor» kam deganda sakkiz chaqirimcha ekan. Piyoda tuproq kechib uyga yetgunimcha tong yorishdi.

O'n to'rtinchi bob

«IG'VOGAR»

Rais buva «hushyor bo'l, brigadanga ig'vogar borib qolsa ajabmas» deb yurganCHA bor ekan.

Bugun o'sha ig'vogar keldi. Yigitlar-ku, tushlikda qornini qappaytirib olishgan. Men bo'lsam, deyarli qurib qolgan tol panasida sahroi Kabirga aylanib ketgan doimiy joyimda o'rnimdan jilishga madorim kelmay yotgan edim. Tag'inam fil ekanman. Mana, masalan, siz bir kun emas, bir hafta emas, rosa bir oy nuqul havo bilan ovqatlanib ko'ring, holingiz nima kecharkin? Ninachiga aylanib qolarsiz!

Shunday qilib deng, ko'ksimni yerga berib yotsam, Tulporim hangrab qoldi. To'g'risini aytsam, Tulporimni ilgarigi shashti yo'q. Avvallari qandoq edi! G'ayratga kirib bir o'kirsa yetti qishloq naridagi eshaklar pildir-pis bo'lib qolardi. Hozir unaqa emas, madori yetganCHA ikki-uch hangraydi-yu, dami ichiga tushib ketadi. Bilaman. Ungayam qiyin. Birinchidan, qarib qoldi. Ikkinchidan, mening dardi-hasratimni eshitaverib yuragi ezilib tamom bo'ldi. Chamamda, davleniyasi oshib, xafaqon bo'p qoldiyov. Uchinchidan, har kuni kechasi roppa-rosa o'n olti chaqirim yo'l bosadi. Sakkiz chaqirim «Lolazor»ga, sakkiz chaqirim orqaga. Har kuni ishdan keyin ikkalamiz Nargisxonning muborak darvozasini ziyorat qilib kelamiz. Kecha kechasi ham borganmiz. Turib-turib qaytib kelganmiz... Charchaydi-da, sho'rlik.

Shundoq qilib deng, mudrab yotsam, Tulporim hangrab qoldi. Sovuqqina, hazingina hangradi. Yigirma minutCHA oldin ham «soat to'rt bo'ldi», deb xabar bergan edi-ku! Qarib miyasi aynib qoldimi, nima balo!

Erinchoqlik bilan boshimni ko'tarsam, shiyponda bir odam chordana qurib o'tiribdi.

Darrov sezdim, o'zimizning qishloqdan emas. Ammo gazetadan keladigan muxbirlargayam o'xshamaydi. Radiodan desam, ashqol-dashqoli yo'q. Kiyinishi ham o'zimiz qatori. Oyog'ida chang bosgan etik, egnida, oftobda unniqib ketgan yengsiz ko'ylak, boshida eski do'ppi.

— Keling, mehmon! — deb o'rnimdan qo'zg'algan edim, mehmon, xijolat chekib, qo'l siltadi.

— Qimirlamang, Bahuzur. Dam olavering.

— E, bo'ldi! — dedim qo'shqo'llab so'rashib. — Dam olib bo'ldik. Hozir choy-poy...

— Ovora bo'lmang! — mehmon bilagimdan tutib, astoydil rad qildi.— O'tiring, siz — Qo'shojonsiz-a?

— Ha! — dedim hayron bo'lib.

— Mening familiyam — Ergashev!— mehmon ko'zimga sinovchan tikildi.

Xayolimda bir sapchib tushgandek bo'ldim-u, sezdirmadim. Voy ablah-ey! Rais buva aytgan ig'vogar sen ekansan-da! Ajab, ig'vogar deganda yuzidan zahar tomib turadigan, qora ko'zoynak taqadigan, ozg'inligidan ikki chakagi ich-ichiga kirib ketgan odam ko'z oldimga kelardi. Tavba, fitnachilar ham o'zimizga o'xshagan odam bo'larkan-da!

— Men — iqtisodchiman, Qo'shojon!— dedi ig'vogar xotirjamlik bilan.— Texnikumda dars beraman...

Qarang, muloyim bo'lib qo'ynimga kiryapti. Ekonomist bo'lsang o'zingga! Laqilatmoqchimisan? Ko'ramiz kim-kimni avrar ekan! Rais buvaning «nima so'rasa bilmayman, deb turaver» degani esimga tushdi.

— Bilmayman! — dedim to'ng'illab.

— Bo'lishi mumkin,— Ergashev kulimsiradi. (Kulimsirashiyam o'zimizga o'xshaydi, yaramas!) — Lekin men sizni bilaman. Siz — mashhur brigadir Qo'shoqjon Salimovsiz.

— Bilmayman!

— Otangiz Salimov aka «Mash'al» kolxozida ancha yil buxgalter bo'lib ishlaganlar.

— Bilmayman!..

— Nima uchun Alimov rais bo'lib kelganidan keyin ko'p

o'tmay otangiz buxgalterlikdan bo'shaganlarini bilasizmi?

— Bilmayman!

Ig'vogar uzoq jimib qoldi. Xo'rsindi.

— Qo'shoqjon... — dedi sekin.— Ayting-chi, dunyoda eng og'ir gunoh nima?

— Bilmayman!

— Men bilaman! — dedi ko'zimga tikilib. Shundagina sezdim. Ko'zi odamga chaqir tikanakdek qadalarkan. Rais buva «ehtiyot bo'l» deganicha bor ekan. — Dunyoda eng og'ir gunoh — o'z onasini xo'rlash!— dedi u dona-dona qilib.

— Nima?— qonim qaynab ketdi. — Kim onasini xo'rlabdi!

— Hammamiz...

Jinnimi bu? Nima deb vaysayapti?

— Og'zingizga qarab gapiring, aka! — dedim tahlid bilan.

U mendan ko'z uzib, paxtazorga qaradi.

— Mana shu yer, — dedi qo'li bilan imo qilib. — O'zimizning onamiz, to'g'rimi? Biz nima qilyapmiz o'zi? Dam berish o'rniga, bir yil-ikki yil, hordiq berish o'rniga paxta ekamiz! Bada sepdik deymiz, paxta ekamiz. Almashlab makka ekdik deymiz, paxta ekamiz! Bir hissa o'rniga o'n hissa, yigirma hissa, ellik hissa dori sepamiz. O'z onamizga o'zimiz zahar tiqishtiramiz. Ona-ku bolasining gunohini kechirsa kechirar, lekin Yer odamlarning gunohini kechirmaydi. Bir kuni shunaqa qasos oladiki...— u yana yarq etib ko'zimga qaradi... Ilonmi, nima balo! Quyonna avragan ajdardek odamni sehrlab qo'yadiya. Qanchadan-qancha yo'g'on komissiyalardan qo'rqmagan Rais buva bittagina ig'vogardan shunchalik cho'chigani bejiz emas ekan-da.

— Bugun birov el-yurtni aldab planni do'ndiradi,— dedi u hamon ko'zini ko'zimdanda uzmay. — Ertaga yer adoyi-tamom bo'ladi. O'ladi, tushunyapsizmi, o'ladi! — u chuqur xo'rsindi.— Tomorqangizga nima ekkansiz?

— Makka!

— To'g'ri, Negaki makka ekmasangiz, bitta sigiringiz bilan ikkita qo'yingiz och qoladi.

Voy shum-ey! Bitta sigir, ikkita qo'yimiz borligini qayoqdan bildi bu!

— Kolxoz ham ekadi o'sha makkani!— u istehzoli iljaydi.— Dalaga emas, qog'ozga. Keyin mollar falon tonna jo'xori yedi, deb ma'lumot yoziladi. Qog'ozga shunaqangi ko'p makka ekiladiki,

hammasini esa sigir tugul filning ham qorni yorilib ketardi. Ammo sigirning tili yo‘q. Yemadim deyolmaydi. Makka o‘rniga tag‘in paxta ekiladi. Qog‘ozda makka, aslida paxta, to‘g‘rimi?

— Bilmayman, — dedim to‘ng‘illab.

— O‘zingiz qishloqda turib, uzumni shahardan sotib olasiz! Ichimdagi gaplarni ko‘zimdan uqib olayapti-ku bu!

— E, bilmayman, — dedim teskari qarab.

Endi turib ketmoqchi edim u qo‘limdan tutdi.

— Shoshmang! — dedi sekin. Sekin gapirsayam ovozi shunaqangi hokimona ediki, esankirab qoldim. — Qo‘shoqjon!

— bu safar u ko‘zimga iltijo bilan termulgandek bo‘ldi. — Gektaridan ellik bir sentnerdan olganingiz to‘g‘rimi?

— Bilmayman!

— Nega bilmaysiz, gazetada chiqdi-ku, axir!

— Gazetada chiqqan bo‘lsa, bundan chiqdi, olganmiz! — dedim zarda bilan.

— Bu yil ellik uch sentnerdan olmoqchisiz, shunaqami?

— Olamiz, ishonmasangiz Rais buvadan so‘rang!

— Rais buvani qo‘ya turing,— u yelkamga do‘stona qo‘l tashladi. (Qarang, yana avrayapti).— Men sizga aytaymi, Qo‘shoqjon! Akademiyaning tajriba uchastkasida ham bunaqa olish amrimahol. Siz — olgansiz. Qandoq qilib?

— Bilmayman!

— O‘tgan mavsumda bir mashinada uch yuz ellik tonna paxta tergansiz.

— Terganman! Qutuldimmi?

— Unaq bo‘lsa, ikki yuzta hasharchini nega salkam uch oy ushlab turdinglar?— ig‘vogar kuldi. Juda xunuk kularkan. Basharasi xuddi yig‘layotgan odamga o‘xshaydi.— Bitta mashinada ikki yuz ellik tonnadan ortiq paxta terib bo‘lmaydi, ukajon!— dedi yalingudek bo‘lib.

— E, boring, men sizning ukangiz emasman!— dedim jonim chiqib,— Tinch qo‘yasizmi-yo‘qmi odamni!

— Bo‘pti, boravering,— u hafsalasi pir bo‘lib, yuzini o‘girdi. Hayronman, negadir oldidan ketgim kelmasdi. Jodu qilib qo‘ygani shudir-da!

— Qo‘shoqjon!— dedi bir mahal boshini chayqab.— Bilaman, sizlarning kolxozda qo‘shimcha maydon kam. Lekin maydon bir emas, ikki hissa ko‘p bo‘lganda ham gektaridan ellik uch

sentnerdan hosil olib bo'lmaydi... Bir narsa so'rasam, ko'nglingizga kelmaydimi? Faqat rostini ayting: mana, gazetalarda sizni maqtab chiqishadi. Ellik sentnerchi deyishadi. Shunga o'zingiz xursandmisiz?

— Bilmayman!

— Kechalari yaxshi uxlaysizmi?

Nima balo, jodugarmi bu? Hali Nargisxonni sevib qolganim-niyam aytib berar!

— Bir yarim oydan oshdi: mijja qoqmayman, — dedim xo'rsinib.

— Ana! — u quvonib ketdi. — Nima, siz odamlarni ko'r deb o'ylaysizmi? — dedi hayajonlanib. — Eng yomoni shuki, odamlar sizga ishonmaydi. Qalbaki mash'alligingizni biladi. Siz, hammani ko'r deb o'ylaysiz-u, aslida o'zingiz ko'rsiz!

— Nima?— sapchib o'rnimdan turib ketdim. — Ig'vogar bo'lsangiz o'zingizga! Ammo odamni haqorat qilmang!

— Kechirasiz... UZR, — u yana yuzini o'girdi. — Brigadangizda qancha odam bor?

— Bilmayman!— dedim jahl bilan.

— Qiziq, brigadir, o'z a'zolarining sonini bilmasa!

— Bilaman!— dedim yer tepinib.— O'n bir kishi! Qutuldimmi yo familiyasiniyam aytaymi?

— Nega endi — ig'vogar hayratlanib yelkasini uchirdi.— Brigadangizda o'ttiz ikki kishi ishlaydi-ku!

Voy iblis-ey! Voy yaramas-ey! Endi tuhmat qilishga o'tdimi?

— Hov!— dedim bo'g'ilib. — Yana bir og'iz gapirsang...

U pinagini buzmadi.

— Hammasini bilaman, Qo'shoqjon! Mehnatni siz qilasiz, huzurini ular ko'radi! Rais, boshbux, ekonomist... Bular uzoqda o'trigan «aka»larining og'ziga qarab turadi. Besh million tonna so'rasa, olti million beramiz, deb keriladi. Gektaridan qirq sentnerdan hosil olgin, desa oltmish sentner olaman, deb og'iz ko'pirtiradi! Umrida paxtazorga kirmagan odam paxtani qayoqdan bilsin? Paxtakorning mehnati o'limdan qiyinligini qayoqdan bilsin?! Ularga paxtakorning o'zi kerakmas. Paxta kerak. Bular bo'lsa, ularning ko'nglini ovlab mansabga erishadi, orden oladi. Jaraq-jaraq pul ishlaydi.

Rostini aytsam, ig'vogarning bittayam gapiga tushunmadim. «Ular» degani kim, «bulari» kim? Ig'vogar bo'lsa hamon xira pashshadek g'ing'illab yotibdi.

— Ahvol shunday ketaversa, bilasizmi, oxiri nima bo‘ladi?
— Bilmayman!— dedim jonim xalqumimga kelib.—
Bilmayman!

U birpas jim qoldi-da ko‘zimga tikandek qadalib so‘radi:

—O‘n kun avval bir yuz sakson yetti so‘m maosh oldingiz,
to‘g‘rimi?

Nima? Yana qanaqa g‘avg‘o boshlamoqchi bu?

— Bultur kuzda olti yarim ming so‘m daromad qilgansiz.
Brigadangiz a‘zolari o‘rtacha to‘rt ming so‘mdan...

Bu yog‘iga chidolmay qoldim. Bu qandoq bedodlik! Nega
tuxmat qiladi! O‘tgan yili «gadovoy»da yuz o‘n so‘m olganman.
Bor-yo‘g‘i yuz o‘n so‘m! Qirq uch so‘m maosh olganimga uch
oydan oshdi. Nimaga tuhmat qiladi bu ablah!

— Yo‘qol!— yoqasiga qo‘shqo‘llab chang soldim. Bo‘yni
chumchuqnidek ingichkagina ekan-ku, ikki qo‘llab bo‘g‘ib
o‘tiribman. Bitta qo‘limning o‘ziyam yetib ortib qolarkan-ku!—
Xo‘, ablah,— dedim alam bilan.— Shuncha pulim bo‘lsa, allaqa-
chon uylanib olardim!— «Nargisxonga» degim keldi-yu, tilim
bormadi.— Nega tuhmat qilasan, nomard! Nega haqorat qilasan,
odamni, ig‘vogar!

Hushim joyiga kelib, mundoq qaragam, bechorani yuzi kesak
bo‘lib ketibdi. Labining ikki chetidan ko‘kimtir so‘lak oqayapti.
Qo‘limni bo‘shatishim bilan shilq etib yonboshga yiqildi. Yotgan
joyida oyoq-qo‘li baravar silkina boshladi. O‘takam yorilib ketdi,
bir bechorani o‘ldirib qo‘ydim shekilli! Yugurib bordim-u,
hovuzdan do‘ppimga suv to‘ldirib kelib, yuziga sepdim.

Ig‘vogar inqillab ko‘zini ochdi.

— Suv!— dedi ingrab.

Chopqillab borib, yana do‘ppimni to‘latib keldim. U uch-
to‘rt qultum ichdi-da, negadir labi titrab iljaydi.

— Bilardim,— dedi inqillab,— halol yigitligingni bilardim,
uka. Rahmat, Salim aka seni odam qilib tarbiyalagan ekan.

Qiziq, men uni o‘lar holatga solsam-u, bu rahmat desa. E, o‘l,
ig‘vogar bo‘lmay! Do‘ppimga tag‘in suv to‘ldirish uchun hovuzga
talpingan edim, orqa tomonda motor gurilladi. Cho‘nqayib o‘tirgan
ko‘yi qo‘ltig‘im ostidan qaragam, Rais buvaning «Niva»si chang-
to‘zon ko‘tarib, shiypon oldiga kelib to‘xtadi. Rais buva eshikni
qarsillatib yopib, tushdi-da, shiyponda hud-behud bo‘lib yotgan
ig‘vogarni ko‘rib negadir iljaydi.

— Bahay, tinchlikmi?— dedi menga qarab.

— Bilmayman! Hech nimani bilmayman!— shunday deb hovuz tomon o'g'irilgan edimki, o'ng tomondagi eshik ochilganini, mashinadan... kalta yengli guldor ko'ylak kiygan, sochini bitta qilib o'rib orqasiga tashlab olgan Nargisxon tushib kelayotganini ko'rdim. Do'ppimni hovuzga uloqtirib, oldiga chopib bordim. Shiypon tomondan Rais buvaning kinoyali ovozi keldi.

— Iya, ha, o'rtoq «yozuvchi?» Nima gap?..

— Hech nima...

— G'iybatchining jazosi shu bo'ladi, Ergaship!

Nargisxon avval shiyponda bir holatda o'tirgan ig'vogarga, keyin Rais buvaga, keyin menga qaradi. Dilimdagilarni hozir aytmasam, boshqa qulay fursat topilmasligini bilib, tutila-tutila gap boshladim.

— Nargisxon! Bilasizmi?..

U hayratlangandek yuzimga tikildi. Negadir qorayib, ozib ketibdi. Ishi ko'p-da bechoraning.

— Nargisxon... Men... men sizni ko'p izladim,— dedim ming'illab.— Idoraga bordim... O'n yetti marta. Uyingizga bordim. O'ttiz marta... Tulporim bilan... Qopog'on itingiz bor ekan...

U avval quvongandek bo'ldi, keyin, negadir qovog'ni soldi.

— Kerakmas,— dedi labini tishlab.

— Nega?

— Reks chindan ham qopog'on...

— Qopsa qopaversin! Yeb qo'ysayam mayli. Menga baribir.

Nargis endi jilmaygan edi, la'nati Rais buva yana gapning beliga tepdi.

— Qani, jo'nab qol-chi, Ergaship!— dedi ovozi gumburlab.— Tinchidingmi, endi?

Ig'vogar gandaraklabroq uch-to'rt qadam bosdi-da, negadir mening yonimga keldi. Qo'limni qattiq siqdi.

— Xayr!— sal nariroqqa bordi-da, orqasiga qaradi.— Tinchiganim yo'q!— dedi yig'lagudek iljayib.— Toki vijdonim tirik ekan, tinchimayman!

Uning gapi bu qulog'imdan kirib, unisidan chiqib ketdi. Qasdi bo'lsa Rais buva bilan olishaversin! Menga nima? Menga Nargis kerak!

— Nargisxon!— shunaqangi chuqur xo'rsindimki, bir yarim oydan beri ichimda qizib yotgan olov lovullab ketdi. Ovozim shu

qadar ingrab chiqdiki, Nargisxon yonib ketishdan qo‘rqdimi, lip etib o‘zini «Niva» ichiga urdi.

— Obbo azamat-ey!— Rais buva yelkanga shapatilaganida ham ikki ko‘zimni Nargisxon kirib ketgan mashinadan uzmadim.

— Obbo turxo‘r-ey!— Rais buva qo‘ltig‘imdan olib tol tagiga sudradi. Ergashib boryapman-u, ko‘zim mashinada. Nargis orqa o‘rindiqlarda o‘tiribdi. Biz tomonga qaramaydiyam.

— Voy tutxo‘r-ey! Ammo boplading, ig‘vogarni! Bir yo‘la o‘ldirib qo‘ya qolmading-da! Uzoqdan ko‘rib turuvdim! O‘ziniyam mushuk boladay ezg‘ilading. Malades!— Rais buva mashina tomonga tezgina qarab oldi.— Hammasi tushunarli,— dedi yelkanga tag‘in shapatilab.— Diding chakkimas, tutxo‘r!— U bir lahza o‘ylanib qoldi. Peshonasi tirishdi.— Jo‘rangdan umid yo‘q!— dedi salmoqlanib,— o‘qishini biritib kelsa, uylantiraman, deb yuruvdim, o‘sha yoqlarda qolib ketdi. Bilmadim, bu yog‘i nima bo‘ladi. Esingdami hov birda men senga otalik qilaman degandim. O‘sha gapim — gap! To‘y qilamiz...— dedi to‘satdan.— Anchadan beri sezib yuribman. Bilaman, yaxshi ko‘rasan, shu qizni... O‘zim sovchilik qilaman.— U bir zum ikkilangan ko‘yi jimib qoldi.— To‘g‘ri, Jovli Mengliyevichlar katta dargoh. Ammo men o‘rtaga tushsam, g‘ing deyolmaydi. Qo‘lni tashla, tutxo‘r! Senga otalik qilganim bo‘lsin! Bir oy ichida to‘yingni o‘tkazmagan — nomard!

Mashina chang-to‘zon ko‘tarib ko‘zdan g‘oyib bo‘lganidan keyingina hushim joyiga keldi. Nima dedi Rais buva? «Shu qizni oberaman» dedimi! «Bir oy ichida to‘y qilamiz» dedimi! Nahotki? Nahot shu gap rost bo‘lsa!

Tolga bog‘log‘liq turgan Tulporim ham Rais buvaning gapini tushundimi, o‘zining yoshligini esladimi, quloqlari dikkayib, irg‘ishlay ketdi.

— Eshitdingmi, oshna!— dedim Tulporimning bo‘ynidan quchoqlab.— Rais buvaning gapini eshitdingmi?

Ko‘zimga tikilib turib, xuddi folbindek dilimdagi gaplarni aytib bergan ig‘vogar ham, uch oydan beri maosh olmaganim ham paqqos esimdan chiqib ketdi. Ko‘z o‘ngimda Nargisxonu, qulog‘imda Rais buvaning gapi: «Bir oy ichida to‘yingni o‘tkazmagan nomard!»

Kechgacha shunaqangi g‘ayrat bilan ishladimki, traktorimni chiyillatib yubordim!

O'n beshinchi bob

RAIS BUVA OTALIK QILMOQCHI

Bugun kolxoz idorasida majlis bo'ldi. Juda katta majlis. Hatto Raykom buva ham, xloppunktida yarim kechasi yig'ilish bo'lganida qatnashgan semiz kishi — obkom vakili ham keldi. Xo'p antiqa gaplar aytildi. Shoshmang, majlis-ku, o'z yo'liga! Avval akang qarag'ayning hayotida ro'y bergan baxtli voqealarni aytmasam, paq etib yorilib ketaman. Uvolimga qolasiz!

O'shanda Rais buva senga o'zim sovchilik qilaman deganida, harchand quvonmay, ko'pam ishongim kelmagandi. Buyam patpat olib beraman, degan gapdek bo'lsa kerak-da, deb o'ylagan edim. Buni qarangki, indiniga yarim kechasi uyga kelsam, (Tulporim bilan lo'killab tag'in «Lolazor»ga borgandik), hovlimiz gul-gul ochilib ketibdi. Suvlar sepilgan, hammayoq chinni-chiroq qilib supurilgan... Radio varanglab «Uchquduq»ni aytib yotibdi. Oshxonada singlim Mavju osh damlayapti. Jiyanchamni ko'tarib olgan onam meni kamida o'n yil ko'rmagandek quchoqlab, bag'riga bosdi. Jiyancham fursatdan foydalanib burnimga chang soldi. (Bodring deb o'yladi shekilli, shunaqangi kuch bilan tortdiki, uzib olishiga bir bahya qoldi). Burun achishganiga parvo qilmay, jiyanchani o'pib erkalatdik. Shirin bolada, o'ziyam.

— Baxting ochildi, o'g'lim!— dedi onam negadir o'pkasi to'lib.— Peshonang yaraqlagan yigit ekansan. Tezroq kir, pochchangga salom ber!

Hayron bo'ldim.

— Qanaqa pochcha?

— Mavjuning eri-da! Sendan bir yosh katta-ku, pochcha bo'ladi-da, bolam!

Yoshi katta bo'lsa o'ziga! Birinchidan u — opamning emas, singlimning eri! Demak — kuyov! Ikkinchidan, Juni urganda o'lasi qilib do'pposlaganimdan beri gaplashmaymiz. Qolaversa, keyingi ikki yilda bittayam zapchast bermadi. Shunga salom berishim kerakmi, endi?

Onam ikkilanib turganimni sezdi. Yelkamga qoqdi.

— Kira qol, jon bolam. Pochchang xushxablar obkeldi. Peshindan beri kutib o'tiribdi.

Ayvonga chiqib etik yechayotsam, ichkarida gungur-gungur suhbat! «Nargisxon!, «Jovli Mengliyevich», «Raypo» degan soʻzlar qulogʻimga chalindi... Bir gap bor shekilli...

Eshikdan kirishim bilan xontaxta toʻrida oʻtirgan kuyov dik etib oʻrnidan turdi. (Avvallari shimining dazmoli buzilishidan qoʻrqib stulda oʻtirardi. Yoʻq, bu safar loʻla bolishga yonboshlagan cha dadam bilan bemalol chaqchaqlashyapti).

— Qani, suyunchini choʻzing, kuyovtoʻra!— dedi shangʻillab. Jinday «otib olgan» shekilli, quchoqlashib koʻrishdi. Dimogʻimga achimsiq hid urildi.— Shu dardingiz bor ekan, boshda aytmay-sizmi, Qoʻshoqjon! Biz sizga begonami?

— Nima?— dedim garangsib.

— Qarang, tagʻin oʻzini goʻllikka soladi, amaki!— (dadamni «amaki» deydi),— Qoʻshoqjon balo, amaki, Nargisxondek qizning boshini aylantirib qoʻyibdi. Toʻyni yurishtirib yubordik, kuyovtoʻra!

— Rostdanmi?— uyda dadam oʻtirgani ham paqqos esimdan chiqib ketdi. Kuyovning terlab turgan yuzidan choʻlpillatib oʻpib oldim.

U iljayib joyiga borib oʻtirdi.

— Koʻrdingizmi?— dedi dadamga.— Jigaridan urgan. Ammo oʻziyam zoʻr joyga quda boʻladigan boʻldingizda, amaki.

Uyalgan kishi boʻlib, poygakka choʻnqaydim.

— Choy bormi?— dedim odob bilan.

— E, choyni qoʻysang-chi, zoʻr!— kuyovning qip-qizil yuzi yalpayib ketdi.— Oʻtkirroqʻidan olib ke!— dedi dilkashlik bilan shangʻillab.

Otamga qarasam, qovogʻi soliq. Lunji uchay-uchay deyapti-yu, oʻzini tiyib oʻtiribdi.

— Quda bilan maqtanadigan odatim yoʻq,— dedi toʻngʻillab.

— Iye, qiziqmisiz, amaki,— kuyov yana shangʻilladi.— Oʻgʻlingizning boshiga baxt qushi qoʻnib turibdi-yu, siz noz qilasizmi? Otasi raypo boʻlsa, togʻasi kimsan Jovli Mengliyevich boʻlsa...

Dadamning lunji uchdi.

— Menga nima? — dedi chimirilib.— Rayposiyam, priyomchigiyam bir goʻr!

Nima? Dadam qanaqa oʻzi? Qachon qarasa, yoʻlimga toʻgʻanoq boʻladi! Endi otamning qaysarligi deb Nargisxondan quruq qolishim kerakmi? Bekorlarni beshtasini aytibdi! Shunaqa qilsa...

— O‘ylab gapiryapsizmi?— dedi kuyov ham ranjib.— Nima qilasiz, pishib turgan oshni lanj qilib... Aytdim-ku, kecha Rais bova meni idoraga chaqirib hammasini tushuntirdi. Ochig‘ini aytsam, shu qizni o‘zim kelin qilmoqchi edim, Shodivoy nobakor bola chiqdi, dedi. Qo‘shoqvoyni ham o‘z o‘g‘limdek yaxshi ko‘raman. Toshkentga oborib o‘qishga joylashtirilmaganimdan hamon uyalib yuraman, qaytaga Shodivoy emas, shu bola o‘qib kelsa ko‘proq foydasi tegardi, dedi. Endi shu qiz begonaga ketmasin, deymen, dedi, amaki! Rais bova o‘rtaga tushmaganida qudangiz siz tugul raykomgayam eshigini ochmasdi.

— Xuddi o‘sha Rais bovaning o‘rtaga tushgani yoqmay turibdi,— dadam qaysarlik bilan yuzini o‘girdi.

Onam dadamning fe‘lini bilgani uchunmi yo xuddi shu gapni kutib, eshikda poylab turgan ekanmi, jiyanchamni ko‘targancha shaxd bilan kirib keldi. To‘satdan shunaqangi shovqin soldiki, qo‘lidagi jiyancham chinqirib yig‘lab yubordi.

— Qanaqa otasiz, o‘zi? Shundoq odamlar g‘unchadek qizini dala dumbul o‘g‘lingizga beraman desa! Rais bovadek kishi... — u chirillab yig‘layotgan bolani kuyovga uzatdi. — Ushlab turing. Rais bovaday kishi o‘rtaga tushsa! Jovli akadek odam raisning yuzidan o‘tolmay xo‘p desa, tag‘in nima nozingiz bor. Notavon ko‘ngilga qo‘tir jomashov!

— Shuni ayting!— kuyov hamon yig‘layotgan o‘g‘ilchasini ovutishga urindi. — Bo‘ldi, ulim, bo‘ldi...— otamga yuzlanib, o‘shqirdi.— U qizga kimlar xaridor bo‘lganini bilasizmi? Raymilisiyaning nachalnigi o‘g‘liga so‘ragan. Glavvrach ukasiga so‘ratgan. Nima qilaylik, qiz o‘g‘lingizga ko‘ngil qo‘yibdi. Shuning o‘zi Qo‘shoqjonning omadi chopgani emasmi?

Nima? Nima dedi kuyov? Bundan chiqdi, Nargisxonning o‘ziyam... Shartta o‘rnimdan turib, kuyovni belidan ko‘tarib besholti marta chirpirak qilib aylantirmoqchi edim, onam to‘satdan yig‘lab yubordi.

— Xarajatidan qochayotgan bo‘lsangiz mayli!— dedi rostmana xo‘ngrab.— Xudoga shukur. Ukam bor! Jiyaningni to‘yiga bittagina xo‘kiz, to‘rttagina qo‘y to‘yana qil desam, bo‘yin tovlamas.

— Qalin puli bizdan!— kuyov sal ikkilanibroq turdi-da, qo‘shib qo‘ydi. — Bilaman, sizni qo‘lingiz qisqaroq. Pensiyadagi odamsiz, lekin xayrli ishni cho‘zib bo‘lmaydi...— Mayli, ichkilikniyam bir chekkasini ko‘tarishib yuboramiz. Begona emasmiz-ku, axir...

Ikki yosh bir-biriga ko'ngil qo'ygan bo'lsa...

— Ana!— onam endi yig'lamay qo'ydi. Ovozi yanayam dadillashdi.— Bitta o'g'lingiz uchun uzatgan oyog'ingizni yig'may qo'ya qoling!

Malades, o'zimizning onamiz! Bormisiz, enajon!

— Siz ertaga sovchilikka boravering!— dedi kuyov onamga qarab.— Bir borishda kelin tomon non sindirmasa, biz kafil!

Dadam lunji uchib-uchib o'tirdi-da, «bilmadim-ov», deb qo'ydi. Bu uning rozi bo'lgani edi. Xayriyat, ancha yengil tortdim.

Keyingi voqealarni xuddi tushimda ko'rayotgandek bo'ldim. Kuyov rost aytgan ekan. Onam birinchi borishida kelin tomon non ushatishibdi. Keyin akang qarag'ayning, ya'ni kuyovto'raning noni sindirildi. Bundan chiqdi, tamom! Nargisxon endi bizning jufti halolimiz! Dadam ham shundoq odamlarga quda bo'layotganiga ishondi: hovli devorining kamgak jolariga guvala bosib, qaytadan somon suvoq qilishga kirishdi.

Bundan ortiq baxt bormi odamga! Rais buvaning yaxshiligini nima bilan qaytaray! Shodivoy shundoq otasini xafa qilib yuribdi. To'yni eson-omon o'tkazib olaylik, jo'ramni izlab Toshkentga boraman, topib aytaman, «sen — Shodi ahmoq ekansan» deyman. «Dadang tillo odam, xafa qilma, tezroq qishloqqa bor, seniyam uylab qo'yadi» deyman! (Albatta, Nargisxonni unga mo'ljallaganiyu, akang qarag'ay ilib ketganini aytmayman. Nima qilaman xafa qilib, jo'ramni!)

Qarang, shu paytgacha kuyovimizniyam bilmagan ekanmandada. Yigitning mardi shu ekan-ku!

Tog'amni aytmysizmi! Oyim qudanikida non sindirib kelgan kunning ertasiga eshigimiz oldida «ZIL» mashina voshillab to'xtadi. Kabinadan tog'am tushib, mashina orqasiga zing'illab o'tdi.

— Bortni ochishib yubor, jiyan!— dedi iljayib. Qarasam, mashina ustida filday buqa ko'ndalang turibdi. Qop-qora, shoxlari qayrilib ketgan. Qontalash ko'zlari odamga o'qrayib qaraydi.

— Ehtiyot bo'l,— dedi tog'am bortga chiqayotganimda.— Suzong'ich ekan ukkakor! O'ziyam bir qop pulga tushdi.

Aslida-ku, bizning taomilda qiz tomonga xo'kiz emas, o'ttitztami-qirqtami qo'y yuboriladi. Rais buva otamning qo'li qisqaligini bilgani uchun Jovli Mengliyevichga shipshib qo'yganmi, xullas, qudalarni bittagina buqa, besh-olti qo'yga ko'ndiribdi.

Kiroyi kelinnikiga yuboriladigan bo'lganidan keyin shunaqa

gijinglab turadigan buqa yaxshi-da! Bizni suzib bo'пти! Bort chetiga chandilab bog'langan arqonni yechib, sakrab tushdim-da, pastdan turib tortdim. Buqa erinibroq yerga tushdi. To'yib pivo ichgan odamdek og'zidan so'lak oqib, chayqalib-chayqalib, uch to'rt qadam bosdi. Mastmi, nima balo?

Eshikdan kirguncha indamay kelayotgan edi. Keyin nima jin urdi, bilmayman! Bir mahal qalin lablari bilan yerni iskab, tahdidli ovozda «mo'o'» deb o'kirdi-yu, nayzadek shoxlarini naqd qornimga to'g'rilagancha tashlanib qoldi! Tog'amning yelkasiga qoqib nuqul duo qilayotgan onam chinqirib yubordi!

— Qoch! O'ldiradi! Voy sho'rim.

Onamning maslahatisiz ham arqonni tashlab, allaqachon juftak rostlab qolgan edim. Qancha tez qochsam, buqa la'natiyam ketimdan shuncha tez yuguradi. Hayvonda, hayvon! Qadamidan yer titraydi. Hovlini uch marta aylanib chiqdik. Jon holatda yugurib borib, burchakda uyib qo'yilgan g'o'zapoya ustiga chiqib ketibman. Boshini quyi solib kelayotgan buqa, mo'ljalni xatoroq oldi, shekilli, kuchi boricha tandirga kalla urdi. Boshini g'olibona ko'targan edi, shoxiga tandir ilashib chiqdi. Sho'rlik boshini uyoqqa silkitadi buyoqqa silkitadi, qani tandirdan qutulsa! G'azab bilan mo'ragancha dumini xoda qilib yugurdi! Boshi tandir ichida qolib yo'lni topolmagani uchunmi, shu ketgancha shataloq otib bordi-yu, tomorqa tomondagi devorga urildi. Gurs etgan ovozdan hammayoq zirillab ketdi. Buqaning boshiga ilashib qolgan tandir uvalanib yerga to'kildi. Buqa orqaga tisarilib, uvvalo chiranadi, qani qimirlatsa! G'o'zapoya ustida o'tirib, qo'rqa-pisa razm solsam, ikkala shoxi yangidan guvala bosib suvalgan devorga sanchilib qopti! O'l, bu kuningdan, battar bo'! Tog'am, dadam, men uchovlashib, ikki shoxiga, bo'yniga arqon solib, molxonaga kirgizib qo'ydik. Eson-omon kelin tomonga jo'natib yuborsak bo'ldi. Pishirib eydimi, xomligicha eydimi, o'zlari biladi!

To'y taraddudi qizib ketdi. Singlim har kuni enam bilan raysentrga yuguradi. Kelinga sarpo-suriq, ko'rpa qavitish, balo-battar degan gaplar bor, axir!

Faqat Nargisxon kamnamo bo'p ketdi. Kunora idora oldiga boraman, derazadan manishka chiqillashiyam eshitilmay qoldi. Mayli, kelin degan kuyov bilan elburutdan yetaklashib yursa uyat bo'ladi. Ko'pi ketib, ozi qoldi. Ikki haftadan keyin — to'y!

Siz tomonlarda qanaqa bilmadim-u, bizda to'ylar nuqul qishda

bo'ladi. To'g'ri-da, to'y bo'lgandan keyin odamlar yayrashi kerakmi? Kerak! Bizning odamlar onda-sonda ichadi. Ammo bir ichsa hurmachasi yorilib ketguncha ichadi. Bundan chiqdi, ertasiga ishga chiqolmaydi. Shuning uchun to'ylar qishda, xotirjam pallada qilinadi. Menga qolganda Rais buva tag'in bir otalik qildi. Nargisxon ikkalamiz Layli Majnun bo'lib yurganimizni tushunib, to'yni yozda o'tkazishimizga rozilik berdi. Rozilik berdimas, o'zi bosh-qosh bo'lyapti. Har ko'rganda «qalay, tutxo'r, kamchiliklar yo'qmi?» deb so'rab qo'yadi. Hatto bugungi majlisdan keyin ham shuni so'radi. Umuman, bugun umrimdagi eng baxtli kun bo'ldi. To'g'risi, majlisdagi gaplarga quloq ham solmadim. Eng yaxshisi shu bo'ldiki... aytaveraymi? Bugun... bugun meni Nargisxon o'pdi. O'zi o'pdi. Birinchi bo'lib!

Majlis ertalab soat o'nlarda boshlandi. Uzoqdagi brigadalardan ham kolxozchilar olib kelingan, shekilli, idora oldida yuk mashinalari, telejkalar tirband. Ishonasizmi, birinchi qavatdagi zalga odamlar tiqilib ketdi. Orqaroq qatorda biz ham o'tiribmiz. Sahnaga yop-yorug'. Havorang movut qoplangan stolga atirgullar qo'yilgan...

Sahnaga Rais buva, Raykom buva, semiz kishi — obkom vakili, melisanikiga o'xshagan forma kiygan bir odam, men tanimaydigan yana besh-olti kishi chiqishdi. Orasida ukkiko'z Jovli akam ham bor. E, tilimga tirsak chiqsin! Nega endi ukkiko'z bo'larkan. Ko'zlari bip-binoyi. Yuziyam chip-chiroyli. Boshini yelkasiga tortayotgani yo'q. Bir odamda husn bo'lsa shunchalik bo'ladi-da!

Hammayoq qarsakvozlik bo'lib ketdi. Shunda... to'satdan yuragim qinidan chiqib ketay dedi. Sapchib o'rnimdan turgan edim, orqamda o'tirgan Chori etagimdan tortdi.

— O'tir-e, terak!

Nega o'tirarkanman! Axir sahnaga Nargis chiqyaptiku! Egnida atlas ko'ylak, boshyalang. Sochini turmaklab olgan. Tomog'im quruqshab, nafas ololmay qoldim.

— O'rtoqlar! — dedi Rais buva. — O'rtoq kolxozchilar! Bilamiz, hozir dalada ish ko'p. Sizlarning qimmatli vaqtlaringizni olib, bu yerga yig'ishdan murod shuki, keyingi paytlarda rayonimizda Ergaship degan bir «yozuvchi» paydo bo'lgan edi. O'sha ig'vogar ishimizga ko'p halal berdi. Elni buzishga urindi. Qani, qayoqqacha borarkin deb qo'yib berdik. O'sha ablah...—

Rais buvaning ovozi qahrli tus oldi. — Siz hurmatli kolxozchilarning yutug‘ini kamsitmoqchi bo‘ldi. Hammamizga mag‘zava sepdi. Ammo haq joyida qaror topmay qo‘ymaydi. Viloyat, tuman tashkilotlari bu ishga aralashib, oq-qorani ajratdi. Bugun tuman gazetamizda Ergashning po‘stagini qoqadigan feleton chiqdi. Ana, o‘zlaring eshitinglar, — Rais buva to‘satdan Nargisxonga burildi. — O‘rtoq Qo‘shshayeva, marhamat qilib feletonni o‘qib bering! Odamlar qo‘ra ko‘lankaning kimligini bir bilib qo‘ysin!

Nargisxon sahnadagi stol burchagidan ohista turib, minbar tomon yura boshladi. Jimjit zalda kelinigizning muborak poshnalari qars-qurs etib turibdi. Bizning yurak gurs-gurs etadi.

Nargisxon minbarga chiqib, gazeta qatini ochdi.

— «Qora ko‘lanka», — dedi jarangdor tovushda. Qo‘ng‘iroqdek ovozlaringdan akang aylansin! Muncha shirinsan! Muncha chiroylisan! Muncha aqllisan, Nargisxon! Muncha baxtlisan, Qo‘shovoy! Nimaga yuraging tars yorilib ketmaydi, xumpar!

Hushimni yig‘ib olgunimcha Nargisxon feletonning yarmini o‘qib bo‘pti.

— «Yutuqlarimizni ko‘rolmaydigan, har yaxshidan bir yomon izlaydigan, jamiyatimizga dog‘ tushurayotgan bunaqa ko‘lankalar bizga yot!» — dedi u o‘qishda davom etib.

Qiziq, negadir ig‘vogarga rahmim keldi. Ig‘vogarmi, g‘iybatchimi, baribir yaxshi odam edi. Masalan, men eshakdek ishlab xemiri ololmayapganimini o‘sha aytuvdi-ku! Xloppunktga, paxta o‘rniga pul topshirishadi, deganiyam rost bo‘lsa-chi! Hov, o‘shanda, yarim kechasi paxta punktida majlis bo‘lganida Shaydul kassirning papkasini tushirib qoldirganimda nega bunchalik tipirchiladi? Balki... papkada... Yo‘q, juda kerakli hujjatlar dedi-ku!

Nargisxonning jarangdor ovozi hayolimni chilparchin qilib yubordi.

— Biz mehnat qilyapmiz. Halol, fidokorona ishlayapmiz. Yutuqlarimizni ko‘rolmaydigan Ergashev degan qora yurak esa...

Ovozlaringdan o‘zim o‘rgilay. Biyron tillaringdan akang aylansin. Nahotki mana shu farishta mening jufti halolim bo‘lsa! Nahot uning shahlo ko‘zlari, bejirim hindu xoli meniki bo‘lsa!

Nargisxon gazetani o‘qib bo‘lib, Rais buvaga uzatdi-da, joyiga borib o‘tirdi. Jon holatda qarsak chalib yubordim. Boshqalar ham jo‘r bo‘ldi.

— Qani, kim gapiradi? — dedi Rais buva oʻrnidan turib.

— Mumkinmi? — Raykom buvaning yonida oʻtirgan Jovli aka qoʻlini baland koʻtardi.

— Marhamat! Soʻz mejrayonniy xloppunkt priyomchigi Joyli Mengliyevichga!

Men ahmoq, Jovli aka, qarindoshim Jovli akaning koʻzlari shunaqangi chiroyliligini avval nega payqamabman-a? Qarang! Koʻzlari shunaqayam mehribon boqadi odamga, shunaqayam suzilib ketadi.

— Doʻslar! — dedi u kulimsirab.—Ergashev butun tuman, qolaversa, butun bayroqdor viloyatimizni salkam ikki yildan beri ovorai sarson qiladi. Mana feletondan koʻrinib turibdiki, u — borib turgan igʻvogor ekan! Menimcha, Ergashev nenormalniy odam. Uni jinnixonaga topshirish kerak. Biz...

Jovli aka endi gapning yogʻli joyiga kelganda, Raykom buva stolni shapatiladi.

— Yoʻq! — dedi hayqirib.— Ergashev jinni emas!

Joyli aka nima qilishini bilmay qoldi. Yaxshiyam Rais buva bor ekan. Darrov Raykov buvaga soʻz berib qoʻya qoldi.

— Soʻz — hammamiz uchun hurmatli Raykov bovaga.

Raykom buva minbarga chiqmadi. Turgan joyida gapini davom ettirdi.

— Bir latifa bor, eshitganmisizlar? Bir odam tegirmonga kirib, nuqul boshqalarning qopidagi unni hovuchlab-hovuchlab oʻzining qopiga solayotganmish. Tegirmonchi soʻrabdi. «Sen kimsan, nima qilayapsan?» desa, boyagi odam «Men — jinniman» debdi. Tegirmonchi aytibdi: «Jinni boʻlsang, nega oʻzingni qopingdagi unni boshqalarnikiga solmaysan» desa, boyagi aytarmish: «Men jinniman, lekin ahmoq emasman» dermish!

Zalda kulgi yangradi. Toʻgʻrirogʻi, eng avval Rais buva kuldi.

— Ergashev oʻshanaqa aqlli jinnilardan.

Raykom buvaning tomogʻidagi shaftoli danagidek uchburchak bagʻbaqasi liqillab ketdi.

— U bizning yutugʻimizni koʻrolmaydi. Toʻgʻrimi?— dedi u semiz kishiga — obkom vakiliga burilib.

Semiz kishi harsillab-gursillab oʻrnidan turdi. Minbarga borishga erindi shekilli, bu ham turgan joyida gapirib qoʻya qoldi.

— Ergashev faqat «Mashʼal»ga emas, boshqa xoʻjaliklarga ham tuhmat qilgan,— dedi suv tiqilgan surnaydek gʻiyqillab.— Faqat

sizning tumanga emas, boshqalarga ham borgan. Faqat paxtachilikni emas, chorvani ham o'zicha «taftish» qilgan.

— Tuvri!— birinchi qatordan asabiy tovush eshitildi.

Tanidim, ferma tog'aning ovozi.

— Tuvri,— dedi u baqirib.— Fermaga borib, tozza boshimni o'vritdi. Juz sovliqdan juz to'qson jetti qo'zi oldiq, desam o'zingiz qo'shilib tuvdig'izmi deydi, uying qurg'ur!

Boyadan beri suv quygandek jim turgan zal qahqahadan portlab ketgandek bo'ldi. Negadir obkom vakili aqalli jilmayib ham qo'ymadi.

— Nega kulasanlar? — o'rtaroq qatorda o'tirgan Shaydul kassir o'rnidan sapchib turib, qo'lini paxsa qildi.— Allaqanday bir g'alamis pok odamlarning yuziga loy chaplasa, shu kuladigan gapmi?

Zalga sekin-sekin jimlik cho'kdi.

— Gap shu! — dedi obkom vakili g'iyqillab.— Ergashevning ishini prokuraturaga oshirishga majbur bo'ldik. O'ziga o'zi jabr qildi. Oilasi ham bezor bo'lgan ekan. Xotini bilan suhbatlashdik. Anchadan buyon ajrashmoqchi bo'lib yurardim-u, ikki bolamni ko'zim qiymasdi, dedi. — U bir zum jimib qoldi-da, tahdid aralash so'radi.— Qani o'rtoqlar! Sizlarning orangizdayam shunaqa «Yozuvchilar» bormi? Marhamat! Hamma sharoitni yaratib beramiz. Markaz joylarga bormoqchi bo'lsa, qo'lga samolyot biletiniyam olib beramiz! Gastinialrga bronniyam to'g'rilaymiz. Bormi, shunaqa ig'vogar?!

Militsiyanikiga o'xshaydigan formali odam o'tirgan joyida miyig'ida kuldi:

— Qo'rqmanglar. Pajalista! Rayon prokuraturasi Ergashevga o'xshaganlarni izlab yuribdi o'zi...

Zalga g'alati jimlik cho'kdi.

— Marhamat, qo'rqmanglar!— dedi semiz kishi battar g'iyqillab.— Obkom bova bilan gaplashdik. Ergashevga o'xshaganlar bo'lsa, bemalol ig'vo qilaversin, dedilar. Bormi, shunaqa mard?

— UZR! — Rais buva xijolat chekib o'rnidan turdi.— «Mash'al»liklar unaqa emas. Bizning odamlar — halol! Elimiz g'iybatlarga uchmaydi. Mana, masalan, Qo'shoqjon Salimov! Bu yil gektaridan ellik uch sentnerdan hosil olishga bel bog'lagan ilg'or brigadirimiz. Qayoqdasan, Qo'shoqjon!

Meni chaqiryaptimi? Voy, men nima deyman? Tizzalarim

qaltirab ketdi.

— Tursang-chi!— orqamda o‘tirgan Chori gardanimga shunaqangi zarb bilan tushirdiki, gandraklab o‘rnimdan turganimni o‘zim bilmay qoldim.

— Qayoqdasan, Qo‘shoq!— dedi rais buva alang-jalang bo‘lib.

— Bu yoqda!— Chori bir hayqirgan edi, butun zal menga qaradi. Sahnaga razm solsam, Nargisxon ko‘zlari o‘tdek yonib, menga tikilib o‘tiribdi.

— Ig‘vogar sening brigadanga ham borgan edi-a? — dedi Rais buva.

— Bilmayman...— dedim ming‘illab.

Chamamda, gapim og‘zimdan chiqdi-yu, burnim eshitdi.

— O‘sha ablah, Salimovning brigadasiga ham borgan,— dedi Rais buva stolda o‘tirgan kattalarga yuzlanib.— Shu halol bolagayam tuhmat qilgan. Qo‘shoqjon malades yigit! Tuhmatga chidolmay ig‘vogarni bo‘g‘ib turganining ustiga borib qoldim. Ajratib olmasam o‘ldirib qo‘yardi. To‘g‘rimi, Salimov!

— Suv berayotgandim!— dedim bo‘ynimga olib.— Siz borganda hushi joyiga keluvdi.

— Ergaship senga tuhmat qildimi?

— Qildi,— dedim ovozimni baralla qo‘yib.— Bultur gadovoyda olti yarim ming so‘m olgansan deydi. O‘n kun ilgari bir yuz sakson so‘m maosh olding, deydi, nomard! Qani o‘sha pul? O‘zim to‘rt oydan beri...

Gapimni tugatolmadim. Qiyqiriq kulgu, qarsakdan qulog‘im yorilib ketay dedi.

— Jim! Tishe!— Rais buva stolni mushtladi.

— To‘rt oydan beri bir tiyin maosh olmagan bo‘lsang... Panjini aytmaysizmi? «Uylanaman deb qarzga botganman, maosh qachon tegadi», deb boshimni qotiradi.

— Bo‘ldi!— Rais buva negadir asabiy bosh silkidi.— Rahmat.

— Tursunboy aka bo‘lsa...— dedim dilimdagi gap qolib ketmasligi uchun shosha-pisha.

— Bo‘ldi, tushunarli...

— Oysara yangam...

— O‘chir-e!— Rais buva ko‘zlari olayib dag‘dag‘a qildi.— O‘tir!

O‘tirsak o‘tiraveramiz-da! Gapiraman deb ko‘zim uchib turibdimi?

— Koʻrdinglarmi?— Rais buva qoshini chimirdi.— Ergaship har xil kavarniy savollar bilan oddiy mehnatkashlarni chalgʻitmoqchi boʻlgan. Qarshi boʻlmasanglar menda bir taklif bor. Ergashipga oʻxshagan gʻalamislarning qilmishiga javoban bir ish qilsak... Bultur xoʻjaligimiz boʻyicha gektariga qirq uch sentnerdan hosil koʻtargan edik. Bu yilgi majburiyatimiz qirq besh sentner edi. Kelinglar, hammamiz uchun hurmatli obkom bovaga, raykom bovaga kolxoz boʻyicha gektaridan qirq sakkiz sentnerdan «oq oltin» olamiz deb oshirilgan majburiyat qabul qilamiz! Qani, bitta qarsak boʻlsin, oʻrtoqlar!

Rais buvaning oʻzi birinchi boʻlib qarsak chaldi. Gʻayrat bilan chaldi. Zaldagilar ham birin-ketin joʻr boʻldi... Boshqalarni bilmadimu, men majlis tezroq tugay qolsin, degan umidda oʻng kaftimni chap kaftimga urib qoʻya qoldim.

Toʻgʻri-da, majlis qancha tez bitsa, Nargisxon ham, men ham shuncha tez qutulamiz. Qachondan beri koʻrmadim, axir. Aqalli bir ogʻiz gaplashib olay! Endi oʻzirniki-ku, Nargisxon!

Hamma oʻzini eshikka urdi. Men boʻlsam, sahnadan koʻz uzmadim. Kattalar bitta-bitta sahna chetiga chiqib ketishdi. Faqat Nargisxon qoldi. Sahnada u, zalda, — men.

— Nargiz? — dedim baqirib.

Yoʻq, baqirmabman. Ovozim shivirlab chiqibdi. Ajab, u baribir eshitdi. Yalt etib men tomonga qaradi-yu, sahna chetidagi zinalardan tusha boshladi.

Qator turgan oʻrindiqlarni taraqlatganicha oʻsha tomonga yugurdim. Zalning oʻrtarogʻida roʻpara keldik.

— Nargis...— dedimu qoʻlidan ushlashga jurʻatim yetmadi.— Rozimisiz?

U koʻzimga tezgina qarab oldi.

— Siz...— dedi ovozi titrab. — Siz yaxshi odamsiz!

Shunday dedi-yu, iyagimdan choʻlp etib oʻpdi-da, sahna tomonga chopqillab ketdi. Oʻng yuzim yonib ketgandek boʻldi. Iyagimni silab koʻrsam... Gʻirt ahmoqman-da oʻzim! Koʻr-maysizmi, bugun soqolimni olmagan ekanman! Nargisxon oʻpgan joy lovullagan koʻyi angrayib qolaverdim. Shu ish rostdan ham oʻngimda boʻldimi? Nargis rostdan ham meni oʻpdimi?

Yuragim qinidan chiqqudek boʻlib tashqariga otildim.

Rais buva fontan yonida turgan qora «Volga»ga mehmonlarni

o'tkazayotgan ekan. Odob saqlab kutib turdim.

«Volga» jo'nab ketgach, u yonimga keldi.

— Obbo, guppi-ey!— dedi bosh chayqab.— Qovun tushirishin-gga bir bahya qoldi-ku, tentak... Mayli ziyoni yo'q,— u yosh yigitlardek ko'z qisdi.— Qalay, kamchiliklar yo'qmi? Qalliq o'yinga boryapsanmi? Nargisxon endi haloling-ku! Qachongacha o'rgataman senga, tutxo'r?!

O'n oltinchi bob

«QALLIQ O'YIN»

Biz eskilik sarqitlaridan qutulganmiz. Bir zamonlar «qalin» degan gap bo'larkan. Buni qarang-a, odam o'zi sevgan qizni sotib olsa! Borib turgan feodallikku, bu! «Sut puli» deyilsa, bu — boshqa gap! O'zingiz o'ylang: ona bechora qizchasi ko'krakdan ariguncha ozmuncha sut emizganmi? Qizchasini o'stirib, qog'ozga o'rog'liq qanddek qilib kuyovning qo'yniga sop qo'ygan onaning «sut puli» olishga haqqi bormi axir! Bo'pti-da, nima deysiz tag'in! (Dadam faqat eskilik sarqitlariga emas, yangilikka ham qarshi odam-da, o'zi! Singlimni uzatayotganimizda «ona suti pulga sotilmaydi» deb «sut haqi» olmagan. Onam bechora qancha xafa bo'lgandi, o'shanda).

Undan keyin... Avvallari kelinga kamida qirqta, bo'lmasa saksonta ko'ylak sovg'a qilinar ekan. Quda tomon ko'ylaklarni hamma ko'rsin deb qator qilib osib qo'yarkan. Buni qarang: kelin saksonta ko'ylakni nima qiladi? Har yili ikkitadan ko'ylak kiyganda ham shunchasini to'zitguncha qirq yil o'tib, kampir bo'lib qolmaydimi? Ustiga ustak semirishi bor, ozishi bor? Moda eskirishi bor! Hozir bu sarqitdan ham qutulganmiz. Bor-yo'g'i «to'qqiz» qilinadi. Ya'ni to'qqizta ro'mol (orasida puxovoy ro'mol ham, yaponskiy sim ro'mol ham bo'lishi shart), to'qqizta sirg'a (yoqut ko'zli, firuza ko'zli... Brilliant ko'zlisiyam teshib chiqmaydi). To'qqizta ko'ylak (atlas, parcha, zamonaviyrogi bo'lsin desangiz — shifon, laylo, kupon), to'qqiz juft tufli (baland poshnali, uyda kiyadigan, ko'chada kiyadigan, hovli supurganda kiyadigan, kir yuvganda kiyadigan), to'qqizta paypoq, to'qqizta uzuk, to'qqizta... yana nimaydi? Xullas, u yog'i himmatingizga bog'liq. To'g'ri-da! Kelin degani ochilib-sochilib yurishi kerakmi, axir. Yo uygayam, ko'chagayam bir xil kiyim kiysinmi?

Quda tomonga yuboriladigan o'ttizi-tami-qirqtami qo'y (biz oson qutuldik: bitta ho'kiz, bilan bor-yo'g'i to'rttagina qo'y berdik, xolos) yuz kilomi-ikki yuz kilomi guruch, o'n-o'n besh qop un, besh-o'n yashik ishkalad konfet, bir-ikki yashik choy, sabzi-piyoz... Xullas, arzimagan narsalar. Nima, quda tomon hammasini o'zi yermidi. El oldiga dasturxon yozadi, mana, bizni kuyovni ko'rib qo'yinglar, deydi.

Rais buva Sojida qizining to'ng'ich o'g'lini to'y qilganda (uylantirish emas, o'g'il to'yi qilganda) o'z ko'zim bilan ko'rganman: to'yxonaning qoq o'rtasidagi yuk mashinasi gurillab kirib kelgan. Mashina ustiga ichkilik to'la yashiklar taxlab qo'yilgan ekan. To'yga kelganlar o'z mavqeiga qarab, bir xillari bir yashik konyakmi, bir xillari ikki yashik aroqmi, vinomi, mashinadan o'zi tushirib olib to'yguncha ichgan edi... Biznikida qanaqa bo'lishini yana o'ylab ko'ramiz, hali orada «Rais chaqirdi» bor. Buyam o'ziga xos odat. To'y arafasida kolxozning eng aqlli, eng dono kattalari to'planib, bir qarorga kelishi kerakmi, axir? To'y degani kengashsiz bo'lmaydi-ku, to'g'rimi?!

Xullas, biz tomonlarda eskilik sarqitlari yo'qotilgan. Faqat bitta odat hamon bor. U ham bo'lsa «qalliq o'yin». Afsus, shundoq yaxshi udumimiz yo'qolib ketyapti. Butun boshli viloyatimizning nari borsa ikki-uch joyida saqlanib qolgan. Rostini aytaymi? «Qalliq o'yin» hech qanaqa «sarqit» emas! Menga qolsa, bu odatni butun O'zbekistonga yoyish kerak!

«Qalliq o'yin»ni kim o'ylab topgan bo'lsa, otasiga ming rahmat! Nima qipti! Kuyov o'z halolining uyiga boradi. Albatta, kunduzi — el nazarida emas, qorong'ilatibroq boradi. Albatta, eshikni ochib kirmaydi. Devor oshadimi, tuynukdan emaklaydimi, xullas, bir yo'lini topadi-da! Har borganida qo'lida kelinga atalgan bironta sovg'a bo'lishi shart. Atirmi, bir jo'ra atlasmi... mayli-da! Kelinning onasiga ikki lo'ppak choymi, biron kilo shirinlikmi, qo'shib olsa, yana yaxshi. Negaki, «qalliq o'yin»ning bir sharti bor. Kuyov «o'g'richa» borganini kelin bilan onasidan bo'lak hech kim bilmasligi kerak. Xudo ko'rsatmasin, agar kelinning otasi ko'rib qolsami?! Shunaqangi jahli chiqadi, shunaqangi jahli chiqadiki... Teskari qarab, uydan chiqib ketadi! Albatta, butunlay emas, boshqa yoqqa ham emas, narigi uyga kirib eshikni ichidan berkitib oladi. Kuyovto'ra ertalab tong qorong'usida kelinning uyini tark etganidan keyin otasi yotgan joyidan qaytib chiqadi. G'azab bilan bir-ikki yo'talib qo'yadi-da... keyin ishga jo'naydi.

Bugun biz qallicqa ketyapmiz! Boshda yap-yangi do'ppi. Egnimizda oppoq neylon ko'ylak, jinsi shim. Ilgari hech bunaqa shim kiymaganim uchunmi, oyog'im taxtakachlangandek qotib turibdi. Cho'ntakda «Karmen» degan atir (qaynonamizga sovg'a), qo'yinda bir jo'ra «juhud» atlas — Nargisxonga padarka! Shu kungacha Nargisxonning uyiga Tulporimni minib kelardim, bu safar Tursunboy akamning pat-patini minib olganmiz. To'g'rida, qallic o'yinga ham eshak minib boradimi, odam. Tag'in Nargisxonning oldiga-ya! Kecha Tursunboy akamga shuni aytgan edim, «pat-pat» meniki emas, umuman, hech nima meniki emas, yangang bilan gaplashaver» deb to'ng'illadi. Oysara yangamga qoyilman.

Bu safar hecham ziqnalik qilmadi. Nargisxonning otini aytishim bilan bo'yniga osib olgan pat-pat kalitini darrov olib berdi. «Baxtli-saodatli bo'linglar, o'zinglardan tininglar», deb duo ham qildi. Mototsikl ko'pdan beri minilmagani uchun akkumulyatori kuchsizlanib qolgan emasmi, pedalni tepaverib, terlab ketdim. Yo'q, haytovur bir amallab motorni o't oldirdim. Mana, ketyapmiz. «Iulka»ni yeldirib!

Nargisxonning qasrdek uyi oldiga yetib kelganimda allaqachon qorong'i tushgan edi. Baribir barvaqt kelib qolibman. O'zim hovliqdimmi, pat-pat «Jiguli»dek yeldimi, bilmayman. Harqalay, ko'chaning u tomon, bu tomonida ivirsib yurgan odamlarni ko'rib uyaldim. Mototsiklni univermag panasiga olib o'tib kutib turdim. Nazarimda, ming soat o'tdi-yov! Nihoyat ko'chalar tinchib qoldi.

Tarillatib olamni buzmasligi uchun pat-patni yetaklab Nargisxonning darvozasiga kelsak, hammayoq jim-jit. Shoti qo'ysa yetmaydigan derazalarda chiroq o'chg'an. Yuragim gupillab ketdi. Bundan chiqdi Nargisxonning onasi hovli o'rtasidami, darvoza oldidami, bizni kutib turibdi. Cho'ntagimdagi atirni paypaslab qo'ydim, joyida! Qiziq kelinning o'zi qaysi xonada ekan?

Tavakkal qilib, darvozani itargim keldi-yu, nomus qildim. Manavi padarla'nat devorning biron yerida nahra-pahra joyi bordir axir! Bir vaqtlar Oysara yangamnikiga mushak sabzi olib chiqqanimda tuynukdan o'tganim esimga tushib ketdi.

Mototsiklni darvozadan ellik qadamcha nariga, devor tagiga oborib qo'yib hammayoqni tekshirib chiqdim. Qayoqda! Devor xumpar boshdan-oyoq pishiq g'ishtdan urilgan, loy o'rniga sement ishlatganmi, nima balo! Tuynuk tugul tirqish ham yo'q. Tag'in bu

devorga odamning bo‘yi yetsa ekan! Tuyaning ustiga chiqib olsang ham, qo‘ling cho‘zilib qoladi. Nima, uyimga borib narvon olib kelishim kerakmi endi! Xunob bo‘lib turgan edim, devor etagida, yo‘l yoqasida g‘o‘dayib turgan baqaterakka ko‘zim tushdi. Baxtimni qarangi, devorning u tomonida ham gilosmi, olchami, allaqanday daraxt ho‘ppayib turibdi. Juda soz-da! Terakka osilib, devorga chiqamiz. Devorga minib olib, ozgina surilsak, narigi tomondagi daraxtga yetib olamiz. Keyin qarabsizki...

Kelinga atalgan atlasni yelkamga tashlagancha terakka tirmashdik. Ish bundoq bo‘pti. Bir zumda devor ustiga minib oldim. Devor tepasiga qirrador qilib tunuka yopilgan ekan. Sabil qolgur tunuka kun bo‘yi oftob tig‘ida qizib yotgan ekanmi, shim tagidan orqamga jazillab yopishdi. Qo‘limning kuyganini aytmysizmi! Xo‘sh, nima bo‘pti? Jon kuydirmasang, jonona qayda! Bilaman, Nargisxon qo‘sha-qo‘sha xonalarning birida meni intizor kutyapti. Onasi ayvondami, hovlidami haq deb yo‘limga ko‘z tikib o‘tiribdi! Atir cho‘ntagimdami axir? Joyida.

Yap-yangi jinsi shim ham rasvo bo‘ldi! Atlasga chang yuqmasa bas! Erta bahordan beri tunukaga qo‘ngan ikki enlik changni supurib surila-surila, hovli tomondagi daraxtga omon-eson yetib oldik. Gilos ekan! Osmon baravar yong‘oqdan kalla tashlagan odamga allaqanday gilos nima bo‘pti? Daraxt emas, naqd shotining o‘zginasi-ku, bu! Biz kelishimizni mo‘ljallab ataylab ekib o‘stirib qo‘yishganmi deyman!

Ikki qulochcha joy qolganda tap etib yerga sakradim. Yelkamga tashlab olgan atlas, sirg‘alib, tuproqqa tushdi. Engashib, endi atlasga qo‘l cho‘zgan edim, orqa tomondan «g‘-g‘ap» degan vahimali tovush eshitildi! Yumshoq joyim chunonam achishdiki, ko‘zimdan o‘t chaqna ketdi! Jon holatda burilib qaragam, quloq-dumi kesilgan, kamida Tulporimning yarmicha keladigan it orqamga yopishib tortqilayapti. Ko‘zlari olovdek yonib, nuqul irillaydi, hayvon!

Urib bo‘lmasa, tepib bo‘lmasa, nima qilsayam Nargisxonning iti! Jonim og‘rib ketyapti-yu, dod solishga or qilaman. Kuyovmiz, axir! Atlasni ham unutib, gilosga tirmashdim. Shundayam qo‘yib yubormaydi, ablah! Indamay tursam, yeb qo‘yadigan. Chap oyoqlab ko‘kragiga bir tepdim-da, shoxdan-shoxga sakrab devorga chiqib oldim. Baqaterakka yetib olishga qanoat qilmay, o‘zimni tappa yerga otdim. Hayriyat mototsikl joyida turgan ekan. Pedalni

uvallo tepaman, qani o't olsa, la'nati! Yo'q, oxiri tun sukunatini tilka-pora qilib, patillab ketdi. Ha, mayli! Avval egasiga uylanib olay Reksni daraxtga bog'lab qo'yib, shunaqangi savalaymanki, itning kunini boshiga solmasam, Qo'shoq otimni boshqa qo'yaman!

Mototsiklni tarillatib, haydab ketdim. O'ng dumbam lovullab achishardi. Kallamga g'alati o'ylar keldi. Qiziq, it bog'loqmidi, yechiqmidi? Kelib-kelib it bog'langan daraxtdan tushdim shekilli...

Xayolimni to'plab olmasimdan orqa tomondan boyagi vahimali, bo'g'iq vovullagan ovoz eshitildi. Egarda o'tirgancha burilib qaragam, xuddi o'sha la'nati it qorong'uda junlari hurpayib ketimdan yugurib kelyapti. Bundan chiqdi, yechiq ekan-da. Darvoza ham ochiq ekan-u, biz bilmabmiz!

Kuchim boricha gazni bosdim. Buni qarangki, ablah it mototsikldan ham tez yugurarkan. Xuddi samolyotday uchib kelyapti. Qaragam, irillab kelib sonimga yopishadigan. Jon holatda tormozni bosgan edim, kuch bilan kelib lulkaga urildimi, nima balo, orqa tomonda ayanchli «vang-g» degan ovoz eshitildi. Patpatim yo'lga ko'ndalang bo'lib qoldi. O'girilib qaragam, chang to'zon orasida mening jonimga ozor bergan it tipirchilab yotibdi. Bu kuningdan battar bo'!

Hamon lovullab achishayotgan joyimga qo'limni olib borsam, kaftimga issiq narsa tegdi. Tushundim. Bundan chiqdi, singlim ataylabdan bozorga tushib olib kelgan jinsi shimning bir parchasi itning og'zida qolibdi. Kim bilsin, o'zimizga tegishli etning ham talaygina ulushini yamlab yutdimi, bu ochofat!

Bir mahal yorqin chiroq nuridan ko'zim qamashib ketdi. Ro'paradan uchib yelayotgan allaqanday mashina g'iyqillab to'xtadi.

— Joningdan to'yanmisan, ahmoq!

Iye, ovoz tanishga o'xshaydi-ku! Kim bo'ldi bu?

Mashinaning chap eshigi ochilib yopildi. Shofer chiroq nuriga o'tib, qo'lini paxsat qildi.

— Esingni yedingmi?

Ha, Rais buva ekan! Kun issiq bo'lsa ham egnida kostum, medallarini taqib olgan!.. Qiziq, nega shofyor yo'q!

Shu payt o'ng tomondagi eshik ham ochildi. Kimdir yerga sakrab tushdi. Hayajondan «yarador» joyimni achishishi ham paqqos esimdan chiqib ketdi. Nargisxon-ku! Atlas ko'ylak kiyib

olibdi. Chiroq nurida oyog'ida oq tuflisi borligini ham ko'rdim. Endi chaqirmoqchi edim, Rais buva shodon xitob qildi.

— E, senmisan, tutxo'r! Nima qilib yuribsan, bemahalda?

Rais bilan nima ishim bor? Xayolimda boshqa gap charx urardi. Bundan chiqdi Nargisxon uyida yo'q ekan-da.

Nargis menga yarq etib qaradi-yu, tuproq changitib, biz kelgan tomonga yugurib ketdi. Tushundim, Rais buvaning oldida men bilan gaplashishga uyaldi.

Rais buva yaqin kelib, qo'l cho'zdi.

— Obbo, tutxo'r-ey! — dedi qo'limni qisib.—Tushunarli... Bugun shunaqa bo'pqoldi, Qo'shoqjon! Rayonga majlisga chaqirishuvdi. Qallig'ing ham borishi kerak edi, o'tir mashinaga.

U hamon yo'l o'rtasida ko'ndalang turgan motosiklga razm soldi-da, kulimsiradi.

— Tursunboyning pat-patiku! O'zimga aytmaysanmi, yangisini padarka qilmaymanmi!

Egardan tushishga uyalardim. Shimim dabdala bo'lib ketgan, orqam achishyapti qurib ketgur.

— Bo'pti, men ketdim!— Rais buva «Niva»ga mindi. Mashinasini keskin burdi-da, g'izillab haydab ketdi.

Nargisxon ketgan tomonga qarab qo'ydim. O'zi ham, iti ham ko'rinmasdi. Chang-to'zon orasida ancha turib qoldim...

O'n yettinchi bob

TO'Y

Ko'ngli o'sgan odamning yarasi ham tez bitarkan. Nargisxonning Reksjoni qopgan joyim bir haftagacha achishib yurdi-yu, baribir tuzaldi. Hech kimga aytmay oynaga teskari qarab yaramga ko'kdori surdim. Kigiz kuydirib bosdim. Xullas, o'ng tomonim kirza etigimning tagcharmidek qotib qolganini hisobga olmaganda ko'p o'tmay sen ko'r — men ko'r bo'lib ketdi. Qaytaga yaxshi: o'sha yog'imni yerga berib yotsam, zax o'tmaydi.

Baxt kelsa, qo'sha-qo'sha... deganlaridek, hayotimda birvarakay ikkita quvonchli voqea bo'ldi. Birinchidan to'y. Ikkinchidan... Shodivoy keldi! Ishonasizmi, shuncha yildan beri qishloqqa qadam bosmay qo'rgan, o'qishni bitirganidan keyin Toshkentda ishlab qolgan jonajon jo'ram Shodivoy to'ydan bir kun ilgari uyimizga o'z

oyog‘i bilan kirib keldi. O‘lay agar tanimadim.

«Zaporojes»ini «Ferma tog‘a»ning pichan g‘aramiga kalla qildirib, Rais buvadan dakki yegan jo‘ram shumi? Toshkentdagi gastinisada pul sanayman deb shaytonlab qolayozgan do‘stim shumi? Quyondek biqqigina, yumshoqqina o‘rtog‘im, chunonam o‘zgarib ketibdiki, odamning aqli shoshadi. Qomatni qarang, qomatni! Qilich deysiz! Odamga shunaqangi sinchiklab tikiladi-ki, ko‘zi rentgenga o‘xshab, u yog‘ingdan kirib bu yog‘ingdan chiqib ketgudek. Ikkilanibroq turgan edim, yugurib kelib, bir quchoqladi, bir quchoqladi, qovurg‘alarim qirsillab ketdi. Nuqul o‘padi, xumpar!

— Qo‘yvor, yalab tashlading-ku, odamni, kelinniyam haqi bor biz-da!— deb arang qutuldim.

Xullas, to‘y ustiga to‘y!

Mayli, yaxshisi, bir chekkadan gapirib bera qolay. Shundoq qilib, taomil bo‘yicha nikoh to‘yidan uch kun oldin «Rais chaqirdi» bo‘ldi. Otam to‘y tashvishi bilan yelib-yugurib, qon bosimi oshib ketgani uchun kuyovim «Rais chaqirdi»ga keladigan aziz mehmonlarning dasturxoniga taalluqli masalalarni onam bilan maslahatlashib qo‘ya qoldi. Bizlarni ovora qilmaslik uchun ro‘yxatni o‘zi tuzib kelgan ekan. Cho‘ntagidan qog‘oz chiqarib sharillatib o‘qib berdi.

— Qand-qurs, ho‘l meva, quyuq-suyuq ovqat o‘z yo‘liga! — dedi tomoq qirib.— Xo‘sh, degandan, besh kilo qog‘oti bodom (katta odamlar tishda chaqib o‘tirsu uyat bo‘ladi. Ikki barmog‘ining orasiga olib bir qissa o‘zi sinib ketadigani tuzuk). Uch kilo yong‘oq! (Chaqib mag‘izini ajratib olishga vaqt qani? Bozordan tayyor mag‘izini olib qo‘ya qolasiz). To‘rt kilo sho‘rdanak (biz tomonlarda yaxshisi topilmaydi. Buxorodan olib kelasiz). Besh kilo qora mayiz (buning yarasi oson. Raysentrdagi bozorda Uchqoraning manaman degan mayizini sotadi). Anor suvi (Rais bova konyakni anor suvi bilan zakuska qildilar). Uch litirli shisha balonda to‘rttagina bo‘lsa yetib qolar. Ammo svejij bo‘lsin. Dashnobodniki bo‘lsa, yana yaxshi. Nordon—shirin-da! Sabzi suvi. (Unisini ko‘pchilik ichmaydi. Ammo Shaydul kassir aroq zotini og‘ziga olmaydi. Ichkilikning o‘zi tugul shishasidan hazar qiladi. Shu odamga). Ha, boring ana shundan besh litr bo‘lsin! Tovuq — o‘ttizta. Yaxna go‘sh — o‘n kilo. Ichkilik. Bir yashik konyak — armanskiy. Juda bo‘lmasa, «Beliy aist» degani bor. Rais bova xashaki konyaklarni ichmaydilar. Aroq — bir yashik.

Pivo — uch yashigi yetib qolar-ov... Shampan kerakmas. Mabodo Qo‘shoqjonning o‘zi ichmasa... — u menga bir imo qildi-da, tag‘in tomoq qirdi. — Bitta qo‘y so‘ymay iloj yo‘q. Raisning oldiga kalla kelishi kerak-ku!

Kuyov ro‘yxat yozilgan qog‘ozni buklab-buklab cho‘ntagiga suqdi. Eski ko‘rpachada xomush o‘tirgan onam barmoqlarini bukaverib, hisobdan adashib ketdi shekilli, ko‘zlari javdirab menga qarab qo‘ydi.

— Savzi suvi necha dona edi? — dedi garangsib.

— Bular... to‘yning dasturxonigami? — dedim kuyovga termulib.

— Nima? — Kuyov ilon chaqqandek sapchib o‘rnidan turib ketdi. — Siz echki olayotganingiz yo‘q, Qo‘shoqjon, — dedi ovozi titrab. — Uylanyapsiz... Biz ham «Rais chaqirdi» qilganmiz. Bir emas uchta qo‘y so‘yganmiz. Kim biladi, «Rais chaqirdi»ga Raykom bovaning o‘ziyam kepqoladimi?.. Ular ham sizni bizga o‘xshagan odam! Bitta qorni bor. O‘lguncha emas, to‘yguncha yeydi. Qolganini to‘y dasturxoniga tortib yuboraverasiz-da!

...Shundoq bo‘ldi. «Rais chaqirdi»ga qishlog‘imizdagi eng mo‘tabar odamlar keldi. Ya‘ni Rais buva, «Ferma tog‘a», Shaydul kassir, o‘zimning tog‘am, kuyov. Dadam bilan meni hisoblamaganda besh kishi bo‘lishdi... Bodomlar chaqildi, yong‘oqlardan tanovul qilindi, handalak yeyildi... Rais buva konyakni anor suvisiz icholmasligi rost ekan. Anor suvimiz didiga uncha o‘tirishmadimi, bor-yo‘g‘i bir shishagina konyakni bo‘shatib «endi bizga uzr, majlisga boradigan odammiz» dedi. Shaydul kassirning aroq zotidan xazar qilishiyam to‘g‘ri ekan. Sakkiztami, to‘qqiztami pivoni uch litrli sabzi suviga omuxta qilib ichdi-da, terakdek qaddini rostlab, bir-ikki silkinib qo‘ydi. Pivo pastroq tushsin dedi chog‘i...

Sho‘rva ichib, osh yeb bo‘lingach, asosiy maqsadga ko‘childi.

— Xo‘-o‘sh, Salimboy aka!— dedi Rais buva peshonasidan marjon-marjon oqayotgan terni sochiq bilan artib.— Quda tomonga jo‘natilgan hamma narsalar joyida-a? Ho‘kiz, qo‘ylar, guruch, latta-putta, «to‘qqiz»lar.

— Joyida... — bir chekkada o‘tirgan otam, zo‘rg‘a ovoz chiqarib ming‘illadi. Bechoraning rangi ketib, lunjini uchirishgayam madori qolmaganini payqadim.

— «Sut puli», quda-qudag‘aylarga sarpolar?..

— Hammasi, — dedi dadam battar dami ichiga tushib.

— Malades! — Rais buva «g‘o-o-op» etib kekirdi.— Bo‘lmasa, masala hal ekan-da! To‘ying tartibini kelishib olsak bo‘ldi.

Mikrofon...

— Bizdan! — kuyov qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib o‘rnidan turmoqchi edi, chayqalib, yonboshlab qoldi. (Mehmonlar kelguncha pishib qolgandi o‘zi). — Bizdan! — dedi shang‘illab. — Texnikaning pirri — o‘zimiz...

— Yaxshi! — Rais buva yana bir kekirmoqchi bo‘ldi-yu, shashtidan qaytib, chuqur nafas olib qo‘ya qoldi. — Bilamiz, to‘y degani ichkiliksiz o‘tmaydi. Besh yashik konyak. O‘n yashik aroq. Uch yashik shampan, yigirma yashik pivo, o‘ttiz yashik mineral suv... Issiqda suv juda ketadi...

Dadam Rais buvaning og‘zidan muttasil otilib chiqayotgan so‘zlardan qulog‘i qomatga kelganday, ikki yuzi ko‘karib ketdi.

— Shuncha ichkilik... issiq kunda, — deb ming‘illagan edi, Rais buva jerkib berdi.

— O‘lar joydamisiz, Salim aka! Bitta-yu bitta o‘g‘lingiz... El ichida yurgan odamsiz... Biz sizga ko‘pkari qilib sovringa xo‘kiz qo‘ying deytoganimiz yo‘q, olish qilib, tovoq qo‘ying deytoganimiz yo‘q. «Qo‘yso‘ydi» qiling, «kuyov qochdi», «supra qoqdi» qiling demadik! Nima qilsak, elimizning obro‘si ketmasin, deb qilyapmiz. Ana, «Haqiqat» xo‘jaligida bir suvchi o‘g‘lini to‘y qildi. Olishning sovringa tuya qo‘yibdi, azamat! O‘shalardan kam joyimiz bormi?! Yaxshimas-da!— u arazlab «Ferma tog‘a»ga qaragan edi, sho‘rdanak chaqib o‘tirgan «Ferma tog‘a» tasdiqladi.

— Tuvri! Mong‘a qorang, Salimboy aka! Pul kerakma sizg‘a, obro‘ma?

— Raykom buvani to‘yingizga kelishga arang ko‘ndirdim,— Rais buva norozilik bilan qoshini chimirdi.— Kuyov o‘zimizning yigit dedim. Jovli Mengliyevichning qancha qadrdonlari bor. Kim bilsin hali obkomdan ham kelib qolishadimi... Undan keyin... Kamida to‘rt sostap yallachilar bo‘lsin! Televizorda chiqadiganlaridan ayting! Qalang‘i-qasang‘ilarning keragi yo‘q. Xo‘-o‘sh, endi...— Rais buva chuqur o‘ylanib qoldi.— «Sharvatxona»da kim turadi?

— Men!— kuyov tag‘in o‘rnidan turmoqchi bo‘ldi-yu, bu safar yonboshlab o‘tirmadi. Gursillab yiqilib qo‘ya qoldi.

— Bekor aytibsan!— Rais buvaning jahli chiqib ketdi.— Qo‘yni bo‘riga topshirar ekanmiz-da! Mehmonlar kelmasidan aroqning yarmini urib qo‘yarsan. Gap shu: «sharvatxona»da Shaydul turadi!

— Ma‘qul, Rais bova!— Shaydul kassir qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi.

— Bir shisha pivoni begona qilgan — nomard!

— Malades! Vecherni Jovli Mengliyevichning o‘zi boshqaradi. Quda tomon bo‘lsayam, ziyoni yo‘q. U kishini hamma kattalar taniydi... Undan tashqari... Odamlarni sastap-sastap bilan joylash kerak. To‘rda o‘tirgan kattalarning oldida har xil qalang‘i-qasang‘ilar o‘ralashmasin. Bizning istolga glavniy ekanamis bakovul bo‘lsin: paradichniy odam. Bo‘ldimi, obke, kallani.

Rais buva menga buyurgani uchun dik etib o‘rnimdan turdim-u, oshxonaga yugurdim. Onam qo‘yning kallasini allaqachon tovoqqa solib tayyor qilib qo‘ygan ekan. Qo‘y bechora so‘yilayotganida bir ko‘zini yumib o‘lgan ekanmi yo kalla qozonga tushgandan keyin bo‘lganmi, bilmadim. Xullas, kallaning chap ko‘zi joyida, o‘ng ko‘zidan darak yo‘q.

Rais buva kallani chaqqonlik bilan kesib taqsimlashga kirishdi. Dadam, shu uyning egasi bo‘lgani uchun ulushiga qo‘y peshonasining go‘shiti tegdi.

— Sen, Shaydulboy, xatga ko‘p tikilasan!— dedi Rais buva tantana bilan.— Ko‘zing o‘tkir bo‘lsa, hisobdan adashmaysan...— U peshonasidan muttasil oqayotgan terni bilagiga artib, kallani o‘girib qaragan edi, qo‘yning ko‘zini topolmadi. Hayron bo‘lib, bu tomonini aylantirdi. Yengil tortib, ko‘zni pichoq uchiga ilib, Shaydul kassirga uzatdi.

Kuyov zapchast tarqatayotganida tili yanayam biyron bo‘lishi uchun tilni tanovul qildi.

— Yaxshi hasib ekan, — deb qo‘ydi labini chapillatib.

Rais buva qo‘yning jag‘ go‘shtidan mo‘lgina kesib oldi.

— Sen bola madaniyat boshqarmasida ishlaysan, kesakdan o‘t chiqqanmi, nima balo, nuqul adolatdan gapirasan!— Rais buva jag‘ go‘shтини tog‘amga ilindi.— Ma, jag‘ingga quvvat bersin! Bizga quloq tegdi.

— Ma, tutxo‘r! Qulog‘ing ding bo‘lsa, kelinning shivirlashini yaxshi eshitadi!— Rais buva «qoyil qildimmi» degandek hammaga bir-bir qarab qo‘ydi.

«Ferma tog‘a» qiyqirib kuldi...

— Tuvri, Rais bova! Quloq jesa, qulog‘i uzun bo‘ladi!

Rais buva dandon sopli pichoq bilan qo‘yning bosh suyagini chaqdi-da miyasini tuz, murch bilan iylab dumaloqladi, kattaroq yong‘oqdagini o‘zi yeb oldi.

— R-rahmat! — dedi kuyov yotgan joyida g‘o‘ldirab. — R-rahmat, Rais bova. Miyadan ko‘proq yeng. Aqlingiz to‘lishadi!

Shu bilan «Rais chaqirdi» poyoniga yetdi. Rais buvaga to‘n, Shaydul kassirga do‘ppi, «Ferma tog‘a»ga qiyiq sovg‘a qildik. Aziz mehmonlar xayrlashib chiqib ketganidan keyin asosiy to‘y taraddudi boshlandi.

• • •

Rais buva otamga «to‘yingizga kattalar keladi» degani bejiz emas ekan. Bir odamga hurmat bo‘lsa shunchalik bo‘lar! Otam nafaqadagi odam bo‘lsa, men xashaki bir brigad bo‘lsam. To‘yimizga semiz obkom vakili, Raykom buva, paxta zavodining direktori — taqirbosh Viktorov — yana qanchadan qancha kazokazolar kelib o‘tiradi-yu, men sevinmay kim sevinsin! Aslida qaynotam ham kelaversa bo‘lardiyu, taomil bo‘yicha qizning otasi to‘y kuni kuyovnikiga bormaydi-da! Hammadan yaxshisi shuki, qadr don jo‘ram Shodivoy kuyovnavkar bo‘lib kelinnikiga bordi. Nargisxonning darvozasidan kirib borayotganimizda allaqanday qiltiriq kampir «un sochar»da mo‘ljalni noto‘g‘ri olib ko‘zimga un sepib yuborganini hisobga olmaganida, hammasi zo‘r bo‘ldi! Menku, mayli, Shodivoyning kulrang kostumi ham oppoq unga belandi. To‘y qilaman deb qarzga botmasakku, jo‘ramga ertagayoq quling o‘rgilsin kostum sovg‘a qilardim-a...

...Mana, o‘tiribmiz, dasturxon to‘rida! Hovlimz mash‘ala bo‘lib ketgan. Stollar noz-ne‘matlarning ko‘pligidan belangi bo‘lib qolgan. O‘ng yonboshimda Nargisxon... Yuziga harir parda tutib o‘tiribdi. (Pardalaringga jonim tasadduq). Chap tomonimda Shodivoy! Yap-yangi kostumi rasvo bo‘lgani haliyam esidan chiqmaganmi, hayronman, qovog‘i soliqroq. Nariroqda kelinning dugonalari. Rais buvaning yonboshida Raykom, buva, Raykom buvaning yonida obkom vakili, uning yonida Viktorov!

Biz o‘tirgan qator — ulug‘larniki! O‘zim-ku, ichmayman. Ammo «Napoleon» konyagi-yu armani konyakdan tortib, «Posolskiy» degan araqqacha (Viktorov shunaqa aroq icharkan — hidi sezilmasmish), dumba-bovur zakuskadan tortib, qul-qul tovuqqacha, xandon pistadan tortib, bodomgacha paydar-pay kelib turibdi. Rais buva aytganidek glavniy ekanamistning o‘zi bakovul.

¹ *Sharvatxona* - to‘yda ichkiliklar saqlanadigan joy.

Ikki tomondagi dasturxon ikkinchi darajali: bo'lim boshliqlari, bug'altir, bosh agronomlarniki. U yerdagi konyagu aroqlar «mestniy». Zakuskalar ham o'rtacharoq.

Etak tomonda brigadamdagi jo'ralarim — Chori, Panji, Juman, Tursunboy aka, maktab ma'limlari o'tirishibdi. Ularga vino, pivo, qo'lyetar qilib pomidor, sho'r bodringlar qo'yilgan. «Rais chaqirdi»da shunga kelishilgan. Pivo degani sho'r bodring bilan yig'lab ko'risharkan-da!

Bir mahal mikrofon ushlagan Jovli aka (yo'g'-e, nega endi «Jovli aka» bo'larkan, axir endi u mening qarindoshim-ku. Bundan chiqdi Jovli akajonim!) o'rta qichqirdi. Mikrofon uch-to'rt marta pufladi.

Jovli akajonim mikrofonni qo'lga olishi bilan kelin-kuyov o'rnimizdan turib, ta'zim qildik. (Taomil shunaqa).

— Qadrli — aziz mehmonlar!— dedi Jovli akam tantanali ohangda.— Bugun biz faqat tumanda emas, viloyatimizda dong chiqargan «Mash'al» kolxozida o'tiribmiz. Shu sababli birinchi so'zni oblastimiz vakili, hammamiz uchun hurmatli o'rtoq Gadoyevga beramiz. Qani, bir qarsak bo'lsin!

U shapir-shupir qarsaklar ostida mikrofon simini sudrab kelib, obkom vakiliga tutqazdi. Qarang, semiz kishining familiyasi Gadoyev ekan-da! Shu paytgacha bilmagan ekanman.

— O'rtoqlar!— dedi Gadoyev surnaydek g'iyqillab.— «Mash'al» kolxozini yaxshi bilamiz! Chinakam mash'al xo'jalik. Bu yil gektaridan qirq sakkiz sentnerdan «oq oltin» olmoqchisiz. Men sizlarga hammamiz uchun hurmatli obkom bovaning salomini topshiraman.— U bir qo'lida mikrofon changallagan ko'yi qarsak chalgan edi, boshqalar ham jo'r bo'ldi.— Kelinglar, shu xo'jalikning dono rahbari, do'stimiz Toshmamat Alimovichning sog'lig'i uchun qadah ko'taraylik!

Jovli akajonim pildirab kelib, mikrofonni oldi.

— Yana bir qarsak bo'lsin! Avatsiya, avatsiya!— dedi hayqirib.— Quyilsin!

Qarasam, yonimda o'tirgan Shodivoy konyak shishasini ochib, o'zining oldidagi qadahga to'ldirib quyyapti. Men ham shoshapisha shampanga yopishgan edim, tirsagi bilan turtdi.

— Menga ber!— dedi to'ng'illab.— Odob saqlab o'tirsang o'lasanmi! Kuyov degan noming bor!— shampanni paqillatib ochdi-da, bir emas, ikkita bokalga voshillatib to'ldirdi. —Ich!

Qallig'inggayam ichir!

— Men ichmayman-ku, Shodi!..— dedim nima qilishimni bilmay.

Shodivoy menga qayrilib qaramadi. Konyakni qulqillatib ichib oldi. Parda ostidan Nargisxonga shampan uzatdim.

— Jinday iching...— dedim yalinib.

Nargisxon muloyim jilmaydi.

— Menga mumkin emas.

— Mengayam — dedim rostiga ko'chib.— Bola bo'lib og'zimga olmaganman.

— To'g'ri qilasiz...— Nargisxon boyagidan ham shirinroq tabassum hadya etdi. (O'zim aylanay mehribonimdan!)

Hushimni yig'ib olib, boshimni ko'tarsam, Rais buva gapiryapti.

— Kelinglar, hurmatli do'stlar! Avvalo hammamiz uchun hurmatli obkom bovamizning, obkom vakili o'rtoq Gadoyevning, aziz akamiz raykom bovaning, zavodimiz direktori o'rtoq Viktorovning, shu xonadon qudasi — savdgo a'lochisi o'rtoq Qo'shshayevning, qolaversa, qadrdonimiz Jovli Mengliyevichning salomatligi uchun qadah ko'taraylik! Biz — rahbar tashkilotlarimizning ishonchini albatta oqlaymiz! Gektaridan qirq sakkiz emas, qirq to'qqiz sentnerdan «oq oltin» olamiz!

Odamlar endi qadahga qo'l cho'zgan edi, Rais buva jerkib berdi.

— Shoshmanglar hov! Shundoq ulug'larning salomatligi uchun atigi bitta ichib qutulmoqchimisan! Yo'-o'q, bunaqasi ketmaydi. Obkom bova uchun bitta, o'rtoq Gadoyev uchun bitta, Raykom bovamiz uchun bitta, o'rtoq Viktorov uchun, o'rtoq Qo'shshayev uchun, qadrdon Jovli Mengliyevich uchun alohida-alohida ketma-ket olti marta ichasanlar! Oppoq qilib olmagan — xotin! Hamma o'rnidan tursin!

Chor-nochor Nargisxon ikkalamiz yana turdik. Bir mahal chap tomondan g'o'ldiragan ovoz keldi.

— Mana bu — obkom bova uchun! Bunisi — raykom bova uchun... mana bunisi dadam uchun...

Qarasam, Shodivoy konyakni paydar-pay quyib otyapti.

— Jinnimisan, o'v!— dedim o'dag'aylab.

— Ishing bo'lmasin!— Shodivoy g'alati iljaydi.— Bular uchun ichmay bo'ladimi! Bular... Bular...— jo'ram konyak to'la qadahni

shoshilmay, juda xotirjamlik bilan gul solingan vazaga quydi.

— Bular uchun sen ichasan, men ichaman, ana gul ham ichadi...

Esini yeganmi jo‘ram!

Rais buva ziyrak-da! Shodivoyning tovushini eshitib, mikrofondan ovozini baralla qo‘ygancha, menga dashnom berdi.

— Kelinga ichirmaysanmi, qanaqa kuyovsan o‘zi!

Boyagi bokalni tag‘in Nargisxonga tiqishtirdim.

— O‘laqoling endi!

Nargisxon indamadi-yu, keskin bosh chayqadi.

To‘g‘ri qildi. O‘zi ichgan qizlarni jinim suymaydi.

Xayriyat-ey, o‘tirishga ruxsat tegdi.

Kuyov-kelin endi joyimizga cho‘kayotgan edik, Rais buvaning gapi chala qolgan ekan.

— O‘rtoqlar! — dedi mikrofondan. — Qo‘shoqjonni hammang yaxshi bulasanlar! Yaxshi ko‘rasanlar! Menam o‘z o‘g‘limdek ko‘raman. Eng peredovoy brigad! To‘g‘risini aytsam, mushtday bolaligidan mehrim tushgan. Adashmagan ekanman. Ataylabdan Toshkentdek shahri azimga, katta o‘qishga olib borganimda, «yo‘q, Rais bova, men paxtakor bo‘laman» degan, to‘g‘rimi, Qo‘shoqjon? — Rais buva mikrofonni changallagan ko‘yi menga qarab qo‘ydi. Nima deyishimni bilmay qoldim. Shodivoyga razm solsam, labi burilibroq iljayib o‘tiribdi.

Xayriyat, Rais buva tag‘in ziyraklik qildi.

— Gap qanday vazifani ado etishda emas, qanaqa ado etishda! Bugun Qo‘shoq Salimovni butun O‘zbekiston taniydi. Kelinni aytmayisizmi, Nargisxonni! — Rais buva nafasini rostlab oldi-da, avvalgidan ham tantanavorroq ohangda davom etdi — Nargisxon ham o‘zimizning farzanddek gap. O‘zimizning ko‘zimiz o‘ngida ulg‘aydi. O‘rtoq Qo‘shshayev, o‘rtoq Mengliyevdek odamlarga shundoq qizni eng zo‘r institutga joylash nima degan gap edi! Yo‘q, qiz hayotni o‘rgansin deyishdi. Dala zahmatkashlarining safida bo‘lsin, deyishdi. Nargisxon maktabni bitirib kolxozda ter to‘kdi. Bundan ortiq fidoyilik bo‘ladimi? Qo‘shoqjon! O‘g‘lim! — Rais buva kursilarni sharaq-shuruq surib, tepamga keldi. Bir qo‘lida mikrofon bilan peshonamdan o‘pdi. — Ota-onasi shu qizni ne umidlar bilan qog‘ozga o‘rog‘liq qanddek asradi. Boshingga ko‘tarib yur, xo‘pmi?

O‘pkam to‘lib Nargisxonga qaragam, yuzlari lov-lov yonib

o'tiribdi.

Rais bova qaddini rostlab tag'in mikrofonga hayqirdi.

— Kelin-kuyovga kolxoz pravleniyesi nomidan bitta padarka tayyorlaganmiz. Qamchibek, qayoqdasan? Obkir!

Yo'lak tomonda qulog'ini qomatga keltirib mototsikl tarilladi. Hammayoqni benzin g'idi tutib ketdi. Qamchibek mototsiklni tarillatganча hovli o'rtasiga minib kirdi.

Angrayib qoldim. Rais buva rostdan ham menga mototsikl sovg'a qilyaptimi? Axir bu «Ural»ku! O'zim orzu qilgan «lulka!». Bundan chiqdi, ikki haftacha oldin «qalliq o'yin»ga borganimda Rais buva senga «pat-pat»ning zo'ridan to'yona qilaman deb, rost aytgan ekan-da!

— Kelin bilan mingashib yuraverlaring!— Rais buva yelkamga qoqib qo'ydi-da, stullarni taraқ-turuq surib tag'in joyiga qaytdi.

Sekin qarasam, Nargisxon uyalib, yerga qarab o'tiribdi. Biladi-da, «lulka»da yurish mazza!

— Qarsak bo'lsin, o'rtoqlar! Qarsak bo'lsin!— dedi Jovli akajonim g'ayratga tushib. (Qarang, ichgan sari ovozi jaranglab chiqyapti!) — Davramizda tag'in bir hurmatli mehmon o'tiribdi... Adliya xodimi... tergovchi... Starshiy tergovchi! Hurmatli raisimiz o'rtoq Alimovning yakka-yu yolg'iz o'g'illari... Shodijon Toshmamatovich bizning rayonga ishga keldilar!

Davranning eng pastidan asabiyroq ovoz keldi.

— Raisning esi joyida! Sopini o'zidan chiqaradi!

Ajab, «Rais chaqirdi»da qo'yning qulog'ini yeganim uchunmi, ovoz egasini aniq-taniq bildim: fizika o'qituvchimiz Usmon Qilichev! Gapini bitta men eshitdim, desam Jovli akajonimning qulog'i menikidan ham uzun ekan.

— Hov, ma'lim! — dedi jerkib, ovozi mikrofondа gumburlab ketdi. — Visir-visir qilmay jim o'tiring, xo'pmi? Pensiyaga chiqqan odam dumini qisi-ib o'tiradi. Qolaversa, kechayam chopiqqa uch yuz o'rniga qirqta bola chiqqan. Bu — sizning ta'siringiz. O'zingiz bo'shab ketgan bo'lsangiz ham maktabda sassiқ hidingiz qolgan... Xo'sh... — Jovli akajonimning tovushi tag'in tantanali tus oldi. — Davramizda rayonning eng hurmatli kishilaridan biri — starshiy tergovchi Shodijon Alimov o'tiribdilar. So'z o'rtoq Shodijon Toshmatovich Alimovga!

Joyli akajonim gandraklab, biz tomonga kela boshladilar. Qarasam, Shodivoy kaftlari bilan yuzini changallab o'tiribdi. Mast

bo'p qoldimi, nima balo?

— Shodi! — dedim biqiniga turtib. — Sen gapirarkansan?

— Nima? — Shodivoy yuzidan kaftini tushirib menga qaradi. — Nima deding?

— Gapir! — Xuddi maktabda, bir partada o'tirgandagidek tizzam bilan soniga turtdim.

Jovli akajonim Shodivoyga mikrofon tutib, hayqirdi.

— Qani, bitta avatsiya bo'lsin, o'zimizning yosh kadrga!..

Shodivoy chayqalibroq o'rnidan turdi-yu, birdan jiddiy tortdi. Bir zumda kayfiyam tarqab ketdi-yov! Gaplari miltiqning o'qidek. Har so'zni cherti-chertib aytadi. Nima qilsayam yurist-da!

— Kolxozning hisobot-saylov yig'ilishi zo'r o'tyapti! — dedi vazminlik bilan.

Ajab, hamma jimib qoldi. Rais buva o'tirgan joyida qoshi chimirilib, past ovozda jerkdi.

— Shodi!

— A? — Shodivoy og'ziga mikrofon tutganicha otasiga qaradi.

— Nima?

— Ahmoq! — Rais buva ovozini yanayam pasaytirib o'shqirdi.

— Kayfing oshib qoldimi! To'yda o'tiribsan, tentak!

— E, shunaqami? — Shodivoy chunonam yoyilib kuldiki, mikrofondan ovozi yetti qishloqqa eshitildi-yov! — Uzr! Men bo'lsam, «Mash'al» kolxozining hisobot majlisi deb o'ylabman... — Qarang, hammasi batartib. Hammasi darajasiga qarab bo'lingan. «Ulug'lar» bir tomonda. «Hashaki»lar bir tomonda.

— Shodi! — Rais buva o'rnidan turib ketdi. Zo'raki iljaydi. — Jo'rangni oyog'i to'rtta bo'layapti. Qutli bo'lsin demaysanmi, ulim?

— Shunaqami? Uzr... — Shodivoy lab-lunjini yig'ishtirib oldi.

— Niyatim shuki, Qo'sho baxtli bo'lsin! Qo'sho, jo'rajon! — u mikrofonni hamon qo'yib yubormay dabdurustdan meni quchoqlab oldi.— Yaxshiyamki, senga o'xshagan odamlar bor, bu dunyoda. Kel, o'rtoq, bitta o'pay. Shoshma, yana bitta! Endi peshonangdan...

Qiyqiriq, qarsak bo'lib ketdi. Jovli akam mikrofonni uning qo'lidan yulqib olib, nari ketdi, davra o'rtasiga chiqishga madori yetmadimi, yiqilib ketishdan qo'rqdimi, turgan joyida e'lon qilib qo'ya qoldi.

— Navbat san'atkorlarga!

Rubob jarangladi, tor varangladi, doira badangladi, garmon

g'iyqilladi, g'ijjak nola chekdi. San'atkorlar ham balo ekan! Ovozi xezalakchalish erkaknikiga o'xshagan Anorxon degan xotin uchta qo'shiq aytsa, tovushi erkakshoda xotinlarnikiga o'xshagan Shomatxon degan yigit to'rttani qo'ndiradi. Bo'rivoy degani sakkizta ashula aytsa, Qulahmad o'n ikkita qo'shiq bilan javob qiladi. Qadahlar paydar-pay aylanib turibdi. Birov arman konyagini otyapti, birov «Chashma». Birov «Posolskiy», birov mineral suv.

Bir ko'zim Nargisxonda. Suzilib o'tiribdi. Bir ko'zim Shodivoyda, kafti bilan yuzini changallab paydar-pay hiqichoq tortyapti.

Kokilaxon degan raqqosa davraga chiqishi bilan to'yxona tandirdek qizib ketdi. E, o'ziyam ofat ekan, bu Kokilaxon! Shunaqangi himo qiladi, shunaqangi qilpanglaydiki, odam zoti chidab turolmaydi. Tag'in har bitta erkakning ro'parasiga kelib kissasini kavlamagunicha muqom qilib turaveradi. Ana, tog'am chidab turolmadi shekilli, yaxlit pulni Kokilaxonning zar do'ppisi tagiga qistirmoqchi edi, raqqosa pulini lip etib yulqib oldi-yu, nari ketdi.

— Voy do-od! Qomatingdan!— yoqavayron bo'lib ketgan kuyovim ilondek buralib o'rnidan turdi. Kissasini kavlab bir dasta pul chiqardi. Hovli yop-yorug' emasmi, aniq-taniq ko'rdim!

Bir zumda kuyovning puli qayoqqa g'oyib bo'lganini hech kim sezmedi. Sirkdagi ko'zboylog'ichmi, nima balo, bu Kokilaxon!

— Nargisxon!— dedim parda ortidan kelingizning qulog'iga shivirlab.— Pulni qayoqqa yashirdi?

Nargisxon piq etib kulib yubordi.

— Bilmasam...

Endi «Vohay-bola» avjiga chiqdi. Qarsaklar osmonni tiratdi. «Ferma tog'a» tovuqning oyog'idek sertomir qip-qizil bo'ynini cho'zib, muqom qilganicha raqqosaning oldiga o'ynab kela boshladi. Qahqaha, qiyqiriq bo'lib ketdi.

— O'zim o'rg'ilay, ko'zing'dan akang'!— dedi-da, kissasidan bir dasta pul chiqarib Kokilaxonga ko'rsatdi. Jayraning nayzasidek tikkaygan mo'ylovini g'olibona silab qo'ydi.

Kokilaxon o'ynab keldi-yu pulga chang solgan edi, «Ferma tog'a» quv ekan, pulni belining orqasiga yashirdi.

—Bitta o'pich bersang'...

— Ho'v, Musayip!— mikrofondada Jovli akaning ovozi jarangladi.— Nomardlik qilma! Ber ataganingni!

To'yib mosh yegan xo'rozdek qip-qizarib ketgan «Ferma tog'a» ovoz qayoqdan kelayotganini bilolmay alang-jalang bo'lib qoldi.

— A?— dedi iljayib.— Nima deding'iz?

Kokilaxon o'ynab turgan ko'yi, paytdan foydalanib lip etgancha uning orqasiga o'tdi. Keyin nima bo'ldi o'zim ham tushunolmay qoldim. «Ferma tog'a» es-hushini yig'ib olib, avval o'ng qo'lini tomosha qildi. Keyin chap qo'lini... Undan keyin yuzini yuvayotgan odamdek, ikkala kaftini naqd burniga taqab uzoq termulib qoldi. Ko'zlari g'ilay bo'p ketdi.

— Pulim!— dedi hayqirib.— Pulimni nima qilding'? Qayg'a tig'ding' uying' kuyg'ur!

Mikrofonni changallab turgan Jovli akam bir imo qilgandi, ikkita zabardast yigit «Ferma tog'a»ning ikki qo'ltig'idan olib, chetga sudradi.

Qarasam, Nargisxon parda ustidan kafti bilan og'zini to'sgancha miriqib kulyapti!

— Qoyil qildi-a, Nargis!— dedim qulog'iga.

— Rosayam bopladi, Qo'shoq aka!

Shu bahona keliningizni o'pib olmoqchi edim, davrada «Lazgi» avjiga chiqdi. Kokilaxonning boyagi o'yinlari hech gap emas ekan! «Lazgi»ga gal kelganida shunaqangi uchib ketdi-ki! Yo tavba! Odam bolasiyam shunchalik bo'ladimi!

Yo, alhazar! Suyagi yo'q-ku, buning! Sochini uchidan tortib, tovonigacha baravar silkinadi-ya! Rostini aytsam, o'zim ham o'rtaq tushib o'ynab ketay dedim.

Bir mahal «sharvatxona» tomondan shamolda tebrangan terakdek chayqalib Shaydul kassir chiqib keldi.

— Jonidan! Jonidan! — dedi ko'ksiga urib.— Biz tomon-gayam bir qiyo boqsinlar!

Obkom vakilining yonboshida o'tirgan Viktorov qarsak chalib yubordi.

— Molodes, Shaydul! Ay molodes!

Mingtalik chiroq aynan shu odamning tepasida turgani uchunmi, boshi chunonam yiltillab ketdi-ki, bir emas, ikkita lampochka lovullab, to'yxonani yanayam nurafshon qilib yuborgandek bo'ldi.

— Davay, Shaydul, davay!— dedi Viktorov qiyqirib.

Shaydul kassir belbog'i uzilmagan bir dasta pulni boshi ustida baland ko'tarib im qoqdi:

— Jonidan!

Kokilaxon ming bir tusda tovlanib, Shaydul kassirga yaqin keldi.

— Jovli Mengliyevich! — raykom buva bag‘baqasi liqillab hayqirdi.

— Aying! To‘xtatsin! Bu yerda opisalniy odamlar o‘tiribdi, yaxshimas!

— Shaydul! — Jovli akam o‘sha zahoti mikrofon orqali buyurdi,— ko‘p bodilik qilaverma!

U so‘zini tamomlaguncha Shaydul kassir allaqachon Kokilaxonning oppoqqina yuzidan o‘pib o‘lgurgan edi.

— Bo‘l, o‘v! — dedi Jovli akam alam bilan.

Qayoqda! «Lazgi» avjiga chiqib ketgan, Kokilaxon jon holatda qilpillayapti. Shaydul kassir beli bog‘liq pulni boshi ustida baland ko‘tarib turibdi. Kokilaxon kuy ohangiga mos qiliq qilib paydarpay sakraydi-yu, qani pulga bo‘yi yetsa! Shoti ustiga chiqib sakrasayam yetolmas.

— Sen ham bitta o‘psang, hammasi seniki! — Shaydul kassir yuzlari yalpayib iljaydi. — Bitta o‘p, jonidan!

— Bas! — Jovli akam shunaqangi chinqirdiki, mikrofon chiyillab ketdi. Shaydul kassir qo‘lini past tushirgan edi, o‘sha zahoti puldan ayrildi. Kokilaxon o‘ynab-o‘ynab nari ketdi. «Lazgi» hamon davom etardi.

Shaydul kassir, bir zumda puldan ayrilgani nash‘a qildi shekilli, alamini Kokilaxondan emas, Joyli akamdan oldi:

— Erkakmisan, Jovli, — dedi o‘shshayib, — qistir o‘zingam mard bo‘lsang!

Chap yonimda allanima taraqladi. Buriilib qarasam, Shodivoy stolni mushtlayapti.

— Shodi!— dedim qo‘liga yopishib. — Esingni yig‘, jo‘ra!

— Qoyil!— Shodivoy chayqalib o‘rnidan turdi. — O‘rgildim, maymun o‘yinlaringdan! Xayr, do‘stim!— u engashib boshimni bag‘riga bosmoqchi edi, orqasiga qalqib ketdi. Jo‘ram yig‘ilib ketmasin deb, endi o‘rnimdan qo‘zg‘alganimda allakim ort tomondan kelib, Shodivoyni stul-pstuli bilan ko‘tarib, parda orqasiga olib ketdi. Nargisxon ikki qo‘llab, bilagimni changallab oldi. — Qo‘shoq aka! — dedi ovozi titrab. — Qo‘rqyapman...

— Bo‘ldi, jonim, parvo qilma!— shovqin-suron orasida Nargisni mahkam bag‘rimga bosib, parda ustidan yuzidan o‘pib

oldim, — jo‘ramni sal kayfi oshib qoldi.

— Erkakligimni ko‘rsataymi! — mikrofondan Jovli akamning asabiy ovozi jarangladi. — Ko‘rib qo‘y, bodi! Men senga o‘xshagan maydakash emasman! Baqqa keling, Kokilaxon!

Raqqosa xuddi shuni kutgandek Jovli akamning ro‘parasiga o‘ynab keldi.

— Mana! — Jovli akam shimining kissasidan sarg‘ish belbog‘ taqilgan uch dasta pul chiqardi. — Oling! — dedi Kokilaxonga uzatib. — Halolingiz bo‘lsin! San‘atingiz uchun, talantingiz uchun!

Sho‘rva qaynatilgandek siyrak qarsak chalindi. Qarasam, Rais buva, Raykom buva, to‘rda o‘tirganlardan tag‘in besh-olti kishi chapak chalyapti.

— Birpasda shuncha pul ishlab oldi-ya! — dedim kelingizning qulog‘iga shivirlab. — Mazza-mazza otarchiniki ekan-ku. Ozroq qarz so‘rasam, berarmikin?

Nargisxon, parda ortidan shirin po‘pisa qildi.

— So‘rab ko‘ring-chi?

Kelingizga dil ketib, davrada nima bo‘layotganini payqamay qopman. Nargisxonning ko‘zida xavotir paydo bo‘lganini ko‘rdim-u, burilib qarasam, Shaydul kassir qornini ushlab, ikki bukilib turibdi. «Rais chaqirdi»dagiga o‘xshab pivoni sabzi suviga qo‘shib urgan bo‘lsa, ichi og‘rib qoldi, deb o‘ylagandim, yo‘q, kulayotgan ekan.

— Hi-hi-xi! — Shaydul kassir qaddini rostlab xandon otdi.— Ha-ha-ha! O‘zim bergan pul! Ishonmasanglar qaranglar! Belbog‘iga o‘zim qo‘l qo‘yganman!

Jovli akamning jahli yomon ekan! Qo‘lidagi mikrofon simini osiltirgancha boshini ikki yelkasiga tortib, Shaydul-kassir tomonga otildi. Nargisxon eshitib qolmasin-ku, shu topda tog‘asi yana ukkiga o‘xshab ketdi. Orada uch qadamcha qolganda «h-ha» dedi-da, Shaydul-kassirning qornini mo‘ljallab kalla urdi. Kassir bechora qoq tagidan arra solingan terakdek gursillab yerga ag‘darildi.

Hammayoq qiy-chuv bo‘lib ketdi.

Kokilaxon o‘yinga qancha usta bo‘lsa, qochishga ham shunchalik chaqqon ekan! Hamon davom etayotgan «Lazgi» ohangiga mos harakatlar bilan o‘zini san‘atkorlar o‘tirgan so‘riga otdi. Kimdir so‘kindi. Kimdir «do‘st» tortdi.

Negadir chiroq o‘chib qoldi.

— Qo‘shoq aka!— Nargisxon bo‘ynimga osilib yalindi.—
Qo‘rqib ketyapan!

Keliningizni ovutib o‘tirgan edim, boshim ustiga allakim egildi:

— Turaqol, Qo‘sho! Kelinni uyga olib kir!

Qorong‘uda bo‘lsa ham tanidim: otam!

— Qo‘rqmang, bolam,— dedi Nargisxonning yelkasiga
qoqib.— Uyga kiringlar. Sizga desa bir-birini go‘shhini yemay-
dimi, bular!

Qaynoqqina, shiringina Nargisxonni bag‘rimga bosgancha uy
tomon yetakladim.

O‘n sakkizinchi bob

SHAQ ETDI, PAQ ETDI, PUFAK YORILIB KETDI!

Umrim bino bo‘lib yig‘lagan emasman, deganmidim? Yo‘q,
yig‘lagan ekanman, do‘xtirjon. Bir marta!

Nega deysizmi? Qo‘ying, bu gaplarni aytishga uyaladi, odam!
Ha, men sodda edim. Ammo vijdotsiz emasdim. Go‘l edim,
ammo imonsiz emasdim! Ahmoq edim, ammo diyonatini pulga
sotadiganlar xilidan emasdim.

Kechagina boshiga qo‘ngan baxt qushidan mast bo‘lib yurgan
odam, ertasiga mukkasidan yiqilsa g‘alati bo‘larkan. Odamning
peshonasi taq etib devorga urilganidan keyin ko‘zi ochilarkan.
Shuncha paytdan beri ko‘r ekanman, so‘qir ekanman...

Nima qilay? Kinga aytay dardimni? Otamgami? To‘ydan
keyin uch kun o‘tmay, qon bosimi oshib yiqilib qoldi-ku o‘zi?
Jovli Mengliyevich u yoqqa yugurib, bu yoqqa yugurib, yangi
qudasini viloyatdagi «kattalar» yotadigan bannisaga joyladi. Otam
bunaqa iltifotdan xursand bo‘ldi, deysizmi? Ko‘rgani borganimda
negadir ma‘yus kulimsirab qo‘ydi.

Men-ku dadamga hech nima demadim. Lekin otam menga
o‘xshagan go‘l emas. Urush ko‘rgan, tizzasidan qon kechgan.
Birov hech gapdan hech gap yo‘q, yuzingga tupursa-da, «bir
hazil qildim-da, ma, artib ol», deb cho‘ntagidan ro‘molcha
chiqarib uzatsa, qanaqa bo‘ladi? Otam buni bilmaydimi? Aslida,
ayb menda! O‘zimda! Men — molfahmda! Dadamning o‘rniga
men bannisaga tushishim kerak edi. O‘ladigan bo‘lsam men

o'lishim kerak!

Onam bo'lsa, o'zi bilan o'zi ovora! Kun ora avtobusga o'tirib, dadamning oldiga yuguradi. Nima qilay? Dardimni jo'ram Shodivoyga aytaymi? Nima deyman? Otang ablah ekan, deymanmi? U yog'ini so'rasangiz, Shodivoy qishloqda turmaydi. Kvartirada yashab, tuman markazida ishlayapti. O'sha — mening to'yim kuni mast bo'lib chiqib ketgan ko'yi qishloqqa qaytib kelmadi.

Nargis bilan turmushimiz... it yotish— mirza turish. Birga yashaymiz-u, o'rtasida boshqa bir odam, uchinchi odam turgandek...

Bir vaqtlar otam qo'limga pufak tutqazib, «pufla, o'g'lim, pufla qani, qachon yorilarkin» deganida xo'p o'ylab gapirgan ekan! Pufak ertami-kechmi yorilishi kerak edi. Sezib turibman, yoriladigan payti yaqin qoldi. Kolxozda tekshir-tekshirlar kuchayib ketgan, Rais ko'zimga ko'rinmaydi. To'g'ri-da, qandoq ko'rinsin... G'unchani uzsin. To'yib-to'yib hidlasin. Haddi siqqancha, kuchi yetgancha ezg'ilasini... Keyin menga... men — nodonga uzatsin. Ustiga-ustak «qog'ozga o'rog'liq qanddek, boshingga ko'tarib yur», deb pisanda qilib ham qo'ysin...

• • •

...Pufak kuz kunlaridan birida, ayni terim qizigan pallada yorildi. Rais hadya qilgan, yo'g'e sadaqa qilgan pat-patga qo'limni ham tegizmadim. Qandoq tegizay! Harom-ku o'sha la'nati pat-pat!

Bundan chiqdi, bir vaqtlar bolaligimda mototsikl minishni orzu qilib yurganimda «pat-pat»ga Oysara yangam ega chiqqani, Tursunboy akam o'sha nas bosgan lulkani minishga xazar qilgani, doim ma'yus tortib yurishida gap bor ekan-da! Bundan chiqdi, Rais Tursunboy akani, menga o'xshab, onasining qornidan tushgancha go'dak holida qolgan soddalarni pat-pat bilan aldar ekan-da! Rais «o'g'lingni o'qishga olib boraman», «mash'al qilaman» «otalik qilib uylantirib qo'yaman» deganda dadam «tullak rais beradiganini belbog'iga bog'lasin» degani bejiz emas ekan-da!

Onam! Bechora onam! Shu nomardga ishonib, otamga qancha dashnom berdi. Rais buvani farishtaga qiyos qildi! Farishta!

O'zidan qolgan sarqitlar bilan boshqalarni boqadigan «farishta»!
Yo'q! Raisning mag'zavasi kerakmas menga! Mag'zavani qo'shib
uzatgan pat-patiyam kerakmas!

Harom! Hammasi harom!

Har kuni dalaga eshagimni minib boraman. Rostini aytaymi?
Hammasidan shu tilsiz — zabonsiz jonivor afzal menga! Nima
bo'lganda ham quvlik-shumlikni bilmaydi. Xiyonat qilmaydi...

Tong otmasdan eshak minib chiqib ketaman. Mashinada paxta
teraman. Uyga kelishga yuragim yo'q. Kechalari shiyponda qolib
ketaman.

Bir kuni kechqurun qatirmoch bo'lib ketgan paytavamni
almashtirish uchun uyga kelsam, onam eshik oldida tipirchilab
turgan ekan.

— Tez bo'l, bolam, mashina top! — dedi chirqillab. — Kelinni
dard tutib qoldi. Yaxshiyam o'zing kelding. Aksiga olib otang
ham banisada.

Otam Jovli Mengliyevichning «iltifoti» bilan kazo-kazolarning
shifoxonasida bir oy yotib, sal o'ziga kelgan, ammo kuz tushishi
bilan dardi qaytalab bir hafta avval tag'in ahvoli og'irlashib qolgan
edi. Ukkiko'z Jovli aka yana o'sha kasalxonaga obormoqchi
bo'lganida, «qo'ying, unaqa joylar menga to'g'ri kelmas ekan»,
deb tuman kasalxonasiga yotgandi.

— Bo'la qol, bolam! — dedi onam negadir ko'zini olib qochib.
— Qiynalib ketdi bechora!

Nega teskari qarayotganini bilmasam ekan! Uyalyapti bechora.
Ajab, qilg'ilikni qilgan boshqalar-u, enam nomus qilyapi. To'ydan
keyin uch hafta o'tar-o'tmas, onam «kelinning qadam olishi
g'alatiroq-mi?» deb yaramga tuz sepgan edi. Keyin bu to'g'rida
boshqa gaplashmadik. Nimanियam gaplashardik. Mana, o'sha yara
yorildi! Jondan suygan Nargisxonim to'rt oyda tug'ib beryapti...

Uyga kirsam, Nargis ingrab yotibdi. Qiziq, xotining tug'ay
deb tursa-yu, mashinasi bor qo'shningga «kelinni tug'ruqxonaga
olib boraylik» deyishga or qilsang, g'alati bo'larkan. Kimga
aytaman? «Iya, Qo'shoqjon, kelin tezotar chiqib qopti-ku»,
demaydimi!

Noiloj «pat-patni» yurgizdim. Onam kelinni o'rab-chirmab,
lulkaga o'tqazdi. O'zi orqaga mingashayotgan edi, jerkib berdim.

— Tushing! Yo'lni o'zim bilaman!

Mototsiklni uchirib ketdim. Qorong'i ko'cha, qorong'i

osmon... Bir ko'nglim mototsiklni uchirib borib, sim yog'ochga ursam-u, hammasidan bir yo'la qutulsam, deyman. Nachora, shaytonga xayf berdim.

...Tug'ruqxona eshigiga yetishimiz bilan ichkaridan oq xalat kiygan ikki xotin chiqib, mototsikl chirog'ining yorug'ida shu tomonga yugurdi.

— Qo'shoq aka! — Nargis hansirab ingradi. — Meni kechiring...— Qarasam yig'layapti. Yupatgim keldi-yu, negadir yupatolmadim. — Agar menga bir nima bo'lsa, — dedi yig'lab. — Ikki qo'lim raisning yoqasida!

Shunda yana bir narsani tushundim. Nargis meni, molfahmni aldadi. Ammo unda nima gunoh! Qo'sha-qo'sha nevara ko'rgan Rais uni shu ko'yga solgan... Nima deyishimni bilmasdim. Aytadigan gapim ham yo'q edi. Nima dey? Nima qilay?

Oq xalatlilar uni lulkadan suyab tushirishi bilan mototsiklni orqaga burib, yeldirib ketdim. Xayolimga tag'in o'sha gap keldi. Hozir simyog'ochga urilaman, yo bo'lmasa tikroq jarga qulab ketaman-da, hammasi tamom! Mototsiklni uchirib ketyapman. Nuqul xayolimda shu gap aylanadi. Bo'ldi. Men endi yashamayman! Men ham odammanmi? Men ham erkakmanmi? Ertaga odamlarning ko'ziga qandoq qarayman?..

Bir mahal ro'parada mashina chirog'i ko'rindi. «Pat-pat»ni to'ppa-to'g'ri chiroqqa burdim. Eng so'nggi daqiqada mashina o'zini keskin chapga olib, g'uvillab yonimdan o'tib ketdi. Chang-to'zon orasida qoldim. Hamon uchib borarkanman, hayolimdan boshqa o'y kechdi. Shoshma, o'lib ketishdan osoni yo'q. Avval Rais bilan, menga shuncha «otalik» qilgan Rais bilan ikki og'izgina gaplashib olay!

Kungurador darvozasi qulf ekan. Avval mushtladim. Keyin tepdim. Darvozaxonada chiroq yondi. Yelkasiga to'n tashlagan Rais meni ko'rib avval hayron bo'ldi, keyin sevindi.

— Tinchlikmi, Qo'shoqjon? Otang tuzukmi? Kelin yaxshimi?

— Yaxshi!—dedim labim titrab. — Tug'ruqxonaga oborib qo'ydim.

Rais hayron bo'lgandek ko'zlarini pirpiratdi.

— Iya, Qo'shoqjon? Hali muddati yetmagandi shekilli?— dedi-yu birdan tizzasiga urib, qah-qahlab kulib yubordi. — Voy, guppi-ey! Voy udarnig-ey! Buyog'iniyam bopladim de! Xotinniyam dasrochna tug'dirib yubordim de!— u hovli tomonga qarab

baqirdi.— Suyunchi obchiq, xotin! O'g'ilmi-qiz?— dedi menga yuzlanib.— Otini nima qo'yasan?

Titrab ketdim.

— Otini sen qo'yasan!

Uning kulgisi shartta kesildi. Chiroq ostida rangi bir gezardi-yu, yuzi qahrli tusga kirdi.

— Bu nima deganing, hayvon! «Qalliq o'yin»ga borganing esingdan chiqdimi! O'zim ko'rganman!

Shuyam odam bo'ldi-yu! Shuyam erkak bo'ldi-yu!

— Ol matohingni!

Nariroqda turgan «pat-pat»ni yetaklab, darvozaga ro'para qildim. Yelkam bilan bir turtgan edim, darvoza tavaqasi ochildi. Mototsiklning orqasiga o'tib kuchim boricha kajavasiga tepdim. Darvozaxona qiyaroq ekan, «pat-pat» ichkariga qarab g'irilladi, Rais sakrab o'zini chetga oldi. Mototsikl shitob bilan g'ildirab borib oppoq «Volga»ning orqasiga urildi. Ruli qiyshayib, mashinaning orqa chirog'i chil-chil bo'ldi. Raisning ko'zida o't chaq nab ketdi.

— Mashinani nima qilding, haromi!— dedi hayqirib. Musht o'qtalib, ustimga kelayotgan edi, etigimning qo'njidan pichoq chiqardim.

— Kelaver! — Qiziq, shunaqangi osoyishta gapirdimki, o'zim ham hayron qoldim.— Kela qol!

Rais turgan joyida taxta bo'lib qoldi. Shu payt erkak desa erkaknikiga, xotin desa xotinnikiga o'xshamaydigan dahshatli ovoz uv tortdi.

— Voy dod! O'ldiropti! Erimni so'yyopti!

Raisning ola-bula ko'ylak kiygan xotini tovushini baralla qo'yib, tag'in bir dodladi-da, supadek joyni egallab, gursillab yerga o'tirib qoldi.

Ostonasiga tufladim-u, burilib ketdim. Orqamdan Raisning chinqiroq hayqirig'i eshitildi.

— Haromi! Esi past, jinni! Men bunga otalik qildim! Uylantirib qo'ydim...

• • •

Ertalab onam tugun-tersak ko'tarib yo'lga tushdi.

— Kelinimdan xabar olay. Bir yo'la otangniyam ko'rib kelaman.

Sezib turibman. «Otangdan suyunchi olaman» demadi. To'g'rida, suyunchini Raisdan xotini olsin! Eri yana bitta bolali bo'ldi-ku, axir!

Eshagimni minib, dalaga keldim. Tulporni shiypon oldidagi tolga bog'lab, ishga tushib ketdim.

Mashinada paxta teryapman-u, xayol ming ko'chaga olib kiradi. Nuqul o'zim bilan o'zim gaplashaman. Nega shunchalik oyoqosti bo'lding? Nega Rais seni shunchalik xor qildi? Toshkentga yetaklab bordi, suv bo'yiga olib borib, sug'ormay qaytarib keldi! Shunchaki erka o'g'li Shodivoyning ko'nglini olish uchunmi? Rais o'sha «katta domla»ga mo'maygina pul qistirmasa sen tugul Shodivoy ham institutni tushida ko'rardi. Nega o'sha paytda bu gaplarni o'ylab ko'rmading!

Otang «diplomat»ga taxlab beradigan jaraq-jaraq puling yo'q edi-ku, nega Shodivoyga ergashib Toshkentga bording? Rais qo'yamadimi? Nega senga yopishib oldi? Nega o'qitaman, dedi?

Shoshma! Maktabni bitirayotganingda, imtihon boshlanishidan oldin Rais Oysara yangaga atlas olib kelganmidi? O'shanda Oysara yanga yig'laganmidi? Tursunboy akaning uyidan chiqqaningda Rais nima dedi senga? «Bir-ikki oy indamay yur, Tursunboyga ko'rinma», dedimi? Ha-a! Mana, gap qayoqda ekan! To'xta! O'shanda Oysara yanga «Rais boshqa kitob topgan, o'shani o'qiyversin» deganmidi? Bundan chiqdi o'sha kezlari Rais boshqasiga ilakishib yurgan. Oysara yanga undan arazlagan. Rais yarashmoqchi bo'lib, sendan Oysaraga sovg'a kimgazgan. Shoshmachi! O'sha Nargis bo'lmasin tag'in! Yo'q, Nargis u paytda yosh bola bo'lgan. Bundan chiqdi Rais boshqa o'ynash topgan. Bundan chiqdi, Nargis birinchisi ham emas, oxirgisi ham...

Baribir! Rais seni shaharga bekorga olib bormagan. Og'zidan gullab qo'ymasin, odamlarning ko'zidan uzoqroqda bo'lsin, deb ataylab olib ketgan. Hov o'shanda gastinsada Shodivoyga nima dedi? «Jo'rang shuncha o'ynadi, bo'ldi-da», dedimi? Demak, seni shunchaki «o'ynatib» yurgan. Toshkentdan qaytgandan keyin Oysara yanga bilan yarashib, tag'in apoq-chapoq bo'lib ketgan. Ikki orada Tursunboy aka dodini kimga aytishni bilmay, rangi somondek sarg'ayib yuravergan! Bechora! Sen bo'lsang, ishga ra'yi yo'q deb xafa bo'lib yuribsan! Yo'-o'-q, Rais chuchvarani xom sanabdi. Men Tursunboy aka emasman, yer chizib yuradigan! Qo'lidan kelsa, yurist o'g'lini ishga solib ottirib yuborsin!

Shoshma! Shodivoy o'shanda, gastinsada nega buncha to'polon qildi? Nega «Qo'shoq institutga kirmasa menam qishloqqa qaytib ketaman», deb turib oldi? Yolg'ondan qildimi? Kim biladi? Ishonib bo'ladimi, bularga? Hammasining ildizi bir! Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi! Hatto birovning to'yida ham taraf-taraf bo'lib o'tirishadi. Raykombuva bilan Rais to'rda, qirq yillik muallim poygakda! «Dadam aytdi, yuristlarning topish-tutishi zo'r bo'larkan», deb o'zi aytgan-ku! Bundan chiqdi... Unaqa bo'lsa, nega ta'til payti qishloqqa kelmay qo'ydi? Mening to'yim kuni mast bo'lib, ukkiko'z Jovli aka, Shaydul kassirlarni nega maymun o'ynatyapti, dedi?

Xo'p, mayli. O'zing-chi, o'zing? O'zingda ayb yo'qmi? Gazetada maqtangani-yu, radioda «mash'al» deganiga mahliyo bo'lib yuraverdingmi? Gektaridan ellik sentner hosil olganing, mashinada uch yuz ellik tonna paxta terganing g'irt yolg'on-ku! Shunchalik ilg'or ekasan, nega o'zing ham, brigadandagi yigitlar ham nosvoy puliga yetar-yetmas haq oladi? Qayoqqa ketyapti o'sha pullar? Bundan chiqdi kech kuzda, yarim kechasi xloppunktida majlis bo'lgan kuni Shaydul kassirning papkasini yo'lda tushirib qoldirganingda kassir shunchalik tipirchilagani bejiz emas ekan-da!.. Kichkinaligimda ikki karra ikki — besh, deb yurganim o'yinchoq ekan-ku! Dunyoda bunaqangi ishlar bor ekan! Xohlasa, suvdan xolva yasaydi. Xohlasa, xalqni cho'michda qoqib boylik to'playdi. Davlatning ko'ziga cho'p solib «qahramon» bo'ladi. Xo'sh, shunaqa ekan, «ig'vogar» Ergashev «senga bildirmay vedomost tuzishadi, paxta o'rniga pul topshirishadi» deganda nega ishonmading? Ishonmading emas, Ergashevni qoralab yozishgan gazetani Nargis o'qiganida qarsak chalding! Nega? Yo'q, azbaroyi Ergashevni yomon ko'rganingdan emas, Nargisni yaxshi ko'rganingdan chalgansan. Shoshma?! O'shanda Nargis seni o'pgan edi-a? «Siz yaxshi odamsiz», degan edi-a?! Demak, o'shanda Nargisning gapini boshqacha tushunibsan-da. Meni jon-dilidan sevadi deb o'ylaysan-da! Galvars!

Obkom vakili, Raykom, Rais — hammasi bir tomonga o'tib turganidan keyin, xalq manfaatini shular o'ylaydi, bular axir katta odamlar, esli odamlar debman-da! Men ahmoq shularga ishonib yuribman-a! Shularga-ya! Kim o'zi bular?! Priyomchik Jovli, RayPO qaynotam, Rais, Shaydul-kassir, to'yda yelib-yugurgan kuyov — hammasi bir odam! Hammasi! Kim bilsin, balki Nargisning tan-joni «nosog'roq» ekanini hammasi bilgandir.

Hammasi birgalashib men ahmoqni yana bir marta ahmoq qilgandir! Nega bo'lmasa Raisning o'zi to'satdan to'yga boshqosh bo'lib qoldi. Nega o'sha harom-harish pat-patining kalitini bo'yniga osib yuradigan Oysara yanga Nargisnikiga borishimni eshitgan zahoti iljayib, baxt-saodat tiladi. Balki yana bir norasmiy «kundosh»dan qutulganiga, Rais tag'in o'ziniki bo'lib qolganiga shukur qilgandir. Iflos! Xotanim (qiziq, nega endi mening xotanim bo'lsin, Raisning xotini-ku) bilganini qilsin. Endi turmushimiz turmush bo'lmaydi. Bilaman, ungayam osonmas. Tug'ruqxona eshigida bekorga yig'lamadi. Rostini aytdi. Xo'p, shu bilan mening dardim yengillashib qoladimi? Men nima qilay, axir? Qaysi biridan qasos olay? Qandoq qilib? Hammasini bir chekkadan so'yib chiqolmayman-ku! Rais xohlasa, bugunoq meni oborib tiqib qo'yadi. Yoniga Jovli tushadi, Raykom tushadi, qaynotam tushadi...

Xo'p. Bo'lmasa nima qilay? Bir haftadan keyin Nargisni tug'ruqxonadan olib chiqib, raisdan bo'lgan bolani «lu-lu-lu» deb ko'tarib kelaymi? Tursunboy akaga o'xshab bir umr odamlarning ko'ziga qarolmay yuraymi? Yo «mash'al» brigad bo'lib, gektaridan oltmish sentnerdan hosil ko'tarib, medal olaymi? Har mavsumda to'rt yuz, kattalar xohlasa yetti yuz tonna paxta terib «qahramon» bo'laymi? «Qahramon» emish! Rais xohlasa shunaqa qiladiki, har kuni meni dalaga jo'natib, xuddi Oysara yangamning uyiga kirgandek, Nargisning oldiga keladi! Kim bilsin, balki bir vaqtlar Tursunboy akamga ham osmon baravar va'dalar bergandir?.. Rahmat! Tupurdim, o'sha qo'shimcha planlariga, yasama «qahramon»ligiga!

Xayol surib, egat boshiga borib qolibman. O'girilib qarasam, bunker to'lib ketibdi. Mashinani orqaga burayotganimda shiypon tomonda o'q tovushi eshitildi. Hayron bo'lib, mashinadan tushdim.

Shiypon oldidagi tolga boylangan Tulporim boshini orqaga tashlaganicha ikki gaz sakrab ketganiga ko'zim tushdi. Nariroqda, «Niva» mashinasi to'xtab turardi. Eshagimning ro'parasida turib miltiq o'qtalayotgan Raisni endi ko'rdim. U milidan tutun chiqib turgan miltiqni yiq'ilayotgan eshagimga yana to'g'riladi. Tulporim jon talvasasida arqonni siltab o'zini orqaga otdi. Shu payt avvalgidan ham qattiq gumburlagan o'q tovushi qulog'imga kirdi. Miltiq milidan tag'in tutun chiqdi. Eshagim yerga qulaginini

koʻrdim-u, oʻsha tomonga yugurdim.

Yetib kelsam, Rais shiypondagi soʻrida qoʻshogʻiz miltiqni tizzasiga qoʻyib, xotirjam oʻtiribdi. Uchib kelib, Tulporimning ustiga tiz choʻkdim. Oʻn besh yillik qadrdonim tuproq yerda choʻzilib yotar, kuragidan qon oqib, qorayib turardi. Boshini koʻtargan edim, ochiq qolgan koʻzlarida xuddi odamnikiga oʻxshagan hayratmi, unsiz xitobmi koʻrdim. Qoʻlimga qon yuqdi. Boʻynini ham oʻq teshib oʻtgan ekan!

Esdan ogʻgandek sapchib oʻrnimdan turdim.

— Nima qilding? — dedim hayqirib. — Nima qilding, hayvon! Tilsiz-zabonsiz jonivor nima gunoh qildi senga?!

— Paxtani payhon qilgan! — Rais teskari qarab chirt etib tupurdi. — Bir gektar yerni!

— Qachon? Bogʻliq turibdi-ku!

Rais negadir xiringlab kuldi.

— Bu — mashinamning chirogʻini sindirganing haqqi! Kechagi tuhmating uchun yana javob berasan hali!

— Ot! — koʻksimga chang solib, koʻylagimni yirtdim. — Nomard, kelib-kelib kuching shu jonivorga yetdimi? Ot, mard boʻlsang! Ot, hezalak!

— Bu — shunchaki preduprejdena. Hali shunaqangi kunlarni koʻrasanki! Xotiningni haqorat qilganing uchun, rahbar xodimga pichoq oʻqtalغانing uchun... — u xalatnusxa kitelining tugmasini yechib, jun bosgan koʻkragini xotirjam silab qoʻydi. Miltiq bandidan ushlab, mashinasi tomon yurgan edi, yerga choʻkkalab qoldim.

— Haromxoʻr! Hayvon! Ot, deyapman, erkak boʻlsang!

U «Niva»ga oʻtirib motorni yurgizdi.

— Shoshma, — dedi iljayib. — Har narsaning oʻz mavridi bor!

Shunday dedi-yu mashinani gurillatib ketdi. Tura solib, yugurdim. Qoʻlimga tushgan guvalani olib, «Niva» ketidan otdim. Tegmadi. Hansirab chopib borarkanman, qoqilib, yuz tuban yiqilib tushdim. Tizzamni koʻzi sirqirab ogʻrir edi, oqsoqlanib qaytib keldim.

Shiypon burchagida turgan, zanglab ketgan ketmonni olib, tol tagidan chuqur kavlay boshladim. Ishonasizmi, esimni taniganimdan beri yigʻlash nimaligini bilmagan, toʻydan keyin oʻzimni necha marta oʻldirishga qasd qilganda ham koʻzimga bir qatra yosh kelmagan odam, eshshagimni koʻmayotganda yigʻladim!

Keyin hovuzda yuzimni yuvib olib, so‘ri chekkasiga kelib o‘tirdim. Uzoq o‘tirdim.

Orqa tomonda motor gurilladi. Burilib qarasam, Raisning mashinasi! Ketmon dastasini mahkam changalladim. Yaxshi! Rais miltiq bilan, men ketmon bilan! Yo u o‘ladi, yo man! Ammo Raisni o‘ldirsam, eshagimning tagiga ko‘mmagan nomard! Tulporimning go‘rini ochib, sudrab chiqaman-da, avval Raisni yerga tiqaman! Keyin eshagimni! Toki Raisning o‘ligi eshagimning tagida yotsin!

Mashinadan koptokdek dum-dumaloq Qamchibek tushdi.

— Qo‘shoqjon... — dedi yalinib. — Tez borarkansiz! Raykom bova chaqiryapti.

Endi mashina ichiga biqinib olib, hunar ko‘rsatyaptimi, hezalak! Qarasam, yo‘q, mashina ichida hech kim ko‘rinmaydi.

— Juda iltimos qildi. Raykom bova! — dedi shofyor hurkibroq.

— Kim u Raykom bovang!

— Qo‘shoqjo-on! Yangi kamissiya hamma tomonni kompleks tekshiryapti, umrida dalaga chiqmaydigan kattalarning hammasi o‘sha yerda. Qaynotangiz... Jovli Mengliyevich...

— Mening qaynotam yo‘q!

— Musayip ham o‘sha yerda. «Ferma tog‘a».

— E, har yuz sovliqdan ikki yuztadan qo‘zi oladigan «Ferma tog‘a»mi?

Shofyor suyunib ketdi. Iljaydi.

— Xuddi o‘zi!

— Tanimayman!

— Raykom bova qattiq tayinladilar. Eng mash‘al mexanizatorimiz kelmasa bo‘lmaydi, dedilar.

— Ergashevni ig‘vogar deb qamatgan o‘sha Raykom bovami?

Shofyor indamay boshini quyi soldi.

— Uniyam tanimayman! — dedim xo‘rsinib. Qiziq, ichim bo‘m-bo‘sh edi.

— Qo‘shoqjon!— shofyor yelkamdan quchdi. — To‘g‘risini aytaymi? Bu kamissiya to‘satdan bosdi. Juda katta kamissiya! Markazdan kelgan. O‘ttiz kishi! Gektaridan ellik uch sentnerdan hosil oladigan, mavsumda to‘rt yuz tonna paxta termoqchi bo‘lgan yigitni o‘zini ko‘rsatasan, deyapti. Rais bova, Qo‘shoq Salimov farzand ko‘rgan, xotinidan xabar olishga ketgan, desayam qo‘ymayapti.

— Kelaversin,— dedim pinagimni buzmay.

— Bu yoqqa qandoq opkelamiz? Hosilning mazasi yo‘q-ku! Raykom bova aytdi: oltinchi uchastkada mashina tushmagan karta bor. O‘shanda yarim soatgina paxta terib ko‘rsatsa bas, dedi! Rais bova sizni xafa qilib qo‘ygan ekan. Raykom yomon so‘kdi. Shu bolaning dilini og‘ritsangiz, sizdan norozi bo‘lamiz, dedi. Shaxsan o‘zi iltimos qildi.

Mehribonchilikni qarang! Tupurdim, o‘sha Raisning hamtovoqlariga!

— Yap-yangi mashina tayyorlab qo‘yishibdi. Jon uka, xo‘p deng! — Qamchibek ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi. — Meniyam bola-chaqam bor. Bormasangiz, Raykom bova bilan Rais bova terimga somon tiqadi.

U ko‘zimga shu qadar iltijo bilan termulib, shu qadar yig‘lamsiradiki, xayolimga g‘alati o‘y keldi.

— Qamchibek aka, kamissiya rostdan ham markazdan kelganmi?

— Markazdan! Obkom vakiliyam pildirab yuribdi. Raykom bovaning es-hushi o‘zidas. Rais bova-ku, tamom bo‘ldi, hammaga bir qarab talmovsiraydi...

— Avvalgilariga o‘xshab pulga sotilmaydimi, kamissiyalaring?

— Bilmadim. Ammo ziyofatga ko‘nmadi... Rais bova «bir piyola choyimiz bor» degan edi, kamissiya boshlig‘i jerkib tashladi.

...Rostdan ham hali mashina kirmagan, paxtasi oqib yotgan paykal chetida ellik chog‘liq odam turgan ekan. Poxol shlyapa kiyganlar, boshyalanglar, do‘ppi kiyganlar. Semiz obkom vakili ularning atrofida girdikapalak! Soqolini qirtishlab olgan qaynotam, ukkinikiga o‘xshagan ko‘kimtir ko‘zlari alang-jalang Jovli aka, pahta zavodining direktori — taqirbosh Viktorov, ikki gapining birida «mong‘a qorang‘» deb gap ma‘qullayotgan «Ferma tog‘a», novcha-terak Shaydul-kassir, ingichka bo‘ynidagi uchburchak bag‘baqasi paydar-pay liqillab turgan Raykom buva, birpasda yasanib, medal to‘la qora kostumini kiyib olgan Rais...

Rais mashinadan tushishim bilan shodon xitob qildi.

— Mana, o‘sha mash‘alimiz! Qo‘shojon Salimov! Buni qaranglar, bugun to‘ng‘ich farzandi tug‘ildi-yu, shundayam daladan chiqmaydi. Boshqa uchastkada paxta terayotgan ekan, azamat.

Allaqayoqdan qaynotam paydo bo‘ldi.

— Qizcha, qutli bo‘lsin, ulim!— dedi-yu, peshonamdan o‘pmoqchi edi, yuzimni chirillatib o‘girdim. Rais uni nari surib, yana xitob qildi.

— Bu uchastkaga ikki mashina kirgan. Hosilimizni qarang! Uchinchi terimga ham yetilib turibdi.

Gapini qarang. Og‘zini ochdi, ichidan yolg‘on chiqadi, ablah! Bunaqa «ko‘rgazmali paykal»larni mavsum oxirigacha ataylab asrab qo‘yishingni g‘irt ahmoq ham biladi-ku!

— Bunaqa maydondan bemalol oltmish sentnerdan olsa bo‘ladi,— dedi u jilmayib. — Qani, Qo‘shoqjon! Bir ko‘rsat hunaringni!— u komissiya vakillari ortiqcha savol berib, meni o‘rtaga olishini xohlamadi shekilli, zipillab paykal boshida turgan mashina tomon yetakladi.

Mashina chindan ham yap-yangi edi. Darrov sezdim, shpindellari top-toza, kabinasidan yoqimli hid kelib turibdi. Buyam ko‘rgazmali mashina! Ikki soat paxta terasan-da, keyin yana olib qo‘yadi.

«Hunarimni» ko‘rging kelib qoldimi? Hozir-da, shunaqangi hunar ko‘rsatayki! Qiziq, negadir qaynotamning «qizcha qutlug‘ bo‘lsin» degani qulog‘im tagida yana jaranglab ketgandek bo‘ldi. Bundan chiqdi, Nargis qiz tug‘ibdi-da! Raisning qizi! Xaromxo‘rlar! Hamtovoqlar! Ko‘rib qo‘y!

Richagni bosib shpindellarni shu qadar pastga tushirdimki, yerga tegib qoldi-yov! Motorni yurgizib, kuchim boricha tepkini bosdim. Mashina quturgan fildek na‘ra tortib, oldinga sapchidi. Chang-to‘zon ko‘tarildi. Burilib qaragam, bunkerga paxta emas, g‘o‘zapoyalar, majaqlangan ko‘saklar patir-putir tushyapti! Qoyil! O‘zim ham bir zumda allaqancha joyni ag‘dar-to‘ntar qilib tashladim-ov! Mana buning otini yer haydash desa bo‘ladi! Mashinam o‘tgan joy ship-shiydam! Na paxta bor, na g‘o‘zapoya! Yer shudgor bo‘lib ketganini aytmay sizmi!

Bir mahal Rais bilan Raykom buva mashina ketidan yugurib qoldi. Negadir kulib yubordim. Bu kuningdan battar bo‘l, hammang! Rais rangi gezargancha qo‘lini paxsa qilib baqirdi. Eh-he, haliyam do‘q qilyapsanmi?! Mana bo‘lmasa! Mashinani shiddat bilan dalaga ko‘ndalang qilib burdim. Odatda, terim mashinasini keskin burib bo‘lmaydi. Bunker zalvaridan ag‘darilib ketadi. Hozir ham shunday bo‘ldi. Mashina o‘ng tomonga og‘di-da, gursillab dumalab tushdi. Kabinadan otilib ketdim. Paxtazor o‘rtasida anchagacha qulog‘im

g'uvillab yotdim. Boshim kattaroq kesakka urilgan ekanmi, sirqillab og'rir, qulo'g'im shang'illar edi.

Bir zumda ustimga odamlar to'plandi. Shlyapali, shlyapasiz komissiya a'zolari, surnayga o'xshab g'iyqillab nafas olayotgan semiz obkom vakili, uchburchak bag'baqasi liqillab turgan Raykom buva, Shaydul-kassir, qaynotam, ukki ko'zlari yonib turgan Jovli aka, bashang kiyingan rais, qo'ying-chi, — «Ferma tog'a»gacha atrofimni o'rab olishdi.

— Nima qilding, ahmoq! — Rais yirtilib ketgan yoqamdan bo'g'ib ko'tardi. — Kolxoz mulkini nima qilding, ablah! — dedida, yuzimga tarsaki tortib yubordi.

Urish mana bunaqa bo'ladi, deb qoq jag'iga chunonam musht tushurdim-ki, Rais pufakdek uchib ketdi. Besh qadamcha nariga— ariq ichiga borib tushdi. Pishiq ekan, xunasa! Paq etib yorilib ketmaganiga hayronman. Yugurib borib qorniga tepdim. «G'iq» etgan ovozni hamma eshitdi.

— Nima qilyapsan! — Jovli aka xumdek boshini yelkasi ichiga tortib chopib kelayotganini ko'rdim. Yo'-o'q, men Shaydul-kassir emasman, kalla qo'yishingni kutib o'tiradigan. Yaqin kelsa nag'al qoqilgan etigim bilan qoq jag'iga tepishni mo'ljalab turgan edim, allakim, uni quchoqlab, to'xtatib qoldi. Jovli, o'ljasiga yetolmagan ukkidek ko'zlari yonib, «huv-huv» deb tipirchiladi.

— Qani, kelaver! — dedim jazavam tutib. — Kela qol!

Qiziq, yaqin keladigan mard yo'q!

Voy nomardlar! Voy jo'jaxo'rozlar! Hali senlarga xor bo'lib yuribmanmi!

— Kamissiyaning boshlig'i kim? — dedim baqirib.— Kim?!

Oraga g'alati jimlik cho'kdi.

— Kim? — dedim jon holatda chinqirib.

Kulrang poxol shlyapa kiygan odam davradan ajrab chiqdi. Sekin-sekin yaqin keldi.

— O'zingizni bosing, uka! — dedi osoyishta ohagda.

— Sizmi, boshliq?! Sizmi? Ayting?

— Men! — u yelkamga qoqmoqchi edi, qo'lini siltab tashladim.— Yolg'on!— tilimga birinchi kelgan so'z shu bo'ldi.— Yolg'on! Gektaridan ellik sentner hosil olganimiz — yolg'on! Bultur uch yuz ellik tonna paxta terganim — yolg'on! Katta pul daromad qilganim — yolg'on!

Davra orasida Raykom buvaning ovozi keldi.

— O‘rtoq vakil! Iltimos, quloq solmang, bunga. Bu bola — shizofrenik!

— Sen o‘zing shizo... shizo...— u yog‘iga tilim kelishmadi. Battar hayqirdim.— O‘zing shunaqasan! Hammang o‘g‘risan! Ana, bizning haqimizni o‘margan o‘g‘ri! — og‘zidan ko‘pik chiqarib yotgan Raisga imo qildim. — Mana o‘g‘riboshi, zavod direktori bilan pul taqsimlaydi! — xumdek kallasini salanglatib hamon men tomonga yulqinayotgan Jovlining basharasiga tupurdim.

Kulrang shlyapali vakil yelkamdan quchdi.

— O‘zingizni bosing, uka! Hammasini aniqlaymiz!

— Qo‘yvor! — dedim tipirchilab. — Hammasini aytaman! Shaydul-kassir paxta o‘rniga xloppunktga pul olib borgan. Panji uylanganiga besh yildan oshdi! Haliyam qarzidan qutulgani yo‘q! Maosh ololmaydi.

— Qo‘ying, Qo‘shoqjon! Uyat bo‘ladi! — soqoli qirtishlangan qaynotam yaqin kelgan edi, iflos narsani ko‘rgandek yuzimni o‘girdim.

— Yo‘qol, qo‘shmachil!

Allaqayoqdan taqirbosh Viktorov paydo bo‘ldi.

— Nu, durak!— dedi yaltiroq boshini chayqab. — Ay durak, a? Kup gapirma, axmak!

— Sen ahmoq! Sen poraxo‘r!

— Militsiya! — olomon orasidan Raykom buvaning hokimona xitobi yangradi. — Militsiya bormi o‘zi bu xo‘jalikda!

— Mana senga melisa!— dedim xunuk qiliq qilib.— O‘sha pullardan senam ulushingni olgansan. Obkom vakili ham. Bo‘lmasa, Ergashevni nega qamatdilaring? Halol odamni nega turmaga tiqdilaring! Hammang o‘g‘risan! Hammang harom-xo‘rsan. Vijdonsizlar! Yegan-ichganlaring — harom, kiygan kiyimlaring — harom, topgan-tutganing — harom. Mana, ot! O‘ldir. O‘ldirib qo‘ya qol! Jonimdan to‘yib ketdim!

...Keyin nima bo‘lgani esimda yo‘q.

. . .

Ko‘zimni ochsam, derzasiga temir panjara tutilgan katalakdek xonada yotibman. Ko‘ylagim yoqavayron. Shimim loy. Etigim yechib olingan. Bir mahal eshik ochilib zaxil yuzli, burnining uchi qilzil, ko‘zlari ola-kula odam ko‘rindi. Turqi sovuq bo‘lsayam kiyinishni boplarkan. Egnida oppoq ko‘ylak, qirrasini chiqarib

dazmollangan kulrang shim, gard yuqmagani qora tufli... Temir karavotdan turib, arang qaddimni rostdim. Negadir boshim sirqillar, suv ichgim kelardi.

— Salimov? — dedi u chaqchayib.

— Shunaqa shekilli, — dedim xotirjamlik bilan. Endi bu yog'i menga baribir! Qo'lidan kelganini qilmaydimi? Ajab, dilim ravshan edi. O'lay agar, nimaga shunaqa bo'lganini o'zim bilmayman... Faqat, otam bilan onamga achinardim.

— Xo'-o'sh... Mening familiyam — Qalandarov! Tergovchiman! — zaxil yuzli kishi daftar-qalam oldi. Xonada kursi yo'qligi uchunmi, temir karavotda o'tirishga irgandimi, turgan joyida qo'lidagi qog'ozlarni titkiladi. Negadir kuldi. Qiziq, kulishi g'alati ekan. Xuddi kaltakesak chirqillganga o'xsharkan. — Hurmatingiz zo'r, Salimov! Sizni ovora qilmaslik uchun kabinetga chaqirmay, shu yerning o'zida so'roq qilib qo'ya qolamiz.— To'satdan uning ko'zlari olayib ovozi qat'iy tus oldi. — Salimov! — dedi shiddat bilan. — Siz jinoyat kodeksining...— qip-qizil burnining uchini barmog'i bilan paydar-pay silab, allaqancha raqamlarni aytdi, «b», «g», «d» moddalariga binoan jinoiy javobgarlikka molik ish qilgansiz! Birinchidan, qonuniy ZAGSdan o'tgan xotiningiz Nargis Qo'shshayevaning og'ir oyoqligini bila turib qorniga tepgansiz! Qasddan! Xotiningizni prejdevremenniy dard tutib qolgan. Siz jinoyatni yashirish uchun Qo'shshayevani rayon roddomiga mototsiklda olib borgansiz! Roddom eshigiga tashlab qochgansiz. Yaxshiyamki, grajdanka Qo'shshayevaning organizmi kuchlilik qilgan. Chaqaloq sog'-salomat tug'ilgan, — tergovchi sabziga o'xshash qip-qizil burnining uchini yana silab qo'ydi. Turgan joyida qog'oz titkiladi. — Xo'-o'sh! — dedi salmoqlanib. Uch kilo-yu yetti yuz o'n yetti gramm!

— Nima y?

Qalandarov hayron bo'lib, yuzimga qaradi.

— Nima, «nima»?

— Uch kilo-yu yetti yuz gramm nima?

— Nima emas, kim? — Qalandarov yer tepinib hayqirdi. — Chaqaloqni aytaman, galvars! Sening qizingni!

Xaxolab kulib yubordim.

— So'rab ko'rdingizmi, o'rtoq Qalandarov! Chaqaloq necha oyda tug'ilibdi? To'rt oylik bola salkam to'rt kilo bo'ladimi?

Qalandarov ko'zlari ola-kula bo'lib ketdi.

— Birinchidan, men senga o‘rtoq Qalandarov emas, grajdanin tergovchi Qalandarovman! Ikkinchidan, savolni sen emas, men beraman! Xo‘-o‘sh... 31 oktabr kuni kechqurun soat yigirma ikkidan ellik to‘qqiz minut o‘tganda grajdanka Qo‘shshayevani urib, roddomga tashlab qochgansan. Oradan qirq uch minut o‘tgach, soat yigirma uchdan qirq ikki minut o‘tganida «Mash’al» kolxozining raisi, viloyat kengashining deputati, bir emas, oltita hukumat nishoni bilan mukofotlangan Toshmamat Alimovning uyiga mototsikl minib, bostirib borgansan. Mototsikl lyulkasida qasddan olib borgan boltang bo‘lgan. Shu bolta bilan hurmatli o‘rtoq Alimovning mehnatda erishgan yutuqlari uchun mukofot tarzida berilgan 50–91 nomerli «GAZ-24» «Volga» mashinasini urib pachaqlagansan. Keyin etigingning qo‘njidan tig‘ining uzunligi 29 santimetrli suyak sopli pichoq chiqarib, o‘rtoq Alimovni so‘ymoqchi bo‘lgansan. Boltani topdik. Mashina tagida yotgan ekan. Pichoq qani?

— Raisning qornida! Yorib ko‘rsangiz topasiz! — dedim xotirjamlik bilan.

— Bas! — Qalandarovning burni battar qizarib ketdi. Nazarimda bo‘yni ham qizarib, oppoq ko‘ylagining yoqasi lolarang tusga kirdiyov! — O‘ttiz ikkinchi oktabr, tfu, birinchi noyabr kuni nega Alimovni urding? Nega xizmat vazifasini bajarib turgan rahbarni tepding? Nega bo‘g‘ding? Nega allaqanday ig‘vogar Ergashevni himoya qilding?

Bilmadim, yana kulgim qistadi.

— Rais o‘lmadimi hali?! — dedim iljayib. — Men uning kallasini ketmon bilan uruvdim-ku!

— Shunaqami? — tergovchining zaxil yuzi yorishdi. — Yozib qo‘yamiz. — Xo‘-o‘sh... Jinoyatchi Salimov Toshmamat Alimovni ketmon bilan boshiga urgan. Yaxshi! Yana? O‘rtoq Menglievni-chi? Uniyam tepibsani-ku!

— Aniq esimda yo‘g‘-u, chamamda uni tepmadim. Chopdim. Ketmon bilan boshini chopib tashladim. Ketmon o‘tkir edi-da! O‘z ko‘zim bilan ko‘rdim! Rais ikkovining boshi uzilib, sapchadek dumalab ketuvdi. Paykalda ikkala bosh haliyam yonma-yon yotgan bo‘lishi kerak, o‘rtoq...

— O‘rtoq dema! — Qalandarov bir chaqchaydi-yu, yozishda davom etdi. — Yaxshi! Buniyam deloga tikib qo‘yamiz. — U kaftlarini ishtaha bilan ishqaladi. — Bilasizmi, Salimov! — dedi

mamnun jilmayib, hatto ovozi ham muloyimlashib ketdi. — Shuncha jinoyat uchun sizni kamida o‘n besh yil ozodlikdan mahrum qilish kerak! Oliy jazoni qo‘llash ham mumkin! Albatta, buyog‘ini sud hal qiladi. Muhimi shuki, jinoyatchi aybini bo‘yniga...

«Bo‘yniga» deyishi bilan sapchib turib bo‘yniga yopishgan edim, qizil burni ko‘karib dod soldi.

— Dejurniy!

Yosh navbatchi militsioner quyundek uchib kirib, qo‘limdan tutdi. Tergovchi hansirab nafas olgancha chiyilladi.

— Senga oliy jazoni olib bermasam, Qalandarov otimni boshqa qo‘yaman. Starshiy tergovchi bilan nachalnikka bugun, hozir raport yozaman!

Temir karavotga o‘tirib, devor tomonga qarab oldim. Qo‘lidan kelganini qilsin!

— Men shu yerdaman! Nima gap! — dedi kimdir eshik tomonda.

— O‘rtoq starshiy tergovchi! — Qalandarovning yig‘lamsiragan tovushi qulog‘imga kirdi. — Og‘ir jinoyat ustida KPZga tushgan Salimov dopros paytida meni bo‘g‘ib o‘ldirmoqchi bo‘ldi. Mana! Bo‘ynimni ko‘rib qo‘ying. Mana, barmoq izlari turibdi. Ruxsat eting, eksperizaga borishga!

— Yo‘qol! — starshiy tergovchi shunaqangi hayqirdiki, katalak xona zing‘illab ketdi. Keyin jimlik cho‘kdi. Xayriyat, daf bo‘lishdi!

— Qo‘sho... — boshim ustida shunaqangi tanish, shunaqangi mehribon ovoz eshitildiki, o‘rnimdan turib ketdim. Burilib qaragam, xona o‘rtasida Shodivoy turibdi. Qandoq yaxshi! Endi meni qarddon do‘stim, yo‘g‘-e, sobiq do‘stim Shodivoy, starshiy tergovchi grajdanin Alimov so‘roq qiladi! Xohlagan muddatni bo‘ynimga iladi. Zo‘r-da, o‘ldirsayam, do‘st o‘ldirsin!

Endi joyimga o‘tirayotgan edim, Shodivoy ildam kelib qo‘ltig‘imdan ko‘tardi.

Voy jinni-ey! Tergovchi deganiyam jinoyatchini quchoqlaydimi hech zamonda!

Bir mahal qaragam, ko‘ziga yosh to‘lib turibdi.

— Shodi? — yelkasiga turtdim. — Jinnimisan?!

U yuzimga diqqat bilan termuldi.

— Qo‘sho! — dedi ovozi xirillab. — Bilaman senda gunoh yo‘q. Jahlim chiqib ketdi.

— E, esing joyidami, Shodi! Aybsiz odamni bu yerga obkeladimi? Otangni urganim — rost! Qorniga pichoq sanchganim rost! O'lmay qolgan ekan, ertasiga Jovli ikkovining boshini ketmon bilan chopib tashlaganimam to'g'ri! O'sha ketmon shiyponda turibdi. Birov ilib ketmasidan toptirib qo'y. Xotinimning qorniga tepganim ham — rost. Bo'lmasa, to'rt oyda tug'armidi!

— O'chir! — Shodivoy shusiz ham varvarak bo'lib ketgan ko'ylagimning yoqasiga yopishdi.

— Ko'ylakni yirtiding, xumpar! — dedim baqirib.

— Qo'sho! Qo'shshayeva bilan gaplashdim. Senga hech qanada da'vosi yo'q, — Shodivoy ko'zimga tikildi. — Ayb — boshqalarda! Sen begunohsan.

Qarasam, yig'lab yuboradigan! To'g'risini aytsam, jo'ramga rahmim keldi.

— Shodi-i, — dedim yalinib.— Bitta xo'p de, jon o'rtoq! Meni qamatgi-in! Necha yil bersang ham g'ing demayman.

— O'chir!

— Shoshma, munday o'tirgin, jo'ra! — Shodivoyning yelkasini silab, yonimga o'tqazdim. — O'zing o'ylab ko'r. Sen yosh kadr bo'lsang. Shuncha yil bekorga o'qidingmi? Qancha qiynalading, to'g'rimi? Kanikul paytidayam qishloqqa kelmading. Markazda ishlading. Otang seni o'qitaman deb shuncha ovora bo'ldi...

— Otam?! — Shodivoy shu qadar alam bilan ingrab yubordiki, o'zimning ham ko'zimga yosh quyilib keldi. Jo'ram temir karavotda cho'kkanicha yuzini kafti bilan to'sib, uzoq o'tirdi. Nima deyishni, nima qilishni bilmasdi.

— Qo'y, Shodi-i, xafa bo'lma...— dedim sekin.

— Otam...— Shodivoy qo'llarini tushirdi. Ko'zida, odamning yuragini ezib yuboradigan alam bor edi.— Qandoq bosh ko'tarib yuraman, bu yerlarda, jo'ra!— dedi ingrab.— Kim degan odam bo'ldim?! O'n bitta nevaralik odam o'n sakkiz yashar qizni shu ahvolga solsa! Hamma narsani pul bilan o'lchasa. Harom-xarish yo'llar bilan obro' topsa. Enamning ko'ziga qandoq qarayman, do'stim. Opalarimning ko'ziga qandoq qarayman!

— Bo'ldi, jo'ra, bo'ldi! — dedim yelkasiga qoqib. — Hammasi yaxshi bo'ladi.

— Bilasanmi, Qo'sho! — jo'ram baqirib yubormaslik uchun titrab turgan labini tishladi. — Viloyat ichki ishlar boshqarmasida shu ishni menga topshirishdi. Sening ishingni! Otam bilan raykom

ataylab viloyatga borishgan. Mening qo‘lim bilan sendan qasos olishmoqchi. Tushundingmi?

— Yaxshi bo‘pti! — dedim yengil tortib. — Meni qamatsang, qutulasan! Otangni urganim rost-ku!

— Ahmoq! — Shodivoyning ko‘zida vahimali o‘t porladi. — Meniyam o‘zingga o‘xshagan tentak deyapsanmi, ahmoq!

Sal hovridan tushirmasam bo‘lmaydigan.

— Shodi-i, — dedim yalinib. — Otang seni ne umidlar bilan o‘qitdi, jo‘ra...

— Ovar! — Shodivoy alamli kuldi. — Bilaman, o‘qitdi. Har sessiyada sovg‘a-salom, dasta-dasta pul jo‘natdi. Aysam, bari-bir ishonmaysan! Men o‘sha pullarni qaytarib yuborardim. O‘qishga pul bilan kirganim yetadi. Endi bu yog‘iga...— u bir nuqtaga tikilganча uzoq jimib qoldi. Ma‘yus kulimsiradi. — Men yuristlar eng halol odam derdim. Adliya so‘zi — adolat so‘zidan olingan derdim. Qadimgi yunonlarning Femida degan xotin xudosi bor. Adolat o‘shandan qolgan, deb o‘qitishardi. Rost, domlalarimiz orasida halol odamlar ko‘p edi. Ammo, har zacetda pul yig‘ib oladigan ablahlar ham bor edi, Qo‘sho! Ishonasanmi shunga! — u alam bilan bosh chayqadi. — Avval boshi men o‘qimoqchi emasdim. Sen qayerda bo‘lsang, men ham shu yerda bo‘lmoqchi edim. Keyin o‘sha ta‘magir domlarni ko‘rib, oxirigacha o‘qishga qasd qildim. Shuning uchun ta‘til paytlari jon kuydirib ishladim. Bu yoqlarga qaytmoqchi emasdim.

— Baribir kelding-ku, — dedim boshqa gap topolmay.

Shodivoy xo‘rsindi.

— Keldim emas, yuborishdi.

— Bo‘pti-da, ishlayver.

Jo‘ram labining bir burchi bilan iljaydi.

— Oson ekan-da! O‘z otangni so‘roq qilish o‘yinchoq ekan-da! O‘sha aldama-qaldamlarda otamning ham qo‘li bor-ku! Hammasining ildizi bir-ku.

Qarang, bu yog‘ini o‘ylamagan ekanman. Shodivoy shu qadar ma‘yus o‘tirardiki, jo‘ramga yuragim tuzdek achib ketdi.

— Qo‘y, jo‘ra! — dedim boshini silab. — Xafa bo‘lma. Meni qamatsang...

— Yana gapiradi-ya! — Shodivoy yeb yuborgudek vajohatda chaqchaydi.

— Quloq solsang-chi, ahmoq!— dedim jahlim chiqib. — Meni

qamatsang, hammasi joyiga tushadi.

— O‘zing ahmoq! — Shodivoyning ham jazavasi qo‘zib ketdi.

— Eshakka o‘xshagan befahm. Qamatmayman!

— Qamatasan! Aybim bo‘ynimda-ku!

— Yo‘q!

— Qamatasan!— alam ustida temir karavotga mushtlagan edim, qo‘lim chunonam sanchib ketdiki, voy-voylab qoldim.

— Nima qildi, Qo‘sho? — jo‘ram qo‘limni kaftlari orasiga olib, silay boshladi. — Yomon tegdimi? Ikki qulog‘ing bilan eshitib qo‘y, do‘stim, seni qamatib qo‘ymayman.

— Shodi! — dedim yalinib. — Jon jo‘ra! Do‘stligimiz haqi! Meni qamatgin. Bitta jo‘ralik qilgin. Shunda o‘zinggayam yaxshi bo‘ladi.

O‘n to‘qqizinchi bob

GAPNING INDALLOSI YOKI QULOQQA CHALINGAN XABARLAR

Endi ishondingizmi, do‘xtirjon! Men jinoyatchi emasman, jinni ham emasman. Raisga pichoq o‘qtalгимdan tonmayman. Urganim ham rost. Shuning uchun Raisdan tortib Jovligacha, Raykom buvadan tortib obkom vakiligacha meni jinoyat kursisiga o‘tqazishga xo‘p urinishdi. Uch oygina qamashdi ham. Shodivoy bekorga o‘qimagan ekan. Shunaqangi g‘ayrat bilan ishga kirishib ketdiki, meni jinoyatchi deganlarning o‘zi dumini qisib qoldi. Omadim chopganini qarangi, turmushimizda g‘alati o‘zgarishlar bo‘ldi. «Ig‘vogar» deganimiz o‘sha Ergashev eng pokiza odam ekan. Qamoqdan chiqib kelib, u ham Shodivoyning yoniga kiribdi. Ikkalasi meni kafillikka olibdi. Nargis — mard xotin ekan. Sudda meni oqlab chiqdi. «Salimovning qilchayam aybi yo‘q» dedi. Ochiqdan-ochiq shunaqa dedi.

Shundan keyin ham meni to‘rt oy jinnixonada saqlashdi. Ba‘zi birovlar ko‘zdan uzoqroqda turishimni xohlagan-da!

Onamning aytishicha, qaynonam Raisning xotini bilan rosa yulishibdi. «Ering qizinga aliment bersin» deb to‘polon qipti. Raisning xotini «bobosi tengi erkakning to‘shagida yotgan g‘ar qizing kuchala yegan joyiga borib qotsin» debdi. Shundan keyin hammasi bir-birining tagini kavlashga tushib ketibdi. «Ferma

tog‘a», Shaydul-kassirni ayblabdi. Shaydul-kassir boshbuxni, boshbux Raisni, rais Jovlini, Jovli zavod direktorini, zavod direktori Raykom buvani, Raykom buva obkom vakilini! Xullas, hammayoq to‘s-to‘polon bo‘lib ketibdi! Ergashev bular paxta o‘rniga pul topshiradi, degani rost ekan. O‘sha pullardan bir ulushini Rais hovlisidagi tokning temir so‘risi orasiga tiqqan ekan, suv sizib, allaqanchasi chirib ketganini ko‘rib afsuslanibdi. «Aslida salapan xaltani besh-olti qavat qilsam bo‘larkan», debdi.

«Ferma tog‘a»ning pichan g‘aramidan yana bitta «Volga» chiqibdi. Bunisi oq emas, qaymoqrang emish. Shaydul-kassir o‘z hissasini pat-patning eski balloniga tiqib, chordoqqa tashlab qo‘ygan ekan. Pulni topib olishganida ikkita xotini bilan qo‘shilishib rosa yig‘labdi.

Hammadan ham Jovli g‘alati yo‘lni topgan ekan. Bor bisotini temir idishga joylab, hojatxonaga tashlab qo‘ygan joyidan sug‘urib chiqarishibdi. Hayronman, bunaqa joyda yotgan narsani nimaga ishlatmoqchi bo‘lganiykin? Sasib-bijib, harom bo‘lib ketmaydimi?

Taqirbosh Viktorov — quv ekan. Tekshir-tekshir boshlanganida Shodivoyga ariza ko‘tarib kepti. «O‘rtoq Alimov, men oblastimizda ro‘y berayotgan pripiskalarni ko‘pdan beri kuzatib yurardim», deb Raisdan tortib Raykom buvagacha, obkom vakiligacha, hammasining sirini aytib beribdi. Shodivoy, «o‘zingiz shu ishlarga aralashmaganmisiz», desa, «men kristalniy, chistiy odamman», deb turib olibdi. Ertasiga Viktorovning hovlisidagi cho‘chqaxonadan diplomat to‘la pul, yana allaqancha oltin-javohirlar chiqibdi. Tekshiruvchilar «bu nima» deyishsa, Viktorov yelka qisibdi. «Dunyoda cho‘chqadek ahmoq jonivor yo‘q, ko‘chada uchragan narsani tashmalab kelaveradi-da», deb turaveribdi. «Bir metr chuqurni kavlab, xazinani ko‘mgan ham cho‘chqami» deyishsa, indamay kulib turganmish.

O‘sha — oting o‘chgur jinnixonada yotganimda jonimga yana Shodivoy ora kirdi. Katta professorni chaqirib, meni tekshirtirib ko‘rdi. Xayriyat, ruhiy kasal emas ekanman.

Uyga kelsam... Uyga kelsam, otam qazo qilganiga qirq kun bo‘lgan ekan. Shu gapni eshitdimu to‘satdan yiqilib tushdim. Hushimga kelib, oynaga qarasam, o‘ng yuzim oqib tushgan nondek cho‘zilib ketibdi. Bir ko‘zim katta, bittasi kichik... Sizning nevrologicheskiy bo‘limingizga qandoq qilib kelganim ham esimda yo‘q.

Rahmat, sizga do‘xtirjon! Yaxshi davoladingiz. Mana, ko‘zim ham joyiga kelib qoldi. Avval g‘o‘ldirab gapirardim. Shukur, tilim ham biyron... Faqat, bilasizmi, do‘xtirjon... Ba‘zan kechalari uyqum o‘chib ketadi. Otam nega o‘ldi? Nargis nega baxtsiz bo‘ldi? Begunoh bir qizaloq nega tug‘ilmasidan tavqi-la‘nat oldi? Bilasizmi... Ayniqsa, Shodivoyga achinaman...

Ikki hafta oldin Shodivoy meni ko‘rgani keldi. Qilichdek jo‘ram ninadek bo‘p qopti. Rangida rang yo‘q. Katta tergov boshlanganda rahbarlardan iltimos qipti. «Meni shu ishdan ozod qilinglar, o‘z otamni qandoq so‘roq qilaman?» debdi. To‘g‘ri-da! U yoqda onasi, bu yoqda opalari «o‘z otangdan ayb izlagandan ko‘ra o‘lganing yaxshimasmi?» deb tursa, bu yoqda qop-qop pullar topilib tursa... Boshliqlari jo‘ramning ahvolini to‘g‘ri tushunibdi. Ishni boshqa tergovchiga olib berishibdi. Shunda Rais yana bir nomardlik qipti. Shodivoyga aytibdi. «Yangi tergovchiga shipshib qo‘y, shu ishni bosti-bosti qilib yuborsa, men, Jovli, fermer, Shaydul, raykom, obkom vakili — hammamiz yig‘ilishib, nechta desa shuncha mashina, qancha desa shuncha pul topib beramiz» deпти. «Shundan qanchasini xohlasang, o‘zing olib qolishing mumkin», debdi.

Ishonasizmi, do‘xtirjon! Jo‘ram shu gapni ayta turib, yuragi yomon bo‘lib qoldi. Karovatinga yig‘ilib tushdi. Yaxshiyam hamshira bor ekan. Ukol qilib zo‘rg‘a o‘ziga keltirdi. Shodivoy hushi joyiga kelib, yig‘ladi. «Qo‘sho, do‘stim, dedi. O‘z otam menga pora bermoqchi bo‘lsa qandoq chidayman, nahot hammayoq shunchalik xarom-xarish bo‘pketgan bo‘lsa», dedi. Amallab yupatib jo‘natdim.

Shunaqa, do‘xtirjon, ayniqsa, jo‘ramga jabr bo‘ldi!

Charchadingiz-a, do‘xtirjon. Mayli, dam oling. Endi... Bitta iltimos bor. Hamshiralaringizga aytsangiz: tuzalib qoldim. Chap dumbamga nina sanchaverib, ilma-teshik qilib yubordi. Nima? O‘ng tomonga nina o‘tmaydi-da, do‘xtirjon! «Qalliq o‘yin»ga borib o‘ng tomondan ayrilganmiz. Qoq yarmisi Reksjonning og‘zida qolib ketgan. Qolganiyam — etikning tagcharmi! Ukol qilsa ninasi sinib qoladi. Xo‘p deng, boshqa ukol qilmasin, do‘xtirjon! Kecha Shodivoy yana kelib ketdi. Menga tezroq javob bering. Xo‘pmi? Shundoq qiling, do‘xtirjon! Ishni sog‘inib qoldim. Dalani, paxtazorni qo‘msayapman. Terlab-pishib ishlagim kelyapti. Bo‘ptimi, do‘xtirjon! Rahmat! Qo‘lni tashlang...

O'TKIR HOSHIMOV
«ADABIY-BADIY NASHR»
IKKB KARRA IKKI BESH

Q i s s a

Muharrir
SHOYIM BO'TAYEV

Badiiy muharrir
UYG'UN SOLIHOV

Texnik muharrir
YELENA TOLOCHKO

Musahhih
SHAHNOZA NABIXO'JAYEVA

Bosishga ruxsat etildi 19. 02. 2007. Bichimi 60×90^{1/16}. BalticaUz garniturası. Shartli b.t. 23,0. Nashr b.t. 00,0. Shartnoma № 000□2006. 0000 nusxada. Buyurtma № 000.

Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida bosildi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.